O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

IQTISODIY SIYOSATGA KIRISH

DARSLIK

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT-2024

UO‘K:
KBK:

Iqtisodiy siyosatga kirish. Darslik. / A.A.Xashimov, D.A. Abdiyeva, M.A. Norboyeva, M.A. Abdiyev – T.: «Sharq», 2024. 576 bet.

Darslikda davlat iqtisodiy siyosatining zarurligi, mazmuni, maqsadi, vazifalari va usullari, uni amalga oshirish tamoyillari hamda asosiy yo‘nalishlariga va mexanizmlariga oid mavzular yoritilgan. Unda davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishga qaratilgan siyosatning shakllari, vosita va usullarining qo‘llanishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etishni yanada chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan davlat iqtisodiy siyosatining amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash ishonarli dalillar asosida ko‘rsatib berilgan. Mazkur darslik iqtisodiyot yo‘nalishi va mutaxassisliklarida tahsil olayotgan talabalar, amaliyotchi mutaxassislar, mustaqil ilmiy izlanuvchilar va tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Ilmiy muharrir: **Eshov Mansur Po‘latovich** – i.f.d., professor.
Berkinov Bozorboy Berkinovich – TDIU “Institutsional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi” ilmiy rahbari i.f.d., professor, umumiy tahriri ostida.

Taqrizchilar: **Gafurov Ubaydulla Vahobovich** – TDIU “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor

Saidov Muhammad-Ali Hakimovich – TDAU agroiqtisodiyot kafedrasi professori, i.f.d.

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – TDIU “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.d.

Darslik Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 21-dekabrdagi 387-sonli buyrug‘i va TDIU o‘quv-uslubiy Kengashining 2023-yil 30-noyabr dagi 4-sonli yig‘ilish qaroriga asosan chop etishga ruxsat etilgan (ro‘yxatga olish raqami 387-08)

ISBN 978-9943-0000-0-0

© A.A. Xashimov, D.A. Abdiyeva, M.A. Norboyeva, M.A. Abdiyev, 2024
© Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024
© «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2024

Yangi O‘zbekiston iqtisodiy farovon davlat, keng iqtisodiy imkoniyatlar mamlakatidir. Bu – har bir fuqaro boy bo‘lsa – davlat boy bo‘ladi, har bir oila farovon bo‘lsa – mamlakat farovon bo‘ladi, demakdir.

Yangi O‘zbekistonni halol mehnat qilib, muvaffaqiyatga erishishni orzu qiladigan, tadbirkorlik orqali o‘z va oilasi farovonligini ta’minlashga intiladigan, Vatani va xalqiga sidqidildan xizmat qilishni istaydigan barcha fuqarolar uchun keng imkoniyatlar mamlakatiga aylantirishimiz shart va zarur.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

KIRISH

Aytishlaricha, qadimgi Xitoyda insonlar o‘z dushmanlariga qarata “Senga ajabtovur davrda yashashni tilayman”, deb yomon tilak bildirishgan ekan. Bu iboraning kelib chiqishi borasida olimlar turli fikr va qarashlarni ilgari sursalarda, uning mohiyatiga e’tibor qaratsak, mazkur ibora bizning hayotimizga mavhumlik qanchalik salbiy ta’sir ko‘rsatishini anglaymiz. Shubhasiz, “ajabtovur” vaqtlar – inqiroz, notinchlik va noaniqlik davri – tarixchilarning e’tiborini ko‘proq o‘ziga tortadi, iqtisodchilar ongi-shuuriga ozuqa beradi, siyosat borasida tezkor martabaga erishish va tez boyish uchun yangi imkoniyatlar taqdim qiladi. Biroq hamma ham o‘zining tinch, sokin va to‘kin hayotini yuqori xatarlarga to‘la bo‘lgan “AJABTOVUR” davrlarga almashishga rozi bo‘lavermaydi. O‘z-o‘zidan ayonki, bunday “ajabtovur” davrlar iqtisodiy o‘sish uchun noqulay hisoblanadi. Inqirozlar, urushlar jiddiy ofatlar bo‘lmagan paytlarda ham, noaniqlikning o‘sishi iqtisodiyot uchun katta xatarlarni yuzaga keltiradi. Iqtisodiyotda noaniqlik darajasini aniqlashtirishda Skott Beyker, Nikolas Blum va Stiven Devis tomonidan taklif etilgan Economic Policy Uncertainty (EPU)[1] - iqtisodiy siyosatning noaniqlik indeksi muhim o‘rin tutadi. Ushbu indeks iqtisodiy siyosatning noaniqlik darajasini o‘lchashga xizmat qiladi va AQShning eng yirik 10 ta nashrlarida iqtisodiy siyosatni muhokama qilish asnosida “iqtisodiyot” va “noaniqlik” so‘zlarining tez-tez takrorlanishi asosida hisoblanadi. Iqtisodiy tadqiqotlar makroiqtisodiy noaniqlikning iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bunday salbiy ta’sirlar uch yo‘nalishda, xususan investitsion faollikning pasayishi, jamg‘arishga bo‘lgan moyillikning o‘sishi, moliya bozorlarining faoliyatida uzilishlarning vujudga kelishida namoyon bo‘ladi. Odatda iqtisodiy inqirozlar davrida makroiqtisodiy noaniqlik keskin oshadi. Iqtisodiy noaniqlik kamdan-kam hollarda inqirozlarga sabab bo‘lsa-da, tilga olib o‘tilgan ta’sirlar inqiroz hodisalarini sezilarli darajada kuchaytirishi va barqarorlashtiruvchi makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish jarayonlarini jiddiy ravishda murakkablashtirishi mumkin.

[1] Baker, Scott R. and Bloom, Nicholas and Davis, Steven J., Measuring Economic Policy Uncertainty (January 1, 2013). Chicago Booth Research Paper No. 13-02, Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=2198490 or http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2198490

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida noaniqlik darajasi indeksi kun sayin oʻsib bormoqda. Bu oʻz navbatida COVID-19 pandemiyasidan keyin dunyo iqtisodiyotining tiklanishi qiyin kechayotganligi, jahonda geosiyosiy vaziyatning chigallashuvi, energetik inqirozning kun sayin kuchayishi, global inflyatsion jarayonlarning jadallashishi, ekologik xatarlarning ortishi kabi omillar bilan bogʻliqdir. Bugungi kunda Jahon banki dunyo mamlakatlarining markaziy banklarini inflyatsiyani jilovlash borasida oʻz xatti-harakatlarini muvofiqlashtirishga chaqirmoqda.

Rossiya-Ukraina mojarosi tufayli Yevropa, Osiyo, Afrika va Yaqin Sharq mintaqalarining oziq-ovqat mahsulotlari va energiya resurslarini import qiluvchi mamlakatlari katta aziyat chekadilar. Jahon bozorlarida xomashyo narxlarining oʻsishi neft, tabiiy gaz va metall eksport qiluvchi mamlakatlar uchun birmuncha qulay shart-sharoitlarni taqdim qilsa-da, mazkur mamlakatlar ham oʻsib borayotgan noaniqlikdan aziyat chekadilar, ularning yutuqlari dunyo iqtisodiyotining zaiflashishini qoplay olmaydi. Bir soʻz bilan aytganda, tahlilchilar dunyo iqtisodiyoti inqiroz ichidagi inqirozni boshidan kechirishi haqida ogohlantirmoqdalar.

Bir soʻz bilan aytganda, jahondagi geosiyosiy vaziyatning chigallashishi, turli pandemiyalar xavfining saqlanib qolayotganligi, logistika va yuk tashish xarajatlarining ortishi, oziq-ovqat mahsulotlari va energiya tashuvchilar narxining muttasil oʻsib borayotganligi, iqlim oʻzgarishlari bilan bogʻliq muammolarning yanada keng quloch yozishi, global inflyatsion bosimning kuchayishi kabi omillar va shart-sharoitlar iqtisodiy oʻsish muammosiga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi.

Dunyoda noaniqlik hukm surayotgan bir paytda dunyo hamjamiyati mamlakatlari barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish borasida oʻz dastur va rejalarini ishlab chiqib, hayotga izchil joriy qilishga intilmoqdalar. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari tajribasini oʻrganish asosida pandemiyadan keyingi davrda mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun quyidagi yoʻnalishlarda xatti-harakatlarni jamlashimiz lozim, degan xulosaga kelamiz:

- barcha xatti-harakatlarimizni bilimlar asosiga qurish. Bugungi kunda “**bilimlar iqtisodiyoti**”ga asoslangan milliy iqtisodiyotlar-

ning taraqqiyotning choʻqqisiga erishganligi hech kimga sir emas.

- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar pirovard natijada aholi farovonligiga, bir soʻz bilan aytganda **inson kapitali** sifatini yaxshilashga xizmat qilishi lozim;

- butun dunyo mamlakatlari uchun ekologik xatarlar, yerlarning choʻllanishi, tabiiy resurslar miqdorining keskin kamayib ketishi xavf solayotgan bir paytda "yashil iqtisodiyot" unsurlarini hayotga izchil joriy qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi;

- hech kimga sir emaski, hozirda dunyo tobora raqamlashib bormoqda, raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot kundalik hayotimizga yanada chuqur kirib keldi, shundan kelib chiqqan holda, aytishimiz mumkinki, istiqbolda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi raqamli iqtisodiyot unsurlarining qanchalik izchil joriy etilishiga bogʻliqdir;

- iqtisodiy taraqqiyotga erishish sanoatlashtirishsiz amalga oshishi mushkul ekanligini bugungi hayotning oʻzi koʻrsatib turibdi, shu bois taraqqiyotga erishishni istagan mamlakat sanoat ishlab chiqarishini jadal rivojlantirishga har tomonlama intilishi lozim;

- iqtisodiy taraqqiyotga erishishning yana bir muhim sharti jadal iqtisodiy integratsiya hisoblanadi. Bu borada keyingi yillarda mamlakatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan faol ochiqlik siyosatini olqishlash lozim.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning asosida albatta tarkibiy oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi. Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi hisoblanuvchi Taraqqiyot Strategiyasida yuqori texnologiyalarga asoslangan qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qoʻshimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga oʻtkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish zarurati alohida ta'kidlanadi. Bugungi kunda aholini ish bilan bandligini ta'minlash, bozorni arzon va sifatli mahsulotlar bilan toʻldirish, korxonalarga investitsiyalar-

ni kiritish, modernizatsiyalash jarayonini chuqurlashtirish, yuksak texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish oldimizdagi asosiy vazifalardan biridir. Korxonalarni erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari talabi darajasida barqaror rivojlantirish uchun sifatli moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, raqamli texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish, raqamli iqtisodiyot bo‘yicha davlatning siyosati, korxonalarining daromadlarini ko‘paytirish yo‘llarini asoslab berish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarishida innovatsiya, zamonaviy texnika va texnologiyalar, shu bilan bir qatorda, korxonalar mutaxassislarining iqtisodiy tayyorgarlik darajasiga keskin talablar qo‘yilmoqda. Ushbu talablarga javob berish uchun “Iqtisodiy siyosatga kirish” fani bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy siyosat borasida asosiy nazariy bilim va yondashuvlar, iqtisodiy rivojlanishga doir asosiy tushunchalar, iqtisodiy qonunlar va tamoyillar, iqtisodiy o‘sish modellari borasida atroflicha amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada har qanday iqtisodiy siyosatning pirovard maqsadi bo‘lgan iqtisodiy o‘sishning asosiy tushuncha va tamoyillarini ochib berishga xizmat qiluvchi “Iqtisodiy siyosatga kirish” fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy erkinliksiz boshqa erkinliklar to‘g‘risida gapirish mantiqsizlikdan boshqa narsa emas.

Margaret Tetcher

I BOB. IQTISODIYOT, BOZOR VA IQTISODIY SIYOSAT

1.1. Iqtisodiy siyosatga kirish kursining predmeti, maqsadi va vazifalari

1.2. Davlatning iqtisodiy funksiyalari to‘g‘risidagi nazariyalar

1.3. Iqtisodiy siyosatning zarurligi va shakllari

1.1. Iqtisodiy siyosatga kirish kursining predmeti, maqsadi va vazifalari

Iqtisodiyotning qonun-qoidalariga amal qilish iqtisodiy siyosat orqali yuz beradi, chunki bularni anglagan holda iqtisodiyot rivojiga oid chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va bular iqtisodiyotga ta’sir etmay qolmaydi.

Iqtisodiy siyosat – bu iqtisodiyot subyektlarining o‘z faoliyatiga oid yo‘l-yo‘riqlari va sa’y-harakatlarining majmuidir. Har bir iqtisodiyot ishtirokchisining, bu xonadonmi, firmami yoki davlatmi buning farqi yo‘q, o‘z manfaatlari bor. Bu manfaatlar amaliyotda aniq maqsad shakliga kiradi, iqtisodiy siyosat esa uni amalga oshirishga qaratiladi. Uy xo‘jaligining maqsadi o‘z iste’molini maksimumlashtirish va kelajakni ta’minlash uchun jamg‘arma hosil etishdir. Firmaning maqsadi esa foydani maksimumlashtirish va iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta’minlashdir. Davlatning maqsadi esa, milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini va shu asosda xalq farovonligini ta’minlashdan iborat.

Bozor xo‘jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo‘ladi. Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq

va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo‘llab-quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin.

Davlatning iqtisodiy siyosat to‘g‘risida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lishi uchun uning maqsadi, vazifalari va tartibga solish usullari hamda vosita yoki dastaklarini to‘laroq tavsiflash lozim.

Davlatning iqtisodiy siyosat asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, mavjud tuzumni mamlakat ichida va xalqaro maydonda mustahkamlash va uni o‘zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi. Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular jumlasiga iqtisodiy siklni barqarorlashtirish; milliy xo‘jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish, atrof-muhit holatini yaxshilash kabilarni kiritish mumkin. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi uning vazifalarida aniq namoyon bo‘ladi. Bozor xo‘jaligi sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari, asosan, bozor tizimining amal qilishini yengillashtirish va himoya qilish maqsadiga ega bo‘ladi. Bu sohadagi davlatning iqtisodiy vazifalaridan quyidagi ikki turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug‘diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta’minlash;

2) raqobatni himoya qilish.

Davlatning boshqa vazifalari iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. Bu yerda davlatning uchta vazifasi alohida ahamiyatga ega:

1) daromad va boylikni qayta taqsimlash;

2) resurslarni qayta taqsimlash;

3) iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya’ni iqtisodiy tebranishlarni vujudga keltiradigan inflyatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish.

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishining shart-sharoiti hisoblangan huquqiy asosni ta’minlash vazifalarini o‘z zimmasiga oladi. Bozor iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan huquqiy asosni ta’minlash quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo qiladi: xususiy korxonalarning huquqiy mavqeini mustahkamlash; xususiy mulkchilik huquqini ta’minlash va shartnomalarga amal qilishni kafolatlash; korxonalar, resurslarni yetkazib beruvchilar va

iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy bitimlarni ishlab chiqish va boshqalar.

Iqtisodiy siyosat uch darajada bo'ladi, ular: mikro, makro va meta (xalqaro) siyosatdir.

Davlatning iqtisodiy siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga taalluqli yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridan iboratdir. Davlatning siyosati har doim milliy bo'ladi, mamlakat rivojining ichki va tashqi sharoitini hisobga oladi. Siyosatda, eng avval, mamlakat iqtisodiyotining holati, xalqaro iqtisodiy kon'yunkturaning milliy iqtisodiyotga nechog'lik ta'sir etishi, unda kutilayotgan o'zgarishlar mamlakat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatning qandayligi, mamlakat iqtisodiyotining resurslar bilan ta'minlanish darajasidan kelib chiqadi, ilgari amalga oshirilgan chora-tadbirlar bergan natija ham hisobga olinadi. Davlat siyosati davlat rahbarlarining irodasi va qat'iyatligiga va yetilgan iqtisodiy muammolarni naqadar idrok etishlariga ham bog'liq bo'ladi.

Davlatning iqtisodiy siyosati milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ma'lum maqsadlarni ko'zlaydi. Bulardan asosiylari quyidagilar:

1. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Bu yalpi ichki mahsulotning bir maromda va yetarli sur'atlar bilan o'sishiga sharoit hozirlashni bildiradi, chunki YIM qanchalik tez o'ssa, mamlakat iqtisodiy qudrati shunchalik oshadi.

2. Milliy iqtisodiyotning mustaqilligini ta'minlash, uning chet elga qaram bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Iqtisodiyot qanchalik mustaqil bo'lsa, shunchalik milliy manfaatlarga ko'proq xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash. Bu iqtisodiy aylanmaning uzluksizligini, ya'ni takror ishlab chiqarishning to'xtovsiz davom etishini, iqtisodiy falajlikka yo'l qo'yilmasligini bildiradi.

4. Milliy pul qadr-qiymatining barqarorligini ta'minlash – mamlakatdagi pul muomalasining me'yorida borishiga erishish, pulni iqtisodiy aloqalarning muntazam ishlab turuvchi vositasiga aylantirish.

5. Aholi turmush farovonligini mustaqil oshirib, iqtisodiyotning ijtimoiyligini to'laroq yuzaga chiqarishga ko'maklashish.

6. Milliy iqtisodiyotni xalqaro integratsion jarayonlar va globalizatsiyada faol ishtirok etib, xalqaro iqtisodiyotda o‘z o‘rnini topishi, baynalminal iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga erishish.

7. Milliy iqtisodiyotning istiqbolini ta’minlash, ya’ni uni uzoq kelajakda o‘sib borishiga sharoit hozirlash. Bular iqtisodiy siyosatning strategik, ya’ni uzoq davrga mo‘ljallangan maqsadi hisoblanadi. Biroq uning qisqa vaqtdagi taktik, ya’ni juz’iy maqsadlari ham bor. Bular jumlasiga iqtisodiy tanglikdan chiqib ketish, narxlarning barqarorligini ta’minlash, investitsion faollikni rag‘batlantirish, eksport salohiyatini oshirish, novatsiyalarni ta’minlash, yangi tashqi bozorlarga kirib borish kabilar kiradi. Juz’iy maqsadlar strategik maqsadlardan kelib chiqadi va ularga xizmat qiladi.

Davlat siyosati belgilagan maqsadlarga quyidagi vositalar bilan erishadi: birinchisi, iqtisodiy vositalar bo‘lib, bular jumlasiga soliqlar, subsidiyalar, litsenziyalar, eksport kvotalari, uchyot stavkalari, davlat buyurtmalari, davlat investitsiyalari, transfertlar, turli iqtisodiy sanksiyalar (jazolash vositalari) kabilar kiradi. Ikkinchisi, yuridik vositalar. Bu iqtisodiy faoliyat tartibi va qoidalarini, uning davlat tomonidan rag‘batlantirilishini belgilab beruvchi qonunlarni, ularga mos ravishdagi qonun osti hujjatlarini ishlab chiqish, ularni qabul qilish va joriy etishdan iboratdir.

Qonunchilik iqtisodiyotning huquqiy asoslarini belgilab beradi, bular esa bozor iqtisodiyotining obyektiv iqtisodiy qonunlari talabidan kelib chiqishi zarur. Iqtisodiyotga oid yuridik qonunlarni parlament qabul qiladi. Hukumat esa ularning amalga oshirilishini ta’minlaydigan qarorlar va farmoyishlarni ishlab chiqadi. Tegishli davlat idoralari qonunlarning amalga oshirilishini nazoratga oladi. Uchinchisi, siyosiy-ma’muriy vositalar. Davlat hokimiyat sohibi bo‘lganidan o‘z siyosatiga rioya etilishini o‘z organlari kuchi bilan ta’minlaydi. Davlat oliy siyosiy institut hisoblanar ekan, uning qarorlari va buyruqlariga hamma itoat etishi kerak bo‘ladi. Ma’muriy usul yordamchi usul hisoblanadi, u bozor tizimida yaxshi natija bermaganidan cheklangan holda qo‘llaniladi.

1.2. Davlatning iqtisodiy funksiyalari to‘g‘risidagi nazariyalar

Milliy iqtisodiyotning samaradorligiga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, uning darajasi ko‘p jihatdan iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimining tutgan roliga bog‘liq. Chunki milliy iqtisodiyotning yuqori samaradorligiga asosan quyidagi yo‘llar orqali erishiladi: 1) iqtisodiyotni tartibga solishning bozor usullarini qo‘llash; 2) iqtisodiyotni faqat davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarish; 3) takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg‘unlashtirish. Hozirgi davrda O‘zbekistonning milliy iqtisodiyoti rivoji uchun ko‘proq uchinchi yo‘l xususiyatli hisoblanadi. Davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasi ilmiy asosda birinchi marta A.Smit tomonidan ko‘rib chiqilgan. Uning “Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida” (1776) nomli asarida iqtisodiyotning bozor usullari orqali o‘z-o‘zini tartibga solishining zarurligi ta’kidlab o‘tilgan[2]. A.Smitning fikricha, xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to‘liq ozod bo‘lishi zarur. Ana shundagina iste’molchilar talabiga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil qilish imkoni mavjud bo‘ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashuvsiz, ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlari uchun harakat qilishga majbur qiladi. A.Smit davlatning iqtisodiy jarayonlarga har qanday aralashuvi oxir-oqibatda faqat vaziyatni yomonlashtiradi deb hisoblaydi. Masalan, davlat tomonidan belgilangan tashqi savdo tartib-qoidalari milliy iste’molchilarga faqat zarar keltirishi mumkin. Haqiqatdan ham importga boj to‘lovi milliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berib, ularning chet el sheriklariga nisbatan raqobatlashuv qobiliyatini oshiradi. Ammo bu oxir-oqibatda ishlab chiqarishning ancha yuqori xarajatlari va past sifatining saqlanib qolishiga olib keladi. Bundan past sifatli va narxi qimmat tovarlarni sotib olishga majbur bo‘lgan milliy iste’molchilar zarar ko‘radilar. A.Smitning “Tinch qo‘yish” nazariyasi 1929-1933–yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashu-

[2] Iqtisodiy ta’limotlar tarixl; Darslik / Sh.H.Tashmatov, X.S.Asatullayev, Z.G.Allaberganov; -T .: “Iqtisod-Moliya”, 2019. - 352 b.

vini kuchaytirishni taqozo qildi. Davlatning iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasi J.M.Keynsning "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" (1936) nomli asarida oʻz aksini topdi. Unda muallif davlat fiskal (xazina) va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini ragʻbatlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarurligini isbotlaydi[3].

Monetarizm M.Fridmen XX asrning 2-yarmidan – hozirgi vaqtga qadar iqtisodiyotni barqarorlashtirishda pul omillari muhim rol oʻynaydi tugatish va sanoat siklining oʻzgarishini bartaraf etish haqida ketadi. Keyns nazariyasi ancha tugal shaklda AQShda amalga oshirildi. Urushdan keyingi davrda Keyns nazariyasidagi koʻrsatmalar u yoki bu darajada bozor iqtisodiyoti amalda ustun boʻlgan barcha mamlakatlarda foydalanildi. Shu bilan birga davlatni iqtisodiyotdagi rolining yanada koʻproq oshib borishi roʻy berdi. Hozirgi davrda davlat tomonidan tartibga solishning muhim maqsadi sifatida nafaqat siklga qarshi tartibga solish va ish bilan bandlikni ta'minlash, balki iqtisodiy oʻsishning yuqori darajasini va yaxlit takror ishlab chiqarish jarayonini maqbullashtirishni ragʻbatlantirish tan olinadi. Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizimdan bozor iqtisodiyotiga oʻtish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi quyidagi holatlar orqali izohlanadi. Birinchidan, davlat milliy iqtisodiyotda oʻz-oʻzini bozor vositasida tartibga solish orqali bajarish mumkin boʻlmagan yoki samarali ravishda amalga oshirib boʻlmaydigan vazifalarni oʻziga oladi. Bular qatoriga mudofaani ta'minlash, mamlakatda ichki tartibni saqlash va aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalash kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste'molning xususiy tavsifi bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarni tugʻdiradi. Bu oqibatlar bevosita uchinchi tomon manfaatida aks etib, kishilarning alohida guruhi va umuman jamiyat manfaatiga ta'sir qiladi. Masalan, chiqitli texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlarda tozalash qurilmalariga xarajatlarni tejash xususiy ishlab chiqaruvchilar nuqtai nazaridan (u yoki bu kompaniya yoki individual ishlab chiqaruvchi uchun) foydali, atrof-muhitning ifloslanishiga olib kelishi esa jamiyatning boshqa a'zolari

[3] Iqtisodiy ta'limotlar tarixl; Darslik / Sh.H.Tashmatov, X.S.Asatullayev, Z.G.Allaberganov; -T .: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 352 b.

uchun qoʻshimcha salbiy oqibatga ega. Davlat yakka tadbirkor yoki iste'molchidan farqli jamiyat manfaatini ifodalab, qoʻshimcha ijobiy samarani ragʻbatlantirishga va aksincha, salbiy samara bilan bogʻliq faoliyatni tartibga solish va cheklashga harakat qilishi zarur. Uchinchidan, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi shu sababli roʻy beradiki, individual iste'molchilar hamma vaqt u yoki bu tovarni iste'mol qilishning oqibatlarini obyektiv baholay olmaydilar. Shu nuqtai nazardan, davlat foydali iste'molni kengaytirish va aksincha, sogʻliqqa salbiy ta'sir koʻrsatuvchi tovarlar iste'molini cheklash vazifasini oʻz zimmasiga oladi. Masalan, davlat tamaki mahsulotlari uchun yuqori aksiz (egri) soligʻini oʻrnatib, bir tomondan oʻzining daromadini oshirsa, boshqa tomondan shu mahsulotga boʻlgan talabni cheklaydi. Toʻrtinchidan, davlat bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman yengillashtirish vazifasini oʻz zimmasiga oladi. Bozor hamma uchun toʻlovga qobil talabni qondirishga teng imkoniyatni ta'minlaydi. Ammo bu bozor mexanizmining milliy boylikni ijtimoiy-adolatli taqsimlashini anglatmaydi. Bunday sharoitda davlat aholi kam ta'minlangan qatlamining turmush darajasi haqida gʻamxoʻrlik qilish, bepul (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat koʻrsatish va shu kabilarni oʻz zimmasiga oladi. Beshinchidan, hozirgi sharoitda barqaror, izchil iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish vazifasi ham davlatning zimmasiga tushadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ma'lum chegaralari ham mavjud boʻlib, ular davlatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siridan kelib chiqadi. Iqtisodiyotga davlatning har qanday aralashuvi ma'lum xarajatlarni taqozo etadi. Ularga, eng avvalo, tartibga solishni tashkil etish va amalga oshirish boʻyicha xarajatlarni kiritish mumkin. Shuningdek, tartibga solishning u yoki bu shakli bozor muvozanati, ishlab chiqarish hajmi, resurslarning qayta taqsimlanishiga koʻrsatishi mumkin boʻlgan ta'sirni ham hisobga olish lozim. Bunda tartibga solishni amalga oshirish bilan bogʻliq boʻlgan sarf-xarajatlarning miqdori davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi natijasida olinadigan samaradan kam boʻlishi lozim. Ularning nisbati davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chegaralarini belgilab beradi. 90-yillardan boshlab iqtisodiyotni tartibga solishda keynscha tendensiyalar yangidan kuchaya

boshladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tipi davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi munosabatlarni roʻyobga chiqarish, davlat tomonidan tartibga solishning moslashuvchanligini oshirish, toʻgʻridan-toʻgʻri aralashuv shakllari va byurokratik nazoratning kamayishi bilan tavsiflanadi.

Davlatning klassik iqtisodiy funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
- mulk va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish;
- pul muomalasini tartibga solish;
- daromadlarni qayta taqsimlash;
- ish beruvchi va xodimlar oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga solish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;
- ijtimoiy ne'matlar yaratish (ishlab chiqarish) (alohida ajratilmaydi, hamma uchun, raqobatga ega emas, bir kishi foydalanishi ikkinchi kishining foydalanish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, boʻlinmaydi).

Davlat jamiyatning muhim institutsional tashkiloti hisoblanadi. Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasida "Davlat – mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari boʻlgan hukmron tuzilma. Davlat jamiyatni oʻz qonun-qoidalariga koʻra idora qiladi, turli tip, shakllarda tashkil topadi". Davlatning umume'tirof etilgan belgilari quyidagilardan iborat:

- davlat oʻz chegaralari doirasida fuqarolik belgisi boʻyicha birlashgan butun jamiyat, aholisining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;
- davlat suveren hokimiyatning yagona egasidir;
- davlat yuridik kuchga ega boʻlgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqarilgan hujjatlarni qabul qiladi;
- davlat oʻz funksiyalarini bajarish uchun zarur davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat mexanizm (mahkama)ga, huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlari – sud,

prokuratura, militsiya, politsiya kabilarga, oʻz mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini va xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega boʻladi.

Zamonaviy institutsionalizm nazariyasi davlatga iqtisodiy nuqtai nazardan ta'rif beradi. Institutsional yondashuvga muvofiq uning asosiy mohiyatini "transaksiya xarajatlari" kategoriyasidan foydalangan holda ochib beriladi. D.Nortning ta'riflashicha, davlat – zoʻrlikni amalga oshirishda qiyosiy ustunliklarga ega boʻlgan, chegaralari uning fuqarolarga soliq solish qobiliyati bilan belgilangan jugʻrofiy hududni qamrab oluvchi tashkilot[4].

Davlat kategoriyasiga institutsional yondashuvlarni tahlil qilish asosida V.L.Tombovsev "davlat nazariy jihatdan eng samarali majbur qilish organi hisoblanib, bunda uning samaradorligi uning legitimligiga, ya'ni "soliq solinadigan fuqarolar tomonidan" davlatda kuch ishlatish huquqi mavjudligining tan olinishiga bevosita bogʻliq. Chunki agar jamoat fikriga mos keladigan bunday tan olish mavjud boʻlsa, u holda davlat oʻz funksiyalari va maqsadlarini amalga oshirish uchun cheklangan resurslardan oqilona foydalanuvchi tashkilot sifatida oʻz imkoniyatlarini aholining ushbu funksiyalar va maqsadlar bajarilishiga qarshiligini yengish uchun sarflamasligi mumkin, – deb ta'rif beradi.

Adam Smit XVIII asrning ikkinchi yarmidayoq davlatning asosiy majburiyatlari doirasini belgilab berdi:

- birinchidan, jamiyatni kuch ishlatish va boshqa mustaqil jamiyatlarning bostirib kelishidan himoyalash;

- ikkinchidan, imkon qadar jamiyatning har bir a'zosini adolatsizlikdan va uning boshqa a'zolari tomonidan jabrlashdan himoyalash yoki yaxshi adolat hukmini oʻrnatish;

- uchinchidan, ularni barpo etish va saqlab turish alohida shaxslar yoki kichik guruhlar manfaatlari yoʻlida amalga oshirilmaydigan muayyan ijtimoiy inshootlar va ijtimoiy muassasalarni barpo etish va saqlab turish, chunki ulardan keladigan foyda hech qachon alohida shaxslar yoki kichik guruhlarga xarajatlarni toʻlay olmaydi, lekin koʻpincha xarajatlarni katta jamiyatga ortiqcha toʻlashi mumkin.

J.Byukenen oʻz asarlarida davlatning jamiyatdagi rolining ikki to-

[4] Iqtisodiy ta'limotlar tarixi: oʻquv qoʻllanma/ Sh.Tashmatov, N. Xasanxonova: T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2020. -488 b.

monlamaligiga alohida e'tibor qaratadi, ya'ni uning nazarida davlat ham himoya qiluvchi, ham ishlab chiqaruvchi vositadir[5]. Himoya qiluvchi yoki huquqiy davlat konstitutsion bosqichda kelishuvchi tomonlarga nisbatan konseptual tashqi va huquqlarni hamda bunday huquqlarni ixtiyoriy ravishda almashish bo'yicha shartnomalarni ta'minlash uchun yagona javobgarlikka ega bo'lgan huquqlarni ta'minlash instituti yoki organi sifatida paydo bo'ladi. Davlat ishlab chiqaruvchi vosita sifatida bozor mexanizmi ishlab chiqarishni ta'minlay olmaydigan jamoat ne'matlarini o'zi ishlab chiqarishni tashkil etadi. Yangi institutsionalistlarning hozirgi talqinida davlatning eng umumiy funktsiyalari quyidagilardan iborat:

- mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish;
- axborot bilan almashish tarmoqlarini, ya'ni rivojlangan axborot infratuzilmasi barpo etish;
- o'lchash va tortish standartlarini ishlab chiqish. Ular jumlasiga almashinadigan tovarlar va xizmatlar miqdori va sifatini o'lchash standartlarini, shuningdek, davlat tomonidan pul muomalasining tashkil etilishi ham kiradi;
- tovarlar va xizmatlar bilan jismoniy almashish tarmoqlari va mexanizmlarini, ya'ni bozor infratuzilmasini barpo etish;
- huquqni muhofaza qilish faoliyati va nizolarda "uchinchi" tomon rolini bajarish;
- sof ijtimoiy farovonlikni yaratish (birinchi navbatda mudofaa, keyin sog'liqni saqlash va ta'lim singari ijtimoiy farovonlikni yaratish).

Davlatning iqtisodiy sohada ishtirok etishi, iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi, iqtisodiyotni tartibga solishi nuqtai nazaridan asosiy majburiyat va vazifalari, iqtsodiyot sohasidagi siyosatining mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlari to'g'risidagi masalalar iqtisodiy fanlar diqqat markazida turadigan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish bo'yicha siyosatiga taalluqli bo'lgan ko'plab savollarga javob qidirish bilan turli ilmiy maktablar va yo'nalishlar iqtisodchilarining aksariyati band. Iqtisodchilarning davlatning iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishga qaratil-

[5] Iqtisodiy ta'limotlar tarixi: o'quv qo'llanma/ Sh.Tashmatov, N. Xasanxonova: T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2020. – 488 b.

gan iqtisodiy siyosati boʻyicha ishlab chiqqan ilmiy-nazariy kontsepsiyalari, nazariyalari hamda ularga asoslangan iqtisodiy siyosatning turli modellarining amaliyotda qoʻllanishi tajribalarining umumlashtirilishi negizida “Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari” fani shakllanib, koʻplab mamlakatlarning, shu jumladan, Oʻzbekiston Respublikasining oliy oʻquv yurtlarida iqtisodiyot ta’lim yoʻnalishlari boʻyicha oʻquv kurslari sifatida boʻlgʻusi iqtisodchilarga oʻqitilmoqda.

Iqtisodiy siyosatning usullarining nazariy asoslarini iqtisodiyot nazariyasi fani yaratadi. Iqtisodiyot nazariyasi jamiyatda amal qiluvchi obyektiv iqtisodiy qonunlarni ochib beradi hamda xoʻjalik yuritishning prinsiplarini va mexanizmini, davlatning iqtisodiyotga aralashuvining maqsadlarini, sohalari va vosita hamda usullarini, ya’ni davlatning iqtisodiy siyosatini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shundan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosati – davlatning iqtisodiyotni rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etish maqsadida bozor iqtisodiyotining amal qilishi uchun qulay sharoitlarni yaratishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlari yigʻindisidir.

Iqtisodiy siyosatning tadqiqot obyekti boʻlib iqtisodiy subyektlarning oʻzaro hamkorlikda samarali va barqaror faoliyat yuritishlari. Shuningdek, iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir koʻrsatuvchi omillarni bartaraf etish yoki ularning ta’sirini kamaytirish uchun qulay huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy shart-sharoitlar yaratishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar hamda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish jarayonlari hisoblanadi.

Iqtisodiy siyosatga kirish oʻquv kursining predmetini davlatning jamiyat manfaatlarini koʻzlab, iqtisodiyotga aralashuvi va uni tartibga solishi jarayonlari va bunda davlat bilan iqtisodiyot subyektlari oʻrtasida yuzaga keladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yigʻindisi tashkil etadi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan siyosatini hukumatning iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash borasidagi qarorlari va xatti-harakatlarida namoyon boʻladi.

Davlatning iqtisodiy siyosatini qoʻllash sohalari quyidagilardan iborat:

1) iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy normalar sohasidagi siyosat. Bunda iqtisodiy hayotdagi davlat va xo‘jalik subyektlari xatti-harakati normalari bo‘yicha uzoq muddatli ijtimoiy kelishuv to‘g‘risida so‘z boradi.

2) iqtisodiy tartib o‘rnatish siyosati, ya’ni xususiy shaxslar, firmalar, institutlar faoliyati, raqobatni himoya qilish, iqtisodiyotni tartibga solish va savdoni rivojlantirishning mumkin bo‘lgan miqyoslarini belgilovchi tartib-qoidalarni o‘rnatishga qaratilgan siyosat;

3) integratsion va tashqi siyosat – bu hududlararo bozorlarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir;

4) xo‘jalik jarayonlariga ta’sir ko‘rsatish siyosati – bu jami talab va jami taklifga ta’sir etish, ular o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, pul va fiskal siyosatlarni amalga oshirishdir.

5) iqtisodiy o‘sish siyosati va tarkibiy siyosat iqtisodiy o‘sishga to‘siqlarni bartaraf etishga va ishlab chiqarish salohiyatining rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir;

6) atrof-muhitni muhofaza qilish siyosati.

Demak, davlatning iqtisodiy siyosati davlatning iqtisodiyotga aralashishi, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning shakl va usul, vositalari, dastaklarini o‘z ichiga oladi. Davlat mavjud bo‘lgan barcha tarixiy davrlarda iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishga qaratilgan siyosat davr talablariga mos ravishda ma’lum miqyoslarda, shakl va uslublarda amalga oshirilib kelingan. Lekin to 1929-1933–yillardagi krizisgacha bo‘lgan davrlarda davlatning iqtisodiyotga aralashishi nomuayyan va cheklangan bo‘lib, iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish va tartibga solish tor doira va miqyoslarda, ko‘lamlarda vaziyat taqozosiga ko‘ra epizodik ko‘rinishda kam sonli vosita va usullar yordamida amalga oshirilib kelingan. Faqat XX asrning 30-40-yillaridan boshlab, davlatning iqtisodiy siyosati bozor iqtisodiyotiga davlatning muntazam ravishda aralashib, uni tartibga solishga qaratilgan mexanizmni bozorning o‘zini o‘z tartiblash mexanizmi bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirila boshlandi. Uning mazmunini ochib berish uchun bozor iqtisodiyotiga davlatning aralashishi va tartibga solishi zarurligi, uning obyekti va predmeti, shakl va usullarini tahlil qilish lozim bo‘ladi.

1.3. Iqtisodiy siyosatning zarurligi va shakllari

Bozor iqtisodiyotiga oʻtayotgan va rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni tartibga solishning ikki mexanizmi yuzaga keldi: davlat va bozor mexanizmlari. Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining erkinliklari, ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorliklari raqobatga undovchi asosiy kuch boʻlib hisoblanadi.

Ma'lumki, bozorning muhim unsuri bu narx va uning darajasi boʻlib, bu ishlab chiqaruvchi uchun ham, tadbirkor uchun ham va xaridor uchun ham muhim koʻrsatkich hisoblanadi. Bozor tizimi ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarni qaror qabul qilishlarida egiluvchanlik va moslashuvchanlik jihatlarini yuqori ekanligi bilan tavsiflanadi. Bozor ishlab chiqaruvchi va iste'molchi oʻrtasidagi aloqalarni bogʻlaydi. Tarmoqlar oʻrtasida resurslarni samarali taqsimlanishida, talab va taklif mutanosibligini ta'minlashda bozor mexanizmi qulaydir.

Jamiyat iqtisodiyotining rivojlanishida, ijtimoiy mehnat taqsimotida, davlatlararo aloqalarning kengayishida, iqtisodiyotning tarkibiy qismlari oʻrtasidagi aloqalarni tartibga solish kabi iqtisodiy jarayonlarda bozor mexanizmining tartibga solish imkoniyatlari chegaralanganligi namoyon boʻladi. Bunga iqtisodiyotda yuzaga kelib turadigan iqtisodiy inqirozlarni misol keltirish mumkin. Bozor mexanizmi bajara olmaydigan va tartibga sola olmaydigan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining vazifalari mavjud. Sanoat rivojlanishda erkin raqobat asosida ishlab chiqarish kuchlari nafaqat yakka tartibdagi xususiy mulk doirasida oʻsmoqda, balki jamoa (hissadorlik) va boshqa mulkchilik shakllarining oʻrni ham oshib bormoqda. Biroq davlat iqtisodiyotning yirik tarmoqlarini oʻz zimmasiga olishga, ularni rivojlantirishga va tartibga solishga majbur boʻlmoqda. Masalan, temir yoʻl, telegraf, pochta, mudofaa va hokazo. Bozor mexanizmi bajara olmaydigan ijtimoiy vazifalar ham mavjud. Bundan tashqari, bozor munosabatlari asosidagi ba'zi faoliyat natijalariga davlatning aralashuviga ehtiyoj tugʻiladi.

Davlat iqtisodiyotni tartiblashning bozor mexanizmi toʻliq bajara olmagan vazifalarni oʻz zimmasiga oladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashining asosiy maqsadi iqtisodiy muvozanatga erishish asosida tushkunlik va tanglikning oldini olish, ijtimoiy ish-

lab chiqarishning barqaror oʻsishini ta’minlash, milliy iqtisodiyot ravnaqi uchun imkoniyatlar yaratish, shuningdek, aholi turli tabaqalari oʻrtasida ijtimoiy muvozanatga erishishdan iboratdir.

Iqtisodiy subyektlar oʻzaro raqobatda boʻlgani va oʻzlarining shaxsiy yoki jamoaviy manfaatlari yuzasidan faoliyat koʻrsatgani uchun ularning xudbinlik manfaatlari umumdavlat, jamiyat manfaatlariga zid kelib qolishi ham mumkin. Shuning uchun davlat iqtisodiyot subyektlari manfaatlari va faoliyatlari jamiyat, davlat manfaatlariga zid kelib qolmasligi, unga ziyon yetkazmasligini nazorat qiladi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun davlat iqtisodiy subyektlarning makroiqtisodiyot miqyosidagi aloqa va bogʻlanishlarini tartibga soladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda bozor mexanizmining samarali ishlashi uchun sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun davlat raqobatni ragʻbatlantirish orqali bozor tizimini saqlashni oʻz zimmasiga oladi. Chunki erkin tadbirkorlik tizimi va uni boshqaruvchi talab va taklif qonunlarining amal qilishi raqobatga bogʻliq boʻladi. Raqobatchilik muhitini ragʻbatlantirish va himoya qilishning davlat mexanizmi quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy subyektlarning faoliyat yuritish qoidalarini belgilash;
- aholini bozor sharoitlari, iqtisodiyotning holati toʻgʻrisidagi axborotlardan xabardor qilish;
- iqtisodiyot subyektlari oʻrtasidagi munozara, bahs, ziddiyatlarni hal qilishda koʻmaklashish.

Bozor mexanizmi faqat xususiy tadbirkorlar uchun foyda kelishini ta’minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni ragʻbatlantiradi. Ammo jamiyat taraqqiyoti uchun zarur boʻlgan, aholining koʻpchiligi foydalanadigan ijtimoiy tovar va xizmatlar xususiy tadbirkorlik doirasida ishlab chiqarilishi mumkin emas. Bunday ijtimoiy tovarlar va xizmatlarga: maktablar, yoʻllar, yongʻindan himoyalash, milliy mudofaa kabilar kiradi. Binobarin, ularni ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni davlatning oʻzi tashkil qilishi, tartibga solishi zarur boʻladi.

Iqtisodiyotni tartiblashning davlat mexanizimini taqozo etuvchi sabablardan biri bozor tizimidan tashqarida sodir boʻluvchi inson

faoliyati va tabiatning zararli oqibatlaridan (inson salomatligiga, tabiatga ziyon yetkazuvchi omillar) aholini himoya qilish zaruratidir. Bozor tizimida bunday zararlar uchun javobgar shaxslardan tovon to‘lashga majbur qiluvchi mexanizmlar mavjud emas. Shuning uchun davlat tomonidan iqtisodiyotni tartiblash mexanizmida aholini zararli oqibatlardan himoyalash chora-tadbirlari ham muhim ahamiyatga ega. Zero, zararli oqibatlar nafaqat inson hayotiga balki iqtisodiyotga ham salbiy ta’sir qiladi. Shunga binoan ulardan aholini himoyalash chora-tadbirlari oqibatida aholi salomatligi yaxshilanadi, ularning mehnat qobiliyati ham oshadi. Bu esa o‘z-o‘zidan aholi mehnat faoliyatining o‘sishiga, iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi.

Aholini qo‘shimcha zararli oqibatlardan himoyalash davlat mexanizmi o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: ishontirish, soliq solish, subsidiyalash, tartibga solish. Bunday ishontirish usullari, vositalari kishilarni, iqtisodiyot subyektlarini jamiyatga, boshqa kishilarga ziyon keltiradigan xatti-harakatlar qilmaslikka chaqirishga qaratilgan bo‘ladi.

Soliq solish zararli qo‘shimcha oqibatlarni cheklash maqsadida qo‘llaniladi. Turli soliq miqdorlarini belgilash orqali hukumat firmalar faoliyatidan kelib chiqadigan zararli qo‘shimcha oqibatlarni cheklashga majbur qiladi. Bunday oqibatlardan holi bo‘lgan firmalarga davlat subsidiyalar berish orqali ularning faoliyatini rag‘batlantiradi. Xavfsizlik me’yorlarini belgilash yoki man qiluvchi qonunlar chiqarish yo‘li bilan davlat tartiblash ishlarini amalga oshiradi.

Davlatning iqtisodiyotni tartiblash mexanizmida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida aholining iqtisodiy jihatdan nochor yashayotgan guruhlarini ijtimoiy himoyalash muhim o‘rin tutadi. Aholining yordamga muhtoj qismini ijtimoiy himoyalash, jamiyat uchun xalq xo‘jaligi tarmoqlari, shu jumladan, qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida daromadlar davlat tomonidan qayta taqsimlanadi. Davlat tomonidan daromadlarning qayta taqsimlanishi iqtisodiyotni tartiblash mexanizmining muhim unsuri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmida makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlari ham muhim

oʻrin tutadi. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlik faolligi oʻzgarib turadi, iqtisodiy oʻsish uning pasayishi bilan almashinib turadi. Oqibatda firmalarning sinishi va ishsizlarning koʻpayishi ortadi, aholi turmush darajasi pasayadi, ular koʻp qiyinchilikni boshdan kechiradilar. Davlatning iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mexanizmi yordamida iqtisodiy oʻsish tsiklidan tanglikka, pasayishga oʻtishdagi salbiy oqibatlarni cheklab, tanglikdan iqtisodiy oʻsish sari oʻtish imkoniyatlari vujudga keltiriladi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solish uchun bir qancha shakl va vositalardan foydalanadi. Bunda davlatning oʻz faoliyatini qaysi obyektga qaratishi muhim hisoblanadi. *Tartibga solish obyektlari* – bu bozor mexanizmi, ularning normal kechishini qoniqarsiz yoxud butunlay ta’minlay olmaydigan ijtimoiy takror ishlab chiqarish sohasidagi muayyan shart-sharoit, jarayon, munosabatlardir. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Iqtisodiy sikl, pul muomalasi, ijtimoiy bandlik, investitsiyalar, ilmiy-tadqiqotlar, narxlar kabi umumxoʻjalik jarayonlari.

2. Harbiy mudofaa, qishloq xoʻjaligi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, bank sohasi kabi yirik iqtisodiy sohalarni rivojlantirish.

3. Mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga molik ayrim yirik korporatsiyalar.

Iqtisodiyotni tartibga solish shakllari deganda, budjet-soliq, pul-kredit, ma’muriy boshqaruvchilik faoliyati e’tiborga olinadi.

Budjet-soliq siyosati davlat budjetini ishlab chiqish, tasdiqlash, bajarish bilan bogʻliq jarayonlarni tartibga solish uchun zarur. Pul-kredit tartiboti milliy valyuta barqarorligini ta’minlash, inflyatsiya bilan kurashish boʻyicha davlat organlari amalga oshiradigan tadbirlarni oʻz ichiga oladi. Bozor iqtisodiyotini ma’muriy jihatdan tartibga solish ma’muriy ravishda monopolistlarni kartellashtirish, mayda korxonalarga ajratish, litsenziyalash, kvotalash kabi chora-tadbirlardan iborat.

Iqtisodiyotni tartibga solish vositalari orqali mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sir koʻrsatiladi. Buning uchun davlat organlari quyidagi vositalardan foydalanishi mumkin:

- cheklangan ishlab chiqarish resurslarini tartibga solish;

- iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartiblash;
- iqtisodiy tizimga monetar uslublar vositasida ta'sir o'tkazish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositalarining har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ma'lum vaziyatlarda alohida qo'llanishi mumkin. O'tish davri iqtisodiyotini tartibga solish jarayonida davlat organlari obyektiv shart-sharoitlarga ko'ra barcha ta'sir vositalaridan birgalikda foydalanishga majburdirlar.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining tuzilmasida turli xil yo'nalishli kesimlarni, jumladan, funksional, ijtimoiy hududiy tuzilmalarni ko'rsatish mumkin.

Funksional tuzilma – yalpi ichki mahsulotni turli xil ehtiyojlar uchun (xususiy yoki davlat iste'moli, yalpi jamg'arish, sof eksport) taqsimlanishini tavsiflaydi. Ushbu jarayon ishlab chiqarish omillari (mehnat, kapital, yer, ilmiy-texnik taraqqiyot) kesimida mahsulot qiymatining shakllanishini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Ijtimoiy tuzilma – ijtimoiy ishlab chiqarishning ijtimoiy sektorlarga taqsimlanishini ifodalaydi:

- xususiy sektor (xususiy korporativ sektorni ham o'z ichiga oladi);
- korporativ davlat-xususiy sektori (aralash sektor);
- davlat sektori (unitar va davlatga qarashli korxonalar);
- uy xo'jaliklari sektori.

Iqtisodiyotning sohaviy, ya'ni tarmoq tuzilmasi – ayrim tarmoqlarning YIMni ishlab chiqarishga qo'shgan hissasi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiyotning hududiy tuzilmasi turli xil hududiy tuzilmalarning YIMni ishlab chiqarishdagi ishtirokini ta'riflaydi.

Davlat iqtisodiy islohotlar davrida milliy iqtisodiyotga ta'sir etishning yangi usul va vositalarini qo'llashga harakat qiladi. O'tish davrida iqtisodiyotning erkin rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratish davlatning muhim ustuvor vazifalari hisoblanadi. Buning uchun erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi.

Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishning bosh yo'li ham erkin iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi bilan bog'liqdir. Erkin iqtisodiyot tamoyillari mazmunan quyidagilar bilan belgilanadi:

- xususiy mulkning iqtisodiyotdagi yetakchi o'rni;
- tadbirkorlik va tanlash erkinligi;

• sog‘lom raqobatchilik muhitining mavjudligi;
• bozor turlarining erkin tashkil topishi va rivojlanib borishi;
• iqtisodiy aloqalarning foyda va daromad topish manfaatlari zaminida tashkil topishi;
• narxlarning bozorda erkin shakllanishi;
• davlatning iqtisodiyotga aralashuvi cheklanganligi.

Bu tamoyillarning amal qilishi faqat huquqiy qonunlar doirasida o‘z ifodasini topishi kerak. Eng muhimi, bozor qonunlari, iqtisodiy faoliyat va tanlash erkinliklarining amal qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratishi hamda iqtisodiyotni tartiblashning bozor va davlat mexanizmlarining uyg‘unligini ta’minlashi zarur. Buning uchun eskidan qolgan iqtisodiy qarashlar va ish olib borish qoidalarining yangi iqtisodiyot tamoyillariga qanday yo‘sinda ta’sir etayotganligiga alohida e’tibor berish zarur bo‘ladi. Ushbu o‘rinda “erkin iqtisodiyot” tushunchasi nimani anglatishiga ham alohida e’tiborni qaratish lozim.

Erkin iqtisodiyot bu – turli mulk shakllari va tadbirkorlik faoliyatining mavjudligi hamda ularning erkin harakati orqali iqtisodiyot subyektlarining foyda olishga intilishlarini yuzaga chiqaruvchi iqtisodiy munosabatlar majmuidir. Erkin iqtisodiyot tadbirkorlik va tanlash erkinligini ta’minlar ekan, bu holat foyda olish, naf ko‘rish, manfaatni qondirish kabilarning mavjudligi bilan izohlanadi. Erkin iqtisodiyot quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi:

1. Tadbirkorlar qatlami iqtisodiyotning asosiy subyekti bo‘lib, ular o‘z daromadlarini maksimallashtirishga intiluvchilardan tashkil topadi.
2. Firmalar qattiq raqobat sharoitida faoliyat yuritadilar.
3. Moliyaviy intizomga qattiq rioya etiladi.
4. Resurslar bozori erkin bo‘ladi.
5. Xo‘jalik hayotining huquqiy ta’minoti kuchli bo‘ladi.
6. Iste’molchilar talabi bozorga kuchli ta’sir etadi.
7. Tovar va resurslar bahosi, foiz stavkasi, valyuta kursi bozorga qarab o‘zgaruvchan bo‘ladi.
8. Jamg‘armalarning asosiy qismi banklar va moliya bozorida harakatlanadi.
9. Davlat sektori ochiq va tijoratlashgan bo‘ladi.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vazifalarining nechog‘lik samarali ekanligi va erkin iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi bozor munosabatlarining rivojlanishini, iqtisodiy munosabatlar bozor qonunlari asosida tashkil topishini ta’minlab, barqaror iqtisodiy o‘sish uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi hamda obyektiv iqtisodiy qonunlarning real amal qilishini qaror toptiradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, iqtisodiyotni tartiblashning davlat mexanizmi obyektiv bozor mexanizmiga ko‘maklashishga qaratilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarishga ta’sir qiluvchi chora-tadbirlar va vositalar majmuidir. Hozirgi zamon iqtisodiyotida bozor mexanizmi orqali iqtisodiyotni tartibga solish qanchalik zarur bo‘lsa, davlat mexanizmini shunchalar zarur ekanligini ko‘rsatadi. Eng muhimi, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda har ikkala mexanizmlarni afzal jihatlarini birlashtirishdir. Bu esa iqtisodiyotni ratsional boshqarishdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Milliy iqtisodiyotda xo‘jalikni yuritishning asosiy usuliga aylangan bozor iqtisodiyoti so‘nggi bir necha asrlar davomida bir qator muhim o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Iqtisodiy namoyon bo‘lishning bozor shakllarining asosini tovarlarni ommaviy ishlab chiqarish usullarini joriy etish tashkil qilgani holda, bu o‘z navbatida keng ko‘lamli mashinali ishlab chiqarishga o‘tish bilan bog‘liq edi. Ishlab chiqarishni mashina usulining rivojlanishi mahsulot birligiga xarajatlarni keskin kamaytirishiga olib keldi, bu o‘z navbatida arzon mahsulotlar doirasining kengayishi, uy xo‘jaliklari daromadlarining ko‘payishi bilan birga, bozor aylanmasining keskin kengayishiga sabab bo‘ldi.

XVIII–XIX asrlarda sodir bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar jamiyatda sifat jihatidan yangi vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning yana bir ko‘rinishi: bozor va davlat mexanizmi munosabatlari o‘rtasida asos yaratdi. Iqtisodiy tizimning rivojlanishi ma’lum bir bosqichda davlatning qo‘llab-quvvatlovchi va tuzatuvchi choralarini kuchaytirishga muhtoj bo‘ldi.

1929-1933–yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi butun bozor tizimi uchun hal qiluvchi saboq berdi. Ushbu saboqning natijasi sifati-

da ikki ijtimoiy-iqtisodiy hodisa (bozor va davlat) o‘rtasidagi munosabatlarning yanada samarali variantini topish borasida davlat ishtirokining o‘rnini yangi sifat darajasiga ko‘tarish kerak degan xulosaga kelishdan iborat bo‘ldi. Bozorning jadal rivojlanishi sharoitida davlat choralari “tungi qorovul” rolida davlatning aralashmaslik, neytral xatti-harakatlari doirasidan tashqariga chiqishi lozim bo‘ldi. Iqtisodiyot hukumatning yanada murakkab chora-tadbirlariga muhtoj bo‘la boshladi va o‘z navbatida “iqtisodiy siyosat” deb nomlangan kontsepsiya vujdga keldi.

Iqtisodiy siyosat sohasidagi ilk urinishlar XIX asr oxirida amalga oshirildi. Bunga misol qilib, bu borada ko‘plab mamlakatlardan oldinda bo‘lgan Germaniyani keltirish mumkin. Otto fon Bismark tashabbusi bilan qonunlar qabul qilindi, ular asosida yangi soha – ijtimoiy sug‘urta tizimi vujudga keldi. 1883–yilda, xususan, qonun yo‘li bilan kasallik sug‘urtasi, 1884–yilda – baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash va nihoyat, 1889–yilda – sanoat ishchilari va ularning pensiya xizmatlari uchun nogironlik sug‘urtasi joriy etildi. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishga birinchi urinishlar “nuqtali ta’sir ko‘rsatish” strategiyasi bilan bog‘liq edi. Bunday sharoitda siyosatning bojxona, agrar, sanoat va ijtimoiy shakllari nisbatan mustaqil yo‘nalishlar sifatida alohida ajratib olindi. Keyinchalik, XX asr boshlarida bunday xilma-xil yondashuv integratsiyalashgan, o‘zaro bog‘liq yondashuv varianti bilan almashtirildi. Iqtisodiy siyosat yanada keng qamrovli umumiy iqtisodiy tavsif kasb eta boshladi.

Umumiy iqtisodiy siyosatning shakllanishiga ikkita jahon urushi bilan bog‘liq siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar majmui katta ta’sir ko‘rsatdi. Iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvi nafaqat mintaqaviy, balki umum iqtisodiy va biroz keyinroq xalqaro ahamiyat kasb eta boshladi.

Olimlarning fikricha, iqtisodiy siyosatning maqsadlari:

- Milliy iqtisodiyotning iqtisodiy o‘sishi;
- To‘liq bandlik;
- Iqtisodiy samaradorlik;
- Narxlar darajasining barqarorligi, inflyatsiya yoki deflyatsiyaga qarshi kurash;
- Iqtisodiy erkinlik;

• Daromadlarni adolatli taqsimlash;
• Iqtisodiy xavfsizlik (ijtimoiy kafolatlar);
• Balansli tashqi savdo balansini ta'minlashdan iborat.

Iqtisodiy siyosat sohasida turli xil yondashuvlar va tasniflash mezonlari mavjud. Tarmoq, institutsional mezonlarga asoslangan yondashuvda quyidagi yo'nalishlarni ajratish odatiy holdir: sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy, transport, tashqi iqtisodiy va boshqalar. Funksional yo'naltirilgan yondashuv asosida quyidagilarni ajratish mumkin: moliyaviy, tarkibiy, kon'yunkturaviy, narx, valyuta va iqtisodiy siyosatning boshqa yo'nalishlari.

Iqtisodiy siyosat – bu davlatning iqtisodiy siyosatini tashkil etuvchi turli yo'nalishlar, unsurlarning kombinatsiyasi. Iqtisodiy siyosatni tashkil etuvchi asosiy unsurlar quyidagilardan iborat:

• Pul-kredit siyosati;
• Fiskal siyosat;
• Investitsiya siyosati;
• Sanoat siyosati;
• Mehnat va bandlik siyosati, mehnat bozori, daromadlarni tartibga solish;
• Tashqi iqtisodiy siyosat (xalqaro savdo iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, aholi turmush darajasini oshiradi. Tashqi savdoning muhim ko'rsatkichi bu sof eksport, ya'ni eksport va import qiymati o'rtasidagi farq);
• Iqtisodiy siyosatning boshqa sohalari.

Iqtisodiy siyosat subyektlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

• Davlat, shu jumladan, mintaqaviy va mahalliy institutsional tashkilotlar;
• Nodavlat uyushmalari va birlashmalari.

Davlat iqtisodiy siyosatning asosiy subyekti bo'lib, qudratli salohiyatga ega bo'lgani holda, ulardan foydalanish asosida turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini bog'laydi va ularni muayyan maqsadlar sari harakat qilishga undaydi. Qonun chiqaruvchi organ darajasida iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari muhokama qilinadi va qonunlashtiriladi. Ijro etuvchi hokimiyat – hukumat uni amalga oshirish uchun mas'ul. Hukumat, o'z navbatida, vazifalarni belgi-

laydi va iqtisodiy siyosatni amalga oshirish huquqlarini muayyan ijro etuvchi hokimiyat organlariga yuklaydi.

Nodavlat uyushmalari va birlashmalariga “ijtimoiy va huquqiy maqom” ga ega bo‘lgan muassasalar kiradi. Davlatga yaqin bo‘lgan bu tuzilmalar ham iqtisodiy siyosat subyektlari hisoblanadi. Ularga davlat boshqaruv tuzilmalari faoliyat doirasidan alohidalashtirilgan muayyan boshqaruv vazifalari berilishi mumkin. Masalan, Germaniyadagi bunday muassasalarga sug‘urtani boshqarishga mas’ul hududiy idoralar , ulushlarni muvozanatlash jamg‘armasi va mahalliy tibbiy sug‘urta fondlari tizimi kiradi. Shveytsariyada bunday tuzilmalar sirasiga jamoat transportini qo‘llab-quvvatlash agentligi, yong‘in xavfsizligi muassasalari kabilar kiradi.

Iqtisodiy siyosatning nodavlat subektlariga jamiyatning ayrim qatlamlari va aholi guruhlari manfaatlarini ifoda etuvchi turli birlashmalar ham kiradi. Bular kasaba uyushmalari, tadbirkorlar uyushmalari, diniy va madaniy tashkilotlar bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda nodavlat subyektlarning roli hokimiyatga ta’sir (bosim) o‘tkazish imkoniyati bilan belgilanadi. Xususiy guruhlarning manfaatlari davlatning maqsadli yo‘nalishi bilan mos kelmasligi mumkin, bu esa jamiyat farovonligini uning faoliyatida birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bunday sharoitda ko‘pincha nodavlat subyektlar va davlat o‘rtasida o‘zlarining kuch qobiliyatlarini namoyon qilish uchun ochiq kurash kechadi, bu o‘z navbatida ikkala tomonni tiyilib turishga chaqiradi.

Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi davlat institutlari va iqtisodiy birlashmalardan tashqari, jamiyatning ayrim guruhlari va institutlari ham iqtisodiy siyosatning shakllanishiga bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi: siyosiy partiyalar va tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, nufuzli shaxslar (olimlar, siyosatchilar). Ushbu subyektlarning iqtisodiy siyosatga ta’siri darajasi mamlakatdagi vaziyat, siyosiy tizim turi, uning tuzilishi bilan belgilanadi.

Globallashuv jarayonlarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy siyosat subyektlari orasida millatlararo tavsifga ega bo‘lgan institutlar ham paydo bo‘ldi. Ular faoliyatining asosini davlatlararo bitimlar tashkil etadi. Milliy hokimiyat organlari ba’zi boshqaruv

funksiyalarini ularga topshiradilar. Bunday institutlar sirasiga Yevropa Ittifoqini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Umuman olganda, turli mamlakatlarda iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish tajribasiga asoslanib, "iqtisodiy siyosat" tushunchasi "davlat tomonidan tartibga solish" atamasidan ko'ra kengroq degan xulosaga kelish lozim. Iqtisodiy siyosatni olib borishda davlat tashabbuskor, asosiy bo'g'in vazifasini bajaradi, lekin shu bilan birga iqtisodiy siyosatning barcha ishtirokchilarining birgalikdagi harakatlarini tashkil qilishi shart.

Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish davlatning iqtisodiyotga ta'sir mexanizmini tashkil etuvchi chora-tadbirlar, vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish uchun ta'sir choralarining butun majmuasini ikki guruhga bo'lish mumkin:

Bevosita ta'sir choralari. Ushbu usullar xo'jalik yurituvchi subyektlar qarorlarni mustaqil ravishda emas, balki davlat ko'rsatmalariga muvofiq qabul qilishlarini nazarda tutadi. Misol sifatida bunday ta'sir choralariga soliq qonunchiligi, amortizatsiya ajratmalari sohasida belgilangan tartib-qoidalar, davlat investitsiyalarini amalga oshirishda budjet amaliyotlaridan foydalanish kabilarni qo'shishimiz mumkin.

Bilvosita ta'sir choralari. Ushbu usullarning mohiyati shundaki, davlat xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi. Bu faqat xo'jalik yurituvchi subyektlarga iqtisodiy siyosat maqsadlariga mos keladigan iqtisodiy qarorlarni mustaqil ravishda tanlash uchun sharoit yaratadi.

Tashkiliy va institutsional mezonlarga asoslangan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish usullarining yana bir tasnifi mavjud. Ushbu yondashuvga ko'ra ma'muriy, iqtisodiy va institutsional usullar farqlanadi.

Normativ harakatlarning ma'muriy choralarining umumiyligi huquqiy infratuzilma tomonidan ta'minlanadi. Ma'muriy choralarning asosiy vazifasi jamiyatda barqaror, qonunga asoslangan muhitni ta'minlashdan iborat: mulk huquqini ta'minlash, raqobat muhitini himoya qilish, erkin tanlov va iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini ta'minlash.

Ma'muriy choralar, o'z navbatida, ta'qiqlash, ruxsat berish, majburlash choralaridan tashkil topadi.

Iqtisodiy chora-tadbirlarga davlatning iqtisodiy dastaklar yordamida bozor munosabatlariga ta'sir ko'rsatadigan xatti-harakatlari kiradi. Ushbu chora-tadbirlar yalpi talab, yalpi taklif, kapitalni markazlashuv darajasi, iqtisodiyotning ijtimoiy va tarkibiy jihatlariga ta'sir qilishning turli usullarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy choralar sirasiga quyidagilar kiradi:

moliyaviy siyosat

fiskal (budjet) siyosati;

pul-kredit siyosati;

iqtisodiy prognozlash, rejalashtirish va dasturlash.

Institutsional chora-tadbirlar muayyan davlat institutlarini yaratish, saqlash va rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, "institut" ijtimoiy urflar toifasini to'laqonli tavsiflash maqsadida og'zaki nutqda keng qo'llaniladi. Institutlarning mavjudligi jamiyatda muayyan ijtimoiy guruhlar uchun odat yoki odamlar uchun odat bo'lib qolgan hukmron va barqaror fikrlash yoki harakat qilish uslubining mavjudligini anglatadi. Misol sifatida "huquq instituti", "mulk instituti" kabilarni keltirish mumkin.

Institutsional shakllar yoyilishining turli variantlariga quyidagilarni qo'shish mumkin:

- bevosita vazifasi hukumat maqsadlarini amalda ro'yobga chiqarishdan iborat bo'lgan ijro etuvchi davlat hokimiyati organlarining tuzilmasi;
- iqtisodiyotning davlat sektori obyektlarini, ya'ni davlat mulkini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash;
- milliy iqtisodiy dasturlar va iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqish;
- iqtisodiyot bo'yicha ilmiy-tadqiqot markazlarini (mulkchilikning turli shakllariga ega), iqtisodiy axborot institutlarini, savdo-sanoat palatalarini, turli iqtisodiy kengashlar va kasaba uyushmalarini qo'llab-quvvatlash, maslahatchilar, maslahatchilar institutlari, iqtisodiy muammolar bo'yicha ekspert kengashlari faoliyatini ta'minlash;
- biznes va kasaba uyushmalari kabi nodavlat tuzilmalarni huquqiy, axborot bilan ta'minlash;

• iqtisodiy integratsiyaning turli shakllarida ishtirok etish, iqtisodiy masalalar boʻyicha muntazam xalqaro uchrashuvlarni tashkil etish (G7, G8, G20, OTII va boshqalar).

Iqtisodiy siyosat maqsadlariga erishish borasida iqtisodiy siyosatning turli sohalarida turli xil chora-tadbirlar qoʻllanilishi mumkin.

Fiskal (fiskal) siyosat doirasida toʻgʻridan-toʻgʻri chora-tadbirlar davlat xarajatlarining oʻzgarishini oʻz ichiga oladi. Davlat xarajatlari orqali davlat sektori va ijtimoiy ta'minot tizimi moliyalashtiriladi, resurslar, tovarlar va xizmatlar bozorida xaridlar amalga oshiriladi. Davlat xarajatlari aholining barcha qatlamlari tomonidan taqsimlanadigan milliy mahsulot ulushini koʻrsatadi. Ular YMM dinamikasiga katta ta'sir koʻrsatadi. Fiskal siyosat doirasidagi iqtisodiy ta'sir choralari soliqlarni oʻzgartirish siyosatini (turlari, stavkalari, yigʻish tartibi) oʻz ichiga oladi.

Pul-kredit siyosati doirasida davlat pul massasiga ta'sir qiladi. Davlat foiz stavkasi siyosatiga, shu bilan korxonalarning investitsiyalari va aholining iste'moliga bevosita ta'sir koʻrsatishi mumkin. Investitsiyalar va iste'mol orqali davlat tomonidan tartibga solish YMM hajmi va dinamikasiga ta'sir qiladi. Pul – kredit siyosati inflyatsiyaga katta ta'sir koʻrsatadi. Yoʻnalishlardan biri inflyatsiyaga qarshi choralar tizimi boʻlib, ular orasida daromadlarni tartibga solish siyosatini kiritish mumkin, chunki u aholi va tashkilotlarning pul talabini tartibga solishga qaratilgan.

Ijtimoiy siyosat daromadlarni indeksatsiya qilish tizimini, yashash minimumini belgilashni oʻz ichiga oladi. Bu birinchi navbatda kambagʻallarga yordam berish uchun muayyan dasturlarni amalga oshirishga qaratilgan. Ijtimoiy siyosat ta'lim, tibbiyot, madaniyat, koʻp bolali oilalarga yordam berish, mehnat munosabatlarini tartibga solish kabi sohalarni qamrab oladi.

Tashqi iqtisodiy tartibga solish sohasidagi siyosat davlatning savdo siyosati, valyuta kurslarini boshqarish, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning tarif va tarifsiz choralari tizimini oʻz ichiga oladi.

Mehnat bozorini tartibga solish bir qator usullar bilan amalga oshiriladi:

- ish haftasining maksimal davomiyligini belgilash;
- eng kam ish haqining belgilanishi;
- ijtimoiy sug‘urta badallarini to‘lash tartibini belgilash;
- kadrlarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashni davlat tomonidan rag‘batlantirish.

Ilmiy-tadqiqot sohasini davlat tomonidan tartibga solish ilmiy-texnik taraqqiyotning yuqori sur’atlarini saqlashga, dinamik iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga imkon beradi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda davlat umumiy ilmiy-tadqiqot xarajatlarining 40 dan 50 foizigacha moliyalashtiradi, moliyaviy resurslar esa ma’lum bir loyiha uchun grantlar shaklida ajratiladi.

Ushbu davlat tomonidan tartibga solish vositalarining har biri o‘z rolini bajaradi va boshqalarni to‘ldiradi. Tizim, agar u har tomonlama qo‘llanilsa va uning tarkibiy qismlari bir-biriga zid bo‘lmasa, ta’sir qiladi. Agar siyosatni amalga oshirish natijasida maqsadlarga erishilmasa, unda “Kobra samarasi” deb nomlangan samara paydo bo‘ladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Davlatning iqtisodiy siyosati kursining dolzarbligi va maqsadini qanday sabablar belgilaydi?
2. Iqtisodiy siyosat nima?
3. Iqtisodiy subyektlarning manfaatlari nima bilan farq qiladi?
4. Iqtisodiy siyosatning qanday darajalari mavjud?
5. Davlatning siyosati milliy bo‘ladi, degan ibora nimani anglatadi?
6. Davlatning siyosati orqali ko‘zlanadigan asosiy maqsadlar nima?
7. Iqtisodiy siyosatning strategik va taktik maqsadlariga nimalar kiradi?
8. Davlat siyosati belgilagan maqsadlarga qanday vositalar orqali erishadi?

Iqtisodiyotni aniq fanlar sirasiga kiritishning imkoni yoʻq. Aksincha, u hatto fan ham emas, balki muayyan fikrlash algoritmlari majmuidir, xolos. Iqtisodiyot hayot bilan birga oʻzgaradi va shu sababli ham, hech kim bir necha yillardan soʻng iqtisodiyot qanday boʻlishini oldindan aytib bera olmaydi.

Saymon Vayn

II BOB. IQTISODIY OʻSISH

1.1. Iqtisodiy oʻsishning mazmuni va turlari
1.2. Iqtisodiy oʻsishning koʻrsatkichlari va omillari
1.3. Iqtisodiy oʻsishni oʻlchash
1.4. Davlat iqtisodiy siyosatining tamoyillari va yoʻnalishlari

2.1. Iqtisodiy oʻsishning mazmuni va turlari

Har qanday mamlakat hukumati iqtisodiy siyosatining uzoq muddatli maqsadlaridan biri – bu shubhasiz, iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlashdan iboratdir. Ushbu holatda qaysi omillar iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirishi va qaysi omillar iqtisodiy oʻsishni cheklashi borasida aniq tasavvurga ega boʻlish lozim. Iqtisodiyot nazariyasida samarali uzoq muddatli iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, muayyan bir mamlakat doirasida iqtisodiy oʻsishning maqbul surʼatlariga erishish imkonini beruvchi iqtisodiy oʻsishning dinamik modellari ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy taʼlimotlar tarixining taniqli namoyondalaridan biri boʻlgan B.Seligmanning fikri shuni anglatadiki, iqtisodiy oʻsish nazariyalarining mualliflari, taniqli iqtisodchilar har jihatdan mukammal iqtisodiy oʻsish nazariyasini yaratishga daʼvo qilmagan boʻlsalar-da, ular keng qamrovli iqtisodiy oʻsish fenomenini tushuntirishga harakat qilganlar. Shu bois, iqtisodiy oʻsishning mohiyati va unga taʼsir koʻrsatuvchi ahamiyatli omillarni ochib berishga qaratilgan har qanday nazariya yoki modelda muayyan bir taxmin va farazlarga yoʻl qoʻyiladi[6].

[6] Seligman, B. B. (1957). On the Nature of Economic Growth. Diogenes, 5(19), 42-61. https://doi.org/10.1177/039219215700501904

Iqtisodiy o‘sish negizida iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o‘sish ishlab chiqarishning ilg‘or tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga tayanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy o‘sish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil ko‘paytirib borish va ayni paytda jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi. Agar muayyan bir mamlakat iqtisodiyoti o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ko‘proq yalpi ishlab chiqarish imkoniga ega bo‘lsa, u holda biz kengaytirilgan takror ishlab chiqarish borasida so‘z yuritishimiz o‘rinli bo‘ladi. Aynan, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish dinamikasi iqtisodiy o‘sishning tabiatini ochib beradi. Shu o‘rinda iqtisodiy o‘sish nima? Uni qanday o‘lchash mumkin? Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar nimalardan iborat?, – degan savollar tug‘ilishi tabiiydir.

Iqtisodiy o‘sishni aniqlash va hisoblashda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng umumiy ko‘rsatkichi bo‘lgan yalpi ichki mahsulot (YIM) asos bo‘lib xizmat qiladi va iqtisodiy o‘sishning muayyan davr mobaynida real YIM hajmining ijobiy tomonga o‘zgarishini ko‘rsatadi. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari YIM o‘sish sur’atlarida o‘z aksini topadi.

YaIMning o‘sish sur’atlari joriy davrdagi va o‘tgan davrdagi real YaIM o‘rtasidagi farqning o‘tgan davrdagi real YaIM qiymatiga nisbati sifatida topiladi:

$$Y=(Yt-Y_{t-1})/Y_{t-1}*100\%=\Delta Yt / Y_{t-1}*100\% \qquad (1)$$

bu yerda:

Yt – joriy davrda real YIMning qiymati;

Yt-1 - o‘tgan davrdagi YIMning real hajmi.


Iqtisodiy o‘sish mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy holatini ifodalaydi. Real YIM hajmining o‘zgarishi mamlakat iqtisodiyoti holati va dinamikasi to‘g‘risida ma’lumot bersada, iqtisodiy o‘sishni to‘liq aks ettirmaydi. Mamlakat aholisining o‘sish sur’ati 3% ni, real YIM ning o‘sish sur’ati ham 3% ni tashkil etdi. Bunday holatda, garchi YIM hajmi o‘sgan bo‘lsa-da, kishilarning daromadlari o‘zgarmay qoladi. Shu sababli iqtisodiy o‘sishni to‘laroq aks ettirish

uchun boshqa bir koʻrsatkich – aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan real YIMning oʻzgarishi qoʻllaniladi. Oʻzbekistonda iqtisodiy islohotlarning har bir bosqichida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy oʻsishni ta'minlash asosiy ustuvor vazifa etib belgilab kelindi. Ma'lumki, makroiqtisodiy barqarorlik mamlakatning YIM da namoyon boʻladi va u davlatning iqtisodiy qudratiga baho beradi. 2017-2021–yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va uning samarali ijro etilishi orqali iqtisodiy islohotlarning yuqori natijalariga erishildi. Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati tubdan oʻzgardi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiy rivojlanish, avvalo, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga oʻtdi. 2021–yilda dunyo boʻyicha ayrim mamlakatlarning iqtisodiyotlarida tiklanish jarayoni boshlangan boʻlsa, ba'zi davlatlar pandemiya sababli yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozdan hali ham chiqib keta olganlari yoʻq. Global miqyosda davom etayotgan pandemiya hamda iqtisodiy vaziyat bilan bogʻliq mavhumliklar saqlanib qolayotgan shunday sharoitida Oʻzbekiston iqtisodiyoti oʻz vaqtida muvofiqlashtirilgan fiskal va monetar siyosat natijasida 7,4 foiz oʻsishni qayd etib, jadal ravishda tiklanishda davom etdi. Shuningdek, Jahon banki hisobotiga koʻra, Oʻzbekistonning yirik iqtisodiy hamkor davlatlarining iqtisodiyotlarida oʻsish qayd etilgan. Xususan, 2022–yilda Oʻzbekistonning asosiy savdo hamkor mamlakatlari iqtisodiy holati tashqi shoklar, jumladan, xomashyo narxlaridagi tebranishlar, global inflyatsion bosimlar, savdo cheklovlari va yalpi talabning oʻzgarishi sharoitida shakllandi. Xususan, Rossiyada YIMning oʻsishi 2021–yildagi 4,7 foizdan -2,1 foizgacha qisqargan boʻlsa, Xitoyda 8,4 foizdan 3 foizgacha, Qozogʻistonda 4,1 foizdan 3,2 foizgacha hamda Turkiyada 11,4 foizdan 5,6 foizgacha sekinlashdi[7].

2022–yilda Oʻzbekistonning asosiy savdo hamkor davlatlari bilan savdo munosabatlarida tovar va xizmatlar eksporti hajmi 2021–yildagi 16,6 mlrd. dollardan 19,3 mlrd. dollarga yoki 15,9 foizga, import hajmi mos ravishda 25,5 mlrd. dollardan 30,7 mlrd. dollarga yoki 20,4 foizga oshdi. Bunda, asosiy savdo aylanmasi Rossiya (18,6 foiz), Xitoy (17,8 foiz), Qozogʻiston (9,2 foiz) va Turkiya davlatlariga

[7] Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022–yildagi faoliyati toʻgʻrisida hisobot. Toshkent–2023

(6,4 foiz) to‘g‘ri kelib, ularning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 52,1 foizni tashkil qildi.



2.1-rasm. O‘zbekistonning asosiy savdo hamkor davlatlari bilan 2022–yildagi savdo aylanmasi[8], mln.doll.da


Xitoyda iqtisodiy o‘sish sur’atlarining sekinlashuvi, qat’iy karantin cheklovlari bilan bog‘ liq bo‘lib, chakana savdo hajmlari 0,2 foizga va ko‘chmas mulk savdosi hajmlari 10 foizga qisqargan bo‘lsa, sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2021–yildagi 9,6 foizdan 3,4 foizgacha sekinlashishi kuzatildi. Geosiyosiy ziddiyatlar ta’sirida Rossiyaga nisbatan joriy etilgan sanksiyalar iqtisodiy faollikni keskin pasaytirib, 2022–yilda iqtisodiy o‘sishni 2,1 foizga qisqarishiga olib keldi.

Turkiyada kuzatilgan yuqori inflyatsiya va valyuta kursining tebranuvchanligi sharoitida aholining xarid qobiliyatini saqlab qolish maqsadida ish haqi miqdorining yil davomida qariyb 3 barobarga oshirilishi hamda turizm sohasining qayta tiklanishi iqtisodiy faollikni mo‘tadillashtirdi.

Qozog‘istonda iqtisodiy o‘sish real sektorning yuqori qo‘shilgan qiymat sohalaridagi faollikning, shu jumladan, mashinasozlik – 9,4 foiz, avtomobilsozlik – 19,1 foiz, elektr asbob-uskunalar ishlab chiqarish sohasida – 22,2 foizga oshishi hisobiga shakllandi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish hajmi 9,1 foizga, qurilishda esa 9,4 foizga oshdi. Tashqi shoklar ta’sirida Ros-

[8] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022–yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot. Toshkent–2023

siyada inflyatsiya darajasi 2021–yildagi 8,4 foizdan 11,9 foizgacha, Xitoyda 1,5 foizdan 1,8 foizgacha, Qozog‘istonda 8,4 foizdan 20,3 foizgacha tezlashdi. Bundan tashqari, Turkiyada davom ettirilgan “arzon pullar” siyosati inflyatsiyani 2021–yildagi 36,1 foizdan 64,3 foizgacha oshishiga asosiy omil bo‘ldi.



2.2-rasm. O‘zbekistonning asosiy savdo hamkor davlatlardagi iqtisodiy o‘sish sur’atlari dinamikasi[9], foizda

Asosiy savdo hamkor davlatlarning Markaziy banklari tashqi shoklarni yumshatish hamda inflyatsiyani jilovlash maqsadida pul-kredit sharoitlarini qat’iylashtirib bordi. Xususan, Rossiya banki 2022–yil yakuniga qadar asosiy stavkani bosqichma-bosqich 6 marta qayta ko‘rib chiqib, yillik 7,5 foiz darajasida belgiladi. Inflyatsiyaning yuqori darajada shakllanishiga javoban Qozog‘iston Milliy banki pul-kredit siyosatini yil davomida qat`iylashtirib bordi va 2022–yil yakunida asosiy stavkani yil boshidagi 9,75 foizdan 16,75 foizgacha oshirdi. Turkiya markaziy banki inflyatsiyaning keskinlashganiga, shuningdek, inflyatsiya bo‘yicha target 5 foiz etib belgilanganiga qaramasdan pul-kredit siyosatini yumshatib, xususan, 2022–yil davomida asosiy stavka 4 marta pasaytirish tomonga ko‘rib chiqilib, yillik 14 foizdan 9 foizgacha tushirildi.

Xitoyda inflyatsiya darajasining nisbatan past shakllanganligi

[9] Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) ma’lumotlari

hisobiga yalpi talabni rag‘batlantirish maqsadida asosiy stavka yil davomida 3,80 foizdan 3,65 foizgacha yoki 0,15 foiz bandga tushirildi. Hisobot yilida asosiy savdo hamkor davlatlarda milliy valyuta kurslarining keskin tebranishlari kuzatildi. Xususan, turk lirasining dollarga nisbatan qiymati 2021–yildagi 76,9 foizdan 53 foizga, Qozoq tengesi 2,6 foizdan 7,2 foizga qadrsizlandi.

2021–yilda Xitoy yuani 2,3 foizga mustahkamlangan bo‘lsa, 2022–yilda mazkur valyuta 9,2 foizga qadrsizlandi. Rossiya Markaziy banki tomonidan chet el valyutasi bilan operatsiyalarga qo‘yilgan cheklovlar hisobiga Rossiya rubli hisobot yilida 5,2 foizga mustahkamlandi. O‘z navbatida, asosiy savdo hamkor davlatlar milliy valyutalari zaiflashishi hamda O‘zbekistondagi inflyatsiyaning hamkorlardagi inflyatsiya darajasidan yuqoriroq shakllanishi fonida so‘mning real samarali almashuv kursida 2022–yilda mustahkamlanish kuzatildi.

2.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari[10] (2022–yil)

Ko‘rsatkichlar	Mlrd. so‘m	2021–yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida
Yalpi ichki mahsulot	888 341,7	105,7
Sanoat mahsuloti	551 050,9	105,2 [1)]
Iste`mol tovarlari	197 892,7	119,4
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari	364 522,8	103,6
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	269857,5	100,9
Qurilish ishlari	130 767,1	106,6
Yuk aylanmasi (mln. t/km)	75 185,4	100,5
Yo‘lovchi aylanmasi (mln. yo‘lovchi/km)	144 693,6	105,6
Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari, jami	357 554,5	115,9
Chakana savdo tovar aylanmasi	319 288,2	112,3
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSh. doll)[2)]	50 008,4	118,6
Eksport	19 309,1	115,9
Import	30 699,3	120,4
Saldo (+,-)	-11 390,2	X
Iste’mol narxlari indeksi (2021 – yilning dekabr oyiga nisbatan, %.)	x	112,3


1) FHI - fizik hajm indeksi

2) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining aniqlashtirilgan ma’lumotlarini hisobga olgan holda.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022–yilda O‘zbekiston Respublikasi YIMi hajmi joriy narxlarda 888 341,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021–yil bilan taqqoslaganda 5,7 % ga o‘sdi. YIM deflyator indeksi 2021–yildagi narxlarga nisbatan 113,8 % ni tashkil etdi. YIM

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022–yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023 y., Toshkent–2023-y.

tarkibida tovarlar ishlab chiqarishda 484 679,9 mlrd. so‘m, xizmatlar ko‘rsatish sohasida – 343 374,3 mlrd. so‘m miqdorida yalpi qo‘shilgan qiymat yaratildi, mahsulotlarga sof soliqlar esa 60 287,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Joriy davrda o‘rtacha almashuv kursi bo‘yicha hisoblangan nominal YIM hajmi 80 384,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.




2.3-rasm. O‘zbekistonda 2018-2022-yillarda YIM o‘sishida tarmoqlarning hissasi[11] (jamiga nisbatan % da)

Shu bilan bir qatorda, YIM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,9 f.p., sanoat tarmog‘i – 1,3 f.p., qurilish tarmog‘i – 0,4 f.p. va xizmat ko‘rsatish tarmog‘i 3,2 f.p. ijobiy hissa qo‘shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning kamayishi hisobiga YIM 0,1 f.p. ga pasaydi (2.3-rasm).

2022–yil yakunlariga ko‘ra, YIM tarkibida katta bo‘lmagan o‘zgarishlar kuzatildi. YIM (YQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 39,6 %dan 41,5 %ga, qurilish tarmog‘ ining ulushi 6,6 % dan 6,7 % ga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi 26,5 %dan 25,1 %ga kamaydi. Sanoatning (qurilishni qo‘shgan holda) ulushi esa 33,4 % ni tashkil etdi.

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022–yil yanvar-dekabr, Toshkent–2023 y., Toshkent–2023-y.

2022–yilda aholi jon boshiga hisoblangan YIM hajmi joriy narxlarda 24 919,7 ming so‘mni (yoki 2 254,9 AQSh dollari ekvivalentida) tashkil etdi. Aholi jon boshiga YIM hajmining real o‘sishi 2021–yilga nisbatan 3,5 % ni, 2018–yilga nisbatan esa 13,4 % ni tashkil etdi.




2.4-rasm. O‘zbekistonda 2022–yil va 2023–yillarning 1-choraklarida YIM hajmi va tarkibi bo‘yicha ma’lumot[12]

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda kelgusi besh yilda aholi jon boshiga YIMni 1,6 baravarga (1750 AQSh dollaridan 2800 dollargacha) ko‘paytirish, 2030–yilga borib aholi jon boshiga daromadlarni 4000 AQSh dollaridan oshirish va O‘zbekistonni “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kiritish yetakchi maqsad sifatida belgilandi. Bunga erishish uchun “O‘rta muddatli daromadlar strategiyasi”ni ishlab chiqish rejalashtirilgan bo‘lib, hujjat loyihasini joriy yilning 1-sentabriga qadar taqdim etish ko‘zda tutilgan.

Strategiyada makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va yillik inflyatsiya darajasini bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish maqsad qilingan. Buning uchun joriy yilda xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda kelgusi 5 yilga mo‘ljallangan makroiqtisodiy prognoz, shuningdek, iqtisodiy o‘sish darajasining o‘rtacha 6,5 foizdan yuqori bo‘lishini va inflyatsiyani 2024–yildan 5 foiz target ko‘rsatkichi darajasida ushlab turishni nazarda tutuvchi 2024-2025–yillarga mo‘ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi ishlab chiqilmoqda.

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022–yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.



2.5-rasm. 2018-2022–yillarda aholi jon boshiga YIM (joriy narxlarda, ming so‘m) hamda uning o‘sish sur’atlari[13] (o‘tgan yilga nisbatan % hisobida)

Bundan tashqari, yil davomida inflyatsiyaning monetar omillarini pasaytirish, jumladan, iqtisodiyotga kredit qo‘yilmalari o‘sish sur’atlarini (16-18%) YIM nominal hajmi o‘sish sur’atlariga mutanosib darajada ushlab turish hamda 2-3 foizlik real ijobiy foiz stavkalari shakllanishini ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘riladi. Monopoliyaga qarshi siyosat, shuningdek, respublika hududlarida savdo infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ham inflyatsiyani jilovlashga qaratiladi va bu raqobatni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o‘sishini cheklash maqsadida har yili ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish va narxlar barqarorligini ta’minlash bo‘yicha hududiy ma’muriyatlarning uni ta’minlash bo‘yicha vazifalari aniq belgilab berilgan “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanadi. Shuningdek, tashqi qarzning o‘sish darajasini yiliga 4,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida ushlab turish ham makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga ko‘mak beradi. Bunga o‘rta muddatli istiqbolda davlat qarzi YIMga nisbatan 60 foizdan oshmasligini nazarda tutuvchi davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi kafolatlarini berish tartibini takomillashtirish orqali erishiladi va bu ish joriy yilda amalga oshiriladi.

Kelgusi besh yilda iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorni yanada rivojlantirishga qaratilgan islohotlar

[13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022–yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023 y.

davom ettiriladi. Strategiyada xususiy sektorning YIMdagi ulushini 80 foizga, eksportdagi ulushini esa 60 foizga yetkazish maqsadi qo‘yilgan bo‘lib, bu jarayon monopoliyaga qarshi faol siyosat bilan birgalikda olib boriladi. Shu maqsadda joriy yilda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini liberallashtirish davom ettiriladi. Xususan, mashinasozlik, kimyo, neft-gaz, energetika, kon-metallurgiya sanoati, transport sohalaridagi 23 ta yirik korxona kapital bozorlariga mustaqil chiqish va xalqaro kredit reytinglarini olish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqiladi. 2022-2023–yillarda Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan hamkorlikda “Farg‘onaazot” AJ va “Dehqonobod kaliy kombinati” AJ xususiylashtiriladi. Xususiy biznesni rivojlantirish uchun respublika bo‘ylab qo‘shimcha 200 ta sanoat zonasi tashkil etilib, bunda zarur infratuzilmani yetkazib berish va ularning har birida kamida 15 tadan korxonani joylashtirish ko‘zda tutilgan, buning uchun 2022–yilda budjetdan 1,5 trln. so‘m ajratildi. Sharoiti “og‘ir” hududlarda faoliyati yo‘lga qo‘yilgan biznes subyektlar uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumani, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi, Ko‘kdala, Dehqonobod, Kasbi, Mirishkor va Nishon tumanlarida, Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlarida, Toshkent viloyatining Bo‘ka, Piskent, Oqqo‘rg‘on, Bekobod tumanlarida soliq solishning yanada qulay sharoitlari joriy etildi.

Hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tuzilmalari faoliyatini yaxshilash, ishsizlik va kambag‘allik darajasini pasaytirish sohasida tuman va shaharlarda tadbirkorlikka ko‘maklashadigan tuzilmalar negizida mahallalarda hokimlarning yordamchilari bilan yaqin hamkorlikda ish olib boruvchi Tadbirkorlik kengashlari tashkil etiladi. Joriy yilning avgust oyida Prezidentning tadbirkorlar bilan an’anaviy “Ochiq muloqot”ini o‘tkazish rejalashtirilgan. Strategiyada 2026-yilga borib eksklyuziv huquqlarni bekor qilish va davlat ishtirokidagi kompaniyalarni xususiylashtirish hisobiga 25 ta faoliyat turlari bo‘yicha monopoliyalarni tugatish ko‘zda tutilgan.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish maqsadida davlat kompaniyalarini xususiylashtirish yo‘li bilan 14 ta iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha mutloq huquqlarni bekor qilish va bu sohalardagi monopoliyani tugatish rejalashtirilgan (aholi va ijtimoiy obyektlarga

suyultirilgan gaz yetkazib berish, rangli metall parchalarini ishlab chiqarish va sertifikatlashtirish xizmatlari va boshq). Energetika sohasida elektr energiyasini yetkazib berishga monopoliya bekor qilinadi va ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda bozor mexanizmlari joriy etiladi. Shuningdek, neft-gaz sohasida transformatsiya jarayonlari jadallashadi. "O'ztransgaz" AJ faqat gaz tashish bilan shug'ullanuvchi kompaniyaga aylantiriladi. "O'zbekneftgaz" AJ tashkiliy-huquqiy tuzilmasi jahonning yetakchi neft-gaz kompaniyalari standartlariga muvofiqlashtiriladi. "Hududgazta'minot" AJ faoliyatiga, jumladan, iste'molchilarni gaz bilan ta'minlash tizimiga xususiy operatorlar jalb etildi. Temir yo'l sohasida xususiy transport operatorlari faoliyati yo'lga qo'yiladi, asosiy faoliyat turiga taalluqli bo'lmagan aktivlar maqbullashtirildi va transport xarajatlari kamaytirildi. "Raqobat to'g'risida"gi va "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi qonunlar birlashtiriladi, davlatning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish doirasi qonunchilik bilan aniq belgilab qo'yiladi, tabiiy monopoliyalar holatini va bozordagi ustun mavqega egalikni aniqlash mezonlari kengaytiriladi, davlat ko'magi shakllari va ularni taqdim etishga nisbatan talablar belgilanadi va raqobatni chegaralash uchun javobgarlik kuchaytiriladi. Iqtisodiy munosabatlarga erkin bozor tamoyillarini keng joriy etish uchun xomashyo yetkazib berish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlarini shakllantirishda bozor mexanizmlariga to'liq o'tish, shuningdek, ayrim tovarlar uchun belgilangan ma'muriy narxlarni bosqichma-bosqich bekor qilish nazarda tutilgan.

Shuningdek, Strategiya doirasida mamlakatdagi investitsiyaviy muhit ham izchil takomillashtirilib, 2026-yilga qadar xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb etish strategiyasi amalga oshiriladi. Kelgusi besh yilda 120 mlrd. dollar, shu jumladan, 70 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish ko'zda tutilgan. Davlat-xususiy sheriklik asosida 14 mlrd. dollar miqdoridagi investitsiyalar jalb qilinadi.

Hududlarning xorijiy davlatlar bilan, xususan, Sirdaryo viloyatining Xitoy bilan, Surxondaryo viloyatining Rossiya bilan, Jizzax viloyatining Hindiston bilan tashqi iqtisodiy aloqalari yo'lga qo'yiladi. Bundan tashqari, joriy yilda hududlarda Sanoat va infratuzilmani rivojlantirish banki, Surxondaryo viloyatida "Investor-

larga koʻmak markazi", Toshkent shahrida "Ilgʻor loyihalar va injiniring markazi", Navoiy kon-metallurgiya kombinatida "Biznesga koʻmaklashish markazi" tashkil etiladi. Toshkent shahrida har yili "Toshkent xalqaro investitsiya forumi" oʻtkazib boriladi. Strategiyada raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" – iqtisodiy rivojlanish sohasiga aylantirish, uning hajmini kamida 2,5 baravarga oshirish rejalashtirilgan.

2026-yil yakuniga qadar ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 70 foizga, dasturiy ta'minot industriyasi hajmini 5 baravar, uning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 mln. AQSh dollariga yetkazish maqsad qilingan. Bu yoʻnalishda joriy yilda raqamli infratuzilmani rivojlantirish hisobiga barcha turar-joy massivlari, ijtimoiy obyektlar va avtomobil yoʻllarini internetga keng polosali tezkor ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish rejalashtirilgan. Iqtisodiyotning real sektori va moliya sohasida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish boʻyicha maqsadli dasturni tasdiqlash koʻzda tutilgan. Maqsadli dastur loyihalarini amalga oshirish hisobiga raqamlashtirish darajasi 30 foizga oshiriladi. Buxoro viloyatining Qorakoʻl tumanida IT-klaster tashkil etiladi. Shuningdek, "2023-2030-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi" ishlab chiqiladi va axborot texnologiyalari sohasida 700 nafar mutaxassis tayyorlanadi.

Eksportga koʻmaklashish tizimini takomillashtirish orqali 2026-yilda eksport salohiyatini 30 mlrd. dollarga yetkazishga alohida e'tibor qaratiladi. Eksportchi korxonalarga koʻrsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimi takomillashtiriladi, buning hisobiga eksportchi korxonalar soni 6500 tadan 15000 taga, tovarlar eksporti geografiyasi esa yana 35 ta mamlakatga kengayib, 150 mamlakatga etishi kutilmoqda.

Eksportni rivojlantirish dasturi doirasida eksport hajmini 14 mlrd. dollarga yetkazish rejalashtirilgan boʻlib, bunda eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 32 foizdan 42 foizga ortadi, eksport tarkibida xomashyo resurslari ulushi xomashyoni qayta ishlash quvvatlarini oshirish hisobiga 34 foizdan 24 foizga kamaytiriladi, xizmatlar eksporti hajmi esa 3,3 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Sanoatning har bir sektori uchun eksportni koʻpaytirish boʻyicha ish

rejalari ishlab chiqiladi, “Oyko-teks”, “Sedeks”, “BiEsSiAy”, “GOTS”, “ISO 9001” va boshqa xalqaro talablarga mos standartlar joriy etiladi, “H&M”, “ZARA”, “LC Waikiki”, “PUMA”, “Reebok”, “Uniqlo” kabi dunyoga mashhur brendlar mahsulot ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish uchun hamkorlikka jalb qilinadi, taniqli poyabzal brendlari buyurtmalarini jalb etish hisobiga 130 mln. dollarlik oyoq kiyimlar eksporti ta’minlanadi. Shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti geografiyasi va nomenklaturasini kengaytirish boʻyicha choralar koʻriladi. Eksportda xususiy sektor ulushini oshirish maqsadida joriy yildan eksportchi korxonalarga kompensatsiya va kafilliklar hamda qoʻl mehnati mahsulotlarini jahon elektron savdo maydonlari orqali eksport qilish xarajatlarini qoplash joriy etiladi. Bundan tashqari, yaqin xorij mamlakatlariga eksport qilinayotgan yuqori qoʻshilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar uchun eksportchi korxonalar transport xarajatlarining bir qismini qoplab berish tizimi ham qoʻllaniladi.

Strategiyada qishloq xoʻjaligining yillik oʻsish sur’atlarini kamida 5 foizga yetkazish va ushbu sektorda band boʻlganlarning daromadini kamida 2 baravar oshirish koʻzda tutilgan. Bunga tumanlarni aniq mahsulot turini etishtirishga ixtisoslashtirish, qishloq xoʻjaligida davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash koʻlamini kengaytirish, sugʻurtalashning yangi mexanizmlarini joriy etish orqali erishish rejalashtirilgan.

Meva-uzumchilikda “in-vitro” laboratoriyalari va 4 ta zamonaviy koʻchatxonalar tashkil etish orqali har yili kamida 10 mln. dona virussiz koʻchatlar yetishtirish maqsad qilingan. Meva-sabzavotchilikda intensiv bogʻlar maydonini 1,5 baravar, issiqxonalar maydonini 1,2 baravar koʻpaytirish, yuqori qoʻshilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini ikki baravar, eksport salohiyatini esa 1 mlrd. dollarga oshirish rejalashtirilgan. 129 ming gektar yangi va foydalanishdan chiqarilgan yerlar oʻzlashtiriladi. Hududlarda 110 ta meva-sabzavotchilik kooperatsiyalari va 35 ta gʻallachilik klasterlari tashkil etiladi, 25 ming gektar maydonda intensiv bogʻlar va 50 ming gektarda yangi uzumzorlar barpo etiladi, chorvachilikda oʻsish sur’atini oʻrtacha 6,2 foizga oshirish choralari koʻriladi. 2022-yil yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik

xo‘jaligida 3,6 % (2021-yilda – 4,0 %, 2020-yilda – 2,9 %, 2019-yilda – 3,1 %, 2018-yilda – 0,3 %) darajasida ijobiy o‘sish qayd etildi.

2.2-jadval

O‘zbekistonda natura shaklida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari[14]

Mahsulot nomi	Mahsulot hajmi	O‘sish sur’ati
Sabzavotlar	11163,0 ming tonna	102,9
Poliz ekinlari	2420,7 ming tonna	105,9
Kartoshka	3441,7 ming tonna	104,7
Go‘sht (tirik vaznda)	2726,0 ming tonna	103,4
Mevalar	2983,5 ming tonna	104,6
Don	79994,9 ming tonna	104,7
Uzum	1760,6 ming tonna	103,9
Sut	11629,4 ming tonna	103,2
Tuxum	8129,3 mln.dona	104,4

Ushbu ijobiy o‘sish sur’atlari chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,4 % (2021-yilda – 3,5 %, 2020-yilda – 2,1 %, 2019-yilda – 1,6 %, 2018-yilda – 5,7 %)ga hamda dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,8 % (2021-yilda 4,3 % ga o‘sish, 2020-yilda 3,2 % ga o‘sish, 2019-yilda – 4,8 % ga o‘sish, 2018-yilda – 4,2 % ga kamayish)ga o‘sishi bilan bog‘liq.

Shuningdek, joriy yilda qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirish, elektr energiyasi va issiqxonalarda muqobil energiya texnologiyasini joriy etish uchun yillik xarajatlarning bir qismini subsidiyalash ko‘zda tutilgan. Qishloq xo‘jaligida sug‘urtalash tizimi takomillashtiriladi, “Qishloq xo‘jalik sohasidagi tavakkalchiliklarni sug‘urtalash to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinadi.

Qishloq xo‘jaligi xizmatlari tizimini takomillashtirish davom ettiriladi. Farg‘ona, Samarqand, Jizzax, Andijon, Navoiy, Xorazm viloyatlarida agroxizmat markazlari tashkil etiladi va qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarning xizmatlar bilan qam-

[14] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

rab olish darajasi 30 foizgacha oshiriladi. Agrologistika markazlari soni 73 taga, ularning mahsulot saqlash sig‘imi esa 1,1 mln. tonnaga yetkaziladi. Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish sohasida Urug‘chilik va ko‘chat yetishtirish bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqildi, “Qishloq xo‘jaligida standartlashtirish markazi” DUK tarkibida Andijon viloyatida, shuningdek, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida xalqaro darajada akkreditatsiyaga ega zamonaviy laboratoriyalar yaratildi. Bundan tashqari, 2022/2023-o‘quv yilida Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti tashkil etildi.

Hududlarni rivojlantirish sohasida Strategiyada 14 ta hudud bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning besh yillik hududiy dasturlarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Kelgusi besh yilda hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyot hajmining 1,4-1,6 baravarga oshishi kutilmoqda. Joriy yildan hududlar bilan ishlashning yangi tartibi joriy etilmoqda. Yangi tartib har bir tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini o‘rganib, “o‘sish nuqtalari”ni belgilab olgan holda hududlarni rivojlantirish dasturlaring har yili ishlab chiqishni ko‘zda tutadi.

Hududiy rivojlanishda joylarda aholining yashash sharoitlarini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini takomillashtirish katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi “Shaharlar qulayligi” indeksi joriy etiladi. Real YIM hajmining o‘zgarishi umuman mamlakat iqtisodiyotining muayyan davr oralig‘idagi rivojlanishini ifodalasa, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real YIM hajmining o‘zgarishi iqtisodiy rivojlanishga kishilar turmush darajasi orqali baho berishga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan YIM ishlab chiqarish omillari – yer, kapital va mehnat resurslarining o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Bular iqtisodiy o‘sishning miqdoriy omillariga kiradi (masalan, foydalanilayotgan ekin maydonlarni kengaytirish YIM o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi). Ushbu omillarni ishlab chiqarish jarayoniga kengroq jalb etish natijasida yuz beradigan iqtisodiy o‘sish *ekstensiv o‘sish* deb ataladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy iqtisodiy va barcha boshqa muammolarni hal qilishning asosiy yo‘li – bu milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy

rivojlanishidir. Aholi farovonligini oshirib borish ham pirovard natijada iqtisodiy rivojlanish darajasi va sur'atlariga bog'liq.

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o'zgarishlarini, ijobiy va salbiy natijalarini olib notekis boradi. Iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, o'z ifodasini real YMM (YIM) hajmi va uning aholi jon boshiga ko'payishida topadi. Iqtisodiy o'sishga tarixiy jihatdan yondashilganda, u bir xil sur'at va me'yorlarda bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashish, jiddiy pasayish va hatto cheklanish davrlari ma'lum. Agar jahon xo'jaligi va milliy iqtisodiyotda katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan bo'lsa, barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish bu yalpi milliy mahulot mutloq hajmning aholi jon boshi va iqtisodiy resurs birligi hisobiga nisbiy miqdorining ko'payishi hamda sifat o'lchamlarining borishidir. Ishlab chiqarish natijalarining o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning mavjud texnikaviy asosi saqlanib dolgan holda iqtisodiy resurslar miqdorini ko'paytirib borish orqali erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxonalar bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha huddi o'shancha korxonalar ko'riladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat

jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qoʻllash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan yaxshiroq foydalanish yoʻli bilan erishiladi. Intensiv yoʻl ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining oʻsishida, mahsulot sifatining yaxshilanishida oʻz ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirishga ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin. Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda mavjud boʻlmaydi, balki muayyan uygʻunlikka, bir-biri bilan qoʻshilgan tarzda roʻy beradi. Shu sababli ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy oʻsish turlari tahlil qilinadi.

2.2. Iqtisodiy oʻsishning koʻrsatkichlari va omillari

Iqtisodiy oʻsish murakkab va koʻp qirrali jarayon boʻlganligi sababli uni baholash uchun qandaydir bitta koʻrsatkich kifoya qilmaydi, balki muayyan koʻrsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu koʻrsatkichlar tizimida oʻlchamdagi va klimat ifodasidagi koʻrsatkichlar farqlanadi. Iqtisodiy oʻsishning jismoniy oʻlchamdagi koʻrsatkichlari ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflyatsiya ta'siriga berilmaydi), lekin universal emas, ya'ni har xil oʻlchamdagi mahsulot va xizmatlarni ishlab umumiy koʻrsatkichga keltirish qiyin. Klimat koʻrsatkichlar keng qoʻllaniladi, ammo har doim ham uni inflyatsiyadan toʻliq "tozalash" mumkin boʻlavermaydi. Shu sababli koʻpincha iqtisodiy oʻsish sur'atlari qiyosiy yoki doimiy narxlarda hisoblanadi.

Iqtisodiy oʻsish quyidagi qiymat koʻrsatkichlarida hisoblanadi:

1.YMM (YIM), SMM yoki milliy daromadning mutloq hajmi va ularning oʻsish sur'atlari.

2. YMM (YIM), SMM yoki milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga toʻgʻri keladigan miqdori va uning oʻsish sur'atlari.

3. YMM (YIM), SMM yoki milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga turli keladigan miqdori va uning oʻsish sur'atlari.

Iqtisodiy oʻsishni baholashda har uchala koʻrsatkichdan ham

foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha. Agar diqqat markazida mamlakat iqtisodiy salohiyati muammosi tursa, birinchi ko‘rsatkichdan foydalanish ko‘proq mos keladi. Alohida mamlakat va hududlardagi aholining turmush darajasini taqqoslashda, ko‘proq ikkinchi ko‘rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko‘rsatkichga ustuvorlik beriladi.

Odatda iqtisodiy o‘sish sur’ati % (foiz)da joriy yildagi real YMM (SMM, MD) ni bazis davridagi hajmiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

2.3-jadval

O‘zbekistonda 2018-2022-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YIM tarkibi[15] (jamiga nisbatan % da)

Ko‘rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
	o‘sish sur’ati, %da	o‘sish sur’ati, %da	o‘sish sur’ati, %da	o‘sish sur’ati, %da	o‘sish sur’ati, %da
I. YIM, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan					
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	89,3	91,5	92,7	93,0	93,2
mahsulotlarga sof soliqlar	10,7	8,5	7,3	7,0	6,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	29,7	26,6	26,8	26,5	25,1
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	30,5	33,8	33,5	33,9	33,4
Qurilish	5,8	6,2	6,7	6,6	6,7
Xizmatlar	39,8	39,6	39,7	39,6	41,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	7,0	6,6	6,5	6,8	7,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,9	7,4	6,8	7,0	7,0
boshqa xizmat tarmoqlari	24,9	25,6	26,4	25,8	27,5

2022-yil yakunlariga ko‘ra, sanoat tarmog‘ i qo‘shilgan qiymatida

[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.

5,2 % ga oʻsish kuzatilgan. Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmogʻining qoʻshilgan qiymati 2,1 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 5,3 % ga oʻsishi hisobiga ta`minlandi. elektr, gaz, bugʻ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmogʻ ida ham 12,7 % ga ijobiy oʻsish qayd etildi. Shuningdek, suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻ ish va utilizatsiya qilish tarmogʻi qoʻshilgan qiymatida esa 8,0 % ga kamayish kuzatildi. 2021-yil bilan taqqoslaganda 2022-yilda qurilish ishlari hajmi 6,6 % ga oʻsdi. Jumladan, oʻsish sur'atlari bino va inshootlar qurilishida 104,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, fuqarolik obyektlari qurilishida 102,9 % va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida 137,8 % ni tashkil etgan.

Mamlakatning iqtisodiy oʻsish sur'atini tavsiflovchi koʻrsatkichlar bir qator kamchiliklarga ham ega:

- Birinchidan, ular mahsulot sifatining oʻzgarishini toʻliq aks ettirmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy darajasini toʻliq tavsiflab berolmaydi:

Ikkinchidan, real YMM va uning aholi jon boshiga oʻsishi boʻsh vaqtning sezilarli koʻpayishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib koʻrsatilishiga olib keladi.

Uchinchidan, iqtisodiy oʻsishni qiymat koʻrsatkichlarda miqdoriy hisoblash boshqa tomonlama uning atrof-muhitga va insonning hayot sharoitiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Iqtisodiy oʻsishning alohida tomonlarini tavsiflovchi jismoniy koʻrsatkichlar quyidagilardan iborat boʻlib, ular ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda miqdori, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi va shu kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi koʻrsatkichlar bilan tavsiflanadi:

a) Ishlab chiqarish vositalarining rivojlanish darajasi, ya'ni uning unumdorligi;

b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;

c) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili oʻrtasidagi nisbat;

d) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

O‘zbekistonda 2022-yilda YIMning nominal hajmi 888 341,7 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilga nisbatan real o‘sish 105,7 %, YIM deflyatori esa 113,8 %ni tashkil etdi (2.4-jadval). Bunda, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi YIMning 25,0 foizini yoki 208 452,9 mlrd. so‘mni, xizmatlar 35,7 foizini yoki 343 374,3 mlrd. so‘mni, sanoat 25,8 foizini yoki220 704,3 mlrd. so‘mni, qurilish 6,2 foizini yoki 55 522,7 mlrd. so‘mni va eksport import mahsulotlariga sof soliqlar 99,2 foizini yoki 60 287,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Bundan tashqari, iqtisodiyotni barcha tarmoqlarining yalpi qo‘shilgan qiymati 2022-yilda YIM umumiy hajmining 93,2 % ini tashkil etdi va 6,2 foizga ko‘payib, 828 054,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi (YIM mutloq o‘sishiga ta’siri 5,8 foiz punktni tashkil etdi).

2.4-jadval

O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti, uning dinamikasi va tarkibi[16] (2022-yil)

№	Ko‘rsatkichlar	2022-yil				2023-yil
		1-chorak	1, 2-chorak	1, 2, 3-chorak	Yillik	1-chorak
1.	**YIM** (nominal)	166 985,0	395 182,9	634 850,9	888 341,7	198 483,5
	O‘tgan yilga nisbatan real o‘sishi, foizda	106,1	105,1	106,2	105,7	105,5
	YIM deflyatori, foizda	115,7	116,4	114,1	113,8	112,6
II.	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	151 590,8	362 449,5	586 342,7	828 054,2	188 545,3
	O‘tgan yilga nisbatan real o‘sishi, foizda	106,3	105,3	106,4	106,2	105,4
	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	19 375,0	75 982,2	142 886,9	208 452,9	23 465,2
	O‘tgan yilga nisbatan real o‘sishi, foizda	102,7	102,6	103,5	103,6	103,2
	Sanoat	47 118,6	102 258,5	158 858,8	220 704,3	53 143,4
	O‘tgan yilga nisbatan real o‘sishi, foizda	104,8	102,8	106,1	105,2	104,1
	Qurilish	10 288,7	25 719,0	40 040,0	55 522,7	11 780,9
	O‘tgan yilga nisbatan real o‘sishi, foizda	106,2	106,2	106,3	106,6	104,5
	Xizmatlar	74 808,4	158 489,7	244 557,0	343 374,3	100 155,9
	O‘tgan yilga nisbatan real o‘sishi, foizda	108,2	108,1	108,4	108,5	107,0
III.	Mahsulotlarga sof soliqlar	15 394,2	32 733,5	48 508,2	60 287,5	9 938,1
	O‘tgan yilga nisbatan real o‘sishi, foizda	104,1	103,3	104,0	99,2	106,5

2020-yilda esa yalpi qo‘shilgan qiymatning o‘sishi 1,9 foizgacha sekinlashgan va 557,8 trln. so‘mga teng bo‘lgan. Mahsulotlarga sof soliqlarning YIM tarkibidagi ulushi 6,8 % ni tashkil etdi va 2021-yil bilan taqqoslaganda 0,8 % ga kamaydi (YIM mutloq o‘sishiga ta’siri - -0,1 f.p.). Iqtisodiy o‘sishning jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan boshqa jismoniy ko‘rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzili-

[16] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023 y.

shi hisoblanadi. U tarmoqlar bo‘yicha hisoblab chiqadigan mahsulot ko‘rsatkichi asosida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, iqtisodiy o‘sish tahlilida iqtisodiyotning ichidagi asosiy nisbat ham o‘rganiladi.

Iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar iqtisodiyotning jismoniy o‘sish layoqatini belgilab beradi, ular taklif omillari deb ham ataladi. Bu omillar quyidagilar:

- Tabiiy resurslarning miqdori va sifati.
- Mehnat resurslarining miqdori va sifati.
- Asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi.
- Texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Mamlakatimizda o‘tish iqtisodiyoti davrida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy o‘sishning hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda.

Ikkinchi guruh talab omillaridir. Bular:

1. Investitsion resurslar talab darajasi.
2. Aholining umumiy farovonlik darajasi.

Iqtisodiy o‘sishga taqsimlash omillari ham ta’sir qiladi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to‘liq jalb qilingan bo‘lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o‘sib boruvchi hajmidan to‘liq foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutlaq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo‘ladi.

Iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatuvchi, taklif va taqsimlash omillari o‘zaro bog‘liq va bir-birini taqozo qiladi. Masalan, resurslar miqdorining o‘sishi va sifatining yaxshilanishi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o‘sish uchun imkoniyat yaratdi. To‘liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash bunday o‘sishni ro‘yobga chiqaradi. Iqtisodiy o‘sishda resurslarni taqsimlash omillari ham o‘z o‘rniga ega bo‘lsa-da, bu muammoni tahlil qilishda asosiy e’tibor taklif omillariga qaratilishi zarur. Bu, avvalo, mehnat unumdorligining o‘sishiga olib keluvchi omillardir.

Fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi va iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti o‘z ichiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullarini, balki boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi

shakllarini ham oladi. Umuman aytganda, fan-texnika taraqqiyoti deyilganda, pirovard mahsulot chiqarishni koʻpaytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uygʻunlashtirishni taqozo qiluvchi usullarning topilishi ham tushuniladi. Amaliyotda texnika taraqqiyoti va kapital quyilmalar (investitsiyalar) mustahkam oʻzaro bogʻliq, texnika taraqqiyoti koʻpincha yangi mashina va uskunalarga investitsiyalar qoʻyishga olib keladi. Masalan, atom energiyasidan foydalanish boʻyicha texnologiyani qoʻllash uchun atom elektrostantsiyalarini koʻrish zarur boʻladi. Birinchi qarashda texnika taraqqiyoti tarixiy va shiddatli roʻy berish tavsifiga ega boʻladi. Gaz va yoqilgi dvigatellari, konveyer va yigʻma liniyalar bizni hayotga oʻtmishning eng muhim yutuqlari sifatida kirib keldi.

2.3. Iqtisodiy oʻsishni oʻlchash

Iqtisodiy oʻsish toʻliq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish plaridarajasini uzoq muddatli koʻpayishi tendentsiyasini anglatadi.

Iqtisodiy oʻsish jami taklifning oʻsishini yoki boshqacha aytganimizda, haqiqiy va potentsial YIM hajmining oshishini bildiradi. Iqtisodiy oʻsish muammosini oʻrganish natijasida real ishlab chiqarish tizimi duch keluvchi – cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammosiga yechim topiladi. Demak, iqtisodiy oʻsish omillari va ular samaradorligini oʻrganish hamda tahlil qilish jamiyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir.


Iqtisodiy oʻsish nafaqat mamlakat real daromadlarining oʻsishi, shuningdek, jon boshiga toʻgʻri keladigan real daromadlarning oʻsishini ham anglatadi. Shu sababli ham iqtisodiy oʻsish ikki xil usul bilan oʻlchanadi.

Birinchi usulda – iqtisodiy oʻsish real YIMni oʻtgan davrga nisbatan oʻzgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari dinamikasini aniqlash uchun ishlatiladi. Bunda, joriy yildagi real YIM (Yt) hajmining bazis yildagiga (Y_{t-1}) (asosan oldingi yilga) nisbatan foiz koʻrinishidagi oʻsishi aniqlanadi, ya'ni:

$$\mathbf{Io} = \frac{\mathbf{Yt}}{\mathbf{Yt-1}} \boldsymbol{x}\mathbf{100} \qquad \mathbf{(2)}$$

Ikkinchi usulda iqtisodiy o‘sish aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real YIMning o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi sifatida aniqlanadi.

Iqtisodiy o‘sish nazariyasi va modellarida YIM o‘rniga SIM, YMD, SMD ko‘rsatkichlaridan ham foydalanilishi mumkin. Iqtisodiy nazariyada iqtisodiy o‘sish daromadlarni qanday nisbatlarda iste’mol va investitsiyalarga bo‘linishiga bog‘liq deb qaraladi. Iste’mol hajmi dinamikasi iqtisodiyotning pirovard maqsadini va yashash darajasi oshishini bildirsa, investitsiyalar hajmining o‘zgarishi resurs imkoniyatlarining o‘sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini aks ettiradi.



2.8-rasm. Real ishlab chiqarish hajmini oshirish yo‘llari

Iste’mol va investitsiya o‘rtasida yetarlicha muqobillik mavjud, chunki joriy iste’mol miqdorining oshishi investitsiyalarning daromaddagi ulushini pasaytirish iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini qisqartiradi.

Iqtisodiy o‘sish real kattaliklarda, qiyosiy baholarda o‘lchanadi.

Har bir mamlakat iqtisodiy o‘sishga intiladi, chunki iqtisodiy o‘sish:

- **birinchidan,** milliy mahsulot hajmi va daromadning ko‘payishiga;
- **ikkinchidan,** resurslardan samarali foydalanishga;
- **uchinchidan,** yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga;
- **to‘rtinchidan,** xalqaro bozorlarda mamlakat obro‘sining oshishiga olib keladi.

Yuqoridagi chizmadan koʻrinib turibdiki, real mahsulot ikki asosiy yoʻlda koʻpaytirilishi mumkin:

1) koʻproq resurs jalb etish;

2) resurslardan samarali foydalanish.

Respublikamizda hozirgi kunda texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qoʻllash, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning yangi usul va shakllarini joriy qilish hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oʻsishini aniqlab beruvchi asosiy omillar bir ishlovchiga toʻgʻri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi. Ma'lum vaqt ichida, kapitalning hajmi mutlaq koʻpayishi mumkin, ammo ishchi kuchi soni tezroq oʻssa, mehnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir ishchining asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi kamayadi.

Ta'lim va malakali tayyorgarlik, mehnat unumdorligini oshiradi va natijada ancha yuqori ish haqiga ega boʻlish imkoniyatini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar qoʻyish mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Oʻz-oʻzidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy koʻrsatkichi ta'lim darajasi hisoblanadi.

Real voqelikda iqtisodiy oʻsishga salbiy ta'sir koʻrsatuvchi omillar ham mavjud. Bunday omillar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- mehnat muhofazasi;
- atrof-muhit va ekologik vaziyat;
- ekologik muammolar;
- xodimlarning mehnat sharoiti;
- sogʻliqni saqlash;
- tabiiy ofatlar;
- favqulodda roʻy beradigan iqtisodiy-siyosiy oʻzgarishlar.

Yuqori iqtisodiy oʻsish sur'atlarini saqlab qolish uchun ustuvor vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan oʻrta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional oʻzgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori oʻsish sur'atlarini ta'minlash;

- xarajatlarning ijtimoiy yoʻnaltirilganini saqlab qolgan holda

davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

- ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash.

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

- milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

- xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

- yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

2.4. Davlat iqtisodiy siyosatining tamoyillari va yoʻnalishlari

Davlatning iqtisodiy strategiyasi uning siyosiy strategiyasini amalga oshirish uchun iqtisodiyotga davlatning aralashuvi mexanizmlari va ustuvorliklarining transformatsiyalashuvini belgilab beradi. Iqtisodiy strategiya uzoq muddatli davr ichida davlat faoliyatining yoʻnalishi va uning amalga oshirish prinsiplarini ifodalaydi. Davlatning iqtisodiy strategiyasining muhim turlari quyidagilardan iborat:

1) Rivojlanishning ijtimoiy samarali strategiyasi;

2) Korporativ strategiya ma'lum guruh kishilarning boylik orttirishga qaratilgan tor egoistik manfaatlarini amalga oshirishga qaratiladi;

3) Liberal-iqtisodiy strategiya tovar va kapitalning erkin harakati uchun ochiq boʻlgan iqtisodiyot uchun qoʻllaniladi;

4) Tartibga soluvchi iqtisodiy strategiya davlat tovar va kapital harakati uchun nazorat oʻrnatganida qoʻllaniladi;


5) Mobilizatsion iqtisodiy strategiya davlatning mavjudligiga tahdid kuchayganida, favqulodda holatlar sharoitida davlatning ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalarga toʻgʻridan-toʻgʻri aralashuvi kuchayadi;

6) Davlatning iqtisodiy integratsiya strategiyasi;

7) Samarali milliy strategiya.

Davlatning ijtimoiy samarali iqtisodiy strategiyasi fuqarolar uchun maqbul tarkibdagi pirovard mahsulotning yuqori oʻsish sur'atining barqarorligini ta'minlashni, toʻliq samarali ish bilan bandlikka, inflyatsiyani jilovlashga va daromadlarning odilona taqsimlanishiga erishishini ifodalaydi. Davlat iqtisodiy strategiyasi sifatining kriteriyasi (mezoni) uning ijtimoiy samarali iqtisodiyotga muvofiqligi darajasi hamda unga mamlakat ichidagi va jahon hamjamiyati tomonidan bildirilgan ishonch darajasini ifodalaydi.

Davlatning iqtisodiy siyosati uning strategik vazifalaridan kelib chiqib jamiyatda ishlab chiqarish, daromad va ne'matlarni taqsimlash jarayonlarini tartiblash uchun davlat tomonidan joriy davr ichida qoʻllaniladigan chora-tadbirlar tizimini ifodalaydi.



2.6-rasm. Davlatning iqtisodiy siyosati

Davlatning iqtisodiy siyosati oʻz ichiga tashqi iqtisodiy, tarkibiy-investitsiyaviy, institutsional, agrar, sanoat, ijtimoiy, narx, moliyaviy, soliq-budjet, pul-kredit, hududiy (mintaqaviy) siyosatlarni oladi (2.6-rasm).

Davlat siyosatining muvaffaqiyati jamiyat ehtiyojlari va ularni qondirish vositalarini aniqlash uchun real holatni aniq belgilash va iqtisodiy bilimlar darajasiga bogʻliqdir.

Davlat iqtisodiy siyosatining printsiplari quyidagilarda ifodalanadi:

Iqtisodiyotning samaradorlik tamoyili. Mavjud resurslar hisobiga koʻp miqdorda neʼmatlar yoki kam sarf-xarajatlar evaziga koʻp miqdorda mahsulotlar ishlab chiqarish.

Neʼmatlarning odilona taqsimlanishi tamoyili. Mamlakat fuqarolari daromadlaridagi tengsizlikni kamaytirish va iqtisodiyot samaradorligiga qoʻshgan hissalariga muvofiq har bir fuqaro daromadlarining koʻpayib borishini taʼminlash.

Barqarorlik tamoyili:

- iqtisodiy oʻsishning barqarorligi;
- inflyatsiya oʻsishi surʼatining pastligi;
- ishsizlik darajasining yuqori emasligi.

Davlat iqtisodiy strategiyasi sifati indikatorlari quyidagilar bilan belgilanadi: Davlat iqtisodiy strategiyasi sifati indikatorlari quyidagilar bilan belgilanadi:

Iqtisodiy indikatorlar davlat iqtisodiy xavfsizligi sharti buzilishining asosiy belgisi – YIM tarkibida ishlab chiqarish investitsiyalari ulushining kamayishidir.

Ijtimoiy indikatorlar xavf va tahdidning bosh signali mehnat unumdorligi rag‘batlarining susayishi va jamiyatda aholi ijtimoiy tabaqalanishining kuchayishi.

Moliyaviy indikatorlar moliyaviy xavf signali – ishlab chiqarishning qisqarishi va ishlab chiqarish investitsiyalari hajmining pasayishi sharoitida davlat qarzining o‘sib borishi.

Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida davlat va hukumatning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- xususiy mulkni erkinlashtirish va huquqiy jihatdan kafolatlash;
- bozor iqtisodiyoti uchun ma’muriy va moliyaviy infratuzilmalarni yaratish;
- narxlarni erkinlashtirish;
- sanoat siyosatini asoslash va amalga oshirish, investitsiyalar, iqtisodiyotni yangilash, modernizatsiya qilish va tarkibiy o‘zgartirish uchun bozor sharoitlarini yaratish;
- jahon bozori uchun iqtisodiyotning ochiqligini ta’minlash;
- makroiqtisodiy ahvolni boshqarish, oqilona budjet-soliq va pul-kredit siyosatni amalga oshirish;
- iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish bo‘yicha markaziy, hududiy va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ijtimoiy, ta’lim infratuzilmalari va mehnat bozorini vujudga keltirish;
- hukumatning bozor iqtisodiyotini ma’muriy tartibga solish qobiliyatini samarali davlat xizmatini shakllantirish.

Davlatning iqtisodiy siyosati natijalarini hamda jamiyatda barpo etilgan tashkiliy va mulkchilik munosabatlari asosida amalga oshirilayotgan jami iqtisodiy jarayonlar majmuini ifoda etuvchi milliy xo‘jalik tizimi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish modeli deb ataladi. Bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini aks ettiruvchi murakkab ko‘rsatkichlar tizimi va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaxlit holda ifoda etadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish obyektiv tavsif

kasb etadi. Koʻplab iqtisodchilar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishining zarurligini faqat bozorning kamchiliklari, uning koʻplab iqtisodiy muammolarni hal eta olmaslik holati bilan izohlaydilar. Bu ma'lum ma'noda toʻgʻri boʻlsa-da, biroq, iqtisodiyotga davlat ta'sirining obyektiv zarurligi, eng avvalo, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning obyektiv asosi boʻlib ham milliy iqtisodiyot darajasida, ham xalqaro miqyosda ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi negizida ishlab chiqarishning umumlashuvi jarayoni xizmat qiladi.

Bu jarayon quyidagilarda namoyon boʻladi:

- chuqurlashib borayotgan ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida ishlab chiqarish ixtisoslashgan tarmoqlarining oʻzaro aloqasi va oʻzaro bogʻliqligi yanada kuchayadi;
- ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi va markazlashuvi natijasida alohida xoʻjalik birliklarining mayda boʻlaklarga ajralib ketish holatlari barham topadi;
- ishlab chiqarishning yirik korxonalarda toʻplanuvi jarayoni oʻsadi;
- turli iqtisodiy mintaqalar oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalar va faoliyat almashuvi jadallashadi.

Ishlab chiqarishning umumlashuvi darajasining oshishi bilan oʻzaro muvofiqlashtirilgan holda xoʻjalik yuritish, takror ishlab chiqarish nisbatlarini ongli ravishda tartibga solish, yirik ishlab chiqarish majmualari, yaxlit iqtisodiyotni markazlashtirilgan holda boshqarishga obyektiv ehtiyoj paydo boʻladi. Shunga koʻra, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ishlab chiqarish munosabatlarining har qanday tizimida ishlab chiqarish umumlashuvining ma'lum darajasida obyektiv zaruriyatga aylanadi.

Davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish mexanizmi quyidagi chora-tadbirlardan iborat:

- tashkiliy-boshqaruv;
- me'yoriy-huquqiy;
- moliyaviy-iqtisodiy;
- ijtimoiy-psixologik.

Fiskal siyosatning muhim qismi soliq siyosatidir:

Soliq siyosati – soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza

yaratish, joriy etilgan soliqlarning amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir.

Soliq siyosatini amalga oshirishda davlat quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

fiskal maqsad – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, hududiy va mahalliy dasturlarini moliyalashtirish maqsadida milliy daromadning bir qismini budjet tizimiga jalb etish;

iqtisodiy maqsad – ijtimoiy ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, milliy daromad va YaIMni hududlararo, tarmoqlararo va ijtimoiy qayta taqsimlash, talab va taklifni boshqarish, tadbirkorlik va investitsion faoliyatni rag‘batlantirish maqsadida iqtisodiyotga soliq mexanizmi orqali ta’sir ko‘rsatish;

ijtimoiy maqsad – aholining kam ta’minlangan qatlami, nogironlar va urush holatlari qatnashchilariga soliqdan imtiyoz va yengilliklar taqdim etish hamda soliqqa tortishning progressiv tizimi hisobiga aholi daromadlari darajasidagi tengsizlikni ma’lum darajada yo‘qotish;

ekologik maqsad – ekologik to‘lovlar va moliyaviy jarimalarning rolini kuchaytirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishni ta’minlash;

nazorat maqsadi – davlat budjetiga tushumlarning o‘z vaqtida va to‘liq tushishini, shuningdek, soliq qonunchiligiga rioya qilinishini ta’minlash maqsadida sayyor va kameral tekshirishlarni o‘tkazish. Soliq nazorati tufayli olinadigan ma’lumotlar davlat tomonidan ham soliqlarning o‘zini rejalashtirishda, ham mamlakat va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida taktik va strategik qarorlarni qabul qilishda foydalaniladi;

xalqaro maqsad – ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf qilish, bojxona to‘lovlarini qisqartirish va milliy soliq tizimlarining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash bo‘yicha ikki va ko‘p tomonlama bitimlarni tuzish orqali boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash.

Iqtisodiy siyosat – bu makroiqtisodiy siyosat bo‘lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga oid puxta o‘ylangan va ishlab chiqil-

gan yo‘l-yo‘riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa’y-harakatlaridir. Lekin davlat siyosatining aniq yo‘nalishlari bor.

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruhlash mumkin:

- bevosita ta’sir qilish usullari;
- bilvosita ta’sir qilish usullari;
- tashqi iqtisodiy usullar.

Markazdan boshqarish tartibi ustun bo‘lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvida bevosita ta’sir qilish usullari ustun bo‘lsa, bozor iqtisodiyoti esa, asosan, iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan bog‘langan. Shu bilan birga barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning davlat sektori mavjud. Davlat sektorini boshqarish mulkchilikning davlat shakliga asoslanib, u asosan, quyidagi uchta yo‘l orqali shakllanadi:

1) ishlab chiqarish vositalari egalariga pul yoki qimmatli qog‘ozlar bilan tovon to‘lash orqali mulkni milliylashtirish;

2) davlat budjeti mablag‘lari hisobiga yangi korxonalar, ba’zi hollarda yaxlit tarmoqlarni barpo etish;

3) davlat tomonidan xususiy korporatsiyalarning aksiyalarini sotib olish va aralash davlat-xususiy korxonalarini tashkil etish.

Monetar siyosat – bu davlatning pul-kredit siyosati bo‘lib, pul muomalasini tartiblash, tovar va pul massasi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, iqtisodiyotdagi pul oqimlarini boshqarib turish siyosati hisoblanadi. Uning maqsadi narxlarni va shunga ko‘ra milliy pul birligi xarid qurbini, uning valyuta kursini barqarorlashtirish, oxir-oqibatda pulga talab bilan uning taklifini muvozanatlashtirishdan iborat bo‘ladi.

Monetar siyosatning uchta asosiy jihati bor:

1. Qayta moliyalashtirish yoki hisob siyosati. Bunda davlat nomidan markaziy banklar uchyot stavkasini o‘zgartiradi. Stavka oshganda pul qimmatlashib, unga talab qisqaradi. U pasaytirilganda pul arzonlashib, unga talab oshadi. Bu ayni paytda kreditning arzon yoki qimmat bo‘lishini bildiradi. Bu esa iqtisodiyotga kredit hisobidan yuboriladigan investitsiyalarni o‘zgartirib, uning o‘sishiga ta’sir etadi.

2. Ochiq bozorda operatsiyalar oʻtkazish siyosati. Bu davlat obligatsiyalarini chiqarib, firmalar, banklar va aholiga sotish va vaqti kelganda ularni qaytadan sotib olishni bildiradi. Bu obligatsiyalarni olish qulay boʻladi, chunki ularga qat'iy belgilangan foizni davlat toʻlaydi, bu bilan ularning daromadliligi kafolatlanadi. Davlat obligatsiyalari sotilganda pul ularga bogʻlanib qoladi, natijada uning muomaladagi miqdori qisqaradi. Aksincha, ular qaytadan sotib olinganda pul ulardan boʻshab, muomalaga keladi, u yerdagi pul miqdori koʻpayadi. Demak, bu usul bilan ham pul miqdori tartiblanadi.

3. Majburiy zaxira siyosati. Bu siyosatga binoan markaziy banklar boshqa banklar uchun kredit resursining majburiy zaxirasini kiritadi. Bu tartibga koʻra banklar kreditga beriladigan pulning bir qismini markaziy banklar ixtiyoriga beradi. Bu zaxira oshsa, kredit puli qisqaradi, agar u kamaysa, bu pul koʻpayadi. Masalan, mamlakatda jami kredit resurslari 80 mlrd. dollar. Shundan 10 foiz zaxiraga oʻtkazilsa, kredit uchun 72 mlrd. dollar qoladi. Bordi-yu bu zahira 15 foizga chiqarilsa, kreditga 68 mlrd. dollar qoladi. Bu bilan kreditga moʻljallangan pulning taklifi oshadi yoki qisqaradi. Shunga qarab, kredit olish goh oshib, goh qisqarib turadi. Monetar siyosatning aytilgan yoʻnalishlari shuni koʻrsatadiki, unda turli iqtisodiy vositalar qoʻllaniladi.

Monetar siyosat ikki xil boʻladi:

1) qattiq siyosat. Bunda pul massasi qisqartiriladi, uning emissiya (pul chiqarish) hisobidan oʻsishi qat'iy chegaralanadi. Natijada pul massasi qisqarib, tovar massasiga tenglashadi. Pulning qisqarishi talabni kamaytiradi, narxlar esa oʻsmaydi, pul birligining xarid qurbi barqarorlashadi. Pul topishga intilish iqtisodiyotning jonlanishiga olib keladi. Bunday siyosat ilgari ta'kidlaganimizdek, odatda iqtisodiyotni tanglikdan chiqarish yoki inflyatsiyani keskin susaytirish uchun qoʻllaniladi;

2) yumshoq monetar siyosat. Bunda davlat pul massasining ortishiga toʻsqinlik qilmaydi, pul emissiyasi hadeb cheklanavermaydi, natijada pul koʻpayib, uning arzonlashuvi yuz beradi. Yumshoq siyosat iqtisodiyot oʻsish pallada boʻlganda koʻproq qoʻllaniladi, chunki pul massasining oʻsishiga qarab tovarlar massasi ham oʻsa-

di. Bunda tovar-pul muvozanati pulni qisqartirish hisobidan emas, balki tovarlarning koʻpayishi tufayli ta'minlanib turadi.

Ikkinchi bob boʻyicha xulosalar

Iqtisodiy oʻsish – bu ijtimoiy mahsulot va uni ishlab chiqarish omillarining miqdoriy oʻsishi va sifat jihatidan yaxshilanishidir. Qarab chiqilayotgan iqtisodiy tizimda (mamlakatda, mintaqada, dunyoda) tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmining oshishi va ular sifatining oshishi bilan ifodalanadi. Iqtisodiy oʻsish oʻlchovi yaxlit tarzda real YIMning yoki aholi jon boshiga YIMning oʻsishida ifodalanadi.

XX asr boshlarida iqtisodiy oʻsish va rivojlanish nazariyasining asoslari Jozef Shumpeter tomonidan yaratilgan. U birinchi boʻlib oʻsish va iqtisodiy rivojlanish oʻrtasidagi farqlarni kiritdi, innovatsiyalarning mohiyatini iqtisodiy oʻsishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida belgilab berdi. Jozef Shumpeter oʻzining asosiy ilmiy ishlaridan biri boʻlgan va 1911-yilda nashr etilgan "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" nomli monografiyasida iqtisodiy oʻsishni miqdoriy oʻzgarishlar — vaqt oʻtishi bilan bir xil tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishning koʻpayishi sifatida ta'riflagan.

Jozef Shumpeter innovatsiyalarni rivojlanish va taraqqiyotning asosiy dvigateli, shuningdek, innovatsiyalarga talabni yaratuvchi tadbirkorlik resursi manbai sifatida aniqlashtiradi, bu yerda oʻsish – miqdoriy oʻzgarishlar, rivojlanish esa oʻsish va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan sifatli ijobiy oʻzgarishlarni ifoda etadi. Shumpeterning gʻoyalari Filipp Agiyon tomonidan Shumpeteriancha oʻsish modelini shakllantirishda foydalanilgan. Zamonaviy iqtisodiy oʻsish va rivojlanish nazariyasiga Robert Solou, Xirofumi Udzava, Frenk Ramsey, Tyalling Kupmans, Devid Kass, Pol Samuelson, Piter Daymond, Geri Bekker, Pol Romer, Uilyam Nordxaus, Oded Galor, Daron Asemoglu kabi olimlar katta hissa qoʻshishgan.

Solou modeli zamonaviy nazariya uchun asosdir. Bu ekzogen oʻsish modelidir, chunki undagi mehnat unumdorligining oshishi tashqi tomondan belgilanadi. Bu modelning oʻziga xos kamchiliklaridan biri sanaladi. Ikkinchi kamchilik – jamgʻarishning ekzogen normasidir. Birinchi kamchilik endogen oʻsish modellarida

bartaraf etiladi. Birinchi avlod modellarida iqtisodiy o‘sish inson kapitalining jamg‘arilishi bilan bog‘liq. Ikkinchi avlod modellari iqtisodiy agentlarni tanlash natijasida innovatsiyalar va keyinchalik mahsuldorlikning o‘sishini tahlil qiladi. Masalan, Romer modelida firmalar monopolistik raqobat tufayli innovatsiyalar kiritadilar va xodimlar ularning har biridan olingan qaytimni taqqoslab, bandlik sohasini (tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish yoki bilim ishlab chiqarish) tanlaydilar. Ikkinchi kamchilik – jamg‘arish nomasining ekzogenligi – vaqtlararo tanlov muammosini kiritish orqali hal qilinadi. Endogen me’yorga ega bo‘lgan asosiy modellar Ramsey va Daymond modellari (tutash avlodlar modeli) hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘sish tarixi borasida yagona yondashuvni Oded Galor taklif qiladi. U uchta o‘sish rejimini qarab chiqadi: maltuscha, maltusdan keyin va zamonaviy. Zamonaviy rejimga o‘tish mehnat unumdorligining oshishi va demografik o‘tish bilan bog‘liq bo‘lib, bu aholi o‘sish sur’atlarining pasayishiga olib keladi. Maltuscha rejimdan farqli o‘laroq, bu aholi jon boshiga daromadning barqaror o‘sishiga olib keladi.

Iqtisodiy o‘sish aholi farovonligi darajasi yoki mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasidan ko‘ra oddiy tavsif va ko‘rinishga ega bo‘lgan miqdoriy ko‘rsatkichdir. Iqtisodiy o‘sishning asosiy miqdoriy ko‘rsatkichi aholi jon boshiga real YIM hisoblanadi. Kamdan kam hollarda Real yalpi milliy mahsulot (YMM), sof milliy mahsulot (SMM) yoki milliy daromad (MD) ishlatiladi. Iqtisodiy o‘sish aholining umumiy turmush darajasi va sifatining o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq – umr ko‘rish davomiyligining oshishi, tibbiy yordam sifati, sifatli ta’limning mavjudligi, ish vaqtining qisqarishi, fuqarolarning xavfsizligi va boshqalar. Shunga qaramay, aholi jon boshiga daromad va farovonlik o‘rtasida aniq bog‘liqlik yo‘q.

Oldingi texnik asosini saqlab qolgan holda ishlab chiqarish omillarining miqdoriy o‘sishi hisobiga ekstensiv iqtisodiy o‘sishga erishiladi. Ishchi kuchidan foydalanish ortib boradi, kapital qo‘yilmalar hajmi va ishlab chiqarishda foydalaniladigan tabiiy resurslar hajmi ortib boradi (masalan, qishloq xo‘jaligida haydaladigan yerlar maydonining ko‘payishi). Chegaraviy navflilik konsepsiyasi doirasida ekstensiv yondashuv yakuniy mahsulotning o‘sishiga nisbatan foy-

dalaniladigan iqtisodiy resurslar hajmining tezroq oʻsishida namoyon boʻladi. Shuningdek, ekstensiv oʻsish belgilari sirasiga oraliq mahsulot oʻsish sur'atlarining yakuniy mahsulotdan oshib ketishi, umumiy ijtimoiy mahsulotda joriy xarajatlarni qoplash ulushining koʻpayishi, ishlab chiqarish kapital qoʻyilmalarining milliy daromaddagi ulushining koʻpayishi kabilar kiradi.

Intensiv iqtisodiy oʻsishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan yaxshilash orqali erishiladi. Bu mehnatning yanada ilgʻor vositalari va tejamkor mehnat predmetlarini qoʻllash, ishchi kuchining malakasini oshirish, ishlab chiqarish salohiyati, xomashyo va materiallardan foydalanishni yaxshilash hisobiga amalga oshadi. Ilm-fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarining rivojlanishi va ularni oʻzlashtirish darajasining oʻsishi hisobiga iqtisodiy oʻsishning intensiv tipi ustun ahamiyat kasb etadi, xomashyo taqchilligining ortishi va mehnat resurslarining tanqisligi sharoitida u rivojlanishning birdan bir yoʻli boʻlib qoladi.

Amalda iqtisodiy oʻsishning ekstensiv va intensiv turlari sof shaklda mavjud boʻlmaydi, ular oʻzaro bogʻliqlik va ma'lum nisbatlarda mavjud boʻladi.

Iqtisodiy oʻsishni belgilovchi omillar quyidagilardan iborat:

- mehnat resurslarining miqdori va sifati;
- demografik yuk koeffitsienti va aholining demografik qarishi,
- siyosiy va iqtisodiy institutlar faoliyati va samaradorligi, asosiy kapitalning samaradorligi
- tabiiy resurslarning miqdori va sifati
- boshqaruv samaradorligi,
- texnologiya samaradorligi,
- geografik joylashuv.

Demografiya, shuningdek, demografik oʻtishdan oʻtgan aholisi boʻlgan rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda ham iqtisodiy oʻsishning muhim omiliga aylanmoqda. Aholining demografik qarishi va natijada oʻlimning asta-sekin oʻsib borishining tugʻilish darajasidan yuqorilishi va immigratsiyaning pasayishi yoki past immigratsiya sharoitida aholi depopulyatsiyasining paydo boʻlishi taraqqiy etgan mamlakatlarda iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlarining past boʻlish sabablaridan biri hisoblanadi.

Uzoq muddatli iqtisodiy oʻsishning asosiy sharti ma'lum bir davlat yoki mamlakatdagi siyosiy institutlarning samaradorligiga bogʻliq degan qarashlar ham yoʻq emas. Bunda na iqlim, na geografik joylashuv, na tabiiy resurslarning miqdori va sifati hech qanday rol oʻynamaydi va mehnat resurslarining miqdori va sifati, asosiy kapitalning samaradorligi, boshqaruv samaradorligi va texnologiya samaradorligi kabi omillar ikkinchi darajali boʻlib, siyosiy institutlarning tabiati bilan belgilanadi.

Iqtisodiy oʻsishni oʻlchashda YIM ishlab chiqarish (inflyatsiyani hisobga olgan holda ma'lum vaqt davomida mamlakat ichida ishlab chiqarilgan barcha yakuniy tovarlar va xizmatlarning bozor qiymati boʻyicha) yoki undan foydalanish (xarajatlar boʻyicha) asosida YIM oʻsish sur'atlarini hisoblash yoʻli orqali amalga oshiriladi. Taxminiy hisob-kitoblar borasida "yetmishga boʻlish" qoidasidan foydalaniladi. Masalan, ushbu qoidaga koʻra, agar iqtisodiy oʻsish yiliga taxminan 3,5% boʻlsa, unda real YIM 20 yil ichida ikki baravar koʻpayadi va 1000 yil ichida real YIM 250 ≈ 1015 martagacha oʻsadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy oʻsish tushunchasi?
2. Iqtisodiy oʻsishni oʻlchash?
3. Iqtisodiy oʻsishning sifati?
4. Davlatning iqtisodiy siyosati va uning koʻrinishlari?
5. Monetar siyosat nima?
6. Monetar siyosatning qanday asosiy jihatlari bor?
7. Qattiq va yumshoq monetar siyosatning farqi nima?

Iqtisodiyot – ot, siyosat – arava. Ular hamisha o‘z o‘rnida bo‘lmog‘i lozim, iqtisodiyot siyosatdan oldinda yurishi lozim, aksincha emas.

Muhammad ibn Rashid al-Maktum

III BOB. IQTISODIY SIYOSATNI ISHLAB CHIQISH VOSITALARI VA CHEKLOVLAR

3.1. Iqtisodiy siyosat usullarining tasnifi
3.2. Iqtisodiy o‘sishning institutsional asoslarini takomillashtirish
3.3. Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda klasterlashtirish siyosati
3.4. Tuzilmaviy siyosat va iqtisodiyotni modernizatsiyalash
3.5. Urbanizatsiya jarayonlarining iqtisodiy siyosatga ta’siri

3.1. Iqtisodiy siyosat usullarining tasnifi

Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish uchun barcha ta’sir choralarini ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilish choralari. Bu usullarda iqtisodiyot subyektlari mustaqil ravishda emas, balki davlat ko‘rsatmasi bo‘yicha qaror qabul qilishlarini nazarda tutadi. Misollar: soliq qonunlari, amortizatsiya qoidalari, davlat investitsiyalari uchun budjet tartiblari.

2. Bilvosita ta’sir choralari. Bu usullarning mohiyati shundan iboratki, davlat xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bevosita ta’sir ko‘rsatmaydi. U faqat iqtisodiyot subyektlariga iqtisodiy siyosat maqsadlariga mos keladigan iqtisodiy qarorlarni mustaqil tanlash uchun sharoit yaratadi.

Tashkiliy va institutsional mezonlarga asoslangan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish usullarining yana bir tasnifi mavjud. Ushbu yondashuv bilan quyidagilar mavjud: ma’muriy, iqtisodiy va institutsional usullar.

Ma’muriy choralar.

Tartibga solish harakatlarining ma’muriy choralari yig‘indisi huquqiy infratuzilma bilan ta’minlanadi. Ma’muriy chora-tad-

birlarning asosiy vazifasi jamiyatda barqaror, qonunga asoslangan muhitni ta'minlashdan iborat: mulk huquqini saqlash, raqobat muhitini himoya qilish, erkin tanlash va iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini ta'minlash.

Ma'muriy choralar, o'z navbatida, taqiqlash, ruxsat berish, majburlash choralariga bo'linadi.

Iqtisodiy chora-tadbirlar.

Iqtisodiy chora-tadbirlarga davlatning iqtisodiy dastaklari yordamida bozor munosabatlariga ta'sir ko'rsatadigan harakatlari kiradi. Bu chora-tadbirlar deganda yalpi talabga, yalpi taklifga, kapitalning markazlashuv darajasiga, iqtisodiyotning ijtimoiy va tarkibiy jihatlariga ta'sir ko'rsatishning turli usullari tushuniladi.

Iqtisodiy chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- moliyaviy siyosat
- budjet siyosati;
- fiskal siyosat;
- pul-kredit siyosati;
- iqtisodiy prognozlash, rejalashtirish va dasturlash;
- institutsional chora-tadbirlar.

Institutsional chora-tadbirlar muayyan davlat institutlarini yaratish, saqlash va rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, "muassasa" ijtimoiy odatlar guruhini yaxshiroq tavsiflash uchun og'zaki belgi sifatida tushuniladi. Institutlarning mavjudligi jamiyatda ma'lum ijtimoiy guruhlar uchun odat yoki xalq uchun odat bo'lib qolgan hukmron va barqaror fikrlash yoki xatti-harakatlarning mavjudligini anglatadi.

Institutsional shakllarni taqsimlashning turli xil variantlari:

- bevosita vazifasi hukumat maqsadlarini amaliy amalga oshirish bo'lgan ijro etuvchi hokimiyat organlari tuzilmasi;
- iqtisodiyotning davlat sektori obyektlarini, ya'ni davlat mulkini shakllantirish va saqlash;
- milliy iqtisodiy dasturlar va iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqish;
- iqtisodiy tadqiqot markazlari (turli mulkchilik shakllariga ega), iqtisodiy axborot institutlari, savdo-sanoat palatalari, turli xo'jalik kengashlari va birlashmalarini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy muam-

molar bo‘yicha maslahatchilar, maslahatchilar, ekspert kengashlari institutlari faoliyatini ta’minlash;

• nodavlat tuzilmalarni: biznes va kasaba uyushmalarini huquqiy, axborot bilan ta’minlash;

• iqtisodiy integratsiyaning turli shakllarida ishtirok etish, iqtisodiy masalalar bo‘yicha muntazam xalqaro uchrashuvlar tashkil etish (G7, G8, G20, OPEC va boshqalar).

• Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish davlatning iqtisodiyotga ta’sir etish mexanizmini tashkil etuvchi chora-tadbirlar, vositalar majmuasidan foydalanishni nazarda tutadi.

3.2. Iqtisodiy siyosatning institutsional asoslarini takomillashtirish

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida o‘zgarishlarga erishildi, iqtisodiyotning yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlari – yirik aksiyadorlik jamiyatlari, xolding kompaniyalar va xususiy mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar tashkil etildi. Shu bilan birga ular faoliyat yuritishi shartlarini belgilab beruvchi rasmiy qoidalar (konstitutsiya, qonunlar, farmonlar va boshqalar) hamda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va boshqa norasmiy normalarni o‘z ichiga olgan institutsional muhit hamda mamlakat iqtisodiyotining institutsional tarkibi shakllandi.

Shakllangan institutsional muhitning bazaviy tarkibining asosini xalqning turmush tarzini, urf-odatlarini, diniy e’tiqodlarni hisobga oluvchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar, vazirlik va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlar tashkil qiladi. Bu jamiyatda mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlarining bozor iqtisodiyotiga o‘tishi, moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Shu bilan bir qatorda, islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni institutsional rivojlantirish yo‘nalishida hal etilishi lozim bo‘lgan, o‘z yechimlarini kutayotgan, yangi O‘zbekistonni taraqqiy etishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar, vazifalar mavjud. Gap shundaki, har qanday davlat va jamiyat, uning iqtisodiy agentlari

ma’lum bir institutlar doirasida faoliyat yuritadi va rivojlanib boradi. Vaqt o‘tishi bilan o‘sha institutlar ichki rivojlanish talablari va tashqi omillar ta’siri ostida “eskiradi”, ular taraqqiyotga to‘siq bo‘lib qoladi. Shunday holatlarda mavjud institutlar va institutsional normalarni takomillashtirish yoki ular o‘rniga yangilarini kiritish lozim bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, mamlakatimizda O‘zbekiston Prezidenti Farmon, Qarorlari orqali institutsional normalar hamda mexanizmlar takomillashtirildi va yangi institutlar joriy qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2022-yildagi PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni asosida bugungi kunda keng qamrovli ma’muriy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan bir vaqtda xo‘jalik faoliyatini yuritish hamda rivojlanishini belgilab beruvchi rasmiy qoidalar va normalarni o‘z ichiga oluvchi yangi institutsional muhit shakllanmoqda. Yangi institutsional muhitda O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishini belgilovchi umumiy institutsional model sifatida mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlariga hamda yangicha boshqarish tizimini barpo etilishiga moddiy, tabiiy, mehnat va boshqa resurslardan samarali foydalanish bilan birgalikda iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirmoqda. Natijada mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishi bosqichma-bosqich barqarorlashdi va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari ta’minlanmoqda.

Institutsional normalar va mexanizmlar iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar samaradorligini oshirishga asos yaratishi bilan birga, uzoq istiqbolda iqtisodiy o‘sishga yanada keng sharoit ochib bermoqda. Institutsional muhitni shakllanishi bilan bog‘liq muammolar hamda institutsional cheklovlarni yuzaga kelishi yoki institutsional normalarning “eskirishi” jarayonlari to‘xtadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da davlat va jamiyat qurilishi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 7 ta yangi qonun qabul qilish, 15 ta amaldagi qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali davlat va jamiyat boshqaruviga yangi institutsional-huquqiy normalar kiritilgan ham mavjudlari takomillashtirilgan. Shu bilan bir vaqtda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyo-

yevning 2020-yil 29-dekabrida Oliy Majlis va xalqimizga yoʻllagan Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "...Soʻnggi toʻrt yilda barcha sohalarda keng koʻlamli oʻzgarishlarni amalga oshirish boʻyicha 150 ta qonun, 2 mingga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi. Lekin joylarda barcha rahbarlar ham ushbu hujjatlar mazmun-mohiyatini tushunib, berilgan imkoniyatlardan foydalanmoqda, aholi va tadbirkorlarga zarur shart-sharoit yaratmoqda, deb ayta olamiz"[17].

Oʻzbekiston Prezidentining ushbu yoʻnalishda bildirgan fikrlari Yangi Oʻzbekiston rivojlanishining muhim ustuvor vazifalaridan biri sifatida mamlakat iqtisodiyoti institutlarini yanada rivojlantirishni koʻzda tutadi. Ushbu yoʻnalishdagi vazifalarni samarali hal etish, mavjud institutsional muhitni yanada takomillashtirilishiga, amaldagi nazorat tizimini har bir inson oʻz hayotida his etishi va sezishiga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, oʻrta va uzoq istiqbolda iqtisodiy rivojlanishning barqaror oʻsish sur'atlarini saqlab qolish hamda aholi turmush sifatini yuksalib borishga ijobiy ta'sir etuvchi iqtisodiy rivojlanishning yangi jihatlari namoyon boʻlishini bilish muhim hisoblanadi. Shularni hisobga olganda mamlakatimizda shakllangan institutsional muhit sifatini iqtisodiy rivojlanishga hamda institutsional oʻzgarishlarni iqtisodiy oʻsishga ta'sirini baholash hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ragʻbatlantiruvchi institutsional normalarni takomillashtirish oʻta dolzarb va yangi iqtisodiy rivojlanish nuqtalarini topish va modernizatsiyalashni kengaytirish uchun zarur hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, mavjud institutsional normalar va mexanizmlarni bir-biri bilan oʻzaro bogʻliqligi, ular oʻrtasida yuzaga kelgan nomutanosibliklar, uzilishlarni aniqlash va yangi yoki tarkibiy jihatdan takomillashgan institutlar, institutsional qoidalar va mexanizmlarni amalga kiritish zarur hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash oʻrinliki, hozirgi kunda ayrim shakllangan, kundalik hayotda foydalanilayotgan, ammo takomiliga yetmagan, nisbatan murakkab boʻlgan institutlar mamlakatimizni yanada barqaror rivojlanishiga halaqit berayotgan toʻsiqlardan hisoblanadi, qaysikim ular orqasida yashirinib turgan aniq tarkibga ega, mutanosib, qarama-qarshiliklarsiz institutlar mavjud, ana shunday institutlarni amalga kiritish iqtisodiy oʻsishga yangi turtki beradi hamda oʻzaro iqtisodiy

[17] https://president.uz/oz/lists/view/4057

munosabatlarni tezlashtiradi va soddalashtiradi, xalqaro maydonda O‘zbekiston obro‘sini yanada oshiradi.

Ammo har qanday yangi institut yoki institutsional normalar, qoidalar tezda paydo bo‘lmaydi, yoki ularni amalga kiritish birdan yuz bermaydi. Aksincha, ayrim institutlar qanchalik jozibali bo‘lmasin, ularni qonunchilikka kiritish hamisha ham maqsadga muvofiq hisoblanmaydi, yoki bunday harakat rivojlanishga to‘siq bo‘lib, mavjud institutsional mutanosiblikni buzishi mumkin. Shularni hisobga olganda, O‘zbekistonda islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyiliga amal qilgan holda, o‘zini oqlagan institutsional norma va mexanizmlarni rivojlantirishning strategik maqsadlariga muvofiq takomillashtirish talab etiladi.

Shularni inobatga olganda, institutsional iqtisodiyot rivojlanishini belgilab beruvchi usullar va amaliy vositalar zarur va ular quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- yangi institutlar shakllanishi tamoyillari, jamiyatdagi rasmiy va norasmiy institutsional-huquqiy normalarni muvofiqlashtirish hamda institutsional tahlil qilish usullari;
- institutlar va ularning jamiyat hamda iqtisodiyot rivojlanishidagi roli va mexanizmlari;
- iqtisodiy munosabatlarda shartnomalarning turlari hamda ushbu jarayonlarda yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini tahlil qilish va kamaytirish usullari;
- xufyona iqtisodiyot kelib chiqishining institutsional sabablari, ularni turlari va baholash usullari;
- xususiy mulkchilik va mulkdorlar huquqlarining institutsional nazariyasi va tahliliy usullari;
- ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) korxonasini boshqarishda topshiriq beruvchi (“principial”) va topshiriqni bajaruvchi (“agent”) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muammosini yechish usullari, korxonalar turlari va ular institutlarini rivojlantirish yo‘nalishlari;
- institutsional tashkilot sifatida davlatning mulkchilik huquqlarini himoya qilish, axborot tarmoqlarini rivojlantirish, o‘lchash standartlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, huquqni muhofaza qilish sof ijtimoiy farovonlikni ta’minlash vazifalari va ularni baholash usul va me’zonlari;

• oila va uy xo‘jaligi institutlarining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, aholi farovonligini yuksaltirish, institutsional va rivojlantirish funksiyalarini takomillashtirish yo‘llari;

• innovatsion rivojlanishning institutsional nazariyasi va innovatsiyalar yaratuvchi subyektlarning qiyosiy tahlili usuli;

• institutlarning vaqtga ko‘ra o‘zgarishini asosiy qoidalari va O‘zbekiston iqtisodiyotini va ijtimoiy munosabatlarni institutsional-huquqiy rivojlantirish yo‘nalishlari.

Shuni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma’ruzalari va asarlarida belgilab qo‘yilgan barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashning ustuvor vazifalarini amalda ijrosini ta’minlash bilan bog‘liq yo‘nalishlarda izchil ishlar bajarilmoqda.

Institutsional rivojlanish nuqtai nazardan, davlatning asosiy funksiyalaridan biri – bu xususiy mulk huquqini himoya qilish hisoblanadi.

Xususiy mulk – iqtisodiy raqobatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hamda iqtisodiy o‘sishni, yangi ish o‘rinlarini yaratishning samarali mexanizmidir. Shu nuqtai nazardan mulkchilik munosabatlarida yuzaga kelayotgan muammoviy holatlarga iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida institutsional normalar ta’sirini baholash, xususiy mulk huquqini himoya qilish va shartnomalar bajarilishiga davlat kafolatining institutsional mexanizmlarini takomillashtirish zarurdir.

Tadbirkorlik korxonalarini, ayniqsa, kichik biznesni himoya qilish, ular rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish me’zonlari bo‘yicha institutsional normalar hamda mexanizmlar shular jumlasiga kiradi.

Islohotlarning hozirgi bosqichida O‘zbekiston iqtisodiyotining institutsional tarkibi va uning iqtisodiy o‘sish uchun zaruriy sharoitlar (imkoniyatlar) yaratishdagi rolini baholash, iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir etayotgan institutsional cheklovlarni aniqlash muhim hisoblanadi. Shuni hisobga olib, yirik korporativ tuzilmalar (korxonalar) rivojlanishida institutsional omillarni tahlil qilish va institutsional cheklovlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish zarur.

Raqobat sharoitida iqtisodiy o‘sish ko‘p jihatdan transaksiyalar bajarilishiga va ular uchun sarflanayotgan xarajatlarga bog‘liq hisoblanadi. Ushbu muammo yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar nazariy tasnifga ega bo‘lib, ular iqtisodiy rivojlanishning transaksiya xarajatlarining amaliy jihatlarini hisobga olmagan. Shu nuqtai nazardan, bozor tuzilmalarida transaksiya xarajatlarini maqbullashtirishning yo‘llari va institutsional mehanizmlarini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ustuvor mavqega ega. Shuni hisobga olib, kichik biznes faoliyatini, ayniqsa, uning oila tadbirkorligi shaklini institutsional rivojlanish bosqichlari samaradorligini baholash hamda ularni istiqbolda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi rolini oshirishning institutsional-huquqiy normalari va mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarini kengaytirish lozim.

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘sishning barqaror sur’atlarini ta’minlashning o‘tgan yillarda to‘plangan tajribalaridan kelib chiqib, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida institutsional normalarni takomillashtirish va shu orqali mehnat unumdorligini oshirish zarur.

Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda, YIM hajmini oshirishning prognoz variantlari tashqi sharoitlarga bog‘lanmasligi, inertsion xususiyatga emas, balkim innovatsion-investitsion tavsifga ega bo‘lish hamda tegishli davlat va nodavlat institutlari ishi samaradorligining asosiy mezoniga aylanishi kerak.

Shuningdek, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari, ayniqsa sanoat va qishloq xo‘jaligida iqtisodiy o‘sishni resurslardan foydalanishni kengaytirish hisobiga emas, balkim sifat jihatda takomillashtirilgan institutsional norma va ishlab chiqarish omilari hisobiga erishish lozim.

O‘zbekistonda institutsional muhitni hozirgi holati, uning tarkibiy tuzilishi hamda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini kutilgandan ortda qolishining institutsional sabablarini aniqlash, shuningdek, yangi qiymat yaratishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni YIM o‘sish sur’atlari va samaradorligining statistik bog‘liqligini ekonometrik modellarga institutsional omillarni kiritish orqali baholash talab etiladi. Shu bilan bir vaqtda, ijtimoiy- iqtisodiy tizimning barqaror

rivojlanishining asosiy omili sifatida inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish, professional ta'lim institutini rivojlantirish normalarini ishlab chiqish lozim.

Xususiy mulk azal azaldan insonlarni o'zlariga bo'lgan ishonchlarini oshirishda ko'makchi va yanada faolligini oshirishda muhim rag'bat sifatida qaraladi. Mulkdorning kayfiyati, intilishi, ish yuritishi, o'z faoliyatiga, umuman, hayotga munosabati boshqacha bo'ladi. Mulk egasi o'z ishini yaxshilashga, mulkiga mulk qo'shishga harakat qiladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etishda mulkdorlarning o'rni nihoyatda katta. Zero, ular jamiyatdagi o'zgarishlarga bevosita daxldor bo'lgan qatlamdir.

Shu sababli ham iqtisodchi olimlarimiz tomonidan ilgari surilayotgan fikrlarga qaraydigan bo'lsak, mamlakatimizda yangi O'zbekistonni qurish, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun, avvalo, bozor iqtisodiyotining negizi asosiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratish zarurdir. Shuni hisobga olib mamlakatimizda "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, har qanday mamlakatda tarixan xo'jalik yuritishning turli shakllari mavjud bo'lib, ularni iqtisodiyot namoyondalari ishlab chiqarish usullari deb nomlashgan. Mamlakatda ustunlik qilayotgan xo'jalik yuritish uslubi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini tavsiflaydi. Tegishli ijtimoiy munosabatlar bilan birgalikda ko'rib chiqiladigan xo'jalik yuritish usullari ukladlar deb nomlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'satmoqdaki, hozirgi vaqtda O'zbekistonda mulkning ko'p ukladli shakllari mavjud.Ular iqtisodiy asos sifatida xizmat qiluvchi xo'jalik yuritish turli usullarini belgilab beradi. Shulardan eng asosiylari quyidagilar:

- tabiiy resurslarga umumxalq mulkchiligi;
- ta'lim, sog'liqni saqlash va qator boshqa ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish resurslariga davlat mulkchiligi;
- tabiiy monopoliya resurslari va mahsulotlariga davlat-korporativ mulkchilik;
- kichik biznes sohasida turli xildagi xususiy shakldagi mulkchilik.

Ta'kidlash lozimki, bular mulkning iqtisodiy shakllari bo'lib, barcha mulk huquqlarining shakllanishini belgilab beradi.

"Mulk" va "mulk huquqi" tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda "mulk" deganda ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlarining muayyan shaxslarga – insonlar yoki ular guruhiga tegishliligi tushuniladi.

Mulk tushunchasi ikkita fan: iqtisodiyot va huquq fanlarining chegarasida turadi. Har qanday jamiyatda mulk munosabatlari yuridik jihatdan konstitutsiya, qonunlar va ko'p sonli boshqa huquqiy hujjatlar (farmonlar, qarorlar, farmoyishlar) bilan tartibga solinadi.

Mulk – huquqi bir tomondan – subyektiv ashyoviy huquq. O'z mazmuniga ko'ra mulk huquqi barcha ashyoviy huquqlar ichida eng keng huquqdir: mulkdor o'z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqiga ega.

Mulk tushunchasi obyektiv tarzda uchta o'lchovga ega: egalik qilish, foydalanish va boshqarish. Mulkdor rasman mulkdan olinadigan ne'matlardan foydalanish va mulk obyektini boshqarish mutloq huquqiga ega.

O'zbekistonda mulk huquqining asosiy manbai qonunchilik hisoblanadi va mulk munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qat'iy pog'onasi mavjud. Ularning asosiy manbalariga quyidagilar kiradi:

I. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi; O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi; O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va boshqalar.

II. "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi; "Mulk to'g'risida"gi; "Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida"gi; "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi; "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi; "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi; "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarinng kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari va boshqalar.

III. "Xususiy korxona to'g'risida"gi; "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi; "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi; "Fermer

xoʻjaligi toʻgʻrisida”gi; “Dehqon xoʻjaligi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonunlari va boshqalar.

Ushbu qonunchilik hujjatlarida mulk shakllarining teng huquqliligi, mulkdor huquqining kafolati va himoyalanganligi, turli tashkiliy-huquqiy shakllardagi xoʻjalik yurtuvchi subyektlar (aksiyadorlik, mas’uliyati cheklangan va qoʻshimcha mas’uliyatli jamiyatlar, xususiy va qoʻshma korxonalar, fermer va yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan dehqon xoʻjaliklari va boshqalar)ni tashkil etish va ular faoliyat koʻrsatishi mexanizmi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tamoyillari va tizimi kabi me’yorlar oʻz aksini topdi. Ushbu qonunlar bozor iqtisodiyotiga oʻtish sharoitida mulk munosabatlarini huquqiy tartibga solishning asosiy belgilarini mustahkamladi.

Hozirgi vaqtda mulk huquqini himoyalash masalalari muhim hisoblanadi. Boshqaruv tizimidagi xatolar mulkdorlar huquqlarining tez-tez buzilib turilishi bilan kuzatiladi.

Mulk huquqi - milliy huquqiy - institutsional tizimni rivojlantirishning “tayanch nuqtalari”dan biri hisoblanadi. Mulk huquqining institutsional rivojlanishiga iqtisodiy, ijtimoiy, tarixiy, ekologik va boshqa omillar ta’sir koʻrsatadi. Fan-texnika taraqqiyoti va yangi axborot texnologiyalari (intellektual mulk institutining rivojlanishi) mulk huquqining rivojlanishiga alohida ta’sir etadi.

Turli mulk shakllarining tarkibi va mulk huquqi tizimi bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir koʻrsatadi. Oʻzbekistonda iqtisodiyotning ikkita asosiy sektori – *xususiy* (shu jumladan, korporativ) va *umumiylikdagi* mulk sektorlari (davlat va munitsipal mulk) shakllanmoqda va ularning har biri oʻz mulk shakllariga asoslanadi. Iqtisodiyotning ushbu sektorlari va mulk shakllari oʻrtasida oʻzaro hamkorlik va iqtisodiy raqobat munosabatlari oʻrnatilgan.

Turli mulk shakllarining rivojlanishi bozor munosabatlarini huquqiy tartibga solishning boshqa sohalari evolyutsiyasiga ta’sir koʻrsatadi. Mamlakatimizda xususiy mulk shakllarining xilma-xilligi mehnatni tashkil qilishning mulkdor va xodim oʻrtasidagi huquqiy aloqalar bilan farq qiluvchi turli shakllarini keltirib chiqarishga zamin yaratmoqda.

Mulk shakllarining tabaqalanishi mulk huquqi institutining demokratlashuviga (subyektlar doirasining kengayishiga) olib kelmoqda.

Mulk huquqi ikkita asosga koʻra tabaqalanishi mumkin: obyekt boʻyicha va subyekt boʻyicha. Turli mulk shakllarini tashkil etish asosida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish yotadi. Mulk huquqi davlat va jamiyat manfaatlari yoʻlida cheklanishi mumkin. Ommaviy huquqiy manfaatlarda mulk huquqini suiite'mol qilish va undan foydalanish ommaviy manfaatlarga dahldor boʻlgan oʻz mulkini yoʻq qilishga haqli emas. Mulk huquqining amalga oshirilishi atrof-muhitga ziyon yetkazmasligi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Mulk huquqi institutida ommaviy-huquqiy asoslarning koʻpayishiga ishlab chiqarishni umumlashtirish jarayoni kabi omil ham ta'sir koʻrsatadi. Mulkning aksiyadorlik shakli roli ortib bormoqda. Ushbu mulk shakli oʻz tabiatiga koʻra jamoaviy xususiyatga ega. Uning shakllanishida xususiy sarmoya bilan bir qatorda davlat sarmoyasi ham ishtirok etmoqda.

Xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yoʻl bilan qoʻlga kiritgan yoki yaratgan oʻz mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta'minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratilishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy negizi hisoblanadi. Har bir tadbirkor, avvalo, shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir. Shuning uchun ham tadbirkorlar oʻz biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini koʻpaytirishi, oʻz mulkiga oʻzi egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Oʻzbekiston mustaqilligi yillarida xususiy mulkni himoya qilish, uning huquqiy asoslarini yaratish boʻyicha keng miqyosli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mulkiy munosabatlar amaldagi bir qancha qonun hujjatlari va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Bunday qonunchilik hujjatlarida xususiy mulk va mulkdorlarning huquqlari, ya'ni oʻz mulkiga egalik qilishlari, undan erkin foydalanishlari, uni tasarruf etishlari, oʻz huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi hamda shu kabi bir qator huquq va erkinliklari belgilangan. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan xususiy mulk

va mulkdorlar huquqlarining amalga oshirilishi, manfaatlariga rioya qilinishining ta'minlanishi, albatta, davlat tomonidan kafolatlanishi zarur. Shundan kelib chiqqan holda, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 65-moddasida "...O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi. Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas"[18], deb belgilab qo'yilgan.

Mulk huquqi institutining rivojlanishida ko'p asrlik an'analarga tayanish, O'zbekiston davlatchiligi va jamiyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bunda davlat va xususiy mulk shakllarini maqbul nisbati chegarasini ishlab chiqish zarur. Bunday nisbat har qanday huquqiy davlatga ustuvor hisoblangan iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning qulay holatini ta'minlaydi. Qachonki mulk huquqi instituti ijtimoiy yo'naltirilgan me'yorga aylansa, ana shunda uning qadri oshadi. Chunki xususiy mulk iqtisodiy raqobatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi.

3.3. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda klasterlashtirish siyosati

Raqobat ustunliklarini shakllantirish va rivojlantirish iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga, aholi farovonligini oshirishga, hududning resurs salohiyatidan yanada samarali va oqilona foydalanishga hissa qo'shganligi sababli raqobatbardoshlik ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning, shu jumladan, mintaqaviy tizimlarning barqarorligini ta'minlashning asosiy shartiga aylanadi.

Hududiy rivojlanishning yuqori darajasiga ikki yo'l bilan: tashqi qo'llab-quvvatlash va markazlashgan mablag'larni hududlar o'rtasida qayta taqsimlash va ichki zaxira va imkoniyatlarni to'laligicha safarbar qilish asosida erishish mumkin. Raqobat qo'yilgan maqsad-

[18] https://constitution.uz

larga erishish borasida qoʻshimcha ichki kuchlarni safarbar qilish va faollashtirishning eng muhim omili hisoblanadi.

Hudud miqyosidagi raqobat oʻziga xos jihatlarga egaligi bilan ajralib turadi, bunda turli darajadagi subyektlarning gorizontal va vertikal aloqalari yaqqol koʻzga tashlanadi. Xoʻjalik yurituvchi subyektlar oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarning hozirgi bosqichida gorizontal va vertikal aloqalar turlicha turlicha koʻrinish kasb etadi. Bu xil aloqalar ba'zida shiddatli raqobat tusini olsa, ba'zi holatlarda esa hamkorlik va sherikchilik koʻrinishini oladi.

Bizning fikrimizcha, raqobat, shubhasiz, inson kapitalining bilim va qobiliyatlaridan yuqori darajada samarali foydalanishni ta'min etadi. Insoniyat tomonidan qoʻlga kiritilgan ne'matlarning asosiy qismi oʻzaro musobaqalashuv orqali yaratilgan. Shu nuqtayi nazardan olganda, bugungi kunda jahon xoʻjaligida raqobat kurashi tobora shiddatli tus olayotgan bir paytda, hududlar va oʻz navbatida mamlakat iqtisodiyoti, xususan, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining raqobatbardoshligini oshirishda, mavjud imkoniyatlardan toʻlaqonli foydalanish, bilim va tajribani ishga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda raqobat tushunchasining mazmun va mohiyatini aniqlashtirish borasida turli yondashuv va qarashlar mavjud. Turli mualliflar haqli ravishda raqobat bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi, "bozorning mavjud boʻlishi va faoliyat koʻrsatishining asosi" , "kapitalning mavjud boʻlish shakli", "raqobat – zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning bosh harakatlantiruvchi kuchi" ekanligini ta'kidlaydilar. Bugungi kunda klasterlarni tashkil etish va ularning samarali faoliyatini yoʻlga qoʻyish borasida yetarlicha boy nazariy va amaliy tajribalar toʻplangan. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yashab, ijod qilgan iqtisodchilarning ilmiy izlanishlari orqali klaster nazariyasiga asos solingan. Bu borada ma'lum bir hududda joylashgan korxonalarning oʻzaro mujassamlashuvidan tarkib topuvchi sanoat rayonining oʻziga xos jihatlarini ochib bergan Alfred Marshallning hissasi beqiyosdir. Oʻtgan asrimizning 90-yillaridan boshlab, ishlab chiqarishni hududiy jihatdan tashkil etishning oʻziga xos yangi shakli sifatida klasterlarga alohida e'tibor qaratila boshlandi va mazkur masalalar

M.Porterning ilmiy ishlarida nazariy jihatdan asoslab berildi.

Klasterlarni turlicha talqin qilish va klasterlarning turli modellarining mavjudligi klasterga bir-biri bilan o‘xshash jihatlari ko‘p bo‘lgan turli xil ta’riflarni keltirib chiqargan. Masalan I.N.Goretov agrosanoat klasterini “qo‘shilgan qiymat yaratishning texnologik zanjiriga kiruvchi va agrosanoat majmuining turli sohalarini o‘z ichiga oluvchi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi asosida tashkil etilgan, innovatsion yo‘naltirilgan va tarmoqli tashkillashtirish elementlariga ega hududiy-lokal integratsion tuzilma” sifatida ta’riflaydi.

V.A.Kundius va N.A.Golovinlar esa agrosanoat klasterini “innovatsion faoliyatni faollashtirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish maqsadida savdo-ishlab chiqarish faoliyati bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va ma’lum bir hududda joylashgan korxona va tashkilotlarning o‘zaro uyg‘unligi” sifatida talqin qiladilar. Umuman olganda, bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish – agrosanoat majmuidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Agrosanoat majmuida kalasterlarni tashkil etish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham chuqur o‘rganilgan. Xususan, O‘zbekistonda klasterlarni tashkil etishning nazariy-uslubiy jihatlari va tashkiliy masalalari A.Bekmuradov, N.Yo‘ldoshev, M.Boltabayev, Sh.Madjidov, D.Mirzaxalilova, D.Kurbanova, G.Zaxidov kabilar tomonidan atroflicha yoritib berilgan.

Hozirgi bosqichda raqobatni har bir insonning ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish yo‘li bilan tanlangan bozorda o‘z mavqeini saqlab qolish va uni mustahkamlash uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar sifatida qarab chiqish, bizningcha eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Tanlangan bozorda faoliyat ko‘rsatishning barqarorligini ta’minlashga intilish xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning transformatsiyalashuviga olib keladi. Iste’molchi va uning ehtiyojlarini qondirish borasida kurashda xo‘jalik yurituvchi subyektlar bozordagi o‘z xulq-atvor taktikasi va strategiyalarini o‘zgartiradilar. Ular keskin raqobat kurashidan raqobatchilar bilan uzviy hamkorlik qilishga asta-sekinlik bilan o‘tib borishni ma’qul ko‘radilar. Shunday qilib, zamonaviy raqobat kurashining o‘ziga xosligi shundan iboratki, unga ko‘ra raqobat o‘zaro kurash (bellashish) va

hamkorlik (sherikchilik)ning ziddiyatli yaxlitligini ifoda etadi.

Bizning fikrimizcha, raqobatning mohiyati quyidagi raqobat ustunligi (past tannarx, taniqli savdo markasi, ishlab chiqarilgan tovarning yuqori sifati, yangi oʻziga xos mahsulot, yangi texnologiyalardan foydalanish, yuqori malakali personal va shu kabilar), raqobat strategiyasi, raqobat salohiyati kabi tushunchalar orqali toʻlaligicha ochib beriladi va bir muncha takomillashgan raqobatbardoshlik kategoriyasiga oʻtib boradi. Raqobatbardoshlik oʻz navbatida aniq bir subyektning ichki xususiyatlarini toʻlaqonli aks ettiradi va shu bilan bir qatorda ushbu subyektning umumiy bozor munosabatlari tizimidagi oʻrnini koʻrsatib beradi.

Hududiy raqobatni rivojlantirish borasidagi nazariy yondashuvlarni tadqiq qilish jarayonida uning amaliy ahamiyati quyidagilarda oʻz aksini topishini aniqlashtirildi.

Birinchidan, raqobat mahalliy davlat hokimiyati organlarini raqobatchilar va ehtimoliy hamkor-sheriklar bilan oʻzaro bogʻliqlik va aloqalarni, oʻz hududining holatini tahlil qilishga undaydi.

Ikkinchidan, hudud resurslari iste'molchilarining maqsadli guruhlarini aniqlashtirish imkonini beradi. Bunday oʻz-oʻzini tahlil qilish, oʻz profilining strategik yoʻnalishini tanlash raqobatbardoshlik omillarini rivojlantirish va iste'molchilarni saqlab qolish yoki qoʻshimcha guruhlarni jalb qilish muvaffaqiyatining garovi hisoblanadi.

Uchinchidan, hudud raqobatbardoshligini baholash hududning tashqi muhitdagi strategiyasini belgilash va uning oʻrnini bosqichma-bosqich mustahkamlash monitoringini amalga oshirishning muhim unsuri hisoblanadi.

Toʻrtinchidan, alohida viloyatlar va tumanlar oʻrtasidagi raqobat munosabatlarini rivojlantirish amalda mamlakatning raqobat salohiyatini oshiradi va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Ammo buning uchun, eng avvalo, markaziy hukumat va mahalliy davlat hokimiyati idoralari tomonidan hududiy tashkillashtirishning barcha subyektlari uchun erkin va teng raqobat borasida zaruriy shart-sharoitlar yaratish boʻyicha tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Shuni yana alohida qayd etish lozimki, hududlar oʻrtasidagi raqobat oʻz ichiga ularning siyosiy, qonunchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va madaniy tizimlari, strategiyalari va hududlarning muvaffaqiyatlari borasidagi oʻzaro bellashuvlarni qamrab oladi. Bunda maqsadli guruhlarning turli manfaatlari muayyan hududlarning oʻziga xos jihatlari bilan oʻzaro uygʻunlikda raqobatni baholash, aniqlashtirish va uni oshirish yoʻnalishlarining koʻp qirrali va ayni chogʻda murakkab hodisa ekanligini koʻrsatadi.

Mamlakatimizda klaster siyosatining mohiyatida yuqori monopollashgan Oʻzbekiston iqtisodiyotining asosiy muammolarini, ya'ni mintaqaviy va mahalliy bozorlarni, iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Birinchidan, klaster siyosatining markazida raqobatbardosh bozorni rivojlantirish, raqobatni kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi hamda asosiy omil sifati xizmat qiladi.

Shu bilan birga, klaster siyosatidagi davlat tashabbusi *birinchi navbatda* kuchli va ijodiy kompaniyalarni qoʻllab-quvvatlashga va samarador muhitni yaratishga qaratilgan, bu esa oʻz navbatida, zaif va qayta ishlaydigan firmalarning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

Ikkinchidan, klaster siyosati mikroiqtisodiyotga katta e'tibor beradi – mahalliy bozorlarni va noyob boʻlmagan (tabiiy resurslar va boshqalar) asosida kompaniyalarni tahlil qilish va birinchi navbatda ishlab chiqarish omillari (yuqori malakali ishchi kuchi, qulay infratuzilma va boshqalar) yaratildi.

Klaster siyosatidagi mikroiqtisodiy yondashuv rivojlanishning mahalliy xususiyatlarini inobatga olib, xususan, paxtachilik-toʻqimachilik, farmatsevtika kabi tarmoqlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishni jadallashtirish va raqobatdoshligini oshirish boʻyicha samarali maqsadli dasturlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Uchinchidan, klaster siyosati davlat va mahalliy hokimiyat organlari, biznes va ilmiy va ta'lim muassasalari oʻrtasida ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohasining innovatsionligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun oʻzaro hamkorlikni tashkil etishga asoslangan.

Nihoyat klaster siyosatini amalga oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda kam rivojlangan kichik va o‘rta biznesning innovatsion salohiyatini rivojlantirishni rag‘batlantirishga qaratilgan.

Davlatning klaster siyosatini yuritishda to‘rtta roli mavjud:

1) moliyaviy klaster siyosati. Davlat manfaatdor tomonlarni (masalan, xususiy kompaniyalar va tadqiqot tashkilotlari) birgalikda loyihalarni taqdim etganda loyihani amalga oshirish uchun moliyaviy ko‘makni ta’minlaydigan klaster siyosatida;

2) klaster siyosatini qo‘llab-quvvatlash. Klasterlarni rivojlanishiga rag‘batlantirish uchun mintaqaviy infratuzilma, ta’lim, sog‘liqni saqlash va shu kabi investitsiyalarini qo‘llab-quvvatlashda;

3) davlatning qo‘llab-quvvatlovchi funksiyasi. Klasterlarni rivojlantirish orqali mintaqaviy ixtisoslikni o‘zgartirishga qaratilgan maxsus dasturlar bilan to‘ldirilganda;

4) Hukumat o‘z siyosatini yuritish funksiyasi. Klasterlarning kelgusida rivojlanishi va transfert, subsidiyalar, cheklashlar yoki tartibga solish, shuningdek, klasterdagi firmalarning faol nazoratini ta’minlash bo‘yicha mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladigan faol klaster siyosatini yuritish tashkil etadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida shiddatli, sifat jihatdan yangi tarkibiy va erkin bozor munosabtlarini qaror toptirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ustuvorliklari tubdan qayta ko‘rib chiqilmoqda, iqtisodiyotni haqiqatda harakatga keltiruvchi quvvatga ega bo‘lgan iqtisodiy o‘sishning yangi, amaliy drayverlari joriy etilmoqda. Eski, o‘z ahamiyatini yo‘qotgan institut va iqtisodiy regulyativ vositalar iqtisodiyotga ta’sir etishning yangi innovatsion va samarali shakl hamda usullariga o‘z o‘rnini bo‘shatib bermoqda.

Dastlab agrosanoat majmui qishloq xo‘jaligi va sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlarini o‘z ichiga qamrab oladi, deb hisoblangan va mazkur majmua tomonidan ishlab chiqariluvchi mahsulotlar qatoriga oziq-ovqat mahsulotlari, teri, tekstil, tamaki va shu kabi mahsulotlar kiritilgan. O‘tgan asrimizning 80-yillarida agrosanoat majmuasining tarmoq tuzilmasi borasida ilmiy izlanishlar olib borgan N.E.Smetanina, V.A.Tixonova, M.Y.Lemesheva kabi rossiyalik

tadqiqotchilar agrosanoat majmuasini uchta sohaga ajratishni taklif qilganlar:

- xizmat koʻrsatuvchi soha (turli mashinasozlik korxonalari, qishloq xoʻjaligi texnikasini ta'mirlash, qishloq xoʻjaligining moddiy-texnika ta'minoti, qurilish, kadrlar tayyorlash va boshqalar);
- qishloq xoʻjaligi (oʻsimchilik va chorvachilik);
- oziq-ovqat sanoati.

3.1-jadval

Klasterlashtirish siyosatini amalga oshirishning asosiy yoʻnalishlari[19]

Ishlab chiqarish korxonasining shakli	**Manzili**	**Siyosatni oʻtkazuvchi davlat organlari**	**Siyosatni amalga oshirishning asosiy yoʻnalishlari**	**Siyosatni amalga oshirish shakli**
Kengaytirilmagan klasterlar	Mamlakat	Davlat boshqaruvi organlari	Raqobatni qoʻllabquvvatlash, umumiy ta'lim va ekologik standartlarni oshirish; klaster kompaniyalarining tashqi bozorlarda manfaatlarini ilgari surish	Qonun ijodkorligi, xalqaro shartnomalar
Hududiy ishlab chiqarish komplekslari	Hudud yoki bir necha hududlar	Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan – hududiy ishlab chiqarish komplekslari loyihalarini ishlab chiqish	Yangi foydali qazilmalarni qazib olish; yangi oʻzlashtirilgan hududlarda infratuzilmani rivojlantirish; mavjud MIKni kengaytirish	Hududiy ishlab chiqarish komplekslarini davlat xususiy sherikchilikga oid qonunchilik bazasi bilan mustahkamlash

[19] Nurmuxammedova Muxtabar Xasanovna va Akmal Abdulazizovich Abduvoxidov. "TURISTIK KLASTERLARNI YARATISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI". *Журнал Инновации в Экономике* 4.6 (2021).

Klasterlar geografiyasi	Mamlakat, viloyat, tuman	Hududiy mahalliy davlat hokimiyati	Mahsulotlarni O‘zbekiston va tashqi bozorlarga olib chiqish; mintaqaning “brendini” yaratish; hokimiyat, universitetlar tadqiqot institutlari, texnoparklar va xususiy kompaniyalar o‘rtasidagi aloqalarni faollashtirish	Davlat-xususiy sherikligi; huquqiy tartibga solish; klasterni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish
Klaster tashabbuskorligi	Mahalliy hokimiyat	O‘z-o‘zini boshqarish mahalliy davlat hokimiyati	Tegishli quyi tarmoqlarda kompaniya tarmoqlarini rivojlantirish; hokimiyat, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, texnoparklar va xususiy kompaniyalar o‘rtasida aloqa tarmoqlarini yaratish; mahsulotlarni O‘zbekiston va tashqi bozorlarda ilgari surish	Davlat-xususiy sherikchiligi; davlat xaridlarini amalga oshirish; kompaniyalar faoliyatini diversifikatsiya qilish

Shu tariqa, ASM favqulodda keng ko‘lamli va ko‘p qirrali tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarining uchdan bir qismidan ko‘prog‘i agrar sektor bilan uzviy bog‘liqlikda faoliyat ko‘rsatsada, biroq bugungi kunda davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan yagona yaxlit agrosanoat majmui mavjud emas.

Biz bu o‘rinda mazkur sohadagi holatni zudlik bilan o‘zgartirish tarafdori emasmiz, chunonchi bu boradagi shoshma shosharlik haddan ziyod murakkab boshqaruv tizimining paydo bo‘lishiga olib keladi, zero mazkur sohada turli ishlab chiqarishlarni tashkil etish haqiqatdan ham tarmoqlararo tavsifga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Rossiyalik tadqiqotchilar S. G. Azikova, G. A. Bobkov, X. X. Soxrokovlarning tadqiqot natijalariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda agrar soha mahsulotlarining 1 % qo‘shimcha o‘sishi sanoat infratuzilmasi tarmoqlari mahsulotlarining 2,5%ga, qayta ishlovchi tarmoqlar mahsulotlarining - 1,4%, transport xizmatlarining - 0,33%, savdo hajmining esa 2,7%ga o‘sishiga olib kelishi aniqlangan.

Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari uchun

asosiy mahsulot va xomashyo yetkazib beruvchi tarmoq sanalishi bilan bir qatorda, mamlakatning oziq-ovqat va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi, mamlakatning import oziq-ovqatlariga bo'lgan qaramligiga barham beradi. Shu bois iqtisodiy nuqtai nazardan oziq-ovqat mahsulotlarini chetdan olib kirish foydali bo'lsa ham, rivojlangan mamlakatlar o'z qishloq xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash borasida turli-tuman vositalardan keng foydalanadilar. Masalan, AQShda davlatning fermerlarga ko'rsatadigan yordami ular oladigan daromadning 30 foizini tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich Yaponiyada 66 %, Norvegiyada 77%, Shveytsariyada esa 80 %ni tashkil etadi. Ayni vaqtda mamlakatimizda davlat tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga ko'rsatilayotgan ko'mak 10 foizni tashkil etgani holda, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha importga qaramlik o'zining belgilangan me'yoridan bir necha barobarga ko'pdir.

Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida va oziq-ovqat sanoatida mamlakatimiz aholisining har beshtasidan bittasi band bo'lsa, mamlakat YIMida mazkur tarmoqlarning ulushi qariyb 23 foizni tashkil etadi, chakana savdo aylanmasining salkam 51 foizi oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi. Qishloq hududlarida mamlakatimiz aholisining salkam 50 foizi, shahar atrofi hududlarida 21 foizi istiqomat qilayotgan bir paytda, agrosanoat majmui korxonalari aholi bandligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz agrosanoat majmui uchun xos bo'lgan muammolar uning potensial imkoniyatlari va investitsion jozibadorligining sezilarli darajada pasaytirib yubormoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda masalaning ushbu jihati yetarlicha batafsil qarab chiqilganligi bo'lsa-da, quyida mamlakatimiz agrosanoat majmui uchun xos bo'lgan ba'zi bir jihatdar ustida to'xtalib o'tamiz.

1. Kuchli raqobat muhiti. Bir xil tabiiy-iqlim sharoitlarida faoliyat ko'rsatuvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining natijalari bir-biridan unchalik ham katta farq qilmaydi.

2. Yaxshi hosil olishning to'liq kafolatlanmaganligi. Hattoki serhosil yerlarda ham noqulay ob-havo tufayli yaxshi hosil olinmasligi mumkin (bu vaziyat keyingi yillarda iqlim o'zgarishlari bois ko'p kuzatilmoqda).

3. Mavsumiylik, texnologik jarayonning uzoqligi, tushumlarning kechikishi.

4. Koʻpi bilan uchtagacha qishloq xoʻjaligi ekinlarini etishtirishga moʻljal olish. Bunday yondashuv doimiy bir xillikka ega boʻlgan texnikalardan foydalanishni, bir xil iste'molchilar bilan ish olib borishni koʻzda tutsada, oʻzgaruvchan bozor sharoitida bunday yondashuv oʻzini oqlamaydi.

5. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari tovarlilik darajasining pastligi. Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining oʻziga xos iqtisodiy xususiyatlaridan biri shundaki, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ma'lum bir qismi takror ishlab chiqarish maqsadlarida qishloq xoʻjaligining oʻzi tomonidan iste'mol qilinadi.

Integratsiya mahsulot ishlab chiqarish, uni qayta ishlash va sotishning yopiq tsiklini tashkil etish, ishlab chiqarish jarayoniga malakali mutaxassislarni jalb qilish va unda ilgʻor texnika va texnologiyalardan foydalanish, shuning bilan bir qatorda mahsulotlarning tovarlilik darajasini oshirish, mahsulotlarni vositachilarsiz sotish imkonini beradi.

Agrosanoat majmuida faoliyat koʻrsatuvchi mahalliy va xorijiy korxonalar uchun bir turdagi mahsulot komponentlarini ishlab chiqarish bilan shugʻullanuvchi korxonalarning oʻzaro qoʻshilishida namoyon boʻluvchi vertikal integratsiya ham xosdir. Ushbu holatda korxonalarning ishlab chiqarish jarayonlari izchil birlashtirilgani holda, integratsiyalashgan tuzilma ishtirokchilarining transaksion xarajatlari qisqartirilishiga erishiladi. Klasterli yondashuvdan foydalangan holda vertikal integratsiyalashgan korxonalar faoliyati samadorligini yanada oshirishimiz mumkin.

Korxona va tashkilotlarning geografik jihatdan konsentratsiyasi klaster kontsepsiyasining yadrosini tashkil etadi. Klaster tarkibiga kiruvchi kompaniyalar axborot, texnologiyalar, tovar va xizmatlarni oʻzaro ayriboshlaydilar, ular jamoaviy brend va yaxlit savdo tarmogʻidan birgalikda foydalanadilar. Klaster tizimini joriy etish – bu nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yoʻli boʻlib qolmasdan, balki mamlakat va mahalliy darajada korxonalarning innovatsion faolligini oshirishning asosiy omillaridan biri boʻlib, hududning geografik joylashuvi, tabiiy-iqlim sharoitlari va agrosanoat

ixtisoslashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan raqobat ustunliklarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Alohida shaxslarga tayanuvchi yangi bilimlar nazariyasiga muvofiq, yangi bilimlar va tajribalar ilmiy maqolalar yoki qo‘llanmalar yordamida emas, balki shaxsiy muloqot yo‘li bilan aniq bir mutaxassislarning amaliy tajribalarini o‘zaro muhokama qilishlari orqali samarali tarzda yoyiladi. O‘z navbatida, o‘zaro aloqada bo‘luvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar bevosita bir-birlari bilan yaqin masofada joylashishlari talab etiladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning geografik jihatdan lokalizatsiyasi amaliyotda ham yaqqol o‘z tasdig‘ini topganligini ko‘rishimiz mumkin, xususan, Daniya, Finlyandiya, Norvegiya va Shvetsiya sanoati bugungi kunda to‘liq klaster tizimi asosida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Klasterda raqobatning mavjudligi klasterning iqtisodiy jihatdan zaif ishlab chiqarishlarni qo‘llab-quvvatlashini anglatmaydi, klasterda ishtirok etish uchun korxona ma’lum bir talablarga javob berishi lozim.

Yuqorida bayon etilganlar asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va boshqa korxona-tashkilotlarning integratsiyalashgan tuzilmasini barpo qilishda agrosanoat majmuida faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlardan biri tashabbuskor bo‘lishi lozimligini ta’kidlab o‘tishimiz lozim. Bu o‘rinda integratsion tuzilmani tashkil etish tashabbuskori yoki tashabbuskorlar guruhining mahalliy hokimiyat idoralari, ilmiy hamjamiyat va oliy ta’lim muassasalarining vakillari bilan o‘zaro yaqindan hamkorligi talab etiladi. O‘z navbatida hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish maqsadida quyidagi vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni taklif etamiz:

1. Integratsiyalashgan tuzilmani tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh tuzish, ishlarni amalga oshirish tartibi, muddatlari va moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirib olish. Ishchi guruh quyidagi variantlardan birini ifoda etishi mumkin:

- ekspertlar sifatida mahalliy hokimiyat idoralari mutaxassislari va tarmoq korxonalari vakillaridan iborat bo‘lgan ishchi guruh;

- ma’lum bir xizmatlar ko‘rsatish maqsadida tuzilgan shartnomalar asosida faoliyat ko‘rsatuvchi konsalting kompaniyalari, oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va mahalliy hokimiyat idoralari vakillari;

- ta'sischilaridan biri mahalliy hokimiyat idoralari bo'lgan ixtisoslashtirilgan tashkilot.

2. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash Strategiyasi va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish Strategiyalari va mazkur yo'nalishlarda ishlab chiqilgan Dasturlarda ko'zda tutilgan vazifalar ijrosini e'tiborga olgan holda integratsiyalashgan tuzilmani tashkil etishning maqsad va vazifalarini asoslash.

3. ASM tarmoqlari va korxonalari o'rtasida iqtisodiy jihatdan asoslangan, istiqbolli texnologik va ishlab chiqarish aloqalarini aniqlashtirish.

4. Integratsion tuzilmaning boshqaruvchi organini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

5. Integratsiyalashgan tuzilmaning ehtimoliy ishtirokchilari tarkibi va ularning vazifalarini aniqlashtirish.

6. Birlashmaning tashkiliy-huquqiy shaklini tanlab olish.

7. Integratsion tuzilmaning ehtimoliy ishtirokchilari uchun talablarni ishlab chiqish.

8. Integratsion tuzilma ehtimoliy ishtirokchilarining ishlab chiqarish va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftishdan o'tkazish.

9. Integratsion tuzilmaning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi va unga to'sqinlik qiluvchi omillar va shart-sharoitlarga oydinlik kiritish, mavjud to'siqlarni yengib o'tish yo'llarini izlab topish.

10. Integratsion tuzilmani tashkil etish, shu jumladan, sinergetik samaraga erishishning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish.

11. Integratsion tuzilma faoliyati samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqish.

12. Korxona va tashkilotlarning integratsion jarayonlari sxemasini aniqlashtirish.

13. Integratsion tuzilma ishtirokchilarining o'zaro aloqalarining tartib-tamoyillarini mustahkamlovchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish.

14. Mahalliy hokimiyat idoralari bilan integratsion tuzilmaning o'zaro munosabatlari mexanizmini shakllantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlariga aniqlik kiritish.

15. Monopoliyaga qarshi kurashuvchi tashkilotlar xulosasini olish.

16. Integratsion tuzilmani tashkil etish borasida shartnomalar loyihasini ishlab chiqish, uni atroflicha muhokama qilish va imzolash.

Har bir hudud doirasida integratsion tuzilmalarni barpo etish bo‘yicha uslubiy ishlanmalarni ishlab chiqish orqali yuqorida keltirib o‘tilgan savollarga osonlik bilan javob topishimiz mumkin bo‘ladi.

3.4. Tuzilmaviy siyosat va iqtisodiyotni modernizatsiyalash

Davlat va hukumat idoralarining milliy iqtisodiyotning eng samarali nisbatlarini shakllantirish va ta’minlash bilan bog‘liq faoliyati tarkibiy siyosat deb ataladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning turli jihatlari o‘rtasidagi mutanosiblik va munosabatlar obyektiv bo‘lib, ular ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasi, milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimotiga qo‘shilish darajasi, ilmiy, texnik va ijtimoiy jarayon qonunlari, sikllarning tabiati va inqirozlar bilan belgilanadi.

Davlat milliy iqtisodiyotning nisbatlariga ma’muriy-huquqiy usullar va bozorga xos bo‘lgan vosita va dastaklar orqali o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Davlat tomonidan tartibga solish usullarining mazmuni iqtisodiyot, tartibga solish obyektlarining o‘zi, ya’ni nisbatlarning o‘ziga xos turlari, shuningdek, tarixiy omillar va odamlarning o‘ziga xos yashash sharoitlari bilan belgilanadi.

Milliy iqtisodiyotning nisbatlari quyidagicha guruhlanadi: umumiqtisodiy (makroiqtisodiy), tarmoq va mintaqaviy (mezoiqtisodiy), tarmoq va ishlab chiqarish ichidagi (mikroiqtisodiy), davlatlararo, xalqaro (mega-iqtisodiy). Nisbatlarning barcha turlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq, yaqin birlikda va o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi.

Milliy iqtisodiyotni tashkil etishda asosiy rolni umumiy iqtisodiy nisbatlar o‘ynaydi: tovarlarga talab va taklif, tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ishlab chiqarish, ishlab chiqarish vositalari va iste’mol tovarlari ishlab chiqarish, qoplash, iste’mol va jamg‘arish fondlari nisbati, tarmoq va mintaqaviy majmualar o‘rtasidagi nisbatlar.

Ayni paytda mamlakatimizda koʻp ukladli iqtisodiyot shakllandi, bunday sharoitda milliy iqtisodiyotning ikki yirik tarmogʻi – davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi munosabatlar va aloqalar alohida ahamiyatga ega.

Davlatning milliy iqtisodiyot tuzilishini tartibga solishdagi faoliyati tashqi va ichki, hal qilinayotgan muammolarning teranligiga koʻra strategik va taktik faoliyat turlariga boʻlinadi.

Strategiya – bu davlatning keng koʻlamli milliy iqtisodiy muammolarni har tomonlama hal qilishga qaratilgan uzoq muddatli yoʻnalish hisoblansa, *taktika* esa -strategik rejalar va vazifalarni hal qilish usullari va vositalari toʻplami hisoblanadi.

Tarkibiy siyosatning eng asosiy maqsadi iqtisodiyotning muvozanatiga erishish, milliy iqtisodiyotning jahon xoʻjalik aloqalariga organik qoʻshilishi asnosida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi nisbatlarni ta'minlashdan iboratdir.

Yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning oʻsishi milliy iqtisodiyot muvozanati va tarkibiy siyosat samaradorligining obyektiv mezoni hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash turlarini aniqlashtirgan holda, ularning mazmunini ochishga harakat qilamiz.

Olimlar jahon iqtisodiyotining tarixi umuman olganda modernizatsiya tarixi degan qarashni ilgari suradilar. Ushbu jarayonning rivojlanishi doirasida modernizatsiyalashning turli xil koʻrinishlari qaror topdi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning quyidagi turlari ajratib koʻrsatiladi:

- rivojlanayotgan (inqilobiy yoki kashshof) modernizatsiya, nafaqat ma'lum bir mamlakat uchun, balki umuman jahon iqtisodiyoti uchun texnologiya va ba'zan faoliyat turlari boʻyicha tubdan yangi tarmoqlarning paydo boʻlishi va rivojlanishi boshlanishini aks ettiradi.

Rivojlanuvchi modernizatsiyani odatda, taraqqiy etgan mamlakatlar amalda keng qoʻllaydilar, modernizatsiyalashning muvaffaqiyati pirovardida ularni dunyoda yetakchilik mavqeiga olib chiqadi. Mamlakatning rivojlanayotgan inqilobiy modernizatsiyani amalga oshirish qobiliyati uning jahon iqtisodiyotida yetakchi mavqega ega boʻlishi borasidagi zaruriy shartlardan biridir;

- cheklangan modernizatsiyalash, bunda iqtisodiyotning tadrijiy rivojlanishi tufayli muayyan bir mamlakat davlat aralashuvisiz yoki davlat aralashuvining eng past darajasida taraqqiy etgan mamlakatlarda bo‘lgani kabi, o‘z hududida eng ilg‘or tarmoqlar va faoliyat turlarining paydo bo‘lishini ta’minlaydi.

Cheklangan modernizatsiyalashni odatda tubdan yangi tarmoqlarning paydo bo‘lishini ta’min etish imkoniyatiga ega bo‘lmagan mamlakatlar qo‘llaydilar. Organik modernizatsiya jarayonida mamlakatda inqilobiy, rivojlanayotgan modernizatsiyani amalga oshirish uchun sharoitlar rivojlanishi mumkin;

- **quvib yetuvchi modernizatsiyalash, bunda mamlakat o‘z sa’y-harakatlari bilan qo‘shni mamlakatlar tomonidan bosib o‘tgan yo‘lni qisqa muddatda bosib o‘tadi va iqtisodiyotning barqarorligini ta’min etadi.**

Modernizatsiyalashni amalga oshirish natijasida mamlakat iqtisodiyoti mustaqil tarzda, davlatning muhim aralashuvisiz texnologik rivojlanishni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ya’ni uning natijasida mamlakatning jahon taraqqiyotining yetakchilari orasida o‘z mavqeiga ega bo‘lishi borasida zaruriy shart-sharoitlar yaratilsagina, quvib etuvchi modernizatsiyalashni muvaffaqiyatli amalga oshirilgan, deb hisoblashimiz mumkin.

Tarkibiy siyosatni ustuvor iqtisodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar shakllanadigan, milliy ishlab chiqaruvchilar va mahsulotlarning tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishga qaratilgan sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va samaradorligini oshirish strategiyasining bir turi sifatida qarash lozim, tarkibiy siyosat shu bilan bir qatorda, mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda faol sanoat siyosatini amalga oshirish mafkuradan holi bo‘lishi va amaliy-konstruktiv ruhga ega bo‘lmog‘i lozim. Shu bilan birga, sa’y-harakatlar iqtisodiyotning aniq muammolarini samarali hal etishga yo‘naltirilgan haqiqiy boshqaruv texnologiyalarini izlashga yo‘naltirilishi kerak.

Tarkibiy siyosatni amalga oshirish mexanizmi quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- faoliyatning barcha turlarini emas, balki muayyan bir faoliyat turlarini tanlab olishi lozim;

- muhim ijobiy tashqi ta'sirlarni beradigan va boshqa omillar bilan yaqin aloqada bo'lgan faoliyatni tanlash;

- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda selektiv yondashuv.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar sharoitida O'zbekiston rivojlanishining hozirgi bosqichining o'ziga xos xususiyatlari ikkita tendensiya bilan tavsiflanadi - O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi va postindustrial jamiyat tomon harakatlanishi. Bu esa tarkibiy siyosatni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

O'z-o'zidan ayonki, mehnat unumdorligi bilan taqqoslaganda aholi real daromadlarining o'sish sur'atlarining yuqoriligi mamlakatni iqtisodiy jihatdan qoloqlikka yetaklashning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi. Iqtisodiy inqiroz sharoitida yuqorida aytib o'tilgan fikrlarimiz har qachongidan ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qanchalik hayratomuz tuyulmasin, ijtimoiy xarajatlarning o'sishi uzoq muddatda tadbirkorlik faolligini cheklaydi, ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirishni kamaytiradi va boqimandalik kayfiyatini yuzaga keltiradi, bularning barchasi iqtisodiyotning rivojlanishini ortga suradi.

Iqtisodiy tanglikning kuchayishi, budjet xarajatlarining hadda tashqari o'sib borishi sharoitida mazkur ko'rinishdagi budjet siyosatini amalga oshirish imkonsiz bo'lib qoladi, ushbu holatda birdan-bir to'g'ri yo'l mavjud resurslardan oqilona foydalanish, "o'sish nuqtalari"ni aniqlash va ijtimoiy infratuzilmaga manzilli va maqsadli mablag'larni yo'naltirish hisoblanadi.

Shu tariqa, tarkibiy siyosat mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Tarkibiy siyosatni amalga oshirish maqsadlarni to'g'ri belgilashni, tanlangan maqsadlarga erishish yo'llari va vositalarini tanlashni, tarkibiy siyosatni o'tkazish mexanizmini ishlab chiqishni, tarkibiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashni nazarda tutadi.

Shu munosabat bilan tarkibiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash uchun quyidagi mezonlarni taklif qilish mumkin.

Birinchidan, ma'lum bir faoliyat sohasida raqobatbardosh ustunliklarning mavjudligi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishlar va tarmoq mahsulot va xizmatlariga samarali talabning (ichki va tashqi) o'sishi istiqbollari.

Uchinchidan, umuman iqtisodiyot yoki muayyan bir tarmoq/ishlab chiqarishga multiplikativ samaraning sezilarli ta'sirining mavjudligi.

Tarkibiy siyosatning xomashyo omilini yuqori texnologiyalar foydasiga o'zgartirish mumkin, ammo buning uchun daromadlarning muayyan bir qismini fundamental fanni rivojlantirish, ilg'or texnika va texnologiyalardan keng foydalanishga yo'naltirish talab qilinadi.

To'rtinchidan, biznes faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan institutsional muhitni rivojlantirish.

Institutsional sohada eskirgan va istiqbolsiz tarmoqlardan resurslarni qayta taqsimlashni, shuningdek, tabiiy resurslarni zamonaviy ishlab chiqarish va texnologik tizimlarga eksport qilishdan olinadigan yuqori foydani zamonaviy ishlab chiqarish – texnologik tizimlarga yo'naltiruvchi iqtisodiy tizimni barpo qilish vazifasi muhim sanaladi, bunda asosiy e'tibor ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish hisobiga milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Rivojlanish institutlarini shakllantirish, nochor korxonalarni qayta qurish, xususiylashtirish dasturi, tashqi savdoni tartibga solish, davlatning ilmiy, texnik, sanoat va moliyaviy siyosati ushbu vazifani hal qilishga bo'ysunishi kerak. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashni amalga oshirish, birinchi navbatda, milliy iqtisodiy tizimning tarkibiy o'zgarishiga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tarkibiy siyosatni amalga oshirish tarmoq tuzilmasining mavjud nomutanosibliklarini yo'q qiladi va jarayonga yangi yuqori mahsuldor tarmoqlarni olib kiradi, ularning rivojlanishi iqtisodiy o'sishning innovatsion turini shakllantirishni anglatadi. Shu bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va tarkibiy qayta qurish aholining hayot sifatini yaxshilashning zaruriy shartidir va aholi daromadlari o'sishining multiplikativ tebranishlari butun iqtisodiy tizimga katta ijobiy turtki beradi.

Tarkibiy siyosat ustuvorliklarini aniqlashning yuqoridagi mezonlariga rioya qilish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning sama-

rasiz yo‘llarini tanlash ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

3.5. Urbanizatsiya jarayonlarining iqtisodiy siyosatga ta’siri

“Urbanizatsiya” so‘zi lotin tilida shahar ma’nosini anglatib, mamlakat (mintaqa) aholisi tarkibidagi shahar aholisining salmog‘i orqali o‘lchanadi. Urbanizatsiya jarayonlarining asosiy natijalari quyidagilar bilan bog‘liq:

barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash;

aholi turmushining sifati yaxshilash va darajasini ko‘tarish;

uy-joy, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari qurilishini keng miqyosda amalga oshirish;

yer uchastkalaridan samarali foydalanish;

shaharlarni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda kompleks rivojlantirish;

industrial-innovatsion rivojlanishning ustuvor vazifalarini hal etish va raqamli iqtisodiyotni qo‘llash;

katta, o‘rta va kichik shaharlar rivojlanishini maqbullashtirish;

shahar aglomeratsiyalari orqali ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning samarali shakllarini tatbiq etish;

shaharlarda sanoat zonalari, texnoparklar, innovatsiya markazlari tashkil etish.


Urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha jahon amaliyotining tahlili va undan chiqadigan xulosalar shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Singapur, Hindiston va boshqa mamlakatlarda aniq maqsadga yo‘naltirilgan urbanizatsiya siyosati faol sanoatlashuv, shaharlarni kompleks rivojlanishini rag‘batlantirish, mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, aholi turmush sharoitini izchil oshirib borish, doimiy va barqaror ish o‘rinlarini yaratish, yer islohotlarini amalga oshirish va yer uchastkalari bozorini shakllantirish kabi qator chora-tadbirlar bilan uyg‘unlikda olib borilgan. Ko‘pgina boshqa mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili bo‘lgan urbanizatsiyaning barqaror rivojlanish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, urbanizatsiya darajasining 1 foizga ortishi aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichining Xitoyda 10 foizga, Hindistonda esa 13 foizga o‘sishini ta’minlagan[20].

[20] https://megatrends.su/blog/investment-in-urbanization/

BMTning hisob-kitoblariga koʻra, jahonda shahar aholisining ulushi 2018-yildagi 55,3 foiz oʻrniga, 2030-yilga borib 60,4 foizga yetadi. Shahar aholisining nisbatan yuqori oʻsish surʼatlari rivojlanayotgan mamlakatlarda ham kuzatiladi. Mazkur mamlakatlarda bu jarayon, asosan, qishloq aholisining shaharlarga koʻchishi va shahar aholisi tabiiy oʻsishi bilan bogʻliq[21].

2022-yilda dunyoning 196 ta davlatlari oʻrtasida Oʻzbekiston Respublikasining ayrim demografik koʻrsatkichlar boʻyicha tutgan oʻrni BMT tomonidan eʼlon qilib boriladigan statistika maʼlumotlari asosida shakllantirilgan. BMT maʼlumotlariga koʻra, 2017-yilda dunyo aholisi soni 86,0 mln. kishiga koʻpaygan boʻlsa, 2021-yilda esa aholi sonining yillik koʻpayishi 20,9 foizga kamayib 68,0 mln. kishini tashkil etgan.




3.1-rasm. Dunyo aholisi sonining soʻnggi besh yil davomida yillik oʻzgarishi[22], million kishi

Dunyo boʻyicha aholi sonining dastlabki 1 mlrd. kishidan 2 mlrd. kishiga yetishi uchun ketgan vaqt 123 yilni tashkil etgan boʻlsa, 7 mlrd. kishidan 8 mlrd. kishiga yetishi uchun ketgan vaqt esa 11 yilni tashkil etdi.

[21] https://news.un.org/ru/story/2022/04/1422732

[22] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.



3.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi sonining so‘nggi yuz yildagi o‘zgarishi[23] (2023-yil 1-yanvar holatiga), million kishi, yillar

O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 1920-yilda 4,4 mln. kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning 1 yanvariga kelib, doimiy aholi soni 31,6 million kishiga yoki 8 barobarga ko‘payib 36 024,9 ming kishini tashkil etdi.

O‘z navbatida, tabiiy o‘sish koeffitsiyenti 1920-yilga (11,0 promille) nisbatan 9,9 promillega ko‘paygan hamda 20,9 promilleni tashkil etdi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda shaharlar rivojlanishi bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Shahar aholisining salmog‘i 1991-yildagi 40,3 foiz o‘rniga 2018-yilga kelib 50,6 foizga o‘sdi. Bunday o‘sish sur’atlariga asosan ma’muriy o‘zgarishlar, ya’ni 2009-yilda mingga yaqin qishloq aholi punktlarining shahar posyolkalariga aylantirilishi hisobiga erishildi. Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayonlarida qator nomutanosibliklar kuzatilmoqda:

- urbanizatsiya darajasi bo‘yicha mamlakatimizning jahonda tutgan o‘rni past. BMT xalqaro reyting ko‘rsatkichlari bo‘yicha O‘zbekiston 2018-yilda ushbu yo‘nalishda 233 mamlakat orasida 155-o‘rinni egalladi. Vaholanki, bu sohada dunyodagi o‘rtacha ko‘rsatkich 55,3 foiz bo‘lib, u Rossiyada 74,4 foizni, Turkiyada 75,1 foizni, Qozog‘istonda 57,4 foizni, Turkmanistonda 51,6 foizni tashkil etadi[24];

[23] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.
[24] https://news.un.org/ru/story/2022/04/1422732

- oxirgi 10 yil mobaynida (2009-2018-yy.) mamlakatimizda urbanizatsiya darajasi 51,7 foizdan 50,6 foizga kamaydi. Xorazm (33,3%), Surxondaryo (35,5%), Buxoro (37,4%) va Samarqand (37,4%) viloyatlarida urbanizatsiya darajasi ayniqsa past;

- 2012-yildan hozirga qadar shaharlar soni o‘zgarmadi (119 ta) va ularda 10,1 mln. kishi istiqomat qiladi. Mamlakat shaharlar tarmog‘ining asosini kichik shaharlar (jami shaharlar tarkibidagi ulushi 68,4 foiz) tashkil qiladi va ularning jami shahar aholisidagi ulushi 20,5 foizga teng. Shaharlar rivojlanishining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, shahar aholisining deyarli ¼ qismi (24,2%) poytaxt - Toshkent shahrida istiqomat qiladi. O‘tgan davr ichida 6,4 mln. kishi (38,7%) istiqomat qiladigan shahar posyolkalari soni 1065 tadan 1071 taga ko‘paydi. Shahar posyolkalari sonining juda ko‘pligi ham O‘zbekistonda shaharlar tarmog‘ining o‘ziga xos jihati sifatida talqin qilinishi mumkin;

- ko‘pgina kichik shaharlar va shahar posyolkalari ma’muriy usullar orqali tuzilgan bo‘lib, ular shaharsozlik talablariga to‘la javob bermaydi. Amalda aholi qishloq xo‘jalik mehnati bilan band, ularning turmush tarzi esa qishloqqa xos. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday toifadagi shaharlar uchun ularning ma’lum bir sohaga chuqur ixtisoslashganligi, ishsizlikning yuqori darajasi, ishlab chiqarish va infratuzilma obyektlarining eskirganligi, transport kommunikatsiyalari va xizmat ko‘rsatish sohalari holatining qoniqarsizligi, moliyaviy mablag‘lar va malakali xodimlarning yetishmasligi kabilar xosdir;

- 2012-2018-yillarda shahar aholisi soni 1,4 mln. kishiga yoki 9,2 foizga ortdi (shu davrda qishloq aholisi mos ravishda 1,7 mln. kishi va 11,9 foizga ko‘paydi). 2023-yilning 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 36 024,9 ming kishini tashkil etdi. Shundan erkaklar soni 18 128,6 ming kishini, ayollar soni 17 896,3 ming kishini, shahar aholisi soni 18 335,7 ming kishini, qishloq aholisi soni 17 689,2 ming kishini tashkil etdi. Aholining tabiiy harakati (102,0%), migratsiya (-13,4%) va ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar (11,4%) shahar aholisi soni o‘sishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan.

Yurtimizda urbanizatsiyaning mazkur holatda shakllanishiga quyidagilar sabab bo‘lgan:

- asosan qazib chiqaruvchi sanoatga yo‘naltirilgan yirik investitsiya loyihalari shaharlar sanoatlashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani yo‘q;
- qishloq aholisi harakatchanligining pastligi va tashqi mehnat migratsiya darajasining yuqoriligi;
- shaharlarni kompleks va barqaror rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadli urbanizatsiya siyosatining mavjud emasligi;
- shaharsozlik sohasida ishlab chiqilayotgan hujjatlar va me’yoriy-huquqiy bazaning zamon talablariga mos kelmasligi;
- sanoat va infratuzilma obyektlari barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun mahalliy moliyaviy resurslar va shahar hokimliklari vakolatlarining cheklanganligi;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yuqori malakali mutaxassislar va ishchilarning etishmasligi;
- har bir shahar bo‘yicha uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining mavjud emasligi;
- mahalliy hokimiyat organlari tomonidan shahar aholisining talab va ehtiyojlarining e’tiborga olinmasligi.
- investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish chog‘ida alohida toifadagi shaharlar uchun xos bo‘lgan xususiyatlarni yetarlicha hisobga olinmasligi;
- shaharlar, ayniqsa, katta va yirik shaharlar aholisi sonini hisobga olish bo‘yicha statistik hisobotlarda xatoliklarning mavjudligi va hokazo.

Barqaror rivojlanishni ta’minlashning yangi omili sifatida mavjud nomutanosibliklar va tizimli muammolarni bartaraf etish, urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘zining 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida mamlakatimizda urbanizatsiya darajasini 2030-yilgacha 60 foizga yetkazish vazifasini strategik maqsad sifatida belgilab berdi[25]. Ushbu vazifani bajarish uchun mamlakatda davlat tomonidan urbanizatsiyani maqsadli tartibga solish va shaharlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar va kompleks chora-tadbirlarni ko‘zda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi (2019-yil 10-yanvar)[26].

[25] https://review.uz/uz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-savkat-mirzieevning-olij-mazlisga-murozaatnomasi
[26] https://lex.uz/docs/-4154818

Mutlaqo yangi uy-joy siyosatini amalga oshirish asosida urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish, bunda aholi punktlarining muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalar bilan ta'minlanganligiga e'tibor qaratish; jismoniy va yuridik shaxslar uchun turarjoy va noturar joy bino va inshootlar ostidagi yer uchastkalariga egalik qilish huquqini amalga oshirishni kafolatlash, yer uchastkalarini fuqarolik muomalasiga kiritish uchun shart-sharoitlar yaratish; migratsiya jarayonlarini ma'muriy tartibga solish tizimini takomillashtirish yo'li bilan aholining qishloq joylardan shaharlarga erkin harakatlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish; aglomeratsiyalarning afzalliklaridan foydalanishni nazarda tutgan holda o'rta shaharlarni, shu jumladan, tuman markazlarini boshqarishda ilg'or xalqaro tajribani keng joriy etish; yo'ldosh-shaharlar tarmog'ini kengaytirish, yirik shaharlarning markaziy qismida sanoat va boshqa zonalar hududlarini qisqartirgan holda ishbilarmonlik va xizmat ko'rsatish zonalari hududlarini kengaytirish urbanizatsiya jarayonlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida qayd etildi.

Tabiiyki, urbanizatsiya siyosatini samarali qo'llash uchun uning aniq mexanizmlari va amalga oshirish yo'llari ishlab chiqilishi zarur. Bunda, eng avvalo, ushbu yo'nalishda yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ("Noqishloq xo'jalik ahamiyatidagi yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonun loyihasi) ishlab chiqish hamda Yer, Shaharsozlik, Uy-joy Kodekslari va boshqa mavjud qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali amalga oshiriladi.

Yer uchastkalarini xususiylashtirish jarayonining ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini va o'ziga xos murakkabliklarini e'tiborga olib, bu jarayonlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ular hukumat tomonidan qabul qilinishidan avval umumxalq muhokamasiga qo'yish ko'zda tutilgan. Shu o'rinda bir muhim jihatni e'tiborga olmoq zarur bo'ladi. Buni shoshmashosharlik bilan qilib bo'lmaydi, yetti marta o'lchab bir marta kesish kerak. Qaror qabul qilingunga qadar, bino va inshootlar ostidagi hamda ularga yaqin joylashgan yer uchastkalarining bozor qiymatini aniqlash va xususiylashtirish tartibi to'g'risidagi xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rganish va tahlil qilish lozim bo'ladi.

Faol urbanizatsiya siyosatini amalga oshirish maqsadida quyi-

dagi asosiy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish koʻzda tutilgan:

- Oʻzbekiston Respublikasining 2030-yilga qadar urbanizatsiya Konsepsiyasini ishlab chiqish;

- strategik rejalashtirish, mamlakat, mintaqalar va shaharlarning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari, aholini joylashtirishning Bosh sxemasi, infratuzilma obyektlarini joylashtirish va rivojlantirish sxemalari, shaharlarning bosh rejalariga oid hujjatlar toʻplamini yagona tizim sifatida ishlab chiqish;

- urbanizatsiyani tartibga solish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, alohida yoʻnalishlar boʻyicha shaharlarning kompleks rivojlanishiga mas'ul turli vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat organlari, jumladan ilmiy va loyiha-tadqiqot ta'minoti boʻyicha faoliyatni muvofiqlashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida urbanizatsiya agentligini tashkil etish;

- urbanizatsiya jarayonlarida yetakchilik boʻladigan istiqbolli qishloq aholi punktlari, shahar posyolkalari va kichik shaharlarni (xatlab) hamda mintaqalar iqtisodiyoti barqaror rivojlanishida oʻsish nuqtalari boʻla oladigan oʻrta va yirik shaharlar aniqlash;

- urbanizatsiya jarayonlari uy-joy qurilishi bilan bogʻliq boʻlishi bilan birga, raqamli texnologiyalarni qoʻllagan holda shaharlarni industrial-innovatsion rivojlantirishga e'tibor qaratiladi, shaharlarda sanoat korxonalarini ularning salohiyatidan kelib chiqib oqilona joylashtirish, alohida toifadagi shaharlar kesimida investitsiya dasturlari va loyihalar aniqlashtirish;

- shahar aglomeratsiyalari shakllanishini tartibga solishga yoʻnaltirilgan Toshkent shahri, viloyat markazlari atrofida yoʻldosh-shaharlarni barpo etish moʻljallangan;

- eng istiqbolli shaharlarga – iqtisodiy rivojlanishning yetakchisi mavqeini berish va ular uchun ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni joylashtirish uchun qulay investitsiya muhiti va shart-sharoitlarni yaratish, yer uchastkalari bozorini shakllantirish, maqsadli moliya mablagʻlarini yoʻnaltirish;

- shaharlar barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan, budjet va budjetdan tashqari man-

balardan hamda yangi tashkil etilgan urbanizatsiya jamg‘armasi mablag‘laridan samarali foydalanish evaziga shahar hokimliklari mustaqilligi va mas’uliyatini ta’minlash chora-tadbirlarini ko‘rish;

- urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish maqsadida mavjud va tashkil etish ko‘zda tutilayotgan erkin iqtisodiy zonalar, ayniqsa, kichik sanoat zonalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

- xalqaro standartlar va reytinglar bilan uyg‘unlashtirgan holda shahar aholisi sonining statistik hisobini yuritishni takomillashtirish kabilar.

Umuman, O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish iqtisodiy rivojlanishning yangi manbalari va imkoniyatlarini ochib beradi, aholi turmush sharoitining sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar

Modernizatsiya o‘zgarishlarini boshdan kechirayotgan turli mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari, asosan, o‘ziga xos bo‘lgani holda, modernizatsiya o‘zgarishlarining tanlangan obyekti, maqsad va usullari esa har bir aniq tizimning imkoniyat va ehtiyojlariga mos kelishi, mavjud global va ichki voqelikni hisobga olishi lozim. Bu modernizatsiya loyihalari va dasturlarini tayyorlashdagi asosiy qiyinchilikni ifoda etadi. Bugungi kunda modernizatsiya sohasida jahon miqyosida yetarlicha tajriba to‘plangan. Ammo bu tajribani chuqur tahlil qilish, modernizatsiya jarayonining asosiy qonuniyatlarini aniqlash, keyinchalik mamlakat, mintaqaning o‘ziga xos sharoitlariga moslashtirish sharti bilan amalda qo‘llash mumkin.

Turli modernizatsiya tajribalarini tahlil qilish, shu jumladan, AQSh (XVIII asr oxiri — XIX asr boshlari), Turkiya (1924-yil – 2000-yil oxiri), Yaponiya va Germaniya (ikkinchi Jahon urushidan keyin) va bir qator mamlakatlarning tajribasi modernizatsiyalash borasida bir qator uslubiy xulosalar yasash imkonini beradi (3.2-jadval).

3.2-jadval

Muvaffaqiyatli modernizatsiya islohotlarining asosiy unsurlarining xususiyatlari

Modernizatsiya islohotlarining tahlil qilinuvchi unsurlari	**Umumiy tavsifi**
Modernizatsiya islohotlarining mohiyati	Samarali modernizatsiya doimo ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini yaxlit tarzda o'zgartirish jarayonini ifoda etadi. Modernizatsiyalash quyidagilarni ko'zda tutadi: (1) hal qilinmasligi tizimning darz ketishiga olib keluvchi ichki muammolarni hal qilish, (2) modernizatsiya obyektini ijtimoiy-institutsional darajada ham, iqtisodiy jihatdan ham rivojlanayotgan jahon hamjamiyatining yanada samarali unsuriga aylantirish.
Modernizatsiya islohotlarining obyekti	Modernizatsiyalash obyekti sifatida jamiyat o'zining ikki jihati - jamiyatning institutsional asosi va iqtisodiy tizimi bilan ishtirok qiladi.
Institutsional islohotlarning umumiy yo'nalishi	Ijtimoiy institutlar, shu jumladan, davlatni o'zgartirish modernizatsiyalashdan avvalgi davrga qaraganda ko'proq tarzda fuqarolarning tadbirkorlik, yaratuvchanlik energiyasini namoyon qila olishlariga imkon yaratmog'i lozim.
Institutsional islohotlarning shakli va ijtimoiy bazasi	Shakllar turlicha, xususan, majburlashdan tortib demokratik usul va shakllarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, dastlabki bosqichlarda ular odatda majburiy, ko'pincha aholining qarshilik ko'rsatadigan qatlamlari va guruhlariga qarshi repressiv tabiatga egaligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramay, agar aholining aksariyati islohotlarga qarshi chiqmasa va ahvollarining yaxshilanishiga umid qilsa, unda bu yondashuv konstruktiv natijalarga olib kelishi borasida barcha imkoniyatlarga ega bo'ladi
Modernizatsiya islohotlarining resurslari va bozorlari	Barcha muvaffaqiyatli kechgan modernizatsiyalash jarayonlari har doim o'zgarishlarning institutsional bosqichi oxirida mavjud resurslar va bozorlar bo'yicha potensial o'sish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Modernizatsiya islohotlari davrida iqtisodiyotning samarasiz yuklanish darajasi	Barcha muvaffaqiyatli kechgan modernizatsiyalash jarayonlari har doim iqtisodiyotga samarasiz yukning nisbatan past darajasiga egaligi bilan ajralib turadi.
Iqtisodiyotda tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish usullari	Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning qo'llaniladigan usullari doirasi juda keng bo'lishi mumkin. Eng samarali (modernizatsiyaning yakuniy maqsadlariga erishishga imkon beradigan) evolyutsion – liberal tabiatga ega bo'lgan usullar hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat konsessiyalarini shakllantirish va ishlab chiqarish sektorini rejali boshqarish orqali iqtisodiy tuzilishni shakllantirish va tubdan qayta tashkil etish uchun davlat tomonidan iqtisodiy aralashuvi usullariga ham yo'l qo'yiladi.
Sanoat ishlab chiqarish tuzilmasini modernizatsiya qilish	Barcha muvaffaqiyatli amalga oshgan modernizatsiyalash sanoat sektorini muvaffaqiyatli tarkibiy modernizatsiya qilish asosida mamlakatlar o'z iqtisodiyotlarini tarkibiy modernizatsiya qilishgan. Amalga oshirilgan tarkibiy islohotlarning umumiy xususiyati shundaki, ular uzoq va yanada uzoq muddatli o'sish istiqbollariga ega bo'lgan (20, 30 va undan ortiq yillar) xalqaro tovar bozorlariga yo'naltirilgan tarmoqlarning texnologik bazasini yaratishni ta'minlaganliklarida ko'rinadi. Ushbu holatda, biz hozirgi paytda eng daromadli bozorlarni egallab olish haqida emas, balki yosh, ammo uzoq muddatli o'sish tabiatiga ega bo'lgan xalqaro bozorlarga chiqish haqida so'z yuritamiz.
Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda faol ishtirok etuvchi ijtimoiy asoslar	Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda aholining keng qatlamlari ishtirok etishi lozim. Aholining qo'shimcha qatlamlarini iqtisodiy o'zgarishlarga jalb qilmaydigan islohotlar amalga oshirilgan bosqichlar samarasiz yoki butunlay muvaffaqiyatsiz kechgan.
Modernizatsion islohotlarni amalga oshirishda davlatning ishtiroki	Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sohasida ishonchli siyosat olib boruvchi kuchli davlat har doim muvaffaqiyatli modernizatsiya islohotlarining tashkiliy asosi bo'lib kelgan. Davlatning muvofiqlashtiruvchi rolining pasayishi tuzilmani modernizatsiyalash yakunlanganidan so'ng, modernizatsion o'zgarishlar sur'atining pasayishi davrida kuzatiladi.

Modernizatsiyaning ikkinchi asosiy unsuri davlat va huquq institutlari, fuqarolik jamiyati va iqtisodiy institutlarni o‘z ichiga oluvchi jamiyatning institutsional tuzilmasi hisoblanadi. Modernizatsiyaning uchinchi asosiy unsuri – bu iqtisodiy tizim bo‘lib, unga quyidagi asosiy quyi tizimlar kiradi: ishlab chiqarish sektori tarkibi, resurslar, ijtimoiy baza va sotish bozorlari. Modernizatsiyaning to‘rtinchi asosiy unsuri-bu dastlabki uchta asosiy unsurlarni modernizatsiya qilishni rejalashtirish va amalga oshirishni ta’minlaydigan usul va vositalar tizimi hisoblanadi.

Modernizatsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular bir-biriga zid tabiatga ega. Modernizatsiya o‘zgarishlarini amalga oshirish jarayonining asosini tashkil etuvchi rejalashtirish dastlab, maqsadlardan boshlanishi, so‘ngra iqtisodiy tizimlarni modernizatsiya qilish rejalariga o‘tishi lozim va shundan keyingina jamiyat institutlarini modernizatsiya qilishga to‘liq yondashish mumkin. Rejalashtirilgan chora — tadbirlarni amalga oshirish jarayoni teskari tartibda amalga oshirilishi kerak-shakllangan maqsadlardan boshlab, institutlarni modernizatsiya qilishning minimal zarur darajasini amalga oshirish, so‘ngra iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilishga o‘tish talab etiladi. Ko‘rinib turibdiki, modernizatsiya transformatsiyasini boshqarish tizimining asosiy jihatlaridan biri modernizatsiya maqsadlaridir.

Modernizatsiyaning strategik maqsadlarini belgilashga turli xil yondashuvlarni o‘rganish maqsadlar tizimi quyidagi ikkita shartga javob berishi kerak, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi:

1) modernizatsiya o‘zgarishlarining maqsadlari shunday tanlanishi kerakki, ularni amalga oshirish dastlabki bosqichlarda ushbu modernizatsiya amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimning yuqori iqtisodiy o‘sish sur’ati bilan birga kechadi. Bu iqtisodiy tizimning o‘sish sur’ati innovatsion modernizatsiyaning mustaqil omili ekanligi bilan izohlanadi, chunki investitsiyalarning o‘sish sur’atlari pastligida sharoitida innovatsiyalarga investitsiyalar shunchaki foydasiz bo‘lib qoladi. 2) savdo bozorlarining makon borasida cheklangan o‘sishi sharoitida iqtisodiy modernizatsiya maqsadlari uzoq va o‘ta uzoq muddatli rejalashtirish chegaralari doirasida aniqlanishi lozim (15-20 dan 30 yilgacha yoki undan

ham koʻproq davr). Ular ommaviy iste'molning tayyor mahsulotlari uchun tubdan yangi istiqbolli bozorlarni tashkil etishga tizimli tayyorgarlik koʻrish imkoniyatini yaratishi lozim.

Tadqiqotchilar strategik maqsadlarni shakllantirish, jumladan, Oʻzbekiston oldida turgan zamonaviy global muammolarga javob tariqasida turli xil yondashuvlarni taklif qiladilar:

- mamlakatning geoiqtisodiy va geosiyosiy manfaatlari uchun kurash borasida milliy gʻoyaga asoslangan xilma-xil iqtisodiy qarash va texnologik yondashuvlarni ilgari surish;
- asosiy ijtimoiy institutlarni shakllantirish va tubdan isloh qilish, shunda ular texnologiya va ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish va oʻz manfaati uchun foydalanishga qodir boʻlgan kelajakdagi jamiyatning asosini tashkil qiladi;
- modernizatsiya oʻzgarishlarining lokomotivi sifatida zamonaviy sanoat ishlab chiqarishini globallashuv va tashkilot, texnika va texnologiyalar sohasidagi xalqaro standartlarga qat'iy yoʻnaltirish yoʻlida rivojlantirish;
- hududiy subyektlar va mezoiqtisodiy tizimlarni rivojlantirishga qiymatga asoslangan yondashuv.

Maqsadlarni belgilash borasidagi asosiy yondashuvlar tahlili pirovard natijada ularning barchasi zamonamizning global tizimli muammolariga javob izlashdan iborat ekanligini koʻrsatadi. Bugungi kunda zamonamizning global tizimli muammolari tushunchasi, amalda, quyidagicha talqin qilinadi. Bu tashqi muhitning obyektiv oʻzgarishi boʻlib, bu oʻz navbatida mavjud mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning ishlashi va rivojlanishi istiqbollarini tubdan oʻzgartiradi va yoki mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning alohida unsurlari tizim ichidagi aloqalar va bogʻlanishlarni tubdan oʻzgartirishni talab qiladi.

Shu tariqa tizimli global tizimli muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin boʻladi: birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning amalda boʻlishi va rivojlanishi bilan bogʻliq muammolarni tavsiflovchi kategoriya, ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanish istiqbollarini koʻrsatuvchi va hatto ularga ishora qiluvchi kategoriya hamdir. Global tizim chaqiriqlari nafaqat makro tizimlar darajasida balki, mezo va mikro tizimlar darajasida ham koʻzga

tashlanadi. Shu bois, muammoning yechimi global koʻlamda boʻlsa, uni mikro yoki mezo darajada hal qilib boʻlmaydi.

Takrorlash uchun savollar

1. Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlar jarayoni toʻgʻrisida fikrlaringizni bayon qiling.
2. Iqtisodiy oʻsishni ta’minlashda institutlarning oʻrnini qanday baholaysiz?
3. Iqtisodiy oʻsish “nuqtalari” nimani anglatadi? Oʻzingiz yashab turgan hudud uchun qanday faoliyat turlari “oʻsish nuqtasi” boʻlib xizmat qilishi mumkin?
4. Iqtisodiy oʻsishni ta’minlashda klasterlashtirishning oʻrni nimalarda namoyon boʻladi?
5. Tarkibiy siyosatning mazmun va mohiyatini yoritib bering.

Xususiy sektor iqtisodiyotning hukumat tomonidan boshqariladigan qismidir, davlat sektori esa iqtisodiyotning hech kim tomonidan nazorat qilinmaydigan qismidir.

Jeyms Goldsmit

IV BOB. O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISH VA BOSHQARISH – IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH VOSITASI

4.1. Davlat mulki va tadbirkorligi – iqtisodiy siyosatning muhim vositalari

4.2. O‘zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni va bosqichlari

4.1. Davlat mulki va tadbirkorligi – iqtisodiy siyosatning muhim vositalari

Iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning eng muhim davlat vositalaridan biri o‘z mulki bo‘lgan tarmoq va korxonalarni boshqarish, ya’ni bevosita tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishdir.

Davlat mamlakat ishlab chiqarish vositalarining bir qismini mulk egasi sifatida bevosita ishlab chiqarish jarayonini tashkil qiladi, rejalashtiradi va uni nazorat qiladi. Davlat tadbirkorlik faoliyati orqali fan-texnika inqilobi talablariga ko‘ra xalq xo‘jaligi tuzilishini shakllantirishga hamda bozor baholaridan birmuncha past baholarda tovar sotish va xizmatlar ko‘rsatish orqali ishlab chiqarishning boshqa sektorlarining rivojlanishiga ko‘maklashadi. Davlat mulki va sohibkorligi ko‘lami bozor iqtisodiyoti sharoitida cheklangan bo‘ladi. U, asosan, mamlakat iqtisodiyotini samarali rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda bozorlarni tartibga solish, asosan, iqtisodiy usullar bilan amalga oshiriladi. Bu jarayonda ishtirok etishning alohida shakli davlat tadbirkorligidir. Mikro darajada davlat xususiy biznesning biznes hamkoriga aylanadi. Davlat iqtisodiy agentlarining moddiy tovar va xizmatlar bozorlaridagi harakatlari

xoʻjalik faoliyati qonunchiligiga boʻysunadi. Davlatning iqtisodiy hayotdagi bunday ishtirok etishini tushunish birdaniga shakllanmagan. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish muammosi sharoitida davlat tadbirkorligi muammosi iqtisodiy nazariya va amaliyotning eng murakkab va munozarali masalalaridan biri hisoblanadi.

J. S. Mill oʻzining "Siyosiy iqtisod asoslari" asarida XIX asr oʻrtalarida shunday deb yozadi: "Hozirgi vaqtda siyosatshunoslik va davlat boshqaruvi amaliyotining eng keng muhokama qilinuvchi masalasi bu davlat faoliyati sohasidagi funksiyalarning oqilona chegaralari masalasidir; bizning asrimizda bundan boshqa savol bunchalik qizgʻin munozaralarga sabab boʻlgani yoʻq..."[27]. Ushbu holatda mazkur masalaning mukammal echimi mavjud emasligini va bunda davlat iqtisodiyotga ikki yoʻl – ma'muriy yoʻl va tavsiyaviy tabiatga ega boʻlgan usullar bilan aralishishi mumkinligini koʻrsatib oʻtadi. Birinchi yoʻlda muayyan ishlab chiqarishlarga ruxsat berish yoki taqiqlash koʻzda tutilsa, ikkinchi holatda ijtimoiy maqsadlarga erishish borasida davlatning oʻz organlari, masalan, davlat korxonalari va tadbikorligini tashkil qilishni koʻzda tutadi. Kapitalistik siyosiy iqtisodning ushbu yorqin vakili "haqiqatda xususiy biznesni yuritish davlat amaldorlarining harakatlaridan unchalik farq qilmaydi; xususiy tashabbuslar aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin boʻlgani holda, ... bularning barchasi davlat tomonidan yaxshi, ba'zida ajoyib tarzda uddalanishi mumkin". Ushbu holatda, J. S. Mill iqtisodiy samaradorlikning pastligi muammosi korxonaning birgina mulkchilik shakli bilan belgilanmaydi va u koʻproq umumiy tabiatga ega deb hisoblaydi.

Yuqorida bayon qilinganlardan koʻrinib turibdiki, davlat tadbirkorligi nazariy va amaliy jihatdan xususiy tadbirkorlik bilan bir xil kun kechirish huquqiga ega va uning samaradorligi masalasi alohida muammo boʻlgan holda, uni hal qilish koʻp jihatdan davlat agentlari tomonidan biznesni tashkil etish borasida tegishli yondashuvlardan foydalanishga bogʻliq. Texnologik rivojlanishning hozirgi bosqichida ulardan biri marketing hisoblanadi.

Davlat tadbirkorligining mohiyatini aniqlashtirish borasida tur-

27 Милль Дж.С. Основы политической экономии / Под ред. А.Г. Милейковского. Т.2. — М.: Прогресс, 1980.

licha yondashuvlar mavjud. An'anaviy yondashuv shundan iboratki, davlat tadbirkorligi, asosan, davlat korxonalari faoliyati bilan bog'liq. Mutaxassislar davlat tadbirkorligi va xususiy biznes o'rtasidagi asosiy farq sifatida foyda faoliyatning asosiy maqsadi bo'lmagani holda, davlat tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini ko'rsatadilar.

Ko'pgina tadqiqotchilar davlat korxonalarining "iqtisodiyotni tartibga solish vositasi", "o'rnatilgan bozor stabilizatori", "tarmoq, tarkibiy va siklik inqirozlar oqibatlarini bartaraf etish vositalari", "milliy siyosatni amalga oshirish, milliy maqsadlarga erishish uchun hukumat vositalari" sifatida o'ziga xos rolini ajratib ko'rsatishadi.

1961-yilda tashkil qilingan Davlat tadbirkorligi Yevropa markazi xodimlari davlat tadbirkorligi zimmasiga quyidagi funksiyalarni yuklaydilar:

- past rentabelli, xususiy kapital uchun qiziq bo'lmagan, ammo rivojlanishi ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining umumiy shartlarini belgilaydigan tarmoqlar faoliyatini ta'minlash (birinchi navbatda infratuzilma tarmoqlari);

- inqirozlarni boshdan kechirayotgan tarmoqlarni "tiklash", bu turli yo'llar bilan amalga oshiriladi, shu jumladan, ishlab chiqarishni konsentratsiyalash, uni kooperatsiyalash, diversifikatsiya qilish, davlat korxonalarini subsidiyalashdan tortib ularni milliylashtirishgacha;

- davlatning kerak darajada iqtisodiy qudratini ta'minlash, FTTni jadallashtirish va shu asosda mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi mavqeini mustahkamlash borasida iqtisodiyotning (fan va kapital sig'imkor) muhim tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash;

- tegishli mintaqaviy siyosatni amalga oshirish orqali qoloq hududlarni sanoatlashtirish – ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklar va nomutanosibliklarni bartaraf etish maqsadida sanoat korxonalarini qurish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, kadrlarni qayta tayyorlash;

- chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, tozalash inshootlarini qurish, texnogen ofatlarni yuzaga keltirishi mumkin shart-sharoitlarni bartaraf etish va boshqa ekologik siyosat choralari orqali atrof-muhitni muhofaza qilish.

Davlat, *birinchidan,* o‘ziga qarashli tarmoq va korxonalarning samarali ishlashi uchun xomashyo, asbob-uskunalar; *ikkinchidan,* boshqaruv apparati xodimlarini moliya bilan ta’minlash; *uchinchidan,* mehnatga layoqatsiz mayib-majruhlar, qariyalar, yetim bolalar, kambag‘allar hamda ko‘p bolali oilalar, yolg‘iz, qarovsiz kishilarga yordam maqsadida iste’mol tovarlari va xizmatlar bilan ta’minlash; *to‘rtinchidan,* harbiy anjomlar, qurol-yarog‘lar armiya uchun lozim bo‘lgan iste’mol tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, *beshinchidan,* turli xil tabiiy ofatlarning oldini olish uchun davlat zaxiralarini tashkil etish maqsadida tovarlar sotib oladi. Buning oqibatida davlatning tovarlar va xizmatlar bozori shakllanadi. Davlat bozori muhim ijobiy rol o‘ynaydi. Bu bozor kafolatli bo‘lib, uning to‘lov qobiliyati davlatning budjet va valyuta fondi orqali ta’minlanadi. Har qanday bozor kon’yunkturasi sharoitida ham davlat buyurtmasi va kontraktlari yuzasidan ishlayotgan korxonalar bozori kasod bo‘lmaydi. Bu bozor davlat buyurtmalari orqali tartibga solinadi, unda kelishilgan baholar amal qiladi va uning ishtirokchilariga barqaror foyda keltiradi.

Totalitar tuzum davrida davlat asosiy ishlab chiqarish vositalarining katta qismining mulk egasi sifatida iqtisodiyotni o‘z monopoliyasiga aylantirgan edi. Uzoq yillar mobaynida respublikamiz iqtisodiyotida umumxalq mulki deb atalgan, aslida esa davlatlashtirilgan mulk to‘liq hukmronlik qilib keldi. Mulkchilik faqat ikki turdan, ya’ni davlat mulki va kolxoz-kooperativ mulkidan iborat qilib qo‘yilgan edi. Aslida kolxoz-kooperativ mulki ham amalda butunlay davlat ixtiyorida edi. Ishlab chiqarish vositalarining xususiy mulkligi ham yuridik jihatdan, ham amaliyotda batamom inkor qilingan edi. Faqat xususiy mulkchilikning shakli o‘zgartirilgan, ishlab chiqarish vositasi bo‘lmagan va daromad keltirmaydigan fuqarolarning shaxsiy mulki sifatidagi ko‘rinishigina mavjud bo‘lishi mumkin edi. Aholining o‘z mulkidan foydalanish tufayli oladigan daromadlarining hamma turlari noqonuniy hisoblanar edi. Nazariya va amaliyotda umumxalq mulki, deb hisoblangan mulk subyekti sifatida davlatning chiqishi jamiyat a’zolari o‘rtasida bu mulkka “hech kimniki”, “davlatniki”, “o‘zganing mulki” degan qarashlarning shakllanishiga olib keldi. Bunday sharoitda davlat o‘z

mulki boʻlgan davlat korxonalarini, tarmoq va sohalarni ma'muriy buyruqbozlik usullari orqali bevosita boshqargan. Bu hol real ishlab chiqarish ishtirokchilarining (xoʻjalik subyektlarining) ishlab chiqarish vositalaridan mahrum boʻlishiga, egalik hissining yoʻqola borishiga, iqtisodiy manfaatdorlik va mehnatdan ragʻbatlanishning pasayishiga olib keldi.

Oʻzbekistonda va boshqa sobiq markazlashgan – rejali iqtisodiyotga ega boʻlgan mamlakatlarda bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish vazifasi bu umumxalq, ijtimoiy mulkning ma'lum qismini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni taqozo qiladi.

4.2. Oʻzbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni va bosqichlari

Oʻzbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish yondashuvining muhim xususiyati uni dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat boʻlganligi hisoblanadi. Agar 1990-1991-yillarni islohotlar tajribasini orttirish va oʻrganish davri, deb hisoblash mumkin boʻlsa, 1992-1994-yillar faol xususiylashtirishning birinchi bosqichiga aylandi. Xususiylashtirishning birinchi bosqichida xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat koʻrsatish korxonalarini hamda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlash tizimini qamrab oldi. Yengil mahalliy sanoat, transport va qurilishga, boshqa tarmoqlarga qarashli ayrim oʻrta va yirik korxonalar keyinchalik sotib olinish huquqi bilan koʻproq ijara korxonalari, jamoa korxonalariga yopiq turdagi hissadorlik korxonalariga aylantirildi. Aksiyalarning nazorat paketi davlat ixtiyorida saqlab qolindi. Xususiylashtirishning birinchi bosqichida – 1992-1994-yillar asosiy diqqat-e'tibor mahalliy sanoat, savdo, transport, aholiga maishiy xizmat koʻrsatish, umumiy ovqatlanish matlubot kooperatsiyasi, agrosanoat majmuasi, qayta ishlash tarmoqlari korxonalarini mulkchilikning turli shakllariga aylantirishga qaratildi. 1994-yil boshiga kelib, tayyorlov va qayta ishlash tarmoqlari korxonalarining 96 foizdan koʻprogʻi, shuningdek, davlat va idoraviy uy-joy fondlari xususiylashtirilib boʻlindi. Oʻshanda savdo va umumiy ovqatlanish yalpi mahsulotlarining 82 foizdan koʻprogʻi davlatga qarashli

bo‘lmagan sektor hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu jarayon jadal davom etgan 1993-yildagi xususiylashtirish ko‘lamlarini quyidagi raqamlar bilan ifodalash mumkin: sanoatda 1374 korxona, shu jumladan, xalq iste’moli mollari ishlab chiqaradigan 1260 ta korxona, qurilishda 72 ta, savdoda 20419 ta, umumiy ovqatlanishda 1953 ta, tayyorlov tizimida 389 ta, uy-joy kommunal xo‘jaligida 8630 ta inshoot xususiylashtirildi. Umuman, birinchi bosqich davomida 54 mingga yaqin korxona va inshoot mulkchilik shakllarini o‘zgartirdi. Ulardan 18 ming 400 tasi xususiy mulkka aylandi. 26,1 mingta korxonada inshoot aksiyadorlik jamiyati, shundan 8700 tasi jamoa, 661 tasi ijara korxonasi bo‘ldi. Bu mavjud har uchta korxonadan ikkitasi davlatga qarashli bo‘lmagan mulk shakliga o‘tishiga olib keldi. 1994-yilda yalpi ijtimoiy mahsulotning deyarli yarmi iqtisodiyotning davlatga qarashli bo‘lmagan sektorida yaratildi. 1994-yilning o‘rtalaridan boshlab xususiylashtirishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bu bosqichda ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini yaratish, ularning aksiyalarini muomalaga chiqarish, shuningdek, keng ko‘lamli ko‘chmas mulk va qimmatli qog‘ozlar bozorlarini barpo qilish vazifalari belgilab olindi va ular izchil amalga oshirildi. Xususiylashtirishni amalga oshirish jarayonida mulkchilikning davlatga qarashli va qarashli bo‘lmagan shakllari yuzaga keldi. Mulkchilikning aralashgan shakli ham mavjud. O‘zbekiston Respublikasi davlat mulkiga ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulki ham (kommunal mulk) kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Hamdo‘stlik mamlakatlari orasida birinchilar qatorida xususiy mulkni tan oldi va mulkchilikning barcha shakllari uchun teng sharoitlar yaratdi. Xususiy mulk o‘z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni xohishiga ko‘ra ishlatish huquqidan iborat. Mulkchilikning boshqa shakllari kabi xususiy mulk ham daxlsizdir va davlat tomonidan muhofaza etiladi. Boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarning mulki O‘zbekiston hududida joylashgan hamda xorijiy yuridik shaxslarga egalik qilish, foydalanish va ishlatish huquqini beradigan mulklardan yoki obyektlarga mulkchilik huquqidan iborat. Mulkchilikning aralashgan shakli ahdlashuvga muvofiq muayyan qismi davlatga, muayyan qismi davlatga qarashli bo‘lmagan yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli mulkdan iborat bo‘ladi. Xususiy-

lashtirishda dastlabki yillar koʻproq miqdor koʻrsatkichlariga, ya'ni qancha korxona mulk shaklini oʻzgartirganiga qaratilgan boʻlsa, keyinchalik xususiylashtirishning sifat koʻrsatkichlari asosiy mezon boʻlib qoldi. 1994-yil oxiriga kelib respublikada, asosan, yopiq turda 2900 ta aksiyadorlik korxonasi mavjud boʻlgan boʻlsa, 1996-yilga kelib 4500 ta ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati faoliyat koʻrsatgan. Rasman qayd etilgan dexqon (fermer) xoʻjaliklari soni 7500 tadan 19300 taga etdi. Birgina 1996-yilning oʻzida kichik va xususiy korxonalar soni 19100 taga koʻpaydi. Shu yilning 1-iyuliga kelib 83,5 mingtaga yetdi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning dastlabki bosqichlarida unchalik katta boʻlmagan va oʻrta korxonalar xususiylashtirilgan boʻlsa, keyinchalik ular qatoriga yirik korxonalar ham qoʻshildi. Umuman, hozir aksariyat korxonalar xususiylashtirildi. 1993-yili jami korxonalarning 39,4 foizi davlat tasarrufidan chiqarilgan boʻlsa, 1994-yilda bu koʻrsatkich 57,7 foizga, 1996-yilda 82,7 foizga yetdi. Bu bosqichda koʻplab oʻrta va yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi hamda ularning aksiyalari Respublika qimmatbaho qogʻozlar bozorining asosini tashkil etdi. Davlat mulkining aksiyadorlikka aylantirilishi bilan bir qatorda kichik xususiy biznes korxonalari qizgʻin barpo etildi. Bozor infratuzilmasi jadal rivoj topdi. Birjalar, tijorat banklari, xususiy sugʻurta kompaniyalari, investitsiya fondlari, ulgurji savdo tizimi, auditorlik, konsalting firmalari va bozorning boshqa koʻplab omillari ish boshladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning bu bosqichida ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini vujudga keltirish, davlat mulkini tanlov asosida hamda "kim oshdi" savdosida sotish amaliyotga joriy qilindi. Koʻchmas mulk va qimmatli qogʻozlar bozorining yangi muassasalari barpo etildi.Respublika iqtisodiyoti 1996-yildan boshlab mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning uchinchi bosqichi (1996-1998-yillar)ga kirdi. Bu bosqichda xususiylashtirilmaydigan obyektlar roʻyxatiga kirmagan barcha obyekt va korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi. Qiyosan yirik korxonalarni koʻzda tutuvchi navbatdagi bosqich 1998-yildan boshlandi. Bu bosqichda xususiylashtirish yakka tartibda va koʻproq xorijiy sarmoyalarni jalb etish asosida amalga oshirish moʻljallandi. Bunda oʻrta va katta korxonalarni xususiylashtirish jarayonining

asosiy shartlari Respublika Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini xususiylashtirshda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish choralari to‘g‘risida”gi (1998-yil 18-noyabr 477-sonli) farmoyishida o‘z ifodasini topgan. Farmoyishda, birinchidan, 1999-2000-yillar davomida xorijiy sarmoyalarga yakka tartibda xususiylashtirish taklif etilgan (30 ta), ikkinchidan, 100% xorijiy sarmoyador mulkchiligiga o‘tkaziladigan (69 ta) va uchinchidan, 25%dan 75%gacha aksiyalari xorijiy investorlarga sotiladigan (159 ta) korxonalar ro‘yxati ko‘rsatilgan edi. Xususiylashtirishning to‘rtinchi bosqichida asosiy maqsad (1998-2002-yillar oxiri) xususiylashtirishdan budjetga mablag‘ tushirish, xususiylashtirilayotgan korxonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, boshqarish samaradorligini oshirish, mulkchilikning yangi shakllarini amalga oshirish uchun sharoitlarni yaratish bilan bog‘liq. Xususiylashtirishning 4-bosqichida eng yirik korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish, tarmoqlar ichida institutsional (qonuniy) o‘zgarishlar, yangicha xo‘jalik yuritish tuzilmalarini yaratish amalga oshirildi. Bu davrda eng yirik “Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi” ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi. Tarmoqlarni boshqarishning yangi tizimi – xoldinglar tashkil etildi. Bunga misol sifatida uzum, sabzavotlarni qayta ishlab chiqaradigan “O‘zvinosanoatxolding” kompaniyasini (2018-yil 28-fevraldan boshlab bu kompaniya “O‘zsharobsanoat AJ” deb qayta nomlangan) keltirish mumkin.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning bosqichlari borasida iqtisodchilarning turli qarashlari ham mavjud. Ayrim iqtisodchilar, masalan, prof. A.Razzoqov xususiylashtirishning 4 ta bosqichini, ya’ni birinchi bosqich 1992-1993-yillar, ikkinchi bosqich 1994-1995-yillar, uchinchi bosqich 1996-1998-yillar, 4-bosqich 1998-yil oxiridan to hozirgi paytgacha[28], professorlar R.A.Alimov, A.K.Bedrintsev, A.F.Rasulev ham 4 ta bosqichni, ammo birinchi bosqich 1992-1994-yillar, ikkinchi bosqich 1995-1996-yillar, uchinchi bosqich 1997-1999-yillar, 4-bosqich 2000-yildan boshlanganini e’tirof etadilar[29]. Prof. B.Berkinov esa uch bosqichga, ya’ni birinchi bosqichi – “Kichik xususiylashtirish” (1992-1993-yillar), ikkinchi bosqich – “Ommaviy xususiylashtirish” (1994-1998-yillar),

[28] Razzaqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. –T.: Moliya, 2002. –441 bet.
[29] Узбекистан: десять лет по пути формирования рыночной экономики. –Т.: Ўзбекистон, 2001. С. 56.


uchinchi bosqich – “Yakka tartibda xususiylashtirish” 1999-yildan to hozirgi davrga qadar davom etayotganini ta’kidlaydi[30]; prof. A.Vaxobov ham 3-bosqichga, ammo prof. B.Berkinovdan farqli ravishda birinchi bosqichni 1992-1995-yillar, ikkinchi bosqichni 1995-1997-yillar, uchinchi bosqichni 1997-yil oxirlaridan boshlanganini e’tirof etadi[31]. Shuni ta’kidlash lozimki, “xususiylashtirish bosqichlari besh bosqichdan iborat” degan fikrlar ham mavjud. Masalan, professorlar B.Y.Xodiyev va Sh. Sh. Shodmonov o‘zlarining 2017-yilda chop etilgan “Iqtisodiyot nazariyasi” darsligida xususiylashtirishning 5 ta bosqichini, ya’ni 1-bosqich 1992-1993-yillar, 2-bosqich 1994-1995-yillar, 3-bosqich 1996-1998-yillar, 4-bosqich 1998-2002-yillar, 5-bosqich 2003-yildan to hozirgi kunga qadar bo‘lgan davni ko‘rsatib o‘tganlar[32]. Bizning fikrimizcha, professorlar B.Y.Xodiyev va Sh.Sh.Shodmonov tomonidan xususiylashtirishning beshinchi bosqichini 2003-yildan to hozirgi davrga qadar emas, balki 2003-2007-yillar deb qabul qilib, yangi 6-bosqich O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2007-yil 20-iyuldagi 672-sonli “2007-2010-yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda 2008-yil 19-noyabrdagi F-4010-sonli “Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish to‘g‘risidagi tartibni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoyishi va 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyin deb olsak, maqsadga muvofiq. Chunki iqtisodiyot fanining olimlari, bilamizki, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar ishlab chiqarish usullariga ko‘ra vujudga kelgan hodisalar bog‘lanishining bir-biridan farqlanishini iqtisodiy kategoriyalar vositasida o‘rganishlari barchamizga ma’lum. Shuning uchun ham iqtisodiy inqirozni kategoriya sifatida qarab 2008-yildan boshlangan inqirozning sabab va oqibatlarini keng ko‘lamda tahlil qiladilar, deb o‘ylaymiz. Shuning uchun ham moliyaviy inqiroz davrida, bizning fikrimizcha, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning 6-bosqichi ana shunday sharoitda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi hech kimga sir emas. Shuni alohida ta’kidlash joizki, har bir davrning o‘z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari,

[30] O‘zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. –T., 2007. –184 bet.
[31] Vaxobov A.V. Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichidagi ko‘p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo‘lishi. –T.: Moliya, 2002. 105-107-betlar.
[32] Xodiyev B.Y. va Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: Barkamol fayz media, 2017.

obyektiv talablari va hayotiy tamoyillari boʻladi. Tabiiyki, bularning barchasini shakllantirish va rivojlantirishga, ularga alohida ma'no-mazmun bagʻishlashga bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy institutlar faoliyatining aniq yoʻnalishlarini belgilab beradi.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib, 2008-yilda jahonda boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqirozni hisobga olgan holda xususiylashtirishning 6-bosqichini 2008-2016-yillar deb e'tirof etish va xususiylashtirishning hozirgi oʻziga xos yangi 7-bosqichi 2017-yildan boshlandi hamda bugungi kunda ham Yangi Oʻzbekiston sharoitida davom etmoqda, deb qabul qilish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, xususiylashtirishning oʻtgan bosqichlarida respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlari va sohalarida xususiy mulkchilikka asoslangan yangi toifadagi korxonalar shakllandi va faoliyat yurita boshladi. "Elektrokimyosanoat", "Navoiyazot", "Ammofos" "Oʻzkabel", "Oʻzmetkombinat", "Andijon biokimyo zavodi", "Ohangaronsement", "Qizilqumsement" va shu kabi boshqa oʻnlab yirik aksiyadorlik jamiyatlari barpo etildi. Shu bilan bir vaqtda, aksiyadorlik jamiyatlari negizida ularning birlashmalari – milliy xolding kompaniyalar va boshqa integratsiyalashgan korporativ tuzilmalar shakllandi. "Oʻzbekneftegaz" milliy xolding kompaniyasi, "Oʻzqishloqmash-xolding" kompaniyasi, "Oʻzqurilishmateriallari", "Oʻzmashsanoat" aksiyadorlik kompaniyalari, "Oʻzpaxtasanoat", "Oʻzoziqovqatsanoat", "Oʻzgoʻshtsutsanoat" assotsiatsiyalari va boshqalar shular jumlasidandir. Iqtisodiyotda nodavlat sektorining shakllanishida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining ta'siri ahamiyatli boʻldi. Bu boradagi islohotlarning maqsadga yoʻnaltirilganligi, har tomonlama asoslanganligi va izchilligini ta'minlash maqsadida hukumat darajasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi ishlab chiqilib, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirildi.



4.1-rasm. 2000-2022-yillarda davlat korxona va obyektlarini xususiylashtirishning asosiy ko‘rsatkichlari[33]

Mamlakatimizda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning yuqori natijalarga erishishida hukumat tomonidan bu jarayonlarning quyidagi o‘ziga xos jihatlari belgilab olinishi ahamiyatli ta’sir ko‘rsatdi:

- mazkur jarayonlarning asosiy maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va ularga amal qilish;
- mamlakatning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, madaniy-ruhiy xususiyatlarini e’tiborga olish;

[33] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.

- xususiylashtirish jarayonlarini maxsus me'yoriy-huquqiy asoslar bilan ta'minlash;
- har bir alohida holat uchun xususiylashtirishning eng maqbul usullarini tanlab olish;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish va hokazo.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan jihatlarning to'liq e'tiborga olinishi xususiylashtirishda ahamiyatli ko'rsatkichlarga erishilishini ta'minladi. Respublikamizda 1994-2022-yillar mobaynida 37055 ta davlat korxonalari va obyektlari xususiylashtirildi. Birgina 2000-2022-yillar mobaynida esa 15715 ta davlat tasarrufidagi korxona va obyektlar xususiylashtirilib, ular asosida 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 592,4 mingtani tashkil etdi. Ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar –523,6 mingta. 2022-yil yanvar-dekabr oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2018-yilning mos davri bilan solishtirilganda, 38 600 taga ko'payganini ko'rish mumkin[34].

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2018-yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 30277 taga, oilaviy korxonalar 7473 taga, xususiy korxonalar 3148 taga ko'paygan. 2000-2022-yillar davomida xususiylashtirishdan tushgan pul mablag'lari hajmi 12 985,8 mlrd. so'mdan ortib ketdi (4.1-rasm).

Shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir davrning o'z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, obyektiv talablari va hayotiy tamoyillari bo'ladi. Tabiiyki, bularning barchasini shakllantirish va rivojlantirishga, ularga alohida ma'no-mazmun bag'ishlashga bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy institutlar faoliyatining aniq yo'nalishlarini belgilab beradigan ulkan tarixiy voqealar, hodisalar yuz beradi. Shulardan biri – mamlakatimiz 2017-yildan boshlab o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustu-vor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan 7 ta ustuvor yo'nalishdan iborat Taraqqiyot strategiyasi hamda 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi referendum asosida qabul qilindi. Shu bilan birga, davlat kor-

[34] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

xonalarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish borasida bir nechta Prezident farmonlari va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, “Xususiylashtirilgan korxonalarga koʻmaklashish va raqobatni rivojlantirish Davlat qoʻmitasini tashkil etish toʻgʻrisida”gi 2017-yil 18-apreldagi farmon, “Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2017-yil 18-apreldagi qaror, “Davlat mulki obyektlarini va yer uchastkalariga boʻlgan huquqlarni tadbirkorlik subyektlariga sotish tartibini soddalashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 2018-yil 11-oktyabrdagi farmon, “Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 2019-yil 28 yanvardagi farmon, “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 2020-yil 27-oktyabrdagi farmon, “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 2020-yil 4-apreldagi farmon, “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga boʻlgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2021-yil 8-iyundagi farmon, ”Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yoʻl qoʻymaslik, xususiy mulkning kapitallashuvi darajasini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2022-yil 24-avgustdagi farmon hamda bir necha marta Prezident raisligida xususiylashtirish borasidagi ishlar tanqidiy tahlil qilinib, davlat mulkini xususiylashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan videoselektor yigʻilishlari oʻtkazildi va bu ishlardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha topshiriqlar berildi. Davlatimiz rahbari 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yoʻllagan Murojaatnomasida 2020-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur boʻlgan dasturiy va maqsadli vazifalarga toʻxtalib: “2020-yilda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va inflyatsiyani jilovlash – iqtisodiy islohotlar jarayonidagi bosh vazifadir. Mavjud 3 mingga yaqin davlat ishtirokidagi korxonalarni xatlovdan oʻtkazib, xususiy sektor va raqobat rivojlangan yoʻnalishlaridagi korxonalarda davlat ishtirokini keskin kamaytirish choralarini koʻrish” lozimligini

ta'kidladi. Shuni ham aytish lozimki, ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramay, hali ham samarasiz va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalar mavjud. Masalan, respublika bo'yicha zarar ko'rib ishlagan korxonalar soni 2019-yilda 232 ta, 2020-yilda 452 ta, 2021-yilda 448 ta bo'lgan bo'lsa 2022-yilda esa 540 tani tashkil etgan, zarar miqdori 2020-yilda 42123,3 mlrd. so'm, 2021-yilda 64350,8 mlrd. so'm, 2022-yilda esa 74009,8 mlrd. so'm bo'lgan. Zararning asosiy qismi quyidagi tarmoqlarga to'g'ri keldi: elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash –5028,3 mlrd. so'm (jami zararning 21,6 %i). Respublikada 2022-yilda zarar ko'rgan ayrim vazirlik va xo'jalik boshqaruvi organlari bo'yicha zararning asosiy qismi "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ 1784,1 mlrd. so'm, "O'ztransgaz" AJ 2213,2 mlrd. so'm, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi 454.6 mlrd. so'm, "O'zbekneftgaz" AJ 391.4 mlrd. so'm, shuningdek, To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi 165.2 mlrd. so'm, "Tashshahartransxizmat" AJ 145,3 mlrd. so'm, "O'zbekkimyosanoat" AJ 102,0 mlrd. so'mga to'g'ri keldi[35].

4.1-jadval

Mamlakatimizda 2018-2022-yillarda korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzlari 1-dekabr holatiga ko'ra, mlrd. so'm[36]

Yillar	Debitorlik qarzi		Kreditorlik qarzi	
	Jami	Shundan muddati o'tgan qarzdorlik	Jami	Shundan muddati o'tgan qarzdorlik
2018	91749.8	925,8	94172,8	2073,5
2019	93096,6	15321,4	107170,9	9431,2
2020	120541,3	1758,9	130315,0	2656,0
2021	160462,5	2207,1	188342,6	3687,7
2022	220191,2	6826,7	247147,8	7375,8

[35] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika milliy agentligi ma'lumotlari.
[36] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, hali ham bugungi kunda zarar ko'rib ishlayotgan iqtisodiy nochor korxonalar mavjud, agar 2019-yilda 232 ta korxona va tashkilot o'z faoliyatini 8254,6 mlrd. so'm zarar bilan yakunlagan bo'lsa, 2020-yilda 452 ta korxona 10035,5 mlrd. so'm zarar bilan, 2021-yilda 448 ta korxona 9298.9 mlrd. so'm zarar bilan, 2022-yilda esa 540 ta korxona 11706,7 mlrd. so'm zarar bilan yakunlagan. Shu bilan birga, keyingi yillarda korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi ham ko'payib bormoqda (4.1-jadval).

Korxonalarning 2022-yil yanvar-noyabr oylari ma'lumotlari mulkchilik shakli bo'yicha tahlil qilinganda, davlat mulki ishtirokidagi korxonalar hissasiga jami debitor qarzdorlikning 9180.8 mlrd. so'mi yoki 4.2 %i to'g'ri keldi, shu bilan birga, xususiy mulk ishtirokidagi korxonalar hissasiga 211010.4 mlrd. so'm yoki jamiga nisbatan 95.8 %i to'g'ri kelgan. Shuningdek, korxonalarning mulkchilik shakli bo'yicha 2022-yilning yanvar-noyabr oylari bo'yicha jami kreditor qarzdorlikning 6527.8 mlrd. so'mi yoki 2.6 %i davlat mulki ishtirokidagi korxonalar hissasiga tegishli bo'lgan bo'lsa, xususiy mulk ishtirokidagi korxonalarniki esa 240620.0 mlrd. so'mni yoki jamiga nisbatan 97.4 %ni tashkil etdi. 2021-yilda davlatimiz rahbarining topshirig'i bilan o'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra respublikamizda tarmoq va hududlarda samarasiz ishlatilayotgan 2 mingdan ortiq obyekt borligi aniqlangan. Jumladan, neft-gaz tarmog'ida 210 ta, aloqa sohasi korxonalarida 152 ta, davlat tijorat banklarida 114 ta, kimyo tarmog'ida 44 ta, energetikada 28 ta sotiladigan bino bor. Viloyat hokimliklari balansida ham 170 ga yaqin bo'sh obyekt yillar davomida sotilmay turibdi. 2023-yilda sohadagi ishlarni faollashtirib, natijadorlikni ikki barobar oshirish, hududiy obyektlar va noqishloq yerlarni xususiylashtirish orqali 2023-yil yakunigacha jami 8 trillion so'mdan ziyod tushumni ta'minlash lozimligi ta'kidlangan. Nosohaviy, samarasiz va bo'sh turgan aktivlarni aniqlash hamda ochiq savdolarga chiqarishga viloyat hokimlari va tarmoq rahbarlari shaxsan mas'ul etib belgilangan. Hozirgi kunga qadar savdoga qo'yilgan 33 mingta yer uchastkasini mulk huquqi asosida sotishni tezlashtirish hamda yana 25 mingta

maydonni auksionga chiqarish vazifasi qo‘yildi, shuningdek, yo‘l, transport, neft-gaz, energetika, avtomobilsozlik tarmoqlariga qarashli 266 ta korxonani alohida yondashuv asosida savdoga chiqarish kerakligi aytildi. Bundan buyon uch oydan ortiq bo‘sh turgan obyekt ijaraga berilishi yoki sotuvga chiqarilishi shartligi belgilandi. Hududlar va tarmoqlar tasarrufidagi davlat mulklari ijarasi hisobiga 2023-yilda 500 milliard so‘m tushumni ta’minlash mumkinligi aytildi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, 2023-yilda katta xususiylashtirish boshlanadi, 1 mingga yaqin korxona savdoga chiqariladi. Prezident 2023-yil 27-apreldagi ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqida “...biz bu yil davlat mulkini xususiylashtirish bo‘yicha “1 ming+1 ming+40” dasturini qabul qildik. Bu degani 1 mingta korxonadagi davlat ulushi hamda davlatga tegishli 1 mingta ko‘chmas mulk obyekti ochiq auksion savdolariga chiqariladi, iqtisodiyotimiz uchun strategik ahamiyatga ega 40 ta korxona IPOga olib chiqiladi. Jumladan, oltin, mis ishlab chiqaruvchi yirik korxonalar, telekommunikatsiya va sug‘urta kompaniyalari hamda banklar aksiyalari investorlarga taklif etiladi”, – deya ta’kidladi. Milliy iqtisodiyotdagi davlat ulushi saqlanib qolayotgan ayrim tarmoqlar va yirik korxonalarda bozor mexanizmlariga o‘tish kechikayotgani tufayli Prezidentimizning 2020-yil 27-oktabrdagi farmoni bilan davlat ishtirokidagi 3 mingga yaqin korxona faoliyatini to‘liq o‘rganish asosida xususiylashtirish lozimligi belgilab berildi. Shundan kelib chiqib, bu boradagi ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida ham 2023-yilda eng yirik 10 ta kompaniya va tijorat banklari shaffof savdoga chiqarilishi ta’kidlandi. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish to‘g‘risida”gi farmonida mamlakatimiz bank tizimida davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish, moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, xizmat ko‘rsatishni modernizatsiya qilish, sohada samarali infratuzilma yaratish va avtomatlashtirish, shuningdek, ular faoliyatiga xos bo‘lmagan funksiyalarni

bekor qilish orqali samaradorligini oshirish vazifalari belgilab berildi. Ushbu farmonga muvofiq, “Ipotekabank”, “O‘zsanoatqurilishbank”, “Asakabank”, “Aloqa-bank”, “Qishloqqurilish” va “Turonbank”ni xususiylashtirish bo‘yicha qaror qabul qilindi. Xullas, tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini davom ettirib, bank aktivlarida xususiy sektorning ulushini 60 foizga yetkazish, davlat ishtirokidagi korxonalar sonini 2026-yilga borib kamida 3 barobar qisqartirish rejalashtirilgan. Mamlakatimizda o‘tgan o‘n yilda 1.2 trillion so‘mlik davlat aktivlari sotilgan bo‘lsa, birgina 2022-yilning o‘zida bu ko‘rsatkich 11.3 trillion so‘mni tashkil etgan. Ya’ni so‘nggi bir yilda o‘n yil davomida qilingan ishlardan 10 karra ko‘p natijaga erishildi. Xususan, oxirgi uch yilda (2020-2022-y.y.) ustav fondida davlat ulushi mavjud 300 ga yaqin xo‘jalik jamiyati va davlat unitar korxonasi hamda 1 ming 600 dan ortiq ko‘chmas mulk obyekti xususiylashtirildi, 650 dan ziyod korxona tugatilib, 160 tasi qayta tashkil etildi [20]. Xususan, sobiq “Chorsu” mehmonxonasi BAA kompaniyasiga, “O‘zbekiston” mehmonxonasining 80.13 foiz davlat ulushi Singapur kompaniyasiga sotilgan. Shuningdek, “Samarqandkimyo” korxonasi, “Qo‘ng‘irot soda” zavodidagi davlat ulushlari ham sotilgan. Bu obyektlarga 425 mln. dollar investitsiya kiritilib, 800 ta yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Dehqon xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun 2022-yilda 100 ming gektar paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, ochiq elektron auksion orqali aholiga tarqatildi. Buning hisobidan 420 mingdan ortiq yangi xo‘jalik tashkil etilib, 1 million 200 mingdan ortiq doimiy va mavsumiy ish o‘rinlari yaratilgani, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Prezident 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida: “Kelgusi yili katta xususiylashtirishni boshlaymiz, 1 mingga yaqin korxona savdoga chiqariladi. Bugun ko‘nglimdagi bir niyatimni sizlarga ochiq aytmoqchiman. Mening katta niyatim – yurtdoshlarimiz orasida yuz minglab mulkdorlar, aksiyadorlar paydo bo‘lsin. Odamlarimiz o‘z omonatlarini investitsiya qilib, yuqori daromadlarga ega bo‘lsin. Shuning uchun topshiriq berdim, kelgusi yilda eng yirik 10 ta kompaniya va tijorat banklarimizning aksiyalari o‘z aholimiz uchun ochiq va shaffof savdoga chiqariladi. Bu chinakam xalqchil IPO bo‘lishiga ishonaman. Shu borada ilgari ham

aytgan gapimni takrorlashni oʻrinli, deb bilaman: xalq boy boʻlsa, davlat ham boy va qudratli boʻladi". "Xalqchil IPO" – xalq pullarini mamlakat iqtisodiyotini oʻstirishga jalb qilish usulidir. IPO davomida toʻplangan mablagʻlar kompaniyalarni yanada rivojlantirish, aktivlarni oʻzlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va kengaytirishga yoʻnaltiriladi, fond bozorini faollashtirishga yordam beradi. Qisqacha aytganda, "Xalqchil IPO" yuz minglab mulkdorlar paydo boʻlishiga xizmat qiladi. IPO oʻtkazish – xususiylashtirish usullaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda 2023-yildan boshlab 40 ta yirik korxona va banklardagi davlat ulushi xalqchil IPO orqali sotilishi belgilangan. Xususan, ilk bor "Navoiy" va "Olmaliq" kon-metallurgiya kombinatlari, metallurgiya kombinati, "Oʻztelekom", "Milliy bank", "Oʻzsanoatqurilishbank" kabi yirik korxonalarning oʻrtacha 2 foiz aksiyalari aholiga taklif etiladi. Bunda aholiga aksiyalarni toʻgʻridan-toʻgʻri sotib olish imkoniyati yaratiladi. Natijada aholi boʻsh turgan pul mablagʻlarini fond bozoriga yoʻnaltirish, ya'ni aksiyalar sotib olish hisobidan dividend koʻrinishida qoʻshimcha daromadga ega boʻlishi mumkin. Aksiyalari sotilgan korxonalar besh yil davomida sof foydasining kamida 30 foizini dividend toʻlashga yoʻnaltiradi. Yirik korxonalarning IPOga chiqishi muhim voqea boʻlib, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarida katta qiziqish uygʻotadi. "Xalqchil IPO" yordamida ular qoʻshimcha sarmoyalarni mamlakatning oddiy fuqarolaridan oladi. Aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat yuritayotgan korxona oʻz rivoji uchun investitsiyalarni qimmatli qogʻozlar chiqarish va joylashtirish orqali jalb qiluvchi qulay moliyaviy imkoniyatga ega boʻladi. Xulosa qilib aytganda, xalq IPOsi kompaniya aksiyalari chet ellik investorlarga emas, birinchi navbatda, mahalliy aholi uchun savdoga qoʻyilishidir. Boshqa tomondan qaraganda esa bu mamlakat iqtisodiyoti rivoji yoʻlida aholi qoʻlidagi pul mablagʻlarini jalb qilishning samarali usuli sanaladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi "Kapital bozorini qoʻllab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PQ-90-son qaroriga asosan, kapital bozorini yanada rivojlantirish, davlat aksiya paketlarini kapital bozori orqali xususiylashtirish amaliyo-

tini kengaytirish, aholining qimmatli qog‘ozlarga investitsiya kiritishini rag‘batlantirish va moliya bozorida sog‘lom raqobat muhitini yaratishga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilab berildi.

Jumladan, 2022-yil 1-apreldan 2024-yil 31-dekabrga qadar:

a) O‘zbekiston Respublikasining rezidenti va norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning aksiyalar bo‘yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlari daromad solig‘idan ozod qilinadi;

b) O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslarning aksiyalar bo‘yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlariga O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar singari foyda solig‘ining 5 % stavkasi tatbiq etiladi;

c) O‘zbekiston Respublikasining rezidenti va norezidenti bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning xo‘jalik jamiyatlari obligatsiyalari bo‘yicha hisoblangan foizlar tarzidagi daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘idan ozod qilinadi. Mazkur qaror bilan davlat ulushi mavjud bo‘lgan yirik aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining “Toshkent” RFBda birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifini o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifi ham ma’qullandi.

Xususiylashtirish – iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirib, mulkdorlar ko‘payishiga yo‘l ochadi. Shu maqsadda yurtimizda bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o‘tgan o‘n yilda 1,2 trillion so‘mlik davlat aktivlari sotilgan bo‘lsa, 2022-yilning o‘zida bu ko‘rsatkich 11,3 trillion so‘mga etdi. Ya’ni so‘nggi bir yilda o‘n yil davomida qilingan ishlardan 10 karra ko‘p natijaga erishildi.

Xususiylashgan mulklar samaradorligi ham oshmoqda. Misol uchun, uzoq yillar ishlamagan Andijon tajriba sinov zavodi negizida 18 million dollar investitsiya hisobiga to‘qimachilik korxonasi tashkil etilib, mingta ish o‘rni yaratilgan, 40 million dollarlik mahsulot eksport qilingan. Qo‘qon superfosfat zavodini xorijiy investor olib, 40 million dollar investitsiya kiritgan, ishlab chiqarish hajmini 4 baravarga oshirgan. “Ipoteka bank” 324 million dollarga va “Coca cola” kompaniyasidagi davlat ulushi 252 million dollarga sotilgani ham oxirgi yillardagi eng yirik bitimlar bo‘ldi.

Bu boradagi ishlar hamma joyda ham bir maromda ketmayapti. Masalan, Toshkent viloyatida 112 ta obyekt sotilib, ularning negi-

zida 150 ta tadbirkorlik subyekti va mingdan ziyod yangi ish o‘rni paydo bo‘lgan. Lekin Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo va Sirdaryoda o‘tgan yili savdoga chiqarilgan mulklarning 30 foizi ham sotilmagan. Tarmoqlar kesimida aytganda, “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi mulklarning xususiylashtirilishi sust.

Shu bois bugun davlatimiz rahbarining qarori bilan xususiylashtirish dasturi tasdiqlandi. Unda uchta yo‘nalishda – aksiya, ko‘chmas mulk va IPO bo‘yicha xususiylashtirish rejalari belgilangan.

Birinchidan, 1 mingta korxonadagi davlat aksiya paketlari sotuvga chiqariladi.

Ikkinchidan, 1 mingta ko‘chmas mulk obyektlari ommaviy savdolarga qo‘yiladi. Ularda 600 gektar yer va 1 million kvadrat metrli bino-inshootlar mavjud. Eng muhimi, infratuzilma bilan ta’minlangan va aholi punktlariga yaqin.

Ushbu obyektlarni sotishni tezlashtirish uchun mulklarni sotishga tayyorlash muddati hozirgi 80 kundan 48 kunga qisqartiriladi. 2 ming kvadrat metrgacha bo‘lgan obyektlarni tadbirkorlarning murojaati asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdoga chiqarishga ruxsat beriladi.

Uchinchidan, 40 ta yirik korxona va banklardagi davlat ulushi “xalqchil IPO” orqali sotiladi. Jumladan, ilk bor Navoiy va Olmaliq kombinatlari, Metallurgiya kombinati, “O‘ztelekom”, “Sanoatqurilishbank” kabi yirik korxonalarning o‘rtacha 2 foiz aksiyalari aholiga taklif etiladi. Bunda aholiga aksiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotib olish imkoniyati yaratiladi. Aksiyalari sotilgan korxonalar besh yil davomida sof foydasining kamida 30 foizi dividend to‘lashga yo‘naltiradi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, mazkur dastur samarasida joriy yilda 13 trillion so‘m tushum ta’minlanadi, 3 mingta yangi korxona tashkil etish va 50 mingta ish o‘rni yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda 2017-2022-yillar davomida 4321 ta (dastur doirasidagi va dasturdan tashqari obyektlarni qo‘shgan holda) korxona va obyektlar xususiylashtirildi, davlat aktivlarini boshqarish transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasiga jami 6651,0 mlrd. so‘m kelib tushgan, shundan: davlat aksiya paketlari sotuvidan – 1798,2 mlrd. so‘m, davlat ulushlari so-

tuvidan –2629,6 mlrd. so‘m, ko‘chmas mulk obyektlari sotuvidan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalaridan – 2213,1 mlrd. so‘m va boshqa manbalardan –10,2 mlrd. so‘m. 2021-yilda jami Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasiga mablag‘lar tushumi jami 3809,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 6651,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilga nisbatan 74.6 %ga ko‘paygan. 2022-yilning yanvar-dekabrida vazirlik va idoralar kesimida xususiylashtirilgan davlat obyektlari tarkibida eng ko‘p ulush Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga 349 ta obyekt (respublika bo‘yicha jami xususiylashtirilgan obyektlarning 67,8 %i), mahalliy hokimiyatlarga 101 ta obyekt (19.6 %), Iqtisod va moliya vazirligiga 3 ta obyekt (0.6 %) to‘g‘ri keldi. Davlat noturar joy fondidan samarali foydalanish maqsadida 2022-yilning yanvar-dekabrida obyektlarni ijaraga berish bo‘yicha 27466 ta ijara shartnomalari tuzilgan. Natijada 7,5 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Davlat mulkini ijaraga berishdan tushgan tushumlar jami 297.6 mlrd. so‘mni tashkil qilgan. Umuman olganda, milliy iqtisodiyotda xususiylashtirish yo‘nalishida bajarilayotgan ishlar samarasini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- xususiylashtirish jarayoni natijasida mamlakatimizda xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratildi. Shu tufayli iqtisodiyotning ko‘plab soha va tarmoqlarida yangi korxonalar paydo bo‘lib, ularda samarali mehnatni rag‘batlantiruvchi zamonaviy tizimlar yaratildi. Aholi orasida mulkdorlar qatlami shakllanib, ular mamlakat ijtimoiy-iqtisoliy rivojida muhim rol o‘ynamoqda;
- davlatning mulkka mutlaq egaligiga barham berildi va iqtisodiyotda erkin raqobat muhiti shakllanishi boshlandi;
- iqtisodiyotda muhim tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirildi;
- O‘zbekiston iqtisodiyotining chet mamlakatlar iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi asosi yaratildi, xususiylashtirilgan mulk negizida qo‘shma korxonalar barpo etish tezlashdi;
- iqtisodiyotning turli sohalaridagi past rentabelli, zarar bilan ishlayotgan korxonalarda yangi mexanizmlar joriy etilishi investitsiyalar ortishiga olib keldi. Bularning bari, o‘z navbatida, korxonalarning debitorlik va kreditorlik qarzlari kamayishiga, to‘lov

qobiliyati oshib, faoliyati barqarorlashuvi, umuman, ishlab chiqarishning modernizatsiyalashuviga zamin yaratdi.

Bu choralar 2026-yilga O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotida xususiy sektorning ulushini 67 foizdan 80 foiz, eksport hajmida esa 32 foizdan 60 foizga yetkazishda hamda 2030-yilga borib, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirishga mustahkam asos bo‘ladi. Bularning barchasi yangi O‘zbekistonning 2030-yilga borib, aholi o‘rtadan yuqori daromad oladigan davlatlar qatoridan joy olishda poydevor vazifasini o‘taydi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalari ijrosini ta’minlashga asos bo‘ladi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Jamiyat hayotini milliylashtirish davlat monopol mavqega ega bo‘lishini, jamiyat ijtimoiy hayoti tizimi esa avtoritar-byurokratik davlat ko‘rinishida namoyon bo‘lishini anglatadi.

Milliylashtirish turlicha sohalarda va turlicha ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:

1) ishlab chiqarish shart-sharoitlari, natijalari va omillarini milliylashtirish muqarrar tarzda ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish natijalari va vositalaridan begonalashuviga olib keladi. Ushbu vaziyatda xodimlar va mehnat jamoalarining ishlab chiqarish natija va vositalarini o‘zlashtirishlarini yuzaga chiqarish zarurati yuzaga chiqadi. Aynan shunda jamiyatni demkoratlashtirish namoyon bo‘ladi;

2) davlatning iqtisodiy jarayonlarga monopoliyasi, davlat rejalashtirishning direktiv tabiati, faqat davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirishning bevosita va uzoq muddatli maqsadlari va uning yakka tartibdagi aloqalarini belgilash orqali namoyon bo‘ladigan ijtimoiy takror ishlab chiqarishni boshqarishni milliylashtirish, moddiy-texnik resurslar va iste’mol tovarlarini taqsimlashga davlat monopoliyasi, narxlar monopoliyasi, tadbirkorlik faoliyati shart-sharoitlarini aniqlashtirish, tashqi savdo va boshqalar.

Milliy iqtisodiyotning ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti oqibatida qaror topgan milliylashuv va monopollashuv darajasining haddan tashqari yuqoriligi - erkin bozorni qaror toptirish

va rivojlantirish borasidagi jiddiy to‘siqlardan biri hisoblanadi.

Monopolizmga barham berish, raqobatni rivojlantirish va iqtisodiyotni sog‘lomlashtirishga davlat tasarrufidan chiqarish hisobiga erishish mumkin, bu iqtisodiy boshqaruvning aksariyat funksiyalarini davlatdan olib tashlash, korxonalarga tegishli vakolatlarni berish va vertikal iqtisodiy aloqalarni gorizontal aloqalar bilan almashtirishni anglatadi.

Davlat tasarrufidan chiqarish davlatning iqtisodiy sohadan butunlay chiqib ketishini anglatmaydi, yuqorida ko‘rsatilganidek, zamonaviy ishlab chiqarish davlat tomonidan tartibga solinmasdan muvaffaqiyatli rivojlana olmaydi, bu faqat ma’lum chegaralar ichida samarali bo‘ladi. Agar ushbu chegaralar buzilsa, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi. Bugungi kunda davlat tasarrufidan chiqarish global tavsif kasb etmoqda.

Davlat tasarrufidan chiqarish turli yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1) o‘zlashtirish jarayonlarini davlat tasarrufidan chiqarish, har bir xodim va mehnat jamoasini o‘zlashtirishning teng huquqli ishtirokchisi sifatida tan olish;

2) xo‘jalik yuritishning turli shakllarini yaratish, korxonalarning barcha shakllariga qonun doirasida iqtisodiy faoliyat erkinligi borasida teng huquqlar berish;

3) yangi tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatining yangi shakllarini yaratish (konsernlar, konsorsiumlar, uyushmalar va boshqalar), ular orasida gorizontal aloqalar yetakchi rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, davlat tasarrufidan chiqarish monopolizmni yengishga, raqobat va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi va bu o‘z navbatida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning markaziy muammosi hisoblanadi.

Davlat tasarrufidan chiqarish bilan chambarchas bog‘liq holda xususiylashtirish hisoblanadi, bu fuqarolar, aksiyadorlik jamiyatlari (shirkatlar) tomonidan davlat va mahalliy hokimiyat organlaridan korxonalar, ustaxonalar, ishlab chiqarishlar, uchastkalar, aksiyalar (aksiyalar, ulushlar) ning xususiy mulkiga olinishi sifatida talqin etiladi. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiylashtirish natijasida vujudga

keladigan mulkchilik shakliga va davlat mulkini sotib oluvchi sifatida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga tegishli bo‘ladi. Shunday qilib, xususiylashtirish – bu mulk egasining o‘zgarishi, davlatni davlat mulki sohasidan chiqarish (huquqiy nuqtai nazardan) va davlat mulkini nodavlat shakllariga aylantirish (iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan).

Shunday qilib, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish o‘rtasidagi farq shundan iboratki, birinchisi mulk munosabatlarini tubdan o‘zgartirish jarayonini aks ettiradi, ikkinchisi esa mavjud iqtisodiy tizimning davlat hukmronligiga barham berish va uning samarali faoliyat ko‘rsatishi borasida zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan o‘zgarishlarning butun majmuasini o‘z ichiga olgan tushunchadir.

Xususiylashtirish obyektlari quyidagilar bo‘lishi mumkin: yirik sanoat, kichik va o‘rta sanoat va savdo korxonalari, xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari, uy-joy fondi, uy-joy qurilishi, qishloq xo‘jaligi korxonalari va boshqalar.

Xususiylashtirishdan keyin xususiy shaxslar, xususiylashtirilgan korxona xodimlari, mehnat jamoasi, banklar, xoldinglar, aksiyadorlik jamiyatlari (shirkatlar) va boshqalar mulkchilik subyektlariga aylanishadi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish mulkni bepul berish, korxonalarni imtiyozli shartlarda sotib olish, aksiyalarni sotish, korxonalarni ijaraga berish, kichik korxonalarni kim oshdi savdosida sotish asosida amalga oshirilishi mumkin.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish milliy, iqtisodiy, tarixiy sharoitlarni hisobga olgan holda turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Xususiylashtirish jarayonlarini amalga oshirgan barcha mamlakatlar o‘z tajribalarini to‘plaganlari holda, mulk shakllarini o‘zgartirish borasida o‘z yondashuvlarini ishlab chiqqanlar. Asosan, ular xususiylashtirish maqsadlari, ushbu jarayonning dinamikasi va mexanizmi, aholini xususiylashtirish jarayonlari bilan qamrab olishning kengligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Xususiylashtirish siyosiy va iqtisodiy masala sifatida uch jihat: samaradorlik, taqsimot va barqarorlik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Samaradorlik. Mavjud koʻchar va koʻchmas mulkdan qisqa vaqt ichida (koʻpincha "statik" samaradorlik deb ataladi) eng samarali foydalanish borasida mulk huquqidan qanday foydalanish lozim? Xuddi shu kabi savolni yangi ishlab chiqarish obyektlari va koʻchmas mulkka investitsiyalar samaradorligi borasida ham qoʻyish mumkin, bunda uzoq muddatli dinamik samaradorlik nazarda tutiladi.

Taqsimlash. Xususiylashtirishning muqobil usullari daromad va boylikni taqsimlashga qanday ta'sir qiladi? Bundan tashqari, qisqa (daromad taqsimoti) va uzoq muddatli istiqbol (jamgʻarilgan daromad, ya'ni boylikni taqsimlash) farqlanadi.

Barqarorlik. Xususiylashtirishning muqobil vositalari qisqa muddatda inflyatsiya va ishsizlik kabi makroiqtisodiy oʻzgaruvchilarga qanday ta'sir qiladi? Xususiylashtirish jarayoni vaqt oʻtishi bilan tarkibiy oʻzgarishlarda qanday aks etadi?

Xususiylashtirish borasida yetakchi sanaluvchi Buyuk Britaniyada quyidagi usullar taklif qilinadi: aksiyalarni sotish va tekin taqsimlash; xizmatlar koʻrsatish pudrat shartnomalari; ijarachilarga davlat uylarini sotish; raqobatni rivojlantirish maqsadida davlat monopoliyasidan voz kechish. Umuman olganda, jahon tajribasida davlat mulki va uning funksiyalarini xususiy sektorga qisman va toʻliq topshirishning 22 xil usuli mavjud.

Britaniyaning xususiylashtirish dasturining bosh me'mori va yoʻlboshchisi N. Ridlining ta'kidlashicha, xususiylashtirish haqiqatan ham iqtisodiyot samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi, chunki davlat korxonasi iste'molchi uchun emas, oʻzi uchun ishlaydi. U iste'molchi tomonidan emas, balki boqimandalikning paydo boʻlishiga hissa qoʻshuvchi davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Xususiy sektor biznesni yanada samarali olib boradi, chunki uning faoliyatini iste'molchi tomonidan tan olinmasligi unga bankrotlik bilan tahdid qiladi. Zarar koʻrib ishlovchi korxonalarni xususiylashtirishda N. Ridli qarzni hisobdan chiqarishni va korxona foydasini oshirishdan manfaatdor tomonlarning qiziqishlarini oshirishni tavsiya qiladi.

Xususiylashtirish uzoq davom etadigan jarayondir. Yaponiyada u

10 yil, G‘arbiy Yevropada - 10-15 yil davomida amalga oshirilgan.

Xususiylashtirish jarayonida monopolistik birlashmalarni ajratish, kompaniyalarni yaratish va samarali narxlash mexanizmini yaratish uchun juda ko‘p tayyorgarlik ishlari talab etiladi, ularning yordamida korxona qiymatini yanada ishonchli baholash mumkin bo‘ladi. Xususiylashtirishni oziq-ovqat tuzilmalari, savdo va xizmatlar sohasidan boshlash maqsadga muvofiqdir. Tor doiradagi shaxslar qo‘lida mulk to‘planmasligi uchun iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan, ko‘plab raqobatchilarni yaratish muhimdir.

4.2-jadval.

Xususiylashtirishning uch jihati

Xususiylashtirish jihatlari	**Qisqa davr**	**Uzoq muddatli davr**
Samaradorlik	1. Statik samaradorlik	2. Dinamik samaradorlik
Taqsimlash	3. Daromadlarni taqsimlash	4. Boylikni taqsimlash
Barqarorlik	5. Tsiklik o‘zgarishlarga moslashish	6. Tarkibiy qayta qurish

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni ta’kidlash kerakki, munosabatlar va mulkchilik tuzilmasini o‘zgartirish o‘tish davri iqtisodiyoti bo‘lgan har qanday mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash kerakki, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish o‘z-o‘zidan samarali boshqaruvga olib kelmaydi, aksincha asosiy harakatlantiruvchi kuchi raqobat bo‘lgan bozor tizimiga olib keladi. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish umuman bozor iqtisodiyotining raqobat muhitini shakllantirishning obyektiv asosini tashkil etadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Davlat mulki nima va u qanday vazifalarni bajaradi?

2. Davlat tadbirkorligi deganda nimani tushunasiz?

3. Davlat tadbirkorligi iqtisodiyotni tartibga solishga qanday ta'sir koʻrsatadi?

4. Davlat mulkini tasarrufdan chiqarish va xususiylashtirishning mohiyati nimadan iborat?

5. Davlat mulkini xususiylashtirish iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga qanday ta'sir koʻrsatadi?

6. Oʻzbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishdan koʻzlangan maqsadlar nimalardan iborat?

Iqtisodiy nazariya siyosatning bir qismi bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. U hech qachon fan bo‘lmagan va bo‘lmaydi ham, chunki iqtisodiyotda siyosiy va ko‘pincha axloqiy qarashlardan mustaqil ravishda o‘rnatilishi mumkin bo‘lgan obyektiv sabablar yo‘q. Shuning uchun, iqtisodiy dalillarga duch kelinganda, Cui bono? (Bu kimga foyda keltiradi?) degan savol berish o‘rinlidir.

Ha-Joon Chang

V BOB. IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI DASTURLASH, PROGNOZLASHTIRISH VA REJALASHTIRISH

5.1. Iqtisodiyotni prognozlashtirish, dasturlashning maqsadi va shakllari, usullari
5.2. Iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish shakl va usullari

5.1. Iqtisodiyotni prognozlashtirish, dasturlashning maqsadi va shakllari, usullari

Iqtisodiyotni tartibga solishning eng muhim davlat iqtisodiy siyosatining shakllaridan biri dasturlash va rejalashtirishdir. Ushbu tartibga solish shaklining zaruriyati ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi, davlat mulkining mavjudligi, iqtisodiyotga yo‘llanadigan kapital mablag‘lar harakati va oqibatlarining uzoq muddatliligi hamda bozor kon’yunkturasini o‘rganishi bilan ifodalanadi. Shu boisdan barcha rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning rivojlanishi prognozlashtiriladi, dasturlanadi va rejalashtiriladi.

Prognozlash - bu prognozlarni ishlab chiqish jarayonidir. Prognoz deganda kelajakda obyektning mumkin bo‘lgan sharoitlari, uni amalga oshirishning muqobil usullari va muddatlari to‘g‘risida ilmiy asoslangan qarash tushuniladi. Prognozlarni ishlab chiqish jarayoni prognozlash deb ataladi. Iqtisodiy prognozlash – bu atrof-muhit hodisalarini bilishning ilmiy usullari va iqtisodiy prognozlashning barcha usullari, vositalari va usullaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqish jarayoni. Konkret-

lik darajasiga va o‘rganilayotgan jarayonlar jarayoniga ta’sir qilish xususiyatiga qarab, bashorat qilishning 3 shakli mavjud: gipoteza (umumiy ilmiy bashorat), prognoz, reja. Gipoteza umumiy nazariya darajasida ilmiy bashoratni tavsiflaydi. Bu shuni anglatadiki, gipotezani yaratishning boshlang‘ich asosini nazariya va uning asosida kashf etilgan kashfiyotlar va unga asoslangan sabab-oqibat aloqalari va o‘rganilayotgan obyektlarning faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ko‘zda tutuvchi aloqalar tashkil qiladi. Gipoteza darajasida mazkur aloqalarning xulq-atvorining umumiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi sifat tavsifi beriladi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirish uni rejalashtirishning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. **Prognoz** – obyektning istiqboldagi mumkin bo‘lgan holati to‘g‘risidagi ilmiy asoslangan ko‘zlangan maqsadga erishishning muddatlari va usullarining variantli gipotezasi hisoblanadi. Odatda bazaviy va ijtimoiy-iqtisodiy prognozlar tuziladi. Bazaviy prognozlarga demografik prognozlar, tabiiy resurslar prognozlari, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ekologik, tashqi iqtisodiy, tashqi siyosiy, ichki siyosiy va boshqa prognozlar kiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy prognozlarga iqtisodiy o‘sish, jami talab va jami taklif, makroiqtisodiy tarmoq tarkibi, inflyatsiya darajasi, aholi turmush darajasi va sifati, aholining bandligi, ijtimoiy soha rivojlanishi prognozlari va boshqalar kiradi.

Tadqiqot mantig‘idan kelib chiqib, prognozlar normativ va qidiruv prognozlariga ajratiladi. Qidiruv prognozi mavjud tendensiyalar saqlanib qolgan sharoitda obyektning istiqboldagi mumkin bo‘lgan holatini aniqlaydi. Normativ (me’yoriy) prognoz murakkabroq bo‘lib, obyektning kutilayotgan holatiga istiqbolda erishish uchun uning yo‘llari, usullari, vositalari hamda belgilangan maqsadlarning qay darajada real ekanligini aniqlaydi. Shuningdek, prognozlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’sir etishiga bog‘liq ravishda aktiv va passiv prognozlarga bo‘linadi. Prognozlar ko‘p variantli yoki bir variantli (invariantli) bo‘lishi mumkin. Ko‘lamiga ko‘ra esa makroiqtisodiy, tarkibiy, ya’ni tarmoq, tarmoqlararo va mintaqviy, mintaqalararo prognozlar tuziladi.

Iqtisodiyotning rivojlanish istiqbolini aniqlash (prognozlashtirish) qisqa muddat (1-2 yil), o‘rta muddat (5 yil), uzoq muddatga

(20 yil) mo‘ljallanadi. Bunda mavjud o‘tgan davrdagi iqtisodiy rivojlanish holati, bozor kon’yunkturasining o‘zgarib borish tendensiyalariga asoslanib, kelajaqdagi iqtisodiy ahvolning qanday bo‘lishi, qanday natijalarga olib kelishi mumkinligi bashorat qilinadi. Bu – *ekstrapolyasiya usuli* deyiladi. Olingan ma’lumotlarga esa xususiy ishbilarmonlarning kapital mablag‘lar sarflash rejalarini turli so‘rovlar orqali o‘rganib borish orqali aniqlik va tuzatishlar kiritiladi.

Prognozlar asosida iqtisodiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqiladi. Dasturlarda iqtisodiyot rivojlanishining moddiy va sotsial maqsadlari ko‘rsatiladi. Maqsadlarni amalga oshirish uchun kapital mablag‘lar sarflash rejalari tuziladi, ishlab chiqarish hajmi bilan talab o‘rtasidagi nisbatlar o‘rganiladi. Turli ishlab chiqarish bilan import o‘rtasidagi bog‘liqlik, ishlab chiqarish bilan iste’mol, ishlab chiqarish bilan eksport, eksport bilan import o‘rtasidagi bog‘liqlar aniqlanadi. Buning uchun tarmoqlararo balansni tuzish, aholi ro‘yxatini o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Bizda bir necha marta tarmoqlararo balans tuzilgan, aholini ro‘yxatga olish amalga oshirilgan. Iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat dasturlari asosida rejalar qabul qilinadi.

Gipoteza bilan taqqoslaganda prognoz ancha katta ishonchga ega, chunki u nafaqat sifatga, balki miqdoriy parametrlarga ham asoslanadi va shuning uchun obyektning kelajakdagi holatini ham miqdoriy jihatdan tavsiflashga imkon beradi. Prognoz aniq amaliy nazariya darajasida bashorat qilishni ifodalaydi. Shunday qilib, prognoz gipotezadan noaniqlikning past darajasi va katta ishonchlilik bilan farq qiladi. Shu bilan birga, prognozning o‘rganilayotgan obyekt bilan aloqalari doimiy emas, u ko‘proq ehtimoliy tavsifga egaligi bilan ajralib turadi.

5.2. Iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish shakl va usullari

Rejalashtirish – istiqbolda obyektning ko‘zda tutilgan holatining modelini yaratish jarayoni bo‘lib, unda ushbu holatga erishish uchun usullar, vositalari va muddatlari belgilanadi. Rejalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning pirovard maqsadlari, oraliq natijalarini, ularga erishish uchun zarur bo‘lgan resurslar xarajatlarini

ifodalovchi aniq miqdoriy parametrlari (reja koʻrsatkichlari) belgilanadi. Rejalar siyosiy tavsifga ega boʻlib, hukumatning iqtisodiy siyosatiga mos ravishda tuziladi, shu boisdan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yoʻlini tanlash asosida iqtisodiy kriteriyalar bilan bir qatorda siyosiy maqsadlar ham koʻzlanadi. Rejalashtirishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim boʻladi:

- uning ilmiy ishlab chiqish saviyasini oshirish;
- ilgʻor iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining vujudga kelishida uning ta'sirini orttirish;
- iqtisodiyot tarmoqlarining balanslangan, mutanosib rivojlanish rolini kuchaytirish;
- ishlab chiqarish va fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishga yordam berish;
- yangi kam xarajat, tejamkor xoʻjalik mexanizmini yaratish, iqtisodiyot va aholi ehtiyojlarini kamroq resurs va mehnat sarflash bilan qondirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish boshqarishning barcha boʻgʻinlarida amalga oshiriladi: umumdavlat va hududiy rejalashtirish markaziy va hududiy davlat boshqarish organlari tomonidan bajariladi; mahalliy rejalar mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlari tomonidan; korxonalar darajasida biznes rejalar tuziladi.

Ilgari ma'muriyatchilikka, buyruqbozlikka asoslangan jamiyatda iqtisodiy rejalar direktiv tavsifga ega boʻlib, yuqoridan belgilanib, quyidagi xoʻjalik boʻgʻinlari uchun majburiy edi. Direktiv rejalashtirish yuridik kuchga ega boʻlgan rejalarni tuzish jarayon hisoblanadi.Ular oʻzining manzilligi, ijrochilar uchun majburiyligi, ularning bajarilishi uchun rejaviy topshiriqlarning belgilanishi va resurslarning taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Rejaning bajarilishi boʻyicha ijrochilarning javobgarligi koʻzda tutiladi. Shu bilan birga direktiv rejalashtirishda ularning ijrochilari qatnashmaydilar yoki ularning ishtiroki kuchsiz boʻladi.

Bozor iqtisodiyoti va mulkning koʻp shakllari mavjud boʻlgan sharoitda esa dastur va rejalar davlat korxonalari uchun direktiv, xususiy sektor uchun esa taklif, indikativ tavsifga ega boʻladi. Indikativ rejalashtirish aniq parametrlar (indikator, ya'ni koʻrsatkichlar) shaklidagi ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini belgilash va belgilangan

indikatorlarga erishish uchun davlatning iqtisodiy jarayonlarga bilvosita ta'sir koʻrsatish boʻyicha iqtisodiy chora-tadbirlarini ishlab chiqish jarayoni hisoblanadi.

Indikativ rejalashtirish jarayonida iqtisodiyotning oʻsish sur'atlari, tarkibi va samaradorligi, moliyaviy ahvoli, pul muomalasi, tovarlar va qimmatli qogʻozlar bozori, narxlarning harakati, bandlik. Aholi turmush darajasi, tashqi iqtisodiy aloqalarni va boshqalarni ifodalovchi indikatorlardan, ya'ni koʻrsatkichlardan foydalaniladi. Indikativ rejalashtirishning xususiyatlari uning taklif, tavsiya tavsifga egaligi bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotining xoʻjalik subyektlari indikativ rejalarni bajarishga majbur emaslar. Ammo davlat iqtisodiy usullarni (soliqlar, kreditlar, subsidiyalar, davlat buyurtmalarini joylashtirish va hokazo) hamda huquqiy va ma'muriy usullar (rejalarning bajarilishini ta'minlashni nazorat qilish uchun qonunlar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilish) orqali rejalarga kirishni va ularni bajarishga jalb etadi. Ishbilarmon, tadbirkorlarning rejalarga amal qilishlarini ragʻbatlantirish maqsadida ularga turli imtiyozlar, ya'ni soliq toʻlashda, kredit, subsidiyalar, xomashyo, yoqilgʻi-energiya, asbob-uskunalar olishda, tovarlarni eksport qilishda imtiyozlar berilishi lozim boʻladi.

Iqtisodiyotni dasturlash va rejalashtirishdan maqsad, bozor iqtisodiyotida yuz berishi mumkin boʻlgan turli nomutanosibliklar va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlarining oldini olishga qaratilgan boʻladi. Bu tartibga solish vositasining samaradorligi dastur va rejalarning tadbirkorlar manfaatiga qanchalik mosligiga, davlatning ularni ragʻbatlantirish, moliyalashtirish imkoniyatlariga hamda rejalarning ilmiylik darajasiga bogʻliq boʻladi.

Oʻzbekistonda bozor iqtisodiyotini tartibga solishni ta'minlashda Iqtisodiyot vazirligi muhim rol oʻynamoqda. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning konsepsiyalari qisqa va uzoq muddatli rejalari, respublika va mintaqalarga oid tarmoq dasturlarini ishlab chiqish; aholini sotsial himoyalashga oid takliflarni asoslab berish, mehnat faoliyati va tadbirkorlik imkoniyatlarini koʻpaytirish, iqtisodiy ahvolni sogʻlomlashtirish yoʻllarini belgilash; bozor munosabatlariga oʻtishning asosiy qoida va yoʻnalishlarini shakllantirish va unga mos ravishda xoʻjalik mex-

anizmi, boshqaruv shakllari va uslublarini takomillashtirish; xalq xo‘jaligi tuzilmasini qayta qurishga, ishlab chiqaruvchi kuchlarini oqilona joylashtirishga oid takliflar tayyorlash; xalq xo‘jaligi balanslarini tuzish asosida iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etishga oid takliflarni ishlab chiqish; eksport-import ishlarini davlat yo‘li bilan tartibga solish va rag‘batlantirish sohasidagi yo‘nalishlarni belgilash. Iqtisodiyot vazirligi ushbu vazifalarni bajarish orqali iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida muhim o‘rin tutadi.

Joylarda Iqtisodiyot vazirligining bo‘limlari vazifasini Iqtisodiyot bosh boshqarmalari amalga oshiradilar. Viloyat, shahar va tumanlarda hokimning iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlantirish (iqtisodiyot, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat), masalalari bo‘yicha o‘rinbosari va uning 4 shtat birlikka ega kotibiyati mintaqa iqtisodiyotini boshqaradi. Mintaqa iqtisodiyotini boshqarishda mintaqa Iqtisodiyot bosh boshqarmasi muhim rol o‘ynaydi. Boshqarmada mintaqa va hududni kompleks rivojlantirish prognozlari va monitoringi yig‘ma bo‘limi, investitsiyalar va investitsiya dasturlari, Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish prognozlari va monitoringi, uy-joy kommunal xo‘jaligi, Bozor infratuzilmasini rivojlantirish, sanoat, kommunikatsiya tizimlarini va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, Sog‘liqni saqlash va ta’limni rivojlantirish, Bandlik, aholi turmush darajasi va iste’mol bozori hamda Moliya bo‘limlari faoliyat yuritadi.

Iqtisodiyot bosh boshqarmasi mintaqa xo‘jaligini keng qamrovli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Shahar va tumanlarda Iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlantirish (iqtisodiyot, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat) masalalari bo‘yicha hokimo‘rinbosari Iqtisodiyot bo‘limiga rahbarlik qiladi.

Shahar, tuman Iqtisodiyot bo‘limi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- tuman iqtisodiyoti, uning tarmoqlari rivojlanishi ko‘rsatkichlarini, tendensiyalarini izchil tahlil qilish;
- tuman iqtisodiyotidagi mavjud nomutanosibliklarini aniqlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning korxonalar hamda iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha qisqa, o‘rta muddatli prognozlari va dasturlarini ishlab chiqish;

- tumanning eksport salohiyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar tayyorlash, tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti prognozlarini tayyorlash;

- aholining ish bilan bandligini ta’minlash, iste’mol bozorini tovarlar va xizmatlar bilan to‘ldirish asosida tuman aholisi farovonligini oshirishning yo‘nalishlari va aniq yo‘llarini belgilash;

- tuman iqtisodiyotining rivojlanishi ahvoli to‘g‘risida yillik va har choraklik ma’ruzalar tayyorlash, uning rivojlanishidagi nomutanosibliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- iqtisodiyot tarmoqlaridagi barcha investitsiyalardan samarali foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish;

- iqtisodiy, shu jumladan, mahalliy resurslardan samarali foydalanish asosida ishlab chiqaruvchi kuchlar joylashtirilishi yuzasidan takliflar tayyorlash.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy darajasi va iqtisodiy-tabiiy salohiyatidagi farqlar ularni istiqbolda hududiy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Hududni iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish strategiyasini asoslashning quyidagi yo‘nalishlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- hudud rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish; bu bosqichda hududning erishgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi;

- hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasini asoslash; rivojlanishni prognoz qilish; strategiya asoslanib, hudud rivojlanishini tartibga solish metodlari tanlanadi;

- kontseptsiya ishlab chiqish va hudud rivojlanishini davlat va bozor mexanizmlari orqali tartiblash metodlarini tanlash;

- hududning moliyaviy resurslari o‘sishini prognoz qilish; budjet daromad qismini kengaytirish va mustahkamlash yo‘llarini izlash; budjet daromad qismini to‘ldirishning yangi manbalarini aniqlash, turli mulkchilik shakllariga asoslangan tadbirkorlikdan, xorijiy in-

vestorlardan va nobudjet jamg‘armalaridan qo‘shimcha mablag‘larni jalb etish.

Respublika va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda maqsadli dasturlash uslubidan foydalaniladi. Bu uslub pirovard natijaga erishish uchun iqtisodiy resurslarni yo‘naltirishni ta’minlashni ifodalaydi. Uning yordamida eng muhim iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish muammolari hal etiladi. Bu muammolar amalda tarmoqlararo yoki hududlararo tavsifga ega bo‘lib, xalq xo‘jaligi ahamiyatiga ega bo‘ladi.

Maqsadli dasturlar o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallab korxona, mamlakat va xalqaro miqyosda tuziladi. Dasturlar o‘z ichiga pirovard va oraliq maqsadlarni, vazifalarni, ularni amalga oshirish chora-tadbirlarni, resurslar ta’minotini olishi kerak.

Dastur maqsadi o‘lchamga ega bo‘lishi, chora-tadbirlar tizimi esa pirovard va oraliq maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi lozim. Maqsadli hududiy dasturlar hududiy rivojlanishni tartibga solishning samarali metodi sifatida davlat, mahalliy, jamoaviy, shaxsiy manfaatlarni uyg‘unlashtirishi hamda jamiyatning barcha aholi tabaqalarini davlatning hududiy siyosatini amalga oshirishga da’vat etadigan, yo‘naltiradigan bo‘lishi kerak. Shuningdek, hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlari mamlakatda amal qilayotgan qonunlar, huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilishi lozim.

Hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad hududiy iqtisodiyotni uning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va tashqi manbalarni jalb etish yo‘li bilan mutanosib va oqilona rivojlantirishdan iboratdir.

Bob bo‘yicha xulosalar

Reja – bu aniq belgilangan maqsadni belgilash va o‘rganilayotgan obyekt borasida aniq va batafsil voqeliklarni oldindan ko‘ra bilishdir. U belgilangan vazifalarga muvofiq rivojlanish yo‘llari va vositalarini qayd etadi, qabul qilingan boshqaruv qarorlarini asoslaydi. Iqtisodiy prognozlashning eng muhim nazariy muammolaridan biri bu prognozlar tipologiyasini yaratishdir. Prognozlash tipologiyasi

turli mezonlar va xususiyatlarga qarab yaratiladi: maqsadlar, vazifalar, obyektlar, prognozlashni tashkil etish usullari va boshqalar. Ulardan eng muhimlari sirasiga prognozlash koʻlami, muddati, obyektning tabiati, prognoz funktsiyasi kabilarni kiritish mumkin. Prognozlash koʻlamiga koʻra quyidagilar ajratiladi: makroiqtisodiy (milliy iqtisodiy) va tarkibiy (tarmoqlararo va mintaqalararo) prognozlar; milliy iqtisodiy komplekslarning rivojlanish prognozlari (yoqilgʻi-energetika kompleksi, agrosanoat kompleksi, investitsiya, ishlab chiqarish infratuzilmasi); tarmoq va mintaqaviy prognozlar; milliy iqtisodiy tizimning birlamchi boʻgʻinlari – korxonalar, sanoat birlashmalari, shuningdek alohida ishlab chiqarish va mahsulotlar boʻyicha prognozlar. Muddatiga koʻra prognozlar quyidagilarga boʻlinadi: operatsion, qisqa muddatli, oʻrta muddatli, uzoq muddatli va yanada uzoq muddatli. Operatsion prognoz 1 oygacha, qisqa muddatli–bir yildan 5 yilgacha, uzoq muddatli – 5 yildan 15-20 yilgacha; yanada uzoq muddatli prognozlar bundan ham koʻproq davrni oʻz ichiga oladi. Prognozlarning sanab oʻtilgan turlari, shuningdek, ularning mazmuni va oʻrganilayotgan jarayonlarni baholash xususiyati bilan bir-biridan farq qiladi. Operatsion prognozlar prognoz qilinayotgan davrda oʻrganilayotgan obyektda miqdoriy va sifat jihatidan sezilarli oʻzgarishlar yuz bermaydi degan taxminga asoslanadi. Ularda kutilayotgan hodisalarning batafsil miqdoriy baholari ustunlik qiladi. Qisqa muddatli prognozlar faqat miqdoriy oʻzgarishlarni nazarda tutadi. O'rta va uzoq muddatli prognozlar oʻrganilayotgan obyektdagi miqdoriy va sifat oʻzgarishlariga asoslanadi va oʻrta muddatli miqdoriy oʻzgarishlar sifat jihatidan ustunlik qiladi. O'rta muddatli prognozlarda voqealarni baholash miqdor-sifat, uzoq muddatli prognozlarda esa- sifat-miqdor baholashlariga asoslanadi. Uzoq muddatli prognozlar faqat sifat oʻzgarishlariga asoslanadi va bunda asosan oʻrganilayotgan obyekt rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqida soʻz yuritiladi.

Bashorat qilingan hodisalarni baholash shakli sifat jihatdan baholashga asoslanadi. Rejalashtirish-bu rejalar tuzish jarayonini aks ettiradi. Rejalashtirish–bu dastlabki ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni boʻlib, maqsadlarni tanlash va ilmiy asoslash, muqobil variantlarni qiyo-

siy baholash va rivojlanishning kutilayotgan sharoitida ulardan eng maqbulini tanlash orqali ularga erishish vositalari va usullarini tanlashni o‘z ichiga oladi. Milliy rejalashtirish ishlab chiqarishning barcha omillarini bog‘lash va tabiiy-moddiy va moliyaviy qiymat oqimlari muvozanatini saqlashga, maqsad va vazifalarga erishish uchun resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu tegishli rejalashtirish hujjatida (rejasida) aks ettiriladi. Shu bilan birga, rejalashtirishning mohiyati ko‘plab ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish va ijrochilarga yetkazish emas, balki kelgusi rivojlanish borasida maqsadlarni ilmiy asoslash va ularga amalda erishishning samarali vositalarini ishlab chiqish ekanligini yodda tutish lozim.

Fanda rejalashtirishning quyidagi shakllari farqlanadi: direktiv; strategik, indikativ. Direktiv rejalashtirish majburiy, moslashuvchan, bajarilishi shart bo‘lgani holda, belgilangan maqsad va vazifalarni majburiy bajarishda buyruq va ma’muriy vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Direktiv rejalashtirish jamlash, resurslarni keng miqyosda boshqarish va hokazolar bilan bog‘liq eng muhim iqtisodiy vazifalarni hal qilishda muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin. Rivojlanishning alohida yo‘nalishlarini direktiv rejalashtirish bozor iqtisodiyoti modeliga ega bo‘lgan davlatlarda ham qo‘llaniladi. Direktiv rejalashtirishning kamchiliklari sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Cheklangan dastur doirasi.

2. Davlat boshqaruvi organlari har doim ham iqtisodiyotning eng samarali rivojlanishini ta’minlay olmasligi.

Strategik rejalashtirish – bu mamlakat (tarmoqlar, birlashmalar, korxonalar va boshqalar)ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy muhim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘rta muddatdagi maqsad va iqtisodiy ko‘rsatkichlarning qiymatlarini aniqlash jarayoni va uzoq muddatli istiqbolda esa ularni amalga oshirish mexanizmini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Strategik rejalashtirishning maqsadi rejalashtirish amalga oshiriluvchi davlat yoki boshqa obyektning kelgusidagi rivojlanish modelini yaratishdir. Strategik rejalashtirish – bu moslashuvchan jarayon bo‘lib, buning natijasida qarorlar, rejalar va chora-tadbirlarga tegishli tuzatish va qo‘shimchalar kiritiladi. Strategik rejalashti-

rishning maqsadi operatsion va joriy boshqaruv qarorlarini nafaqat mavjud vaziyat nuqtai nazaridan, balki birinchi navbatda ertangi kun nuqtai nazaridan to‘g‘ri qabul qilishdir. Strategik rejalashtirish asosan faol prognozlash funksiyalarini bajaradi.

Strategik rejalarni qamrab olish davri 20-25 yil yoki undan ko‘proq ham bo‘lishi mumkin. Indikativ rejalashtirish aniq iqtisodiy vaziyatlarni hisobga olgan holda strategik rejada belgilangan maqsadlarni amalga oshirishning asosiy ishchi vositasidir. Indikativ prognoz rejasi strategik rejani to‘ldiradi va qisqa va o‘rta muddatli istiqbolda iqtisodiyotni rivojlantirishda amaliy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tuzilishiga ko‘ra, indikativ reja bir nechta qismdan iborat:

1. Konseptual (ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tushunchasi).

2. Prognoz (ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozi).

3. Rejalashtirish va tartibga solish (iqtisodiy tartibga solish tizimi va davlat maqsadli kompleks dasturlari). Indikativ rejalashtirish iqtisodiyotni ko‘rsatkichlar to‘plami (makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar) asosida tartibga solishni ta’minlaydi.

Prognozlarni tasniflash ko‘p jihatdan axborot manbalari va prognozlash usullari bilan uzviy bog‘liqdir. Prognozlashda quyidagi axborot manbalaridan foydalaniladi:

1. O‘rganilayotgan hodisalar, jarayonlar, hodisalarning borishi va rivojlanishi qonuniyatlarini bilish asosida to‘plangan tajriba.

2. O‘tmishda va hozirda mavjud asosiy tendensiyalarni ekstrapolyatsiya qilish.

3. Kutilayotgan yoki rejalashtirilgan sharoitlarga nisbatan bashorat qilinadigan obyektlarning modellarini yaratish.

Iqtisodiyotning rivojlanishi ko‘rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi. Ko‘rsatkich – bu iqtisodiy kategoriya, jarayon yoki hodisani miqdoriy ifodalash shaklidir. Ko‘rsatkichlar tizimi me’yor va limitlarni o‘z ichiga oladi. Me’yorlar – bu belgilangan yakuniy natijalarga erishish borasida resurs xarajatlarining ruxsat etilgan miqdorini ifodalovchi resurs ko‘rsatkichlari. Ko‘rsatkichlar tizimi quyidagi bloklardan iborat: - ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari; - mehnat resurslari; - asosiy va joriy aktivlar; - kapital qo‘yilmalar; - tabiiy resurslar va boshqalar. Iqtisodiy boshqaruv darajasiga qarab ko‘rsatkichlar quyidagilarga bo‘linadi: makroiqtisodiy, tarmoq, mintaqaviy.

Barcha koʻrsatkichlar quyidagilarga boʻlinadi: - moddiy; - qiymat; - mutloq; - nisbiy; - miqdoriy; - sifat; - tasdiqlangan; - indikativ; - hisob-kitob.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy dastur nima?
2. Iqtisodiy dasturlash usullari nimalardan iborat?
3. Prognoz nima?
4. Prognozlashtirish nima va u qanday amalga oshiriladi?
5. Rejalashtirish nima va uning qanday turlarini bilasiz?
6. Rejalashtirish qanday amalga oshiriladi?
7. Iqtisodiyotni dasturlash, prognozlashtirish, rejalashtirish uni davlat tomonidan tartibga solishda qanday rol oʻynaydi?
8. Iqtisodiy dasturlar nima uchun kerak va ular qanday maqsadlarga xizmat qiladi?
9. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari qanday tuziladi?

Iqtisodiyotning yarmi – bu psixologiya demakdir.
Ludvig Erxard

VI BOB. MOLIYAVIY SIYOSAT

6.1. Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari
6.2. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yoʻnalishlari)
6.3. Hozirgi bosqichdagi moliya siyosati va uning oʻziga xos xususiyatlari

6.1. Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari

Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asoslanadi. Shu bois moliyaviy siyosat moliyaviy boshqaruv tizimida asosiy unsur hisoblanadi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyatidir. Mazkur faoliyat davlatning u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga qaratilgan.

Ijtimoiy rivojlanish deyilganda faqatgina ta'lim, madaniyat, sogʻliqni saqlash va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanishi tushunilmasdan, shu bilan bir qatorda, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi ham tushuniladi.

Moliyaviy siyosat oʻz-oʻzini bosib turuvchi mustaqil ahamiyatga ega boʻlib, bir vaqtning oʻzida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Siyosat, siyosiy ta'sir va siyosiy rahbarlik quyidagi uch unsurdan tarkib topadi:

- bosh maqsadni aniqlash va qoʻyish hamda jamiyat hayotining ma'lum bir davriga xos qoʻyilgan maqsadlarga erishish uchun yechilishi zarur boʻlgan istiqboldagi va yaqin kunlardagi vazifalarni aniqlashtirish;
- ularning yordamida qoʻyilgan maqsadlarga qisqa muddatlarda erishiladigan, joriy va istiqboldagi vazifalar esa oqilona tartibda

hal qilinadigan munosabatlarning usullari, vositalari va aniq shakllarini ishlab chiqish;

- qo‘yilgan vazifalarni yechishga qodir bo‘lgan kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning bajarilishini tashkil qilish.

Demak, takror ishlab chiqarishning alohida ehtiyojlarini qondirish va uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy resurslar bilan ta’minlash uchun ijtimoiy boylikni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlariga yo‘naltiriladigan maqsad va vazifalarning yechilishini aniqlashga moliyaviy siyosat deyiladi.

Moliyaviy siyosatga boshqacha ta’rif ham berish mumkin, xususan: moliyadan foydalanishning usullari, uni tashkil qilishning amaliy shakllari va uslubiy tamoyillarining moliyaviy siyosat deyiladi. Ayrim hollarda moliyaviy siyosat davlatning o‘z funksiyalarini bajarishi uchun moliyaviy munosabatlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan davlat organlarining ma’lum bir faoliyati sifatida talqin qilinadi. Bunday talqin o‘zida bir necha xavfni mujassam etadi.

Buning boisi shundaki, milliy xo‘jalik taraqqiyotida davlatning o‘rni to‘g‘risidagi jamiyatda hukmron bo‘lgan tasavvurlarga muvofiq ravishda davlatning vazifalari va funksiyalari ham o‘zgarishga yuz tutadi. Masalan, mamlakat iqtisodiyotiga davlatning aralashuvi, aholi turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini tenglashtirish va shunga o‘xshash davlatning funksiyalari va vazifalarini aniqlaydigan boshqa bir qancha masalalar hamon munozaraliligicha qolmoqda. Buning ustiga, moliyaviy siyosatdan faqat davlatning funksiyalarini bajarish vositasi sifatida foydalanish davlat hokimiyat organlari, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari bilan moliya tizimining boshqa subyektlari, ya’ni aynan mamlakatning aholisi va xo‘jalik yurituvchi subyektlari manfaatlari o‘rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida bayon qilinganlardan quyidagi uch mantiqiy xulosa kelib chiqadi:

- Birinchidan, moliyaviy siyosat faqat o‘z manfaatlarini ko‘zda tutadigan hokimiyat organlarining u yoki bu maqsadlarga erishish vositasi emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etish vositasi bo‘lishi kerak;

6.1-jadval

Moliyaviy siyosatga berilgan ta'riflar

Mualliflar	Moliyaviy siyosatning ta'rifi
1988-yilda nashr qilingan moliya-kredit lug'ati[37]	Moliyaviy siyosat iqtisodiy siyosatning ajralmas qismidir; uning funksiyalari va vazifalarini amalga oshirish uchun moliyani tashkil etish va undan foydalanish bo'yicha davlat choralari to'plami; moliyaviy resurslarni safarbar qilish shakl va usullari tizimi, ularni aholi qatlamlari va ijtimoiy guruhlari, faoliyat sohalari va mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash, moliyaviy qonunchilikda, davlat daromadlari va xarajatlari tarkibida namoyon bo'ladi.
M.K.Shermenyov[38]	Moliyaviy siyosat – moliyadan foydalanish sohasida davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Moliyaviy siyosat - moliyaning mujassamlashgan ifodasidir.
I.V.Levchuk[39]	Moliyaviy siyosat moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanishni markazlashtirilgan va demokratik boshqarishning to'g'ri kombinatsiyasini yaratishga mo'ljallangan.
V.M.Rodionova tahriri ostidagi "Moliya" darsligi[40]	Moliyaviy siyosat – sotsialistik davlatlarning moliyadan foydalanish borasidagi faoliyati.
I.T.Balabanov[41]	Moliyaviy siyosat – bu davlatning iqtisodiy, harbiy, ekologik va ijtimoiy sohadagi salohiyatini mustahkamlash borasida moliyadan foydalanish borasidagi faoliyati.
L.A.Drobozina tahriri ostidagi "Moliya" darsligi[42]	Moliyaviy siyosat – bu doimiy takror ishlab chiqarish jarayoni uchun moliyaviy resurslarni ta'minlash va takror ishlab chiqarishning muayyan ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy boylikni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoniga yo'naltirilgan maqsad va vazifalarni aniqlashtirishdir.
A.G.Gryaznova, E.V.Markina tahriri ostidagi "Moliya" darsligi[43]	Moliyaviy siyosat-davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish uchun moliyaviy asos yaratish bo'yicha eng samarali chora-tadbirlarni aniqlashtirish borasida davlatning moliyaviy boshqaruv sohasidagi maqsadli chora-tadbirlari majmui.
A.V.Vaxobov, T.S.Malikov[44]	Moliyaviy siyosat o'z-o'zini bosib turuvchi mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu yerda uning iqtisodiyot, ijtimoiy soha, harbiy islohotlar yoki xalqaro munosabatlar bo'lishi jiddiy ahamiyatga ega emas. Moliyaviy siyosat, eng avvalo, moliyaviy resurslaming maksimal hajmini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Chunki aynan moliyaviy resurslar har qanday o'zgarishlarning moddiy asosini tashkil etadi.

[37] Финансово-кредитный энциклопедический словарь. М.: Финансы и статистика, 2002 г. С. 1045.
[38] Финансы СССР. Учебник под ред. М.К. Шерменева. М.: 1977 г. С. 13-14
[39] Левчук И.В. Денежное обращение и кредит в СССР. М.: Финансы и статистика. 1986 г. С. 16.
[40] Финансы. Учебник под ред. В.М. Родионовой. М.: Финансы и статистика. 1992 г. С. 61.
[41] Балабанов И.Т. Финансовый менеджмент. М.: Финансы и статистика. 1994 г. С. 30.
[42] Дробозина Л.А. Финансы. М.: ЮНИТИ. Финансы. 2000 г. С. 21.
[43] Финансы: Учебник. / Под ред. А.Г. Грязновой, Е.В. Маркиной. - М.: Финансы и статистика, 2004. С. 65.
[44] Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. / Toshkent Moliya instituti. - Toshkent: "Noshir" , 2011 712 bet.

• ikkinchidan, davlatning moliyaviy siyosati faqat davlat hokimiyat organlarining emas, balki moliya tizimi barcha subyektlarining manfaatlarini hisobga olishi lozim;

uchinchidan, davlat moliyaviy siyosati va davlat hokimiyat organlarining moliyaviy siyosatini farqlash zarur.

Shunday qilib, davlat moliyaviy siyosatini mamlakat moliya tizimining barcha bo‘g‘inlarida moliyaviy resurslarning o‘sishi mutanosibligini ta’minlash bo‘yicha davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining bir qismi sifatida qarash kerak (6.1-jadval). Xorijiy tajribalarning ko‘rsatishicha, moliyaviy resurslarning muvozanatlashgan holda o‘sishining zarurligini inkor etish mamlakat moliya tizimining o‘zini tarqoqlashuviga, iqtisodiyotning xonavayron bo‘lishiga olib keladi (6.1-rasm). Moliyaviy siyosatning o‘ziga xos bo‘lgan asosiy jihati shundan iboratki, bu siyosat mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga va iqtisodiy siljishlarga muttasil ta’sir ko‘rsatib turishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bunday siyosat aholining turmush farovonligi ta’minlab va davlat daromadlarining manbaini ko‘paytirib, moliyaviy xo‘jalikka nisbatan eng yuqori natijalarni berishi mumkin.


Moliyaviy siyosatning ana shunga yo‘naltirilganligi orqali uning quyidagi eng asosiy maqsadini aniqlash mumkin: jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi turmushining darajasi va sifatini oshirish uchun moliyaviy sharoitlarni yaratish moliyaviy siyosatning eng asosiy maqsadidir.

Agar gap korxonalarning moliyaviy siyosati xususida ketadigan bo‘lsa, bu narsa korxona moliyaviy menejerlarining biznesni yuritish maqsadlariga erishish borasidagi maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini anglatadi (6.2-rasm).

Korxona moliyaviy siyosatining maqsadi quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

• raqobat kurashi sharoitida korxonaning sog‘lom hayot kechirishiga (faoliyat ko‘rsatishiga) erishish;


• yirik moliyaviy muvaffaqiyatsizliklar va kasodga uchrashdan qochib qutilish;



6.1-rasm. Moliyaviy siyosatning mazmuni[45]

- korxona iqtisodiy salohiyatining oʻsish sur'atlarining barqarorligini ta'minlash;
- raqobatchilar bilan kurashda yetakchilikka erishish;
- ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish;
- korxonaning bozor qiymatini maksimallashtirish;
- foydani maksimallashtirish;
- xarajatlarni minimallashtirish;
- faoliyat koʻrsatish rentabelligiga erishish va boshqalar.

[45] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G'.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2023.", – 564 b.




6.2-rasm. Korxonaning moliyaviy siyosatini shakllantirish[46]

Korxona moliyaviy siyosatining u yoki bu maqsadlaridagi ustuvorlik, eng avvalo, biznes yuritish maqsadlariga muvofiq ravishda aniqlanadi. Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun tegishli moliyaviy mexanizm va tamoyillardan foydalaniladi (6.3-rasm).

Dunyoning barcha mamlakatlarida moliyaviy siyosat moliya tizimi orqali amalga oshirilib, uning faoliyati quyidagi tamoyillar asosida quriladi:

- moliya tizimi bo'g'inlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini inobatga olib moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish;
- barcha moliyaviy muassasalar funksiyalarining umumiyligi;
- barcha quyi boshqaruv organlarining faol ishtirokida markazdan umumiy boshqarish.

[46] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G'.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2023.", – 564 b.



6.3-rasm. Tashkilotning moliyaviy siyosatini tashkil etish tamoyillari[47]

Moliyaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy *uslubiy tamoyillari* quyidagilardan iborat:


- pirovard maqsadga bog‘liqlik;
- xo‘jalik barcha tarmoqlarining makroiqtisodiy muvozanati;
- jamiyat barcha a’zolarining manfatlariga mos kelishi;
- real imkoniyatlar asosida ichki va tashqi iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish.

Moliyaviy siyosat orqali davlat o‘z funksiyalari va dasturlarini (uzoq, o‘rta va qisqa muddatli) amalga oshirish maqsadida moliyaviy resurslarni jalb qilish, ularni taqsimlash va qayta taqsimlashga yo‘naltirilgan davlat tadbirlarining majmuini amalga oshiradi. Hukumatning moliyaviy siyosatiga baho berish uchun va uni o‘zgartirish bo‘yicha tavsiya berish uchun, birinchi navbatda, butun jamiyat manfaatlari va aholining alohida guruhlari manfaatlarini

[47] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G‘.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: “Iqtisodiyot dunyosi”, 2023.”, – 564 b.

ajratgan (taqsimlagan) holda jamiyat taraqqiyotining aniq dasturiga, yechilishi lozim bo‘lgan masalalarning muddatlari va usullarini aniqlagan holda istiqboldagi va yaqin yillardagi vazifalarning tavsifiga ega bo‘lmoq lozim. Faqat ana shunday sharoitdagina moliyaviy siyosatni amalga oshirishning aniq mexanizmini ishlab chiqish va unga xolis baho berish mumkin.

Agar moliyaviy siyosat ijtimoiy taraqqiyotning ehtiyojlarini, jamiyat butun qatlamlarining va alohida guruhlarining manfaatlarini, aniq tarixiy sharoitni va hayotning o‘ziga xos xususiyatlarini qanchalik hisobga oladigan bo‘lsa, uning natijaviyligi shuncha yuqori bo‘ladi (6.4-rasm).



6.4-rasm. Moliyaviy siyosat maqsadlari[48]

Moliyaviy siyosat, eng avvalo, moliyaviy resurslarning maksimal hajmini shakllantirishga yo‘naltirilgan (qaratilgan) bo‘lishi ke-

[48] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G‘.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: “Iqtisodiyot dunyosi”, 2023.”, – 564 b.

rak. Chunki aynan moliyaviy resurslar har qanday o‘zgarishlarning moddiy asosini tashkil etadi. Shunga muvofiq ravishda moliyaviy siyosatni aniqlash va uni shakllantirish uchun davlatning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlar zarurdir. Huquqiy demokratik davlatda moliyaviy statistikaning ko‘rsatkichlari keng jamoatchilikka ham tegishli bo‘lishi kerak. Moliyaviy hisobotlar esa doimiy, o‘z vaqtida beriladigan, hamma olishi mumkin bo‘lgan va eng asosiysi ishonchli bo‘lmog‘i lozim. Moliyaviy siyosatning mazmuni u qamrab olishi mumkin bo‘lgan moliyaviy munosabatlar rivojlanish yo‘nalishlarining umumiy majmui bilan belgilanadi. Ularning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

- moliyaviy siyosatning umumiy konsepsiyasini ishlab chiqish;
- makro va mikrodarajada iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi, bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga mos bo‘lgan dinamik moliya mexanizmini shakllantirish;
- markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan resurslar va moliyaviy oqimlarning samarali boshqarilishini oshirish bo‘yicha choralar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ijtimoiy takror ishlab chiqarish va iqtisodiyotni istiqbolli restrukturizatsiya qilishdagi roliga muvofiq ravishda ijtimoiy iqtisodiy tizimning barcha darajalari va sohalari bo‘yicha moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlashni tashkil qilish;
- iqtisodiy o‘sishning joriy va istiqboldagi moliyaviy salohiyatini shakllantirish.

Moliyaviy siyosatni ishlab chiqishda moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlashning negizida quyidagilarning yotishi prinsipial ahamiyatga egadir:


- taqsimlash munosabatlarining subyektlarini tanlash, ya’ni moliyaviy resurslarning egalari va taqsimlovchilarini tanlash;
- yuridik shaxslar va aholining o‘z ehtiyojlarini qondirishdagi mustaqillik darajasi va davlatning funksiyalariga bog‘liq ravishda davlat ixtiyoridagi moliyaviy resurslarning markazlashtirilish darajasini aniqlash;
- birinchi darajali ijtimoiy ehtiyojlar va ularni qondirish choralarini aniqlash va shularga mos ravishda moliyaviy resurslardan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

• moliyaviy resurslarni shakllantirishning manbalari va usullarini tanlash.

6.2. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yoʻnalishlari)

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yoʻnalishlari) quyidagilardan iborat: budjet siyosati; soliq siyosati; pul siyosati; kredit siyosati; narx siyosati; investitsion siyosat; ijtimoiy moliyaviy siyosat; boj siyosati.

Oʻz navbatida, moliyaviy siyosat davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning vositasi boʻlib hisoblanadi va shu maʼnoda yordamchi vazifasini oʻtaydi (6.5-rasm).




6.5-rasm. Davlatning iqtisodiy siyosati[49]

49 Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, Gʻ.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2023.", – 564 b.

Bir vaqtning o‘zida davlat siyosatining boshqa – milliy, geosiyosat, harbiy – yo‘nalishlari ham mavjudligini esdan chiqarmaslik kerak. Ana shu barcha besh yo‘nalishning (iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, geosiyosat, harbiy) yig‘indisi (majmui) davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatida xizmat qiladigan moliyaviy siyosatni aniqlab beradi.


Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi sifatida davlatning budjet siyosati, eng avvalo, har bir mamlakatning Konstitutsiyasi va budjet jarayonida hamda qonun ijodkorligida alohida hokimiyat organlarining funksiyalarini belgilovchi boshqa qonunlar majmuiga muvofiq aniqlanadi. O‘zining hajmi va muhimligi jihatidan eng katta ish bo‘lishiga qaramasdan budjet siyosatini faqat budjet jarayoniga tegishli, deb hisoblash maqsadga muvofiq emas (6.6-rasm).



6.6-rasm. Moliyaviy siyosat turlari[50]

[50] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G‘.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: “Iqtisodiyot dunyosi”, 2023.”, – 564 b.

Qonun budjet jarayonida hokimiyatning qonunchilik va ijroiya organlari funksiyalarini, mamlakat subyektlari funksiyalarini, budjet federalizmi tamoyillarini, budjet jarayoni subyektlarining huquq va majburiyatlarini va boshqalarni aniq belgilashi kerak.



6.7-rasm. Moliyaviy siyosat unsurlari[51]

[51] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G'.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2023.", – 564 b.

Biroq budjet siyosati shu bilan cheklanmaydi. Budjet siyosati budjetda jamlanadigan YIM ulushini aniqlashda, davlat boshqaruvi yuqori va quyi organlarining o‘zaro munosabatlarida, budjet xarajatlar qismining tarkibiy tuzilishida, turli darajadagi budjetlar o‘rtasida xarajatlarni taqsimlashda, davlat qarzini boshqarishda, budjet kamomadini qoplash yo‘llarini aniqlashda va boshqalarda ifodalanadi.

Demokratik davlatda budjet qonun tarzida tasdiqlanadigan hujjat hisoblanadi. Unda davlatning o‘z funksiyalarini bajarish maqsadida davlat qo‘lida jamlangan pul mablag‘larining harakati o‘z ifodasini topadi.

Davlat siyosati aniqlab beradigan maqsadlarga erishish uchun pul resurslarini yo‘naltirish budjet siyosatining ustuvorligini tashkil etadi. Agar maqsadga erishish milliy iqtisodiyot ta’minlaydigan mablag‘lardan ko‘p mablag‘ talab etsa, davlat qo‘shimcha daromadlarni shakllantirishning quyidagi favquloddagi usullarini qo‘llashga majbur bo‘ladi: ichki va tashqi kreditlar, milliy boylikni sotish, boylik va mol-mulkni ijaraga berish va konsessiyalar. Budjetning daromadlar qismini to‘ldirishning favquloddagi choralari iqtisodiy mustaqillikning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Buni hisobga olgan holda hokimiyatning qonunchilik organlari qarz olishning chegarasini oldindan belgilaydi.

Soliq siyosati moliyaviy siyosatning eng muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Besh yuz yildan ortiqroq vaqt mobaynida zamonaviy moliya fani soliqlarga nisbatan munosabatini aniq belgilash imkoniga ega bo‘lgan. Bu munosabatlar quyidagilardan tashkil topadi:

- soliqlarsiz davlatning faoliyat ko‘satishi mumkin emas;
- soliqli undirish qat’iy o‘sish tendensiyasiga ega;
- oqilona soliq ostonasidan o‘tilganidan so‘ng tabiiy takror ishlab chiqarish jarayoni buziladi – iqtisodiyotning o‘z-o‘zidan izdan chiqishi yuz beradi;
- tanazzul davrida soliqlar mumkin qadar minimal darajada o‘rnatilmog‘i lozim. Buning natijasida mamlakatning iqtisodiy mexanizmi ichki investitsion salohiyatni safarbar etish hisobidan tiklanadi;
- soliqning yuqori ostonasi kapitalning chetga chiqib ketishiga olib keladi;

- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish kerak, albatta. Biroq pirovard oʻlchovlarda sof daromadning 30%dan ortiq qismining undirilishida mamlakatning iqtisodiy oʻsishi toʻxtaydi;
- soliq imtiyozlari ochiqlik tavsifiga ega boʻlishi va barcha takror ishlab chiqarish subyektlari uchun teng boʻlishi kerak;
- soliq tizimi konfiskatsion tavsifga ega boʻlmasligi lozim. Jumladan, individual daromadlarning oʻsishida ifodalangan milliy boylikning oʻsishi soliqqa tortiladigan bazaning (asosning) barqaror oʻsishini ta'minlashi mumkin;
- qonunlar va qoidalarning barqarorligini davlat kafolatlagan iqtisodiy tizimda soliqlarning summar oʻlchovi barqaror oʻsish tendensiyasiga ega boʻladi. Barqarorlik kafolati sifatida davlat oʻzining majburiyatlarini buzishni boshladimi, kapital xufyona iqtisodiyotga yoki xorijga oʻtishni boshlab, budjetning daromadlar bazasini qisqartiradi;
- soliq tizimi oddiy, ochiq va samarali boʻlmogʻi lozim. Soliqlar sonini, soliqqa tortish obyektlarini koʻpaytirish, koʻp bosqichli soliqlarni joriy etish soliqlarni undirish boʻyicha xarajatlarning ortishiga, boqimanda va jarimalarning oʻsishiga va pirovardida, mulkka taqiq qoʻyish, soliq toʻlovchini toʻlovga layoqatsiz deb e'lon qilish va shu kabi yoʻllar orqali iqtisodiyotning tanazzuliga olib keladi;
- soliqqa tortish egri (bilvosita) tizimining ustuvorligi budjet daromadlarini shakllantirish nuqtai nazaridan qulay hisoblanadi. Lekin bu narsa, oxir-oqibatda, mamlakat aholisi asosiy qismining qashshoqlanishiga olib keladi. Chunki bunday soliqlarning yuki tovarlar va xizmatlarning yakuniy (oxirgi) iste'molchisi gardaniga (zimmasiga), ya'ni yashash minimumi darajasida yoki ijtimoiy tirikchilik darajasida daromadga ega boʻlgan aholining 80-90% qismiga yuklanadi;
- egri (bilvosita) soliqlar tizimining xavfliligi shundaki, bu tizimda aholining asosiy qismidan jamgʻarmalar olib qoʻyiladi va bu, oʻz navbatida, kredit tizimi va ikkilamchi moliyaviy bozor tizimining asoslarini buzadi;
- egri (bilvosita) soliqlarni sogʻliq uchun zararli boʻlgan tovarlar, zeb-u ziynat buyumlari, ayrim hollarda import qilinadigan tovarlar va xizmatlar va boshqa bir qancha oʻziga xos boʻlgan maxsus holatlarga nisbatan joriy etish zarur;

- daromad va mol-mulkdan olinadigan soliqlar soliq bazasining asosiysi bo‘lib hisoblanishi (xizmat qilishi) kerak. Ularni proporsional soliqqa tortish tamoyillariga asosan qurish lozim.

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlaridan (yo‘nalishlaridan) yana biri pul siyosatidir. Agar muomaladagi pul miqdori tovarlar massasi miqdoriga (pulning aylanish tezligini hisobga olgan holda) mos kelmasa, pul massasining yetmagan qismi qog‘oz pullar (pullarning surrogati) hisobidan yoki xorijiy valyuta hisobidan to‘ldiriladi (tiklanadi) va aksincha, agar pul massasi unga bo‘lgan talabdan ortiq bo‘lsa, yo pul massasining mamlakatdan chetga chiqishi (oqishi) yoki milliy valyutaning qadrsizlanishi sodir bo‘ladi.

Emissiya siyosati va milliy valyutaning barqarorligi pul siyosatining tarkibiy qismidir. Emission siyosat muomala uchun zarur bo‘lgan pulning miqdorini aniqlashdan tashqari yana boshqa bir yo‘nalishga ega. Bu yo‘nalish budjet daromadlarini ko‘paytirishdir. Ana shu yo‘nalish alohida ehtiyotkorlikni talab etadi. Chunki ma’lum bir miqdoriy chegaradan o‘tilganidan so‘ng pul tizimi inflyatsiyaga moyil (ta’sirchan) bo‘lib qoladi, ya’ni budjet daromadlarining real qadrsizlanishi sodir bo‘lishi mumkin. Agar qandaydir bir sabablarga ko‘ra davlat o‘z pul tizimini tartibga solishga qodir bo‘lmasa, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga putur yetadi. Chunki bunday sharoitda mamlakatning milliy valyutasi boshqa kuchli valyutalarning ekspansiyasiga qarshi tura olmaydi va milliy boylikdan mahrum bo‘lib qolish mumkin (o‘zaro hisobga olishlar, aksiyalarni sotib olish va hokazo orqali).

Kredit siyosati ham moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo‘nalishi) bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi mamlakatning krediti tizimi orqali amalga oshiriladi. Kredit tizimi ssuda kapitalining faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi. O‘z navbatida, ssuda kapitali takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishning muhim sharti hisoblanib, aylanma mablag‘larni to‘ldirish va investitsiyalar uchun mablag‘larning qarzga olinishini ta’minlaydi. Iqtisodiyotning kredit sektori o‘rtacha foyda normasini tenglashtirish uchun ham xizmat qiladi. Foiz stavkasining darajasi jamiyatdagi iqtisodiy faollikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. U asossiz darajada yuqori bo‘lsa, quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- kreditlarning qaytarilmasligi;
- ishlab chiqarish sektori va xizmatlar sektorida mahsulotlar narxining oʻsishi;
- ishlab chiqarishning qisqarishi;
- takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlarining pasayishi natijasida ichki iste'mol bozorining torayishi;
- qarzga oluvchilar rentabellik darajasining pasayishi va buning oqibatida soliqqa tortiladigan bazaning qisqarishi.

Aksincha, kreditning arzonlashuvi ishlab chiqarishning sogʻlomlashishiga, tovarlar massasining ortishiga, tovarlar va xizmatlar narxining pasayishiga, buning natijasida esa, takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlarining oshishiga, soliqqa tortish bazasining kengayishiga va oʻz navbatida, budjet daromadlarining koʻpayishiga olib keladi.

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yoʻnalishi) sifatida davlatning narx siyosati monopol tovar va xizmatlar narxi va tariflarning oʻzgarishida ifodalanadi. Yer osti boyliklari, suv havzalari, temir yoʻllar, elektr uzatish tarmoqlari, neft va gaz quvurlari davlatning monopol egaligidadir. Bu tarmoqlar tovarlari va xizmatlari bahosining oʻsishi milliy xoʻjalikning boshqa sektorlarida narxning oʻsishiga olib keladi.

Investitsiya siyosati moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri boʻlib, u eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotining real sektoriga oʻz va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoitlarni yaratish boʻyicha tadbirlar majmuidan iborat. Bu siyosat davlat boshqaruvi va xoʻjalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarishning turli darajalarida amalga oshiriladi. Investitsion siyosatning asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyotiga investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni kiritish (joylashtirish), mamlakatdan kapitalning "qochib" ketmasligi va aksincha, mamlakatga xorijiy kapitallar oqimining kirib kelishi uchun sharoitlarni yaratish orqali ifodalanadi.

Ijtimoiy moliyaviy siyosat Konstitutsiyaga muvofiq mamlakat aholisi huquqlarini moliyaviy jihatdan ta'minlash bilan bogʻliq. Hozirgi paytda bu siyosat, oʻz navbatida, pensiya siyosati, immigratsion siyosat, aholi ayrim ijtimoiy guruhlariga moliyaviy yordam koʻrsatish siyosati va boshqa siyosatlarni oʻz ichiga oladi.

Boj siyosatini moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo‘nalishi) sifatida qarash bilan birgalikda uni soliq va baho siyosatlarining ham bir qismi sifatida e’tiborga olish kerak. Chunki soliqlar va bojlar (boj yig‘imlari) tovar va xizmatlarning bahosiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bir vaqtning o‘zida boj siyosati mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatishning o‘ziga xos bo‘lgan usuliga ham egadir. Usulning o‘ziga xosligi shundaki, bu siyosat bir tomondan, mamlakat ichki bozoriga import qilinayotgan tovarlar va xizmatlarni kengaytirishi yoki cheklashi, ikkinchi tomondan esa mamlakatdan tovarlar va xizmatlar eksportini rag‘batlantirishi yoki unga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Har qanday mamlakatning boj siyosati “bumerang” tavsifiga egaligi bilan ajralib turadi. Chunki boj undirishning cheklovchi yoki rag‘batlantiruvchi stavkalarining joriy etilishi xuddi shunday javob choralarining qo‘llanilishi bilan kuzatiladi. Boj siyosati yo‘nalishining tanlanishi mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga mos kelishi lozim.

Xullas, moliyaviy siyosat va uning tarkibiy qismlari (yo‘nalishlari) ilmiy jihatdan asoslangan, ma’lum bir maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan, muvofiqlashtirilgan, takror ishlab chiqarish subyektlarining manfaatlariga zid bo‘lmaydigan bo‘lishi kerak. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat ichki va tashqi qarzlarining kamayishiga, davlatning oltin-valyuta zaxiralarining ortishiga, inflyatsiyani jilovlashga, budjet defitsitining kamayishiga, YIM ko‘payishiga, mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligining kuchayishiga olib kelmog‘i lozim.

6.3. Hozirgi bosqichdagi moliya siyosati va uning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning har bir bosqichida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash asosiy ustuvor vazifa etib belgilab kelindi. Ma’lumki, makroiqtisodiy barqarorlik mamlakatning YIMda namoyon bo‘ladi va u davlatning iqtisodiy qudratiga baho beradi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va uning samarali ijro etilishi orqali iqtisodiy islohotlarning yuqori natijalariga erishildi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati tubdan

oʻzgardi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiy rivojlanish, avvalo, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga oʻtdi. Global miqyosda davom etayotgan pandemiya hamda iqtisodiy vaziyat bilan bogʻliq mavhumliklar saqlanib qolayotgan shunday sharoitida, Oʻzbekiston iqtisodiyoti oʻz vaqtida muvofiqlashtirilgan fiskal va monetar siyosat natijasida 7,4 foiz oʻsishni qayd etib, jadal ravishda tiklanishda davom etdi.

Mamlakatimizda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida "2020-2024-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida" Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori[52] qabul qilingan.

2020-2024-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasining asosiy yoʻnalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- soliq-budjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida oʻrta muddatli budjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik budjetni shakllantirishning yangi "natijaga yoʻnaltirilgan budjet" tizimini joriy etish;
- makrofiskal prognozlar ishonchliligini ta'minlash boʻyicha institutsional salohiyatni va budjet jarayoni ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish;
- budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish;
- fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;
- budjet hisobi standartlarini unifikatsiya qilish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash;
- budjet ma'lumotlarining ochiqligi, toʻliqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash;

[52] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2020-2024-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida. 24.08.2020-yildagi 506-son. https://lex.uz/uz/docs/4966572

- budjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

O‘zbekiston Respublikasida davlatning strategik maqsadlariga erishish uchun yo‘naltirilgan islohotlarni davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirishga asoslangan holda amalga oshirish talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ochiqligi va shaffofligini hamda fuqarolarning budjet jarayonidagi ishtirokini ta’minlashga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirilayotganligi, shu jumladan, Davlat budjeti Parlament tomonidan tasdiqlanishi, “Fuqarolar uchun budjet” axborot nashri chop etilishi, Openbudget.uz axborot portali ishga tushirilishi, Davlat budjeti ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlar milliy hamda Xalqaro valyuta jamg‘armasining Davlat moliyaviy statistikasi (GFS) standartlariga muvofiq e’lon qilinishiga qaramasdan, davlat moliyasini boshqarishni yanada takomillashtirishni talab etadigan bir qator yo‘nalishlari mavjud.

Jumladan:

- davlat moliyasini boshqarish tizimida davlatning o‘rta va uzoq muddatli maqsadlariga erishish borasida strategik o‘rta muddatli istiqbollarini belgilash;
- budjet tashkilotlari va muassasalari hamda davlat ulushi mavjud bo‘lgan korxonalarning hisobini alohida yuritish, shuningdek, vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag‘larini konsolidatsiyalashgan budjetda aks ettirish;
- mahalliy budjetlarni mustaqil ravishda belgilash imkonini beradigan budjetlararo transferlarni hisoblashning shaffof uslubiyatini ishlab chiqish;
- davlat xaridlari va investitsiyalarini boshqarish samaradorligini oshirish, davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish, davlat aktivlari va majburiyatlarini boshqarish uchun mavjud tavakkalchiliklarni baholashning samarali tizimini joriy etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Shu munosabat bilan Xalqaro valyuta jamg‘armasi va boshqa xalqaro moliya institutlari ko‘magida aniq maqsadlar, vazifalar va asosiy yo‘nalishlarni belgilovchi 2020-2024-yillarda O‘zbekiston

Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi ishlab chiqildi[53].

Strategiyani amalga oshirish davri 2024-yilgacha mo'ljallangan bo'lib, quyidagi muhim maqsadlarni o'z ichiga oladi:

- soliq-budjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli budjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik budjetni shakllantirishning yangi "natijaga yo'naltirilgan budjet" tizimini joriy etish;
- makrofiskal prognozlar ishonchliligini ta'minlash bo'yicha institutsional salohiyatni va budjet jarayoni ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish;
- budjet mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish;
- fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;
- budjet hisobi standartlarini birxillashtirish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash;
- budjet ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash;
- budjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Strategiya maqsadlariga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- uzoq muddatli davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan strategik o'rta muddatga mo'ljallangan soliq-budjet siyosatini yuritish;
- makroiqtisodiy cheklovlar va vazifalarni nazarda tutuvchi budjetlashtirishning "yuqoridan pastga" yondashuvini joriy etish yo'li bilan soliq-budjet nazoratini kuchaytirish va barcha budjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi va hisobdorligini oshirish;
- budjet mablag'lari taqsimlovchilari uchun ajratiladigan budjet

[53] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. 24.08.2020-yildagi 506-son. https://lex.uz/uz/docs/4966572

mablag‘larini dasturlar kesimida tasdiqlash va natijadorligini baholash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;

- fiskal tavakkalchiliklarini baholash hamda zamonaviy makroprognozlashtirish modullarini qo‘llashni joriy etish;
- budjet jarayonining shaffofligi va budjet ma’lumotlarining ochiqligini oshirib borish, jumladan, davlat budjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni Parlamentga taqdim etish jarayonini takomillashtirish va shaffofligini oshirish;
- budjetlararo munosabatlarni isloh qilish, mahalliy boshqaruv organlarining mustaqilligini va javobgarligini oshirish hamda budjetlararo transferlar taqdim etish qoidalari asosida ularni ajratishning shaffof mexanizmini joriy etish.

Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Soliq-budjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o‘rta muddatli budjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik budjetni shakllantirishning yangi “natijaga yo‘naltirilgan budjet” tizimini joriy etish;
2. Makrofiskal prognozlar ishonchliligini ta’minlash bo‘yicha institutsional salohiyatni va budjet jarayoni ishtirokchilarining mas’uliyatini oshirish;
3. Budjet mablag‘larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas’uliyatini kuchaytirish;
4. Fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;
5. Budjet hisobi standartlarini bir xillashtirish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda budjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;
6. Budjet ma’lumotlarining ochiqligi, to‘liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta’minlash.

Strategiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar:

- davlat moliyasi to‘g‘risida ishonchli, shaffof, dolzarb va muddatli kompleks ma’lumotlar mavjud bo‘ladi;

- o‘rta muddatli budjetni rejalashtirish to‘laqonli tatbiq etiladi;
- o‘rta muddatli istiqbolda makrofiskal prognozlash va tahlil qilishning barqaror va bashorat qilinadigan tizimi yaratiladi;
- mahalliy budjet parametrlarini shakllantirish va tasdiqlash jarayonida vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimliklarning budjet sohasidagi vakolatlari va mustaqilligi kengaytiriladi va o‘z navbatida ularning mas’uliyati sezilarli darajada oshiriladi;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mos ravishda budjet mablag‘larini taqsimlash samaradorligi oshiriladi, soliq-budjet siyosatining maqsadlariga erishishning samaradorligi va natijadorligini baholashning son va sifat ko‘rsatkichlari joriy etiladi;

Davlat budjeti ijrosi jarayonida samaradorlikka va natijadorlikka erishiladi;

- davlat investitsiyalarining samaradorligi va boshqarilishi yaxshilanadi;
- davlat moliya tizimining barqarorligi mustahkamlanadi, soliq-budjet tavakkalchiliklari ishonchli baholanadi va minimallashtiriladi;
- davlat qarzini samarali boshqarish tizimi joriy etiladi;
- budjet jarayonida jamoatchilik va fuqarolar ishtirokini keng faollashtirish uchun budjet ma’lumotlarining oshkoralik darajasi oshiriladi;
- samarali elektron davlat xaridlari tizimi joriy etiladi;
- xalqaro moliya institutlarining reyting va indekslarida O‘zbekistonning o‘rni yaxshilanadi.

Bundan tashqari, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida davlat budjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta’minlash, har bir tuman budjetining kamida 5 foizini “Fuqarolar budjeti” dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish, davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSh dollaridan oshib ketmasligini ta’minlash vazifalari belgilab berilgan.

2020-yil 12-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston

Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni[54] qabul qilindi. Farmon bilan 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” hamda strategiyani amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

Mazkur Strategiya Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda mamlakat bank tizimining joriy holatini o‘rganish natijalari bo‘yicha asosiy xulosalar va tavsiyalar, shuningdek, xorijiy davlatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi hamda moliya sohasidagi xalqaro tendensiyalarni inobatga olgan holda ishlab chiqildi.

Strategiyada bank tizimida hozirgi kunda saqlanib qolayotgan muammo va dolzarb masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan:

- bank tizimida davlatning yuqori darajadagi ishtiroki natijasida moliyaviy va inson resurslaridan samarasiz foydalanilayotganligi, ularda korporativ boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- davlat ishtirokidagi banklarning ustuvor dasturlar, sohalar va davlat ulushiga ega korxonalarga bozor stavkalaridan kam bo‘lgan stavkalarda kreditlar ajratuvchi an’anaviy “taraqqiyot banklari” vazifasini bajarishi;
- kreditlashning yuqori sur’atlarda o‘sib borayotganligi va buning natijasida banklarning barqarorlik darajasini ifodalovchi likvidlilik va kapital yetarlilik ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir etayotganligi;
- imtiyozli kreditlar ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi natijasida moliya bozorida narx signallarining noto‘g‘ri shakllanishi, shuningdek, pul-kredit siyosatining transmission mexanizmlarining ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi;
- yuqori darajadagi dollarlashuv, shuningdek, kredit va depozitlarning yirik korxonalar va iqtisodiyotning alohida sohalarida jamlanganligi natijasida bank tizimining valyuta, kredit va likvidlilik xatarlariga bardoshliligining zaifligi;
- davlat ishtirokidagi banklar biznes-modellarining, asosan, korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilganligi, nobank

[54] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida. 12.05.2020-yildagi PF-5992-son.https://lex.uz/docs/4811025

moliya tashkilotlarining roli sustligi, shuningdek, innovatsiyalar va axborot tizimlarining yaxshi rivojlanmaganligi sababli moliyaviy ommaboplik darajasining pastligi tizimda tub islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Mazkur Strategiyani ishlab chiqish jarayonidagi Jahon banki bilan hamkorlik, xususan, islohotlar jarayonidagi asosiy tavakkalchiliklar va ularni minimallashtirishga qaratilgan choralarni ishlab chiqish maqsadida boshqa davlatlarda amalga oshirilgan bank tizimidagi islohotlarning ijobiy va salbiy tomonlarini o‘rganishga qaratildi va natijada muhim xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, bank tizimida davlat ulushining qisqartirilishi bank tizimini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Ikkinchidan, davlat ishtirokidagi banklarni xususiylashtirish jarayoni ilg‘or texnologik yechimlar va bank ishining ilg‘or tajribasi, shuningdek, yetarli moliyaviy imkoniyatlarga ega nufuzli va sifatli aksiyadorlarga yo‘l ochishi lozim.

Uchinchidan, islohotlar muvaffaqiyatining asosiy shartlaridan biri bu – banklarni qisman emas to‘liq xususiylashtirishdir.

To‘rtinchidan, davlat ishtirokidagi banklar va real sektor korxonalarini parallel ravishda isloh qilish iqtisodiy islohotlarning samaradorligida muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga davlat ishtirokidagi korxonalarni restrukturizatsiya qilish va xususiylashtirish ularning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirib, banklar faoliyatiga davlat aralashuvini keskin qisqartiradi.

Beshinchidan, islohotlar davrida davlat ishtirokidagi korxonalarning kreditlashga bo‘lgan talabini cheklab qo‘ymaslik hamda moliyaviy ommaboplikni ta’minlash uchun ayrim banklarda davlat ulushini saqlab turish maqsadga muvofiq.

Strategiya doirasida keyingi besh yillikda bank-moliya tizimini isloh qilish va rivojlantirishning to‘rtta ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Jumladan:

1. Bank tizimining samaradorligini oshirish banklarni iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sirini kuchaytiradi. Bunda:

- bank tizimiga zamonaviy yechimlarni joriy qilishga, moliyaviy va inson resurslari samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladigan moliyaviy barqaror va nufuzli investorlarni jalb qilish;

- imtiyozli va subsidiyalashgan kreditlarni qisqartirish, kreditlashni pul-kredit siyosati signallari asosida faqat bozor shartlarida amalga oshirishga o‘tish;

- kredit resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatlarini oshirish maqsadida banklarning davlat mablag‘lariga bo‘lgan qaramligini pasaytirish;

- banklarning samarali infratuzilmasini yaratish, bank faoliyatida zamonaviy texnologik yechimlarni keng joriy etish nazarda tutiladi.

2. Banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish rejalashtirilgan islohotlar muvaffaqiyatining hamda bank tizimiga ishonchni saqlab turishning asosiy omili hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda xususan:

- xalqaro standartlar va ilg‘or tajribani qo‘llagan holda banklarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish;

- kreditlashning mo‘tadil darajada o‘sishini ta’minlash va kredit portfeli sifatini yaxshilash;

- bank nazoratini va banklarda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlarini rivojlantirish, shu jumladan, riskka asoslangan nazorat tizimini tatbiq etish ishlari amalga oshiriladi.

3. Bank xizmatlari ommabopligini oshirish aholi va tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan, yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmaydigan (past daromadli jismoniy shaxslar, qishloq aholisi, mikrofirma va kichik korxonalar) qatlamning bazaviy bank xizmatlariga bo‘lgan talabini qondirishni nazarda tutadi. Moliyaviy ommaboplik:

- Jahon banki bilan hamkorlikda moliyaviy ommaboplikni oshirishning aniq yo‘nalishlari va chora-tadbirlarini belgilovchi moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

- davlat ishtirokini aholi va kichik biznes subyektlarining yetarlicha xizmat ko‘rsatilmaydigan va zaif qatlamlariga yo‘naltirish;

- mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida moliyaviy vositachilik ekotizimini rivojlantirish hisobiga ta’minlanadi.

4. Bank tizimida davlat ulushini qisqartirish tizimni tubdan isloh qilishning eng muhim komponentidir. Ushbu maqsadda:

- shaffof tanlov asosida banklardagi davlat ulushini nufuzli xorijiy investorlarga sotish;

- xususiylashtirilayotgan banklarda davlat ishtiroki va aralashuvidan to‘liq voz kechish;

- bank tizimini tranformatsiya qilish va xususiylashtirish davrida hosil bo‘ladigan iqtisodiy bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida davlat ishtirokini uchta bankda saqlab turish nazarda tutilmoqda.

Strategiya doirasida banklarning biznes modellarini o‘zgartirish orqali faoliyatlarini tijoratlashtirish va mijozga yo‘naltirilganligini oshirish, ularning korporativ boshqaruv va risk-menejment tizimlarini takomillashtirish, xizmatlar sifatini va ko‘lamini oshirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va sohaga ixtisoslashgan konsultantlarni jalb etgan holda davlat ishtirokidagi barcha banklar faoliyati transformatsiya qilinadi.

Bank tizimini isloh qilish davrida barcha aholi qatlamlarining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish, bank xizmatlarining hududiy qamrovini ta’minlash va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirish maqsadida davlat ishtiroki uchta bankda – Milliy bank, Agrobank va Mikrokreditbankda saqlab qolinadi.

Milliy bank faoliyati ustuvor ravishda strategik korxonalar va investitsion loyihalarga bozor shartlarida xizmat ko‘rsatuvchi, shuningdek, keng qamrovli bank mahsulotlarini taqdim etuvchi tizimli ahamiyatga molik bank sifatida belgilandi.

Agrobank va Mikrokreditbank filiallari tarmog‘ining hududiy qamrovini inobatga olgan holda, ularning faoliyati aholi, kichik biznes subyektlari hamda qishloq xo‘jaligidagi ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan kredit orqali qo‘llab-quvvatlashga, hududlarda, shu jumladan, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish qiyin bo‘lgan olis tumanlarda jismoniy shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish orqali barcha hududlarda bank xizmatlari ommabopligini oshirishga yo‘naltiriladi.

Ipoteka-bank, O‘zsanoatqurilishbank, Asaka bank, Aloqabank, Qishloq qurilish bank va Turonbankdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, bunda birinchi bosqichda banklar faoliyatini xalqaro moliya institutlari ko‘magida transformatsiya qilish, ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalari paketini strategik investorlarga sotish nazarda tutilgan.

Mazkur Strategiyani amalga oshirish doirasida Xalq banki va

Aziya alyans bank davlat aksiyalari paketini xorijiy strategik investorlarga sotish rejalashtirilgan.

Shunga muvofiq, Xalq bankini xususiylashtirishga tayyorlash jarayonida jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini boshqarish Moliya vazirligiga o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, O‘zagroeksportbank va Poytaxt bankning faoliyati qayta ko‘rib chiqiladi.

Bank tizimini isloh qilish va xususiylashtirishga tayyorlashda Markaziy bankning bank tizimining regulyatori sifatidagi rolini kuchaytirish orqali lozim darajadagi prudensial nazoratning amalga oshirilishi moliya tizimi barqarorligini ta’minlashning muhim komponenti hisoblanadi.

Strategiya doirasida amalga oshiriladigan islohotlar natijasida:

- davlat ulushi bo‘lmagan banklar aktivlarining bank tizimi jami aktivlaridagi ulushini joriy 16 foizdan 2025-yil yakuniga qadar 60 foizgacha oshirish;
- banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlarining umumiy majburiyatlardagi ulushini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish;
- davlat ulushiga ega kamida uchta bank kapitaliga 2025-yilga qadar yetarli tajriba, bilim va obro‘ga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish;
- umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlarining ulushini joriy 0,35 foizdan 2025-yil yakuniga qadar 4 foizgacha oshirish;
- banklar depozitlarining majburiyatlariga nisbatini joriy 41 foizdan 2025-yil yakuniga qadar 50 foizga oshirish;
- banklarning xorijiy valyutadagi majburiyatlarining jami majburiyatlardagi ulushini joriy 58 foizdan 2025-yil yakuniga qadar 40 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan.

Mamlakat bank-moliya sektori rivojlanish darajasi va barqarorligini baholash maqsadida 2024-yilning yakuniga qadar Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon bankining dasturi (FSAP) asosida moliyaviy sektor holatini baholash nazarda tutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan “2021-2023-yillarga mo‘ljallangan Moliyaviy xizmatlar

ommabopligini oshirish milliy strategiyasi”[55] tasdiqlangan. Ushbu hujjat Xalqaro moliya korporatsiyasining mamlakatda moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ommaboplik darajasini kompleks hamda xolisona baholash maqsadida aholi bilan o‘tkazgan so‘rovnomasi natijalarini inobatga olgan holda Jahon banki ekspertlari ko‘magida tayyorlangan.

Undan ko‘zlangan asosiy maqsad, aholining barcha qatlamlari, shu jumladan, yetarli darajada moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olinmagan kam daromadga ega, qishloqlarda istiqomat qilayotgan fuqarolar hamda kichik biznes subyektlari uchun sifatli moliyaviy mahsulot va xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan dinamik, innovatsion va inklyuziv moliya tizimini yaratishdan iborat.

Milliy strategiya doirasida kelgusi yillarda banklarning xizmat ko‘rsatish nuqtalarini kengaytirish, bank xizmatlarini yetkazishning muqobil yo‘llarini joriy etish va bank agentlari tarmog‘ini yaratish orqali bazaviy moliyaviy xizmatlar qamrovini oshirish, bozorga yangi fintex kompaniyalarning kirib kelishiga qulay shart-sharoitlar yaratish, masofadan identifikatsiya qilish tizimini yo‘lga qo‘yish belgilangan. Shu bilan birga, milliy to‘lov tizimini modernizatsiya qilish orqali raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish, tadbirkorlar loyihalarini moliyalashtirishga mo‘ljallangan turli moliyaviy vositalarni rivojlantirish va nobank kredit tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish orqali kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishni kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, moliyaviy mahsulot va xizmatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, shikoyatlar va nizolarni hal qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish orqali moliyaviy xizmatlar iste’molchilari huquqlarining himoyasini kuchaytirish belgilangan. Qolaversa, OAV orqali aholining moliyaviy xizmatlardan xabardorligini oshirish, umumta’lim muassasalarida va noiqtisodiy yo‘nalishdagi ta’lim muassasalarida “Moliyaviy savodxonlik” o‘quv dasturini joriy etish, shuningdek, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish orqali aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligi oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi tasdiqlandi.

[55] https://cbu.uz/oz/about/open-activity/work-plan/542768/

Strategiya Xalqaro Mehnat Tashkilotining “Minimal ijtimoiy himoya darajalari to‘g‘risida”gi 202-son tavsiyasiga muvofiq barcha fuqarolar uchun minimal ijtimoiy himoya darajasini kafolatlash tizimini yaratishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy himoya strategiyasi ushbu sohadagi to‘rt yo‘nalishni qamrab olgan. Xususan, Strategiyada ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy yordam va bandlikka ko‘maklashish dasturlarida amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan o‘zgarishlar belgilab berilgan. Shuningdek, beshinchi yo‘nalish sifatida sohadagi vazirlik va idoralarning mas’uliyat va vazifalarini qayta ko‘rib chiqishga oid bob qo‘shilgan.

Birinchi yo‘nalish bo‘yicha, ya’ni ijtimoiy xizmatlar sohasida, amalga oshiriladigan chora bu ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasiga tushirishdir.

Ikkinchi yo‘nalish, ya’ni ijtimoiy sug‘urta tizimini isloh qilish sohasida, shu yilning avgust oyida Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi shakllantirilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu jamg‘armaga mablag‘lar Davlat budjetidan ajratiladi. Keyinchalik esa Moliya vazirligining hisob-kitoblariga asosan, Jamg‘armaning qo‘shimcha manbalari aniqlanadi.

Uchinchi yo‘nalish bo‘yicha, ya’ni ijtimoiy yordam sohasida kam ta’minlangan oilalarga to‘lab kelinayotgan bolalar nafaqasini ijtimoiy shartnoma tuzish orqali to‘lash tizimi yo‘lga qo‘yilishi ko‘zda tutilgan.

To‘rtinchi yo‘nalish, ya’ni bandlikka ko‘maklashish sohasida, asosiy maqsad aholini doimiy daromad manbai bilan ta’minlashga qaratiladi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Moliyaviy siyosatni **ta’sir obyektlari, hududiy jihatlari vaqt omiliga** ko‘ra tasniflash mumkin.

Hududiy mezonga ko‘ra, **umumdavlat, hududiy va mahalliy moliyaviy siyosat turlari** ajratib ko‘rsatiladi. Boshqaruvning har bir darajasida moliyaviy siyosatni ishlab chiqish umumiy tarzda davlatni ham va shuningdek, hududiy va ma’muriy tuzilmalarni rivojlantirish borasida moliyaviy asos yaratishga imkon beradi.

Vaqt mezoniga koʻra moliyaviy siyosat **moliyaviy strategiya va moliyaviy taktikaga** boʻlinadi.

Moliyaviy strategiya butun jamiyat rivojiga ta'sir koʻrsatadigan, amalga oshirilishi har doim uzoq muddatli tavsifga ega boʻlgan moliyaviy siyosatning keng koʻlamli maqsadlari va vazifalarini oʻz ichiga oladi. Hozirgi vaqtda moliyaviy strategiya soliq islohoti, budjet islohoti, davlat qarzlarini boshqarish sohasidagi siyosat, pensiya islohoti, ta'lim islohoti va boshqa ijtimoiy sohalarni oʻz ichiga oladi.

Moliyaviy taktika iqtisodiy rivojlanishning ma'lum bir bosqichiga taalluqli va ma'lum bir moliyaviy davrda amalga oshirilishi kerak boʻlgan moliyaviy siyosatning vazifalari va faoliyatini birlashtiradi. Qoʻshilgan qiymat soligʻi stavkasini pasaytirish, davlat ijro hokimiyati organlarining budjet jarayonidagi vazifalarini tartibga solish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan qatlamlariga manzilli ijtimoiy nafaqalar va kafolatlarni joriy etish moliyaviy taktikaga misol boʻla oladi.

Ta'sir obyektlariga qarab, **tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish** sohasidagi moliyaviy siyosat va **davlat, hududiy tuzilmalar moliyasi sohasidagi** moliyaviy siyosat farqlanadi. Davlat moliyasining bir qismi sifatida **budjet siyosati va ijtimoiy sugʻurtasi sohasidagi** davlatning siyosatini ajratib koʻrsatish mumkin.

Davlatning budjet siyosati moliyaviy siyosatning asosiy tarkibiy qismidir, chunki u budjetlarning daromad bazasini shakllantirishda, budjet xarajatlari jarayonida, budjetlararo munosabatlarni tashkil etishda moliyaviy munosabatlarni tashkil etish shartlari va tamoyillarini belgilaydi.

Budjet siyosati davlat tomonidan markazlashtirilgan moliyaviy resurslarning hajmi va nisbatlariga bevosita ta'sir qiladi va nafaqat budjet xarajatlarining joriy tuzilishini, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun budjet mablagʻlaridan foydalanish istiqbollarini ham belgilaydi. Bundan tashqari, budjet siyosati soliq siyosatini, davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda, ustuvor tarmoqlar va faoliyatga nisbatan budjet siyosatini ishlab chiqishda: tadbirkorlik subyektlari va davlat oʻrtasidagi moliyaviy munosabatlarni yoʻlga qoʻyishning tartibini belgilab beradi.

Davlat ijtimoiy siyosatining maqsad va vazifalarini ishlab chiqishda davlat ijtimoiy sug‘urtasi sohasida boshqaruvning bozor sharoitlariga mos tamoyillar asosida siyosat ishlab chiqishga muhim o‘rin beriladi. Shu bilan birga, davlat tadbirkorlik subyektlarining uni amalga oshirishda ishtirok etishining mumkin bo‘lgan darajasini baholaydi, aholiga ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirish uchun o‘zining moliyaviy imkoniyatlarini baholaydi, hozirgi sharoitdan kelib chiqqan holda, davlat ijtimoiy sug‘urtasini rivojlantirish yo‘nalishlarini, mablag‘larni jalb qilish usullarini va budjetdan tashqari ijtimoiy fondlarni davlat ijtimoiy sug‘urtasiga sarflash shakllarini belgilaydi.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi sohasidagi siyosat aholining mehnat qobiliyatiga ta’sir qiluvchi salbiy omillarning ta’sirini yumshatish, xavfsiz yashash va mehnat sharoitlarini yaratishni rag‘batlantirish, millat sog‘lig‘ini yaxshilash va bozorning ijtimoiy muhofazaga aholi qatlamlariga salbiy ta’sirini yumshatish imkonini beradi.

Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish sohasidagi moliyaviy siyosat davlatning amortizatsiya siyosati, ustuvor faoliyatni rivojlantirish, davlatning iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga muvofiq tadbirkorlik subyektlarining tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish sohasidagi asosiy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy siyosatning maqsad va vazifalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida uning samaradorligiga quyidagi omillar (tamoyillar) ta’sir ko‘rsatadi:

- davlatning iqtisodiy rivojlanish shartlariga, iqtisodiy sikl bosqichiga va moliya fanining qoidalariga javob berishi kerak bo‘lgan moliyaviy siyosat konsepsiyasini ishlab chiqish borasidagi ilmiy yondashish, ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish;
- kelajak va joriy davr uchun moliyadan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlashda va moliyadan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirishning aniq usullarini ishlab chiqishda taklif qilingan chora-tadbirlarni amalga oshirishning mumkin bo‘lgan oqibatlarini prognoz qilish. Mamlakat rivojlanishining moliyaviy masalalari bo‘yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar va kelgusi qarorlarning amal qilish muddati nafaqat moliyaviy siyosatning maqsad va vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha davlat xara-

jatlarining umumiy qiymatini aniqlashga, balki ularning moliyaviy oqibatlarini baholashga imkon beradigan tegishli hisob-kitoblar bilan qoʻllab-quvvatlanishi lozim;

- moliyaviy siyosatning ijobiy natijalarini va davlat iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin boʻlgan salbiy oqibatlarini aniqlash uchun oʻtgan davrda moliyaviy siyosatni amalga oshirish jarayonida toʻplangan tajribani hisobga olish;
- natijalarga yoʻnaltirilgan moliyaviy siyosatni amalga oshirishni nazarda tutuvchi moliyaviy siyosat samaradorligini baholash uchun asos boʻlib xizmat qilishi lozim boʻlgan makroiqtisodiy koʻrsatkichlarni aniq belgilab olish;
- budjetlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning samaradorligiga bevosita ta'sir koʻrsatadigan milliy va geografik xususiyatlarni hisobga olish va mintaqaviy va munitsipal darajada budjet xarajatlari sohasidagi siyosatning ustuvor yoʻnalishlarini tanlash;
- budjet siyosatining maqsad va vazifalarini, davlat ijtimoiy sugʻurtasi sohasidagi siyosatni, tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish sohasidagi moliyaviy siyosatni, ularning munosabatlarini muvofiqlashtirishni oʻz ichiga olgan moliyaviy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga kompleks yondashuv. Shu bilan birga, moliyaviy siyosatning barcha tarkibiy unsurlari iqtisodiy rivojlanishning umumiy maqsadiga erishishga yoʻnaltirilgan boʻlishi va moliyaviy siyosatning oʻzi davlat iqtisodiy siyosatining boshqa tarkibiy qismlari – pul-kredit siyosati, narx siyosati, sugʻurta siyosati, davlatning valyuta siyosati bilan muvofiqlashtirilishi va oʻzaro bogʻliq boʻlishi lozim;
- iqtisodiyotning amalda faoliyat koʻrsatishi sharoitida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan oʻzgarishlarni hisobga olgan holda amalga oshiriluvchi moliyaviy siyosatning koʻp qirraliligi. Zamonaviy sharoitda moliyaviy prognozlash va oʻrta muddatli moliyaviy rejalashtirishni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda, ular ilmiy bashorat qilish, variantlarni tahlil qilish, moliyaviy siyosatni ishlab chiqishda qoʻshimcha ma'lumot olish vositasi sifatida qaraladi;
- iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini belgilaydigan davlatning ichki holati va xalqaro pozitsiyalarini hisobga olish. Davlatning moliyaviy siyosati jahon bozorlaridagi raqobatga asoslanadi, oʻz

ishlab chiqaruvchilari va eksportchilarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi, chet eldagi milliy kompaniyalar manfaatlari himoya qilinadi va davlat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati ta’minlanadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Moliyaviy siyosatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi o‘rni nimada ko‘rinadi?
2. Moliyaviy siyosatning asosiy ko‘rinishlari haqida gapirib bering.
3. Davlatning budjet siyosati haqida gapirib bering.
4. Davlat ijtimoiy siyosatining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi sohasidagi siyosat haqida gapirib bering.

Fuqaroga jamiyatda hayotga mos keladigan to‘la erkinlikni bera oluvchi yagona narsa – bu bozor iqtisodiyotidir.

Lyudvig fon Mizes

VII BOB. IQTISODIYOTDA MONOPOLIZMGA QARSHI SIYOSAT VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH

7.1. Raqobatning mohiyati, vazifalari, shakl va usullari

7.2. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotda monopolistik faoliyatni tartibga solish maqsadlari va yo‘nalishlari

7.3. Monopoliyaga qarshi kompleans nazoratini tashkil qilish

7.1. Raqobatning mohiyati, vazifalari, shakl va usullari

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman, tovar xo‘jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. *Raqobat* – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq nafga ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) tartibga solish vazifasi;
2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
3) innovatsion vazifa;
4) moslashtirish vazifasi;
5) taqsimlash vazifasi;
6) nazorat qilish vazifasi.

Raqobatning *tartibga solish vazifasi* ishlab chiqarishni talab (iste’mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta’sir o‘tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya’ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning *resurslarni joylashtirish vazifasi* ishlab chiqarish omillarini ular eng ko‘p samara beradigan korxona, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning *innovatsion vazifasi* fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti subyektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli koʻrinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning *moslashtirish vazifasi* korxona (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yoʻnaltirilgan boʻlib, ularning shunchaki oʻzini oʻzi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xoʻjalik faoliyati sohalarining ekspansiyasi (kengayishi)ga oʻtishini bildiradi.

Raqobatning *taqsimlash vazifasi* ishlab chiqarilgan neʼmatlar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot)ning isteʼmolchilar oʻrtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita taʼsir oʻtkazadi.

Nihoyat, raqobatning *nazorat qilish vazifasi* bozordagi baʼzi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik oʻrnatishiga yoʻl qoʻymaslikka yoʻnaltiriladi.

Oʻz miqyosiga koʻra, raqobat ikki turga – tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga boʻlinadi. Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish va sotishning qulay sharoitiga ega boʻlish, qoʻshimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari oʻrtasida boradi. Tarmoq ichidagi raqobat natijasida texnika darajasi va mehnat unumdorligi yuqori boʻlgan korxonalar qoʻshimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yoʻqotadilar va zarar koʻradilar.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoq korxonalari oʻrtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat kapitalning foyda normasi kam boʻlgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga oqib oʻtishiga sabab boʻladi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa kiritilmasin, xuddi shu tarmoq foyda meʼyorlarini oʻrtacha foyda normasiga “baravarlashtiradi”.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning toʻrtta shakli alohida ajratib koʻrsatiladi. Bular: sof raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyadir.

Sof raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda koʻp sonli korxonalar mavjud boʻladi. Ayni paytda, ushbu mahsulot xaridor va isteʼmolchilarining soni ham juda koʻp boʻladi.

Sof raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan nazorat oʻrnata olmaydi yoki nazorat sezilarsiz darajada boʻladi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat boʻlganligi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi. Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi.

Monopolistik raqobat oʻz ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning oʻnlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi oʻz mahsulotini tabaqalashtirish, ya'ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va hokazo.) boʻyicha farqlash orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar koʻp boʻlmagan korxonalarning mavjud boʻlishi va hukmronlik qilishidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda gʻirrom va halol raqobatlashuv usullari ham ajratib koʻrsatiladi. Raqobatlashuvning noan'anaviy, jamiyat tomonidan e'tirof etilmagan, ijtimoiy axloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya'ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obroʻsiga putur yetkazish va hokazo.) usullaridan foydalanish *gʻirrom raqobat* deb yuritiladi.

Halol raqobat – raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingan iqtisodiy usullarni qoʻllash, oʻzining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qoʻllamaslik kabi qoidalarga asoslanadi.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat. Narx vositasida raqobatlashuv kurashning asosiy usuli boʻlib, ishlab chiqaruvchilarning oʻz tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Narxsiz raqobatda kurashning asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat koʻrsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obroʻ-e'tibori hisoblanadi.

Davlat bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning asoslaridan biri boʻlgan raqobat mexanizmining toʻliq ishlashi uchun hamda aholini ma'lum darajada ijtimoiy himoyalash maqsadida iqtisodiy monopolizmga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Ma'lumki, sobiq sotsialistik mamlakatlarda, shu jumladan, sobiq sovet ittifoqida davlat mulkining yakkahokimligi, rejali xoʻjalik yuritish tizimining amal qilishi oqibatida iqtisodiy raqobat uchun sharoit boʻlmadi. Tadbirkorlik va tanlash erkinligi ham mavjud emasdi. Shu boisdan Oʻzbekistonda bozor iqtisodiyotiga oʻtish uchun raqobatchilikni tiklash lozim boʻladi. Buning uchun davlat mulkini uning ixtiyoridan chiqarish va xususiylashtirishning oʻzi kifoya qilmaydi. Chunki yangidan tashkil topadigan aksionerlik jamiyatlari, konsern, uyushmalar, xususiy firmalar yana iqtisodiy yakkahokim boʻlib qolishlari mumkin. Shu boisdan rivojlangan mamlakatlarda toʻplangan yakkahokimlikka qarshi kurash tajribalari asosida antimonopol siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Dastlabki monopolizmga qarshi qonun 1890-yilda (trestlarga qarshi Sherman qonuni) AQShda qabul qilingan. Hozirgi davrda ana shunga oʻxshash qonunlar deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan boʻlib, mazkur qonunchilik asosan uch yoʻnalishga ega.

Birinchidan, har qanday yirik firma, korporatsiya mahsulot ishlab chiqarishning 40-50 foizdan ortigʻini oʻz qoʻlida toʻplamasligi zarur.

Ikkinchidan, barcha yirik korxonalar jismoniy va yuridik shaxslar uchun oʻzining va boshqa hissadorlik jamiyatlari aksiyalarining toʻplanadigan ulushlari miqdori cheklab qoʻyiladi.

Uchinchidan, bozor baholarini talab va taklif nisbatini inobatga olmay, oʻzaro kelishib belgilash va ushlab turishga qaratilgan kelishuvlar, bozorlarni oʻzaro taqsimlab olishlar man qilinadi.

Monopoliyaga qarshi qonunchilikni tatbiq etish uchun maxsus ma'muriy muassasalar, qoʻmitalar tuziladi. Ular korxonalarning tuzilishiga, qimmatbaho qogʻozlarning taqsimlanishiga aralashadilar va barcha uchun majburiy qaror ishlab chiqaradi. Bunda Yaponiya tajribasi qoʻl kelishi mumkin. Yaponiyada Ikkinchi jahon urushidan keyin yakkahokim monopoliyalarni man qiluvchi qonunga amal qilishni nazorat qiluvchi odilona kelishuvlar yuzasidan tashkil

topgan qo‘mita keng vakolatlarga ega bo‘lib, mazkur qo‘mita mustaqil ravishda ish yuritadi. Agar amaldagi qonunchilikning buzilishini qo‘mita aniqlasa va bu holat sud tomonidan tasdiqlansa, uni buzgan firmaga juda katta jarima solinadi. Qo‘mita o‘zaro raqobat qiluvchi korporatsiyalarning bir-birlari bilan kartel shartnomalari tuzishlarini man qiladi. Agarda ana shunday shartnomalar iqtisodiy zarurat sifatida tuzilsa, qisqa muddatli bo‘lishi nazorat qilinadi.

Monopoliyaga qarshi davlat organlarining monopolistik faoliyatni cheklash va tartibga solishga qaratilgan faoliyat yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- monopoliyadan chiqarish bo‘yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni nazorat qilish;
- bozorda ma’lum tovar bo‘yicha 35% dan ortiq ulushga ega bo‘lgan va reestrga kiritilgan xo‘jalik subyektlarining bozordagi xatti-harakatini nazorat qilish;
- tovar bozorlarida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik subyektlarining monopolistik faoliyatining oldini olish va unga barham berish;
- tovar bozorlariga kirish to‘siqlarini, shuningdek, xalqaro savdo va investitsiyalar uchun tarifli va tarifsiz to‘siqlarni kamaytirish bo‘yicha harakatlarni amalga oshirish;
- xo‘jalik subyektlarini bo‘lib yuborish yoki ushbu tovar bozoriga kirishni istagan yangi xo‘jalik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash yo‘li bilan monopolistik tovar bozorida xo‘jalik subyektlari sonini ko‘paytirish;
- xo‘jalik subyektlarining qo‘shilishiga va yuridik shaxslarning uyushmalar tashkil etishlarini man qilish;
- g‘irrom, nohalol raqobatning oldini olish;
- tovar bozorlarida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik subyektlarining bozor salohiyatini(salohiyatini) cheklash.

Buyuk Britaniya va Fransiyada korxonalarning qo‘shilishi natijasida tashkil topgan yangi korxonaning bozor ulushi 25% dan, aktivlar hajmi ham ma’lum miqdordan oshmasligi kerakligi belgilab qo‘yilgan[56].

Germaniyada bundan tashqari yillik sotish hajmining quyi chegarasi ham belgilab qo‘yiladi. AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliyada

[56] https://www.winheller.com/ru/business-law/corporate-law/ma.html

qo‘shilish to‘g‘risidagi shartnomalar davlatning tegishli organlari ruxsatisiz tuzilgan taqdirda noqonuniy hisoblanadi. Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyada aktivlari qiymati va sotish hajmi bo‘yicha yirik firmalarning qo‘shilishigina nazorat qilinadi[57].

Kartellar AQSh, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Portugaliya, Avstraliya, Kanadada to‘liq man qilingan. Bu haqdagi keluv qonunning buzilishi holati deb hisoblanadi. Kelishuv to‘g‘risidagi ma’lumot tasdiqlansa, monopol foyda miqdoridan 3 barobar ko‘p miqdorda jarimaga tortiladi. AQShda yashirin kartelda ishtirok etish javobgarlikka tortiladigan jinoyat hisoblanadi. Ta’minot va sotish faoliyati bo‘yicha firmalarning birlashishi tannarxni pasaytirishga imkon bersa ham noqonuniy faoliyat deb baholanadi.

7.2. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotda monopolistik faoliyatni tartibga solish maqsadlari va yo‘nalishlari

Tovarlar va xizmatlar bozoridagi monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish vazifalarini hal etish uchun ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Adolatli raqobat muhitini ta’minlash va monopolistik faoliyatni cheklash – erkin bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyil va tamal toshlaridan biri sanaladi. O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 14-noyabrdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunida raqobat tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Raqobat – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo‘lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6019-sonli Farmoni[58]da belgilab berilganidek, tovar va moliya bozorlarida monopoliyani bosqichma-bosqich

[57] https://iqdecision.com/rezhim-kontrolya-za-sliyaniyami-v-es/
[58] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-6019-sonli Farmoni, https://lex.uz/ru/docs/-4887654

kamaytirish orqali samarali raqobat muhitini yaratish maqsadida mamlakatimizda iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish, narxni ortiqcha tartibga solishdan voz kechish va davlatning iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyati sohasida 86 ta ayrim litsenziyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartib-tamoyillari, shu jumladan, 38 ta turini 16 taga birlashtirish, 25 ta turi bo'yicha rasmiylashtirish muddatlarini qisqartirish orqali bekor qilindi va soliq yuki kamaytirildi.

Keyingi yillarda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladigan ko'plab oziq-ovqat (alkogolsiz ichimliklar, sharbatlar, non, non mahsulotlari, go'sht va sut mahsulotlari, qandolatchilik mahsulotlari va boshqalar) hamda ayrim nooziq-ovqat tovarlar (mebel, gilam va gilam mahsulotlari, to'qimachilik va boshqalar) bozorlarida raqobatning rivojlanishini ta'minladi. Qurilish materiallari, kabel va sim mahsulotlari, pul o'tkazmalari xizmatlari bozorida yirik kompaniyalarning monopoliyasi tugatildi.

Yaratilgan birja mexanizmi bozor ishtirokchilarini yuqori likvidli va monopol turdagi xomashyo va materiallar bilan bir xilda ta'minlash imkonini berdi. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida so'nggi yillarda monopol korxonalar soni ikki baravardan ortiqqa kamaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "tovar va moliya bozorlarida erkin raqobat muhitini shakllantirish hamda tadbirkorlarga xomashyo sotib olish uchun teng imkoniyatlar yaratish zarur. Hozirgi kunda elektr energiyasi, gaz, qimmatbaho metallar, mineral o'g'itlar, transport xizmatlari kabi yo'nalishlarda monopol bozorlar mavjud bo'lib, ularda ko'plab muammolar saqlanib qolmoqda"[59].

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan 2020-yilda tovarlar va moliya bozorlarida o'tkazilgan 85 ta raqobat diagnostikasi natijalariga ko'ra, 15 ta monopollashgan bozorlar, 42 ta raqobatni cheklovchi eksklyuziv huquqlar, 4300 ta davlat ishtirokidagi va ularning nazoratidagi korxonalar hamda 40 turdagi tovarlar bilan ichki bozorlar to'yinmaganligi aniqlangan.

[59] https://president.uz/uz/lists/view/4057

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tovarlar va moliya bozorlarida o‘tkazilgan diagnostika natijalari asosida monopolistik faoliyatni cheklash va adolatli raqobatni ta’minlash choralarini amalga oshiradi.

Bugungi kunda 95 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlar tovarlar va moliya bozorlarida ustun mavqega ega bo‘lib. Bu holat adolatli raqobat muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, tovar va moliya bozorlarida ustun mavqega ega xo‘jalik yurituvchi subyektlarning 42,5 foizi 45 ta tovarlar turi bo‘yicha, 57,5 foiz foizi esa 61 ta xizmatlar turi bo‘yicha ustun mavqeni qo‘lga kiritgan. Tahlillarga ko‘ra, tovar va moliya bozorlarida ustun mavqega ega xo‘jalik yurituvchi subyektlarning 85,2 foizini davlat ishtirokiga ega korxonalar tashkil etadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, mamlakat iqtisodiyotidagi raqobat muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan quyidagi tizimli muammolar hal etilmagan:

- iqtisodiyotda davlatning haddan ziyod yuqori ishtiroki;
- narxlarning haddan ortiq tartibga solinishi;
- imtiyoz va preferensiyalarning samarasiz tizimi;
- biznes subyektlariga yuqori tartibga solish yuki va tarmoq tartibga soluvchi organlarning raqobatni rivojlantirishdan manfaatdor emasligi;
- tabiiy monopoliya holatini suiiste’mol qilish;
- raqobatga qarshi holatlarga qarshi kurashish huquqiy mexanizmlarning takomillashmaganligi.

1. Davlatning iqtisodiyotdagi haddan ziyod yuqori ishtiroki.

Bugungi kunda tovar va moliya bozorlarida davlat ishtirokidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar ustun mavqega ega bo‘lib qolmoqda, masalan, monopol tashkilotlarning 80 foizi davlat ulushiga ega yoki davlat ulushiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan nazorat qilinadi.

Davlat ishtirokidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar raqobat holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan davlat unitar korxonalari (DUK) va sho‘ba korxonalar ko‘rinishida o‘zlarining nazorati ostidagi tuzilmalar tashkil etmoqda. Bugungi kunda bunday korxonalar soni

4300 tadan ortiqni tashkil etmoqda, shu jumladan, aksiyadorlik va mas'uliyati cheklangan jamiyatlari shaklida – 1300 tadan ortiq, davlat unitar korxonasi shaklida – 1800 tadan ortiq va ularning affillangan shaxslari – 1100 tadan ortiq.

Bozor muhitining rivojlanmaganligi va davlatning iqtisodiyotdagi haddan ziyod yuqori ishtiroki davlat ishtirokidagi alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samarasizligiga olib kelmoqda, bu esa "o'zaro kesishuvchi" subsidiyalash, soliq va bojxona imtiyozlari, preferensiyalar, imtiyozli kreditlar taqdim etish ko'rinishidagi davlat ko'magi orqali qoplanmoqda.

Moliya va kapital bozorlarida (birja, markaziy depozitariy, banklar) davlatning ishtiroki va uning vakolatlarining yuqori konsentratsiyasi saqlanib qolmoqda, bu esa manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarmoqda va bozor mexanizmlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Masalan, fond birjasidagi qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha hisob-kitob xizmati davlatga tegishli "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJning monopoliyasi o'rnatilgan. Umuman olganda, bank sektorining 83 foizi davlat ishtirokida faoliyat ko'rsatmoqda.

2. Narxlarning haddan ortiq tartibga solinishi. Bugungi kunda davlat tomonidan narxlarni tartibga solish (deklaratsiya qilish, tasdiqlash, qat'iy belgilangan yoki cheklangan narxlarni (tariflarni), tartibga solish koeffitsientini, ustama va rentabellikning chegaralangan darajasini o'rnatish va narxni tartibga solishning boshqa usullari) 30 dan ortiq tovar va xizmatlarga nisbatan amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, tabiiy monopoliyalar sohasida 10 xil turdagi tovar (ish, xizmat)lar tartibga solinishiga qaramasdan, amalda iste'molchilar va yetkazib beruvchilar toifalari, shuningdek, hududiy tamoyilga qarab o'rnatiladigan 137 xildagi narx darajalari orqali tartibga solinmoqda.

Monopol korxonalar va tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan foydalanilayotgan xarajatlarga asoslangan narxlarni shakllantirish usuli xarajatlarga minimal foydani qo'shish sxemasidan iborat bo'lib, u xarajatlarning asossiz o'sishiga undaydi, ishlab chiqarish tannarxining pasayishini rag'batlantirmaydi, xarajatlarning o'sishi

esa narxlar va tariflarning iste'molchilar uchun to'g'ridan-to'g'ri oshirish hisobiga qoplanadi.

3. Imtiyoz va preferensiyalar taqdim etishning samarasizligi.

Davlat ko'magini ko'rsatishning monopoliyaga qarshi tartibga solish vositalari mavjud emasligi berilayotgan imtiyoz va preferensiyalarning samarasizligiga olib kelmoqda va raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda 40 mingdan ziyod xo'jalik yurituvchi subyektlarga, ya'ni faoliyat yuritayotgan subyektlar umumiy sonining 12 foiziga soliq imtiyozlari berilgan. Bunday vaziyat tovar va moliya bozorlarida teng bo'lmagan sharoitlarni vujudga keltiradi.

4. Biznes subyektlariga tartibga solish yukining yuqoriligi va tarmoqni tartibga soluvchi organlarning o'z sohasida raqobatni rivojlantirishdan manfaatdor emasligi. Vazirlik va idoralarning o'zlari tomonidan tartibga solinadigan tarmoqlarda raqobatni rivojlantirish bo'yicha faoliyati sustligicha qolmoqda. Iqtisodiyot sohasida mavjud 38 ta davlat organidan faqatgina 11 tasiga o'z sohasida raqobatni rivojlantirish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri funksiyalar yuklatilgan.

Qonun hujjatlarining tartibga solish ta'sirini va raqobat muhitiga ta'sirini baholashning to'laqonli tizimi tatbiq etilmagan.

Buning natijasida, amaldagi 61 ga yaqin litsenziyalar doirasida 266 tadan ortiq faoliyat turining litsenziyalanishi hamda 137 turdan ortiq ruxsat berish tartib tamoyillarini nazarda tutuvchi qiyin va murakkab litsenziyalash tizimi, shuningdek, biznesga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi 6 mingdan ortiq normativ-huquqiy hujjat va 40 mingta texnik jihatdan tartibga soluvchi hujjatlarda tadbirkorlik subyektlarining bozorlarga kirishi uchun sun'iy to'siqlar saqlanib qolmoqda.

Qonun hujjatlarida tadbirkorlik va investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligining barcha asosiy kafolatlari mustahkamlangan bo'lsa-da, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi yillarda O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning sof oqimi ko'rsatkichi pastligicha qolib YIMga nisbatan 0,5-1,2 foizni tashkil etmoqda, Iqtisodiy erkinlik indeksida mamlakatimiz 180 ta davlat orasida 114-o'rinni egallamoqda, Investitsiya faoliyatini erkinlik indikatori bo'yicha ko'rsatkich 100 dan 20 ga teng bo'lmoqda.

5. Tabiiy monopoliya holatini suiste'mol qilish. Cheklangan raqobat muhitiga ega bo'lgan bozorlarning, birinchi navbatda, tabiiy monopoliyalar sohalarining mavjudligi, o'zaro bog'liq bo'lgan bozorlarga ta'sir qilib, aksariyat hollarda, ularni monopollashtiradi.

Tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlari, tabiiy monopoliya subyektlariga tabiiy monopoliya sohasiga kiritilmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorlaridagi raqobatni cheklash uchun o'z mavqeidan foydalanishni man etilganligiga qaramasdan, bugungi kunda bir qator o'zaro bog'liq raqobat ta'minlash imkoniyati mavjud bo'lgan bozorlar, misol uchun, temir yo'llari transporti sohasida - temir yo'llari chiptalarini sotish, yuk vagonlarini ta'mirlash, vagon-restoranlar xizmatlari, vagonlarni tozalash va boshqa bozorlar amalda monopollashtirilgan.

6. Raqobatga qarshi harakatlarga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlari takomillashmaganligi. Bozorga kirish uchun to'siqlarni bartaraf etishda, yirik korxonalar monopoliyasiga va "kartel" kelishuvlarga qarshi kurashishda, insofsiz raqobatning oldini olishda ta'sirchan mexanizmlar mavjud emas va amalda monopoliyaga qarshi organning qarorlar qabul qilishda mustaqilligi cheklangan.

Raqobatni cheklashga yo'l qo'ymaslik bo'yicha preventiv va oldini oluvchi choralar tizimi shakllanmagan, yirik korxonalarni qo'shib yuborish va qo'shib olish bo'yicha bitimlar ustidan tahlil o'tkazish va samarali monopoliyaga qarshi nazoratni amalga oshirish mexanizmi o'rnatilmagan, savdolar jarayonida raqobatni cheklashni oldini olishning huquqiy mexanizmlari samarasizligicha qolmoqda, monopoliyaga qarshi organ faoliyati samaradorligining eng muhim ko'rsatkichlari ishlab chiqilmagan.

Tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun teng sharoitlarni yaratish, oshkoralikni ta'minlash va davlat xaridi tartib-taomillarini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-sonli Farmoni bilan "2020-2024-yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish Strategiyasi" tasdiqlangan[60].

[60]https://uzreport.news/politics/2020-2024-yillarda-tovar-va-moliya-bozorlarida-raqobatni-rivojlantirish-strategiyasi-tasdi

Strategiyaning asosiy maqsadi samarali faoliyat yuritadigan bozorlarni va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish hisobiga iqtisodiy o‘sishni va innovatsiyalarni rag‘batlantirish, investitsiyalar oqimini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish hisoblanadi.

Strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

– raqobatni himoya qilish va rivojlantirish tizimini transformatsiya qilish;

– shaffoflik va kirish uchun teng sharoitlarni ta’minlagan holda samarali faoliyat yuritadigan bozorlarni yaratish;

– tadbirkorlik subyektlarining ma’muriy yukini va xarajatlarini, iqtisodiyotda davlatning ishtiroki darajasini kamaytirish, shuningdek, davlat ko‘magi taqdim etilishini tartibga solish;

– narxlarni (tariflarni) davlat tomonidan oqilona tartibga solish tizimini yaratish;

– tabiiy monopoliyalar sohalarining raqobat mavjud bozor holatiga o‘tishi uchun to‘siqlarni bartaraf etish;

– raqobat cheklanishini oldini oluvchi vositalarni joriy etish;

– raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablari buzilishiga nisbatan, birinchi navbatda, “kartel” kelishuvlar va til biriktirishlarga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini kuchaytirish;

– raqamli iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi tartibga solishning samarali vositalarini joriy etish;

– monopoliyaga qarshi organ faoliyatining shaffofligini va samaradorligini ta’minlash, jamiyatda raqobat madaniyatini va raqobatga qarshi harakatlarning har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasizlikni shakllantirish va boshqalar.

“2020-2024-yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish Strategiyasi”da raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ulushini qisqartirish bo‘yicha quyidagi yangi mexanizmlar ko‘zda tutilgan:

1. “Sariq sahifalar tamoyili” – agar bozorda 5 tadan ortiq xususiy korxonalar mavjud bo‘lsa, bu bozorda davlat ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish taqiqlanadi.

2. Litsenziyalash, ro‘yxatga olish, akkreditatsiyadan o‘tkazish va ruxsat berish vakolati berilgan sohalarda davlat organlari, monopoliyalar va yagona yetkazib beruvchilar tomonidan dav-

lat ishtirokidagi korxonalarni ta'sis etishga cheklovlar kiritildi.

3. "Tartibga solish gilotinasi" – tadbirkorlik faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan normativ-huquqiy va texnik jihatdan tartibga solish hujjatlarni qisqartirish belgilangan.

4. Davlat organlari va monopoliyalarda faoliyatning raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash va buzilishini oldini olish bo'yicha "Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi"ni joriy etish belgilandi.

5. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq barcha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishida raqobat muhitiga ta'sirini majburiy baholash o'tkazilishi belgilandi. Birgina 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan 753 ta normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari o'rganilib, ularning 37 foizi yoki 334 tasida raqobatga zid normalar mavjudligi aniqlangan.

6. Davlat buyurtmachisi, strategik ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik jamiyati va korxonasi bilan manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt davlat xaridlarini yoki eng yaxshi takliflarni tanlab olishning yoxud to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar ishtirokchisi bo'lishi mumkin emas (bundan davlat tomonidan himoya qilinishi lozim bo'lgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasida mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta'minlash va ichki tartibni saqlash uchun amalga oshiriladigan davlat xaridlari, shuningdek, davlat sirlari bilan bog'liq bo'lgan davlat xaridlari mustasno).

7. Davlat buyurtmachisi, strategik ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik jamiyati va korxonasi tender va tanlov savdolari hamda eng yaxshi takliflarni tanlab olish tartib-taomillari hamda to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazilishidan avval u bilan affillangan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni davlat xaridlari maxsus axborot portalida joylashtirishga majburdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-sonli Farmoni bilan 2021-yil 1-yanvardan boshlab:

a) davlat xaridlari hamda strategik ahamiyatga ega xo'jalik jamiyatlari va korxonalarning xaridlari ijrochilari:

tender va tanlov savdolari hamda eng yaxshi takliflarni tanlab olish yakunlari bo‘yicha g‘olib deb rasman e’lon qilingan kundan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar yakunlari bo‘yicha qaror qabul qilingan kundan e’tiboran ikki kun mobaynida davlat xaridlari maxsus axborot portalida tegishli ma’lumotlarni joylashtirish orqali bevosita yoki bilvosita 25 foiz yoki undan ko‘p aksiyalarga (ulushga) haqiqatdan nazorat qilishga ega bo‘lgan o‘zining yakuniy manfaatdor shaxslari (benefitsiarlari) to‘g‘risidagi axborotlarni oshkor qilishlari;

o‘zlarining veb-saytlarida va maxsus axborot portalida doimiy asosda tender va tanlov savdolari hamda eng yaxshi takliflarni tanlab olish tartib-taomillari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar yakunlari bo‘yicha imzolangan shartnoma majburiyatlari bajarilishi haqidagi ma’lumotlarni joylashtirib borishga majbur;

b) davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, tabiiy monopoliya subyektlari, tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek, oxirgi uch yilda tovar sotishdan olingan jami tushumining o‘rtacha yillik miqdori 30 milliard so‘mdan oshadigan korporativ buyurtmachilarda faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta’minlash, ularning buzilishi xavflarini aniqlash va oldini olish bo‘yicha ichki tashkiliy tartib-taomillar tizimi (monopoliyaga qarshi komplaens) joriy etiladi.

Oldimizda davlat ishtirokidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar monopoliyasining iqtisodiyot raqobatbardoshligiga salbiy ta’sirini yanada kamaytirish, imtiyoz va preferensiyalar berish tizimi samaradorligini oshirish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tartibga solish yukini pasaytirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalar turibdi.

“2020-2024-yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish Strategiyasi”ni 2024-yilga qadar amalga oshirishda erishiladigan maqsadli ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Monopollashgan tovar bozorlari sonini kamida 45 foizga kamaytirish.

2. Monopol korxonalar sonini 40 foizga qisqartirish.

3. Monopol korxonalarning kamida 80 foizida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy qilish.

4. Iqtisodiyotda taqdim etilgan imtiyozlar hajmini YIM koʻrsatkichiga nisbatan 10 foizgacha kamaytirish.

5. Eksklyuziv huquqlar va preferensiyalarni taqdim etishni koʻzda tutgan normativ-huquqiy hujjatlarning kamida 60 foizini bekor qilish.

6. Iqtisodiy erkinlik indeksida Investitsion faoliyat erkinligi indikatori boʻyicha koʻrsatkichni 20 dan 80 gacha oshirish.

7. Global raqobatbardoshlik indeksida Oʻzbekiston Respublikasining ishtirok etishi va uning koʻrsatkichlarini izchil ravishda yaxshilash.

8. Tovar, moliya va raqamli bozorlar ishtirokchilari sonini kamida 25 foizga oshirish.

9. Davlat xaridlari ishtirokchilari sonini 40 foizga oshirish.

10. Davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki koʻrsatkichini YIM koʻrsatkichiga nisbatan 40 foizgacha pasaytirish.

11. “Tartibga solish gilotina” usulidan foydalangan holda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlardagi tadbirkorlik faoliyatini qiyinlashtiruvchi va raqobatga salbiy ta’sir koʻrsatuvchi normalarni kamida 30 foizga qisqartirish.

7.3. Monopoliyaga qarshi kompleans nazoratini tashkil qilish

Davlat organlari va monopoliyalarda faoliyatning raqobat toʻgʻrisidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta’minlash va buzilishini oldini olish boʻyicha “Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi”ning ahamiyati katta.

Monopoliyaga qarshi komplaens – bu faoliyatning raqobat toʻgʻrisidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta’minlash, huquqbuzarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillar tizimi sanaladi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi

PF-6019-sonli Farmoni ijrosi, shuningdek, raqobat qonunchiligi buzilishini oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martda “Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 114-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan “Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom”, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish bo‘yicha “yo‘l xarita” tasdiqlandi.

Yuqoridagi Nizom quyidagilar uchun tatbiq etiladi:

■ 2021-yil 1-yanvardan – tajriba tariqasida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda Prezidentning 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan ro‘yxatga kiritilgan davlat ishtirokidagi korxonalar:

1. “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati.
2. “Kvarts” aksiyadorlik jamiyati.
3. “Asaka” aksiyadorlik tijorat banki.
4. “UzAuto Motors” aksiyadorlik jamiyati.
5. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati.
6. “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati.
7. “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati.
8. “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati.
9. “Qizilqumsement” aksiyadorlik jamiyati.

■ 2022-yil 1-yanvardan – tabiiy monopoliya subyektlari, tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek, oxirgi 3 yilda tovar sotishdan olingan jami tushumning o‘rtacha yillik miqdori 30 milliard so‘mdan oshadigan korporativ buyurtmachilarda.

Quyidagilar monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

• raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash va baholash hamda uni boshqarish;

• davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat

organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta’minlash va monitoring qilish;

• davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining hamda ularning rahbarlari tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish;

• davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash va ta’minlash;

• davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xodimlarida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ularning malakasini oshirish yuzasidan o‘qitish yo‘li bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga doir fikrlarini rivojlantirish.

Davlat ishtirokidagi monopol korxonalar va davlat organlarida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etishning asosiy sababi, monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzilish holatlarining aksariyati bilib yoki bilmagan holda davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat organlari tomonidan sodir etilmoqda. Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi monopoliyaga qarshi davlat organi ishtirokida ishlab chiqiladi va ko‘rsatib o‘tilgan tashkilotlarda qonunchilikning buzilishiga olib keladigan holatlar tahlil qilinib, ichki idoraviy hujjat qabul qilinadi. Ushbu tizim – ko‘rsatilgan tashkilotlarni faqat jazolash emas, balki qonun buzilishlarni oldini olish maqsadida preventiv mexanizmni joriy etishdan iborat. “Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” ga ko‘ra davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritishini ta’minlash va monitoring qilish maqsadida tashkiliy tuzilma, shtatdagi xodimlari soni va faoliyat xususiyatiga muvofiq vakolatli shaxs (bo‘linma) tayinlanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritishini ta’minlash va monitoring qilish ichki audit xizmatiga yuklanishi mumkin.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish va uning ishlash samaradorligini baholash davlat boshqaruvi organlarida rahbar tomonidan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyatda hokim tomonidan va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ijro etuvchi organ yoki kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning faoliyatini monitoring qilish vakolatli shaxsi (bo‘linmasi) tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash uchun asosiy ko‘rsatkichlar belgilanadi va ularni hisoblash metodikasi monopoliyaga qarshi kurashish organi tomonidan ishlab chiqiladi.

Vakolatli shaxs (bo‘lim) davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining erishilgan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholaydi (yilda kamida bir marta).

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarga erishilgani to‘g‘risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

• raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflari bo‘yicha o‘tkazilgan baholash ishlarining natijalari hamda kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning bajarilishi;

• monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishilgani haqidagi axborot.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat or-

ganlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tasdiqlangan monopoliyaga qarshi komplaens bo‘yicha hisobot o‘zlarining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va uch ish kuni ichida monopoliyaga qarshi kurashish organiga yuboriladi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Raqobat barqaror iqtisodiy rivojlanishning kalitidir, talab qilinadigan mahsulotlarning keng assortimentini talab qilinadigan miqdorda eng past narxlarda ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishini, resurslarni maqbul taqsimlashni va bozor tarkibidagi zarur o‘zgarishlarni ta’minlaydi. Faol raqobat, qo‘shimcha ravishda, talabning yaxshilanishiga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi. Iqtisodiy nuqtai nazardan raqobat jamiyat farovonligini maksimal darajada oshiradi: iste’molchilar arzon narxlardan va resurslarni samarali taqsimlash va ishlab chiqarishni maqbul tashkil etish natijasida assortimentni kengaytirishdan foyda ko‘rishadi; adolatli kurashda tadbirkorlar xarajatlarni kamaytiradi va fan, texnika va menejmentning so‘nggi yutuq va yechimlaridan foydalanadilar. Ichki bozordagi samarali raqobat mahalliy kompaniyalarni yanada o‘sish va yangi bozorlarni egallash imkoniyatlarini izlash uchun jahon darajasiga chiqishga majbur qiladi. Ichki raqobat kompaniyalarning xalqaro raqobatbardoshligini oshiradigan bunday yangiliklarni joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shunday qilib, ichki raqobat mamlakatning raqobatdosh ustunliklarining o‘sishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Taniqli amerikalik iqtisodchi F.A.Xayekning ta’kidlashicha, raqobat – bu kashfiyot, yangi narsalarni o‘rganish jarayoni – evolyutsion taraqqiyotning barcha shakllariga xos bo‘lgan, odamni o‘z xohishiga qarshi yangi vaziyatlarga moslashishga majbur qiladigan jarayondir. Raqobatning kuchayishi tufayli xo‘jalik yuritish samaradorligi o‘sib boradi. U nafaqat butun tadrijiy taraqqiyot raqobatga asoslanganligini, balki erishilgan narsalarni saqlab qolish uchun ham doimiy raqobat zarurligini uqtiradi.

Monopoliyaga qarshi siyosat – bu iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, bozorlardagi konsentratsiya jarayonlarini nazorat qilish

va monitoring qilish, monopolistik harakatlar va g‘irrom raqobatni bostirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui bilan bir qatorda, ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish va bozorda raqobatni rivojlantirish borasida shart-sharoitlarni yaratishni ko‘zda tutadi. Monopoliyaga qarshi siyosat har qanday mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Monopoliyalarni tartibga solish bo‘yicha puxta o‘ylangan chora-tadbirlar raqobatni rivojlantirishga, bozorni barqarorlashtirishga va umumiy tarzda iqtisodiyotni barqarorlashtirishga ko‘mak ko‘rsatadi.

Monopoliyaga qarshi siyosat iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va mahalliy korxonalarning raqobatbardoshligini rivojlantirish davlat strategiyasining muhim unsuri hisoblanadi, chunki zamonaviy bozor iqtisodiyotida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro munosabatlari shartlari va ularning nisbiy o‘lchamlari innovatsiyalarga moyillikni belgilaydi.

Funksional nuqtai nazardan monopoliyaga qarshi siyosat beshta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

1) iqtisodiy konsentratsiyani nazorat qilish (dunyoning aksariyat mamlakatlarida yirik firmalarning birlashishi faqat davlatning ruxsati bilan amalga oshiriladi);

2) bozorda hukmronlik qilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, tabiiy monopoliyalar tomonidan bozor qoidalarining ehtimoliy buzilishlarini oldini olish (shartnoma erkinligi tamoyilini suiiste’mol qilish, bozorga kirishga to‘sqinlik qilish, narxlarni asossiz oshirish);

3) raqobatni yomonlashtiradigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning muvofiqlashtirilgan harakatlarini ta’qiqlash (narxlarni belgilash, bozorni hududiy tamoyilga ko‘ra taqsimlash);

4) hokimiyat organlarining raqobatga qarshi harakatlarini cheklash (alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga imtiyozlar berish);

5) nohalol raqobatni cheklash (xususan, reklamada).

Hozirgi vaqtda monopoliyaga qarshi tartibga solish har qanday davlat iqtisodiy siyosatining muhim qismi hisoblanadi, monopoliyaga qarshi tartibga solish davlatning iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqarishning ayrim turlarini monopollashtirishga yo‘l qo‘ymaslik

faoliyati sifatida ham belgilanishi mumkin. Aslida monopoliyaga qarshi tartibga solish davlat tomonidan bozor raqobatini rag‘batlantirish va bozorning haddan tashqari monopollashuvining oldini olish bo‘yicha iqtisodiy, ma’muriy va qonunchilik choralari majmuini anglatadi. Monopoliyaga qarshi tartibga solishning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) raqobatni rivojlantirish va rag‘batlantirish borasida qulay shart-sharoitlarni yaratish;

2) kichik va o‘rta biznes manfaatlarini himoya qilish;

3) monopolistik harakatlarni amalga oshirish va adolatli raqobat tamoyillarini buzganlik uchun javobgarlikni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va ularning ijrosini ta’minlash.

Monopoliyaga qarshi tartibga solish o‘zaro bog‘liq ikkita sohani o‘z ichiga oladi:

1. Monopoliyaga qarshi maxsus qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish;

2. Monopoliyaga qarshi tartibga solishni amalga oshiruvchi organlar tizimini yaratish.

Takrorlash uchun savollar

1. Raqobat nima? Qanday raqobat turlarini va usullarini bilasiz?
2. Raqobat bozor iqtisodiyoti sharoitida qanday vazifalarni bajaradi va qanday ahamiyatga ega?
3. Nima uchun davlat raqobatni rivojlantirishga intilishi va uni himoya qilishi kerak?
4. Monopoliya nima va uning qanday shakllari mavjud?
5. Monopoliya va monopolistik faoliyat bozor iqtisodiyotida qanday rol o‘ynaydi?
7. Davlatning antimonopol siyosatining maqsadlari qanday?
8. Davlat monopoliyaga va monopolistik faoliyatni qanday usullar yordamida tartibga soladi?
9. Tabiiy monopoliyalar qanday tartibga solinadi?

Iqtisodiyot neftga haddan tashqari bog‘lanib qolmasligi va ekologiya bilan shug‘ullanmasligi uchun turli xil texnologiyalarni yaratish muhim sanaladi.

Sergey Brin

VIII BOB. DAVLATNING MINTAQAVIY SIYOSATI VA HUDUDLAR RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI

8.1. Mintaqaviy iqtisodiyot va davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, tamoyillari, maqsadlari

8.2. O‘zbekistonda mintaqaviy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlari

8.1. Mintaqaviy iqtisodiyot va davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, tamoyillari, maqsadlari

Mintaqa tushunchasi jahon yoki mamlakat territoriyasining bir qismiga nisbatan qo‘llaniladi. Mintaqa jahon territoriyasining bir qismi sifatida o‘z ichiga geografik, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, etnomadaniy axborot, harbiy va boshqa mezonlar va yondashuvlar asosida bir necha mamlakatlarni oladi. Masalan, Sharqiy Yevropa, G‘arbiy Yevropa, Markaziy Osiyo, Janubiy-sharqiy Osiyo va boshqa mamlakatlar turkumi mintaqalari mavjud. Bir alohida olingan mamlakat ichida viloyatlar, tuman va shaharlar geografik, iqtisodiy, siyosiy, etnomadaniy, ekologik, axborot va boshqa mezonlar bo‘yicha ma’muriy hududiy birlik sifatida uning mintaqalarini tashkil etadi.

Mintaqa iqtisodiyotining shunday tizimlari mavjudki, ular har bir mamlakatning milliy iqtisodiyotida, mustaqil xo‘jalik yuritishda alohida o‘rin tutadi va o‘zining tabiiy iqlim, geografik joylashuvi, tabiiy-mineral va xomashyo resurslarining zaxiralari, mehnat resurslari bilan ta’minlanganligi, ishlab chiqarish salohiyati, tarmoqlari va sohalarining ham infratuzilmasining miqyosi, aholisining urf-odatlari va traditsiyalari, mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashuvi hamda ijtimoiy mehnat taqsimotidagi hissasi, aholi jon boshiga ishlab chiqargan hududiy yalpi mahsulot kabilar bilan farqlanadi.

Bular makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot oʻrtasi, ular faoliyatini iqtisodiyot nazariyasi *mezoiqtisodiyot* (yunoncha “mesos” oraliq) boʻlimi sifatidagi fan – mintaqa iqtisodiyoti oʻrganadi. Mezoiqtisodiyot tarkibiga mintaqada (hududda)gi sanoat tarmoqlari, yoqilgʻi-energetika kompleksi, qishloq xoʻjaligi, suv xoʻjaligi kompleksi, qurilish, transport va aloqa kommunikatsiyasi, uy-joy kommunal xoʻjaliklari, oliy va maxsus ta’lim, sogʻliqni saqlash, uy xoʻjaliklari, oʻziga xos kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati yurituvchi hunarmand, kasanachilik kabilar kiradi.

Shu bilan birga, hudud (mintaqa) tarmoqlari tarmoqlararo miqyosidagi iqtisodiy muammolari, ekologik muammolarni tadqiq qilish va oʻrganish ham mezoiqtisodiyot (mintaqa iqtisodiyoti) tarkibiga kirib, alohida oʻrin tutadi. Mintaqa iqtisodiyoti bir mamlakat milliy iqtisodiyotining boʻlinmas va uzviy bir boʻgʻini (qismi) sifatida ajralmas umumiqtisodiyot siyosati ta’sirida yagona bir yaxlit shaklda xoʻjalik faoliyatini yuritadi.

Oʻzbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan biri – bu iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish orqali jahon xoʻjaligiga yanada chuqurroq va samarali shaklda mintaqalarni integratsiyalashtirishdan iborat davlatning tartibga solish siyosatidir.

Mintaqaviy siyosat – hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. *Mintaqaviy siyosatning maqsadi* – mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalaqit beradigan ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo boʻlishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari oʻrtasida moddiy ne’matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va oʻz-oʻzini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratishdan iboratdir.

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish koʻzda tutiladi:

1. Mintaqadagi barcha resurslardan (moddiy, moliyaviy, mehnat) foydalanib, ishlab chiqarishning jadalligi va mutanosibligini ta'minlash hamda shu asosda uning samaradorligini oshirish.

2. Mintaqalarning istiqboldagi rivojlanish sur'atlarini aniqlash. Bunda mahalliy resurslardan to'la foydalanishga e'tibor berish.

3. Ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarishda keng foydalanish. Buning uchun mintaqada ilmiy-texnika taraqqiyoti jadallashishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmni yaratish, rejalashtirishni yanada demokratiyalashtirish lozim bo'ladi. Shuningdek, korxonalarga, mintaqaviy birliklarga intikativ (tavsiyaviy) rejalarni tuzish uchun huquqiy iqtisodiy sharoitlar yaratish, bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali raqobat bo'lishini bozor konyunkturasiga mos mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadida quyidagi vazifalarni ham hal etish lozim:

a) ishlab chiqarishni bozor hajmi va konyunkturasiga mos ravishda tashkil etish va rivojlantirish;

b) valyuta tushumlarining ko'payishini ta'minlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish;

v) bozor talabi asosida tez o'zgaruvchi yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirish va hokazolar.

g) tashqi iqtisodiy munosabatlarni Markaziy Davlat organlari bilan kelishilgan holda mahalliy manfaatlarni hisobga olib rivojlantirish.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, mintaqaviy siyosatga – mintaqalar (hududlar) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mutanosiblikni ta'minlash va ular o'rtasidagi eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi farqlarni, nomutanosibliklarni bartaraf etishga qaratilgan umummilliy siyosatning muhim tarkibiy qismidir, deb ta'rif berish mumkin. Mintaqaviy siyosat keng ma'noda mamlakat hududlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini boshqarish bo'yicha hokimiyat organlarining maqsad va vazifalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi.

Mintaqa va hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishga qaratilgan davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning muhim dastaklari quyidagilardan iboratdir:

- rivojlanayotgan yoki davlat dasturiga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirish uchun ayrim hududlarda ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatuvchi korxonalarga moliyaviy imtiyozlar yoki ragʻbatlar beriladi, ya'ni investitsiyaviy grantlar, past foizdagi kreditlar beriladi, soliqlardan, ijara toʻlovlaridan ozod qilinadi;

- rivojlanayotgan hududlardagi korxona va firmalarning oʻz ofis, idora, ishlab chiqarish obyektlarini boshqa hududlarga olib ketmasliklari uchun ular faoliyatini nazorat qilish;

- rivojlanayotgan hududlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish uchun investitsiyalar qilish, ayniqsa, yoʻllar qurish, aholi hayot sharoitini yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

Hududlarni rivojlantirishga qaratilgan davlat mintaqaviy siyosatining muhim tarkibiy qismi mintaqaviy iqtisodiy siyosat hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat maqsadlari mintaqaviy (hududiy) rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bogʻliqdir. Iqtisodiy sohadagi mintaqaviy siyosat maqsadi hudud salohiyati, uning cheklangan iqtisodiy resurslaridan, hududlararo mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi afzalliklaridan oqilona foydalanish asosida aholi turmush darajasi va sifatini oshirish hisoblanadi.

Ijtimoiy sohadagi mintaqaviy siyosatning maqsadi har bir hududdagi barcha aholi qatlamlari uchun munosib turmush darajasini, sharoitlarini va teng yashash kafolatlarini ta'minlash, kishilarning yashash joyini va mehnat qilish joyini, turini tanlash huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini yaratish, ichki ijtimoiy muhitning keskinlashishiga yoʻl qoʻymaslikdan iboratdir.

Shu bilan birga shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqa iqtisodiyotini tartibga solish boʻyicha davlatning iqtisodiy mintaqaviy siyosatining maqsadlari yuqoridagilarga qoʻshimcha tarzda quyidagilardan iborat:

- hududlarda barqaror iqtisodiy oʻsishni ta'minlash asosida aholi turmush darajasini oshirish sharoitlarini ta'minlash;

- hududlar bilan hamkorlikda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi ishlab chiqarish texnologik usullarini koʻp ukladli, ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish asosida aholi turmush darajasini oshirish;

- hududlarda maqsadli tarkibiy, investitsiyaviy, ilmiy-texnikaviy

siyosatni amalga oshirish, iqtisodiyot real sektorida tadbirkorlikni, iqtisodiy islohotlar ijtimoiy muammolarini hal etishga qaratilgan faoliyatni rag‘batlantirish;

- hududning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash. Hududning iqtisodiy xavfsizligi uning iqtisodiyoti barqarorligini va rivojlanishini ifodalovchi shart-sharoitlar, omillar hamda mavjud holatlar yig‘indisini ifodalaydi.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda birinchi navbatda mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari aniqlanadi. Bunda quyidagilarga e’tibor beriladi:

- tabiiy iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakat ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri;

- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar turi, hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;

- mintaqalarning chekka, olis hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko‘payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o‘z navbatida milliy va mahalliy bozorlarning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsiya aloqalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi chetda joylashgan mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtiradi;

- u yoki bu turdagi mahsulotlarni (xomashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar) ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi;

- mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va boshqalar;

- ishlab chiqarish infratuzilmasi, ya’ni transport va telekommunikatsion, axborot tizimlari, sanoat maydonlari va boshqalar bilan ta’minlanganligi;

- ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma’lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari, sport inshoatlari bilan ta’minlanganligi;

- mintaqada bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirish maqsadida investitsiya (kapital

qo‘yilma)larning qayta taqsimlanishini ta’minlashga xizmat qiladigan quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

Birinchi yo‘nalish – kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past bo‘lgan mintaqalarda infratuzilma obyektlarini barpo etish va boshqa mintaqa va hududlar bilan iqtisodiy aloqasini yaxshilashdan iborat.

Ikkinchi yo‘nalish – yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan, yirik shaharlarga nisbatan ma’muriy yoki moliyaviy cheklash usullarini qo‘llash.

Uchinchi yo‘nalish – muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va milliy-xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish.

Ta’kidlash joizki, davlat mintaqaviy siyosat orqali mintaqa (hudud) iqtisodiyotini tartibga solishda bevosita va bilvosita usullardan keng foydalanadi.

Davlatning hududiy iqtisodiyotga bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashishi ma’muriy vositalardan foydalanish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu usullar davlat hokimiyati kuchiga tayanish, ruxsat berish, man qilish, majburlash choralarini o‘z ichiga oladi.

Bilvosita tartiblash turli iqtisodiy chora-tadbirlar, vosita va dastaklar orqali amalga oshiriladi.

Hududiy takror ishlab chiqarish jarayonlarini ma’muriy uslublar orqali tartibga solish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- hududiy takror ishlab chiqarish subyektlariga davlat boshqaruvining yuqori organlari tomonidan mavjud holat, vaziyatga ta’sir ko‘rsatuvchi ma’muriy farmoyishlar qarorlar;

- hududdagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar;

- tavsiyalar, taftish, masalan, moliyaviy-budjet tekshirishlar, nazorat, masalan, sanitar-epidemiologik nazorat.

Ma’muriy usullar o‘rnatilgan tartib, qoidalarni buzgan ayrim korxonalarga nisbatan majburlash imkoniyatlarini ham ko‘zda tutadi. Ma’muriy usullar yordamida mahalliy boshqaruv organlari davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarini tartibga soladi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, hududdiy tabiiy resurslaridan foydalanish hamda ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq masalalarni hal qiladi.

Mintaqaviy (hududiy) takror ishlab chiqarish jarayonlarni tartibga solishning iqtisodiy usullari xo‘jalik subyektlarining iqtisodiy manfaatlari orqali, soliq imtiyozlar, kreditlar va subvensiyalar va boshqa dastaklar yordamida qo‘llaniladi. Yuqori boshqarish organlari belgilagan va tasdiqlagan qoidalar, nizomlar doirasida xo‘jalik subyektlari, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatiga bilvosita ta’sir ko‘rsatib, ularga keng vakolatlar beriladi.

Shuningdek, mintaqalar iqtisodiyotini tartibga solishga qaratilgan davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda adolatli va samarali usullardan foydalanadi. *Adolatli usul* – ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning shunday turiki, unga ko‘ra mamlakat fuqarolari qaysi hududda yashashlaridan qat’i nazar, ularning turmush darajalari deyarli bir xil sharoitlar va imkoniyatlarda bo‘lishi ko‘zda tutiladi. *Samarali usul* – umumdavlat manfaatlari yo‘lida har bir mintaqaning mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan, salohiyatlaridan oqilona foydalanishga qaratilgan usuldir. Har ikkala usuldan to‘g‘ri va mutanosib foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

8.2. O‘zbekistonda mintaqaviy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlari

Shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning mintaqaviy siyosati iqtisodiyotni erkinlashtirish, mamlakat ma’muriy-hududiy birliklarining moliyaviy-xo‘jalik mustaqilligini mustahkamlash respublika markaziy hukumati bilan mahalliy hokimliklar o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

O‘zbekistonda yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda davlatning mintaqaviy siyosati bosh maqsadlari sifatida quyidagilar belgilab olingan:

- mamlakatning barcha hududlarida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan huquqlarning ta’minlanishi uchun teng siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- respublika barcha aholisining ijtimoiy kafolatlarini hamda teng ijtimoiy va huquqiy himoyalashni ta’minlash.

Ushbu maqsadlarning amalga oshirilishi quyidagilarni taqozo etadi:

- mintaqa (hudud)larda yangi iqtisodiy munosabatlarni va umumiqtisodiy sharoitlarni qaror toptirish uchun qulay sharoitlar yaratish. Buning oqibatida turli mulkchilik shakllariga ega bo‘lgan xo‘jalik subyektlarining faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratiladi;

- mintaqa (hududlarda) ularning va aholining manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoitlar shakllantiriladi;

- mahalliy hokimlik va o‘z-o‘zini boshqarish organlarining mintaqa (hududlarni) boshqarishdagi roli va faolligi ortadi;

- mintaqa (hudud)lararo infratuzilmani tiklash, qayta tiklash. Buning oqibatida mamlakat miqyosida yagona iqtisodiy makon, xalq xo‘jalik kompleksi shakllantiriladi. Shuningdek, samarali hududiy mehnat taqsimoti va ijtimoiy mehnat integratsiyalashuvi vujudga keltiriladi hamda bozor munosabatlari rivojlantiriladi;

- kam rivojlangan hududlarni rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, istiqbolli hududlarni ustuvor ravishda rivojlantirish.

Ushbulardan kelib chiqib, davlat mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi hamda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishning huquqiy asoslarini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi subyektlarining o‘zaro teng huquqligining konstitutsion tamoyillarini ta’minlash;

- O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognoz (istiqbol) ko‘rsatkichlarini va maqsadli dasturlarni muntazam ravishda ishlab chiqish;

- O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi hamda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarini uslubiy va me’yoriy jihatdan ta’minlash va qo‘llab-quvvatlash;

- mamlakatning ma’muriy-hududiy bo‘linishini zarur holatlarda o‘zgartirib turish. Bu mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar in’ikosi sifatida amalga oshirilib turiladi.

Mamlakatda davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning eng muhim shartlari ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- mamlakat miqyosida yagona iqtisodiy makonni ta’minlash. Buning uchun davlat boshqaruvining umumiyligining sharti

boʻlgan yaxlit pul, soliq, budjet va moliya tizimining, yaxlit axborot makonining mavjudligi, asosiy institutsional, ya'ni ma'muriy boshqaruv tizilmalar rivojlanishining tartibga solinishi muhim ahamiyatga ega.

- ishlab chiqarishni barqarorlashtirish, respublikaning har bir hududda iqtisodiy oʻsishni ta'minlash asosida aholining barcha tabaqalari turmush darajasini oshirishga erishish;
- davlat organlarda rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritayotgan davlat xizmatchilarini qayta tayyorlash va malakasini muntazam oshirib borish, rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish;
- davlat xizmatchilari malakasini oshirish bilan shugʻullanuvchi muassasalar va tashkilotlar, markazlar faoliyatini boshqarish.

Mamlakat hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish maqsadini amalga oshirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatning barcha hududlarini barqaror rivojlantirish ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalarini imkon darajada tenglashtirish;
- hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashtirilishi va rivojlanishidagi asossiz vujudga keltirilgan nomutanosiblikni bartaraf etish;
- hududlarning ixtisoslashuvini oqilonalashtirish va tumanlararo iqtisodiy aloqalarni maqbullashtirish;
- hududlarning hududlararo va tashqi iqtisodiy integratsiyalashuvi, ayrim hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy biqiqligiga barham berish.

Milliy iqtisodiyot taraqqiy topishi va mamlakat aholisi farovonligini ta'minlashning eng birlamchi omili mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va undan samarali foydalanish bilan bevosita bogʻliqdir. Zero, hududlarda barqaror rivojlanish koʻrsatkichlariga erishmasdan turib, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini ta'minlash haqida fikr bildirishning oʻzi mantiqiy nuqtai nazardan samarasiz boʻlib hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi rivojlanayotgan davrda va chuqur islohotlar fonida respublikamiz hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini atrof-

licha tahlil qilish muhim va oqilona iqtisodiy qarorlar qabul qilishda har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Bu borada respublikamiz hududlarini barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-mayda PQ-4702-son “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq statistik ko‘rsatkichlar va so‘rovnomalar natijalari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi joriy etildi. Bu esa o‘z navbatida, respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish borasidagi muammolarning amaliy yechimi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu o‘rinda qayd etishimiz joizki, bugungi kunga qadar O‘zbekiston Respublikasida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy holatini chuqur tahlil qilishda istiqbolga yo‘naltirilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish uchun uni kompleks baholashning hamda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqqan holda ularga tezkorlik bilan va lozim darajada javob qaytarishning yagona muvofiqlashtirilgan mexanizmi mavjud emas edi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi endilikda respublika miqyosida yoki alohida olingan hududlar kesimida iqtisodiy-ijtimoiy sohalarga doir qarorlar qabul qilishda, ayni hududlardagi tizimli muammolarni aniqlashda, hududlarning real iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi turmush darajasi va daromadlarini tahlil qilishda, shuningdek, eng muhimi, joylardagi mahalliy ijro organlari rahbarlarining faoliyatlarini doimiy kuzatib borish asosida mas’uliyatini oshirish va ularning faoliyati samaradorligini xolisona baholashda o‘ziga xos metodologiya hisoblanadi.

Mamlakatimizning har bir hududi o‘ziga xos. Bir viloyat ichidagi tumanlarning imkoniyatlari ham bir-biriga o‘xshamaydi. Shu bois Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyat-

lar iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari alohida, manzilli tarzda muhokama qilib borilmoqda. Davlatimiz rahbari joylarga chiqib, aholi bilan gaplashib, belgilanayotgan chora-tadbirlarning dolzarb va amaliy bo‘lishiga katta e’tibor qaratmoqda. Markazdagi rahbarlar qarorlar qabul qilishda hokimlarning umumiy hisobotlari bilan kifoyalanib qolayotgani tanqid qilinib, bundan buyon hududlarga oid har bir masalani aniq tuman, qishloq, mahalla, soha va korxona kesimida, muammoning eng quyidagi ildizigacha tushib, uni hal qilish zarur. Dasturlar ishlab chiqishni har bir qishloqdan boshlash, qaysi qishloqda qaysi yo‘nalishni rivojlantirish, bunga qancha mablag‘ ajratish kerakligini aniq ko‘rsatish talab etiladi. Ayni ushbu vazifalarning ijrosini ta’minlash borasida respublikamizda amaliyotga joriy qilinayotgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur reyting baholash tizimi keng qamrovli va hududlarni kompleks baholash imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘z ichiga quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- barqaror va mutanosib iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash, iqtisodiy islohotlar samaradorligi;
- yangi ish o‘rinlari yaratish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozori samaradorligini ta’minlash;
- ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilash;
- aholi va biznes uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish infratuzilmasining barqarorligi hamda ishonchliligini ta’minlash;
- hududlarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ularning iqtisodiyotini yanada diversifikatsiya qilish;
- ishbilarmonlik muhiti sifatini yaxshilash, tadbirkorlikni doimiy qo‘llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish;
- hududlarning moliyaviy mustaqilligiga erishish hamda bank-moliya sohasini rivojlantirish;
- mahalliy hokimiyat organlarining fuqarolar murojaatlari bilan ishlash samaradorligi va ma’lumotlarning ochiqligini oshirish.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amaliy


roʻyobga chiqarish doirasida qabul qilingan 20 dan ortiq qonunlar, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 180 dan ortiq farmonlari va 450 dan ortiq qarorlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning soʻzsiz, oʻz vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minlash hozirgi bosqichda koʻzlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, "Oʻzbekiston–2030" strategiyasida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi oʻrtachadan yuqori boʻlgan davlatlar" qatoriga kirish, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilgʻor texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish maqsadlarining belgilab berilishi yuqoridagi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Shu bilan birga, davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlari, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ishini tashkil etish va faoliyatini baholashning amaldagi tizimi oldimizga qoʻyilgan vazifalarni samarali hal qilishga imkon bermayapti. Xususan, birinchidan, ijro etuvchi va vakillik hokimiyati markaziy organlarining mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan oʻzaro hamkorligining darajasi hududlarda yechimini kutayotgan muammolarni hal qilish boʻyicha uygʻun faoliyatni ta'minlamaydi. Aksariyat hollarda ularning faoliyati bir martalik xususiyatga ega, alohida topshiriqlarni bajarishdan iborat boʻlib qolgan. Buning ustiga, joylarda yigʻilib qolgan muammolarni hal qilish boʻyicha lozim darajada tashabbus koʻrsatilmayapti; ikkinchidan, ijro etuvchi va vakillik hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining hududlarga xizmat safarlarini samarali muvofiqlashtirishning mavjud emasligi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning takrorlanishiga olib kelmoqda, oqibatda mahalliy davlat hokimiyati organlarini asosiy funksional majburiyatlarini bajarishdan chalgʻitmoqda; uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonini baholash amaliyoti joylarda ishlarning haqiqiy ahvolini tanqidiy tahlil qilishga asoslanmagan, eng asosiysi, erishilgan iqtisodiy koʻrsatkichlar aholining hayot sifatiga qay darajada ijobiy ta'sir etayotganligiga qat'iy baho berilmayapti. Respublika davlat organlarining hududlardan ajralib qolganligi hududlarning oʻziga xos xususiyatlari, rivojlanish darajasi va talab-ehtiyojini inobatga olgan holda, asoslantirilgan va har tomonlama puxta oʻylangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab

chiqish imkonini bermayapti; to‘rtinchidan, respublika va mahalliy budjet mablag‘larini shakllantirish va taqsimlash, investitsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda bajarishning amaldagi mexanizmlari, birinchi navbatda, eng ustuvor loyihalarni manzilli, o‘z vaqtida va mutanosib moliyalashtirishni ta’minlamayapti; beshinchidan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni tashkil etish o‘rniga aksariyat hollarda ko‘plab yig‘ilishlar o‘tkazilmoqda va ularning yakuni bo‘yicha chuqur o‘ylanmagan qarorlar qabul qilinmoqda.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish” vazifasi belgilanib, uni amalga oshirish jarayoni jadallik bilan olib borilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirishga qaratilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan uchrashish va muloqot qilish maqsadidagi hududlarga tashriflarida birinchi navbatda hududlar iqtisodiyotidagi o‘sish nuqtalarini belgilash va shu orqali ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.



8.1-rasm. 2022-yilda Respublika hududlarining YIMni shakllantirishdagi ulushi, umumiyga nisbatan %da[61]

Yalpi hududiy mahsulot (YHM) *milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.*

2022-yilda Respublika bo‘yicha YIMning shakllanishida Toshkent shahri 16,6 % ulush bilan eng katta hissa qo‘shdi. Toshkent va Navoiy viloyatlari 10,5 % va 7,5 % ko‘rsatkichlari bilan keyingi o‘rinlarni egallab turibdi. Respublika YIMini shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (2,0 %) va Jizzax (3,1 %) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan.

2022-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida YHM hajmi 4,0 % ga o‘sdi va 29 925,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan. YHMning o‘sishi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,3 % (YHM tarkibidagi ulushi – 29,6 %), sanoatda 100,6 % (23,6 %), qurilishda 107,7 % (8,3 %) va xizmatlar sohasida 106,0 % (38,5 %)ni tashkil qilgan. Aholi jon boshiga YHM 2,6 % ga o‘sdi va 15 249,4 ming so‘mni tashkil etgan.

[61] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2

Andijon viloyatida YHM hajmi joriy narxlarda 54 464,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021-yil bilan taqqoslaganda 8,6 % ga o‘sgan. Quyidagi asosiy tarmoqlarda ijobiy o‘sish kuzatilgan: qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,5 % (YHM tarkibidagi ulushi – 41,3 %), sanoatda 122,6 % (23,4 %), qurilishda 107,2 % (5,6 %) va xizmatlar sohasida 106,2 % (29,7 %). Aholi jon boshiga hisoblangan YHM 16 564,0 ming so‘mni tashkil etgan va 2021-yilga nisbatan 6,4 % ga o‘sgan.

Buxoro viloyatida YHM 45 797,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021-yil bilan taqqoslaganda 4,4 % ga o‘sgan. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,6 % (YHM tarkibidagi ulushi – 44,7 %), sanoatda 106,2 % (18,0 %), qurilishda 100,2 % (8,2 %) va xizmatlarda 105,5 % (29,1 %)ni tashkil etgan. Aholi jon boshiga YHM 2,8 % ga o‘sdi va 22 975,6 ming so‘mni tashkil etgan.

Jizzax viloyatida YHM hajmi 4,7 % ga o‘sdi va 27 140,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan. YHMning tarmoqlar tarkibida o‘sish sur’atlari: qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,5 % (YHM tarkibidagi ulushi – 51,9 %), sanoatda 107,8 % (13,1 %), qurilishda 106,5 % (5,6 %) va xizmatlar sohasida 105,2 % (29,4 %)ni tashkil etgan. Aholi jon boshiga YHM 2,4 % ga o‘sdi va 18 596,0 ming so‘mni tashkil qilgan.

Qashqadaryo viloyatida YHM hajmi 49 520,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan va 2021-yil bilan taqqoslaganda 5,6 % ga o‘sgan. YHMning tarmoqlar tarkibida ijobiy o‘sish sur’atlari: qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,6 % (YHM tarkibidagi ulushi – 41,2 %), sanoatda 110,5 % (17,2 %), qurilishda 105,8 % (7,0 %) va xizmatlar sohasida 105,1 % (34,6 %)ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YHM 3,4 % ga o‘sgan va 14 372,6 ming so‘mni tashkil etgan.

Navoiy viloyatida YHM hajmi 66 685,4 mlrd. so‘mga etdi va o‘sish 5,5 % ni tashkil etgan. YHMning o‘sishi hudud iqtisodiyoti tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,0 % (YHM tarkibidagi ulushi – 13,9 %), sanoatda 105,7 % (69,3 %), qurilishda 109,3 % (4,0 %) va xizmatlarda 105,2 % (12,8 %)ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YHM 3,4 % ga o‘sdi va 63 832,1 ming so‘mni tashkil etgan.

Namangan viloyatida YHM 41 098,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi, bu esa 2021-yil ma’lumotlariga nisbatan 6,6 % ga ko‘pdir. YHM-

ning o‘sish sur’ati qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,2 % (YHM tarkibidagi ulushi – 40,3 %), sanoatda 109,4 % (15,0 %), qurilishda 110,3 % (7,3 %) va xizmatlar sohasida 107,1 % (37,4 %) kuzatilgan ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. Aholi jon boshiga YHM 4,3 % ga o‘sdi va 13 864,4 ming so‘mni tashkil etdi.

Samarqand viloyatida YHM hajmi 62 440,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan va bu esa 2021-yil ma’lumotlariga nisbatan 5,8 % ga ko‘pdir. Ushbu hududda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,6 % (YHM tarkibidagi ulushi – 40,5 %), sanoatda 109,0 % (16,0 %), qurilishda 110,1 % (6,1 %) va xizmatlar sohasida 106,3 % (37,4 %) o‘sish sur’atlari kuzatildi. Aholi jon boshiga YHM 3,6 % ga ko‘paygan va 15 323,2 ming so‘mni tashkil etgan.

Surxondaryo viloyatida YHM 4,0 % ga o‘sgan va 34 858,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan. YHMning o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 102,6 % (YHM tarkibidagi ulushi – 47,7 %), sanoatda 104,4 % (6,9 %), qurilishda 102,0 % (8,3 %) va xizmatlar sohasida 106,3 % (37,1 %) kuzatilgan ijobiy o‘sish sur’atlari ta’sir qilgan. Aholi jon boshiga YHM 12 561,6 ming so‘mni tashkil etdi va 1,6 % ga o‘sgan.

Sirdaryo viloyatida YHM hajmi 18 136,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan va 2021-yil ma’lumotlari bilan taqqoslaganda 5,0 % ga ko‘paygan. YHMning o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,3 % (YHM tarkibidagi ulushi – 39,4 %), sanoatda 109,5 % (24,9 %), qurilishda 100,5 % (8,0 %) va xizmatlar sohasida 105,0 % (27,7 %) kuzatilgan ijobiy o‘sish sur’atlari ta’sir qilgan. Aholi jon boshiga YHM 20 433,5 ming so‘mni tashkil etgan va 2,9 % ga o‘sgan.

Toshkent viloyatida YHM 5,1 % ga o‘sgan holda 93 433,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Ushbu hududda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,0 % (YHM tarkibidagi ulushi – 22,1 %), sanoatda 105,1 % (47,9 %), qurilishda 107,7 % (5,8 %) va xizmatlar sohasida 105,4 % (24,2 %) ijobiy o‘sish sur’atlari kuzatilgan. Aholi jon boshiga YHM 2021-yilga nisbatan 3,3 % ga o‘sdi va 31 499,2 ming so‘mni tashkil etgan.

Farg‘ona viloyatida YHM hajmi 4,6 % ga o‘sgan va 55 972,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan. O’sish sur’ati qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,6 % (YHM tarkibidagi ulushi – 35,1 %), sanoatda

104,8 % (19,5 %), qurilishda 112,7 % (6,8 %) va xizmatlar sohasida 103,8 % (38,6 %)ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YHM 2,5 % ga oʻsdi va 14 219,1 ming soʻmni tashkil etdi.

Xorazm viloyatida YHM hajmi 5,7 % ga oʻsgan va 31 963,1 mlrd. soʻmni tashkil etgan. YHMning oʻsishi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 103,3 % (YHM tarkibidagi ulushi – 46,0 %), sanoatda 115,1 % (14,4 %), qurilishda 102,1 % (6,9 %) va xizmatlar sohasida 105,4 % (32,7 %)ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YHM 3,9 % ga oʻsdi va 16 465,7 ming soʻmni tashkil etgan.

Toshkent shahrida YHM hajmi 147 414,6 mlrd. soʻmni tashkil etgan va 2021-yil bilan taqqoslaganda 7,9 % ga oʻsgan. Sanoat tarmogʻida 106,0 % (YHM tarkibidagi ulushi – 33,5 %), qurilish tarmogʻida 101,1 % (10,1 %) va xizmatlar sohasida 109,9 % (56,4 %) oʻsish sur'ati kuzatildi. Aholi jon boshiga YHM 50 675,3 ming soʻmni tashkil etgan va 4,6 % ga oʻsgan[62].

Prezidentning Sirdaryo viloyatiga tashrifi chogʻida soʻnggi yillarda Sirdaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish borasida erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, istiqbolda hududni barqaror rivojlantirish, hududning mavjud imkoniyatlaridan foydalangan holda, rivojlanishning noyob ustunliklarini yaratish borasida tashabbuslar ilgari surildi[63].

Soʻnggi olti yil ichida viloyat sanoat mahsulotlari qariyb olti barobarga, 3,5 trln. soʻmdan 12 trln. soʻmga oshdi. Hudud iqtisodiyotining imkoniyatlaridan unumli foydalanish hisobiga yalpi hududiy mahsulot 2016-yildagi 6 trln. soʻmdan 2022-yilda 18 trln. soʻmga yetdi. Viloyatning barcha tumanlarida katta-kichik sanoat loyihalarining ishga tushirilishi natijasida Yangiyer shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10 baravar, Mirzaobod tumanida 6 baravar, chekka tumanlar sanaluvchi Sardoba, Xovos tumanlarida qariyb 2 baravar oʻsdi.

Xovos tumanida Turkiya bilan hamkorlikda 220 MVt quvvatli issiqlik elektr stansiyasi foydalanishga topshirilgan boʻlsa, 2023-yilda Shirin shahri va Boyovut tumanlarida 1500 MVt quvvatga ega boʻlgan zamonaviy issiqlik elektr stansiyalarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

[62] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2
[63] https://president.uz/oz/lists/view/6132

2017-2022-yillarda viloyatda 30 trln. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi. Buning natijasida 6640 ta yangi korxona faoliyati yo‘lga qo‘yildi, 55 mingta doimiy ish o‘rinlari yaratildi va 17 ming oila kambag‘allikdan chiqarildi.

Birgina, 2022-yilning o‘zida Sirdaryo viloyatiga 250 mln. dollarlik Xitoy investitsiyalari jalb qilindi, bu investitsiyalar umumiy hajmining 90 foiziga teng demakdir.

Sirdaryoni “ishsizlikdan holi hudud” dasturi uchun 2 trln. so‘m mablag‘ ajratildi. Bu mablag‘lar hisobiga 20 ming aholiga imtiyozli kreditlar berildi, 5 ming nafar yoshlarga asbob-uskunalar uchun subsidiyalar ajratildi, 2 ming nafar hunarmand faoliyati yo‘lga qo‘yildi, 1200 nafar yoshlar kasb-hunarga o‘qitildi, aholiga 5 ming gektar yer ajratib berilishi hisobiga 10 ming nafar aholi ish bilan ta’minlandi. Aholi bandligiga alohida e’tibor qaratilishi natijasida 2016-yilda 41 ming nafar aholi ish bilan ta’minlangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 125 ming nafarga yetishi ko‘zda tutilgan.

Ijtimoiy sohaga alohida e’tibor qaratilishi natijasida birgina bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi 2016-yildagi 26 foizdan, 2022-yilda 70,1 foizgacha o‘sdi. 165 ming aholi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlandi.

Sirdaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish borasida so‘nggi olti yil ichida amalga oshirilgan ishlarning ijobiy natijasi o‘laroq, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi 22 mln. so‘mni, sanoat mahsulotlari 14,2 mln. so‘mni, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 13.1 mln. so‘mni, budjet tushumlari 1,2 trln. so‘mni tashkil qilmoqda.

Sirdaryo viloyati iqtisodiyotida kuzatilayotgan ijobiy siljishlar bilan bir qatorda, viloyatda hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko‘p, jumladan:

- Sirdaryoning yer, suv va tabiat resurslari boy. Aholi jon boshiga ekin maydonlari boshqa hududlarga nisbatan 2-3 baravar ko‘p. Viloyatda qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minlanganlik darajasi ham yuqori, viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2-2,5 baravarga, eksport hajmini 5-7 baravarga oshirish imkoniyatlari mavjud;
- Sirdaryo viloyati Respublika hududlarini Toshkent bilan bog‘-

lovchi oʻziga xos koʻprik vazifasini oʻtaydi, birgina Toshkent shahri va Toshkent viloyatining yaqinligi qariyb 5 mln. iste'molchi mavjud bozor yaratish imkonini beradi;

- Innovatsion iqtisodiyotning muhim sharti – bu ta'lim, fan va ishlab chiqarishning oʻzaro uygʻunligi va hamkorligi hisoblanadi, lekin bugungi kunda bu hamkorlik yetarlicha oʻzini namoyon qilayotgani yoʻq;
- Sirdaryo viloyati bir vaqtning oʻzida 2 qoʻshni davlat Qozogʻiston va Tojikiston bilan yaqinligi logistika nuqtai nazaridan viloyatga qoʻshimcha afzalliklarni taqdim qiladi;
- Sirdaryo viloyatiga bir oyda qoʻshni Respublikalarning kamida bir yarim ming nafar fuqarolari davolanish uchun tashrif buyurishadi, bu viloyatda tibbiyot turizmi, umuman olganda, tibbiyot sohasini rivojlantirishda katta imkoniyatlar mavjudligini koʻrsatadi;
- Sirdaryoni innovatsion hududga aylantirishda oliy ta'limning ustuvor ahamiyat kasb etishi, bu borada shu paytgacha viloyatda yagona oliy ta'lim muassasasi sifatida faoliyat koʻrsatib kelgan Guliston davlat universitetida katta salohiyatning mavjudligi va shu kabilar.

Aynan yuqorida tilga olib oʻtilgan hali ishga solinmagan imkoniyatlardan toʻlaqonli foydalanish borasida Prezidentimiz tomonidan Sirdaryo viloyatini kelgusida yanada taraqqiy toptirish borasida beshta muhim tashabbus ilgari surildi, kezi kelganda aytish kerakki, mazkur tashabbuslar viloyatning tabiiy va mavjud ustunliklaridan foydalangan holda, Sirdaryoning **noyob ustunlik**larini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Birinchi tashabbus sifatida ilgʻor innovatsiyalar hududida biofarmatsevtika, qurilish materiallari, qishloq xoʻjaligi, oziq-ovqat, elektrotexnika, tibbiyot, ta'lim sohalarining 20 ta yoʻnalishidagi loyihalariga alohida imtiyozlar rejimi joriy qilinadi. Unga koʻra yer mol-mulk, foyda va aylanma uchun soliqlar hamda bojxona bojlaridan 3 yilgacha ozod qilinadi. Yer uchastkalari soddalashgan tartibda ajratiladi, yer va binolarni sotib olishda 5 yilgacha boʻlib toʻlashga ruxsat beriladi.

Shuningdek, Sirdaryoda 500 million dollarlik investitsiya hisobiga Oʻzbekiston-Xitoy biotexnologiyalar klasteri barpo etiladi. Unda Xitoyning yetakchi oliygohlari bilan birga Gulistonda xalqaro ta'lim

va tadqiqot universiteti, innovatsion tibbiyot klinikasi, Markaziy Osiyo genom markazi, onkologik kasalliklarni davolash uchun Hujayra terapiyasi markazi tashkil qilinadi. Shuningdek, klaster tomonidan zamonaviy diagnostika qurilmalari, innovatsion vaksinalar, probiotiklar va onkologik kasalliklar uchun dori vositalari ishlab chiqariladi.

Buning uchun 200 gektar yer ajratilib, 10 ming talaba uchun oʻquv binolari, zamonaviy kampus, laboratoriyalar, muhandislar maktabi tashkil etiladi.

Ikkinchi tashabbus sifatida viloyatning 11 ta tuman va shahri Xitoy modeli asosida sanoatga ixtisoslashadi, har birida innovatsion texnoparklar tashkil qilinadi. Ularda elektrotexnika, bio-farmatsevtika, kimyo, qurilish materiallari, ipak va oziq-ovqat sanoatida innovatsion loyihalar amalga oshiriladi. Shuningdek, Sirdaryo avtomashinalar ishlab chiqarish masalasiga ham alohida ustuvorlik beriladi. Texnoparklarga erkin iqtisodiy zona maqomi beriladi va "bojxona hududida qayta ishlash" rejimining soddalashgan tizimi joriy qilinadi. 2023-yilda texnopark infratuzilmasiga 200 milliard soʻm ajratiladi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun Sirdaryoda "Oʻzbekiston-Xitoy investitsiya jamgʻarmasi" tashkil etiladi. Bu jamgʻarma Xitoyning nufuzli Ipak yoʻli fondi va boshqa moliya tashkilotlari bilan birga tashkil qilinadi. Jamgʻarmaga 1 milliard dollar sarmoya olib kelinadi.

Uchinchi tashabbus sifatida Sirdaryoda eng ilgʻor agrotexnologiyalar joriy etiladi. Xitoydan viloyat hokimiga qishloq xoʻjaligi boʻyicha maslahatchilar biriktiriladi, irrigatsiya va melioratsiya tizimlari modernizatsiyasiga investorlar jalb qilinadi.

Shuningdek, Xitoy tajribasi yordamida Sayxunobodda qoramol va parrandachilik eko-komplekslari, Mirzaobodda intensiv anor, qovun, pekan yongʻogʻi va baliqchilik plantatsiyalari tashkil qilinadi. Xovosda oʻsimliklardan tabiiy boʻyoqlar ishlab chiqarish quvvati, meva-sabzavotni saqlash, qayta ishlash va qadoqlash texnoparki tashkil etiladi. Shoʻr va suvsizlikka chidamli ekin turlari, chorvachilik nasllarini yaratish boʻyicha Xitoyning yetakchi oliygohlari bilan hamkorlik yoʻlga qoʻyiladi.

To‘rtinchi tashabbus sifatida Sirdaryo mamlakatimizni Qozog‘iston, Tojikiston, Xitoy va Afg‘oniston bilan bog‘laydigan yirik logistika xabiga aylantiriladi. Buning uchun xitoylik investorlar bilan hamkorlikda respublikaning sharqiy va markaziy qismlarini hamda chet el yo‘nalishlariga bog‘laydigan yangi transport marshrutlari va multimodal logistika markazi quriladi. Bulardan tashqari, yo‘llarni qurish, ta’mirlash va boshqarishga xususiy sektorni jalb qilish ham Sirdaryodan boshlanadi.

Beshinchi tashabbus sifatida tibbiyotdagi islohotlar natijasi va sohadagi imkoniyatlarga tayanib, Guliston shahri mamlakatimizning “innovatsion meditsina xabi”ga aylantiriladi.

Mintaqa (hudud) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadli dasturlarini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi. Bu dasturlarni ishlab chiqishda o‘zaro aloqadorlik va davomiylik, resurslarni tejash, infratuzilmaviy ta’minot tamoyillariga asoslaniladi.

Bunday dasturlarni ishlab chiqish va mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish modellarini yaratishda SWOT tahlilidan foydalaniladi. Ushbu tahlil asosida mintaqa, hududning kuchsiz va kuchli tomonlari, imkoniyatlari va tahdid, xavf-xatarlar aniqlanadi. Mintaqani rivojlantirishning turli ssenariylari ishlab chiqiladi. Inertion rivojlanish ssenariysida barcha tendensiyalar amalda saqlanadi. Eksportga yo‘naltirilgan rivojlanish ssenariysida eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni va ularning salohiyatini rivojlantirish hamda mustahkamlash tadbirlarini amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Mabilizatsion rivojlantirish ssenariysida ichki zaxiralarni, resurslarni, iqtisodiy o‘sish omillar hisobga olinadi va rivojlanishi maqsadida foydalanishga yo‘naltiriladi.

Mutanosib o‘sish ssenariysida eksportga yo‘naltirilgan va ichki resurslarni mobilizatsiya qilish variantlari sintez qilinadi, ya’ni uyg‘unlashtiriladi.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini prognozlashtirish va asoslashda mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash vazifalarini ham hal etish ko‘zda tutiladi. Umuman, ushbu strategiyani ishlab chiqish hamda amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilanadi va hal qilinadi:

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlari, variantlari, ssenariylari va koʻlamlari asoslanadi;
- rivojlanishning obyektiv qonuniyatlari va tendensiyalari hisobga olinadi;
- tovar va xizmatlar, mehnat, resurslar va moliyaviy bozorlar shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari aniqlanadi;
- mintaqa ijtimoiy rivojlanishi, aholi turmush darajasi va sifatining oʻsishi yoʻnalishlari belgilanadi;
- tarkibiy va investitsiyaviy siyosat yoʻnalishlari shakllantiriladi;
- mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi muammolar, turgʻunlik va tanglik holatlari aniqlanib, ularni hal etish bosqichlari hamda muddatlari belgilanadi;
- viloyatlararo, tumanlararo va tashqi iqtisodiy munosabatlarni samarali rivojlantirish hamda takomillashtirish yoʻnalishlari asoslanadi;
- eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi;
- tashqi muhitning ahvolini yaxshilash, tabiatdan foydalanishni takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlar asoslanadi va ishlab chiqiladi.

Mintaqa, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dasturlarning amalga oshirilishi mintaqaning oʻz-oʻzini tashkillashtiruvchi, oʻzini oʻzi boshqaruvchi va oqilona boshqariladigan ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy va territorial-ma'muriy birlik sifatida rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Oʻzbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy darajalaridagi va iqtisodiy-tabiiy salohiyatidagi farqlar ularni istiqbolda hududiy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Hududni iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish strategiyasini asoslashning quyidagi yoʻnalishlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- hudud rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish; bu bosqichda

hududning erishgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi;

- hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasini asoslash; rivojlanish prognoz qilinadi; strategiya asoslanadi, hudud rivojlanishini tartibga solish metodlari tanlanadi;

- konsepsiya ishlab chiqish va hudud rivojlanishini davlat va bozor mexanizmlari orqali tartiblash metodlarini tanlash;

- hududning moliyaviy resurslari o'sishini prognoz qilish; budjet daromad qismini kengaytirish va mustahkamlash yo'llarini izlash; budjet daromad qismini to'ldirishning yangi manbalarini aniqlash, turli mulkchilik shakllariga asoslangan tadbirkorlikdan, xorijiy investorlardan va nobudjet jamg'armalaridan qo'shimcha mablag'larni jalb etish.

Davlat tomonidan hududlarni rivojlantirishni tartibga solish maqsadida quyidagi dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

1. Sanoatni rivojlantirish dasturlari.

2. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishni tartibga solish. Bunda quyidagi tartiblash usullaridan foydalanilmoqda.

- hududlarda mahsulot hajmini, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini va hududlarning ixtisoslashuvini tartibga solish;

- qishloqda ijtimoiy va bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;

- qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ ahvolini yaxshilash;

- qishloq xo'jaligi korxonalari moddiy-texnika bazasini yaxshilash va mustahkamlash, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha korxonalar tarmog'ini yaratish;

- tabiatni muhofaza qiluvchi va gidrotexnik qurilmalarni qurish;

- zarar ko'rib ishlovchi va past rentabelli qishloq xo'jaligi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturiga muvofiq qishloqda mulkdorlar sinfini fermer xo'jaliklarini shakllantirish jarayonlari davom ettiriladi, tuproq unumdorligini oshirish, seleksiya va urug'chilikni yaxshilash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hajmlarini o'stirish chora-tadbirlari ko'riladi.

3. Hududlar eksport salohiyatidan samarali foydalanish va qo'shma korxonalarni tashkil etishni tartibga solish.

Endilikda respublika hududlarida, ayniqsa, kam rivojlangan

hududlarda qo‘shma korxonalar tashkil etish xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida maqsadli dasturlar tuzish va ularni rag‘batlantirish uchun soliq, boj, kredit imtiyozlari mexanizmini yaratish maqsadga muvofiqdir.

4. Transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish. Hududlarda temir yo‘llar, avtomobil yo‘llarini qurish hududiy siyosatning muhim qismi hisoblanadi. Buning oqibatida hududlarning viloyatlararo, tumanlararo va tashqi iqtisodiy aloqalari kuchayadi, tadbirkorlik, biznes rivojlanishi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay muhit yaratiladi.

5. Hududlarning ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini tuzishda ma’lum tamoyillarga asoslanish kerak bo‘ladi. Bu tamoyillar mintaqaviy iqtisodiy fan nuqtai nazaridan quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarining maqsadliligi;
- hududni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha resurslarni to‘plash va yo‘naltirish;
- belgilangan harakatni nazorat qilish va tartiblash imkoniyatlarining ochiqligi;
- hududni rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning individualligi;
- qo‘llab-quvvatlash mexanizmining ta’sirchanligi;
- respublika va mahalliy hokimiyat organlarining hamkorligi va ular faoliyatining uyg‘unligi.

Hududiy dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Hududiy dasturlarini bajarishga to‘sqinlik qiladigan holatlar va omillarni aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

Hududlarni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilinadigan dasturlarning bajarilishiga ko‘pgina hollarda quyidagi omillar to‘sqinlik qilishi mumkin:

- respublika va hududiy maqsadli dasturlarni tanlashning sinalgan tizimlarining mavjud emasligi, ularni amalga oshirishning va ularni bajarish ketma-ketligining yetarli darajada asoslanmaganligi;

- respublika tarmoq dasturlarining hududiy jihatlarining yetarli darajada ishlanmaganligi;

- tarmoq dasturlari hududiy jihatlari monitoringining yo‘qligi;

- respublika va hududiy dasturlarni amalga oshirish mexanizmining mustahkam emasligi;

Respublika va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda maqsadli-dasturlash uslubidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu uslub pirovard natijaga erishish uchun iqtisodiy resurslarni yo‘naltirishni ta’minlashni ifodalaydi. Uning yordamida eng muhim iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish muammolari hal etiladi. Bu muammolar amalda tarmoqlararo yoki hududlararo tavsifga ega bo‘lib, xalq xo‘jaligi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Maqsadli dasturlar o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallab korxona, mamlakat va xalqaro miqyosda tuziladi. Dasturlar o‘z ichiga pirovard va oraliq maqsadlarni, vazifalarni, ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini, resurslar ta’minotini olishi kerak.

Dastur maqsadi o‘lchamga ega bo‘lishi, chora-tadbirlar tizimi esa pirovard va oraliq maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi lozim.

Maqsadli hududiy dasturlar hududiy rivojlanishni tartibga solishning samarali metodi sifatida davlat, mahalliy, jamoaviy, shaxsiy manfaatlarni uyg‘unlashtirishi hamda jamiyatning barcha aholi tabaqalarini davlatning hududiy siyosatini amalga oshirishga da’vat etadigan, yo‘naltiradigan bo‘lishi kerak. Shuningdek, hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlari mamlakatda amal qilayotgan qonunlar, huquqiy me’yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilishi lozim.

Hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad hududiy iqtisodiyotni uning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va tashqi manbalarni jalb etish yo‘li bilan mutanosib va oqilona rivojlantirishdan iboratdir. Ushbulardan kelib chiqib, hududiy dasturlarni ishlab chiqishda quyidagi vazifalarni bajarishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

- hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni umumiy baholash va iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendensiyalarini, iqtisodiy o‘sish muammolarini va zaxiralarini aniqlash;

- hududning mahalliy mineral-xomashyo, yer-suv va mehnat resurslaridan foydalanishning miqdor va sifat darajalarini tahlil qilish;
- hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish, istiqbolli tarmoqlar va hududning ixtisoslashish sohasini, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash;
- mahalliy qishloq xo‘jaligi va mineral xomashyodan samarali foydalanishga asoslangan yangi eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni shakllantirishning aniq yo‘llarini belgilash, jahon darajasidagi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha kamchiqindili va chiqindisiz texnologiyalar jihozlangan yangi korxonalarni vujudga keltirish;
- aholini ijtimoiy himoyalash va mehnat resurslarining oqilona bandligini ta’minlashning mexanizmini ishlab chiqish;
- hududda qulay, jozibador investitsion muhitni yaratish, xorijiy investorlar, mahalliy korxonalar, tadbirkorlar, aholi mablag‘lari va resurslarini kengroq jalb etish;
- xo‘jalik subyektlari o‘rtasida raqobat sharoitini va to‘laqonli bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;
- hududni oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa ommaviy iste’mol mollari bilan o‘zini o‘zi ta’minlashini oshirish;
- qishloq aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish. Buning uchun hududga mahalliy soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berish maqsadga muvofiqdir.
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish orqali uning hudud yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshirish;
- hududning tashqi iqtisodiy faoliyatini kengaytirish, eksport va import tarkibini oqilonalashtirish, hududda faoliyat yuritayotgan xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini yanada yaxshilash va yangi qo‘shma korxonalarni tashkil etish.

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish uchun avvalambor hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni umumiy baholash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1. O‘tgan davrdagi hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi tavsifi beriladi. Bunda hududning sanoat, qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy salohiyatini baholashga alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi.

2. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning natijalari, ko‘p ukladli iqtisodiyotning vujudga kelishi va rivojlanishi, shuningdek, hududiy bozor infratuzilmasi ahvoli baholanadi.

3. Hududdagi tarmoqlar va yirik sanoat korxonalarining o‘tgan davrdagi faoliyati tahlil qilinadi, ularning ish natijalari yoki orqada qolishining sabablari va omillari aniqlanadi.

4. Hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi va ahvoli to‘g‘risidagi tahlilga asoslanib, uning rivojlanishidagi ijobiy va salbiy tendensiyalari, iqtisodiy rivojlanishi zaxiralari va foydalanilmagan imkoniyatlari aniqlanadi. Shuningdek, kelgusida hal etilishi lozim bo‘lgan muhim iqtisodiy va ijtimoiy muammolar aniqlanadi.

5. Sanoat rivojlanishi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi belgilanadi, ishlab chiqarish quvvatlarini eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishga qayta ixtisoslashtirish va kengaytirish uchun qo‘shimcha zaxiralar va resurslar aniqlanadi. Hudud imkoniyatlarini hisobga olgan holda ustuvor ahamiyatli tarmoqlar va ishlab chiqarishlar aniqlanadi.

6. Hudud aholisini o‘zida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlanganligi, ularni hududdan chiqarish va kiritish balansi, agroresurs salohiyatidan foydalanish samaradorligi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligining o‘sishi (pasayishi) omillari va sabablari baholanadi.

Hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Hududning mehnat, yer-suv va mineral xomashyo resurslari bilan ta’minlanganligi miqdoriy va sifat bahosi beriladi.

2. Hududdagi demografik vaziyat, aholining ish bilan bandligi keyingi o‘n yillik davr bo‘yicha baholanadi. Ishsizlik darajasi, shu jumladan, uning yashirin shakllari baholanib, aholi va mehnat resurslari soni prognoz qilinadi.

3. Foydali qazilma boyliklari zaxiralari, ularning o‘zlashtirilgan ahvoli tahlil qilinadi. Hudud mineral-xomashyo bazasi imkoniyat-

lari, qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb etishni hisobga olgan holda baholanadi. Shuningdek, qazib chiqaruvchi korxonalarning foydali qazilma boyliklari bilan ta’minlangani, ularning konlarni o‘zlashtirish xarajatlari o‘rganiladi.

4. Hududda yer-suv resurslari bilan ta’minlangani ularning ahvoli, yerlarning meliorativ ahvoli, yer bonitetlari o‘rganilib, meliorativ yaxshilash istiqbollari o‘rganiladi.

5. Hududning ishlab chiqarish, transport va aloqa infratuzilma salohiyati o‘rganiladi. Aholining ijtimoiy infratuzilma obyektlari va xizmatlari bilan ta’minlanganligi darajasi baholanadi.

6. Hududda ishlab chiqaruvchi kuchlarni, yangi korxonalarni joylashtirish uchun istiqbolli tuman, shahar, yirik aholi yashash punktlari tanlanadi.

Hududni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish yo‘nalishlari belgilanadi. Rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Dasturda hududni iqtisodiy va ijtimoiy istiqbolda rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va ko‘rsatkichlari bayon qilinadi. Bunda asosiy e’tibor yangi ishchi o‘rinlari, tabiiy, moliyaviy, mehnat resurslarini, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishga qaratiladi. Bu yo‘nalishlar quyidagilarni ifodalashi lozim:

1. Hududning istiqboldagi ehtiyojlari va hududlararo ayriboshlash imkoniyatlarini kengaytirish asosida iqtisodiy maqbul tarmoq va ishlab chiqarishlar aniqlanadi. Istiqbolda tarmoqlarni rivojlantirishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari, tarmoq tarkibining o‘zgarishi, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hajmi prognoz qilinadi. Bunda amaldagi korxonalarni texnik, texnologik va tashkiliy jihatdan yangilash muammolariga alohida e’tibor qaratiladi. Buning uchun ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish yanada chuqurlashtiriladi, nisbatan kichik korxonalar rivojlantiriladi. Bu korxonalarda mahalliy mineral-xomashyo va qishloq xo‘jalik resurslaridan foydalaniladi.

2. Hududda yangi korxonalarni qurish, faoliyat yuritayotgan korxonalarni rekonstruksiya qilish, ixtisosligini o‘zgartirish zarurligi asoslanadi; yirik obyektlarga qo‘shimcha mablag‘lar jalb qilish hisob-kitoblari amalga oshiriladi.

3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari, ekin maydonlari tarkibining o‘zgarishi, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning natural hajmi prognoz qilinadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini, chorva mollari mahsuldorligini oshirish yo‘llari va manbalari belgilanadi. Yangi texnologiyalarni joriy etish ko‘zda tutiladi.

4. Hududda xomashyolarni, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan tugallangan sikldagi ishlab chiqarish tarmoqlarini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va sotish shaxobchalarini vujudga keltirish, xorijiy investitsiyali qo‘shma korxonalarni vujudga keltirish orqali yangi zamonaviy texnologiyalarni, xo‘jalik yuritish shakllarini va boshqarish usullarini joriy etish.

5. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va tabiiy resurslardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida transport tizimi va kommunikatsiyalarini rivojlantirish istiqbollarini asoslash.

6. Mulkdorlar sinfini vujudga keltirish bo‘yicha vazifalarni hal etish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtisodiyotdagi ulushini ko‘paytirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish.

7. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish ko‘lamlari, parametrlari belgilanadi. Bunda tashqi savdo tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga, mahalliy xomashyo resurslarini hisobga olgan holda xorijiy investitsiyali korxonalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

8. Dasturda tabiiy tashqi muhitni, tabiatni muhofaza qilish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish tadbirlari, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish chora-tadbirlari ham o‘z ifodasini topadi.

Har bir hududiy dasturda uni amalga oshirish mexanizmi ko‘zda tutilishi kerak. Bu mexanizmda dasturni moliyaviy, iqtisodiy resurslar bilan ta’minlanishi muhim o‘rin tutadi.

Dasturni ishlab chiqishda har bir tadbir va tarmoq bo‘yicha turli resurslarga bo‘lgan talab, ehtiyoj hisob-kitob qilinadi. Shundan so‘ng dastur bo‘yicha uning resurslar bilan ta’minlanish manbalari aniqlanadi. Dasturlar resurslar balanslashtiriladi. Maqsadlar va resurslar o‘rtasidagi muvofiqlik ta’minlanadi.

Dasturlarni moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirishda avvalambor mahalliy resurslar va imkoniyatlar hisobga olinadi.

Joylardagi mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mahalliy budjet, tadbirkorlar va korxonalar oʻz mablagʻlari, fermer va dehqon xoʻjaliklari, aholi mablagʻlarini jalb qilinadigan xorijiy investorlar, hududdan tashqaridagi tashkilot, korxonalar mablagʻlarini hamda bank kreditlarini hududiy dasturni amalga oshirishga jalb qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishlari lozim boʻladi.

Shuningdek, hududiy dasturlarni amalga oshirishda respublika budjeti va budjetdan tashqari jamgʻarmalar, Oʻzbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish jamgʻarmasi mablagʻlari ham jalb etilishi mumkin.

Dasturlarni ishlab chiqishda undan kutilayotgan natijalar qanday boʻlishi oldindan belgilanishi lozim. Dasturlarni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari sifatida hududiy yalpi ichki mahsulot, sanoat va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning oʻsish surʼatlari, umumiy hajmi aholi jon boshiga ishlab chiqarish surʼatlari olinadi. Shuningdek, aholi turmush darajasi va uning ish bilan bandligi, aholi jon boshiga daromadlarining oʻsishi, hudud aholisining gaz, elektr energiya, toza ichimlik suvi, uy-joy bilan taʼminlanishining yaxshilanishi, hududning oʻzini oʻzi oziq-ovqat, boshqa isteʼmol tovarlari bilan taʼminlanishining yaxshilanishi koʻrsatkichlari dasturlarning bajarilishi natijalari hisoblanadi.

Dasturlarni bajarilishini tashkiliy jihatdan taʼminlash muhim ahamiyat kasb etadi. Dasturlarni amalga oshirishda butun masʼuliyat joylardagi mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari zimmasiga yuklatiladi. Maqsadli hududiy dasturni eksport baholash, umumiy nazorat qilishni Vazirlar Mahkamasining tegishli boshqarma va boʻlinmalari amalga oshiradilar.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini taʼminlashga doir ustuvor chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 2017-yil 8-avgust, PQ-3182-son qaroriga binoan hududlar sektorlarga boʻlinib, ularga rahbarlar belgilandi, sektorlar rahbarlariga hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini tashkil etish va hal qilish, shu jumladan, aholining eng muhim muammolarini yechish yuzasidan javobgarlik yuklash ham-

da vakolatlar berildi. Bunda respublika hukumati va joylardagi mahalliy hokimiyat organlarining maqsadli hududiy dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirishdagi vakolatlari va vazifalari aniq belgilanishi lozim bo‘ladi.

Hududiy dasturlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- yetarli darajada rivojlanmagan, umumrespublika darajasidan orqada qolayotgan hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishning yagona metodikasini tasdiqlash;
- respublika shahar va qishloq tumanlaridagi iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini monitoring qilish, ularni rivojlanish darajalariga ko‘ra tipologiyasini ishlab chiqish;
- hududiy dasturlarni, orqada qolgan tuman va shaharlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarining loyihalarini ekspertizadan o‘tkazishni tashkil etish.

Joylarda hududlarni rivojlantirish dasturlarini samarali boshqarish maqsadida viloyat, shahar, tuman hokimliklariga quyidagi vazifalarni yuklash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- hududiy rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, hududiy dasturni tuzish bo‘yicha takliflar berish;
- dastur asosida qo‘llab-quvvatlashga muhtoj, muammoli shahar, tuman, aholi punktlarini ajratish va belgilash;
- ular asosida mahalliy dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish hududiy dasturlarni respublikaning hududiy siyosati ustuvorliklari va tamoyillariga muvofiqlashtirish;
- mahalliy dasturlar loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish va ular asosida yagona hududiy dasturlarni shakllantirish hamda ularni ko‘rib chiqish, tasdiqlash uchun hududiy rivojlantirish bo‘yicha Respublika komissiyasiga taqdim etish;
- mahalliy dasturlarni amalga oshirishga rahbarlik qilish va bajarilishini nazorat qilish, dastur bo‘yicha joriy axborotlarni, hisobotlarni muntazam berib borish.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasida viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va maqbul foydalanish bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xoʻjaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

- hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish koʻlamini kengaytirish, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

- yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xoʻjalik birlashmalarining mablagʻlarini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

- subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar koʻrsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

- hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

Vazirlar Mahkamasining 09.08.2021-yildagi "Hududlarda "mahallabay" ishlash asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini koʻpaytirish orqali kambagʻallikni qisqartirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 504-son qarori qabul qilingan.

"Mahallabay" ishlash asosida "ogʻir" mahallalarda tadbirkorlikni yanada qoʻllab-quvvatlash boʻyicha "Andijon tajribasi"ni respublikaning boshqa hududlarida ham tatbiq etish uchun davlat ulushiga ega boʻlgan tijorat banklariga 100 mln dollar ekvivalentidagi mablagʻlar ajratiladi.

Qabul qilingan hujjat bilan "mahallabay" ishlash yoʻnalishining asoslari belgilangan:

- mahallalarning "oʻsish nuqtalari"ni (ixtisoslashuv yoʻnalishlarini) aniqlash va tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishda koʻmaklashish;
- aholining doimiy daromad manbalarini yanada koʻpaytirish, oilaviy tadbirkorlikni va oʻzini oʻzi band qilib ishlash faoliyatini yanada kengaytirish choralarini koʻrish;

- mahallalarda tadbirkorlik faoliyatini yoʻlga qoʻyish istagi boʻlgan tashabbuskorlarni biznes asoslariga oʻqitish;
- xonadonlarda tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, daromadliligini yanada oshirish, mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur asbob-uskuna va xomashyo bilan imtiyozli kreditlar asosida ta'minlash, shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishga koʻmaklashish jarayonlarini tashkil etish uchun "yetakchi" tadbirkorlik subyektlarini biriktirish;
- tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishga koʻmaklashish va faoliyatini monitoring qilib borish, ishlab chiqaradigan mahsuloti (xizmati) bozorini topishiga yordam berish.

Hujjat asosida:

- "yetakchi" tadbirkorlar yetarli tadbirkorlik tajribasiga va ijobiy moliyaviy koʻrsatkichlarga ega, faoliyati mahalla ixtisoslashuviga mos boʻlgan, xonadonlarni kooperatsiya asosida yuqori darajada qamrab oladigan, "ogʻir" mahallalarda oʻz biznesini rivojlantirish dasturiga ega boʻlgan tadbirkorlar orasidan tanlab olinadi;
- tijorat banklari tomonidan kreditlar kooperatsiya asosida kichik biznesni va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga koʻmaklashish uchun "ogʻir" mahallalarga biriktirilgan "yetakchi" tadbirkorlik subyektlariga 3 yil muddatgacha yillik 10% stavkada bitta mahalla uchun 2 mlrd. soʻmgacha miqdorda ajratiladi;
- "yetakchi" tadbirkorlarga kooperatsiya asosida ishlayotgan fuqaro tomonidan ishlab chiqarilayotgan (yetishtirilayotgan) mahsulotlarni sotib olish yoki shartnomaga asosan fuqaroga oylik ish haqi toʻlash sharti oʻrnatiladi.

Bob boʻyicha xulosalar

Mintaqaviy iqtisodiyot – bu ishlab chiqarish va mahsulot sotish bozorlarini oqilona joylashtirish asoslarini oʻrganuvchi amaliy iqtisodiy fandir.

Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida XIX asrda shakllana boshladi. Xorijiy tadqiqotchilar orasida mintaqaviy iqtisodiy nazariya muammolari, ishlab chiqarish kuchlarini taqsimlash va mintaqaviy ishlab chiqarish samaradorligini rivojlantirishga katta hissa qoʻshgan nemis iqtisodchilari – Iogann Haynrix Tyunen, Alfred Veber, Valter

Kristaller, Avgust Lesh, Pensilvaniya universiteti Uolter Ayzard, fransuz iqtisodchisi Jan Shardone, amerikalik iqtisodchi Vasiliy Leontev, V. Tompson, T. Palander kabilarni sanab oʻtish mumkin.

Mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy vazifasi butun mamlakat va uning alohida mintaqalari iqtisodiy manfaatlari oʻrtasida oqilona kelishuvni ilmiy asoslashdan iborat.

Mintaqaviy iqtisodiyot doirasida quyidagi muammolar oʻrganiladi:

- muayyan mintaqa iqtisodiyoti;
- mintaqalar oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlar;
- mintaqaviy tizimlar (milliy iqtisodiyot oʻzaro ta'sir qiluvchi mintaqalar tizimi sifatida);
- ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish;
- iqtisodiy hayotning mintaqaviy jihatlari;
- hududiy boshqaruv tizimini modellashtirish;
- mintaqada iqtisodiy faoliyatni boshqarish va tartibga solish mexanizmlari va usullarini takomillashtirish.

Iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirish, mamlakatda iqtisodiy islohotlarining chuqurlashishi koʻp jihatdan qarorlarni qabul qilishning ogʻirlik markazini mintaqaviy darajaga oʻtkazish, mahalliy hokimiyatlarning institutsional oʻzgarishlarni amalga oshirishga tayyorligi va ularning samaradorligini ta'minlashga layoqati bilan bogʻliq.

Iqtisodiy oʻsishni ta'minlash, mintaqalararo mintaqaviy va mahalliy bozorlarning birligi va oʻzaro bogʻliqligini mustahkamlash, birinchi navbatda, budjetni rivojlantirish uchun mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning ustuvor strategiyalarini aniqlash zarurdir.

Oʻzbekiston subyektlarining hududiy rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari va omillari davlatning mintaqaviy siyosatiga ta'sir koʻrsatadi.

Ishlab chiqarish munosabatlarini kapitallashtirish sharoitida Oʻzbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish samaradorligi mintaqalarda, shu jumladan, narx, pul-kredit, fiskal va boshqa sohalarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy boshqaruv strategiyalariga bogʻliq. Shuning uchun mezo darajada oʻtish davri iqtisodiyotining amal-

dagi davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish muammolari muhim ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bu mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini va uning tarkibiy o‘zgarishlarini davlat tomonidan tartibga solishning mavjud shakllarini chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

Mintaqa iqtisodiy tizim sifatida mamlakat ishlab chiqarish majmuasining ajralmas qismi hisoblanadi. Aynan shu yerda mehnat resurslari, asosiy va aylanma mablag‘lar, iqtisodiy munosabatlar va munosabatlarni takror ishlab chiqarishning to‘liq sikli amalga oshiriladi. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish usullari, usul va uslublarini, shu jumladan, fiskal, pul-kredit va boshqa iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish jarayonlarini tahlil qilmasdan mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirish mumkin emas.

Mintaqaviy darajada tarkibiy o‘zgarishlarning ustuvor yo‘nalishlari mintaqaviy iqtisodiyot va tarmoqlarning ixtisoslashuvi, tarkibiy nomutanosibliklarning tabiati bilan belgilanadi.

Hamma joyda amalga oshiriladigan mintaqalashtirish jarayoni mintaqaviy iqtisodiy siyosat tamoyillarini shakllantirish zarurligini nazarda tutadi: hokimiyatni markaziy hukumat va mintaqa o‘rtasida ajratish; milliy manfaatlarni amalga oshirishga, barcha hududlarni rivojlantirish uchun teng sharoitlarni shakllantirishga e’tibor qaratish; mintaqaviy maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga asoslangan mintaqaviy siyosat vazifalari va ularni hal qilish usullarining ustuvorliklar tizimi; amalga oshiriluvchi tadbirlarni, resurslarni qo‘llab-quvvatlash.

Muammolarning tabiati va resurslarning mavjudligidan kelib chiqqan holda, mintaqaviy siyosat quyidagi to‘rt turdan biriga ajratiladi: rag‘batlantiruvchi, kompensatsion, moslashuvchan va qarshi ta’sir ko‘rsatuvchi.

Mintaqaviy siyosatni rag‘batlantirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish va yangi faoliyat turlarini, iqtisodiy munosabatlarni joriy etish orqali mintaqaviy rivojlanishni tezlashtirishda mavjud mablag‘lardan foydalanadi. Kompensatsion mintaqaviy siyosat ushbu vositalardan, birinchi navbatda, ijtimoiy va ekologik tabiatga ega bo‘lgan salbiy oqibatlarni yumshatish uchun foydalana-

di. Moslashuvchan mintaqaviy siyosat mintaqaviy rivojlanishning harakatchan va boshqariladigan tarkibiy qismlarini inert, kamroq boshqariladigan qismlarga moslashtirish uchun amalga oshiriladi. Qarshi ta'sir ko'rsatuvchi mintaqaviy siyosat obyektiv salbiy tendensiyalarga qarshi kurashishda mavjud resurslardan foydalanadi.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishi mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga erishish, mintaqaning iqtisodiy mustaqilligi sharoitida aholi farovonligini ta'minlashdir. Ushbu mustaqillik barcha darajadagi boshqaruv organlari uchun mintaqaviy muammolarni hal qilish borasida vakolat va resurslarning mavjudligini anglatadi.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- mavjud imkoniyatlar doirasida hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olgan holda mintaqaviy budjetlar xarajatlarini shakllantirish;
- mintaqalarni ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli prognozlari va dasturlarini ishlab chiqish;
- hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning yillik indikativ rejalarini ishlab chiqish;
- mintaqaning asosiy ishlab chiqarish aktivlarini keng shakllantirish resurslarining deyarli to'liq kamayishi hisobiga tarkibiy va investitsiya siyosatini intensiv yo'lga yo'naltirish.

Takrorlash uchun savollar:

1. Mintaqa iqtisodiyoti tushunchasining mazmuni nimadan iborat?
2. Qanday omillar mintaqaviy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi?
3. Mintaqaviy siyosat tushunchasining mazmuni nimadan iborat?
4. Mintaqaviy siyosatning asosiy tamoyillari va yo'nalishlari nimalardan iborat?
5. O'zbekistonda mintaqaviy siyosatning maqsadi va vazifalari nimalarda o'z ifodasini topadi?
6. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligining mazmunini tushuntirib bering.
7. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga qanday tahdidlar mavjud?

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turlarini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

IX BOB. JAMIYATNING IJTIMOIY SOHASI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI

9.1. Jamiyatning ijtimoiy sohasi, uning mazmuni va ijtimoiy rivojlanishdagi roli

9.2. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati, maqsadi va vazifalari

9.3. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning maqsadi, yo'nalishlari va ijtimoiy sohada davlat boshqaruvi

9.1. Jamiyatning ijtimoiy sohasi, uning mazmuni va ijtimoiy rivojlanishdagi roli

Ijtimoiy soha – ijtimoiy hayotning nisbatan mustaqil sohasi, unda xilma-xil ijtimoiy manfaatlar va ijtimoiy subyektlarning munosabatlari amalga oshadi, shaxsning ijtimoiy shakllanishi yuz beradi; shu bilan bir vaqtda ijtimoiy ne'matlar yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatishda band bo'lgan kishilar faoliyatining sohasi "ijtimoiy munosobatlar" ma'nosidan ancha keng, chunki moddiy negiz va ijtimoiy munosabatlarni amalga oshiruvchi kishilarni qamrab oladi.

Ijtimoiy soha inson hayotini tashkillashtirish, ijtimoiy iste'molga bo'lgan talablarni, jumladan, turar joy, bilim olish, kasb-korlikka va malakaga ega bo'lish, sog'liqni saqlash va mustahkamlash, dam olish, madaniy va ma'naviy yetuk bo'lishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga bevosita xizmat ko'rsatuvchi iqtisodiyot tarmoqlari majmuidir. Ijtimoiy soha (sektor) – davlat va jamoat tashkilotlari (shu jumladan, mahalliy o'z o'zini boshqarish organlari) ixtiyori-


da bo‘lgan iqtisodiyot resurslari majmuasi bo‘lib, iqtisodiy muhim (maydon)ning shunday qismiki, unda quyidagi xususiyatlar mujassam bo‘ladi:

1. Iqtisodiy faoliyatni ayirboshlanishini tashkil etishning nobozor turi ustuvor bo‘ladi, bozor amal qilmaydi yoki qisman amal qiladi;

2. Ijtimoiy (jamoat) ne’matlar ishlab chiqariladi, taqsimlanadi va iste’mol qilinadi;

3. Jamoat (ijtimoiy) ne’matga talab va taklif o‘rtasidan iqtisodiy muvozanat davlat, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari, ko‘ngilli jamoat tashkilotlari tomonidan tegishli ijtimoiy dastaklar, birinchi navbatda, budjet-moliya siyosati yordamida ta’minlanadi.

Ijtimoiy soha ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy xizmatlarni o‘z ichiga oladi (9.1-rasm).



9.1-rasm. Ijtimoiy sohaning tarkibi[64]

Ijtimoiy yordam mehnatga layoqatsiz yoki qaramog‘ida bolalar bo‘lganligi uchun ishlay olmaydiganlarga yordam ko‘rsatishni ifodalaydi. Ijtimoiy yordam, asosan, davlat budjetidan moliyalashtiriladi va xayriya, ya’ni sotsial transferlar hisoblanadi. Ijtimoiy yordamning namoyon bo‘lish shakllari quyidagilardan iborat:

- kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar;

[64] Mualliflar tomonidan tuzilgan.

- bolali oilalarga nafaqalar;
- nogironlarga nafaqalar;
- oziq-ovqat talonlari;
- uy-joy xo‘jaligiga dotatsiyalar.

Ijtimoiy sug‘urta pensiyaga chiqish, vaqtinchalik mehnat layoqatini yo‘qotish va ishsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan ish haqini yo‘qotishlarni qoplashni ifodalaydi. Ijtimoiy sug‘urta ish haqidan ijtimoiy ajratmalar hisobidan moliyalashtiriladi va topilgan huquq hisoblanadi. Uning namoyon bo‘lish shakllari quyidagilardan iborat:

- pensiya;
- ishsizlik bo‘yicha nafaqa;
- tibbiy sug‘urta.

Ijtimoiy xizmatlar sohasi inson kapitalini shakllantirish va investitsiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy xizmatlar o‘z ichiga quyidagi sohalarni oladi:

- ta’lim;
- sog‘liqni saqlash;
- madaniyat, sport;
- mehnat birjasi xizmatlari.

Ijtimoiy soha amal qilishining maqsadi taqsimlash funksiyalarini amalga oshirish mexnanizmlari yordamida ma’lum bir mintaqa (hududda) insonning ijtimoiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning yagona ijtimoiy-iqtisodiy maydonni shakllashtirishdan iboratdir. Ijtimoiy sohada iqtisodiy faoliyat tarkibi davlat, ijtimoiy, aralash, xususiy sektorlardan iborat.

Ijtimoiy soha rivojlanishi quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi:

- ijtimoiy xarajatlar hajmi va tarkibi inson ijodiy potensiali ahamiyatining oshishi, inson rivojlanishi uchun xarajatlarning o‘sishi;
- ijtimoiy iqtisodiyot aralash sektoridagi raqobat va bozor mexanizmi imkoniyatlarining kengayishi. Bu holda ijtimoiy xarajatlar kamayishi uchun imkoniyatlar yaratiladi;
- davlat mulkini oqilona xususiylashtirish.

Turli mamlakatlardagi ijtimoiy sohaga qilinadigan davlat xarajatlaridagi farqlar soliq yukining og‘irligiga; ijtimoiy xarajatlar hajmiga; moliyaviy siyosatning qati’yligiga; harbiy xarajatlarning qisqartirilishiga; xususiyslashtirish ko‘lamiga bog‘liq.

Ijtimoiy sohanining zarurligini belgilovchi omillar bozor va nobozor omillaridan iborat bo‘ladi. Bozor omillari uning kamchilik va salbiy jihatlari bilan ifodalanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- Xususiy tadbirkorlikning takror ishlab chiqarishni normal ta`minlay olmasligi;
- Xususiy tadbirkorlikning jamoat ne`matlarini ishlab chiqara olmasligi;
- Raqobatning kamchiliklari;
- Bozor axborotlarini olishning qiyinligi;
- Tashqi samaralar. Firmalar faoliyatining boshqalarga ziyon yetkazishi. Salbiy eksternaliy.

Bozor bilan bog‘liq bo‘lmagan omillarga quyidagilar kiradi:

- Davlat boshqaruv organlarining o‘zaro va iqtisodiyotning boshqa sektori muassasalari bilan iqtisodiy va moliyaviy aloqa qilishga majburligi;
- Bozor iqtisodiyoti institutsional asoslarini takomillashtirib borish zarurligi;
- Daromadlarni qayta taqsimlash zarurligi.

Shunday qilib iqtisodiyotning ijtimoiy sohasi xususiy tadbirkorlik va bozorning o‘z o‘zini tartiblashi asosida hal qila olmaydigan muammolarni hal qiladi. Davlatning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishdagi kamchiliklari esa fuqarolik institutlari, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari tomonidan tuzatilib, to‘ldirilib boriladi. Ijtimoiy soha iqtisodiyotining rivojlanishi iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatga asoslangan ijtimoiy samaradorlikni ta’minlaydi.

Ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi, uning holati avvalambor moddiy ishlab chiqarishning rivojlanganligi bilan bog‘liqdir. Biroq teskari munosabat ham mavjud, ya’ni o‘z navbatida u ishlab chiqarishni rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi davlatning iqtisodiy siyosati va iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir.

Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishida ijtimoiy sohaning roli oshib bormoqda. Ijtimoiy sohaning ustun darajada rivojlanib borishi ijtimoiy sohada band bo‘lganlar ulushining oshib borishi bun-

ga misol boʻla oladi. Jamiyat rivojlanishida inson omilining roli muhim boʻlib, u doim oshib boradi. Iqtisodiy oʻsishda ilmning va sogʻliqni saqlashning ta'siri oʻsib borishi haqida Jahon bankining 1998-1999-yillar uchun "Rivojlanishda ilmning hissasi" ("Знание на службе развития") nomli hisobotida toʻxtalib oʻtiladi. Xodimlarning ma'lumoti, malakasining oshishi YIMda ushbu omillar hisobiga oʻsish ulushida namoyon boʻladi. Masalan, Amerika iqtisodchisi Y.Denison taxminiga koʻra 1929-1982-yillarda milliy daromad oʻsishining 14% ma'lumot, malakani oshirish hisobiga 21% mehnat unumdorligining oʻsishi hisobiga erishilgan.

Insonning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari uning manfaatlarida namoyon boʻladi. Jamiyat, shu jumladan, iqtisodiyot rivojlanishi uchun inson, jamiyat, davlat manfaatlarining mushtarakligini hamda ular oʻrtasidagi nisbatlarning uygʻunligini ta'minlash zarurdir. Turli nazariyalarda bu borada turlicha yondashuvlar mavjuddir. Neoklassik nazariyada shaxs manfaati asosiy va belgilovchi hisoblanadi. V.Pareto, A.Bergson va P.Samuelsonlar jamiyat manfaatini shaxslar manfaatlarining majmuasi deb tariflaganlar. Iqtisodiy sotsiodinamika nazariyasiga koʻra shaxs va jamiyat manfaatlari komplementar, yani oʻzaro teng, bir-birini toʻldiruvchi. Bozorda har bir subyekt oʻz shaxsiy manfaatini koʻzlaydi. Jami talab individual va ijtimoiy naflilik ta'sirida shakllanadi. Davlat ilmiy-tadqiqot faoliyatini, ish oʻrinlarini yaratishni, madaniyatni, tashqi muhitni saqlash va rivojlantirishni moliyalashtirish orqali iqtisodiy oʻsishning sotsiodinamik multiplikatorini yaratadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat tashkiliy unsurlari va davlat organlari oʻrtasida ijtimoiy sheriklik, hamkorlik qaror topganda ijtimoiy adolat, shaxs, jamiyat va davlat oʻrtasida mutanosib munosabatlar rivojlanishi uchun asos yaratiladi va fuqarolik jamiyati shakllanadi. Jamiyatning rivojlanish yoʻnalishi, shaxs, jamiyat, davlat manfaatlari uygʻunligining ta`minlanishi davlat rivojlanishi modeliga bogʻliq.

Qoʻmondonlik-ma'muriyatchilik modelida ijtimoiy ahamiyatli ne'matlar, asosan, kartochka tizimi orqali taqsimlanadi. Ijtimoiy yoʻnaltirilgan modelda keng ijtimoiy xizmatlar davlat hisobidan beriladi. Ijtimoiy davlat ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotiga

asoslanadi. Liberal modelda davlat qat'iy belgilangan limitdagi ijtimoiy kafolatlarni ta`minlaydi, shaxslar ijtimoiy ne'matlarning minimumdan yuqori qismini o'z daromadi hisobiga sotib oladilar. Sotsiogumanitar davlat modelida asosiy boylik inson bo'lib iqtisodiyot insonni har tomonlama rivojlantirishga bo'ysundirilgan bo'ladi, lekin bu modelni amalda ro'yobga chiqarish masalalari fanda hozircha ishlanmagan.

Ijtimoiy soha rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari insonning har tomonlama rivojlanishi, hayot sharoitlarining yaxshilanishi, moddiy va ijtimoiy farovonligining oshishida o'z ifodasini topadi. Bu ko'rsatkichlarning umumlashtirilgan ifodasi sifatida inson potensial(salohiyati) rivojlanishi indeksi qo'llaniladi. Inson potensiali rivojlanishi indeksi (IPRI) kutilayotgan umr uzoqligi, aholi jon boshiga xarid qobiliyati pariteti bo'yicha AQSh dollarida YIM va savodxonlik darajalarining o'rtacha arifmetik indeksi bilan o'lchanadi. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalari ushbu indeks bilan ham o'lchanadi. Shuningdek, ijtimoiy sohaning rivojlanishi aholi jon boshiga inson kapitali – davlat, korxona, shaxs tomonidan sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlariga qilingan aholi jon boshiga investitsiyalar hamda aholi turmush darajasi va sifati ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi. Ijtimoiy soha aholi daromadlarini qayta taqsimlash, inflyatsiyani qisqartirish, kambag'allikni qisqartirish, mintaqalararo ijtimoiy farqlarni bartaraf etish va boshqa ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'ygan. Ijtimoiy dasturlarni bajarish innovatsion iqtisodiyotga o'tish va ijtimoiy mehnat unumdorligining o'stirilishiga bog'liqdir.

9.2. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Ijtimoiy siyosat deganda davlatning jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning hal qilinishiga bo'lgan munosabati, ijtimoiy infratuzilmalar samarali va bir maromda amal qilishini ta'minlashga qaratilgan kundalik davlat faoliyati, ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarning bajarilishini ta'minlanishidagi strategiya va taktik yondashuv nazarda tutiladi. Davlatning ijtimoiy siyosati bozor iqti-

sodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishga yoʻnaltiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati shu sohadagi bozor va bozor mexanizmi qondira olmaydigan shunday ijtimoiy ehtiyojlar mavjudligi bilan bogʻliqdir. Bundan tashqari, bozor pensiya yoshidagi kishilarning ijtimoiy himoyasiga, ishsizlarga, mehnat nogironlariga, tugʻilgandan nogironlarga, koʻp bolali oilalarga yordam berish kabi jamiyat xarajatlariga befarq. Bozor, hattoki, aholi daromadlari darajasi tabaqalashuvining keskin oʻsishiga sabab boʻladi va mavjud tarixiy madaniy qadriyatlarga bozor befarqlik bilan qaraydi.

Bozor ijtimoiy barqarorlikni ta'minlamaydi. Davlat ijtimoiy sohadagi ishchilar va predmetlar oʻrtasidagi, mehnat va kapital oʻrtasidagi muammolarni hal etuvchisi sifatida chiqadi. Bularning hammasi ijtimoiy soha va uning normal rivojlanishi uchun tartibga solishning bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmlarini uygʻunlashtirish zarur ekanligini keltirib chiqaradi. Faqatgina tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlarini maqbul uygʻunlashtirish orqaligina samarali natijalarga erishish mumkin. Ijtimoiy sohaning shunday elementlari mavjudki, unda faqat davlat shaxsni har tomonlama rivojlanishi bilan bogʻliq boʻlgan xarajatlarni samarali boshqarishi mumkin. Davlat millatning sogʻligʻi uchun, malakali kadrlarni tayyorlash uchun javobgarlikni oʻz zimmasiga oladi. Aholining ijtimoiy huquqlarini himoya qilish, mulkchilik huquqlarini himoya qilish ham davlatning zimmasidadir. Faqat davlat shaxsni har tomonlama rivojlanishi bilan bogʻliq xarajatlarni samarali usullar bilan tartibga solishi mumkin va faqat uning yordami bilangina ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor tizimini yaratish va aholi daromadlari oʻrtasidagi yuqori tabaqalanishlarni qisqartirish mumkin.

Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning usullari va shakllari koʻpgina omillarga bogʻliq. Ulardan: iqtisodiy rivojlanish darajasi, ushbu sohada davlat va nodavlat sektorlarining mutanosibligi, davlatning iqtisodiy siyosati va boshqalar.

Davlat ijtimoiy siyosati orqali ijtimoiy sohani tartibga solishda asosiy qonunchilik aktlari, budjet-kredit va soliq shakllari, ijtimoiy

sohaning bir qismini, ya'ni davlatga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlarni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish kabi usullardan foydalaniladi.

Masalan, MDH mamlakatlarida va shu qatori O'zbekistonda ham ijtimoiy sohani tartibga solishning quyidagi shakllari qo'llaniladi:

1) mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ishchilar uchun eng kam ish haqi darajasi, pensiya, ish kunining davomiyligi, mehnat ta'tilining davomiyligini qonunda belgilash yo'li bilan tartibga solish;

2) budjet xodimlari uchun va davlat tashkilotlaridagi ishchilar uchun mehnatga haq to'lash tizimi tariflarini o'rnatish;

3) pensiya, nafaqalar, stipendiyalar darajasini o'rnatish, urush va mehnat fronti qatnashchilari uchun imtiyozlar tizimini o'rnatish;

4) ishchilar uchun progressiv soliq stavkalarini o'rnatish;

5) ijtimoiy soha tarmoqlari o'rtasida davlat budjeti xarajatlari eng maqbul proporsiyasini o'rnatish;

6) ko'proq ijtimoiy-zaruriy mahsulot va xizmatlarning yuqori narxlarini o'rnatish orqali aholi daromadlarini tartibga solish, inflyatsiya jarayonida esa pensionerlar, davlat ijtimoiy soha ishtirokchilari ishchilarining daromadlarini indeksatsiyalash.

Eng kam ish haqining miqdori iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. Masalan, G`arbning rivojlangan mamlakatlarida eng kam ish haqi ancha yuqori ekanligini bilamiz. Biroq shu o'rinda turli narx darajalarini ham hisobga olish zarur. G`arb mamlakatlarda soatbay ish haqining quyi chegarasi soatiga 5 dollar hisoblanadi. Shu qatorda davlat tomonidan o'rnatilagan eng kam ish haqi darajasidan aholini turmush darajasini tahlil etishda va mutlaq qashshoqlik ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. Eng kam ish haqi iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va bandlikka ham bog'liqdir.

Kambag'allik chegarasi, nisbiy kambag'allik chegarasidan quyida yashayotgan aholi – rasmiy kambag'allik chegarasidan quyida yashayotgan aholining foizlardagi ulushiga taalluqlidir:

1. Kuniga 1 AQSh dollari – 1985-yilgi xalqaro narxlarda berilgan bo'lib, AQSh dollarining xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisoblangan (1993-yilgi xalqaro narxlarda 1,08 AQSh dollariga teng yoki 2005-yilgi xalqaro narxlarda 1,25 AQSh dollariga teng).

2. Kuniga 2 AQSh dollari – 1985-yilgi xalqaro narxlarda berilgan

boʻlib, AQSh dollarining xarid qobiliyati pariteti boʻyicha hisoblangan (1993-yilgi xalqaro narxlarda 2,15 AQSh dollariga teng).

3. Kuniga 4 AQSh dollari – 1990-yilgi xalqaro narxlarda berilgan boʻlib, AQSh dollarining xarid qobiliyati pariteti boʻyicha hisoblangan[65].

Rivojlangan mamlakatlar qatori markazlashgan-rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga oʻtayotgan mamlakatlarda ijtimoiy sohada islohotlar olib borilmoqda, ijtimoiy maqsadlarga daromadlarni taqsimlash munosabatlari oʻzgarmoqda. Asosan, pensiya tizimida sezilarli oʻzgarishlar va pensiya islohotlari olib borilmoqda. Pensiya yoshi oshmoqda, davlat pensiya fondi bilan birga nodavlat pensiya fondlari shakllanmoqda. Jamgʻarib boriladigan pensiya fondi tizimi joriy etilmoqda.

Shunday boʻlsa-da, pensionerlar soni oshmoqda, pensiya uchun resurslarni oshirish talab etilmoqda, pensiya yoshi uzaymoqda. Masalan, Angliya va boshqa qator mamlakatlarda 65 yoshdan pensiyaga chiqish haqida taklif qoʻyilmoqda. Eng koʻp jon boshiga ijtimoiy maqsadlarda qilingan xarajatlar Skandinaviya mamlakatlariga xosdir. Bu mamlakatlarda pensiya fondini shakllantirishni davlat oʻz zimmasiga olgan. Germaniyada biroz boshqacha yondashuv mavjud. Pensiya fondini yaratishni aholining oʻzi qabul qilgan, ya'ni uning oʻzi ushbu fondga badalini olib borib berishi lozim. Ijtimoiy sugʻurta fondini shakllantirishda xususiylashtirish jarayonlari olib borilmoqda, shu qatori Lotin Amerikada ham. Bunda tadbirkorlar ijtimoiy sugʻurta fondi badallaridan ozod etiladi. Bu fondning resurslari ishchilarning badallari hisobiga va vaqti-vaqti bilan beriladigan davlat resurslari hisobiga shakllanadi.

Qator mamlakatlarda mutlaq qashshoqlik koʻrsatkichi oʻrnida hayot kechirish minimumi koʻrsatkichi qabul qilingan. Turli mamlakatlarda bu koʻrsatkich turlichadir. Qashshoqlik jihatini oʻrtacha ish haqiga nisbatan foiz koʻrinishda aniqlash mezoni keng tarqalgan. Masalan, Bolgariyada hayot kechirish minimumi oʻrtacha ish haqining 53-65% ga teng, Chexiyada 55-56% ga, Polshada 36% ga teng. Keltirilgan koʻrsatkichdan kam daromadga ega boʻlganlar qashshoqlar toifasiga kiritiladi.

[65] Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiyotga oid atama va tushunchalarning izohli lugʻati. - T.: ABU MATBUOT- KONSALT, 2017. 262-263-бетлар.

9.3. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning maqsadi, yo‘nalishlari va ijtimoiy sohada davlat boshqaruvi

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar maqsadi inson va uning manfaatlari, farovonligini ta’minlash hamda insonni har tomonlama kamolga yetkazishga qaratilgandir.

O‘zbekistonda mustaqillik e’lon qilingandan so‘ng aholi turmush darajasini yuqori darajada ta’minlash, inson manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va uning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga ega kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki davridayoq davlat ijtimoiy siyosatining asoslari yaratilib, amalga oshirila boshlandi. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosat ustuvor yo‘nalish hisoblanadi va u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- Ijtimoiy siyosatni o‘tkazishda davlatning boshqarish funksiyasiga egaligi;
- Ijtimoiy islohotlarning bosqichma-bosqichligi;
- Aholining yashash darajasining keskin tushib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish idoralari – mahallalar orqali aholiga aniq manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatish;
- Ijtimoiy islohotlarning iqtisodiy va huquqiy asoslarini yaratish.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- Aholining iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash;
- Mahsulot, xizmat va uy-joyning kuchli ichki iste’mol bozorini shakllantirish;
- Aholining to‘lov talablarini keng miqiyosda qondirish va uning o‘sishini ta’minlash;
- Aholining daromad va mulkka egalik darajasining keskin tabaqalashuvini oldini olish;

- Ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan zarur kafolatni ta’minlash.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda davlat ijtimoiy siyosati quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

- Davlat ijtimoiy iste’mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a’zosining foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;
- Davlatning markazlashgan ijtimoiy sug‘urta fondini tashkil etish;
- Ko‘rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;
- Ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;
- Ko‘p bolali oilalarga to‘lanadigan nafaqalar;
- Kam ta’minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko‘rsatish;
- Bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- Talabalar uchun to‘lanadigan davlat stipendiyalari;
- Ishsizlik nafaqasi;
- Eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarini belgilangan narxlarda sotilishini ta’minlash;
- Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlar baholaridagi farqlarni budjet hisobidan qoplash;
- Ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog‘liqni saqlash, ta’lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash.


Demak, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan. Buni ijtimoiy sohadagi islohotlarni amalga oshirish orqali ta’minlash mumkin. Chunki har qanday jamiyatning rivojlanganlik darajasi ijtimoiy masalalarning qay darajada hal etilayotganiga bog‘liq. Ijtimoiy masalalar mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy siyosati ijtimoiy islohotlarni davomli amalga oshirib borish

orqali aholi turmush darajasini barqaror oʻstirib borishdan iboratdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158 sonli farmoni bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida “... ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan muhtojlarning barchasi toʻliq qamrab olinishiga erishish, ijtimoiy xizmatlarni majmuaviy amalga oshirish uchun respublikaning barcha tuman va shaharlarida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini tashkil qilish, nogironligi boʻlgan shaxslarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish, bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash, nuroniylarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, 2026-yilga qadar kambagʻallikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish, kambagʻallikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish, ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash, aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sugʻurta tizimini takomillashtirish” maqsad va vazifalari belgilangan[66].

Mehnat bozori bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir. Mehnat bozorida mehnat sotilmaydi, ishlovchilarning mehnat qilish qobiliyati, mehnat xizmati sotiladi[67], chunki mehnat kishilarning ma’lum maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyati jarayoni boʻlib, unda ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari qoʻshilishi natijasida kishilarning ehtiyojlarini qondirishga moʻljallangan mahsulot yaratiladi va xizmat koʻrsatiladi[68].

[66] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Oʻzbekiston–2030” strategiyasi toʻgʻrisida”. 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son. https://lex.uz/docs/6600413
[67] Курс экономическай теории: Учебник. 4-е доп и перераб изд. Киров : “АСА” 1999, - С.231.
[68] Shodmonov Sh.Sh., Gʻafurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. / Ma’ruza matni / - T.: 2007, 23-bet.



9.2-rasm. Mehnat bozori obyekti va subyektlari[69]

Mehnat bozorida ishchi kuchini sotish va sotib olish erkin xodimni ishga yollash shaklida namoyon bo‘ladi. Ishga yollash ma’lum shartlar, ya’ni ish kunining uzunligi, ish sharoitlari va rejimi, ish haqining miqdori, bajariladigan ish turi, lavozim va kasb majburiyatlari asosida amalga oshiriladi. Mehnat bozori yollanma ishchi, xodim va ish beruvchi, tadbirkorning iqtisodiy erkinligiga asoslanadi. Demak, ishchi kuchi mehnat bozorining obyekti hisoblanadi.

Uning subyektlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish vositalari egalari, ish beruvchilar va ularning manfaatlarini ifodalovchi uyushmalar (tadbirkorlar uyushmalari);
- yollanma ishchi, xodimlar, ya’ni ishchi kuchi egalari va ularning manfaatlarini ifodalovchi tashkilotlar, kasaba uyushmalari;
- davlat o‘zining turli boshqarish organlari orqali ish beruvchi va yollanma xodimlar o‘rtasida vosita bo‘lib, ular o‘rtasidagi ishga yollash bo‘yicha bo‘ladigan mehnat munosabatlarini tartibga soladi.

Mehnat (ishchi kuchi) bozori quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ishchi kuchini zamonaviy ehtiyojlarga, asosan, takror ishlab chiqarishni ta’minlashga ko‘maklashish;

[69] Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “FAN” nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.


- ishchi kuchining iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar oʻrtasida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlash;
- ishchi kuchining mobilligi, ya'ni harakatchanligini faollashtirish;
- mehnat unumdorligini oʻstirishga ragʻbatlantirish;
- mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta'minlanishi orqali aholi daromadlari va turmush darajasini oʻstirish.

Mehnat bozorining shakllanishi, rivojlanishi va amal qilishiga quyidagi omillar ta'sir koʻrsatadi:

- demografik omillar. Ular oʻz ichiga aholining soni, oʻsish sur'ati, tarkibi, unga iqtisodiy faol aholining ulushi va uning harakatchanligi (mobilligi) kiradi;
- ijtimoiy omillar. Ular jumlasiga aholining turmush darajasi, jamiyatning ijtimoiy tarkibi, ijtimoiy hamkorlik munosabatlarining rivojlanganlik darajasi kiradi;
- tashkiliy-huquqiy omillar, ular tarkibiga tadbirkorlik, mehnat munosabatlarini tartibga solishning huquqiy bazasi ishlab chiqilganligi va sifati, amal qilish samaradorligi; davlat boshqaruv organlari va muassasalarining mehnatni hamda aholining ish bilan bandligini tashkil etish, tartibga solishdagi rolini ifodalovchi omillar kiradi (9.2-rasm).

Mehnat bozori amal qilish mexanizmining muhim komponentlariga quyidagilar kiradi:

- ishchi kuchiga talab. U mehnat bozoridagi ishchi kuchiga boʻlgan ijtimoiy ehtiyojning umumiy hajmini ifodalaydi;




9.2-rasm. Mehnat bozorining vazifalari va unga ta'sir etuvchi omillar[70]

- ishchi kuchi (mehnat) taklifi, ishlashni istayotgan ishchi kuchining umumiy miqdori. Ishchi kuchi jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasb-kori, malakasi nuqtai nazardan turli tarkibda namoyon boʻladi;
- ishchi kuchi bahosi ishchi va xodimlarning ish haqida ifodalanadi, ish haqi tovar qiymatining puldagi ifodasi, bozor bahosidir;
- ishchi kuchi qiymati. Ishchi kuchi qiymati uni takror ishlab chiqarish uchun zarur boʻlgan moddiy va nomoddiy ne'matlar, xizmatlar qiymati bilan belgilanadi;
- raqobat. Raqobat ish beruvchilar oʻrtasida yuqori malakali ishchi kuchini jalb etish uchun olib borilsa, yollanma xodimlar oʻrtasida yuqori haq toʻlanadigan ish oʻrinlari uchun raqobat kurashi yuz beradi. Shuningdek, ish beruvchi va yollanma xodimlar oʻrtasida ishga yollanish shartlari yuzasidan raqobat boʻladi (9.3-rasm).

Ammo ish haqi miqdori oʻsganda ishchi kuchi taklifi ham koʻpayadi. Aksincha holatda ishchi kuchi taklifi kamayadi. Bozor muvozana-


[70] Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va toʻldirilgan 3-nashri. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "FAN" nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.

ti ishchi kuchiga bo‘lgan talab va uning taklifi ma’lum muvozanatli ish haqi darajasida miqdor va tarkib jihatidan bir-birlariga muvofiq (teng) bo‘lganlarida yuzaga keladi.



9.3-rasm. Mehnat bozori tarkibi (segmentlari)[71]

Davlat mehnat bozorini iqtisodiy va ma’muriy vositalar, dastaklar yordamida tartibga solib turadi (9.4-rasm).




9.4-rasm. Mehnat bozori amal qilishi mexanizmining komponentlari[72]

Mehnat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- ishga yollashning minimal standartlarini qonuniy belgilash;

[71] Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “FAN” nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.
[72] Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “FAN” nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.

- ish vaqtining uzunligi, ish haqi, boshqa to‘lov va imtiyozlar;
- mehnat sharoiti va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi norma (me’yor)larni qonuniy belgilash;
- shaxslarni ma’lum turdagi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlariga qonuniy ruxsat berish va cheklash;
- ish beruvchi va xodimlarning faoliyatini fuqarolik huquqi hamda mehnat qonunchiligi asosida tartibga solish.



9.5-rasm. Mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish yo‘nalishlari[73]

O‘zbekiston Respublikasida mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta’minlash strategiyasi quyidagilarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi:
- fuqarolarning mehnat qilish, tadbirkorlik, iqtisodiy faoliyat sohasi va turini hamda kasbni tanlash erkinligi kabi konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash;

[73] Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “FAN” nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.

- mehnat faoliyati motivatsiyasining kuchli mexanizmini joriy etish, aholi iqtisodiy faolligini oshirish uchun sharoitlar yaratish;
- amalda mehnat bozorini shakllantirish, mehnat resurslarini iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat sohalari bo‘yicha erkin taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi uchun sharoitlar yaratish[74].

Davlat mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta’minlanishi darajasiga hamda mehnat, ya’ni ishchi kuchi bozoriga faol yoki passiv ta’sir ko‘rsatadi. Passiv ta’sir choralariga ishsizlik bo‘yicha turli nafaqa va to‘lovlar kiradi. Mehnat bozoridagi faol siyosatni amalga oshirishning asosiy choralar tadbiri esa quyidagilar:

- ish izlovchilarni ishga joylashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish;
- ishlovchi va ishsizlarni o‘qitish, kasbga qayta tayyorlash;
- bevosita ish joylarini yaratish;
- doimiy ish bilan bandlikni subsidiyalashtirish;
- tadbirkorlikni, shu jumladan, o‘z korxonalarini, ishbilarmonlik faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan ishsizlarni qo‘llab-quvvatlash;
- jamoat ishlarini tashkil etish.

Bugungi kunda O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida ishchi kuchi ortiqchaligi mavjud va ishchi kuchi bozorida taklif talabdan yuqoridir. Shu bois ishlashni xohlovchilarning mehnat bozorida erkin harakat qilishlari va mustaqil ish bilan ta’minlanishlari uchun davlat fuqarolarga bir qancha kafolatlarni nazarda tutadi. Ya’ni davlat:

- ish bilan ta’minlash turini, shu jumladan, turli mehnat rejimidagi ishni tanlash erkinligini;
- ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishdan va mehnat shartnomasini g‘ayriqonuniy ravishda bekor qilishdan himoyalanish;
- maqbul ishni tanlash va ishga joylashishga bepul yordam berish;
- har kimga kasbga va ishga ega bo‘lishda, mehnat qilish va ish bilan ta’minlanish shart-sharoitlari, mehnatga haq to‘lash, xizmat pog‘onasidan yuqorilab borishda teng imkoniyatlar yaratish;
- yangi kasbga (mutaxassislikka) bepul o‘qitish, mahalliy mehnat organlari yoki ularning yo‘llanmasi bilan boshqa o‘quv yurtlarida stipendiya to‘lab malakasini oshirish;

[74] Доклад о человеческом развитии. Узбекистан 1997 г. - Т., 1998. - С 55-56.

- boshqa joydagi ishga qabul qilinganda sarf qilingan moddiy xarajatlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq kompensatsiya to‘lash;

- haq to‘lanadigan jamoat ishlarida qatnashish uchun muddatli mehnat shartnomalari tuzish imkoniyatini kafolatlaydi.

Yangi ish o‘rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish, mavjud quvvatlaridan unumli foydalanish, korxonalarni kengaytirish;
- kichik biznes korxonalarini tashkil etish;
- yakka tadbirkorlikni rivojlantirish;
- kasanachilik va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- fermer va aholi xo‘jaliklari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish;
- ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash va moliyaviy sog‘lomlashtirishdan iboratdir.

Mehnat bozorida aholi bandligini ta’minlash borasidagi vazifalar esa quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- yoshlar, ayollar va boshqa toifadagi ishsizlarning aniq ro‘yxatini olish Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini ish bilan ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, ixtisoslashtirilgan bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalarini tashkil etish;
- haq to‘lanadigan jamoat ishlarini tashkil etish:
- kasbga o‘qitish, qayta o‘qitish va qayta tayyorlash;
- ishlovchilarning mehnat huquqlarini ta’minlash;
- bo‘sh ish o‘rinlari va ish qidiruvchilar haqidagi yangilanib turuvchi elektron ma’lumotlar banki imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- raqobatlasha olmaydigan aholi toifalariga e’tiborni kuchaytirish.

Mehnat bozorida raqobatlasha olmaydigan aholi toifalarining ish bilan bandligini ta’minlash choralari (ish o‘rinlarini zahira qilish va boshqa aniq choralar)ni amalga oshirish bandlik siyosatining muhim vazifalaridan iboradir.

Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy ob-

yektlari quyidagilar: daromadlar, ish haqi minimumi; bandlik, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash; soliqlar, narxlar; ijtimoiy kafolatlar, ijtimoiy munosabatlar (shu jumladan, ish beruvchi va yollanib ishlovchilar o'rtasidagi munosabatlar), ijtimoiy ta'minot; huquqiy ta'minot (xavfsizlik, hayot, mulk va jamg'armalarni himoyalash).

Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning bosh maqsadi daromadlarni davlat budjeti orqali qayta taqsimlashdan iboratdir. Shu bilan birga, kam ta'minlanganlarning daromadlarini oshirish, ularning ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish omillarining turlicha ekani tufayli yuzaga kelgan disproporsiyani bartaraf etish, ish bilan bandlikni tartibga solish va ijtimoiy tanglikning oldini olish kabi muammolar ham hal etiladi. Ko'rilayotgan doirada davlatning faolligi markaziy va mahalliy budjetdan qilingan ijtimoiy xarajatlar hajmi bilan o'lchanadi. Milliy daromadni qayta taqsimlashda davlatning imkoniyatlari budjet tushumlari bilan cheklanadi.

Daromadlar siyosati konstitutsiya va unga tenglashtirilgan qonuniy hujjatlarda belgilangan ma'lum tamoyillar asosida yuritiladi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy adolat;
- ijtimoiy hamkorlik va aholi barcha qatlamlarining birdamligi;
- o'z moddiy ahvoli uchun shaxsiy mas'uliyat;
- mehnat huquqi va uni munosib rag'batlantirish;
- kasaba uyushmalari huquqi;
- iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va boshqalar.

Ma'lumki, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning eng yuqori shakli iqtisodiy dasturlashdir. Uning vazifasi iqtisodiy siyosatning barcha elementlaridan global maqsadlarda har tomonlama foydalanishdir. Bunday dasturlarning obyektlari sifatida tarmoqlar, hududlar, ijtimoiy soha, ilmiy tadqiqotlarning turli yo'nalishlari va shu kabilar tanlab olinishi mumkin. Mazkur dasturlarning barchasi (bevosita va bilvosita) aholi daromadlariga bog'liq va ularga ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning daromadlar siyosatida yollanma ishchilarni himoya qilish vositalaridan biri sifatida eng kam ish haqini belgilash hisoblanadi. Eng kam miqdordagi ish haqi ish kuchining jismoniy faolligini qo'llab-quvvatlab qolmasdan, shu bilan birga, uning mehnat qilish qobiliyatini tiklashi va rivojlantirishi uchun u iste'mol savatchasiga

muvofiq kelishi lozim, bu savatcha eng zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar turini oʻz ichiga oladi. Ijtimoiy jihatdan yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyoti toʻla-toʻkis ham bozor iqtisodiyoti, ham ijtimoiy iqtisodiyot hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotini ijtimoiy yoʻnaltirish zaruriyati, albatta, inson manfaatidan kelib chiqadi. Bozorning shunday oqibatlari borki, bunda ma'lum toifa himoyaga muhtoj boʻlib qoladi. Shuning uchun ham sivilizatsiya ijtimoiy himoya tizimini talab qiladi.

Ijtimoiy himoyalashdagi muhim masala aholini bozor bahosining tez oʻsishi, inflyatsiya ta'siridan himoya etish va buning oldini olish bilan bogʻliqdir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga oʻtish davrida mollar narxining koʻtarilishi toʻxtatib boʻlmaydigan holatdir. Bunda oylik ish haqi va belgilangan daromadga ega boʻlganlarni oʻsib borayotgan tovarlar va xizmatlar narxining salbiy ta'siridan muhofaza etish yirik ijtimoiy muammodir. Ayniqsa, nafaqaxoʻrlar, talabalar ijtimoiy himoyaga muhtoj boʻladi.

Bunda vaqti-vaqti bilan maosh, stipendiya, nafaqalar miqdorini bir oz oshirish masalani hal qilmaydi. Shuning uchun indeksatsiya usulini qoʻllash yuz beradigan ogʻirlikni biroz yumshatib, turmush darajasiga boʻlgan ogʻir ta'sirni yengillashtiradi. Chunki qabul qilinadigan indekslar tufayli daromad narx-navo darajasiga qarab oʻzgarib turadi hamda koʻtarilayotgan baholar keltiradigan zararlarning asosiy qismini qoplab boradi.

Bundan tashqari, bozor narxlaridan himoya qilishda ta'minotning alohida usullarini qoʻllash ahvolni yumshatishga yordam beradi. Masalan, aholining ayrim tabaqalari uchun maxsus ta'minot tayinlash yoki vaqti-vaqti bilan oziq-ovqat va sanoat mollari tarqatish kabi usullardan rivojlangan mamlakatlarda foydalaniladi.

Ijtimoiy himoya yuqorida qayd qilingan usullar bilan chegaralanmaydi, sharoitga qarab aniq shakllarni topib, ularni qoʻllab boradi. Ayniqsa, kam daromadlilarni bozorning salbiy ta'siridan asrash va turmush darajasining pasayib ketishiga yoʻl qoʻymaslik davlatning muhim vazifasidir. Oʻzbekiston iqtisodiyotini tubdan isloh qilishga beshta muhim tamoyil asos qilib olingandi. Ulardan biri demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining turmush darajasini hisobga

olgan holda ularni ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Davlat ijtimoiy siyosatida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- davlat ijtimoiy iste’mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a’zosi foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;
- ko‘rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;
- ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;
- davlatning markazlashgan ijtimoiy sug‘urta fondini tashkil etish;
- ko‘p bolali oilalarga to‘lanadigan nafaqalar;
- kam ta’minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko‘rsatish;
- bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- talabalar uchun to‘lanadigan davlat stipendiyalari;
- ishsizlik nafaqasi;
- eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarining belgilangan narxlarda sotilishini ta’minlash;
- ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlar bahosidagi farqlarni budjet hisobidan qoplash;
- ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog‘liqni saqlash, ta’lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash.

Endilikda kuchli ijtimoiy siyosat aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, ishonchli, aniq manzilli, ya’ni shunga muhtoj aholi guruhlarini ijtimoiy himoya qilishga qaratiladi.

Buning uchun aholi daromadlari va mehnat haqlarining faol iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishdagi rolini oshirish lozim bo‘ladi. Shuningdek, aholining oqilona, samarali ish bilan bandligini ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish, iqtisodiyotning aniq sektorida yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat bozori infratuzilmalari, shu jumladan, mehnat birjalari faoliyati samara-

dorligini oshirish lozim bo‘ladi. Kam ta’minlangan aholini maqsadli, ishonchli ijtimoiy himoyalash uchun, avvalambor, aniq ehtiyojlardan va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda muhtoj oilalarga subsidiya, mikrokreditlar berish, ularga mikrofirma, kichik korxona, fermer xo‘jaliklarini tashkil etishlari uchun sharoitlar yaratish kerak bo‘ladi.

Davlat turli soliq, kredit imtiyozlari tizimini yaratish orqali fuqarolarning, jamoat tashkilotlari hamda xo‘jalik subyektlarining homiylik, xayriya ishlariga mablag‘lar ajratishlarini rag‘batlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirishi ham maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy himoya tizimida mehnat jamoalari ham muhim rol o‘ynaydi. Mehnat jamoalari o‘z xodimlarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- mehnat jamoasi tomonidan ijtimoiy himoya qilish uchun huquqiy sharoitlarning yaratilishi;
- iqtisodiy ahvoli nochor xodimlarga vaqtinchalik yordam ko‘rsatish;
- yaxshi ishlagan xodimlarga turli imtiyozlar yaratish;
- xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishni insonparvarlashtirish;
- xodimlarni imtiyozli asosda uy-joy bilan ta’minlash;
- xodimlarning malakasini oshirish, yangi ixtisoslikka o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlar;
- korxona xodimlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash:

a) tibbiy xizmat ko‘rsatishni tashkil etish yoki tibbiy sug‘urta qilish;

b) og‘ir mehnat sharoitida ishlaydiganlarga turli imtiyozlar yaratish;

v) xodimlarning dam olish va hordiq chiqarishini tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar qilish.

Endilikda aholini ijtimoiy himoyalash, uning samarasini oshirishning quyidagi muhim vazifalarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash asosida barqaror va mutanosib o‘sishini ta’minlash;
- davlat mablag‘lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, ja-

moat va xayriya tashkilotlari va jamg‘armalarining mablag‘larini keng jalb qilish;

- odamlarning kuch va qobiliyatlari to‘la-to‘kis faollashuvini ta’minlashga qodir bo‘lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish;
- xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini rag‘batlantirish;
- aholining daromadlari va turmush darajasida asossiz katta farqlarga yo‘l qo‘ymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydigan o‘rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish;
- kambag‘allikka, qashshoqlikka qarshi kurash. Aholining eng muhtoj qatlamining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirish.

Ijtimoiy sohaning rivojlanishi ko‘p jihatdan uni moliyalashtirishga bog‘liqdir. Har yili Davlat budjeti xarajatlarining yarmidan ortig‘i ijtimoiy sohaga yo‘naltirilmoqda. Aholi hayot sharoitlarini yaxshilash, turmush farovonligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy sohaning istiqboldagi rivojlantirilishi, makroiqtisodiy barqarorlikni va izchil yuqori iqtisodiy o‘sishi sur’atlarini ta’minlash, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnika va texnologik yangilash asosida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Bob bo‘yicha xulosalar

Ijtimoiy siyosat – bu ijtimoiy rivojlanish va ijtimoiy ta’minot sohasidagi siyosat; xo‘jalik yurituvchi subyekt (odatda davlat) tomonidan muayyan ijtimoiy guruhlarning turmush darajasi va sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. Shu bilan birga, “ijtimoiy siyosat” iborasi orqali nimani tushunish kerakligi borasida aniq fikr yo‘qligini yodda tutish lozim; masalan, bu atama ko‘pincha davlat tomonidan taqdim qilinuvchi va institutsional tavsifga ega bo‘lgan ne’matlarni ijtimoiy boshqarish ma’nosida qo‘llaniladi. Mazkur konsepsiyani bunday tushunishni ko‘pchilik mualliflar noto‘g‘ri deb hisoblashadi.

Ko‘pincha, amaliy jihatdan ijtimoiy siyosat deganda aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar va

vazifalar majmui (tizimi) tushuniladi. Ushbu chora-tadbirlar kim tomonidan ilgari surilishi, ularning asosiy tashabbuskori (subyekti) kim ekanligiga qarab, ijtimoiy siyosatning tegishli turlari - davlat, mintaqaviy, munitsipal, korporativ va boshqalar ajratiladi.

Keng ma'noda va ilmiy nuqtai nazardan, bu shunchaki chora-tadbirlar va vazifalar tizimi emas, balki ijtimoiy guruhlar, jamiyatning ijtimoiy qatlamlari o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro ta'sirlar tizimi bo'lib, uning asosi va pirovard maqsadini inson, uning farovonligi, ijtimoiy himoya va ijtimoiy rivojlanish, hayotni qo'llab-quvvatlash va umuman aholining ijtimoiy ta'minoti tashkil qiladi.

Quyidagilar ijtimoiy siyosatning an'anaviy yo'nalishlari hisoblanadi: ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy va ijtimoiy sug'urta (shu jumladan, pensiya ta'minoti va individual ijtimoiy xizmatlar).

Odatda, "ijtimoiy siyosat" deyilganda davlat tomonidan olib boriluvchi ijtimoiy siyosat ("davlat ijtimoiy siyosati") tushuniladi, ammo nafaqat davlatlar, balki boshqa subyektlar – millatlararo subyektlar (bu holda ular millatlararo ijtimoiy siyosat haqida so'z boradi), alohida ma'muriy subyektlar (mahalliy yoki mintaqaviy ijtimoiy siyosat), shuningdek, alohida korxonalar, shu jumladan, ko'p millatli korxonalar ijtimoiy siyosat subyekti sifatida harakat qilishi mumkin.

Davlat odatda o'z ijtimoiy siyosatini mahalliy hokimiyat organlari orqali olib boradi. Davlat ijtimoiy siyosati davlat budjetidan moliyalashtiriladi. Davlat ijtimoiy siyosatining obyektlari odatda hozirgi paytda davlatning mafkuraviy munosabatlariga yoki uzoq muddatli istiqbolda jamiyatning qadriyat yo'nalishlariga mos keluvchi yirik ijtimoiy guruhlar hisoblanadi.

Davlat ijtimoiy siyosatining maqsadi millat salomatligini yaxshilash, muayyan noqulay hayotiy vaziyatlarda yetarli daromad va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va umuman, jamiyatda aholi uchun qulay ijtimoiy muhit yaratishdan iboratdir.

Ijtimoiy siyosat davlatning ijtimoiy sohaga oid umumiy strategiyasining ajralmas qismidir: shaxsga, uning jamiyatdagi mavqeiga bevosita bog'liq bo'lgan qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha maqsadli faoliyat; mamlakat aholisining turli guruhlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsga ijtimoiy kafolatlar berishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy siyosat masalalari taraqqiy etgan mamlakatlar olimlari tomonidan aniq sotsiologik tadqiqotlar yordamida izchillik bilan o‘rganilmoqda. Xususan, zamonaviy Germaniyada bu sohada keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish shakllari turlichadir. Bunday shakllardan biri ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishdir. Ijtimoiy xizmatlardan foydalanish obyekti ma’muriy ijtimoiy ta’sir amalga oshiriluvchi alohida ijtimoiy guruhlar (odatda ma’lum ijtimoiy muammolarga ega bo‘lganlar) va umuman, butun aholi ham bo‘lishi mumkin.

Masalan, ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi davlat siyosatining ajralmas qismidir. U ikkita tizimni o‘z ichiga oladi: ish haqi darajasini hisobga olgan holda bandlik va sug‘urta stajiga asoslangan ishsizlik sug‘urtasi va ehtiyoj mavjudligidan kelib chiqqan holda, turmush darajasini saqlab qolish maqsadida ta’min etiluvchi ijtimoiy ta’minot. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida eng keng tarqalgan usul – bu ishsizlik sug‘urtasi hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosat strategiyasi – bu mamlakat taraqqiyotining muayyan o‘ziga xos tarixiy bosqichida mamlakat ijtimoiy muammolari tizimining umumiy yechimidir.

Ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda, albatta, ijtimoiy ustuvorliklar, ya’ni jamiyat tomonidan rivojlanishning ushbu bosqichida eng dolzarb deb tan olingan, ustuvor yechimlarni talab qiladigan ijtimoiy vazifalar to‘g‘risida savol tug‘iladi. Ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

- tug‘ilgandan boshlab keksalikka qadar insonning me’yorda yashashi uchun shart-sharoitlar bilan ta’minlash;
- oilaning jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida amalda bo‘lishi borasida zarur shart-sharoitlarni yaratish, onalarga alohida g‘amxo‘rlik qilish;
- iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish;
- aholini samarali himoya qilishni ta’minlash: aholini ijtimoiy himoya qilish, sog‘liqni saqlash, madaniyat, uy-joy bilan ta’minlash, demografik vaziyatni yaxshilash.

Ijtimoiy siyosat subyektlariga turli darajadagi qonun chiqaruv-

chi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlarida ish beruvchilar, shuningdek, davlat ijtimoiy siyosatining rivojlanishiga ta'sir koʻrsatadigan kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari kiradi.

Ijtimoiy siyosatning quyidagi tamoyillari farqlanadi:

- ijtimoiy adolat;
- ijtimoiy mas'uliyat;
- ijtimoiy sheriklik;
- ijtimoiy kafolatlar (masalan, harbiy xizmatchilar uchun ijtimoiy kafolatlar);
- uzluksizlik.

Ijtimoiy siyosatning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish va ishlab chiqarishni isteʼmol manfaatlariga boʻysundirish,
- mehnat motivatsiyasi va biznes faolligini kuchaytirish,
- aholining munosib turmush darajasi va ijtimoiy himoyasini ta'minlash,
- madaniy va tabiiy meʼros, milliy oʻziga xoslikni va urf-odatlarni asrab-avaylash.

O'zining tartibga solish funksiyalarini samarali amalga oshirish uchun davlat mamlakat qonunchiligi, milliy budjet, soliqlar va yigʻimlar tizimi kabi kuchli ta'sir vositalariga ega.

Dunyoning aksariyat mamlakatlari tajribasi shuni tasdiqlaydiki, ijtimoiy muammolarni hal qilish mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatga obyektiv bogʻliq boʻlsa-da, ijtimoiy siyosat mustaqil siyosat sifatida fuqarolarning ijtimoiy taraqqiyotga intilishlarini qoʻllab-quvvatlash orqali aholi turmush darajasini oshirishga ijobiy ta'sir koʻrsatishi mumkin.

Davlatning zamonaviy ijtimoiy siyosati usullari toʻrt guruhga boʻlinadi:

1. **Iqtisodiy:** narxlar, tariflar, soliqlar, iqtisodiy imtiyozlar, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, ish haqi, barcha turdagi ijtimoiy nafaqalar va boshqalar kiradi.

2. **Ma'muriy va yoʻriqlovchi:** bozor iqtisodiyoti subyektlari oʻrtasida ijtimoiy xizmatlar sohasidagi har qanday faoliyat uchun litsenziyalar berish, ta'lim muassasalari yaqinida alkogolli ichim-

liklar sotishni ta’qiqlash kabi ruxsat beruvchi va ta’qiqlovchi choralar.

3. **Huquqiy yoki qonunchilik:** amaldagi qonunchilik va huquqiy hujjatlar asosida milliy iqtisodiyotning iste’mol kompleksi bo‘linmalari faoliyatining turli jihatlarini tartibga solish.

4. **Mafkuraviy:** “yaxshi” va “yomon”, “axloqiy” va “axloqsiz” kabi toifalardan foydalangan holda jamiyatning (mafkuraning) ma’naviy-axloqiy tushunchalari va normalarini shakllantirishga qaratilgan usullar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ijtimoiy sohaning qaysi elementlarining rivojlanishiga faqatgina davlat samarali ta’sir eta olishi mumkin?
2. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati nimadan iborat?
3. Jamiyat rivojlanishida inson omili rolining oshishi nimalarga bog‘liq?
4. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
5. Davlatning bandlik siyosatining maqsadi va amalga oshirish yo‘nalishlarini tushuntirib bering.
6. Mehnat bozori nima va uning asosiy elementlari nimalardan iborat?
7. O‘zbekistonda aholining ish bilan bandligini oshirish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
8. Davlatning daromadlar siyosatining mazmunini tushuntirib bering.
9. O‘zbekistonda aholi daromadlari va turmush darajasining o‘sishi tendensiyalarini izohlab bering.
10. Ijtimoiy himoya siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.

Davlat xazinasini talon-taroj qilish hisobiga hech qachon iqtisodiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi.

Gerbert Guver

X BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VAZIFALARI

10.1. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari va uning strategik maqsadlari

10.2. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari. Shaxs, korxona va davlatning iqtisodiy xavfsizligi

10.3. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari

10.4. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining tahlikali chegaralari

10.1. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari va uning strategik maqsadlari

O'zbekiston Respublikasining xavfsizlik asoslari ijro va qonunchilik apparati tomonidan, qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari, Hukumat va Oliy Majlisning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Iqtisodiy xavfsizlikning strategik maqsadi iqtisodiy xavf-xatar va tavakkalchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy va normativ-huquqiy chora-tadbirlardan iborat konsepsiya ko'rinishidagi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ishlanmalar sifatini oshirish mexanizmidir.

Davlat strategiyasini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining umumiy xavfsizlik strategiyasi maqsadlariga erishishning zaruriy shartini ta'minlashi kerak. Xususan, quyidagilar ta'minlanishi kerak:

- inson va fuqaroning huquqlarini, mamlakatda ijtimoiy tinchlikni va jamiyatda ijtimoiy osoyishtalikni kafolatlovchi turmush darajasi sifatini oshirish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqib ichki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni samarali hal etish;

- milliy manfaatlarga bog‘liq bo‘lgan jahondagi jarayonlarga faol ta’sir etish;
- jahon xo‘jalik aloqalariga teng huquqli integratsiyasi sharoitida mehnat taqsimoti, davlatni barqaror rivojlantirish;
- xorijiy davlatlardan va ularning uyushmalaridan O‘zbekistonni iqtisodiy faoliyatning muhim masalalarida tahlikali qaramlikka yo‘l qo‘ymaslik.

Strategiyada iqtisodiy xavfsizlikda kutilishi mumkin bo‘lgan tahdidlarini aniqlash va mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash tizimida birlamchi ahamiyat kasb etadigan, ularni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga katta e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, quyidagi omillardan kelib chiqib, jamiyatni va xo‘jalik faoliyatini kriminallashuvini kamaytirishga harakat qilingan:

- ishsizlikning o‘sishi, chunki statistikaga ko‘ra jamiyatdagi tartib buzilishlarning asosiy qismini doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi;
- davlat boshqaruv organlarining ma’lum bir guruh xodimlari uyushgan jinoyatchi guruhlariga qo‘shilishi natijasida, kriminal kuchlarni ishlab chiqarishni boshqarish jarayonining ma’lum bir qismiga egalik qiladi va turli hokimiyat boshqaruv tuzilmalariga kirib boradi;
- davlat nazorat tizimining pasayishi natijasida ichki moliyaviy bozorlarda, xususan, xususiylashtirish, eksport-import operatsiyalarida, savdo sohalarida jinoyatchi guruhlar faoliyati kuchayadi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy jarayonlarga samarali ta’sir etish va tartibga solish uchun iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni oldini olish maqsadida kompleks chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan. Ular bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning ba’zoviy asosi sifatida foydalaniladi.

1. Monitoring – bu davlatning iqtisodiy xavfsizligi dinamika ko‘rsatkichlarini operativ axborot-tahliliy kuzatish tizimi. Bu tizim iqtisodiyotni o‘tish davrida tarmoqlararo proporsiyalarning buzilishi mavjudligi, resurslarning keskin tanqisligi (birinchi navbatda moliyaviy) ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni nobarqarorligi jarayonlarida juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu yakuniy natijada

axborotlarning sifati va uni olish tezkorligi, kompleksligi, chuqur tahlil etilganligi obyektni to‘la egallash shakllariga qo‘yilgan talablarning kuchayishiga olib keldi.

Shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlariga ichki va tashqi tahdidlarni belgilab beruvchi omillarni monitoring qilish uchun, birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasining tashkiliy-axborot bazasini shakllantirish zarur bo‘lib hisoblanadi.

2. O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizlik mezonlari va ko‘rsatkichlarini shakllantirish (tahlikali chegaralar va ko‘rsatkichlari). Respublika strategiyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiyotdagi vaziyat haqida ma’lumot beruvchi miqdor va sifat ko‘rsatkichlar ishlab chiqiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar doirasidan chetga chiqish iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni olib keladi. Ularning asosida mamlakat iqtisodiyotini himoya qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar va iqtisodiy siyosatni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

3. Ma’lum rejali konsepsiyalarni ishlab chiqish. Iqtisodiy rivojlanishning tahlikali chegaralarining kutilgan parametrlaridan og‘ish va real ko‘rsatkichlardan chetga chiqish aniqlanganda, mamlakatni xavf-xatar zonasidan chiqarish, tahdidlarning kelib chiqishini oldini olish uchun, davlatning kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.

Strategiyaning asosiy vazifasi milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash, mulkning barcha shakllarini himoya qilish, tadbirkorlik faolligini oshirish kafolatlari va shart-sharoitlarini yaratish, kriminal jinoyatchi tuzilmalarga qarshi kurash, ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi daromadlar taqsimotida katta farqlarni, uzilishlarni vujudga keltirmaslik, resurs xomashyo, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va moliyaviy sohalarda inqiroziy jarayonlarning shakllanishiga hamda aholi turmush sifati darajasining pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik.

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasida istiqbolda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan salohiyat xavf-xatar va tahdidlar tahlil qilingan. Konsepsiya iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo‘nalishlari bo‘lib xizmat qiladigan O‘zbekiston Respublikasi-

ni oʻrtacha va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsadlari, ustuvorliklari hamda vazifalarini belgilaydi va asoslaydi. Bunda maqsadlar sifatida konsepsiyada jadal va barqaror oʻsish sharoitlarida Respublika har bir fuqarosining sogʻlom va samarali hayotini ta'minlaydigan ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, yer, suv va energetika resurslaridan ularni kelajak avlodning foydalanishi uchun saqlab qolgan holda samarali foydalanish, ekologik muammolarni hal etish, Orol dengizining ekologik inqirozi oqibatlarini bartaraf etish, atrof-muhitni yaxshilash koʻrib chiqiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi bir qator funktsiyalarni oʻz ichiga oladi. Ularga:

Himoyalovchi – mamlakatning yetarli darajada resurs salohiyati mavjudligi sababli iqtisodiyotni tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish. Ushbu funksiya samarali faoliyat yuritishi uchun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish, kadrlar va boshqaruv resurslar darajasini oshirish, tashqi tavakkalchiliklar darajasini pasaytirish.

Tartibga soluvchi – tahdidlarni oldini olishning ikki varianti mavjud, "yuqoridan pastga" va "pastdan yuqoriga". Birinchi variant mavjud bozor munosabatlarini va davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmini takomillashtirishni rivojlantrishga asoslanadi. Ikkinchi variant bozorni tartibga solishni ichki xoʻjalik mexanizmiga va oʻz-oʻzini tartibga solish mexanizmiga asoslanadi. Bunda birinchi navbatda raqabat va baho darajasiga bogʻliq boʻlgan xoʻjalik subyektlarining ichki va tashqi muhiti hamda bozorning asosiy tavsifi muhim rolni oʻynaydi. Bozor iqtisodiyotning muvozanatli holatini raqabat va bahoning maqbul nisbatini belgilab beradi. Innovatsion iqtisodiyotda mavjud boʻlgan va ushbu vaqtda amal qilayotgan tahdidlarni yengib oʻtish uchun innovatsion qarorlar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda undan foydalanish.

Ogohlantiruvchi – iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda uni basharat qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda kelayotgan tashqi va ichki xavf-xatarlarni, tavakkalchiliklarni, tahlikali vaziyatlarni ogohlantirish, oldini olish, bartaraf etish, tavakkalchiliklarni sifatli basharatlash va unga qarshi samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish

uchun aniq, oʻz vaqtida, mukammal sifatli axborot kerak boʻladi. Shuning uchun ham iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ogohlantiruvchi funktsiyasi axborotga asoslanadi.

Ijtimoiy – shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirish hisobiga mamlakat aholisini yuqori turmush darajasi sifatiga erishish.

Shunday qilib, Oʻzbekistonda iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi va uning himoyalovchi choralari bugungi kun talablariga mos boʻlib bormoqda. Ular mamlakatda bugungi kunda mavjud muammolarga yaqinlashgan. Davlatning iqtisodiy siyosati va iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi – bu davlatning iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi va kategoriyalaridir hamda oʻzaro bogʻliq va bir-biri bilan hamkorlikda boʻlishi kerak. Bir tomondan iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi bu uning strategik maqsadlarini ifodalab, tartibga solishda makroiqtisodiy konseptsiyaning sifatini belgilab, iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Boshqa tomondan kutilayotgan iqtisodiyot holatining miqdoriy parametrlarini baholovchi, iqtisodiy siyosat metodlarini tanlashda cheklovlarni belgilovchi, ya'ni ulardan foydalanish natijasida mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikka boʻlgan tahdidlar darajasining pasayishga olib kelsin.


10.2. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon boʻlish shakllari. Shaxs, korxona va davlatning iqtisodiy xavfsizligi

Makroiqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiy xavfsizlik muayyan mamlakat milliy iqtisodiyotini tavsiflaydi. Bozor tizimida xatar borligidan, bundan hatto milliy iqtisodiyot ham holi boʻlmasligini va undan saqlanish zarurligini bildiradi. Iqtisodiy xavfsizlikning bosh mezoni - bu mamlakat ehtiyojlarini uzluksiz ta'minlanishi hisoblanadi. Bu, birinchidan, milliy iqtisodiyotni mahsulot va xizmatlari bilan toʻla ta'minlashni, ikkinchidan, mamlakatda ishlab chiqarish mumkin boʻlmagan tovar va xizmatlarni chetdan qulay narxlarda hamda uzluksiz import qilishni bildiradi. Aks holda iqtisodiyot izdan chiqadi.

Iqtisodiy xavfsizlik subyekti - bu iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi munosabatlar ishtirokchisi boʻlib, ularning faol harakatlari obyektning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, ya'ni himoyalanganlik holatini yoki doimiy va samarali faoliyat olib borishi uchun zarur

shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Iqtisodiy xavfsizlik subyekti quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

- shaxsning iqtisodiy xavfsizligi;
- korxonaning (firma) iqtisodiy xavfsizligi;
- davlatning iqtisodiy xavfsizligi.



10.1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik shakllari

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi – bu uning hayotiy manfaatlarining, ya’ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, mulkdor bo‘lish, hayotiy iste’mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini tiklash, bilim olish va kasbga ega bo‘lish, qariganda va mehnat layoqatini yo‘qotganda ijtimoiy ta’minot olish huquqlari bilan ifodalaydi. Bunda shaxsning bozor iqtisodiyotida iste’molchi va ishchi, xizmatchi, tadbirkor sifatidagi ijtimoiy-iqtisodiy huquq hamda erkinliklarining, manfaatlarining

himoyalangani, kafolatlangani nuqtayi nazaridan iqtisodiy xavfsizlikni ikki turga ajratish mumkin.

Korxonalarning (firma) iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilganda ularni ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish, moliyaviy, savdo-tijorat hamda notijorat va jamoatchilik tashkilotlari sifatida faoliyat yuritishi nuqtayi nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq. Korxonaning (firma) ixtisosligiga koʻra xavfsizligini taʼminlash xususiyatlari ham turlicha boʻlishi tabiiydir.

Iqtisodiy xavfsizlik asosida barqarorlikka oʻxshash boʻlgan muhit tashkil etuvchilar yotadi - bu material, inshootning, uni yangi sifat holatiga, yaʼni tarkib yoki tuzum oʻzgarishiga keltiradigan, zarur yoʻnaltirilgan qonuniy oʻzgarishidir. Rivojlanishsiz iqtisodiy taraqqiyot boʻlishi mumkin emas. Barqarorlik - bu jamiyatning favqulloddagi holatlarda ham oʻz manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati, holatni tiklash imkoniyatidir. Asosiy iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari - mamlakatning iqtisodiy holatiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi jarayon boʻlib, mamlakat, jamiyat va shaxs iqtisodiy manfaatlarini chegaralaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismiga kirganligi uchun milliy xavfsizlikning tashkil etilishi va shakllanishi bilan bogʻliq masalalar koʻrib chiqilishi lozim. Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi va uning moddiy asosi hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiy xavfsizlik mamlakat milliy xavfsizlik genezisi va shakllanishiga doir masalalar qatorida oʻrganilib chiqilishi darkor. Umuman, iqtisodiy xavfsizlik asosiy paradigmasini quyidagi elementlar tashkil etadi:

- xalqaro munosabatlar tizimiga oʻtish, yaʼni ishchi kuchi konsepsiyasidan manfaatlar konsepiyasiga qarab;
- hudud daxlsizligini taʼminlash tamoyiliga qoʻshimcha qilib mintaqa, korxona, oila hamda shaxs iqtisodiy xavfsizligi tamoyilini kiritish;
- iqtisodiy xavfsizlikning bir-biriga qarshi tipdagi gʻoyalar va tuzulmalardan xalqaro iqtisodiy hamkorlik va xalqaro munosabatlarga asoslangan model tomon harakatlanishi;
- iqtisodiy sohadagi tahdidlar majmuali xususiyatga ega boʻlib, avvalo, YIMning sezilarli darajada qisqarishi, investitsion va innovatsion faoliyat hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatning pasayishi,

qishloq xo‘jaligi sektoridagi inqiroz, yoqilg‘i xomashyosi va energetik komponentlarni eksport sur’atining oshishi, importda esa birlamchi va iste’mol mollarining o‘sishi kuzatiladi.

Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatida esa quyidagi masalalar muhim o‘rin tutadi:

- milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyalashuviga qulay sharoit tashkil etish;
- milliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini sotish bozorlarining kengayishi;
- MDH davlatlari bilan yagona iqtisodiy hudud barpo etish;
- milliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish;
- barqaror kredit-moliyaviy siyosatini tashkil etish, boshqa davlatlardan tashqi kredit olishni kamaytirish orqali ularga bog‘lanib qolishning oldini olish;
- chet el banklari, sug‘urta va investitsion kompaniyalarni boshqarishda davlatning rolini oshirish.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi darajalari mavjud:

- xalqaro (global va mintaqaviy);
- milliy;
- lokal (mintaqaviy yoki mamlakat ichidagi tarmoqlar);
- xususiy (korxonalar va shaxs).

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik – shartnomalar va institutsional tuzilishni amalga oshirish borasidagi barcha xalqaro shartlar majmuasi bo‘lib, unda har bir jahon hamjamiyatidagi a’zo davlatning erkin saylash va o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishi, tashqi bosimga uchramasligi, boshqalarning ishiga aralashmasligi, o‘zaro manfaatli va muvofiqlik asosida jahondagi boshqa davlatlar bilan hamkorligi tavsiflanadi.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik taraqqiyot modellarning bog‘lanib qolishini, shuningdek, har bir xalqning o‘z yo‘lini tanlash huquqini tan olish, manfaatlari hurmat qilinishi orqali iqtisodiy va siyosiy qaramlikni rad etadi.

10.3. Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi holati mezon va ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Makro va mikro darajada iqtisodiy xavfsiz-

likka bo‘ladigan tahdidlarni tahlil qilish va bashoratlashda iqtisodiy xavfsizlikning mingdan ziyod ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Biroq ularning ichida 19 ta indikatordan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaniladi. Bu indikatorlar iqtisodiyotning real va moliyaviy sektorlarida hamda ijtimoiy sohada iqtisodiy xavfsizlikning muhim jihatlarini ifodalaydi. 19 ta indikatorning xususiyatlaridan biri ularning o‘zaro bog‘liqligidir.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezon va ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy tizimning amal qilishidagi tahlikali chegaralar belgilanadi. Ko‘rsatkichlar tahlikali chegaralar sifatida qabul qilingan birliklardan chekingan holatlarda tizim izchil rivojlanishga bo‘lgan qobiliyatini, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini yo‘qotib boradi, transmilliy korporatsiyalarning ekspansiyasi obyektiga aylanib qoladi, milliy boyliklarning talon-toroj qilinishi, xufyona iqtisodiyot va korrupsiya miqyoslarining kengayishidan zarar ko‘radi.

Davlat siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiyotni nafaqat sifat, balki xavflardan holi bo‘lgan tarzda rivojlanish chegaralarini son jihatdan ham belgilashi talab etiladi. Demak, mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik holatining sustlashishiga ma’lum bir chegara doirasida yo‘l qo‘yilishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlik uchun ko‘rsatkichlarning o‘zi emas, ularning chegaraviy miqdori muhim ahamiyatga ega. Shu chegaralarga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarishning turli elementlarini normal taraqqiy etishiga to‘sqinlik qiladi. Iqtisodiy xavfsizlikda negativ, buzuvchi jarayonlarning shakllanishiga olib keladi. Iqtisodiy xavfsizlikning miqdoriy ko‘rsatkichlari bo‘yicha milliy manfaatlarni ta’minlash maqsadida ko‘rsatkichlarning eng quyi yoki yuqori chegaralari aniqlanadi.

Hokimiyat institutlari tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy xavfsizlik siyosati ko‘rsatkichlarning barchasini me’yorida saqlab turishga qaratilishi kerak. Iqtisodiy xavfsizlikning bir chegaraviy ko‘rsatkichi boshqa shunday ko‘rsatkichning yomonlashuvi hisobiga ta’minlanishi mumkin emas. Davlat har bir aniq holatda xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikning uyg‘unlashuvini ta’minlashga harakat qilishi kerak bo‘ladi. Ayni paytda qisqa davr oralig‘ida foyda keltirishi, strategik jihatdan esa umuman foydasiz bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezoni – iqtisodiy xavfsizlikning mohiya-

tini ifodalovchi muhim jarayonlar nuqtai nazaridan iqtisodiy holatni baholash hisoblanadi. U quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- resurs salohiyati va uni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash;
- resurs, kapital, mehnatdan samarali foydalanish darajasini yetakchi mamlakatlar darajasiga va shuningdek, ichki hamda tashqi tavsifga ega boʻlgan tahdidlar minimumni tashkil etgandagi darajasiga muvofiqligini baholash;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligini baholash;
- hududiy sarhadlarni va iqtisodiy makonning yaxlitligini baholash;
- suverenitet va mustaqillikni, tashqi tahdidlarga qarshi turish imkoniyatlarini baholash;
- ijtimoiy barqarorlikni va ziddiyatlarning oldini olish va hal etish imkoniyatlarini baholash.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun uning indikatorlari monitoringini tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Monitoring iqtisodiy xavfsizlik koʻrsatkichlarini aniqlash, tahlil etish va ularning oʻzgarish tendensiyalari hamda istiqbolini aniqlash imkonini beradi.

Mutaxassislarning fikricha, mezonlar biror-bir harakatni amalga oshirish uchun yoʻllanma sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Uni amalga oshirishda jamiyat bazasini qayta tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish salohiyatini qayta yaxshilash, yangi bozor institutlarini, xoʻjalik yuritish dastaklarini, boshqarish tizimini yaratishga muvofiq bosqichma-bosqich harakat qilish zarur boʻladi. Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi koʻrsatkichlari mavjud:

- yalpi ichki mahsulot (Yalpi hududiy mahsulot);
- inflyatsiya darajasi;
- davlat budjeti kamomadi;
- ichki qarz darajasi;
- tashqi qarz darajasi;
- ishsizlik darajasi;
- turmush darajasi va sifati;
- oltin valyuta zaxiralari;
- xufyona iqtisodiyot koʻlami;
- ekologik holat.

Yuqoridagi koʻrsatkichlardan tashqari yana bir qator koʻrsat-

kichlar ham mavjud. Masalan, aholi daromadlari, chakana narxlar miqdori, uy-joy bilan ta'minlanganlik, hududning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, hududning to'lov balansi, eksport-import saldosi va boshqalar.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini turli xil usullar yordamida baholash mumkin, ammo biz ularni bir necha guruhlar shaklida ifodalaymiz:

1) asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni kuzatish va ularning eng yuqori ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;

2) hududlarni tahdid darajasi bo'yicha saralashda ekspert baholash usuli;

3) asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning dinamikasi asosida mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini baholash;

4) yo'qotishlar sonini aniqlash orqali xavfsizlikka tahdidning oqibatlarini baholashda iqtisodiy vositalardan foydalanish;

5) amaliy matematikaning usullari, xususan, ko'p qirrali statistik tahlil;

6) aralash baholash usullari.

Ko'rsatkichlar muhim iqtisodiy vazifani bajaradi, ular mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi darajasini tahlil qilishga yordam beradi. Iqtisodiy xavfsizlik tahlilini o'tkazishda indikatorlarni bloklarga ajratish tavsiya etiladi, ularning har biri alohida ko'rsatkichlar to'plami bilan tavsiflanadi.

Ko'rsatkichlar tizimi iqtisodiy xavfsizlikning miqdoriy va tendensiyalarini baholash uchun imkoniyat yaratadi. Umuman, iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari blokka bo'lish orqali tahlil qilinadi va bloklar bo'yicha xavfsizlik holati aniqlanadi.

Birinchi blokda iqtisodiy xavfsizlikning barcha koeffitsiyentlari stimulyator ko'rsatkichlari (rag'batlantiruvchi) va stimulyatorni yo'q qiluvchi (rag'batlantirishni pasaytiruvchi) ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Rag'batlantiruvchi ko'rsatkichlar iqtisodiy xavfsizlik koeffitsiyentiga ogohlantiruvchi (ijobiy) ta'sir ko'rsatadi. Masalan, asosiy kapitalga investitsiyalar, innovatsiyalarni moliyalashtirish, ish bilan band bo'lganlar soni va boshqalar.

Rag'batlantirishni pasaytiruvchi ko'rsatkichlar iqtisodiy xavfsiz-

lik darajasini pasaytirishiga sabab bo‘ladi. Masalan, debitorlik va kreditorlik qarzlari, asosiy vositalarning eskirishi, ish haqi bo‘yicha qarzdorlik va boshqalar.

Ikkinchi blok ko‘rsatkichlarga taqqoslash, baholash va bashorat qilish ko‘rsatkichlari kiradi. V.K.Senchagovga ko‘ra, iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarining chegaraviy qiymatlari bo‘lgan iqtisodiy xavfsizlikni tahlil qilish va prognozlashning indikatsion tizimini yaratish kerak (jami uning ishida davlatning iqtisodiy xavfsizligining turli sohalarini tavsiflovchi 150 ga yaqin ko‘rsatkichlardan foydalanilgan). Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarining amaldagi va prognoz qilingan ko‘rsatkichlarini taqqoslash mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish yo‘nalishini, hayotni ta’minlashning asosiy tizimlari holatini ko‘rsatadi.

Uchinchi blokda indikatorlarning (ayniqsa, YIM) eng yuqori darajasini aniqlash uchun asosiy asos sifatida ijtimoiy ko‘rsatkichlar guruhidan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu uslub mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va davlat budjeti loyihalarining qisqa va uzoq muddatli prognozlarini baholashda qo‘llaniladi.

To‘rtinchi blok ko‘rsatkichlar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini belgilab, V.K.Senchagov eksport tarkibiga alohida e’tibor qaratdi va tayyor mahsulotni ko‘paytirish va minerallar eksportini kamaytirish zarurligini ta’kidladi. Alohida e’tibor Davlatning iqtisodiy xavfsizligi to‘lov balansi va mamlakatning holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga beriladi, ularning 4 tasi asosiy ko‘rsatkichlar tarkibiga kiradi: tashqi qarz; davlat qarziga xizmat ko‘rsatish xarajatlari ulushi; valyuta zaxiralarining hajmi va tashqi qarz bo‘yicha to‘lovlarning yillik eksport hajmiga nisbati.

Ishonchlilikning ajralmas ko‘rsatkichini baholash jarayonida, muayyan o‘ziga xos guruhlar hisoblab chiqiladi:

- siyosiy xavflarni baholash - 25%;
- qarz ko‘rsatkichi - 10%;
- iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi - 25%;
- muddati o‘tgan va qayta tuzilgan qarz ko‘rsatkichlari - 10%;
- mamlakatning kredit reytingi - 10%;
- bank kreditidan foydalanish imkoniyati - 5%;

- qisqa muddatli moliyalashtirish imkoniyatlari - 5%;
- kapital bozorida kapitalni jalb qilish imkoniyati - 5%;
- o‘g‘irlash foizi - 5%.
- har bir indikator ballarda ma’lum shkala bo‘yicha ham baholanadi.

Beshinchi blok ko‘rsatkichlarga bozorga tovar yoki xizmatlar bilan kirishda uni bozor (iste’molchi) qabul qilishi bo‘yicha ham baholashga qaratilgan. Bular:

1) tabiiy dushmanlik;

2) o‘zaro dushmanlik, ya’ni savdo faoliyatiga javobning namoyon bo‘lishi va uning bevosita va uzoq muddatli natijalari va oqibatlari;

3) uyushgan adovat (savdo biznesining yangi ishtirokchisining faoliyatini rivojlantirish uchun bozorning adovati raqobat bilan bog‘liq bo‘lgan bilvosita adovat sifatida boshlangan, ishlab chiqilgan va tartibga solingan hollarda).

Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari tizimi quyidagi muhim ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lishi mumkin, ular iqtisodiy xavfsizlikning 6 mezoni yordamida aniqlanadi:

1) investitsion xavfsizlik ko‘rsatkichi. Xalqaro tajribaga ko‘ra, mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi uchun ma’lum vaqt ichida yillik investitsiyalar YIMning 19-25% darajasida bo‘lishi kerak;

2) davlatning ichki va tashqi qarzlari hajmi – bu davlat tomonidan belgilangan muddatda, mos ravishda, ichki va tashqi kredit bozorlarida to‘lanmagan kreditlar hajmidir.

$$\textbf{Ldis (Ldfs)}=\frac{D_i(D_f)}{GDP}*100\% \quad (3)$$

Bu yerda:

L - davlatning uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha darajasi,

Ldis - ichki qarzlar;

Ldfs - tashqi qarzlar;

GDP - mamlakat YIMi.

3) budjet xarajatlari uning daromadlaridan oshib ketishi natijasida yuzaga keladigan davlat budjeti taqchilligi. Har bir aniq yil uchun budjet taqchilligi darajasi defitsitning yillik YIMga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$L_{bds}=\frac{BD}{GDP}*100\% \quad (4)$$

bu yerda: BD - budjet taqchilligining hajmi;

YIM - yillik YIM darajasi;

4) ma'lum bir yilda iqtisodiyotni pullash darajasi M3 yig'indisi (MS M3) bo'yicha pul massasining YIMning yillik hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

$$L_{ms}=\frac{MSM3}{GDP}*100\% \quad (5)$$

5) bank kreditlarining qiymati qarz oluvchi tomonidan uning kreditidan foydalanish uchun tijorat bankiga to'lanadigan yillik foizlar bilan belgilanadi;

6) mamlakat bankining xalqaro zaxiralari. Boshqa valyutalarga nisbatan uning ayirboshlash kursining barqarorligi bilan belgilanadigan milliy valyutaning tashqi barqarorligi ko'p jihatdan mamlakat bankining xalqaro zahiralari darajasiga bog'liq.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'rsatkichlarning barcha majmuasi qabul qilingan chegaralar doirasida bo'lgan va bir chegaraviy ko'rsatkich boshqa bir chegaraviy ko'rsatkichning yomonlashuvi hisobiga yaxshilanmagan taqdirdagina xavfsizlikning eng yuqori darajasiga erishiladi. Xavfsizlik ko'rsatkichlari bilan ularning tahlikali chegara miqdorlari o'rtasidagi bog'liqlik dinamikada o'rganilishi zarur.

Iqtisodiy xavfsizlikning tahlikali chegarasiga oid indikatorlar 50 ta ko'rsatkichni o'z ichiga olgan bo'lib, ular to'rt guruhga ajratilib turkumlangan: iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko'rsatkichlar; moliyaviy tizim barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar; ijtimoiy soha ko'rsatkichlari; tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari.

Birinchi guruh ko'rsatkichlariga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarishi hajmi hamda uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlariga esa davlat budjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o'zaro hisob-kitob va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar kiradi.


Uchinchi guruh aholi daromadlari darajasi, aholining mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik kabilarni o'z ichiga oladi.

To'rtinchi guruh ko'rsatkichlariga esa mamlakat ichki iste'mo-

lida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi kabi indikatorlar kiradi.

Xo‘jalik yuritishning istalgan sohasida – ishlab chiqarish, tashqi savdo, ilmiy-texnikaviy hamkorlik va boshqalarda, barcha mamlakatlar uchun xavfsizlikning ma’lum chegaralari mavjud bo‘lib, ularni ilmiy asoslangan me’yorlar asosida aniqlash mumkin. Ayni paytda ayrim olingan mamlakatda mavjud bo‘lgan vaziyatga to‘liq baho beruvchi universal ko‘rsatkich mavjud emas. Chunki iqtisodiy xavfsizlik ko‘p omillar ta’sirida bo‘ladigan hodisa hisoblanib, u milliy ishlab chiqarishning uzluksiz o‘zgarib turuvchi ichki va tashqi sharoitlarining yig‘indisini aks ettiradi.

Iqtisodiyot holati va uning xavfsizligi uchta indikator, ya’ni iste’mol narxlari, milliy valyuta kursi va aholining pul daromadlari bilan belgilanadi.



10.2-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining guruhlanishi

Mana shu uchta indikator iqtisodiy xavfsizlikning boshqa indikatorlariga sezilarli ta'sir koʻrsatadi. Ular iqtisodiy xavfsizlik vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunday koʻrsatkichlar davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasidagi vazifalarini amalga oshirish vositalaridan biri boʻlib hisoblanadi.

10.4. Iqtisodiy xavfsizlik koʻrsatkichlarining tahlikali chegaralari

Iqtisodiy xavfsizlik tamoyillari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning quyi chegarasini ifodalovchi koʻrsatkichlar qoʻllanadi. Mazkur quyi chegaralardan past koʻrsatkichlarda iqtisodiy tizim uchun tahdidlar vujudga keladi, hatto bu tizimning buzilishi, degradatsiyasi yuz bera boshlaydi. Ushbu quyi chegara va uning miqdoriy oʻlchamlarini aniqlash, belgilash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim boʻladi:

- milliy iqtisodiyot va iqtisodiy tizim faoliyatining asosiy sharoitlarini oʻrganish va ularni tavsiflovchi koʻrsatkichlarni aniqlash;
- milliy iqtisodiyotni tanglik va beqarorlikka olib keluvchi omillarni aniqlash;
- turli tanglik, xavfli holatlar yuzaga kelishining tartibi va imkoniyatlarini baholash;
- xavfsizlik va barqarorlikni saqlashga xavf soluvchi tahdidlarning oldini olish yoʻllarini aniqlash.

Chegara koʻrsatkichlari – iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarning miqdor jihatdan ifodalanishidir. Mazkur koʻrsatkichlar tizimli tahlil, prognoz va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishning muhim vositasi boʻlib hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasida asosiy ustuvorlik aholining turmush darajasini yuksaltirish boʻlganligi bois YIM hajmi va u bilan bogʻliq koʻrsatkichlarning quyi chegaraviy miqdorlarini belgilashda aynan shu koʻrsatkichlar asos sifatida olinishi kerak.

10.1-jadval

Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy koʻrsatkichlari

Koʻrsatkichlar	Koʻrsatkichlarning quyi chegarasi
YIMga nisbatan investitsiyalar hajmi (foizda)	25
Ilmiy tadqiqot ishlanmalari uchun xarajatlar) (YIMga nisbatan foizda)	2
Yashash minimumidan past daromad darajasiga ega boʻlgan aholi ulushi (foizda)	7
Aholining umr koʻrish uzunligi	70
Detsil koeffitsiyenti	8
Jinoyatchilik darajasi har 100 ming kishiga	5000
Inflyatsiya darajasi (foizda)	20
Tashqi qarz (YIMga nisbatan foizda)	25
Davlat budjeti kamomadi	5
Pul massasi M2 (YIMga nisbatan foizda)	50
Ichki iste'molda umumiy importning ulushi, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari	30 25
Xalqaro mehnat tashkiloti uslubiyatiga koʻra ishsizlik darajasi (foizda)	7

Jahon tajribasidan ma'lumki, ijtimoiy sohada tahdidlar minimal darajada boʻlishi uchun yashash minimumidan past daromadga ega boʻlgan aholi ulushi 7-10 foizni tashkil etishi, boy va kambagʻallar daromadlari oʻrtasidagi tafovut esa sakkiz martadan oshmasligi kerak. Bir guruh olimlar iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlarini belgilashda BMT tomonidan 1990-yilda qabul qilingan inson rivojlanish indeksini taklif etadilar. Mazkur indeks ijtimoiy taraqqiyotning eng aniq umumlashgan koʻrsatkichi (mezoni) boʻlib hisoblanadi.

Inson taraqqiyoti indeksi – bu dunyoning turli mintaqalari va mamlakatlarida insonning, jamiyatning toʻlaqonli a'zosi sifatida taraqqiy etishini tavsiflovchi yigʻma koʻrsatkich hisoblanadi. Inson taraqqiyoti indeksi har yili BMTning Taraqqiyot dasturi mutaxassislari va mustaqil xalqaro guruh bilan birgalikda xalqaro tashkilotlar va milliy institutlarning statistik ma'lumotlaridan foyda-

langan holda hisoblab chiqiladi. Inson salohiyatining rivojlanish konsepsiyasi BMT Taraqqiyot dasturining oʻziga xos intellektual mahsuloti hisoblanadi. 1990-yilda BMTning Taraqqiyot dasturi dunyo mamlakatlarining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga baho bergan holda birinchi ma'ruzasini e'lon qildi. Mazkur ma'ruzada inson taraqqiyoti tushunchasiga ta'rif beriladi. Unga koʻra, inson taraqqiyoti – tanlash imkoniyatlarining kengayib borish jarayoni, deb qaraladi. Tanlovning eng muhim elementlari boʻlib, uzoq va sogʻlom hayot kechirish, zaruriy ta'lim darajasiga ega boʻlish hamda moddiy jihatdan toʻliq ta'minlanganlik hisoblanadi. Siyosiy erkinlik, inson huquqlarining yetarlicha kafolatlanganligi, oʻz-oʻzini namoyon qilish va shu kabilar tanlovning qoʻshimcha elementlari hisoblanadi. Inson taraqqiyoti toʻgʻrisidagi keyingi ma'ruzalarda "Inson taraqqiyoti" tushunchasi birmuncha toʻldiriladi. Mutaxassislar inson taraqqiyotida ijtimoiy adolat, inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda boʻlish tamoyillari muhim oʻrin tutadi, deb hisoblaydilar. Ularning ta'rifiga koʻra, inson taraqqiyoti – bu insonlarning uzoq, sogʻlom va mazmunli hayot kechirishlari borasida tanlov imkoniyatlarining kengayib borishi va shu asnoda insonlarning globallashib borayotgan jamiyatda barqaror rivojlanish hamda ijtimoiy adolat mezonlarini ta'minlashda faol ishtiroki hamdir.

Mazkur ta'rifga koʻra, inson taraqqiyoti uch tashkil etuvchini oʻz ichiga oladi. Bularning birinchisi farovonlik, ikkinchisi huquq va imkoniyatlarning kengayishi, uchinchisi esa ijtimoiy adolatlilikdir. Inson taraqqiyoti indeksi bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik jihatidan qayta hisoblangan inson taraqqiyoti indeksi, gender tengsizligi indeksi va koʻp qirrali qashshoqlik indeksidan ham foydalaniladi. Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlari uchta guruhga ajratib koʻrsatiladi:

Birinchi guruhga ishlab chiqarish sohasi, uning tashqi dunyoga minimal darajada bogʻliqlik sharoitida faoliyat yuritish qobiliyatini kiritadilar. Ushbu guruhga quyidagi chegaraviy miqdorlar kiritilgan:

- YIM umumiy hajmi - "katta yettilik" boʻyicha oʻrtacha indikatorning 75 foiz miqdorida;
- aholi jon boshiga YIM hajmi - "katta yettilik" boʻyicha oʻrtacha indikatorning 50 foiz miqdorida;

- dunyo bo‘yicha o‘rtacha indikatorning 100 foiz miqdorida;
- sanoat mahsuloti ishlab chiqarishi umumiy hajmida qayta ishlash sanoati ulushi - 70 foiz;
- YIMda investitsiyalar ulushi - 25 foiz;
- sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlik ulushi - 20 foiz;
- aholining ichki iste’molida import ulushi - 30 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari - 25 foiz;
- mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida yangi mahsulotlar ulushi - 6 foiz.

Ikkinchi guruh ko‘rsatkichlari tarkibiga aholi turmush darajasi va sifati bilan bog‘liq chegaraviy miqdorlar kiritilgan:

- aholining umumiy sonida yashash minimumidan past daromadga ega bo‘lgan fuqarolar ulushi - 7 foiz;
- umr ko‘rish uzunligi - 70 yosh;
- boy va kambag‘allar daromadlari o‘rtasidagi tafovut - 8 marta;
- ishsizlik darajasi - 7 foiz.

Uchinchi guruh ko‘rsatkichlari moliyaviy holat bilan bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- YIMga nisbatan ichki qarz miqdori - 30 foiz;
- YIMga nisbatan tashqi qarz miqdori - 25 foiz;
- YIMga nisbatan budjet tanqisligi - 5 foizgacha;
- naqd xorijiy valyuta hajmining naqd milliy valyuta hajmiga nisbati - 25 foiz;
- YIMga nisbatan pul massasi (M2) - 50 foiz.

10.2-jadval

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi va yuqori tahlikali chegaralari

	Quyi va yuqori tahlikali chegara	
Ko‘rsatkichlar	Mazmuni	Darajasi %
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	16
Ishsizlik darajasi	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	8
Monetizatsiya darajasi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	25
Tashqi qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	40
Ichki qarz	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	30
Tashqi qarzlar bo‘yicha to‘lovlar	To‘lovlarning yillik eksport hajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	25
Mudofaaga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	3
Fuqarolik fanlariga xarajatlar	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (quyi chegara)	1,5
Innovatsion mahsulotlar	Sanoat mahsulotlari umumiy hajmiga nisbatan, foiz (quyi chegara)	15
Sanoat ishlab chiqarishda mashinasozlik va metallni qayta ishlash	Sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foiz (quyi chegara)	25
Davlat budjeti tanqisligi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	3,0
Davlat qarzini qoplash xarajatlari	Davlat budjeti xarajatlari hajmiga nisbatan, foiz (yuqori chegara)	20
Yashash minimumidan past darajada daromad oluvchi aholi	Aholi umumiy sonidagi ulushi, foiz (yuqori chegara)	7,0
Aholi daromadlari bo‘yicha tabaqalanishi	Detsil koeffitsiyenti (yuqori chegara)	8,0

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, chegaraviy ko‘rsatkichlarning bir xil miqdorini belgilab qo‘yish uslubiy jihatdan uncha to‘g‘ri bo‘lmaydi. Masalan, birinchi guruh ko‘rsatkichlarida keltirilganidek, investitsiyalar ulushi YIMga nisbatan hisoblaganda 25 foizdan kam

bo‘lgan holatda iqtisodiyotga tahdid yuzaga keladi. Lekin ayni paytda, investitsiyalar ulushi 40 foiz bo‘lganida ham tahdid yuzaga kelishi mumkin.

Farq shundaki, birinchi holatda mehnat qurollarining moddiy va ma’naviy jihatdan eskirishi natijasi sifatida tahdid yuzaga kelsa, ikkinchi holat aholi turmush darajasi va sifatining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy xavfsizlikning ayrim chegaraviy miqdorlarini qat’iy qilib emas, balki ma’lum doira chegarasida belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

10.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘sish sur’ati[75] (o‘tgan yilga nisbatan %da)

	2010	2016	2017	2018	2019	2020	2022
Yalpi ichki mahsulot	108,5	107,8	104,5	105,4	105,6	101,6	105,7
Sanoat mahsuloti	108,3	106,2	105,2	110,8	106,6	100,7	105,2[1)]
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari	106,8	106,6	101,2	100,3	102,5	103,0	103,6
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	109,2	107,7	107,1	118,1	133,9	91,8	100,9
Qurilish ishlari	105,1	110,2	106,0	114,3	119,0	109,1	106,6
Yuk aylanmasi (mln. t/km)	110,3	105,0	102,5	105,7	102,2	95,2	100,5
Yo‘lovchi aylanmasi (mln. yo‘lovchi/km)	106,3	104,6	103,3	102,4	102,7	83,3	105,6
Xizmatlar, jami	112,5	109,3	108,9	105,5	105,1	102,3	115,9
Chakana savdo tovar aylanmasi	113,6	114,4	102,4	105,5	107,9	103,2	112,3
Tashqi savdo aylanmasi	104,7	97,5	111,0	127,3	126,2	86,9	118,6
Eksport	110,6	97,4	114,9	113,5	128,0	86,6	115,9
Import	97,2	97,7	107,2	139,6	124,9	87,2	120,4
Iste’mol narxlari indeksi (o‘tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, %)	107,3	105,7	111,4	114,3	115,2	111,1	112,3

[75] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Toshkent-2023 y.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng iqtisodiy rivojlanishning o‘zbek modelini amalga oshirilishi oqibatida qisqa vaqt ichida chuqur tanglikdan chiqishga erishdi va 1996-yildan boshlab iqtisodiy o‘sish tendensiyalariga ega bo‘ldi. 1996-2003-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘rtacha 4% yillik o‘sish sur’atlarida rivojlangan bo‘lsa, 2004-yildan boshlab qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishni amalga oshirish natijasida, yiliga o‘rtacha 7-9% darajasidagi barqaror va yuqori o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Keyingi 10 yilda (2007-2020-yy.) YIM 2,7 barobardan ziyodga o‘sdi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YIMdagi ulushi 2020-yilda 29,4%ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2000-yilda 22,9%ni, 2010-yilda 24,6%ni tashkil etgan edi. Davlat budjeti 2005-yildan boshlab profitsit bilan bajarilishiga erishildi. Davlatning tashqi va ichki qarzlari darajasi tahlikali xavf chegarasidan ancha pastdir. Inflyatsiya 5-6% darajasida barqarorlashdi. Ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholiga nisbatan 5-6%da bo‘lib, tahlikali yuqori darajadan ancha kam bo‘lishi ta’minlandi. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan siyosatning amalga oshirilishi natijasida 2022-yilda YIM tarkibida qishloq xo‘jaligi 103,6% ga o‘sdi, sanoat 105,2%ga, jami xizmat ko‘rsatish sohasi esa 115,9%ga o‘sdi.

Xavfsizlikni, shu jumladan, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning uchun, avvalambor, uning siyosiy, tashkiliy va huquqiy asoslari yaratiladi. Ushbu maqsadda konsepsiya ishlab chiqiladi. Uni ishlab chiqish esa iqtisodiyot holatini obyektiv baholashga hamda uning rivojlanish tamoyili va tendensiyalarini bashorat qilishga asoslanadi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi holatini doimiy monitoringini olib borish, unga bo‘lgan tahdidlarni tahlil qilish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari va indikatorlari asosida diagnostikasini amalga oshirish birlamchi muhim vazifalardan biridir. Buning uchun iqtisodiy xavfsizlikni belgilovchi vaziyat va holatlardagi sabab-oqibatlarini aniqlash uchun ilmiy tahliliy markazni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni saqlash va mustahkamlashga mas’ul, javobgar davlat

organlari, tashkilot va muassasalar hamda ularning vazifalari belgilanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasida iqtisodiyotda ijtimoiy ishlab chiqarish hajmi va dinamikasi, iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligi, iqtisodiyotning ochiqligi, intellektual salohiyatning holati, innovatsion darajasi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir koʻrsatish darajasi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tendensiyalarining istiqbolli bashoratlari va ularning asosiy ustuvorliklari oʻz ifodasini topishi lozim.

Bob boʻyicha xulosalar

Iqtisodiy xavfsizlik – bu iqtisodiyotning holati oʻrganiluvchi, iqtisodiy koʻrsatkichlarning yetarlicha yuqori va barqaror oʻsishi ta'minlanadigan ilmiy bilimlar sohasi; iqtisodiy ehtiyojlarni samarali qondirish; milliy resurslarning harakati va ulardan foydalanish ustidan davlat nazorati; mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini milliy va xalqaro soha va darajalarda himoya qilish kabilarni koʻzda tutadi.

Akademik L.I.Abalkin iqtisodiy xavfsizlikni "milliy iqtisodiyotning mustaqilligini, uning barqarorligi va ishonchliligini, doimiy ravishda yangilanish va takomillashtirish qobiliyatini ta'minlaydigan shart-sharoitlar va omillar majmui" sifatida ta'riflaydi.

Makroiqtisodiyotda iqtisodiy xavfsizlik – bu tashqi omillarning mavjudligi va ta'siridan qat'i nazar, jamiyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi jarayoni ta'minlanadigan mamlakatda ishlab chiqarish vositalarining holati yoki rivojlanish darajasini ifoda etadi.

Iqtisodiy xavfsizlik – bu davlatning holati yoki milliy xavfsizlik darajasini belgilovchi iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ilmiy, texnologik va ijtimoiy jihatlar va omillar majmuidir.

Iqtisodiy xavfsizlikka, agar hukmron iqtisodiyotga qaramlik darajasi, shuningdek, ichki siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatning keskinlashuvi darajasi harbiy kuchning zaiflashishi, aholining turmush darajasi va sifatining sezilarli darajada pasayishi yoki iqtisodiy vaziyat izdan chiqmasa yoki mamlakatning global strategik

maqsadlariga erishish borasidagi intilishlariga putur yetmasa, albatta, erishish mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlik o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- to‘lov qobiliyatini saqlash;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning kelgusi pul oqimlarini rejalashtirish;
- bandlikni kafolatlash va shu kabilar.

Iqtisodiy xavfsizlik darajasi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Mamlakatning geosiyosiy va iqtisodiy-geografik joylashuvi va shu bilan birga ishlab chiqaruvchi kuchlarning mamlakat hududida joylashishi, shuningdek, ichki va tashqi resurslardan foydalanish.
2. Mamlakatning iqtisodiy va harbiy-siyosiy qudrati va rivojlanishning strategik muhim yo‘nalishlarida jahon iqtisodiy tizimidagi raqobatbardosh mavqei.
3. Mamlakat institutsional tizimining milliy xavfsizlik darajasi bog‘liq bo‘lgan sanoat iqtisodiyotining tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilganligi.
4. Raqobat ustunligini ta’minlaydigan tarmoqlarga, milliy iqtisodiyot korxonalariga nisbatan davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari.
5. YIMning tarmoq va mintaqaviy tuzilmasi o‘lchamlari, milliy xavfsizlikni ta’minlashda milliy iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat mintaqalarining strategik ahamiyati.
6. Fors-major sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun yetarli hajmdagi birinchi va eng yuqori darajadagi strategik muhim moddiy ne’matlar zahiralarining mavjudligi.

Iqtisodiy xavfsizlikning samarali darajasini saqlashga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan va yo‘naltirilgan faoliyat jihatlari:

- Iqtisodiyotning strategik muhim tarmoqlari faoliyatini ta’minlovchi qonun hujjatlarini ishlab chiqish, qabul qilish va ijrosini ta’minlash;
- Budjet ijrosini nazorat qilish va mablag‘lardan noto‘g‘ri foydalanishning oldini olish;
- Jamiyat hayotining barcha darajalarida korrupsiyaga qarshi kurash;

- Yangi texnologiyalar va bilim talab qiluvchi tarmoqlarni rivojlantirishga investitsiyalar;
- Maxsus xizmatlar va armiya faoliyatini kuchaytirish va takomillashtirish;
- Hukumatning siyosiy va iqtisodiy tizimini rivojlantirish va takomillashtirish.

Takrorlash uchun savollar:

1. Iqtisodiy xavfsizlik qanday koʻrsatkichlar orqali tavsiflanadi?
2. Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasi deganda nimani tushunasiz?
3. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyatini ochib bering.
4. Iqtisodiy xavfsizlik tizimining tuzilmasi qanday?
5. Iqtisodiy xavfsizlik tizimida milliy manfaatlarning oʻrni.
6. Iqtisodiy xavfsizlikni baholashning mezonlari nima?
7. Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tahdidlari va indikatorlarini sanab bering.
8. Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegaralari nima?
9. Mamlakatning asosiy iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining quyi tahlikali chegaralarini aytib bering.
10. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari va mezonlari nimalardan tashkil topadi?
11. Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy koʻrsatkichlari haqida batafsil tushuncha bering.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT 78-sessiyasida so'zlagan nutqidan.

XI BOB. O'ZBEKISTONDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI

11.1. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zaruriyati

11.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita va bevosita usullari

11.1. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zaruriyati

Dunyo mamlakatlarining jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, ular o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi hamda iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, har bir davlatdan tashqi omillardan oqilona va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotni tashqi ta'sirlardan himoyalashga qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosat yuritishni talab etadi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan, ichki bozorning tashqi bozorlar bilan o'zaro hamkorligi uchun sifat jihatidan yangi negizlarini shakllantiradigan tub bozor o'zgarishlarini amalga oshirish obyektiv ravishda tashqi iqtisodiy omillarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati – xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta'minlash borasidagi davlat faoliyatining yo'nalishi va sohasi, shuningdek, tegishli maqsad va vazifalarni amalga oshirishdagi aniq chora-tadbirlar yig'indisidir. Tashqi iqtisodiy siyosatning mohiyati uning davlat va xalqning suvereniteti-ni ta'minlashdan iborat bo'lgan, milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha mexanizmining butun sa'y-harakati ijtimoiy-iqtisodiy integratsion jarayonlarda milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni

ta’minlashda o‘z ifodasini topadi. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati negizida tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish va ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimlanishida mamlakat ishtirokini maqbullashtirish tartibini belgilashga doir bir maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatlar yotadi.

Tashqi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlari bo‘lib tashqi savdo siyosati, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xorijdagi milliy kapital qo‘yilmalarni tartibga solish borasidagi siyosat, valyuta siyosatlari hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan alohida davlatlar va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish ko‘rinishlari ham mavjud.

Tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy faoliyatni ham tartibga soladi. Ko‘plab davlatlarda mavjud bo‘lgan tashqi iqtisodiy siyosat vositalarining keng doirasi ularga o‘z tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibini va ularni rivojlantirish yo‘nalishlarini shakllantirishga ham, boshqa mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari va tashqi iqtisodiy siyosatiga ham faol ta’sir etish imkonini beradi. Tashqi iqtisodiy siyosat vositalarini savdo-siyosiy mexanizm sifatida ta’riflash mumkin.

Tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun uning asosiy tamoyillarini aniq va ravshan belgilash lozim. Unda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini iqtisodiy-huquqiy tartibga solishga asosiy o‘rin ajratilgan bo‘lib, umummilliy manfaatlarga mos kelishi lozim.

Davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatni normativ tartibga solish negizida milliy hamda xalqaro huquq me’yorlari yotadi. Biroq davlatning tashqi iqtisodiy siyosat sohasidagi munosabatlarini tartibga solishda milliy huquqiy mexanizmlarning ham ahamiyati katta. Bunday mexanizmlar hozirgi kunda davlatning xalqaro maydondagi strategik faoliyatini belgilashda muhim rol o‘ynab kelmoqda.

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari va uni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida uning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari mavjud bo‘lib, davlatning iqtisodiy siyosati bu vazifalarni bajarilishiga qaratilmog‘i kerak. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining har

bir bosqichida davlat tashqi iqtisodiy siyosatining maqsadlari shu davrning oʻziga xos xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- eksportni rivojlantirish va uning tarkibiy tuzilishini yaxshilash;
- importning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, ya'ni uni milliy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va kengaytirishga qaratish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarni sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish uchun chet el investitsiyalarini jalb etish;
- mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, ya'ni ma'lum darajada tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport-import operatsiyalari, valyutani olib chiqish, boshqa xalqaro bitimlar ustidan davlat nazoratini oʻrnatish.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati aniq belgilangan maqsadlar va ularni amalga oshirishga qaratilgan asosiy tadbirlarni oʻz ichiga oladi:

Birinchidan, respublika milliy iqtisodiyotining kuchli eksport boʻgʻinini tashkil etuvchi va uni jahon bozorida munosib oʻringa ega boʻlishini ta'minlovchi sohalarini aniqlash.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning eksport boʻgʻinida davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash usullaridan keng foydalanish. Bu usullar quyidagilardan iborat:

- eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar boʻyicha uzoq muddatli kreditlar ajratish;
- eksport qiluvchilarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilari ishlab chiqarishi xarajatlari oʻrtasidagi farqni qoplash;
- davlat tomonidan respublikaga ilgʻor texnologiyalar, tajribalar, bilimlarning kirib kelishiga subsidiyalar ajratish;
- milliy investitsiyalarni sugʻurtalash;
-ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltiriladigan xomashyo va materiallar, asbob-uskunalar va jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish;
- eksport va importni litsenziyalash yoki chetga mol chiqarishga va chetdan uni olib kelishga ruxsatnomalar berish va boshqalar.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy siyosat milliy valyutani mustahkamlash va uni boshqa valyutalarga erkin almashuvini ta'minlashni, ichki narxlarni jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish maqsadida baholar islohotini tugallashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning me'yoriy

va huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi.

Bozor qonunlari asosida rivojlanayotgan va davlat aralashuvi yuqori bo‘lgan mamlakatlarning barchasida davlat erkin xalqaro ayirboshlash yo‘liga ma’lum to‘siqlar qo‘yadi va bunday holat milliy manfaatlarni himoya qilish zarurligi bilan tushuntiriladi. Bularga mamlakat iste’mol bozorlarini himoyalash, ichki bandlikni oshirish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish va hokazolar kiradi.

Iqtisodiy raqobatga bardoshli bo‘lgan davlatlar ham, bunday raqobatga chidamsiz davlatlar ham litsenziyalash va kvotalarni o‘rnatish, bojxona bojlari va tariflarni kiritish, mahsulot sifati va uning xavfsizligini ta’minlovchi standartlarni o‘rnatish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatga ta’sir etuvchi boshqa bir qator vositalardan keng foydalanadilar, shu orqali o‘z tashqi iqtisodiy siyosatlarini yurgizadilar.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati kundalik va strategik maksadlarga muvofik uning tashqi iqtisodiy siyosatiga asoslangan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosati deganda, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Davlatni xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi darajasiga ko‘ra xalqaro savdo siyosati proteksionistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga bo‘linadi.

Erkin savdo – davlatni tashqi savdo jarayonlariga aralashuvining kamayishi, ya’ni tashqi savdoning erkin bozor talabi va taklifiga asosan rivojlanishi.

Proteksionizm – tarif va notarif usullarini qo‘llash orqali ichki bozorni chet el raqobatchilaridan himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati.


Erkinlashtirish va proteksionizm siyosati dunyodagi har qanday davlat uchun xos. Hozirgi paytda tashqi savdoni erkinlashtirishga moyillik kuzatilyapti. Bu jarayon uch xil ko‘rinishda amalga oshirilyapti:

- alohida mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdoda;
- yagona bojxona ittifoqiga kiruvchi alohida davlatlar o‘rtasida;
- Jahon savdo tashkiloti, Savdo va rivojlanish bo‘yicha BMTning konferensiyalari (YUNKTAD), BMTning Yevropa iqtisodiy komis-

siyasi (YIK) doirasida ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat – bu milliy joriy va strategik maqsadlarga muvofiq tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasida davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatning makon jihati jahon va mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha davlatning harakatlarini belgilaydi. Ushbu belgiga binoan, davlatning tashqi iqtisodiy siyosati tarkibiga tashqi savdo siyosati, tashqi investitsiya siyosati, valyuta siyosati, bojxona siyosati kiradi. (11.1-rasm.)



11.1-rasm. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy shakllari

Davlatning tashqi savdo siyosati xalqaro darajada tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborotlar, intellektual faoliyat natijalari bilan amalga oshiriladigan ayirboshlashni qamrab oladi va eksport va import siyosatlari birgalikda tashqi savdo siyosatini tashkil etadi.

Tashqi savdo boʻyicha davlatning eksport siyosati deganda mamlakatning raqobatbardosh tovarlar, xizmatlar va intellektual mulklarni jahon bozorida sotishga va ushbu tovarlarni ishlab chiqarishni ragʻbatlantirishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Eksport qiluvchi korxonalarni ragʻbatlantirishda davlat buyurtmalari, budjetdan moliyalash, imtiyozli kreditlar berish, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini moliyalash va boshqalardan foydalaniladi.

Tashqi savdo boʻyicha davlatning import siyosati deganda mamlakatga xorijdan tovarlar, ishlar, xizmatlar va intellektual mulklarning kelishini tartibga solishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Bunday tartibga solishning vositasi sifatida respublika iqtisodiyotini himoya qilish maqsadida importni toʻgʻridan-toʻgʻri cheklash hisoblanadi. Bunda litsenziyalash va kontingentlash, importga oid antideping va kompensatsiya bojlari, eng kam import narxlari tizimi va boshqalar qoʻllaniladi.

Tashqi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarni mamlakat hududiga jalb etish va ulardan foydalanish hamda milliy investitsiyalarni xorijga olib chiqishni tartibga solishga doir chora-tadbirlar majuidan iborat.

Valyuta siyosati davlat va xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari tamonidan amalga oshiriladigan valyuta munosabatlari sohasidagi iqtisodiy choralar hamda tashkiliy shakl va usullar yigʻindisini tashkil etadi. Valyuta siyosati davlatning valyuta mablagʻlaridan maqsadli foydalanish boʻlib, oʻz ichiga valyuta mablagʻlarini shakllantirish va ishlatishning asosiy yoʻnalishlarini hamda bunday mablagʻlardan samarali foydalanishga yoʻnatirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni oladi. Valyuta siyosatining amal qilish sohasi boʻlib valyuta bozori, qimmatbaho metallar va toshlar bozori hisoblanadi. Davlatning valyuta siyosati diskont va deviz siyosatlariga boʻlinib, moliya tizimining bir maromli faoliyatini va mamlakat toʻlov balansi muvozanatini ta’minlash kabi vazifalarni qamrab oladi.

Diskont siyosati investitsiyalar harakatlarini tartibga solish va to‘lov majburiyatlarini muvozanatlashtirish, valyuta kursini taxminiy tuzatish uchun foizning hisob stavkasidan foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi. Ushbu siyosat pul talabi holatiga, narx dinamikasi va darajasiga, pul massasi hajmiga, qisqa muddatli investitsiyalar migratsiyasiga ta’sir ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi.

Deviz siyosati – valyuta intervensiyasi va valyuta cheklashlari yordamida valyutani xarid qilish va sotish bilan valyuta kursini tartibga solish tizimidir.

Valyuta intervensiyasi Markaziy bankning xorijiy valyutaning oldi-sotdisi bo‘yicha maqsadli operatsiyalari bo‘lib, u milliy valyuta kursi dinamikasini uni oshirish yoki pasaytirishning muayyan chegaralari bilan cheklash maqsadini ko‘zlaydi. Valyuta cheklashlari milliy va xorijiy valyuta, oltin va hokazolarga doir operatsiyalarni tartibga soladigan iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy chora-tadbirlar majmuidan iborat. Ishchi kuchining tashqi migratsiya siyosati ishchi kuchi eksporti siyosati va ishchi kuchi importi siyosatlariga bo‘linadi.

Ishchi kuchi eksporti siyosati deganda bir mamlakat hududidan ikkinchi bir mamlakatga ishchi kuchining ko‘chishi uchun qulay sharoit yaratish yoki taqiqlash borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig‘indisi tushuniladi. Ishchi kuchini eksport qilish natijasida mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish va mamlakatda qo‘shimcha valyuta daromadlarini paydo qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Ishchi kuchi import siyosati deganda mamlakatga xorijdan ishchi kuchining kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratish yoki to‘siqlar qo‘yish borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig‘indisi tushuniladi.

Bojxona siyosati – davlat tashqi savdo faoliyatining bir qismi bo‘lib, tovarlarni eksport va import qilishning shart-sharoitlari, hajmi va tarkibini tartibga solib turadi. Bojxona siyosatining mohiyati bojxona – tarif qonunchiligida, bojxona ittifoqlari va konvensiyalari, erkin zonalar, tarif blokadalari va boshqalarni tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Tovarlarni olib kirish yoki olib chiqishning davlat tomonidan rag‘batlantirilishi yoki chegaralanishiga bog‘liq holda

iqtisodiy va *bojxona siyosatining quyidagi to‘rt asosiy turini ajratish mumkin:*

1. Qisman cheklash siyosati. Bu siyosat ichki bozorga ba’zi tovarlarni, masalan, mamlakat milliy mafkurasiga hamda aholi turmush tarziga teskari ta’sir qiladigan kino-video mahsulotlari va turli nashrlarni kiritmaslik maqsadida qo‘llaniladi.

2. *Proteksionizm siyosati*. Bu ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoyalashdir.

3. *Erkin savdo siyosati – “fritrederlik”.* Bu tashqi savdodagi cheklashlarni eng minimumiga tushirishdir. Odatda u o‘z tovarlarining raqobatbardoshligi yuqori bo‘lgan va bozorlarda yetakchi mavqega ega mamlakatlar tomonidan qo‘llaniladi.

4. *Taqchil bozorni to‘yintirish – “teskari proteksionizm” siyosati.* Bu faqat milliy bozorda chuqur taqchillik sharoiti yuz berganda va unda hammaga o‘rin topiladigan sharoitdagina samarali hisoblanadi.

Bojxona siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

1) tashqi savdoning rivojlanishiga ko‘mak berish;

2) davlatning iqtisodiy o‘sishini tezlashtirish;

3) xalqaro mehnat taqsimotida qatnashishdan foyda olish;

4) mamlakat savdo va to‘lov balansining ijobiy saldosini ta’minlash;

5) davlat budjeti daromadlarini o‘stirish;

6) xorijiy davlatlar va ular ittifoqlarining diskriminatsion aksiyalariga qarshi harakat olib borish;

7) davlatning savdo-siyosiy pozitsiyasini mustahkamlash;

8) korxonalar, tashkilotlar va tadbirkorlarning tashqi bozorga chiqishini ta’minlash;

9) milliy iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishiga ko‘mak berish;

10) mamlakat xalq xo‘jaligining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish;

11) bozor faoliyatiga shart-sharoit yaratish.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona siyosatining asosiy tamoyillari Jahon savdo tashkiloti (JST) hujjatlarida qayd etilgan bojxona siyosatining xalqaro tajribalariga hamda O‘zbekistonning tashqi va ichki siyosati tamoyillariga asoslangan bo‘lib, quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalari oldida ustunligini tan olish tamoyili. Uning mohiyati shundaki, o‘z milliy huquq

tizimini yaratayotgan milliy davlatimiz xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalari oldida ustun turishini tan oladi. O‘zbekiston Respublikasining BMT, JST va boshqa xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lishi Respublikaning bojxona ishi sohasidagi umumjahon muammolarni hal etishda faol ishtirok etishiga keng imkoniyatlar ochib berdi va Respublika zimmasiga bir qator majburiyatlarni ham yukladi.

2. O‘zbekistonda amalga oshiriladigan bojxona siyosatining yagonaligi tamoyili. Bu O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida yagona bojxona siyosatining olib borilishini anglatadi.

3. Ikki va ko‘p tomonlama aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish tamoyili. Bu tamoyil O‘zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlik olib borishga faol intilishi orqali amalga oshiriladi.

4. Milliy davlat manfaatlari ustunligini hisobga olgan holda o‘zaro savdo kelishuvlarida yon berishlik tamoyili. Bojxona siyosati hamkor mamlakatlarning joriy manfaatlarini hisobga olsa hamda o‘zaro munosabatlarda ma’lum bir kelishuvlarni qabul qilsa, uning samaradorligi yanada oshadi. Ammo bunda davlatning milliy xavfsizligi xavf ostiga qo‘yilishi mumkin emas.

5. *O`zaro kamsitmaslik tamoyili.* Davlat o‘z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida bojxona siyosati dastaklari orqali u yoki bu milliy bozorda chegaralash chora-tadbirlarini qo‘llaydi. Ularni qo‘llash diskriminatsion (kamsitish) ko‘rinishda bo‘lmasligi, ya’ni bazi mamlakatlarga nisbatan emas, balki barcha qatnashuvchi mamlakatlarga nisbatan birdek qo‘llanishi lozim.

6. *Bir tomonlama harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik.* Milliy bozorni himoya qilish bo‘yicha qarorlar ko‘p tomonlama maslahatlashuvlardan so‘ng qabul qilinishi kerak.

7. *Demokratizm tamoyili.* Demokratizm tamoyili bojxona siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga qo‘llashda xo‘jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolarning bojxona ishi sohasidagi huquqlarining himoyalanishini talab qiladi.

11.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita va bevosita usullari

Hozirgi paytda dunyo mamlakatlarida tashqi iqtisodiy siyosatni yuritishda yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda tashqi iqtisodiy

faoliyatni tartibga solish tizimidan samarali foydalanilmoqda va uning tarkibiga kirgan tashkilot va muassasalar faoliyati takomillashtirilmoqda. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimining asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- Respublika milliy manfaatlariga javob beruvchi va uning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini ta’minlovchi tashqi iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va amalga joriy etish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning qonuniy asoslarini takomillashtirish va yanada erkinlashtirish;
- mulkchilik ko‘rinishining turli shakllaridan qat’i nazar, tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari uchun eng yuqori samaradorlikni ta’minlash, ularning faoliyati va manfaatlarini himoya qilish;
- milliy iqtisodiyotning tarkibiy bo‘g‘inlarini modernizatsiyalashda tashqi iqtisodiy omillardan oqilona foydalanish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tartibga solishda va erkinlashtirishda umume’tirof etilgan quyidagi usullaridan foydalaniladi: tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita usullari va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bevosita (iqtisodiy, ma’muriy, me’yoriy-huquqiy) usullari.


Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullari bo‘lib tashqi iqtisodiy aloqalarda qatnashuvchilarning iqtisodiy manfaatlari, ularning daromadini taqsimlashga, bitim shartlarini bajarishga ta’sir etuvchi, bojxona tariflari va bojlari, turli soliqlar, valyutadan tushgan puldan ajratmalar me’yori, xalqaro operatsiyalarni kreditlash va sug‘urtalashning foiz stavkalari kabilar hisoblanib, u subyektlarni u yoki bu harakatni tanlash imkonini beradi.

Bevosita usullar ichida bojxona bojlari va tariflari juda muhim hisoblanadi. **Boj**, *boj puli* - (arab. o‘lpon, soliq) - bojxona nazorati ostida davlat tomonidan mamlakat chegarasidan olib o‘tiladigan import tovarlar, mol-mulk va qimmatbaho buyumlardan undiriladigan pul yig‘imlari. U bilvosita soliq bo‘lib, uning tovar chiqarish, tovar kiritish va mamlakat hududi orqali tashib o‘tkazish uchun

(tranzit) undiriladigan turlari mavjud. Markaziy Osiyoda boj olish o‘rta asrlardan boshlab davom etib kelgan. Boj oluvchi mansabdor tusqovul deb atalgan. Hozirgi davrda boj muayyan tovarlar ro‘yxati, tovar miqdori, massasi, birligi, shuningdek, tovar bahosi (*advalor boj*) bo‘yicha belgilangan bojxona tariflari doirasida undiriladi.

Boj tarifi – davlat chegarasi orqali o‘tadigan tovarlardan undiriladigan bojlar stavkalari majmui (to‘plami). Boj olinadigan tovarlar nomi va tasnifi, boj stavkasi, ularni hisoblash va to‘lash usullari, boj olinmay o‘tkaziladigan tovar (buyum)lar ro‘yxati, shuningdek, olib kelish, olib ketish, olib o‘tish (tranzit) taqiqlangan mahsulotlar ro‘yxati ko‘rsatiladi. Boj tarifida tovarlar qayta ishlanish darajasi (tayyor mahsulot, yarim tayyor mahsulot, xomashyo) va tarmoq turiga (sanoat, qishloq xo‘jaligi, mineral-xomashyo) ko‘ra guruhlanadi. Bojxona tarifi tovar klassifikatorlari asosida tashkil topadi. Tovarlarni guruhlarga, guruhlar ichida kichik guruhlarga (ma’lum bir xil belgilari bo‘yicha) belgilanishi tovar klassifikatsiyasi deyiladi. Hozirgi vaqtda xalqaro savdo aloqalarida eng ko‘p qo‘llaniladigan tovar klassifikatorlarida ular keng ko‘lamda sistemalashtirilgan va kodlashtirilgandir. Ular yordamida tashqi iqtisodiy aloqalarning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan tashqi savdo tartibga solinadi. Tariflarni o‘zgartirish orqali davlat eksport va importni rag‘batlantirishi yoki qisqartirishi orqali milliy ishlab chiqarish va iste’mol munosabatlariga ta’sir etishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda bojxona bojlarining turli xillari qo‘llanadi va ularni hisoblash yo‘llari, ifodalanishi hamda harakat sohasiga ko‘ra quyidagi chizmadagicha guruhlash mumkin. Chizmadan ko‘rinib turibdiki, amaliyotda qo‘llaniladigan bojxona bojlari turlicha. Undirish usuliga ko‘ra guruhlanishini ko‘radigan bo‘lsak, mahsulotni bojxona qiymatiga nisbatan foizda belgilanadigan advalor bojlar jahonda ko‘proq tarqalgan. Shu sababdan ham bojning bu turi qo‘llaniladigan mamlakatlarda mahsulotning boj qiymatini, ya’ni advalor bojlarini hisoblashiga asos bo‘lgan mahsulotning bojxona qiymatini (narxini) aniqlash usullariga katta e’tibor beriladi.



Boj qiymati, import va eksport qiluvchi, tashuvchi yoki ularning ishonchli vakillari tomonidan mahsulotlar bayonnomasida koʻrsatiladi va shunga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Ammo baʼzi hollarda bojxona mahsulotning eʼlon qilingan narxini tan olmaslikka va uni oʻzi mustaqil aniqlashlari mumkin. Amaldagi qoʻllanilayotgan usulga qarab mahsulot narxi 20-25 foiz, hatto 2 martagacha koʻpaytirilishi mumkin. Tashqi savdoni tartibga solishda oʻziga xos (spetsifik) usuliga koʻra mahsulotning har bir oʻlchov birligidan (dona, kilogramm, metr, metr kub va b.) undiriladi. Bundan tashqari yuqoridagi ikki usul uygʻunlashgan aralash bojlar ham qoʻllaniladi.

Bojxona bojlarining ikkinchi guruhi, avvalo, **import bojlari va eksport bojlari hamda tranzit bojlariga** ajraladi.

Import bojlar ichki bozorlarga chet el tovarlari oqimini tartibga solish va davlat budjetini toʻldirish maqsadida belgilanadi. Import bojlari eng kam va eng koʻp miqdordagi bojlarga boʻlinadi. **Eng kam miqdordagi** import bojlar oʻzaro qulay sharoitlar tartibini yaratib berishni koʻzda tutuvchi savdo shartnomalari va bitimlari boʻlgan mamlakatlar mahsulotlariga oʻrnatiladi. **Eng koʻp miqdordagi import bojlari** esa bunday shartnoma va bitimlar tuzilmagan mamlakatlar mahsulotiga nisbatan oʻrnatiladi. Undan tashqari koʻplab

mamlakatlarda imtiyozli bojlar ham qo‘llaniladi va bu bojlar, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilinayotgan mahsulotlarga nisbatan o‘rnatiladi.

Eksport bojlar mamlakatda ushbu mahsulotga talab ko‘p bo‘lgan holda uning taqchilligini oldini olish maqsadida belgilanadi.

Tranzit bojlari mamlakat hududidan tovarlar olib o‘tilayotganida bojxona hududida tovarlardan undiriladigan bojlar hisoblanadi.

Boj olinadigan mahsulotlar, boj olinmaydigan mahsulotlar, olib kelish va olib ketish taqiqlangan mahsulotlar, shuningdek, bojxona bojlari stavkasi, ya’ni ularning tartibga solingan ro‘yxati bojxona tariflari deb ataladi. Bojxona tariflari, asosan, milliy darajada qo‘llaniladi va bunda qator vazifalarni bajaradi.

1) fiskal – davlat budjeti daromadlarini to‘ldirish manbai bo‘lib xizmat qiladi;

2) proteksionistik – milliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatidan himoya qiladi;

3) tartiblovchi, ya’ni ichki mahsulotlar bozorlari tarkibini muvofiqlashtirish maqsadida mahsulotning chetga chiqishini cheklaydi va mamlakat iqtisodiyotidagi yetakchi tarmoq mahsulotlari eksportini rag‘batlantiradi.

Ko‘pgina davlatlar proteksionizm siyosatini iqtisodiyotni tiklanishi sharoitida o‘z ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida qo‘llaydilar. Aks holda, mahalliy korxonalar “sinishi”, jamiyatda ishsizlik xavfi tug‘iladi. Bojxona tariflari va bojlaridan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning iqtisodiy, egiluvchan usullari sifatida turli soliqlar keng qo‘llaniladi. Bunda faqat tashqi soliq tizimidagi emas, balki ichki soliq tizimidagi soliq turlaridan ham foydalaniladi.

Ko‘pgina mamlakatlarda import tushumlariga soliqlar keng qo‘llanilsa, eksport mahsulotini sotishdan tushumlarga soliqlar esa imtiyozlarga egadir. Bu eksportni rag‘batlantirishga, ichki va tashqi bozorlardagi narxlar farqi ko‘p bo‘lganda o‘z mahsulotlari kabi import mahsulotlarga ham mamlakat ichida sotish uchun bir xil sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usullari-

dan kengroq foydalaniladi. Bevosita usullar oʻzining mazmuniga koʻra iqtisodiy, maʼmuriy, meʼyoriy-huquqiy koʻrinishga ega boʻlishi mumkin. **Bevosita usullarga** litsenziyalash va kvotalash iqtisodiy tavsifdagi bevosita usullar ichida keng tarqalgani hisoblanadi.

Litsenziyalash – bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning maʼlum tartibidir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga mahsulotlar, ishlar va xizmatlar eksporti hamda importi, moliya operatsiyalari oʻtkazish, xorijda ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi. Oʻzbekistonda litsenziyalar faqat davlat roʻyxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi, boshqa yuridik shaxslarga berish taqiqlangan. Litsenziyalash maʼlum vaqt davomida umumdavlat maqsadlariga moʻljallangan mahsulotlar, xizmatlar bilan bitimlar boʻyicha eksportni (importni) chegaralash va nosogʻlom raqobatni ogohlantirish chorasi sifatida qoʻllaniladi.

Litsenziyalar Bosh litsenziyalar va bir martalik litsenziyalarga boʻlinadi. **Bosh litsenziyalar** Markaziy hukumat tomonidan beriladi va oʻzida maʼlum mamlakatlarga strategik boʻlmagan, litsenziya hujjatlarini haqiqatda rasmiylashtirishni talab qilmaydigan mahsulotlar eksportiga rasman ruxsat berishni aks ettiradi. **Bir martalik litsenziyalar** litsenziya berish huquqiga ega boʻlgan davlat idoralari tomonidan eksport yoki import boʻyicha har bir alohida bitimga ruxsat koʻrinishida beriladi. Moliya operatsiyalarini litsenziyalash davlatga mamlakat ichida valyuta oqimi harakatini tartibga solish imkonini beradi.

Milliy davlat va shunga oʻxshash tuzilmalarga beriladigan ishga joylashtirish litsenziyalari, ularga xorijiy sheriklar bilan kelishgan holda xorijga oʻz ishchi kuchini yetkazib berish huquqini beradi.

11.3. Eksport va importni kvotalashning tashqi savdoni chegaralash vositasi sifatida qoʻllanilishi

Jahon amaliyotida mahsulotlar, shuningdek, ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maqsadida kvotalash keng qoʻllaniladi. Unda vakolatli davlat yoki xalqaro tashkilot alohida mahsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruhi boʻyicha maʼlum

davrga eksport yoki importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarni (kvotalarini) belgilaydi. Davlat tomonidan tartibga solish tadbiri sifatida kvotalash to‘lov balanslarini, ichki bozorda talab va taklifni balanslashtirish uchun, muzokaralarda o‘zaro kelishuvga erishish uchun qo‘llaniladi. O‘zbekistonda kvotalash xalq iste’mol mollarini va strategik xomashyoning muhim turlarini olib chiqishni chegaralash usuli sifatida qo‘llanilmoqda.

Ishchi kuchini tashqi migratsiyasini tartibga solishda ham kvotalash usuli qo‘llaniladi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar ichki mehnat bozorini himoyalash maqsadida xorijdan ishchi kuchi importiga kvotalar o‘rnatiladi.

Litsenziyalash va kvotalashdan tashqari tashqi iqtisodiy faoliyatni turli ko‘rinishlarini tartibga solish maqsadida iqtisodiy tavsifdagi boshqa bevosita usullar ham qo‘llaniladi. Ularga bojxona bojlarining ba’zi turlari, eksportni ixtiyoriy chegaralash, pasaytirilgan eksport bahosi va eng kam import bahosi, eksport subsidiyalari, korxona nizom fondida kapital hissasini aniqlash, belgilangan valyuta kursi va boshqalar kiradi.

Jahon amaliyotida qo‘llaniladigan maxsus, dempingga qarshi va kompensatsion bojxona bojlari.

Tashqi savdoni tartibga solishning bevosita tarifli bo‘lmagan usullari guruhiga bojxona bojlarining maxsus, dempingga qarshi, kompensatsion va boshqa turlari kiradi. Ba’zi hollarda mamlakatlar tomonidan **maxsus bojxona bojlari** qo‘llaniladi. Masalan, mahsulotlar olib kelish hajmi va sharti mahalliy ishlab chiqaruvchilarga zarar keltirsa yoki mamlakat manfaatlariga zid bo‘lganda qo‘llaniladi. Maxsus bojxona bojlarining miqdori har bir aniq holat uchun alohida o‘rnatiladi.

Dempingga qarshi qaratilgan bojlar jahon amaliyotida keng qo‘llanilib, o‘zida qo‘shimcha import bojlarini aks ettiradi. Ular odatda jahon narxlaridan yoki import qilayotgan mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo‘yicha eksport qilinayotgan mahsulotlarga o‘rnatiladi. Bu bojlarni belgilash haqidagi qarorni Xalqaro sud mahalliy ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar murojaatidan so‘ng chiqaradi hamda uning miqdorini va to‘lash tartibini belgilaydi.

Kompensatsion bojlar olib kelinayotgan mahsulotlar kabi, olib chiqilayotgan mahsulotlarga ham belgilanadi. Ular ishlab chiqarish yoki eksport qilishda subsidiyalar (davlatning moliyaviy yordami) ajratilgan va bu olib kelish yoki olib chiqish milliy ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga zarar yetkazishi mumkin bo'lganda qo'llaniladi. Bunday holda davlat mamlakatga yetkazilgan zararni yoki davlatning moliyaviy xarajatlarini qoplashi lozim bo'lgan bojlarni o'rnatadi. Kompensatsion bojlar miqdori aniqlangan subsidiyalar miqdoridan oshmasligi lozim.

Savdo cheklashlarining zamonaviy turlari.

So'nggi o'n yilliklarda eksportni "ixtiyoriy" chegaralash va eng kam import baholarini belgilash haqida bitimlar tuzish amaliyotda keng tarqala boshladi. Savdo cheklashlarining bu yangi turlarining xususiyati ularni o'rnatishning noan'anaviy usulidan iborat. Ya'ni import qiluvchi mamlakatni himoya qiluvchi savdo to'siqlari import qiluvchi mamlakat chegarasida emas, balki eksport qiluvchi mamlakat chegarasida kiritilganda eksportni "ixtiyoriy" chegaralash qo'llaniladi. Xuddi shunga o'xshash eng kam import bahosini o'rnatish ham amalga oshiriladi. Bunday baholarni o'rnatgan import qiluvchi mamlakatlar bilan kontraktlar tuzishda bunga eksport qiluvchi firmalar tomonidan qat'iy amal qilinmog'i lozim. Eksport bahosi eng kam darajadan pasaytirilgan holda import qiluvchi mamlakat dempingga qarshi boj kiritadi va uni qo'llash bozordan chiqishga olib kelishi mumkin.

Bevosita tartibga solishning ko'pgina tadbirlari bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan holda qo'llaniladi. Eksportni davlat tomonidan rag'batlantirish tadbiri sifatida ko'pgina mamlakatlarda eksport subsidiyalari qo'llaniladi, ya'ni tajriba-konstruktorlik ishlari va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni bevosita moliyalashtirish yoki bu maqsadlarga davlat budjetidan imtiyozli kreditlar berilishi ko'zda tutiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning ma'muriy usullari.

Ma'muriy va me'yoriy-huquqiy tartibga solish usullari ham u yoki bu tashqi iqtisodiy faoliyatni chegaralashga, yo rag'batlantirishga qaratilgan. Bu bitimlarni tuzish va amalga oshirish

tartibi, texnik standartlar, mahsulotlardan foydalanish xususiyatlari, ishchi kuchi sifati, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish muddati, darajasi va boshqalarga qo‘yiladigan talab va me’yorlar bilan bog‘liq turli xil ma’muriy tadbirlardir.

Ma’muriy tavsifdagi davlat tomonidan tartibga solishning o‘ziga xos choralari sifatida tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro‘yxatga olish, mahsulotlar bayonnomasi yoki bojxona bayonnomasini taqdim etish hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro‘yxatga olish – bu tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini hisobga olish va rasmiylashtirishning ma’lum tartibidir.

Ro‘yxatga olish o‘rnatilgan shaklda to‘ldirilgan ro‘yxatga olish varaqasini taqdim etish, ro‘yxatga olinganlik raqamini berish, tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini rasmiy ravishda chop etiladigan Davlat ro‘yxatlari to‘plamiga kiritish va ro‘yxatga olinganlik haqidagi guvohnomani berishni o‘z ichiga oladi. Ro‘yxatga olinganlik haqidagi ma’lumot tezda tarmoq tashkilotlari va davlat hamda mahalliy hokimiyat tashkilotlariga yetkazilishi lozim.

Mahsulot bayonnomasi – bu tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchisining mahsulotni davlat chegarasini kesib o‘tayotgani haqida ushbu mamlakatda o‘rnatilgan qoidalarga muvofiq bergan rasmiy arizasidir. U ikki ko‘rinishda, ya’ni bojxona bayonnomasi bo‘yicha va tovar-transport hujjatlari bo‘yicha (yetarli malaka va tajribaga ega bo‘lgan tashqi iqtisodiy birlashmalar uchun) amalga oshiriladi. Ba’zi fuqarolar mamlakatga kirishda va chiqishda tashilayotgan buyumlar, mulk, shu jumladan, valyuta haqida bayonnomani bir xil andozadagi varaqalarga to‘ldirishlari lozim.

11.1-jadval

Tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish usullarining umumiy tasnifi

Tashqi iqtisodiy munosabatlarning ko'rinishlari	**Bilvosita (ta'rif) usullar**	**Bevosita (notarif) usullar**		
		Iqtisodiy	Ma'muriy	Me'yoriy-huquqiy
Tashqi savdo	Bojxona bojlari (eksport, import bojlari); Bojxona tariflari; Eksport va import soliqlari; Valyuta tushumidan ajratmalar me'yorlari; Markaziy bankka sotilishi majburiy bo'lgan valyuta tushumlarinng hissasi.	Litsenziyalash, kvotalash; Bojxona bojlari (mavsumiy, maxsus, dempingga qarshi, kompensatsion); Eksportni ixtiyoriy chegaralash; Pasaytirilgan eksport bahosi; Eng kam import baholari; Eksport subsidiyalari; Jarimalar.	Mahsulotlar bayonnomasi; Tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro'yxatga olish; Boshqa bojxona rasmiyatchiliklari.	Mahsulot sifati, tovarlarni o'rash va markirovkalashga bildirilgan talablar, me'yor va texnik standartlar.
Kapital migratsiyasi	Kreditning foiz stavkasi; Sug'urta mukofotlarining miqdori; "Suzib yuruvchi" tartibga solinadigan valyuta kursi; Chet el valyutasini sotuvchi va xaridordan olinadigan majburiy to'lov miqdori.	Moliya operatsiyalari uchun litsenziyalar; Korxona ustav fondida xorijiy kapital ulushining mumkin bo'lgan chegarasi; Xorijiy valyuta olib kelish va xorijga valyuta olib chiqish miqdorini belgilash.	Sarmoyalash, kredit berish va sug'urta shartlari; Chet ellik sarmoyachilar uchun iqtisod tarmoqlarini aniqlash; Qo'shma va chet ellik korxonalarini boshqarishda milliy xodimlarning ishtirok etish shartlari.	Valyuta operatsiyalarini oshirish jarayoniga qo'yiladigan talab va standartlar.
Ishchi kuchi migratsiyasi	Ishchi kuchi bozori (eng kam ish haqi miqdori); Ijtimoiy sug'urtalash shartlari; Chetga chiqish va chetdan kelish hujjatlarini rasmiylashtirish uchun to'lanadigan bojlar va to'lovlar.	Mamlakatga kelayotgan shaxslar uchun kvotalar; Ishga joylashish uchun ruxsat berish.	Ishchi kuchini chetdan kelishi va chetga chiqishini rasmiylashtirish tartibi va shartlari.	Ishchi kuchini ta'limi, malakasi, jinsi va yoshiga qarab qo'llaniladigan talab va standartlar.

Kapitalni olib kelish va olib chiqishni tartibga solish va valyuta bilan chegaralash chora-tadbirlari oʻzaro chambarchas bogʻliq. Bu tadbirlarga foydani xorijga oʻtkazish sharti, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay iqtisodiyot tarmoqlarini aniqlash, milliy xodimlarning korxonani boshqarishda qatnashish sharti va boshqalar kiradi. Har bir mamlakat ichki va jahon bozorida vujudga kelgan vaziyatni hisobga olib, tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'sir etishning u yoki bu vositasini umummilliy vazifalarni hal etishga yoʻnaltirgan holda faol qoʻllaydi. Ushbu vositalarni quyidagicha tasniflash mumkin (11.1-jadval).

Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari haqida fikr bildirilganda, asosan, muayyan mamlakatning tovar eksport-import operatsiyalari, kapitallar, kreditlar, investitsiyalar harakati, ishchi kuchi migratsiyasi va ular bilan bogʻliq boʻlgan munosabatlar nazarda tutiladi. Mustaqillikning dastlabki bosqichida eksportning asosiy qismini xomashyo tashkil etgan boʻlsa, bugungi iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida tayyor mahsulotlarni eksport qilish jadallik bilan koʻpayib bormoqda.

Oʻzbekistonda davlatning tashqi iqtisodiy sohadagi siyosatini shakllantirishda rejali iqtisodiyotdan meros boʻlib qolgan iqtisodiy aloqalarning xususiyatlari ham hisobga olingan. Unga koʻra, an'anaviy tovarlar savdosi bilan cheklanib qolish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning xizmatlar va axborotlar, moliya kapitali va ishchi kuchi bilan ayirboshlash kabi turlarini deyarli rivojlanmaganligini, importning eksportdan ustunligini, eksport va import strukturasining samarasizligi: chetga, asosan, xomashyo chiqarilib, chetdan iste'mol tovarlari keltirilganligi kabi salbiy jihatlarini sanash mumkin. Bunday holat respublika iqtisodiyotidagi nomutanosiblikni yanada chuqurlashtirdi. Shuning uchun ham Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatiga qoʻshilishi respublikaning mavjud imkoniyatlarini obyektiv baholashni va ulardan milliy manfaatlar yoʻlida imkoni boricha toʻliq foydalanishni talab qiladi.

Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini erkinlashtirish borasida izchil islohotlar olib borildi. Unga koʻra, islohotlarning tadrijiy rivojlanish bosqichida dastlab tashqi savdoni tartibga solishning institut-

sional va huquqiy bazasi yaratilib, tashqi savdoni tartibga solishda bilvosita ma'muriy usullardan keng foydalanilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotga mos keladigan bevosita iqtisodiy usullari joriy etilib, eksportga yo'naltirilgan tashqi savdo siyosati olib borildi. Tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi natijasida milliy valyutani joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyalashuviga erishildi (11.2-jadval).

Respublikamizda ham eksport salohiyatini oshirish maqsadida milliy ishlab chiqaruvchilarga o'zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni eksport qilganida bir qator soliq imtiyozlari ko'zda tutilgan. Jumladan:

11.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichlari

Birinchi bosqich - 1991-1994-yy.	Import o'rnini qoplash siyosatining yuritilishi. Tashqi savdoni tartibga solishning institutsional va huquqiy bazasi yaratildi. Tashqi savdo siyosatida notarif usullari yetakchilik qildi.
Ikkinchi bosqich - 1995-1997-yy.	Tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotga mos keladigan dastaklari joriy qilindi. Bu davr miqdoriy cheklovlarining qisqarishi hamda keng miqyosda eksport va import bojlarini faol qo'llash davri hisoblanadi.
Uchinchi bosqich - 1997-1999-yy.	Bu davr tashqi savdoni erkinlashtirishni chuqurlashtirish, tarif va notarif usullarini soddalashtirish, mamlakat eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan savdo siyosatining yuritilishi, eksport bojlarining bekor qilinishi, eksportga yo'naltirilgan siyosatning olib brilishi bilan izohlanadi.
To'rtinchi bosqich - 2000-2003-yy.	Tashqi savdoni va valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan yangi davr hisoblanadi. 2002-yilning 1-iyulidan boshlab import tarifining uch pog'anali stavkalari (0; 10; 30) joriy etildi.
Beshinchi bosqich - 2003-2016-yy.	O'zbekiston tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichi. Tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirish natijasida milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyalashuviga erishildi. Bu, o'z navbatida, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantirish bo'ldi.
Oltinchi bosqich- 2017-yildan boshlandi.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirishning yangi bosqichi. Valyuta bozori va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, xususan, qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish. Eksportni yanada rag'batlantirish maqsadida texnik jihatdan tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha: tovarlarni erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi eksportiga nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadi, ya’ni eksport faoliyati to‘liqligicha qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilgan.

Aksiz solig‘i bo‘yicha: tovarlarni erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi eksportiga aksiz solig‘i solinmaydi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ayrim tovarlardan tashqari).

Daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha: eksportchi korxonalar uchun realizatsiyaning umumiy hajmida o‘zi ishlab chiqargan tovarlar eksportining erkin konvertatsiyalanadigan valyutaga eksport qilish ulushiga bog‘liq holda daromadga soliq solishning regressiv shkalasi amal qiladi.

Eksport ulushi: realizatsiyaning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizga qadar bo‘lganida – belgilangan stavka 30 foizga kamayadi;

- realizatsiyaning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko‘p bo‘lganida – belgilangan stavka 2 baravarga kamayadi.

Mol-mulk solig‘i bo‘yicha: realizatsiyaning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizga qadar bo‘lganida – belgilangan stavka 30 foizga kamayadi;

- realizatsiyaning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko‘p bo‘lganida - belgilangan stavka 2 baravarga kamayadi.

Shuningdek, mamlakat milliy xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan tovarlar bilan ichki bozor ehtiyojlarini to‘liqroq darajada ta’minlash maqsadida ko‘pgina import tovarlarini olib kirish bo‘yicha ham qator yengilliklar yaratilgan. Bu boradagi yengilliklarning xususiyatli jihati sifatida, ta’kidlash lozimki, mamlakat investitsiya faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan xorijdan keltirilayotgan yangi texnika va texnologiyalar va iste’mol uchun birlamchi darajada zarur bo‘lgan un, yog‘och va yog‘och materiallari kabi tovarlarga ko‘proq ustuvorlik berilgan.

Bob bo‘yicha xulosalar

Tashqi iqtisodiy siyosat keng ma’noda davlatning jahon iqtisodiyotining boshqa subyektlari (davlatlar, biznes, xalqaro tashkilotlar) bilan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish va tartibga solishga

qaratilgan faoliyati hisoblansa; tor ma'noda-tovarlar va xizmatlar eksporti, xorijiy investitsiyalar, kapitalni jalb qilish va chetga chiqarish sohasidagi davlat siyosati, xorijiy kreditlar, xalqaro iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish, boshqa davlatlarga iqtisodiy yordam koʻrsatish kabilarni koʻzda tutadi. Nazariy jihatdan, davlat makroiqtisodiy siyosatining ushbu yoʻnalishining asosiy maqsadi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat ekanligi e'tirof etiladi. Amalda tashqi iqtisodiy siyosatning obyektiv funksiyasi (dasturiy hujjatlar va qonun hujjatlarida) odatda turlicha talqin qilinadi va har doim ham milliy farovonlikni yuqori darajada aks ettirmaydi. Bundan tashqari, ushbu maqsad koʻpincha tashqi iqtisodiy siyosatning nominal koʻrinishida – dunyo mamlakatlari hukumatlari tomonidan belgilangan maqsadli koʻrsatkchilar orasida keyingi oʻrinlarga tushib qoladi. Nazariyada ham, amaliyotda ham tashqi iqtisodiy siyosatni tahlil qilishda asosiy taniqli belgilar odatda soha va yoʻnalishlar hisoblanadi. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirish sohalarining eng keng tarqalgan tasnifi ularning savdo (tovarlar va xizmatlar eksporti va importi) va moliyaviy (xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, kapitalning chet elga eksport qilinishini nazorat qilish, tashqi kreditlar berish) ga boʻlinishi hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish va tashqi iqtisodiy yordam koʻrsatish yoʻnalishlari ham alohida yoʻnalish sifatida koʻrib chiqilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tashqi savdo siyosatidan tashqari, tashqi iqtisodiy siyosat makroiqtisodiy siyosatning uchta: pul-kredit, valyuta va fiskal sohalarida namoyon boʻladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat har bir yoʻnalishining mazmuni foydalaniluvchi obyekt va vositalarning natijasi hisoblanadi:

- tashqi savdo siyosati – davlatning tovarlar va xizmatlarni eksport va import qilish sohasidagi harakatlarini qamrab oladi va bojxona toʻlovlari va tariflari, tarifsiz kabi vositalar, cheklovlar (eksport va import kvotalari), shuningdek, davlatning tashqi savdo sohasidagi moliyaviy operatsiyalari (eksport krediti, eksport kreditlarini kafolatlash va boshqalar)ni nazarda tutadi;
- pul-kredit siyosati – bu davlatning pul muomalasi va bank tizimini kreditlash sohasida narxlarning oʻsishini cheklash va toʻlov

balansini muvozanatlashga qaratilgan va ochiq bozorda operatsiyalar (moliya bozorlarida davlat qimmatli qog‘ozlarini sotish/sotib olish), minimal zaxira normasi, hisob stavkasi va boshqa instrumentlardan foydalanishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlari majmuidir;

- valyuta siyosati – bu davlat tomonidan valyuta munosabatlari (shu jumladan, xalqaro munosabatlar) sohasida amalga oshiriluvchi va uning obyekti sifatida milliy valyutaning xorijiy pul birliklariga nisbatan kursini nazarda tutuvchi valyuta kursi rejimi, valyuta cheklovlari, valyuta nazorati, valyuta subsidiyalari, valyuta zahiralari, xorijiy valyuta intervensiyasi kabi vositalardan foydalanishni nazarda tutadigan chora-tadbirlar majmuidir;

- fiskal siyosat – davlatning soliqqa tortish va davlat budjeti sohasidagi faoliyati, bu boshqa chora-tadbirlar qatori mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishni nazarda tutadi (masalan, imtiyozli kreditlash va/yoki soliq imtiyozlari orqali). Amalda tashqi iqtisodiy siyosat tilga olib o‘tilgan siyosat vositalaridan ayricha mavjud bo‘la olmaydi.

Shu bilan bir qatorda, davlat tashqi iqtisodiy sohada qanday vositadan foydalanmasin, bu yerda tashqi iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirishning faqat ikkita strategiyasi yoki shaklidan foydalanish mumkin: proteksionizm (masalan, import qilinadigan tovarlarga soliqlarni joriy etish va mahalliy tovarlarga ular stavkasini pasaytirish va boshqalar) yoki erkin iqtisodiy munosabatlar (savdo munosabatlari, moliyaviy bozorlar, mehnat bozorlarida to‘siqlarni kamaytirish yoki bartaraf etish). Proteksionizmning afzalliklari an’anaviy ravishda mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va savdo balansini moslashtirishni ko‘zda tutsa, erkin savdo raqobatning o‘sishi va ichki bozorda mahsulot turlarini kengaytirishni o‘z ichiga oladi.

Proteksionizmning kamchiliklari odatda milliy iqtisodiyotning samaradorligi va raqobatbardoshligining pasayishi sifatida tan olinadi; mamlakatlarning raqobatdosh ustunliklariga asoslangan munosabatlar – tashqi iqtisodiy o‘zgarishlarga nisbatan zaif sanaladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatlar ko‘pincha moslashuvchan tashqi iqtisodiy siyosat olib borishga intilishadi. Bu o‘z navbatida ikkala strategiya-

ning kombinatsiyasini nazarda tutadi: proteksionizm va tashqi maydonda iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirish. Balans va ulardan foydalanish darajasi jahon iqtisodiyotining turli tarmoqlari va jahon bozorlaridagi mavjud vaziyatdan, shuningdek, tashqi iqtisodiy sohada davlatlar tomonidan qo‘llaniladigan chora-tadbirlar va shakllarni maqbullashtirishning nazariy vositalari nuqtai nazaridan belgilanadi.

Tashqi iqtisodiy siyosat nazariyalarini shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin: ichki nazariyalar va tashqi sohadagi makroiqtisodiy qarorlarning tashqi ta’siri nazariyalari. Tashqi savdo sohasida birinchisiga misollar: maqbul tarif nazariyasi (optimum welfare-maximizing tariff theory), buzilishlar nazariyasi (generalized theory of distortions), ichki divergensiyalar nazariyasi (theory of domestic divergences) va boshqalar, ikkinchisiga misol sifatida: bojxona ittifoqi nazariyasi (customs union theory), ikkinchi eng yaxshi nazariya (theory of the second best) va boshqalarni keltirish mumkin.

Takrorlash uchun savollar

1. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zaruriyatini yoriting.
2. Davlat tashqi iqtisodiy siyosati shakllarini tavsiflab bering.
3. Tashqi migratsiya siyosati mohiyatini izohlab bering.
4. Tashqi valyuta siyosati va uning yo‘nalishlarining mohiyatini yoriting.
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullarini ayting.
6. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning iqtisodiy usullarining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
7. Bojxona tarifining vazifalarini tushuntirib bering.
8. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning ma’muriy usullarining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
9. Eksport qiluvchi korxonalarni subsidiyalash va ularga belgilangan imtiyozlaraning milliy iqtisodiyotga ta’siri qanday?
10. O‘zbekistonda tashqi savdoni erkinlashtirishning bosqichlari va ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?

Davlatning aslida hech qanday puli yoʻq, faqatgina soliq toʻlovchilarning puli bor, xolos.

Uilyam Veldon

XII BOB. DAVLATNING BUDJET-SOLIQ (FISKAL) SIYOSATI

12.1. Davlat budjeti va uning iqtisodiy mazmuni
12.2. Oʻzbekistonda budjet tuzilishi va budjet tizimi
12.3. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tushunchalari va ularning tarkibi

12.1. Davlat budjeti va uning iqtisodiy mazmuni

Budjet – daromadlar va xarajatlarning hisob-kitob va chegaralovchi smetalari hamda ularning ma'lum bir muddatga tuzilgan roʻyxatini anglatuvchi umumiy terminning nomidir. Budjet tegishli qaror bilan tasdiqlanib, individual yoki jamoa subyekti tomonidan ijro qilinadi.


Davlat budjeti moliya iqtisodiy kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli davlat budjeti iqtisodiy kategoriya – davlatning oʻz vazifa va funksiyalarini bajarishi uchun zarur boʻlgan markazlashgan pul mablagʻlarining toʻplanishi, taqsimlanishi va sarflanishida yuzaga keladigan obyektiv pul munosabatlari yigʻindisi sifatida tavsiflanishi mumkin. Davlat budjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatlari uning shakli, moddiy mazmuni va mohiyati (iqtisodiy tabiati)da namoyon boʻladi. Budjet qonun chiqaruvchi hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjat shakliga ega. Oʻzbekistonda Davlat budjeti bir yilga moʻljallab qabul qilinadi. Budjetni tayyorlashdan tortib budjetni ijro etish toʻgʻrisidagi hisobotni tasdiqlashgacha boʻlgan butun jarayon *budjet jarayoni* deb ataladi.

Shakl jihatidan davlat budjeti – bu davlatning asosiy moliyaviy rejasi boʻlib, unda budjet pul munosabatlari tizimi sifatida miqdor jihatidan ifodalanadi. Binobarin, aynan budjet rejasi mamlakatning muhim moliyaviy hujjati sifatida tuziladi, koʻrib chiqiladi, tasdiqlanadi va ijro etiladi. Unda pul mablagʻlarining markazlashtirilgan

jamg‘armasini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanishga doir iqtisodiy munosabatlar aks etadi.

Moddiy mazmun jihatidan davlat budjeti – davlatning budjet rejasini ijro etish jarayonida tashkil topadigan va foydalaniladigan asosiy markazlashtirilgan pul mablag‘lari jamg‘armasidir.

Mohiyat jihatidan davlat budjeti – davlat boshqaruvining muhim vositasi bo‘lib, uning yordamida davlat takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi, inson irodasiga bo‘ysunmaydigan bozor kuchlarining salbiy ta’sirini bartaraf etadi.




12.1-rasm. O‘zbekistonda budjet jarayoni

Davlat tomonidan tartibga solish, soliqlar, budjet mablag‘lari va moliyaviy yordam, ijtimoiy kafolatlar, budjet mablag‘lari hisobiga maxsus jamg‘armalar va iqtisodiyotning rivojlanishidagi nomutanosiblikning oldini olish zahiralari tashkil etish yordamida amalga oshiriladi.

Huquqiy kategoriya sifatida davlat budjeti – bu davlatning vazifa va funksiyalarini moliyaviy ta’minlash uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etish va sarflashning qonun bilan belgilangan shaklidir.

Budjet huquqiy akt shakliga ega bo‘lib, vakolatli hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadi va shu sababdan qonuniy kuchga egadir.

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq **Davlat budjeti** – davlat pul mablag‘larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.



12.2-rasm. Davlat budjeti tushunchasi[76]

[76] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G‘.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: “Iqtisodiyot dunyosi”, 2023.”, – 564 b.

2. Har qanday iqtisodiy kategoriyaning mohiyati uning funksiyalarida namoyon boʻladi. Davlat budjeti moliya iqtisodiy kategoriyasining tarkibiy boʻlinmasi hamda budjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangani uchun ularga pul shakli xosdir va ular taqsimlash (qayta taqsimlash) va nazorat funksiyalarini bajaradi.

Taqsimlash funksiyasini soliq, zayom, davlat mulkidan tushgan daromadlar, qogʻoz pullar emissiyasidan tushgan daromadlarni oʻz ichiga oluvchi budjet daromadlari amalga oshiradi. Bunda budjet jamgʻarmasi xoʻjalik subyektlari (yuridik va jismoniy shaxslar) daromadlari hisobiga shakllanadi. Bu daromadlar sof milliy mahsulotning birlamchi taqsimoti (ishchi va xizmatchilarning ish haqi, yollanma ishchilarning daromadlari, tadbirkorlik foydasi, renta, foiz) natijasida yuzaga keladi.

Budjet daromadlari tarkibi doimo bir xil emas, u har bir mamlakatning iqtisodiy shart-sharoitlariga bogʻliqdir. Budjet daromadlari tarkibining oʻzgarishi iqtisodiy jarayonlar dinamikasi bilan bogʻliq oʻzgarishlarni aks ettiradi. Shunday qilib, soliqlar va zayomlar oʻrtasidagi nisbatning zayomlar ulushi oshib borishi tomonga oʻzgarishi ishlab chiqarishning pasayganligi, jamiyatda iste'mol va jamgʻarish oʻrtasidagi nisbat oʻzgarganligidan dalolat beradi.


Budjetning **qayta taqsimlash funksiyasi** aniq maqsadli budjet xarajatlariga tegishlidir. Davlat umumiy xoʻjalik subyekti sifatida faoliyat yuritib, takror ishlab chiqarish jarayoni barcha ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini hisobga oladi, shuning uchun ham budjet xarajatlari xoʻjalikning hamma tarmoqlari va sohalarini qamrab oladi. Milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy mutanosibliklarga rioya qilishga ehtiyoj alohida tarmoqlar, ijtimoiy soha, iqtisodiy hududlar, mulkchilikning turli shakllari, alohida xoʻjalik subyektlarini budjetdan moliyalashtirish hajmlarini boshqarishni taqozo etadi.

Budjetning **nazorat funksiyasi** budjet mablagʻlarining oʻz vaqtida va toʻliq tushishi va ularning maqsadli ishlatilishi ustidan davlat nazorati oʻrnatilishini nazarda tutadi. Shunday qilib, *taqsimlash* funksiyasi budjet jamgʻarmasi (budjet daromadlari)ning vujudga kelishini ta'minlaydi; *qayta taqsimlash* – budjet jamgʻarmasining

sarflanishiga (budjet xarajatlariga); *nazorat* – budjetga mablag‘lar tushishi va undan foydalanish ustidan nazorat olib borilishiga sharoit yaratadi.

3. Davlat budjeti takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga faol ta’sir ko‘rsatadi, milliy daromadni milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o‘rtasida, shu jumladan, moddiy ishlab chiqarish sohasidan nomoddiy sohaga (ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, jamiyatning jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga, aholining kam ta’minlangan qatlami – pensionerlar, talabalar, ishsizlar, ko‘p bolali kam ta’minlangan oilalar va boshqalarning turmush darajasini barqaror ushab turish uchun sharoitlar yaratadi) qayta taqsimlanishini ta’minlaydi; mahsulotlari va xizmatlari jamiyat uchun juda muhim va zarur bo‘lgan, lekin barqaror past daromadli tarmoqlar (energetika, transport, aloqa va boshqalar)ni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiradi.

Davlat bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet daromadini shakllantirishning asosiy manbai hisoblangan soliqlar yordamida alohida tarmoqlarning, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning va jismoniy shaxslarning iqtisodiy faolligini ular ixtiyorida qoladigan pul mablag‘lari ulushini ko‘paytirish yoki kamaytirish orqali, tiyib turish yoki rag‘batlantirish siyosatini amalga oshirish yo‘li bilan tartibga soladi va shu tariqa, iqtisodiy muvozanatni ta’minlaydi. Shu bilan birga, budjet orqali budjet tizimining darajalari o‘rtasida daromadlar qayta taqsimlanadi (subvensiyalar, transfertlar), hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarini tenglashtirish imkoniyati yaratiladi (12.3-rasm).



12.3-rasm. Davlat budjeti funksiyalari[77]

Shunday qilib, davlat budjeti **iqtisodiyotni samarali tartibga solish vositasi** bo‘lib, u davlatga zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar hajmini aks ettiradi, mamlakatda soliq siyosatini belgilaydi, mablag‘larni sarflash, milliy daromad va yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlashning aniq yo‘nalishlarini qayd etadi.

Tarixning turli davrlarida davlat budjeti milliy iqtisodiyotga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Kapitalistik taraqqiyot davrida davlat iqtisodiyotga faol aralashmas edi – davlat budjeti orqali milliy daromadning 19% qayta taqsimlanardi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, davlat budjeti makroiqtisodiy jarayonlarni boshqaruvchi kuchli vositaga aylandi – hozirgi vaqtda davlat budjeti orqali milliy daromadning 30-50%i qayta taqsimlanmoqda.

4. Davlat budjetining faoliyatini alohida iqtisodiy shakllar hisoblangan daromadlar va xarajatlar ta’minlaydi.

Budjet daromadlari – qonunchilikda belgilangan tartibga binoan davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlari ixtiyoriga beg‘araz va qaytarib bermaslik shartlari bo‘yicha kelib tushayotgan pul mablag‘laridir.

Jahon amaliyotida budjetga pul tushumlarining uch asosiy yo‘nalishi mavjud:

[77] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G‘.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: “Iqtisodiyot dunyosi”, 2023.”, – 564 b


• yuridik va jismoniy shaxslardan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan soliqlar va yig‘imlar ko‘rinishida undiriladigan majburiy to‘lovlar; foydalanish evaziga to‘lovlar va badallar undiriladigan davlat mulki va umumdavlat resurslari;

• davlat zayomlari, boshqa qimmatli qog‘ozlar, lotereyalar sotishdan tushgan daromadlar, davlat banklariga qo‘yilgan omonatlarning qismlari va boshqalar ko‘rinishida jalb qilingan resurslar.

Budjet daromadlarining hajmi soliq solishning belgilangan soliq stavkalari bilan aniqlanadigan YIMning o‘sishi va soliq yukiga bog‘liqdir. Daromadlarning asosiy vazifasi budjet xarajatlarini ta’minlashdir.

Budjet xarajatlari – bu davlat va mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruv organlarining vazifa va funksiyalarini bajarish uchun yo‘naltirilayotgan pul mablag‘lari; davlat pul mablag‘lari fondini taqsimlash va uni tarmoq, maqsadli va hududiy yo‘nalishlarda foydalanish yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Budjet xarajatlari kategoriyasi aniq xarajatlar turlari orqali namoyon bo‘ladi va ularning har biri son va sifat jihatidan tavsiflab berilishi mumkin. Sifat tavsifi budjet xarajati har bir turining iqtisodiy tabiati va ijtimoiy maqsadini belgilash imkonini bersa, son tavsifi ularning hajmini belgilaydi.



12.4-rasm. Yalpi milliy mahsulotni budjet orqali qayta taqsimlash[78]


5. Budjetning uch asosiy **holati** farqlanadi: taqchillik, profitsit va mutanosib holat. Budjet xarajatlarining daromadlardan oshib ketishi (budjetning salbiy saldosi) budjet **taqchilligini** anglatadi.

Budjet daromadlarining xarajatlardan oshib ketishi (budjetning ijobiy saldosi) budjet **profitsitini** anglatadi.

Mutanosib budjet – xarajatlar va daromadlar summasi bir-biriga teng bo'ladi. Iqtisodiy nazariyada budjet taqchilligi yoki profitsiti umumiy xarajatlar hajmidan 1 foizga oshib ketmasa, bunday budjet mutanosib deb hisoblanadi.

Budjet taqchilligi – davlat uchun nomaqbul holat. Shunday bo'lsa-da, budjet taqchilligini favqulodda, fojiali holatga yo'yish noto'g'ridir. Chunki taqchillik tabiati turlicha bo'lishi mumkin. Davlat budjeti taqchilligi YIMga nisbatan 3 foizdan oshmagan holatda (Maastrixt mezonlari) uni nazorat ostida va iqtisodiyot uchun xavfli emas deb hisoblash mumkin. Aks holda u pul, kredit tizimi va umuman iqtisodiyotning faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

[78] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G'.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2023.", – 564 b.



12.5-rasm. Budjet tizimining holati[79]

Budjet taqchilligining quyidagi **shakllari** farqlanadi:

- **tarkibiy budjet taqchilligi** – hukumatning iqtisodiy rivojlanishni amalga oshirish maqsadida davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni pasaytirish choralarini qo'llashi natijasida yuzaga keladigan taqchillik bo'lib, u ijtimoiy jarayonlarning inqirozi ifodasi emas, balki davlatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish tarkibida progressiv siljishlarni amalga oshirishi natijasidir.
- **siklik budjet taqchilligi** – ishlab chiqarishning siklli pasayishi natijasida kelib chiqadigan va iqtisodiyotdagi inqiroz holatlarini, hukumatning moliyaviy holatni nazorat qila olmasligini ifoda etadigan taqchillik.

Budjet taqchilligini **moliyalashtirish manbalari** bo'lib ixtiyordagi va qarz mablag'lari namoyon bo'lishi mumkin. *Ixtiyordagi mablag'lar* – qaytarmaslik tavsifiga ega bo'lgan, davlat va mahalliy hokimiyat tasarrufidagi mol-mulkdan tushgan resurslar. Ichki va tashqi moliya bozorlarida qarz olish qaytarilish tavsifiga ega va davlat qarzining oshishiga olib keladi, ularga xizmat ko'rsatishga foiz xarajatlari talab qilinadi.

6. Budjet davlatning amal qilishi zaruratidan kelib chiqadi, chunki davlat amal qilishi va faoliyat yuritishi uchun ma'lum bir mablag'larga ega bo'lishi kerak. Feodalizm davrida davlat xarajat-

[79] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G'.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2023.", – 564 b.

lari ikki turga bo‘lingan edi: doimiy (qirollik saroyi, davlat muassasalarini saqlash) va vaqtincha (yo‘llar va inshootlar qurish va boshqalar), uning daromadlar va xarajatlar qismini aks ettiruvchi va mujassamlashtiruvchi yagona hujjat mavjud emas edi. Xarajatning har bir turiga tegishli daromad turi pul yoki natural ko‘rinishda topilib biriktirilar edi. Xarajatlar va ularga biriktirilgan daromadlar mustaqil smetalar ko‘rinishida rasmiylashtirilib, juda ko‘p hajmda to‘planar edi. Hamma xarajatlar hujjatlashtirilmas edi. Davlat rahbari davlatning barcha mablag‘larini nazoratsiz idora qilar, buning natijasida isrofgarchilik yuzaga kelar edi. Burjuaziya davri monarxlarning moliyaviy huquqlarini chegaralash, davlat xarajatlari ustidan nazorat o‘rnatish va soliqlarni tayinlash va bekor qilish huquqini chegaralash bilan tavsiflanadi. Shularning barchasi budjetning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga sababchi bo‘ldi.

Davlatning xarajatlar va daromadlarini yagona umumiy smetaga (budjetga) birlashtirishga birinchi urinish Angliyada XVII asr oxirida amalga oshirildi. “Budget” termini Angliyada o‘rta asrlarda “sumka, hamyon, pulli qop” mazmunini anglatar edi. Shu nom bilan Angliya g‘aznachiligi vazirining pul va hisobotlari solingan portfeli nomlanar edi. Vazir doimo lordlar palatasi oldida chiqish qilayotganda shu portfeli yonida bo‘lardi. Vaqt o‘tishi bilan bu termin bilan “g‘aznachilik vazirining parlament oldidagi hisoboti” nomlana boshlandi. XVI-XVII asrlarda Angliyada quyi palata qirolga subsidiyalarni tasdiqlashda, majlis tugashi arafasida g‘aznachilik kansleri tegishli qonun loyihasi saqlanayotgan portfelni ochar edi va bu budjetning ochilishi deb nomlangan edi, keyinchalik portfelning nomi hujjatning o‘ziga ham berildi.

XIX asr boshiga kelib, dunyoning ko‘pgina mamlakatlari davlatning daromadlari va xarajatlari aks ettiriladigan budjetlarni shakllantira boshladilar. O‘zbekistonda davlat budjeti 1868-yilda paydo bo‘lgan deb hisoblash mumkin. Bunda xonning shaxsiy xarajatlari davlatnikidan ajratilgan edi. Bu bilan Turkiston hududida mustaqil davlat budjetining tashkil topishiga asos solindi. Rossiya Chor hukumati Turkiston general-gubernatorligi hududida Turkistonning davlat daromadlari va xarajatlari to‘g‘risidagi nizomni (davlat bud-

jeti to‘g‘risidagi nizomni) ishlab chiqish va ijro etish vazifasini bajaruvchi moliyaviy qo‘mitani ta’sis etdi.

1924-yilda O‘zbekiston SSR tashkil topishi bilan birga, Sovet hukumati qarori bilan O‘zbekiston SSRning birinchi davlat budjeti shakllantirildi. Ushbu budjet 1924-yildan 1991-yilga qadar, SSSR davlat budjeti tarkibiga kirgan.

1991-yilda O‘zbekiston suverenitetni e’lon qildi va 1992-yildan boshlab mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti shakllantirila boshlandi.

O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish va budjet-soliq sohasida shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha quyidagi ishlar joriy qilib kelinmoqda. Xususan:

1. 2018-yildan boshlab:

- Davlat budjetini boshqarishda fuqarolarni budjet jarayoniga jalb qilish, ularning budjet sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, fiskal shaffoflikni ta’minlash maqsadida “Fuqarolar uchun budjet” axborot nashri e’lon qilib borilmoqda (2020-yildan boshlab budjet jarayonining barcha bosqichlari uchun);

- budjet ochiqligini oshirish hamda fiskal statistika ma’lumotlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi.

2. 2019-yildan boshlab:

- Davlat budjeti o‘rta muddatli asosda qabul qilinmoqda (kelgusi yil uchun Davlat budjeti va so‘nggi ikki yil uchun budjet mo‘ljallari);

- “Openbudget.uz” axborot portali ishga tushirildi;

- budjet hisobotlarini e’lon qilib borish, budjet to‘g‘risidagi ma’lumotlar ochiqligini oshirish;

- fuqarolarning mahalliy budjetlar mablag‘larining bir qismini taqsimlanishida ishtirok etishi bo‘yicha mexanizm ishga tushirildi (tashabbusli budjetlashtirish - jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish);

- ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatini bosqichma-bosqich joriy qilish.

3. 2020-yildan boshlab:

- Davlat budjetini qabul qilish shakli qayta ko‘rib chiqildi (qonun shaklida qabul qilinishni boshladi);

- Oliy Majlis tomonidan vazirlik va idoralarga (birinchi darajali

budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga) xarajatlarning cheklangan miqdorlarini tasdiqlash amalga oshirilmoqda;

- 2020-yilda “2020-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi” qabul qilindi;

- budjetning institutsional qamrovi kengaytirildi: konsolidatsiyalashgan budjet tarkibiga kiruvchi davlat maqsadli jamg‘armalari ro‘yxati tasdiqlandi hamda tashqi qarz hisobidan amalga oshiriladigan davlat dasturlari uchun xarajatlar ham kiritildi.

4. 2021-yildan boshlab:

- budjet jarayoni ochiqligini yanada oshirish va budjet mablag‘larining sarflanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning oshkor etilishi bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilindi;

- vazirlik va idoralar tomonidan budjetdan ajratilgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligi va natijadorligini baholash indikatorlarini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilindi. Jumladan, Xalq ta’limi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi va Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tomonidan budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq Davlat dasturlari va budjet xarajatlari samaradorligi ko‘rsatkichlarining maqsadli indikatorlari tasdiqlandi;

- budjet jarayonida fuqarolarning ishtirok etish mexanizmi kengaytirildi (“Tashabbusli budjet” jarayoni yanada takomillashtirildi).

5. 2022-yildan boshlab:

- budjet taqchilligining hajmiga nisbatan cheklov belgilandi;

- 2022-yil uchun Davlat budjeti loyihasidan boshlab 40 ta birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning 2022-2024-yillar uchun budjet xarajatlari va rivojlantirish dasturlarining maqsadli indikatorlari tasdiqlandi;

- barcha tuman va shahar budjetlarida ichki yo‘llarni ta’mirlash uchun ajratilgan mablag‘larning kamida 50 foiz qismi jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirish tizimi joriy etildi;

- davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish maqsadida vazirlik va idoralarda ichki audit tizimi yo‘lga qo‘yildi.

12.2. O‘zbekistonda budjet tuzilishi va budjet tizimi

Budjet tuzilishi – bu budjet tizimini tashkil etish, uni tuzish tamoyillari. Budjet tuzilishi davlat budjeti va mamlakat budjet tizimining tashkil etilishini, uning alohida bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, budjet tizimiga kiruvchi budjetlarning faoliyat yuritishi huquqiy asoslarini, budjetlarning tarkibi va tuzilishini, budjet mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartib-tamoyillari va hokazolarni belgilaydi. Budjet tuzilishi davlat budjeti va mamlakat budjet tizimining tashkil etilishini, ularning alohida bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, budjetlarning tarkibini belgilaydi.

Budjet tuzilishi davlat tuzilishi bilan belgilanadi. Mamlakatning ma’muriy-hududiy bo‘linishi budjet tizimlari bo‘g‘inlari sonini belgilaydi, har bir darajadagi davlat hokimiyati organiga tegishli budjet konstitutsiyaviy yo‘l bilan biriktirilgan bo‘ladi. Mamlakatlarning davlat tuzilishidagi, hokimiyat turli darajalarining budjet huquqlaridagi farqlar turli shakldagi va modeldagi budjet tizimlarining mavjudligini belgilaydi.

Budjet tuzilishining markazlashtirilgan, markazlashtirishdan chiqarilgan va aralash **modellari** mavjud. **Markazlashtirilgan** model barcha budjetlar yagona davlat budjetida markazlashtirilishi bilan tavsiflanadi, bunda har bir yuqori budjetga boshqaruvchilik roli biriktirilgan bo‘ladi (Fransiya, Italiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston).

Markazlashtirishdan chiqarilgan model budjet tizimi markaziy va mahalliy budjetlarining erkinligi bilan tavsiflanadi, bunda ushbu budjetlarning har biri ularning xarajatlarini ta’minlovchi o‘z daromadlar manbalariga ega bo‘ladi (AQSh).

Aralash model markaziy budjetga mahalliy budjetlarni tartibga solish roli biriktirilishi bilan tavsiflanadi, bunda ushbu budjetlarning har biri ularning xarajatlarini ta’minlovchi o‘z daromadlar manbalariga ega bo‘ladi (Rossiya Federatsiyasi).

O‘zbekiston Respublikasining budjet tuzilishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi:

1) budjetga doir huquqiy munosabatlarning ayrim masalalarini

tartibga soluvchi, uzoq muddat amal qiluvchi hujjatlar – O‘zbekiston Respublikasining “Budjet tizimi to‘g‘risida”gi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunlari;

2) har yili qabul qilinadigan (navbatdagi moliya yili budjeti to‘g‘risidagi va boshqa) hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasining “Budjet tizimi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq **budjet tizimi** turli darajadagi budjetlar va budjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish tamoyillarini, budjet jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablag‘lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi.

Moliya yiliga mo‘ljallangan barcha darajadagi budjetlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘mda amalga oshiriladi. Mamlakat budjet tuzilishi davlat tuzilishi shakliga, uning ma’muriy- hududiy bo‘linishiga bog‘liqdir.

Davlat tuzilishi shakliga, ya’ni davlatning ma’lum bir qismlarga bo‘linishi va ularni boshqarish bo‘yicha hokimiyatning tegishli tarzda ajratilishi usuliga ko‘ra davlat ikki xil – *unitar va federativ* bo‘ladi.

1) **unitar** davlatlar vertikal bo‘yicha yagona davlat hokimiyati tizimi bilan boshqariladigan ma’muriy-hududiy birliklarga bo‘linadi. Unitar davlatlarda budjet tizimi **ikki bo‘g‘indan** – davlat budjeti va ko‘p sonli mahalliy budjetlardan iborat bo‘ladi (Qozog‘iston, Polsha, Turkmaniston va boshqalar). Unitar davlatlarda avtonom birlashmalar tashkil etilishi mumkin.

Unitar davlatlar budjetning markazlashtirishdan chiqarilish darajasi, hududlar hukumat organlarining vakolatlari bilan belgilanadigan **ko‘p darajali budjet** tizimiga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, markazlashtirishdan chiqarilgan unitar davlat – Fransiya **to‘rt darajali** budjet tizimiga, mahalliy hokimiyatlarning soliqqa oid vakolatlari konstitutsiya bilan belgilangan markazlashgan unitar davlat – Shvetsiya **uch darajali** budjet tizimiga ega.

2) **federatsiya** tarkibiy qismlari keng ko‘lamli davlat avtonomiyasiga ega bo‘lgan yagona davlatni namoyon etadi. Ma’lum ma’noda bu davlat hokimiyatining vertikal bo‘yicha taqsimlanish usulidir.

Federativ davlatlarning budjet tizimi **uch bo‘g‘indan** iborat: davlat budjeti (federal budjet yoki markaziy hukumat budjeti), federatsiya a’zolari budjeti va mahalliy budjetlar (Avstriya, Germaniya, Kanada, Meksika, Rossiya, AQSh va boshqalar).

Jahon amaliyotida budjet tizimlarining tuzilishi quyidagi **tamoyillarga** asoslanadi:

• **umumiylik** – huquqiy baza, pul tizimi, yagona budjet tasnifidan va budjet hujjatlari shakllaridan foydalanish, budjet jarayoni tamoyillari, budjet qonunchiligini buzganlik uchun sanksiyalarni, xarajatlarni moliyalashtirish va budjet tizimi budjetlari mablag‘larining buxgalteriya hisobini yuritish tartibining yagonaligini anglatadi;

• **to‘liqlik** – budjet tizimi budjetlarining va budjetdan tashqari jamg‘armalar budjetlarining daromadlar va xarajatlari ularda majburiy ravishda va to‘liq aks ettiirilishi lozimligini anglatadi;

• **ishonchlilik** – tegishli hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognoz ko‘rsatkichlarining obyektivligini hamda budjet daromadlari va xarajatlari hisoblanishining realligini anglatadi;

• **oshkoralik** – budjetning shaffofligini nazarda tutadi, bu o‘z navbatida erkin nashrda tasdiqlangan budjetlar va ularning ijrosi bo‘yicha hisobotlar majburiy ravishda bosib chiqarilishini, taqdim etilayotgan axborotning to‘liqligini, jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun budjet loyihalarini ko‘rib chiqish va qarorlar qabul qilishning ochiqligini anglatadi;

• budjet tizimi budjetlarining **mustaqilligi**. Federal tipdagi va budjet tuzilmasi markazlashtirishdan chiqarilgan va aralash modelli mamlakatlarga xosdir. Bu davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organlari mustaqil ravishda, budjet jarayonini amalga oshirishlari, daromadlarning mustaqil manbalari mavjudligi va tegishli budjetlar mablag‘larining xarajatlari yo‘nalishini belgilashni, davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tegishli budjetlarning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini mustaqil belgilash huquqini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi **budjet tizimi** o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lib, uning **asosiy tamoyillari** O‘zbekiston Respublikasining “Budjet tizimi to‘g‘risida”gi qonunida belgilab qo‘yilgan budjet

tasnifi tizimi, hisob-budjet hujjatlari va budjet jarayoni tuzilishining yagonaligi;

• budjet tuzilishining O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;

• turli darajadagi budjetlarning o‘zaro bog‘liqligi;

• davlat budjeti balansliligi;

• davlat daromadlarini aniq manbalar bo‘yicha va xarajatlarini yo‘nalishlari (moddalari) bo‘yicha rejalashtirish;

• davlat budjeti xarajatlarini budjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag‘lar doirasida va xarajatlar smetalarida ko‘rsatilgan maqsadlarda amalga oshirish;

• barcha darajadagi budjetlarning mustaqilligi.

O‘zbekiston Respublikasida **davlat budjeti** – davlat pul mablag‘larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat budjeti respublika budjetini va Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetini va mahalliy budjetlarni o‘z ichiga oladi. Davlat budjeti **tarkibida** davlat maqsadli jamg‘armalar jamlanadi.

Respublika budjeti – davlat budjetining umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining budjeti – davlat budjetining Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, budjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetini hamda respublikaga (Qoraqalpog‘istonga) bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi.

Mahalliy budjet – davlat budjetining tegishli viloyat, tuman,

shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Viloyat budjeti viloyat budjetini, viloyatga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlarning budjetlarini o‘z ichiga oladi. Tumanlarga bo‘linadigan **shaharning budjeti** shahar budjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlarini o‘z ichiga oladi.

Tumanga bo‘ysunadigan shaharlari bo‘lgan **tumanning budjeti** tuman budjetini va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari – Davlat budjeti tarkibida jamlanadigan jamg‘armalar bo‘lib, ularning har biri uchun mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushish me’yorlari va shartlari, shuningdek, bu mablag‘lardan qay maqsadlarda foydalanilishi mumkinligi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti umumdavlat soliqlari va majburiy to‘lovlari hisobiga shakllantiriladi va umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishga ishlatiladi.

Davlat budjeti **daromadlari** quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

• qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlar (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS), aksiz solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i, alohida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliq, davlat boji va bojxona to‘lovlari);

• davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;

• qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;

• yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

• rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to‘lovlar;

• qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Davlat budjeti **xarajatlari** tasdiqlangan budjetdan mablag‘ ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

• budjet mablag‘lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;

• joriy budjet transfertlari shaklida;

• kapital xarajatlar shaklida: asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga; chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olishga; davlat ehtiyojlari uchun yerga bo‘lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga; davlat zahiralarini vujudga keltirishga;

• kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan budjet transfertlari shaklida;

• rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan budjet ssudalari shaklida;

• davlat maqsadli jamg‘armalariga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet ssudalari shaklida;

• davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘lovlar shaklida;

• qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida. Respublika budjetidan xarajatlarni **moliyalashtirish** qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

• fan, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (respublikaga bo‘ysunadigan budjet tashkilotlari bo‘yicha);

• ijtimoiy ta’minot;

• mudofaa, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta’minlash;

• sudlar va prokuratura organlari faoliyatini ta’minlash;

• davlat zaxirasi va safarbarlik zaxirasini vujudga keltirish hamda ularni saqlash;

• davlat markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish;

• davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari hamda missiyalari faoliyatini ta’minlash;

• iqtisodiyot turli tarmoqlarining respublikaga bo‘ysunadigan budjet tashkilotlarini saqlash;

• O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga

muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli davlat dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;

• qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash;

• yer tuzish, meliorativ, tabiatni muhofaza qilish va epizootiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

• gidrometeorologiya, do'lga qarshi kurash chora-tadbirlari;

• qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Respublika budjeti taqchilligi davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag'larni jalb qilish, respublika budjeti mablag'larining moliya yili boshlanishidagi qoldiqlari va qonunlarga muvofiq boshqa manbalar hisobiga **moliyalashtiriladi**.

Budjet tizimining ikkinchi darajadagi budjetlari: Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar **daromadlari** quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

• qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga yo'naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar (mol-mulk solig'i, yer solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga soliq, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, alohida tovar turlarini chakana sotish va xizmat ko'rsatish huquqini olish uchun yig'imlar);

• qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga hamda mahalliy budjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig'imlari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;

• qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki obyektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

• qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

• yuqori budjetlardan beriladigan budjet dotatsiyalari, budjet subvensiyalari va budjet ssudalari;

• yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

• qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar **xarajatlari** tasdiqlangan budjetdan mablag‘lar ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

• Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining joriy xarajatlari shaklida joriy budjet transfertlari shaklida;

• kapital xarajatlar shaklida:

• asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog‘liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;

• davlat ehtiyojlari uchun yerga bo‘lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;

• qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo‘ljallangan xarajatlar **moliyalashtiriladi**:

• fan, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari bo‘yicha);

• ijtimoiy ta’minot;

• aholini ijtimoiy himoya qilish;

• Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta’minlash; iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjet tashkilotlarini saqlash;

• qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;

• qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

O‘zbekiston Respublikasi budjeti o‘zining **xususiyatlariga** ega, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti hamda mahalliy budjetlar balansli daromadlar va xarajatlarga ega bo‘lishi kerak. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar taqchilligiga yo‘l qo‘yilmaydi.

12.3. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tushunchalari va ularning tarkibi

Budjet daromadlari – bu davlat budjet tizimning budjetlariga qonun hujjatlarida belgilangan beg'arazlik va qaytarib bermaslik tartibida kelib tushadigan pul mablag'lari. Budjet daromadlari soliq va soliqsiz daromadlardan iborat, shuningdek, ularga beg'araz pul o'tkazmalari ham kiradi.

Soliq – bu (davlat/mahalliy) budjetga majburiy badal bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Soliqlar, o'z moddiy mazmuniga ko'ra, milliy daromadning xo'jalik subyektlaridan va aholidan umumdavlat ehtiyojlari uchun undiriladigan qismidir. **Soliqli daromadlarning** asosiy **manbasi** yangidan yaratilgan qiymat va uni birlamchi taqsimlash natijasida olingan daromadlar (foyda, ish haqi, qo'shilgan qiymat, ssuda foizi, renta, dividendlar va boshqalar), shuningdek, jamg'armalardir.

Soliqlar quyidagi belgilarga qarab **tasniflanishi** mumkin (12.6-rasm):

- hokimiyat organlarining vakolat darajasiga ko'ra (davlat, mahalliy soliqlar va yig'imlar / federal, federatsiya subyektlari va mahalliy soliqlar va yig'imlar);
- zimmaga yuklanishiga ko'ra (to'g'ri va egri soliqlar);
- to'lanish manbasiga ko'ra (tovar narxining oshishi, mahsulot tannarxining oshishi, moliyaviy natijalar, sof foydaga nisbatan soliqlar);
- undirilish davriyligiga ko'ra (muntazam va nomuntazam soliqlar);
- soliq solish obyektiga ko'ra (daromad, kapital, yer, xo'jalik oboroti, alohida tovarlar);
- soliq to'lovchilarga ko'ra (jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar, yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar, shuningdek, aralash – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan to'lanadiga soliqlar);
- boshqa soliqlar.



12.6-rasm. Soliqlarning tasnifiy belgilari va tasniflanishi[80]

Budjetning **soliqsiz daromadlari,** asosan, davlatning iqtisodiy faoliyati va budjet tizimining turli darajalarida olingan daromadlar qayta taqsimlanishi natijasida paydo boʻladi. Koʻpgina soliqsiz daromadlar doimiy fiskal xususiyatga ega emas va ularning qat'iy belgilangan stavkasi yoʻq. Budjetning **soliqsiz daromadlari** quyidagi belgilarga koʻra **tasniflanadi**:


- hududiy belgi, budjetning belgilangan darajasiga oʻtkazish;
- jalb qilish va shakllantirish (majburiy va ixtiyoriy);
- soliqsiz tushumlarni shakllantiruvchi, toʻlovlarni undirish uchun asos yaratish (davlat mulkini sotishdan kelib chiqqan daromad).

[80] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, Gʻ.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2023.", – 564 b.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar budjetining daromadlarida soliqlar ustuvor o‘ringa egadir. Hozir dunyoda soliqlar budjet tushumlarining 80-90 foizni tashkil etadi va O‘zbekistonda ham bunday holatni kuzatish mumkin. Soliq kodeksiga muvofiq, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, budjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari soliq sifatida tushuniladi.

Boshqa majburiy to‘lovlar deganda, davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy pul to‘lovlari, bojxona to‘lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan to‘lovchilarga nisbatan yuridik ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan yig‘imlar, davlat boji tushuniladi. Har bir soliq yoki boshqa majburiy to‘lovga tatbiqan soliq to‘lovchilar va soliqlarning unsurlari belgilanadi.

Soliq solish **obyekti** soliq to‘lovchida soliq yoki boshqa majburiy to‘lov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to‘lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, faoliyat natijasidir.



12.7-rasm. 2020-2022-yillarda soliq yuki va davlat budjeti daromadlarining o‘zgarishi[81]

[81] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G‘.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: “Iqtisodiyot dunyosi”, 2023.”, – 564 b.

Soliq solinadigan baza soliq solish obyektining soliq yoki boshqa majburiy to‘lovning stavkasiga tatbiqan belgilangan ko‘rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi. **Stavka** soliq solinadigan bazaning o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi. Soliq va boshqa majburiy to‘lovni hisoblab chiqarish tartibi **soliq davri** uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek, imtiyozlar mavjud bo‘lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to‘lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Soliq davri u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir.


Soliq davri bir necha hisobot davriga bo‘linishi mumkin bo‘lib, ularning yakunlari bo‘yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘lanishi lozim bo‘lgan summalarini to‘lash majburiyati yuzaga keladi. Qonunchilikda nazarda tutilgan, boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan, soliq va (yoki) boshqa majburiy to‘lov to‘lamaslik yohud ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha **imtiyozlar** deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi **Davlat budjeti daromadlari** ikki qismdan iborat: davlat maqsadli jamg‘armalari hisobga olinmagan daromadlar va davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlari.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqish va to‘lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

Davlat budjeti **xarajatlari** – bu davlat o‘z funksiyalari va vazifalarini bajarish uchun budjetdan yo‘naltiradigan pul mablag‘lari oqimlari har qanday davlatda bo‘lganidek, O‘zbekistonning davlat budjeti xarajatlari ham quyidagi asosiy **xarajatlar bloklarini** o‘z ichiga oladi: ijtimoiy maqsadlar xarajatlari; iqtisodiyot xarajatlari;

ijtimoiy infratuzilma, qishloq xo‘jaligi va uy-joy kommunal sektorini rivojlantirishga yo‘naltiriladigan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari; boshqaruvga xarajatlar; milliy xavfsizlik va ichki huquq-tartibotni ta’minlash xarajatlari; tashqi iqtisodiy faoliyat uchun xarajatlar; davlat qarziga xizmat ko‘rsatish xarajatlari (12.8-rasm).



12.8-rasm. O‘zbekistonda davlat budjeti xarajatlarining asosiy bloklari[82]

Har qanday davlatning iqtisodiyot va siyosatidagi xususiyatlari uning xarajatlari ustuvorliklarida ham aks etadi. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda har yili mamlakatning soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilanadi va ular davlat budjetini ishlab chiqishda asos sifatida xizmat qiladi. Mustaqil O‘zbekistonning umumiy taraqqiyot davri davomida budjet xarajatlari ustuvor darajada ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga sarflangan va sarflanib kelinmoqda.

[82] Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G‘.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: “Iqtisodiyot dunyosi”, 2023.”, – 564 b.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuni[83]ga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi nomidan va uning kafolati ostida jalb qilingan davlat qarzining summasi yalpi ichki mahsulotning yillik prognoz ko‘rsatkichiga nisbatan 60% dan oshmasligi kerak.



12.9-rasm. Davlat budjeti xarajatlarining tasnflanishi[84]

2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi nomidan va uning kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo‘yicha yillik imzolanadigan

[83] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”. 30.12.2022 yil, O‘RQ-813-son

84

yangi bitimlarning cheklangan hajmi 4,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi. Qonunga muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan QQS amaldagi 15 % dan 12% ga tushirilmoqda. Foyda solig‘i (15%, alohida toifalar uchun - 20%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (12%), yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (1,5%), qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yer solig‘i (0,95%), ijtimoiy soliq (budjet tashkilotlari - 25%, qolganlar - 12%) bo‘yicha stavkalar saqlab qolinmoqda. Qonun bilan:

a) 2023-yilning 1-aprelidan boshlab quyidagilar bo‘yicha berilgan imtiyozlar:

- budjet mablag‘lari hisobidan har yillik mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko‘rsatiladigan geologiya xizmatlari bo‘yicha aylanma;

12.1-jadval

2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan budjetining jamlanma parametrlari hamda 2024-2025-yillarga budjet mo‘ljallari (mlrd.so‘m)[85]

T/r	Ko‘rsatkichlar	2023-yil uchun prognoz	Budjet mo‘ljallari:	
			2024-yil	2025-yil
I.	**Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari**	**310 677,9**	**353 697,7**	**397 219,4**
1.	Davlat budjeti daromadlari*	232 107,1	269 965,6	309 829,9
2.	Davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlari*	41 250,7	46 793,8	50 609,2
3.	O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga tushumlar	11 712,0	11 394,2	9 959,0
4.	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalariga tushumlar	25 608,1	25 544,1	26 821,3
II.	**Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari**	**343 212,6**	**387 197,1**	**428 363,7**
1.	Davlat budjeti xarajatlari *	227 866,6	255 324,1	285 570,5
2.	Davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlari	70 212,9	77 565,2	85 342,8
3.	O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larining sarflanishi	11 712,0	17 474,6	17 765,5
4.	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larining sarflanishi	25 608,1	25 033,2	26 284,9
5.	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	7 813,0	11 800,0	13 400,0
III.	**Davlat maqsadli jamg‘armalariga transfertlar**	**29 867,6**	**34 341,7**	**37 775,5**
IV.	**Konsolidatsiyalashgan budjet saldosi** *(profitsit +, defitsit -)*	**-32 534,7**	**-33 499,4**	**-31 144,3**
V.	**Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari saldosi** *(profitsit +, defitsit -)*	**-24 721,7**	**-16 129,9**	**-10 474,2**
VI.	Davlat qarzlarini so‘ndirish	19 173,7	31 498,8	26 657,5

[85] O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga 1-ILOVA

pochta markalari, markali otkritkalar, konvertlarni realizatsiya qilish boʻyicha aylanma;

- budjet mablagʻlari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlarni realizatsiya qilish boʻyicha aylanma;

b) 2023-yilning 1-iyulidan boshlab Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qoʻriqlash boʻlinmalari xizmatlari boʻyicha taqdim etilgan imtiyozlar bekor qilinmoqda.

2023-yil uchun Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligining cheklangan miqdori yalpi ichki mahsulotning 3% i miqdorida belgilandi. 2023-yilda konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 310677,7 trln soʻm yoki YIMning 29,1% i miqdorida prognozlashtirilmoqda (12.1-jadval). Davlat budjeti daromadlari 232,1 trln soʻm yoki YIMning 21,7% i miqdorida belgilandi.

Bevosita soliqlar 47,1 trln soʻmni, jumladan, foyda soligʻi 37,1 trln soʻmni tashkil etadi. Bilvosita soliqlar boʻyicha daromad summasi 84,5 trln soʻm, shu jumladan, QQS – 63,8 trln soʻm, aksiz soligʻi – 14 trln soʻm, bojxona boji – 6,7 trln soʻmni tashkil etadi. Resurs va mol-mulk soligʻi 14,8 trln soʻmni tashkil qiladi (12.2-jadval).

12.2-jadval

2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari prognozi[86] (mlrd.so‘m)

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari		**183 442,8**
1.	**Bevosita soliqlar**	**47 127,1**
1.1.	Foyda solig‘i	37 140,4
	shundan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bo‘yicha	*16 518,1*
1.2.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	9 986,7
2.	**Bilvosita soliqlar**	**84 515,5**
2.1.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	63 775,4
2.2.	Aksiz solig‘i	13 988,1
2.3.	Bojxona boji	6 752,0
3.	**Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i**	**14 780,1**
3.1.	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	14 780,1
4.	**Dividendlar**	**29 532,2**
	shundan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bo‘yicha	25 532,2
5.	**Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan boshqa tushumlar**	**7 488,0**

Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari 343,2 trln so‘mni tashkil etadi. Davlat budjeti xarajatlari 228,0 trln so‘m, davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlari – 70,2 trln so‘m, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larining sarflanishi – 11,7 trln so‘m miqdorida prognozlashtirilmoqda. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larining sarflanishi 25,6 trln so‘m, tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar esa – 7,8 trln so‘mni tashkil etadi. Budjetni shakllantirishda barcha tumanlar va shaharlar budjetlarining tasdiqlangan xarajatlarining 5% i jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Bundan tashqari, mahalliy budjetlar qo‘shimcha manbalarining

[86] O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga 1-ILOVA

kamida 30% i jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi. 2023-yil 1-yanvardan boshlab, mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish, soliqlarning undruvchanligini oshirish maqsadida tajriba tariqasida har bitta viloyatdan bittadan tumanda “Mahalla budjeti” tizimi joriy qilinadi. Yer va mol-mulk solig‘ining muayyan bir qismi mahallalar ixtiyorida qoldiriladi (12.3-jadval).

12.3-jadval

“Mahalla budjeti” tizimi joriy qilinuvchi tumanlar[87]


№	Hudud nomi	Tuman nomi
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Beruniy
2	Andijon viloyati	Andijon
3	Buxoro viloyati	Olot
4	Jizzax viloyati	Zomin
5	Qashqadaryo viloyati	Qarshi
6	Navoiy viloyati	Karmana
7	Namangan viloyati	Uychi
8	Samarqand viloyati	Urgut
9	Surxondaryo viloyati	Jarqo‘rg‘on
10	Sirdaryo viloyati	Sayxunobod
11	Toshkent viloyati	Bo‘ka
12	Farg‘ona viloyati	Bag‘dod
13	Xorazm viloyati	Bog‘ot
14	Toshkent shahri	Uchtepa

Budjetning **iqtisodiyot** xarajatlariga alohida xo‘jalik subyektlarini va milliy iqtisodiyot sektorlarini qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar, shu jumladan, qishloq va suv xo‘jaligi; uy-joy ekspluatatsiya xo‘jaligi; shaharlarni obodonlashtirish, vodoprovod, kanalizatsiya va boshqalarga xarajatlar kiradi. **Boshqaruvga** xarajatlar hokimiyatning barcha qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari faoliyatini, davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruvi va fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari, sudlar, prokuratura organlari va

[87] O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga 1-ILOVA

boshqa muassasalarning xarajatlarini moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi.

Milliy xavfsizlik va ichki huquq-tartibotni ta'minlash xarajatlari mudofaa kompleksiga (Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat chegarasini qo'riqlash qo'mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqalarni ta'minlash xarajatlari), huquq-tartibot organlariga (Ichki ishlar vazirligi, Jazoni ijro etish Bosh boshqarmasi, Ichki ishlar vazirligining moddiy-texnika va harbiy ta'minot boshqarmasi, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqalarni ta'minlash xarajatlari) va boshqalarga xarajatlarni o'z ichiga oladi.



12.10-rasm. Davlat budjeti xarajatlarining tarkibi[88] (2022-yil)

Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlarga tashqi va ichki qarz bo'yicha asosiy qarz va foizlarni to'lash va boshqalar kiradi. Budjet xarajatlari tranzit xususiyatiga ega. Budjet xarajatlari orqali budjetdan mablag' oluvchilar – budjet mablag'larini oluvchi yoki taqsimlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tashkilotlari moliyalashtiriladi.

Budjetda sarf-xarajatlar moddalari bo'yicha budjet xarajatlari belgilanadi, xarajatlarni esa budjetdan mablag' oluvchilar amalga oshiradilar. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etish xususiyatiga qarab budjet xarajatlari joriy va kapital bo'ladi.

[88] Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari.

Budjetlarning **joriy xarajatlari** – davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari, budjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta’minlash uchun, boshqa budjetlar va iqtisodiyotning alohida tarmoqlari joriy faoliyatiga ajratmalar, dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar ko‘rinishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish uchun budjet xarajatlarining qismi. Joriy xarajatlar budjet xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi.

Budjetlarning **kapital xarajatlari** – innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta’minlovchi budjet xarajatlari qismi bo‘lib, u tasdiqlangan investitsiya dasturiga binoan faoliyat yuritayotgan yoki yangi tashkil etilayotgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga investitsiyalash uchun mo‘ljallangan xarajatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Budjet mablag‘larini sarflash quyidagi **usullar** yordamida amalga oshiriladi:

• budjetdan kreditlashtirish va mablag‘larni investitsiyalash;

• budjetdan moliyalashtirish (qaytarib berilmaydigan pul mablag‘larini budjetdan taqdim etish);

• mablag‘larni budjet qarz majburiyatlarini qoplashga yo‘naltirish.

Budjetdan mablag‘ oluvchilarga o‘z joriy faoliyatini amalga oshirish uchun budjet mablag‘larini taqdim etishning asosiy usuli **budjetdan moliyalashtirish** hisoblanib, u quyidagi **tamoyillarga** asoslanadi:

• budjet ajratmalaridan foydalanishning maqsadliligi. Budjetdan mablag‘ oluvchilar belgilangan maqsadlar uchun tasdiqlangan budjet asosida mablag‘ oladilar. Ushbu tamoyilga qat’iy rioya qilish mablag‘larni sarflashning samaradorligini ta’minlaydi;

• budjetdan moliyalashtirishning tekinligi;

• budjetdan moliyalashtirishning qaytarilmasligi;

• minimal xarajatlar bilan maksimal samara olish;

• budjet mablag‘larini ishlab chiqarish va boshqa ko‘rsatkichlarning bajarib borilishiga qarab va avvalgi ajratmalardan foydalanishni hisobga olgan holda taqdim etish. Bu tamoyil moliya organlariga budjet mablag‘larini oluvchilar faoliyati ustidan ta’sirchan va samarali nazoratni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Budjetdan moliyalashtirish quyidagi **shakllarda** amalga oshiriladi:

• budjetdan mablag‘ oluvchilarning joriy xarajatlariga (ishchilar-

ga mehnat haqini to‘lash, davlatning budjetdan tashqari jamg‘armalariga sug‘urta badallarini o‘tkazish, budjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan kommunal xizmatlar, safar xarajatlarini to‘lash va boshqalar), shuningdek, hukumatning boshqa darajalariga o‘tkaziluvchi alohida davlat vakolatlarini amalga oshirishga; davlat xaridlariga va boshqalarga ajratmalar;

• transfertlar (aholiga beriladigan majburiy to‘lovlarni moliyalashtirish uchun budjet mablag‘lari: stipendiyalar, nafaqalar, kompensatsiyalar, pensiyalar va boshqa ijtimoiy to‘lovlar);

• boshqa darajadagi budjetlar va davlatning budjetdan tashqari jamg‘armalariga budjet ssudalari, subvensiyalari va dotatsiyalari;

• budjetlararo transfertlar;

• jismoniy va yuridik shaxslarga subvensiyalar va subsidiyalar;

• faoliyat yuritayotgan yoki yangidan yaratilayotgan yuridik shaxslarning ustav kapitaliga investitsiyalar;

• mulk shaklidan qat’iy nazar yuridik shaxslarni budjetdan kreditlash;

• qarz majburiyatlariga xizmat ko‘rsatish (davlat organlarining kafolatlari bilan).

Bob bo‘yicha xulosalar

Iqtisodiy nazariya davlat tomonidan budjet-soliq (fiskal) siyosatini amalga oshirish usullari borasida turli qarashlar borasidagi juda ko‘plab ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, keynschilik oqimining davomchilari an’anaviy tarzda iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish sifatida samarali yalpi talabni shakllantirishga e’tibor qaratadilar. Shu sababli, soliq imtiyozlari ular tomonidan yalpi talabning o‘sishining asosiy omili sifatida qaraladi, bu esa o‘z navbatida real mahsulot hajmining oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, qisqa muddatli davr ichida budjet daromadlarining qisqarishi kuzatiladi, shundan so‘ng budjet kamomadi shakllanadi yoki avvalgiga qaraganda o‘sadi. “Taklif iqtisodiyoti” nazariyasi tarafdorlari soliq stavkalarining pasaytirilishini yalpi taklif o‘sishining omili sifatida ko‘rib chiqadilar. Diskretsion fiskal siyosat, eng avvalo, hukumat qarorlariga asoslanadi.

U soliq stavkalarini yoki soliqqa tortish tartibini, shuningdek, davlat xarajatlari darajasini boshqaradi, bu yalpi taklifning shakl-

lanishiga, bandlik darajasiga, milliy mahsulotning real hajmiga va narxlar darajasiga ta'sir koʻrsatadi. Iqtisodiy siklning bosqichlariga muvofiq, diskretsion fiskal siyosat cheklovchi yoki ragʻbatlantiruvchi siyosatga boʻlinadi. Cheklovchi fiskal siyosat ortiqcha talab tufayli yuzaga keluvchi inflyatsiyani jilovlash maqsadida iqtisodiy tiklanish bosqichida amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi tadbirkorlik faoliyatini cheklash, yalpi milliy mahsulotning real hajmini uning potensial darajasiga nisbatan kamaytirishdan iboratdir. Bunday siyosatni amalga oshirish mexanizmida sof soliqlarning koʻpayishi (hukumatning soliq yigʻishdan olgan daromadlari, shuningdek, davlat transfert toʻlovlari oʻrtasidagi farq), ularning oʻsishi, davlat xarajatlarining qisqartirilishi bir oʻrinda nazarda tutadi. Iqtisodiyotning xususiy sektorida bu yalpi talabning kutilayotgan tiklanishini qoplashga yordam beradi.

Haddan tashqari talab (inflyatsion oʻsish) oqibatida kelib chiqadigan inflyatsiyaning mavjudligida cheklovchi diskretsion fiskal siyosat quyidagilardan tashkil topadi: xarajatlarni qisqartirish; soliqni oshirish; davlat xarajatlarini qisqartirish va soliq solishni oshirish kombinatsiyasi (davlat soliqlarini kamaytirishning multiplikator samarasi soliqlarning oshishini aks ettiruvchi multiplikator samarasidan yuqori boʻladi.

Ragʻbatlantiruvchi fiskal siyosatni amalga oshirish ijtimoiy ishlab chiqarishning pasayish davrlarida, ishsizlikning sezilarli darajasi mavjud boʻlgan davrda amalga oshiriladi. Bunday holda, sof soliqlarni kamaytirishga yoki sof soliqlarni kamaytirish va davlat xarajatlarini koʻpaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Pasayish davrida diskretsion fiskal ragʻbatlantirish siyosati soliqlarni qisqartirish, davlat xarajatlarini koʻpaytirish, bir paytning oʻzida davlat xarajatlarini koʻpaytirish va soliq imtiyozlarini qisqartirishni oʻz ichiga oladi.

Davlat xarajatlari va soliqlarning iqtisodiy rivojlanishga barqarorlashtiruvchi ta'siri ular multiplikatsion ta'sirga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Ular yalpi talabga, fuqarolarning bandligiga va milliy ishlab chiqarish hajmiga bevosita ta'sir koʻrsatishi mumkin. Amaldagi davlat tomonidan tartibga solishning konseptual modeli barqarorlashtirish siyosatining hukumat tomonidan amalga oshiri-

luvchi shakllari va choralarini tanlashni koʻzda tutadi. Davlatning nodiskret fiskal siyosati doirasida avtomatik stabilizatorlardan keng foydalaniladi.

Ular hukumat tomonidan qabul qilinuvchi qarorlardan qat'i nazar iqtisodiyotda muvozanatlash vazifasini bajaruvchi davlat daromadlari doirasida muayyan bir jihatlarni ifoda etadi. Buni soliq tushumlari hajmi va davlat xarajatlari ulushining sezilarli darajada oʻsishi xususiy sektor faoliyati bilan chambarchas bogʻliq ekanligi bilan izohlash mumkin. Soliq stavkalari milliy daromad oshgan taqdirda soliq tushumlari miqdori oshadigan tarzda amalga oshiriladi. Milliy daromad hajmi pasayganda, aksincha, ularning pasayishi kuzatiladi. Shu qatorda, milliy daromad tebranishlariga bogʻliq boʻlmagan ma'lum bir transfert toʻlovlari ham, muayyan darajada barqarorlashtiruvchi vazifasini bajaradi (masalan, bolalar uchun nafaqa va davolanish uchun toʻlov).

Shunga qaramay, transfertlarning katta ulushining oʻzgarishi (masalan, ishsizlik nafaqalari, qoʻshimcha toʻlovlar va boshqalar) biznes siklidagi tebranishlarga teskari bogʻliqlikda yuzaga keladi. Iqtisodiy tiklanish sharoitida ushbu turdagi toʻlovlar sezilarli darajada kamayadi va ishlab chiqarishning pasayish davrida esa oʻsadi. Soliqlar va davlat xarajatlarining nisbiy darajalarida ma'lum darajada zarur oʻzgarishlar avtomatik ravishda kiritiladi, bu avtomatik (oʻrnatilgan) barqarorlik, deb ataladi.

Soliq tizimi SMMning qiymatiga mutanosib ravishda sof soliqlarning undirilishini ta'min qilgan holda, avtomatik (oʻrnatilgan) barqarorlikning yuzaga kelishiga sabab boʻladi.

SMMning oʻsishi asnosida soliq tushumlarining oʻsishi kuzatiladi, aksincha, SMMning pasayishi sharoitida esa barcha manbalar boʻyicha soliq tushumlarining pasayishi kuzatiladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda fiskal siyosatning oʻrni qanday?
2. Diskretsion fiskal siyosatning oʻziga xos jihatlari?
3. Diskretsion fiskal siyosatning cheklovchi yoki ragʻbatlantiruvchi turlarini yoritib bering.

Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

XIII BOB. DAVLATNING INNOVATSION SIYOSATI

13.1. Davlatning innovatsion siyosati korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida

13.2. Mamlakatda fan sohasida siyosat va uning asosiy yo'nalishlari

13.1. Davlatning innovatsion siyosati korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida davlatning ilmiy-texnologik taraqqiyot sohasida innovatsion va investitsion faoliyat uchun zarur iqtisodiy imkoniyatlar yaratish o'z tarkibiga soliq, moliyaviy, amortizatsion, kredit va bojxona siyosati kabilarni qamrab oluvchi bilvosita tartibga solishni amalga oshirish davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rag'batlantirish zarurati fan va innovatsion jarayonlarning iqtisodiy o'sish va milliy sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili ekanligi, hamda yangi ishchi o'rinlari yaratish manbai ekanligi bilan izohlanadi.

Tadbirkorlik faoliyati uchun iqtisodiy sharoitlar shakllanishi bilan bog'liq innovatsion faollikni rag'batlantirishning bilvosita tadbirlaridan biri – bu tadbirkorlarga mablag' va resurslarning sezilarli qismini innovatsion jarayonlarga yo'naltirishga imkon beruvchi soliq va amortizatsiya siyosatini yurgizish hisoblanadi.

Davlat tomonidan innovatsion jarayonlarni tartibga solishning zarurati, avvalo, ularning iqtisodiyot va umuman, jamiyat uchun ahamiyati oshayotganligi bilan bog'liqdir. Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti ekstensiv va intensiv omillar mosligiga tayanadi.

Zamonaviy davrda ishlab chiqarishga yangi birlamchi resurslarni jalb etish orqali iqtisodiy oʻsishga erishish imkoniyati cheklangandir. Shu sababli iqtisodiy taraqqiyotda intensiv omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demak, innovatsiyalarning umumijtimoiy mohiyatining asosiy jihati ularning makroiqtisodiy koʻrsatkichlarga hal qiluvchi ta'siri hisoblanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasiga, institutsional iqtisodiy mexanizmlarga, ijtimoiy barqarorlikka, atrof-muhitga, milliy xavfsizlik darajasiga va eng asosiysi jahon xoʻjaligi tizimidagi milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligiga ta'sir etadi.

Demak, davlat innovatsion jarayonlarni bugungi kunda aynan ular mamlakat taraqqiyoti istiqbolini belgilab berishi tufayli ham tartibga solishi lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, davlat innovatsion siyosati uch asosiy yoʻnalishga ajratiladi:

- innovatsion faoliyatni faollashtirishni ta'minlash. U oʻz navbatida quyidagilarga boʻlinadi: fundamental tadqiqotlarni qoʻllab-quvvatlash, mamlakatda korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan tijorat innovatsiyalari uchun zarur iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

- ta'lim, madaniyat, ekologiya, ijtimoiy himoya, mudofaa kabi sohalarda davlat mas'uliyati talablariga javob beruvchi innovatsiyalarni yaratish va tarqatish borasidagi maqsadli dasturlar boʻyicha davlat buyurtmalarini moliyalashtirish;

- alohida korxonalar uchun manfaatdor, ammo zarur darajada yuqori daromad keltirmaydigan ishlanmalar va yangiliklarni qoʻllab-quvvatlash va tanlab ragʻbatlantirishni amalga oshirish.

Yuqorida belgilangan yoʻnalishlarning *birinchisi*, umuman, milliy korxonalar raqobatbardoshligini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan, jumladan, korxonalarda ishchi oʻrinlarini saqlash va yaratish boʻlib, mazkur maqsadlar uchun soliq toʻlovchilar hisobidan tushuvchi mablagʻlar sarflanadi.

Ikkinchi yoʻnalish ta'minotchilar va individual iste'molchilar oʻrtasida bevosita ikki tomonlama kelishuvlar asosida oʻzlashtirilishi yoki sotilishi mumkin boʻlmagan ne'matlar bozoriga xizmat koʻrsatadi. Mazkur kelishuvlar uchinchi shaxslarga kelishuvda hisobga

olinmaydigan tashqi ijobiy yoki salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin, chunki davlat ta'minotchi va iste'molchilar oʻrtasida ular nomidan ish koʻrib, mahsulotlar va xizmatlar sotib olib, tadqiqotlar va ishlanmalarga buyurtma berish orqali vositachi sifatida faoliyat koʻrsatadi.

Uchinchi yoʻnalish ikkinchi yoʻnalish bilan ma'lum darajada oʻzaro bogʻliq hisoblanadi, bunda davlat tashqi ijtimoiy samaralarga ega boʻlish maqsadida innovatsiyalarni moliyalashtiradi.

Innovatsion faoliyatni an'anaviy ishlab chiqarish faoliyatidan ajratuvchi tamoyillar tavsifi mavjudligini hisobga olish zarur:

1. Innovatsion tavsifga ega boʻlgan va faqat kelgusida qoplanishi mumkin boʻlgan qoʻshimcha xarajatlarga ehtiyojning mavjudligi. Shuni ta'kidlash lozimki, har bir alohida olingan innovatsiyalarda bu sarflar individual tavsifga ega boʻladi – ular hajmi, qaytarish tezligi, koʻpgina obyektiv va subyektiv holatlarga bogʻliq boʻladi.
2. Innovatsiyaga sarflar va uni joriy etishdan olinadigan samara vaqt boʻyicha mos kelmaydi. Jumladan, qandaydir yangi mahsulotni seriyali ishlab chiqarish butun davri davomida amalga oshirilgan sarflar uni sotish boshlanishi bilan qoplanmay, ma'lum muddat oʻtishini talab qiladi. Innovatsiyalarning qoplanish hisob-kitobida vaqt omili diskontlash usulini qoʻllash orqali amalga oshiriladi. Bu xoʻjalik subyektining joriy va istiqboldagi manfaatlari birligini buzuvchi xususiyat boʻlib, innovatsion faoliyat bilan shugʻullanish istagiga salbiy ta'sir koʻrsatadi.
3. Rejalashtirilgan natijalarga erishishda noaniq unsurlar, xavfning mavjudligi. Jahon tajribasidan ma'lumki, mehnat va vositalar sarflari izlanish tavsifiga ega boʻladi va amalga oshiriladigan sarflarni qoplab, foyda keltiradigan mahsulotlar koʻrinishiga ega boʻlmaydi.
4. Ilgʻor innovatsiyalarning kichik foizlar tashkil etishi, bunda ilgʻor innovatsiyalar nafaqat oʻzi uchun, shuningdek, omadsiz gʻoyalar uchun sarflarni qoplaydi.
5. An'anaviy ishlab chiqarish faoliyati bilan shugʻullanuvchi boʻlimlar moliyaviy koʻrsatkichlari yomonlashuvining oldini olish uchun alohida budjet zarurati.
6. An'anaviy faoliyatdan farq qiluvchi innovatsion faoliyatni baholash mezonlarining qoʻllanilishi. Masalan, "foydaning yillik oʻsishi" mezonini har doim qoʻllab boʻlmaydi, chunki innovatsion

mahsulot yaqin uch-to‘rt yilda hech qanday foyda bermasdan, uzoq muddatli istiqbolda foyda keskin ko‘tarilib ketishi mumkin.

7. Barcha eskirgan vositalardan tizimli ravishda voz kechish, bu esa o‘z navbatida resurslarni yangi ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun bo‘shatish imkonini beradi.

Innovatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun zarur sharoitlar quyidagilar hisoblanadi:

- zarur jarayon sifatida qaraladigan yangiliklarni izlash va o‘zlashtirishni rag‘batlantiruvchi ma’qul sharoitni yaratish. Innovatsion bo‘g‘inlarda faoliyat yuritadigan ishlovchilarni rag‘batlantirish innovatsion jarayon iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilmog‘i lozim;

- innovatsion faoliyatning nufuzli yo‘nalishlarini strategik reja asosida aniqlash lozim, bunda innovatsiyalarni tashkil etishda yetakchi rolni yuqori boshqaruv rahbariyati o‘ynaydi;

- butun innovatsion faoliyatni bozor ehtiyojlariga yo‘naltirish;

- innovatsion tuzilmalarni rivojlantirishni hisobga olgan holda korxonaning boshqaruv tizimini qayta tashkil etish.

Davlat innovatsion siyosatining tadbirlari raqobatni rag‘batlantirish, jamiyatni xabardor qilish, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlash hamda standartlash kabilarni qamrab olishi zarur. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bevosita va bilvosita usullarda amalga oshiriladi.

Davlat innovatsion faoliyatning tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, me’yoriy-huquqiy kabi barcha tartibga solish usullaridan keng foydalanishi lozim. Davlat tomonidan innovatsion faoliyatni tartibga solishning tashkiliy omillari quyidagilardan iborat:

- respublika miqyosidagi va hududiy innovatsion dasturlarga kiritilgan innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

- innovatsion infrastruktura taraqqiyotiga ko‘maklashish;

- innovatsion faoliyatda kadrlar masalasini qo‘llab-quvvatlash;

- innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlarni taiyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- innovatsion faoliyatni informatsion qo‘llab-quvvatlash, jumladan, innovatsion sohada davlat siyosatining jihatlari to‘g‘risidagi

axborotlar, tugallangan ilmiy-texnik tadqiqot to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, bajariladigan va tugallangan innovatsion loyihalar va dasturlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar olish borasida erkinlikni ta’minlash.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning moliyaviy omillariga quyidagilar kiradi:

- innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni ta’minlovchi budjet siyosatini yuritish;
- davlat mablag‘larini innovatsion sohaga yo‘naltirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim, ammo xususiy investorlar uchun manfaatli bo‘lmagan innovatsion dasturlar va loyihalarni amalga oshirish uchun davlat investitsiyalarini ajratish;
- innovatsion sohada ijobiy investitsion muhitni shakllantirish;
- innovatsion faoliyatda qatnashuvchi milliy va xorijiy investorlarga dotatsiyalar, imtiyozli kredit va kafolatlar berish;

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning me’yoriy-huquqiy omillari quyidagilardan iboratdir:

- innovatsion faoliyat subyektlarining o‘zaro aloqalarini tartibga soluvchi huquqiy asoslarni yaratish;
- innovatsion faoliyat subyektlarining manfaatlari va huquqlari himoyasini kafolatlash, jumladan, innovatsion faoliyat taraqqiyoti uchun zarur hisoblanuvchi intellektual mulk himoyasini ta’minlash.

Innovatsion faoliyat subyektlari, shuningdek, ular bilan innovatsion jarayonning boshqa ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni me’yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solish shartnomalar asosida amalga oshiriladi, jumladan:

- ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarni bajarish borasidagi shartnomalar;
- loyiha va qidiruv ishlarini bajarish shartnomalari;
- qurilish, pudrat ishlari bo‘yicha shartnomalar;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar;
- innovatsion xatarlarni sug‘urtalash bo‘yicha shartnomalar;
- investorlar bilan shartnomalar.

Innovatsion faoliyatni tartibga solish quyidagilarga tayanilgan holda amalga oshiriladi:

- innovatsion prognozlar;
- innovatsion strategiyalar;
- innovatsion dasturlar;
- innovatsion loyihalar.

O‘zbekiston davlat budjeti mablag‘laridan foydalanish ilmiy-texnik siyosatning asosiy moliyaviy vositalaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat taraqqiyoti nafaqat alohida korxona darajasida, shuningdek, integratsiyalashgan tashkilotlar va hatto mamlakat miqyosida samarali moliyalashtirish tizimini talab qiladi. Faqat shundagina mablag‘larni jamg‘arish va ularni sarflash uchun zarur sharoitlar yaratilishi va ularni aniq yo‘nalishlarga qaratish imkoniyati tug‘ilishi mumkin.

13.2. Mamlakatda fan sohasida siyosat va uning asosiy yo‘nalishlari

2016-yil 30-dekabrda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvida qayd etilganidek, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bugun jahonning yetakchi universitetlari, ilmiy markazlari va fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada mustahkamlashni zamonning o‘zi talab qilmoqda. Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o‘zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi. Kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi.

Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Bu boradagi ishlar bugun izchil va tizimli davom etmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish va rag‘batlantirish to‘g‘risidagi farmonida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning o‘rnini yanada mustahkamlash, akademiklar faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, yuqori mala-

kali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag‘batlantirish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar belgilangan[89].

Prezidentimiz Farmonida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning o‘rnini yanada mustahkamlash, akademiklar faoliyatini har tomonlama kuchaytirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag‘batlantirish kabi qator muhim chora-tadbirlar belgilandi.

Agar iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy etgan davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, bu yuksalish zamirida ilm-fanni tubdan rivojlantirish turganiga guvoh bo‘lamiz. Misol uchun, Yaponiyani olaylik. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng “Kunchiqar yurt” judayam og‘ir ahvolga tushib qolgan edi. O‘sha vaqtda bu o‘lkada asosiy e’tibor insonning boshini “to‘ydirish”, ya’ni unga kuchli bilim berishga qaratildi. Natijada ilm-fan taraqqiyotiga ajratilgan sarmoya bugungi kungacha o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatib kelyapti. Bugun ilm-fanga qaratilayotgan e’tibor ham uzoqni ko‘ra bilish, yorug‘ kelajak sari tashlangan qadamdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan bo‘lgan muloqotida ko‘p masalalar muhokama qilinib, taklif va mulohazalar o‘rtaga tashlandi, ya’ni quyidagi dolzarb masalalar tilga olindi:

1. Mamlakatimizda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e’tirof etilgan olimlar ko‘pligi, ular o‘z maktablarini yaratishi, shogirdlar tarbiyalashi lozim.

2. Jahonning yetakchi institutlari, ilmiy markazlari va Fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirish. O‘zbek olimlari juda ham katta zaxira to‘plaganlar, uni rivojantirish zarur.

3. Yuqori salohiyatga ega kadrlar tayyorlash masalasini takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuqori malakali mutaxassislar, dunyo darajasidagi yangi olimlar avlodini tayyorlash darkor.

4. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Aynan ular orqali yangi bilimlar o‘zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar hamda innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi.

5. Ilm-fan iqtisodiyotning barcha tarmog‘i taraqqiyotida katta o‘rin tutadi, davlat esa bu yo‘lda, avvalo, olimlarga suyanadi. Chun-

[89] Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. // “Xalq so‘zi”, 2016-yil 31-dekabr

ki ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasida integratsiya bo‘lishi – dolzarb masala.

O‘zbek xalqining tarixiy-madaniy va intellektual merosini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash hamda ko‘paytirish, shuningdek, yosh avlodni umuminsoniy va milliy an’analar hamda qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish zarur. Ta’kidlash kerakki, mazkur masala davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-yanvardagi kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida, Fanlar akademiyasi a’zolari bilan o‘tkazgan uchrashuv va muloqoti davomida bu borada asosan ikkita asosiy vazifani hal etish lozimligini bayon etdi:

1. Ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg‘or xorijiy markazlar darajasida va olimlarning talablariga muvofiq, sezilarli ravishda mustahkamlash kerak. Bunda, albatta, davlatning ehtiyojlari va uning maqsadli vazifalari inobatga olinishi shart.

2. Akademiklarni har taraflama qo‘llab-quvvatlash, jumladan, moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ilm-fan sohasida to‘planib qolgan muammolarni hal etishga qaratilgan keng ko‘lamli aniq maqsadli ishlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Mazkur qaror munosabati bilan zamonaviy talablar asosida Fanlar akademiyasining asosiy vazifa va faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

1. Ilmiy tadqiqot infratuzilmasini yanada mustahkamlash maqsadida Fanlar akademiyasi tarkibida bir qator ilmiy-tadqiqot muassasalari tashkil qilinib, qator muassasalar Fanlar akademiyasi tarkibiga qaytarildi. Bu esa turli fan tarmoqlari bo‘yicha mavjud ilmiy salohiyatni mujassamlantirib ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish imkoniyatini beradi;

2. Fanlar akademiyasi boshqaruv apparati tashkiliy tuzilmasi

yanada takomillashadi. Uning tarkibida fizika-matematika, texnika fanlari, kimyo-biologiya fanlari, ijtimoiy-gumanitar fan bo‘limlari, Fanlar akademiyasining Navoiy bo‘limi tashkil etilmoqda.

3. Fanlar akademiyasining Qoraqalpog‘iston va Navoiy bo‘limlari, Xorazm Ma’mun akademiyasi raislari mavqei akademiya vitse-prezidenti darajasiga tenglashtirildi.

4. Ilmiy-tadqiqot muassasalarining xo‘jalik va tadbirkorlik faoliyatidan tushgan sof foydaning 10 foizi ajratmalari hisobidan shakllanadigan, salmoqli natijaga erishgan FA ilmiy xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armasi tashkil etilmoqda.

5. O‘zbekiston Bosh vaziri rahbarligida Fan va texnologiyalar bo‘yicha davlat komissiyasi tuzilib, uning zimmasiga ilmiy-texnika sohasida yagona davlat siyosati ishlab chiqilib, uning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi tashkil etilmoqda.

6. Fan va texnologiyalar bo‘yicha davlat komissiyasi qoshida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan ilmiy-texnik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilib, quyidagi maqsadga yo‘naltirilmoqda:

1) ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarida yangi tipdagi va zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan laboratoriya tashkil etilmoqda;

2) olimlarimiz tomonidan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini chet elda ro‘yxatdan o‘tkazish xarajatlarini qoplaydi;

3) zamonaviy laboratoriyalarni ilmiy asbob va uskunalar bilan uzluksiz ta’minlaydi;

4) ilmiy tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarining jahondagi yetakchi ilmiy elektron ma’lumotlar bazasidan erkin foydalanishi uchun sarflanadi;

5) yosh olimlarning yetakchi xorijiy ilmiy markazlardagi qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarini moliyalashtiradi[90].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasida quyidagi masalalar aks ettirildi:

1) ilmiy-tadqiqot muassasalarining innovatsion infratuzilmasini

[90] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Xalq so‘zi, 2017-yil 18-fevral.

rivojlantirish, istiqbolli sohalarda kichik innovatsion korxonalar, texnologiyalarni tashkil etish (biotexnika, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati, elektronika, robot texnikasi, metallurgiya, nanotexnologiya);

2) intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni (mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, ixtirolarga oid huquqlar va boshqalar) buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, shuningdek, bu sohadagi davlat nazoratini kuchaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Bu farmonga muvofiq fan nomzodi va doktorlik ilmiy darajasini berish masalasi qayta ko'rib chiqildi.

Umuman, iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyotini ta'minlash ilm-fanning rolini kuchaytirishda amalga oshirilayotgan tizimli ishlarning davomi bo'lib, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi[91].

Umuman, xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi jahon talablari darajasida, yuksak ma'naviyat zaminida qurilib, davlat ta'lim standartlari va tegishli ta'lim dasturlari bilan ta'minlandi. Uzluksiz ta'lim tizimi umumdavlat dasturlari, maktabgacha tarbiya, boshlang'ich, umumiy va maktabdan tashqari ta'lim asosida amalga oshirilmoqda. Endilikda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash siyosatini rivojlantirish hamda uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida qilinayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim sifatini yuksaltirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish, fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganishga yangicha yondashuv yuksak taraqqiyot garovi hisoblanadi. Kasb-hunar kolleji talabalarini bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish davlatimiz va jamiyatimiz, mahalliy hokimiyatlarning e`tibor markazida turibdi. Shuningdek, ta'lim va o'qitish sifatini baxolashning xalqaro standartlariga o'tishda oliy ta'lim mussasalari faoliyati va samaradorligini oshirish taqozo etilmoqda. Ilm-fan

[91] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, // Xalq so'zi, 2017 yil 8 fevral.

taraqqiyotining yangi bosqichi, yangi fan, ilmiy tadqiqot, innovatsion yutuqlarni rag‘batlantarish va ularni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlari yaratilmoqda.

Dunyoda ilmiy-texnik salohiyat tez sur’atlarda rivojlanish bilan bir qatorda ishlab chiqarishning asosiy omillarini intellektualizatsiya qilish o‘sib bormoqda. Innovatsiyalarni joriy etish iqtisodiy o‘sishning va bozorning raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim omiliga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, barcha jabhalarda innovatsiyalar sohasidagi ilg‘or ilmiy ishlanmalar va texnik yutuqlardan samarali foydalanishni hamda hozirgi iqtisodiy salohiyatning raqobatbardoshligini mustahkamlashni talab etmoqda. Shundan kelib chiqqan holda bugun ko‘plab davlatlar tomonidan ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga katta miqdorda investitsiyalar yo‘naltirilmoqda.

Jahon iqtisodiyotida inqiroz sharoitlarida korxonalar va ilmiy jamoalarga ajratilayotgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi birinchi o‘ringa chiqadi. Shu maqsadlarda Yevropa Ittifoqi davlatlarida har yili “Yevropa innovatsiyalar tablosi” (European Innovation Scoreboard-EIS) nashr etiladi. Faoliyat ko‘rsatuvchilar muhitini tahlil qilish usuli asosida bir qator Yevropa Ittifoqi davlatlari uchun texnik samaradorlik ko‘rsatkichlari hisoblab chiqilgan. Olingan natijalar asosida barcha davlatlar 4 guruhga birlashtirilgan: innovatsion lider davlatlar; innovatsion izdoshlar; mo‘tadil innovator bo‘lgan mamlakatlar; orqada qolgan davlatlar.


Ushbu usul yordamida quyidagi ko‘rsatkichlar tahlil qilib boriladi:

- YIMning ilmiy intensivligi;
- bir million aholiga to‘g‘ri keladigan olimlar soni;
- ta’lim sohasiga qilingan xarajatlar, YIMga nisbatan %;
- patent olish uchun topshirilgan milliy arizalar soni;
- yuqori texnologiyali eksport, sanoat eksportiga nisbatan %;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalari eksporti, jami eksportga nisbatan %.

AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan xarajatlardan samarali foydalaniladi. Shu bilan bir vaqtda iqtisodiyotning o‘tish davridagi davlatlar esa ushbu mablag‘lardan samarasiz foydalanilmoqda.

Umuman olganda hozirgi davrda innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini belgilaydigan hal qiluvchi omil – bu ilmiy tadqiqot va prinsip jihatidan yangi mahsulot turlarini yaratish uchun ishlanmalar natijalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan mamlakatning innovatsion muhitini shakllantirish va rivojlantirish, mahsulotlarni ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini yaratish va ishlatish hamda keyinchalik bozorda joriy etish va realizatsiya qilishdir.


2021-yil davomida O‘zbekiston Respublikasida bir ming ikki yuzdan ortiq tashkilotlar tomonidan 4290 ta innovatsiyalar joriy qilingan. Bunda joriy qilingan innovatsiyalarning aksariyati, ya’ni 4011 tasi korxonalar faoliyatiga yangi, samarali texnologiyalarni jalb qilish orqali modernizatsiya qilishga qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa respublikamizda innovatsiyalarni tatbiq etish, asosan, xorijdan mashina va uskunalarni import qilish hisobiga amalga oshirilayotganligini anglatadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar bilan band bo‘lgan xodimlar soni so‘nggi 16 yil davomida sezilarli o‘zgarmagan.



13.1-rasm. O‘zbekistonda 2002-2022-yillarda ilmiy-tadqiqot va tajriba-kontsruktorlik ishlari bilan band bo‘lganlar soni[92]

[92] Innovatsiyalar iqtisodiyoti: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.A. Abduvoxidov, O.T. Sattorqulov,

Bugungi kunda mamlakatning innovatsion faoliyatini baholovchi yana bir muhim koʻrsatkichlardan biri boʻlgan innovatsiyalarga qilingan xarajatlar Oʻzbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,1 %ni tashkil etmoqda. YUNESKO statistika institutining ma'lumotlariga koʻra, 2018-yilda Isroil Respublikasida ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga sarflangan mablagʻlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4,94% ni tashkil etadi, Avstriyada bu koʻrsatkich YIMga nisbatan 3,17% ni, AQShda 2,83 % ni, Fransiyada 2,2% ni, Buyuk Britaniya va Kanadada 1,7% va 1,56 % ni, Rossiya Federatsiyasida esa 0,98% ni tashkil etmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarning aksariyatda bu yoʻnalishga sezilarli darajada kam mablagʻlar ajratiladi. Bir million aholiga toʻgʻri keladigan tadqiqotchilar soni boʻyicha ham rivojlangan davlatlar rivojlanayotgan davlatlardan ancha ilgarilab ketganligini koʻrishimiz mumkin. Xususan, Shvetsiyada bir million aholiga 7536 nafar tadqiqotchi toʻgʻri keladi, Ispaniyada ushbu koʻrsatkich 3000 nafarni, Germaniyada 5211 nafarni, Fransiyada 4715 nafarni,



13.2-rasm. Dunyo mamlakatlarida ITTKIga xarajatlar[93], YIMga nisbatan %da


Buyuk Britaniyada 4603 nafarni, Ukrainada 988 nafarni, Rossiya Federatsiyasida 2784 nafarni, Qozogʻistonda 666 nafarni tashkil et-

N.H. Olimova, S.M. Ismoilova, S. V. Mamamjonova D. B. Eshpoʻlatov. Guliston, Ziyo nashriyoti, 2023.- 550 b.

[93] Innovatsiyalar iqtisodiyoti: oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun darslik / A.A. Abduvoxidov, O.T. Sattorqulov, N.H. Olimova, S.M. Ismoilova, S. V. Mamamjonova D. B. Eshpoʻlatov. Guliston, Ziyo nashriyoti, 2023.- 550 b.

gan bo‘lsa, Avstriyada 5733 nafarni va O‘zbekiston Respublikasida esa 476 nafarni tashkil etmoqda[94].

Innovatsiyalar to‘g‘risida turli xil fikrlar mavjudligi bois bu to‘g‘risida juda ko‘p gapirish mumkin. Shu asnoda bir savol tug‘ilishi tabiiy: innovatsiya tushunchasini nimani anglatadi, innovatsiyalar qachondan boshlab hayotimizga kirib kelgan? Bu savolga javob topish ko‘pchilikni qiziqtirsa kerak, albatta. Keling, tarixga bir nazar solaylik.



13.3-rasm. Dunyo mamlakatlarida 1 mln aholiga to‘g‘ri keladigan tadqiqotchilar soni[95]

Innovatsiya insoniyat yaratilgandan beri mavjud desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bizning ajdodlarimiz ham jamiyat hayotini o‘zgartirgan yoki oldinga siljitgan, o‘zlari yashagan davrga xos yoki bazaviy innovatsiyalar bilan shug‘ullangan. Masalan, eramizdan avvalgi 1200-yillarda temir quyish texnologiyasini yaratilishi insoniyat tarixida juda katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan. Bu jarayon esa fanning shakllanishi va u bilan shug‘ullanadigan olimlar qatlamining alohida ajralib chiqishidan ancha avval yuzaga kela boshlagan. Shuning uchun innovatsiyalarning birdan bir manbai ilm-fan deyish ham noo‘rin bo‘ladi. Industrial davrning innovatsion portlashi yuz bergan so‘nggi yuz yillikda yirik innovatsiyalarning tashabbuskorlari

[94] 2022 yilgi O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi milliy ma’ruza – Toshkent, 2022 y.
[95] Innovatsiyalar iqtisodiyoti: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.A. Abduvoxidov, O.T. Sattorqulov, N.H. Olimova, S.M. Ismoilova, S. V. Mamamjonova D. B. Eshpo‘latov. Guliston, Ziyo nashriyoti, 2023.- 550 b.

har doim ham olimlar boʻlavermagan. Ularning tashabbuskorlari, asosan, tadbirkorlar, siyosiy arboblar, arxitektorlar, rassom va musiqachilar boʻlgan. Shu oʻrinda dunyoga mashhur insonlardan biri "zamonaviy menejmentning otasi" deb tan olingan P.Drukerning innovatsiya toʻgʻrisidagi ayrim fikrlari ham ahamiyatga molikdir.

P.Druker "Ertangi kun – bu imkoniyat" degan iborani tez-tez takrorlab turgan. U kelajakdagi imkoniyatlarni prognoz qilish va unga pul mablagʻlarini sarflay olish qobiliyati kompaniyaning eng muhim xususiyatlaridan biri, deb hisoblagan. Uning fikricha, faqatgina tovarni yaratishga yoki brendni kengaytirishga yoʻnaltirilgan innovatsion jarayonlarga nisbatan umumqabul qilingan qarashlar masalaning mohiyatini aks ettirmaydi. U haqiqiy innovatsiya xaridorlarning istaklarini keskin oʻzgarishini talab etadi, deb hisoblagan.

P.Druker "...agar siz innovatsiyani nimaligini bilmasangiz, unda siz biznes bilan shugʻullana olmaysiz", – degan qat'iy fikrga kelgan. "Starbucks" kompaniyasi esa P.Druker tasavvur qilgan haqiqiy innovatsiya namunasi boʻla oladi. 1971-yilda birgina kafedan boshlab 2006-yilga kelib "Starbucks" dunyoning 37 mamlakatida 12 ming-tagacha savdo nuqtalari ega boʻlgan yirik kompaniyaga aylandi. "Starbucks" iste'molchiga faqatgina odatdagidan xushxoʻr boʻlgan bir chashka kofe taklif qilish uchungina tashkil etilmagan edi. Bu kofe chakana savdosidagi eskicha qarash edi. Kompaniya rahbariyatida kengroq koʻlamdagi fikr paydo boʻldi: "Starbucks" kafesini odamlar oʻz hayotidagi shiddatli sur'atdan dam oladigan – uy va ofis oʻrtasidagi oʻziga xos joyga aylantira olish. Boshqacha aytganda kompaniya kofe urugʻlarini maydalash, qaynatish va filtrlash kabi oddiy jarayonlar doirasidan uzoqqa chiqib ketdi va u *iste'molchilarning umid va istaklarini oʻzgartira oldi.*

P.Drukerning kelajak avlodga qoldirgan eng katta tuhfasi – bu kompaniya menejerlari va ishchilarini kelajakni qanday yaratishni oʻrgatadigan ijodiy merosidir. Piterning innovatsiyaga bogʻliq quyidagi fikri judayam katta ahamiyatga ega: tadbirkor quyidagi toʻrtta vosita yordamida boylik keltiruvchi yangi resurslarni yarata oladi:

1. Doimiy ravishdagi oʻtmishdan voz kechishga va innovatsiya uchun joy ajratishga qaratilgan ish.

2. Imkoniyatlarni doimiy izlash.

3. Ushbu imkoniyatlarni xaridorlar uchun qadrli qila olish.

4. Resurslarni strategik joylashtirish.

Bugungi kunda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) hamda Yevrostat "innovatsiya" terminiga o'zlarining talqinlarini taklif etmoqda. Unga ko'ra, **innovatsiya** – bu qandaydir yangi yoki sezilarli yaxshilangan mahsulot (tovar yoki xizmat) yoki jarayonni, marketingning yangi usullari yoki amaliyotga yangi tashkiliy usulni iste'mol uchun kiritish, ish o'rinlari yoki tashqi aloqalarni tashkil etishni namoyon qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, innovatsiyani yoki g'oyani haqiqatda amalga oshirishga olib keladigan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat faoliyati **innovatsion faoliyat** hisoblanadi.

Albatta, barcha sohalarda yangiliklarga intilish hamda raqobat kuchayib borayotgan bugungi davrda samarasiz o'tmishdan voz kechgan holda innovatsiyalarga keng yo'l ochib berish taraqqiyotning eng muhim asosi bo'lib hisoblanadi. Aynan bugun davlatimiz rahbari innovatsiyalarni jamiyatimizning barcha jabhalariga zudlik bilan tatbiq etishni talab etayotganligi ham bejizga emas. Darhaqiqat, innovatsiyalar mamlakatimizning jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishi va rivojlangan davlatlar darajasiga erishishida eng asosiy omil hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyotning real sektoriga joriy etish bo'yicha samarali mexanizm rivojlantirilmoqda.

Xususan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy hamda innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari hamda texnoparklarni tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, respublika viloyatlarida bo'lib o'tayotgan xalq bilan bevosita muloqot paytida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan barcha hududda ilm-fan salohiyatini tiklash, hududlarning kompleks rivojlanishini ta'minlashda mavjud intellektual salohiyatdan

samarali foydalanish, yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb qilish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ilmiy izlanishlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning real muammolariga yo‘naltirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy integratsiyani ta’minlash, o‘z navbatida, ishlab chiqarish korxonalari tomonidan olimlarning ilmiy-texnologik ishlanmalarini amaliyotga joriy qilish samaradorligini oshirish mexanizmlarini yaratish masalalari o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida akademik fanning ahamiyatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan keng ko‘lamli miqyosdagi aniq maqsadli ishlar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5099 sonli farmoniga muvofiq, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiyotning yuqori texnologik tarmoqlarini shakllantirish va faol rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, axborot texnologiyalari mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va buyurtmachilariga qo‘shimcha imtiyozlar va preferensiyalar berish hisobiga ushbu tarmoqda ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish, AKT mahsulotlari eksportini ko‘paytirish, shuningdek, mahalliy va xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirish maqsadida Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “Mirzo Ulugbek Innovation Center” innovatsiya markazi tashkil etildi.

Shu bilan birga, ilg‘or xorijiy tajriba, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirishni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 sonli farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojla-

nish vazirligi tashkil etildi. Ushbu farmonga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishning uzoq muddatli ssenariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishning kelajakdagi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik rejalashtirish tizimini yaratish;
- davlat xizmatlari ko‘rsatishning tartib-taomillarini maqbullashtirish va soddalashtirishni, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish;
- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ishlanmalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, shuningdek, ushbu faoliyatda iqtidorli yoshlar faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratish;
- innovatsiya faoliyati sohasida ilg‘or xorijiy (xalqaro) tashkilotlar bilan, shu jumladan, ularni nou-xau, nanotexnologiyalar va yuqori texnologik tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishning mahalliy bozoriga jalb qilish orqali hamkorlikni kengaytirish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrda qabul qilingan №PF-5185 sonli “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan, mamlakatimizda intellektual va texnologik salohiyatni oshirishning uzoq muddatli ssenariylarida asosiy yo‘nalish - innovatsiyalarni rivojlantirish, korxonalarda innovatsion faoliyat bilan faol shug‘ullanishni rag‘batlantirish ko‘rsatib o‘tilgan. Bu iqtisodiyotning ustuvor soha va tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning yangi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik milliy innovatsiya tizimini yaratish bilan bog‘liq.

Haqiqatan ham, milliy innovatsiya tizimi ilm-fan, sanoat va jamiyat o‘rtasida shunday uzviy munosabatlar tizimini shakllantiradiki, unda innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, innovatsion taraqqiyot ehtiyojlari esa ilmiy faoliyat ravnaqini belgilab beradi va rag‘batlantiradi. Shu bois barcha mamlakatlar milliy innovatsiya tizimiga tayangan holda milliy raqobat-

bardoshlikning yuqori darajasiga erishish va saqlab turish siyosatini olib borishadi.

Milliy innovatsiya tizimining birinchi kontseptual poydevori o‘tgan asrning 80-yillarida yaratilgan. Lundvall, Frimen va Nelson uning asosiy maqsadlarini ta’riflab berishgan. Ularning xulosalari zamonaviy iqtisodiyotni taraqqiy ettirishning asosiy omili biznesni rivojlantirish manfaatlaridagi innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar ekanligi, institutsionallik innovatsion faoliyat mazmuni va tuzilmasiga ta’sir qiluvchi omil hisoblanishi va ilmiy bilim iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi to‘g‘risidagi g‘oyalardan iborat bo‘lgan.

Olimlarning umumiy fikricha, milliy innovatsiya tizimini milliy chegaralar doirasida ilmiy bilimlar va texnologiyalarni ishlab chiqish va kommersiyalash bilan mashg‘ul, maqsad-vazifalari turlicha bo‘lgan tuzilmalarning, jumladan, davlat idoralarining integratsiyasi jarayoni va natijasi sifatida e’tirof etish joiz. Ular mustahkam milliy ildizlarga, an’analarga, siyosiy va madaniy xususiyatlarga ega institutlar majmuasi bilan ta’minlanadi (E.Kondrateva). G. Goldshteynning qayd etishicha, samarali milliy innovatsiya tizimini yaratishning muhim sharti – davlat undan asosiy manfaatdor bo‘lishiga, innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini har yili belgilashi va zarur resurslar bilan ta’minlashiga bog‘liqdir.

Bugun har bir mamlakat ilg‘or iqtisodiyot nazariyasiga asoslangan o‘z milliy innovatsiya tizimini yaratishga intilmoqda. Biz bir necha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning muvaffaqiyatli va kutilgan natijani bermagan tajribasini tahlil qildik. Pirovardida har qaysi mamlakatda bu tizimni rivojlantirish strategiyasi amaldagi davlat makroiqtisodiy siyosati, me’yoriy-huquqiy qonunchilik, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita davlat boshqaruvi shakllari, ilmiy-texnologik va sanoat salohiyati, ichki tovar va mehnat bozorining holati, tarixiy-madaniy rivojlanish darajasi bilan uyg‘unlikda belgilanganini aniqladik. Masalan, Isroil bugungi kunda texnologik jihatdan eng rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Har bir g‘oyani amalda ishlaydigan, doimiy va yuqori daromad keltiradigan texnologiyaga aylantirish bu yerdagi biznes uchun an’anaga aylangan. Isroil innovatsiyalar rivojiga sharoit yaratish bo‘yicha Global In-

novation Index – 2017-reytingida 17-oʻrinni egalladi. U bir paytlar parchalanayotgan sobiq SSSRdan koʻplab malakali mutaxassislarni qabul qilib, ilmiy-texnik jihatdan jadal ilgarilab ketdi. 1989-90-yillarda bu mamlakatga 200 mingdan ortiq muhandis va olim koʻchib kelgan.

Isroilning rivojlanganlik darajasini quyidagi faktlar bilan tavsiflash mumkin:

- unda har yili 15-20 ta yangi nanotexnologiya yaratiladi va oʻzlashtiriladi, ular orasida ekologik jihatdan xavfsizlari ham bor. Bu ilm-fan va innovatsiyalarga xarajatlar yuqoriligi (mamlakat YIMning 4,4 foizi atrofida) bilan bogʻliq;
- aholisining malakaviy maʼlumoti boʻyicha Isroil dunyoda AQSh va Kanadadan keyin uchinchi oʻrinda turadi;
- ilmiy unvonlarga ega xodimlar barcha ishlovchilarning 25 foizini tashkil etadi;
- har ming kishining 145 nafarini olimlar tashkil qiladi. Bu koʻrsatkich Yaponiyada 70 tadan, AQShda 85 tadan oshmaydi;
- har ming kishiga 109 sahifa ilmiy ish toʻgʻri keladi;
- aholi jon boshiga berilgan patentlar soni boʻyicha Isroil dunyoda birinchi oʻrinda;
- mamlakatda aholi umumiy soniga nisbat boʻyicha qaralsa, dunyodagi eng koʻp startaplar toʻgʻri keladi. Isroil yuqori texnologik va innovatsion kompaniyalar soni boʻyicha AQShdan keyingi yetakchi oʻrinni band etgan. Unda har kuni 12 ta, yil davomida 4000 dan ziyod shunday kompaniyalar paydo boʻladi;
- Isroil, AQShdagi Silikon vodiysini istisno etganda, dunyodagi yuqori texnologik kompaniyalarning eng katta konsentratsiyasiga, yaʼni zich joylashuviga ega;
- Isroil AQShdan keyin NASDAQ birjasida kotirovkanadigan kompaniyalarning eng koʻp soniga ega;
- Isroil bir innovatsion korxonaga davlat tomonidan kiritiladigan investitsiyalar hajmi boʻyicha jahonda AQShdan keyin ikkinchi oʻrinda;
- u aholi jon boshiga yangi ochilgan biotexnologik kompaniyalar soni boʻyicha ham eng yuqori foizga ega;
- Isroil tadbirkorlik rivojlanishi boʻyicha jahonda uchinchi oʻrinni

zabt etgan. Unda ayollar, 55 yoshdan oshganlar soni bo‘yicha birinchi o‘rinni egallaydi;

- Isroil kosmik kemalarni Sharqdan G‘arbga, ya’ni Yer aylanishiga qarama-qarshi yo‘nalishda uchira oladigan yagona davlatdir. Bu raketalarning dushman qo‘shni hududlar ustidan uchib o‘tishini istisno etish imkonini beradi.

Umuman, innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyot Isroilga mintaqadagi eng yuqori turmush darajasini ta’minladi. Aholi jon boshiga YIM 2014-yili 28,4 ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Isroilda turli sohalarda texnologiyalarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi sanoat kompaniyalari va universitetlar konsorsiumlarini moliyalashtiradigan talay jamg‘armalar, davlat dasturlari, infratuzilmalar mavjud. Sirasini aytganda, bu zamindagi innovatsiya tizimi olim va muhandislarga o‘z kashfiyotlari asosida kichik firma ochishlari, keyinchalik ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini, ya’ni o‘z innovatsion mahsulotlarini bozorda sotishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratgan. Biz boshqa mamlakatlar tajribasini o‘rganish nihoyasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishda juda muhim rol o‘ynaydi.

2. Uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni, asosan, mehnat unumdorligining o‘sishini ta’minlaydi. O‘z navbatida, bu o‘sish faqat innovatsiyalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi. Bizning hisob-kitoblarimiz bo‘yicha O‘zbekistonda mehnat unumdorligi taxminan 10,97 dollarga teng. Bu Norvegiya va Lyuksemburg ko‘rsatkichlaridan 7 baravar, AQShdagidan 6 baravar, Turkiyadagidan 3 baravar, Rossiyanikiga nisbatan 2 baravar kam demakdir.

3. Mamlakatda qulay tadbirkorlik muhitini yaratmay, samarali innovatsion rivojlanishga erishish mumkin emas.

4. Qulay tadbirkorlik muhitini shakllantirmasdan innovatsiya loyihalarini davlat tomonidan moliyalashtirishni kuchaytirish past samaradorlik koeffitsiyentiga ega bo‘ladi.

5. Milliy innovatsiya tizimi yaratilishi ilmiy tadqiqotlarning kommersiyalashishi uchun qulay sharoitlar shakllanishiga olib keladi.

6. Innovatsiya tizimlarini tashkillashtirish va ularning amal qilish prinsiplari xorijiy mamlakatlarda rivojlanish modellariga qarab, har

xil darajada farqlanadi. Mavjud tizimlarni o‘zimizga ko‘r-ko‘rona ko‘chirish kutilgan samarani bermaydi. Yaxshisi, o‘sha davlatlarda bu institutlar uyg‘un ishlashini va o‘zaro aloqalarni o‘rnatish mexanizmini o‘rganish kerak.

7. Muvaffaqiyatli innovatsion rivojlanishning bosh omili iqtisodiyotga yangi texnologiyalarni singdirish qobiliyati (absorbtion ability) bo‘lib, bu innovatsiyani o‘zlashtirish va qo‘llash uchun qulay muhit yaratilishidan dalolat beradi.

8. O‘zbekiston Milliy innovatsion tizimiga juda o‘xshash tuzilmaga ega Belarus milliy innovatsiya tizimi tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik sektoriga tadqiqotlar olib borish uchun budjet mablag‘larini ajratish innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishda tez natija beradi.

9. Qozog‘iston tajribasidan ma’lum bo‘lishicha, moliyalashtirishning venchurli mexanizmini joriy etish murakkab vazifa bo‘lib, jiddiy harakatlarni, o‘zgarishlar va vaqtni talab etadi.

10. AQShning ushbu yo‘nalishdagi tajribasi yuqori ichki raqobat iqtisodiyotda o‘z-o‘zidan innovatsiya korxonalari mustaqil ravishda paydo bo‘lishiga olib kelishini, yuqori malakali mutaxassislar (ya’ni, universitetlar) qulay makon (laboratoriyalar, ilmiy-tadqiqot institutlar)da va qulay muhit (innovatsion klasterlar)da barakali ishlashini va innovatsiyalarni rivojlantirishini isbotladi.

11. Yevropa Ittifoqida shuni ko‘rish mumkinki, faol moliyalashtirish (YIMning kamida 3 foizi miqdorida) innovatsiya salohiyatini, unga a’zo mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishini kuchaytirdi.

12. Germaniya tajribasi bilvosita qo‘llab-quvvatlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarishdan samaraliroq bo‘lishini, ilm-fan, ishlab chiqarish va bozorning integratsiyalashuvi mamlakat innovatsiya tizimi elementlari hamkorligining eng samarali shakli ekanligini, har bir investitsiya innovatsion yo‘naltirilgan bo‘lishiga harakat qilish kerakligini ko‘rsatdi.

13. Buyuk Britaniya tajribasiga qaraganda, hozirgi iqtisodiyotda fanlararo tadqiqotlar va ishlanmalarning natijadorligi tor yo‘nalishli loyihalarnikiga nisbatan yuqoriroqdir.


14. Finlyandiya tajribasiga asoslansak, siyosatni tubdan o‘zgar-

tirib, mamlakatni taraqqiyotning innovatsiya yoʻliga burish qisqa fursatda uni dunyodagi yetakchi iqtisodiyotlardan biriga aylantirishi mumkin.

15. Isroil innovatsion mahsulotlarni kommersiyalashtirish va bozorga chiqarish uchun eng qulay sharoitlar yaratgan mamlakatdir.

Xulosalar va rivojlangan mamlakatlar tajribasini oʻrganish asosida biz iqtisodiyotni innovatsion yoʻl bilan uzoq muddatli rivojlantirish, 2017-2021-yillarga moʻljallangan Harakatlar strategiyasining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yoʻnalishlari"da belgilangan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish, ma'muriy islohotlar konsepsiyasida tasdiqlangan "Davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion gʻoyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish"ga qaratilgan davlat siyosatini qadam-baqadam izohlab beradigan konsepsiya ishlab chiqilgan boʻlib, u 10 ta pogʻonadan iborat. Dastlabki beshta pogʻona iqtisodiyotda innovatsiyalar uchun qulay muhitni shakllantirish zarurligini koʻrsatadi. Bu vazifalar ado etilgan taqdirdagina innovatsion taraqqiyot uchun qulay muhit yaratish, shunda Oʻzbekistonda innovatsiyalarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash samara berishi mumkin (13.4-rasm).

Qulay muhitni ta'minlashdan tashqari, innovatsiya siyosatining uzviy tarkibiy qismi boʻlmish ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni toʻgʻridan-toʻgʻri moliyalashtirish ham muhim hisoblanadi.



13.4-rasm. O‘zbekistonda milliy innovatsion tizim va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari[96]

Faol moliyaviy qo‘llab-quvvatlash siyosati davlat uchun jozibaliroq. Chunki u aniq o‘lchanadigan natijalarga tezroq erishishini ko‘zlaydi. Jozibali muhitni yaratish esa unga nisbatan uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, murakkab tizimlashtiriladi va unda kim aniq naf oluvchi ekanini oldindan bilib bo‘lmaydi. Hozirda muhokamada bo‘lgan “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida innovatsion siyosat 5 yil muddatga tasdiqlanuvchi Milliy innovatsion tizimni rivojlantirish davlat dasturi orqali amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

[96] Innovatsiyalar iqtisodiyoti: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.A. Abduvoxidov, O.T. Sattorqulov, N.H. Olimova, S.M. Ismoilova, S. V. Mamamjonova D. B. Eshpo‘latov. Guliston, Ziyo nashriyoti, 2023.- 550 b.

13.1-jadval

O‘zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish konsepsiyasi[97]

Bosqichlar	Yo‘nalishlar	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar
1-pog‘ona	Institut-larning amal qilishi	Respublika iqtisodiyotida bazaviy shart-sharoitlarni yaratish maqsadida jamoat, siyosiy va iqtisodiy institutlarning samarali ishlashi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: - o‘zgarmas soliq stavkalari va oddiy soliqqa tortish tartibi; - korxonalar innovatsiya faoliyatini imtiyozli soliqqa tortish; - mulk huquqini muhofaza qilish; - investorlar huquqini himoyalash; - intellektual mulkni himoya qilish; - eksportni qo‘llab-quvvatlash; - sifatli bank xizmati; - hukumatning barqaror siyosati va hokazolar.
2-pog‘ona	Sifatli ta’lim	Aholining intellektual salohiyatini yuksaltirish uchun sifatli ta’lim tizimini ta’minlash quyidagilar orqali tadqiqotlarga sharoitlar yaratadi: - ta’limga yuqori xarajatlar; - zamonaviy ta’lim standartlari; - xalqaro hamkorlikni rivojlantirish; - malaka oshirish va xususiy ta’lim markazlarini rag‘batlantirish; - texnik mutaxassislar va muhandislarni ko‘proq tayyorlash.
3-pog‘ona	Tadbirkorlik madaniyati	Aholi, olimlar va tadqiqotchilar orasida quyidagilar orqali tadbirkorlik madaniyatini oshirish: - innovatorlarning tadbirkorlik tashabbusini amalga oshirishlarini qo‘llab-quvvatlash; - olimlar va tadqiqotchilarning tadbirkorlik bilan bandligini ta’minlash; - biznes yuritishda huquqbuzarliklar uchun qonuniy javobgarlikning yumshoqligini ta’minlash; - aholi o‘rtasida tadbirkorlik va innovatsiya jarayonlarini faol targ‘ib qilish.
4-pog‘ona	Rivojlangan infratuzilma	Tadbirkorlik faoliyatini yuritishni yengillashtirish uchun rivojlangan infratuzilmani yaratish: - yuqori tezlikdagi Internet va aloqadan foydalanish; - muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarining elektr ta’minoti, gaz ta’minoti, texnik va ichimlik suv ta’minoti uzluksizligini ta’minlash; - avto va temir yo‘llardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; - sifatli logistika xizmatlari.

[97] Innovatsiyalar iqtisodiyoti: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.A. Abduvoxidov, O.T. Sattorqulov, N.H. Olimova, S.M. Ismoilova, S. V. Mamamjonova D. B. Eshpo‘latov. Guliston, Ziyo nashriyoti, 2023.- 550 b.

5-pog‘ona	Rivojlangan bozorlar	Quyidagi imkoniyatlar mavjud ichki raqobat rivojlangan bozor: - kreditlar va venchur moliyasidan foydalanish; - bozorda innovatsion ishlanmalarni kommersiyalash; - iqtisodiyotda klasterlar rivojlangani; - yaxshi rivojlangan mehnat bozori; - ko‘chmas mulk va tijorat binolari ijarasi rivojlangani; - valyuta va fond bozorining ishlashi.
6-pog‘ona	Ilm-fanning davlat tomonidan moliyalashtirilishi	Ilmiy-texnik yutuqlarimizni erishilgan darajada saqlab turish va yanada oshirish maqsadida ilm-fan va fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish: - tadqiqotlar uchun grantlar ajratish; - ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta’lim muassasalari ilmiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida subsidiyalar ajratish; - fanlararo tadqiqotlar faol olib borish; - olimlar va tadqiqotchilar o‘rtasida xalqaro tajriba almashinuvini rag‘batlantirish.
7-pog‘ona	Innovatsiya ishlanmalarining davlat tomonidan moliyalashtirilishi	Umumiy tovarlar, ish va xizmatlar hajmida innovatsion mahsulotlar ulushini oshirish uchun tajriba-konstruktorlik faoliyatini va innovatsion korxonalar ishlanmalari kommersiyalashuvini moliyalashtirish: - innovatsion ishlanmalar va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etishning davlat tomonidan moliyalashtirilishi; - kreditlarga garov sifatida kafolatlar berish; - strategik muhim loyihalarni amalga oshirish uchun soliq imtiyozlari berish; - innovatsion yangi mahsulotlar ishlab chiqarishning dastlabki bosqichlarida ularga talabni saqlab turish uchun davlat xaridini ta’minlash; - davlat venchur fondlarini tashkil etish hamda xususiy fondlar investitsiyalarini riskdan kafolatlash fondini tashkil qilish.
8-pog‘ona	Innovatsion faollik	Qulay muhit shakllantirilishi va innovatsiyalarni faol moliyalashtirish natijasida: - O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion faolligi oshadi; - mehnat unumdorligi ko‘tariladi; - milliy va xalqaro patentlar berish ko‘payadi; - innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanadigan korxonalar safi kengayadi; - tadqiqotlar va ishlanmalar bilan band kishilar soni oshadi.
9-pog‘ona	Siyosat natijasi	Shundan so‘ng O‘zbekistonda olib borilgan innovatsion siyosat natijasini quyidagi ko‘rsatkichlar orqali his etish mumkin: - berilgan patentlar soni; - venchurli investitsiyalar hajmi; - yuqori texnologik eksportning umumiy eksport hajmidagi ulushi; - xorijiy texnologiyalarga bog‘liqlikning pastligi; - ekologiya, sog‘liqni saqlash va aholi turmush darajasining yuqoriligi.
10-pog‘ona	Iqtisodiy oqibatlar	Shu tariqa O‘zbekiston xalqaro yuqori texnologiyalar bozoridagi yetakchilardan biriga aylanadi va turli xalqaro reytinglarda mamlakat iqtisodiyoti bo‘yicha yuqori o‘rinlarga erishiladi.

Rivojlangan mamlakatlar bu omillarni oldindan hisobga olib, o‘z pozitsiyalarini xalqaro maydonda kuchaytirish yo‘lida foydalanmoqda. Unutmaslik kerakki, innovatsion faollikni boshqalarga nisbatan oldinroq ishga tushirgan davlat doimo yutib chiqadi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Davlatning innovatsion siyosati ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo‘lib, u davlatning innovatsiyalarga munosabatini ifodalaydi, davlat hokimiyati organlarining fan, texnika va fan yutuqlarini amalga oshirish sohasidagi maqsadlari, yo‘nalishlari, faoliyat shakllarini belgilaydi.

Davlat innovatsion siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- innovatsion faoliyat uchun iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish;
- asosiy va takomillashtiruvchi innovatsiyalarni yaratish va tarqatish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish;
- innovatsion faoliyatni faollashtirish, innovatsion sohada bozor munosabatlari va tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish;
- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirishda mamlakat subyektlarining o‘zaro hamkorligini kengaytirishga ko‘maklashish;
- xalqaro bozorda mahalliy innovatsion mahsulotlarni qo‘llab-quvvatlash va O’zbekistonning eksport salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

G’arbiy Yevropa mamlakatlaridagi innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash asosan quyidagilarga qaratilgan:

- innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish;
- universitetlararo hamkorlik va firmalararo hamkorlikni rag‘batlantirish;
- intellektual mulkni himoya qilish tizimini takomillashtirish;
- axborot xizmatlarini takomillashtirish;
- monopoliyaga qarshi qonunchilikni takomillashtirish.

Yevropa davlatlari universitetlar va innovatsiyalarni iste'mol qiluvchi tijorat kompaniyalari o'rtasida vositachi vazifasini bajaruvchi hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda. Ushbu mamlakatlarda an'anaviy to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish ta'minlanadigan fanning ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash dasturlari ham mavjud. Bugungi kunda innovatsiyalarni tarqatishda klasterlashtirish siyosatidan keng foydalanilmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. Davlat innovatsion siyosatining mohiyati va uni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy vazifalarni tushuntirib bering.
2. Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish borasida to'siq bo'layotgan asosiy muammolar nimalardan iborat?
3. Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining asosiy vazifalarini sanab bering.
4. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash borasida jahonning yetakchi mamlakatlari tajribasi haqida gapirib bering.
5. Innovatsion muhit tushunchasini sharhlab bering.
6. Milliy innovatsion tizim nima?
7. Milliy iqtisodiyot darajasida innovatsion faoliyat samaradorligini belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlarni sanab bering.
9. Mamlakatimizda innovatsion faoliyatning rivojlanganlik darajasi qanday? Uni yanada rivojlantirish uchun nima ishlar qilish lozim deb o'ylaysiz?

Davlat mustaqilligini ta'minlash va mustahkamlashning birdan-bir ishonchli vositasi – bu qishloq xo'jaligidir. Dunyoning barcha boyliklariga ega bo'lsangiz-da, ammo qorin to'qlashga hech vaqongiz bo'lmasa, siz baribir kimgadir qaram bo'lasiz. Savdo boylikni yaratadi, qishloq xo'jaligi esa erkinlik va farovonlikni ta'min etadi.

Jan Jak RUSSO

XIV BOB. O'ZBEKISTONDA AGRAR IQTISODIY SIYOSAT MOHIYATI, BOSQICHLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

14.1. Mamlakatda agrar islohotlarning zaruriyati va mohiyati

14.2. Agrar islohotlarning maqsadi,tamoyillari va huquqiy asoslari

14.3. Agrar islohotlarni amalga oshirish bosqichlari. Agrar sohani rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni amalga oshirish

14.4. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari

14.1. Mamlakatda agrar islohotlarning zaruriyati va mohiyati

Mamlakatimizda 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalari ijrosiga muvofiq agrar sektorni modernizatsiyalash va intensiv rivojlantirish, qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-fevraldagi – Qishloq va suv xo'jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5330-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi negizida Qishloq xo'jaligi vazirligi va Suv xo'jaligi vazirli-

gi tashkil etildi. Ushbu vazirlikni ikkiga ajratilishi qishloq xoʻjaligi, oziq-ovqat xavfsizligi va suv iste'moli sohalarida haqiqiy holatni va rivojlanish istiqbollarini chuqur tahlil qilish asosida ularni strategik rejalashtirish siyosati boʻyicha ta'sirchan ishlarni yoʻlga qoʻyish, mazkur yoʻnalishlar boʻyicha boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Oʻzbekiston Fermerlari kengashi Oʻzbekiston Fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari kengashi sifatida qayta tashkil etildi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xoʻjaligini isloh qilish, xususan, sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar oʻrtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xoʻjaligini rivojlantirish boʻyicha uzoq muddatga moʻljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga toʻsqinlik qilmoqda. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qoʻshilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi Farmoni bilan Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga moʻljallangan strategiyasining tasdiqlanishi qishloq xoʻjaligidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

2023-yil 1-yanvar holatiga qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va

dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) soni - 53808 tani, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlarda – 49859 tani, o‘rmon xo‘jaligida – 268 tani hamda baliqchilik xo‘jaligida – 3681 tani tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p korxona va tashkilotlar Qashqadaryo viloyatida – 7742 tani yoki respublika bo‘yicha mazkur sohada faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning 14,4% ini tashkil etgan bo‘lsa, aksincha, eng kam korxona va tashkilotlar Toshkent shahrida – 1074 ta (2,0 %) qayd etildi. O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni – 7307 taga, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlarda – 6931 taga, o‘rmon xo‘jaligida – 46 taga hamda baliqchilik xo‘jaligida – 330 taga ko‘paygan (14.1-rasm).



14.1-rasm. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar[98] (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) soni

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada o‘z iste`moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo‘jaligida, o‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

[98] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023 y.

14.1-jadval


O‘zbekiston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi[99] (yanvar-dekabr, trln so‘m)

	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Jami	195,1	224,3	261,9	317,0	364,5
shu jumladan:					
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar	189,0	217,3	253,2	306,9	352,1
shundan:					
Qishloq xo‘jaligi mahsuloti	187,4	216,3	250,3	303,4	347,6
O‘rmon xo‘jaligi	5,1	5,5	6,8	7,5	9,2
Baliqchilik xo‘jaligi	1,0	1,5 2	1,9	2,6	3,2

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 364,5 trln so‘mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 352,1 trln so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – 9,2 trln so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – 3,2 trln so‘mni tashkil qildi. (14.1-jadval).

2018-2022-yillarda yalpi ichki mahsulotdagi qishloq xo‘jaligi ulushining bosqichma-bosqich qisqarish tendensiyasi saqlanib qoldi, bu tarmoqlar va xizmatlar sohasining rivojlanish salohiyatini yanada kengaytirish bilan bog‘liq. Shu bilan birga, yalpi ichki mahsulotdagi qishloq xo‘jaligi ulushining pasayishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘rtacha yillik o‘rtacha o‘sish sur’atlari fonida yuz berdi va tarkibiy islohotlar hamda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va intensiv rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga erishildi.

[99] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023 y.



14.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur’ati[100]

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,6% ni (2021-yilning yanvar-dekabr oylari mos ravishda 2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan – 104,0 %), shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 103,6 % (103,9%)ni, o‘rmon xo‘jaligi – 102,3% (103,0 %)ni, baliqchilik xo‘jaligi – 101,9% (118,0 %)ni tashkil qildi (14.2-rasm).


Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Ovchilik xo‘jaligi – ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish, shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

[100] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022 yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023 y.

O‘rmon xo‘jaligi – faoliyat turi o‘rmon resurslarini takror ishlab chiqarish va o‘rmon resurslaridan foydalanish, xususan, o‘rmonchilik, o‘rmonzorlarni barpo etish va yog‘ochni qayta ishlash tarmoqlari uchun binokorlik dumaloq yog‘ochlarini yetishtirish, shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi o‘rmon mahsulotlarini yig‘ish bilan bog‘ liq bo‘lgan soha.

Baliqchilik xo‘jaligi – baliq ovlash va suv bioresurslarini, akvakulturani saqlash, suv bioresurslaridan olinadigan baliq va boshqa mahsulotlarni yetishtirish va sotish bo‘yicha faoliyat turi.



14.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi[101], % da

2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 96,6% i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar (2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 96,8%), 2,5 % i – o‘rmon xo‘jaligi (2,4%) va 0,9% i – baliqchilik xo‘jaligi (0,8%) hissasiga to‘g‘ri keldi (14.3-rasm).

Yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulush Jizzax viloyatiga (51,9%) to‘g‘ri kelsa, aksincha, kam ulushga ega hududga Navoiy viloyatini (13,9%) keltirib o‘tish mum-

[101] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

kin. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Samarqand (43 933,0 mlrd so‘m), Andijon (37 403,9 mlrd so‘m), Toshkent (35 184,1 mlrd so‘m), Buxoro (34 102,9 mlrd so‘m), Farg‘ona (33 395,3 mlrd so‘m) va Qashqadaryo (33 384,6 mlrd so‘m) viloyatlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (12 342,0 mlrd so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (14 359,1 mlrd so‘m) va Navoiy viloyatini (16 070,5 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida, Samarqand va Andijon viloyatlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi bo‘yicha Respublikada yetakchi o‘rinlarni egallashi, mazkur hududlarning go‘sht, sut, kartoshka, sabzavotlar, uzum, meva va rezavorlar kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi. Go‘sht, sut, tuxum, kartoshka, sabzavotlar, uzum, meva va rezavorlar kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasining kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati tahlil qilinganda, yuqori o‘sish sur’atlari Namangan (104,2 %), Toshkent (104,1%), Navoiy (103,9%), Samarqand va Qashqadaryo (103,7%) viloyatlarida qayd etildi. Surxondaryo (102,5 %), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (103,3%), Sirdaryo, Xorazm va Jizzax viloyatlarida (103,4%) esa aksincha, o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi. Respublikaning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Samarqand viloyatining ulushi 12,0% ni tashkil etdi va hududlar bo‘yicha yetakchilik qilmoqda. Andijon va Toshkent viloyatlari mos ravishda 10,3% va 9,6% ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Sirdaryo viloyati (3,4%), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3,9%) va Navoiy viloyatida (4,4%) qayd etildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 347 222,0 mlrd so‘mni, o‘tgan yilga nisbatan 103,4% ni tashkil etdi.

Respublikaning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 95,3% ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichni hududlar bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, jami tarmoqqa nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yuqori ulushiga Jizzax (98,3%), Qashqadaryo (98,1%), Navoiy (97,6%), Buxoro (97,4%) va Surxondaryo (97,2%) viloyatlarini keltirishimiz mumkin (14.2-jadval).

14.2-jadval


Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi[102]

	Hajmi mlrd so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	347 222,0	103,4	95,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13 502,7	102,9	94,0
Andijon	36 105,6	103,7	96,5
Buxoro	33 212,0	103,6	97,4
Jizzax	23 601,7	103,5	98,3
Qashqadaryo	32 740,7	103,2	98,1
Navoiy	15 686,1	104,0	97,6
Namangan	26 208,5	104,8	94,6
Samarqand	41 249,8	102,3	93,9
Surxondaryo	27 239,2	104,1	97,2
Sirdaryo	11 462,3	101,8 9	92,9
Toshkent	30 568,4	102,5	86,9
Farg‘ona	31 921,5	103,7	95,6
Xorazm	23 723,5	103,3	96,4

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasining aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlarda 10 225,6 ming so‘mni, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 101,5% ni tashkil

[102] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.


etdi. Aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlardagi tarmoq umumiy hajmini mamlakatning hisobot davridagi o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisining o‘rtacha soni 2022-yilning yanvar-dekabrida 35 648,1 ming kishini tashkil etgan (14.4-rasm).



14.4-rasm. Hududlar kesimida aholi jon boshiga hisoblangan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi[103]

Hisobot davrida hududlar kesimida aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’atini tahlil qilar ekanmiz: eng yuqori o‘sish sur’atini qayd etgan hududlarga Buxoro viloyati (102,0%), Namangan viloyati (101,9%), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (101,9%), Navoiy viloyati (101,8%) va Xorazm viloyatlarini (101,7%) keltirib o‘tishimiz mumkin. Aksincha, o‘sish sur’ati past hududlarga Surxondaryo (100,2%), Jizzax (101,1%), Sirdaryo (101,3%) va Andijon (101,4%) viloyatlarini keltirib o‘tishimiz mumkin.

[103] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.




14.6-rasm. O‘zbekiston Respublikasi aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi hajmining o‘sish sur’atlarini yillar bo‘yicha dinamikasi[104]

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 347 564,4 mlrd, so‘mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 103,6% ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 179 853,4 mlrd, so‘mni (103,8%), chorvachilik mahsulotlari – 167 711,0 mlrd so‘mni (103,4%) tashkil qildi. Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (41 833,9 mlrd so‘m), Andijon (35 811,3 mlrd so‘m) va Buxoro (33 255,9 mlrd so‘m) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyatini (11 465,3 mlrd so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (13 389,0 mlrd so‘m) va Navoiy viloyatini (15 266,7 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin. Yuqori o‘sish sur’atlari Namangan (104,3%), Samarqand (103,9%), Navoiy (103,9 %) va Toshkent (103,8%) viloyatlarida qayd etildi.

Respublikadagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng katta ulush Samarqand (12,0%), Andijon (10,3%) va Buxoro (9,6%) viloyatlariga to‘g‘ri kelganligini kuzatishimiz mumkin.

[104] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.



14.7-rasm. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi[105], % da

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, dehqonchilik mahsulotining ulushi yuqori bo‘lgan hududlarga Andijon (63,3%), Farg‘ona (59,8%), Sirdaryo (59,5%), Namangan (58,3%), Samarqand (54,3 %), Surxondaryo (53,4%) va Buxoro (52,0%) viloyatlarini aksincha, chorvachilik mahsulotining ulushi yuqori bo‘lgan hududlarga Navoiy (64,5%), Qashqadaryo (59,3%), Jizzax (59,1%), Xorazm (53,9%), Toshkent (50,6%) viloyatlarini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasini (50,5%) keltirishimiz mumkin. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 62,2% i – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 31,4% i – fermer xo‘jaliklariga, 6,4% i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko‘ra, ishlab chiqaril-

[105] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

gan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida (39,5%), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (70,8%), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Toshkent viloyatida (16,5%) qayd etildi. Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Toshkent viloyatida (17,0%), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Sirdaryo viloyatida (50,3%), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Samarqand viloyatida (3,2%) kuzatildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (22 721,9 mlrd so‘m), Andijon (22 651,9 mlrd so‘m) va Farg‘ona (19 414,1 mlrd so‘m) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Navoiy viloyati (5 419,5 mlrd so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (6 631,8 mlrd so‘m) va Sirdaryo viloyatini (6 818,8 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin. Yuqori o‘sish sur’atlari Buxoro (105,2 %), Toshkent (104,8 %), Namangan va Farg‘ona (104,7 %) viloyatlarida qayd etildi.

Dehqonchilik mahsulotlari – joriy yil hosilidan olingan barcha qishloq xo‘jaligi ekinlarining mevalar va rezavorlar, uzum, ozuqa ekinlari, urug‘lik va o‘tqaziladigan ko‘chat materiallari, shuningdek, dehqonchilikda tugallanmagan ishlab chiqarish, dehqonchilikning boshqa turdagi mahsulotlari qiymatlarini o‘z ichiga oladi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 51,7% ni tashkil qildi. Respublikadagi dehqonchilik mahsulotlari tarkibini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng katta ulush Samarqand (12,6%), Andijon (12,6%), Farg‘ona (10,8%) va Buxoro (9,6%) viloyatlariga to‘g‘ri kelganligini kuzatishimiz mumkin.

2022-yilning yanvar-dekabrida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 7 994,9 ming t. donli ekinlar (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,7% ga ko‘p), 3 441,7 ming t. kartoshka (4,7% ga ko‘p), 11 163,0 ming t. sabzavotlar (2,9% ga ko‘p), 2 420,7 ming t. poliz (5,9% ga ko‘p), 2983,5 ming t. meva va rezavorlar (4,6% ga ko‘p), 1 760,6 ming t. uzum (3,9% ga ko‘p) yetishtirildi.

Fermer xo‘jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo‘jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo‘jaligi boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo‘jaligi a’zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo‘jalikdir.

Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning 78,8% i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 9,7% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 11,5% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.

14.3-jadval


2022-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari[106]

	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo‘jaliklari		dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o‘sish sur’ati % da	ming tonna	o‘sish sur’ati % da	ming tonna	o‘sish sur’ati % da	ming tonna	o‘sish sur’ati % da
Donli ekinlar	7 994,9	104,7	6 299,7	102,7	777,8	104,0	917,4	121,5
Sabzavotlar	11 163,0	102,9	4 066,9	102,7 6	6 767,1	103,0	329,0	102,5
Kartoshka	3 441,7	104,7	890,3	116,2 2	2 484,0	100,9	67,4	118,8
Poliz ekinlari	2 420,7	105,9	1 289,5	107,5	1039,2	101,9	92,0	139,7
Meva va rezavorlar	2 983,5	104,6	1 292,7	106,8 1	1 595,6	102,2	95,2	118,0
Uzum	1 760,6	103,9	795,8	105,1	920,3	102,6	44,5	107,6

[106] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

Shunga mos ravishda sabzavotlarning 36,4% i fermer xo‘jaliklariga, 60,6% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,0% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, shuningdek, kartoshkaning 25,9% i fermer xo‘jaliklariga, 72,2% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,9% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, poliz ekinlarining 53,3% i fermer xo‘jaliklariga, 42,9% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,8% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, meva va rezavorlarning 43,3% i fermer xo‘jaliklariga, 53,5% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,2% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, uzumning 45,2% i fermer xo‘jaliklariga, 52,3% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,5% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.


2022-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan donli ekinlar 7 994,9 ming tonnani, yoki 2021-yilning mos davri bilan solishtirganda 104,7% ni tashkil etdi.



14.8-rasm. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarida xo‘jalik toifalarining ulushi[107]

2021-yilga nisbatan ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda fermer xo‘jaliklarida 2,7%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 4,0% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 21,5% o‘sish qayd etildi (14.9-rasm).


[107] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.



14.9-rasm. Respublikada yetishtirilgan donli ekinlar[108]

Don ekinlarini yetishtirish bo‘yicha hududlar o‘rtasida peshqadamlikni Farg‘ona viloyati egalladi. Uning don ekinlari umumiy hajmidagi ulushi 10,8% ni tashkil qildi. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Samarqand (10,5%), Qashqadaryo (9,7%), Surxondaryo (9,1%), Andijon (8,8%) va Jizzax (8,7%) viloyatlarida qayd etildi. Umumiy hajmdagi past ulush Navoiy viloyati (3,1%) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3,6%)da kuzatildi. Yuqori o‘sish sur’atlari Farg‘ona (112,2%), Namangan (108,8%), Toshkent (108,0%), Sirdaryo (107,3%), Xorazm (106,6%) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (105,9%) qayd etildi. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan sabzavotlar 11 163,0 ming tonnani yoki 2021-yilning mos davri bilan solishtirganda 102,9% ni tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, fermer xo‘jaliklarida 2,7%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 3,0% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 2,5 % o‘sish qayd etildi (14.10-rasm).

[108] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.




14.10-rasm. Respublikada yetishtirilgan sabzavotlar[109]

Hududlar o‘rtasida sabzavot yetishtirish tarkibining asosiy qismini Andijon viloyati egallamoqda, uning ulushi 15,3% ga teng bo‘ldi. Shuningdek, yuqori ulush Samarqand (14,9%), Farg‘ona (11,0 %), Surxondaryo (10,3%) va Toshkent (9,6%) viloyatlarida qayd etildi. Past ko‘rsatkichlar Sirdaryo viloyati (2,6%) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (2,8%) kuzatildi. Yuqori o‘sish sur’atlari Buxoro (106,3%), Navoiy (105,2%), Namangan (105,1%), Qashqadaryo (104,5%) viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (104,3%), Surxondaryo (104,3%) va Jizzax (103,0%) viloyatlarida qayd etildi.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan kartoshka 3 441,7 ming tonnani, yoki 2021-yilning mos davri bilan solishtirganda 104,7% ni tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, fermer xo‘jaliklarida 16,2%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,9% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 18,8% o‘sish qayd etildi (14.12-rasm).


[109] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.



14.11-rasm. Respublikada yetishtirilgan kartoshka[110]

Kartoshka yetishtirish umumiy hajmining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (20,9%) hissasiga to‘g‘ri keldi. Bundan tashqari, Andijon (12,2%), Toshkent (10,9 %), Farg‘ona (10,5%) va Surxondaryo (10,2%) viloyatlarida ham kartoshka yetishtirishning yuqori ko‘rsatkichlari qayd etildi. Kartoshka yetishtirishning umumiy hajmidagi ulushining eng past ko‘rsatkichlari Sirdaryo (1,9%), Navoiy (2,5%) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (2,6%)ga to‘g‘ri keldi. Joriy davrda yuqori o‘sish sur’atlari Xorazm (110,8%), Samarqand (107,2%), Toshkent (107,0%), Buxoro (106,2%), Farg‘ona (105,6%) va Navoiy (105,3%) viloyatlarida qayd etildi. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan poliz ekinlari 2 420,7 ming tonnani, yoki 2021-yilning mos davri bilan solishtirganda 105,9% ni tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, fermer xo‘jaliklarida 7,5%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,9% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 39,7% o‘sish qayd etildi (14.12-rasm).

[110] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022 yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023 y.




14.12-rasm. Respublikada yetishtirilgan poliz ekinlari[111]

Poliz mahsulotlari yetishtirish umumiy hajmining eng katta ulushi Surxondaryo viloyati (13,6%) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda, Jizzax (11,6%), Sirdaryo (11,5%), Andijon (8,3%), Buxoro (8,2%), Qashqadaryo (7,6%) viloyatlarida yuqori ko‘rsatkichlar qayd etildi. Shuningdek, poliz mahsulotlari umumiy hajmida eng kam ulush, Toshkent (2,7%), Navoiy (4,1%) va Namangan (5,3%) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Joriy davrda yuqori o‘sish sur’atlari Toshkent (119,2%), Samarqand (112,5%), Buxoro (110,8%), Qashqadaryo (108,0%), Sirdaryo (106,9%) va Farg‘ona (106,1%) viloyatlarida qayd etildi.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan meva va rezavorlar 2 983,5 ming tonnani yoki 2021-yilning mos davri bilan solishtirganda 104,6% ni tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, fermer xo‘jaliklarida 6,8%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 2,2% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 18,0% o‘sish qayd etildi (14.14-rasm). Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmida hududlar bo‘yicha eng katta ulush Andijon (22,9%), Farg‘ona

[111] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

(12,9%), Samarqand (12,4%), Namangan (11,0%) va Buxoro (9,7%) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



14.13-rasm. Respublikada yetishtirilgan meva va rezavorlar[112]


Shu bilan birga, meva va rezavorlar umumiy hajmida eng kam ulush Sirdaryo viloyati (1,4%) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (2,2%) kuzatildi. Ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda yuqori o‘sish sur’atlari Buxoro (108,1%), Sirdaryo (106,3%), Samarqand (106,2%), Qashqadaryo (105,9%), Namangan (105,0%) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (104,7%) qayd etildi.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan uzumlar 1760,6 ming tonnani, yoki 2021-yilning mos davri bilan solishtirganda 103,9% ni tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, fermer xo‘jaliklarida 5,1%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 2,6% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 7,6% o‘sish qayd etildi (14.14-rasm).

Yetishtirilgan uzum umumiy hajmining qariyb uchdan bir qismi Samarqand viloyati (35,5%) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Buxoro (12,4%), Farg‘ona (10,4%), Namangan (8,1%), Qashqadaryo (6,0%) va Surxondaryo (6,0%) viloyatlarida qayd etildi. Shu bilan birga, uzum yetishtirish umumiy hajmidagi eng kam

[112] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

ulush Qoraqalpog‘iston Respublikasida (0,7%), Sirdaryo viloyatida (0,8%) kuzatildi. 2021-yilga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Buxoro (106,4%), Navoiy (105,9%), Sirdaryo (105,8%), Qashqadaryo (105,4%), Xorazm (104,5%) va Samarqand (103,9%) viloyatlarida qayd etildi.



14.14-rasm. Respublikada yetishtirilgan uzum[113]

Chorvachilik mahsulotlari – qishloq xo‘jaligi hayvonlari, parrandalari, asalarilari va ipak qurtini o‘stirish va urchitish bilan bog‘liq bo‘lgan qishloq xo‘jaligi sohasi. Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (19 112,0 mlrd so‘m), Qashqadaryo (19 099,4 mlrd so‘m) va Toshkent (16 623,8 mlrd so‘m) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (4 646,5 mlrd so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (6 757,2 mlrd so‘m) va Navoiy viloyatini (9 847,2 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin. Yuqori o‘sish sur’atlari Andijon (105,2%), Samarqand (104,4%) va Navoiy (104,2%) viloyatlarida qayd etildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 48,3% ni tashkil etdi. Respublika chorvachilik mahsulotlari tarkibida hududlarning eng katta

[113] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

ulushi Samarqand (11,4%), Qashqadaryo (11,4%), Toshkent (9,9%) va Buxoro (9,5%) viloyatlariga to‘g‘ri keldi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste`mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 2 726,0 ming t. go‘sht, 11 629,4 ming t. sut, 8 129,3 mln dona tuxum, 37,3 ming t. jun, 1 302,3 ming dona qorako‘l teri yetishtirildi va 177,4 ming t. baliq ovlandi. Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go‘sht hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,4% ni, sog‘ib olingan sut – 103,2% ni, olingan tuxum – 104,4% ni, qirqib olingan jun – 102,5% ni, olingan qorako‘l teri – 104,0% ni hamda ovlangan baliqlar – 103,2% ni tashkil qildi (14.4-jadval).

14.4-jadval

2022-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar[114]


	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo‘jaliklari		dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o‘sish sur’ati % da	ming tonna	o‘sish sur’ati % da	ming tonna	o‘sish sur’ati % da	ming tonna	o‘sish sur’ati % da
Go‘sht (tirik vaznda)	2 726,0	103,4	159,2	116,0	2 395,9	101,6	170,9	122,1
Sut	11 629,4	103,2	632,2	111,9	10861,4	102,6	135,8	114,6
Tuxum, mln dona	8 129,3	104,4	1 203,4	111,6	5 032,3	103,2	1 893,6	103,3
Jun	37,3	102,5	4,3	107,9	31,0	101,7	2,0	105,7
Qorako‘l teri, ming dona	1 302,3	104,0	128,7	109,6	1 047,7	101,4	125,9	124,2
Baliq	177,4	103,2	90,6	107,0	10,1	99,4	76,7	99,5

2022-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, go‘sht yetishtirishning 5,8% i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 87,9% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 6,3% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim. Shunga mos ravishda sog‘ib olingan sutning 5,4% i fermer xo‘jaliklari, 93,4% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 1,2% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga, olingan tuxumning 14,8% i fermer xo‘jaliklariga, 61,9% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 23,3% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 11,5% i fermer xo‘jaliklari, 83,3% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 5,2% i qishloq xo‘jaligi

[114] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Bundan tashqari, olingan qorako‘l terining 9,9% i fermer xo‘jaliklariga, 80,4% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 9,7% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi. O‘z navbatida, ovlangan baliqlarning 51,1% i fermer xo‘jaliklariga, 5,7% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 43,2% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini qayd etish lozim (14.15-rasm).



14.15-rasm. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarida xo‘jalik toifalarining ulushi[115]

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Respublikada 2 726,0 ming tonna go‘sht yetishtirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan 103,4% ni tashkil qildi. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz go‘sht yetishtirish 2021-yilning mos davriga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 16,0%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,6% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 22,1% o‘sish qayd etildi.

[115] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

14.5-jadval

Hududlar bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda) yetishtirish[116]

	Hajmi, ming t.	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	2 726,0	103,4	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	120,5	103,5 4,4	4,4
Andijon	185,6	104,9	6,8
Buxoro	284,9	102,3	10,5
Jizzax	237,8	103,2	8,7
Qashqadaryo	315,8	103,5	11,6
Navoiy	180,6	104,3	6,6
Namangan	168,0	104,4	6,2
Samarqand	313,2	104,3	11,5
Surxondaryo	209,8	103,6	7,7
Sirdaryo	70,5	102,2	2,6
Toshkent	283,6	102,0	10,4
Farg‘ona	181,1	102,0	6,6
Xorazm	174,6	104,8	6,4

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Respublikada 11 629,4 ming tonna sut yetishtirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan 103,2% ni tashkil qildi.

[116] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

14.6-jadval

Hududlar bo‘yicha sut yetishtirish[117]

	Hajmi, ming t.	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	11 629,4	103,2	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	434,0	103,6	3,7
Andijon	1 038,0	104,1	8,9
Buxoro	1 053,3	103,2	9,1
Jizzax	673,8	103,6	5,8
Qashqadaryo	1 277,6	103,1	11,0
Navoiy	520,6	104,6	4,5
Namangan	758,1	102,7	6,5
Samarqand	1 378,4	104,3	11,9
Surxondaryo	936,3	102,9	8,0
Sirdaryo	382,4	102,6	3,3
Toshkent	974,6	101,5	8,4
Farg‘ona	1 104,9	102,7	9,5
Xorazm	1 097,4	102,4	9,4

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, sut yetishtirishda 2021-yilning mos davriga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 11,9%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 2,6% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 14,6% o‘sish qayd etildi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Respublikada 8 129,3 mln dona tuxum yetishtirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan 104,4% ni tashkil qildi. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, tuxum yetishtirish 2021-yilning mos davriga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 11,6%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 3,2% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 3,3% o‘sish qayd etildi.

[117] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

14.7-jadval

Hududlar bo‘yicha tuxum yetishtirish[118]

	Hajmi, mln dona.	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	8 129,3	104,4	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	387,0	101,9	4,8
Andijon	748,9	101,6	9,2
Buxoro	519,7	108,8	6,4
Jizzax	386,6	88,1	4,7
Qashqadaryo	544,5	107,5	6,7
Navoiy	385,4	106,5	4,7
Namangan	651,1	108,3	8,0
Samarqand	1 281,0	106,9	15,7
Surxondaryo	542,0	104,0	6,7
Sirdaryo	193,4	103,2	2,4
Toshkent	1 452,9	105,1	17,9
Farg‘ona	557,9	104,0	6,9
Xorazm	478,9	104,3	5,9

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada 177 417 tonna baliq ovlangan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan 103,2% ni tashkil qildi. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, ovlangan baliqlar 2021-yilning mos davriga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 7,0%, o‘sish qayd etildi, aksincha, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,6% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 0,5% kamayish kuzatildi.

[118] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

14.8-jadval

Hududlar bo‘yicha ovlangan baliqlar[119]

	Hajmi, t.	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	177 417	103,2	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11 149	88,2	6,3
Andijon	21 939	108,7	12,4
Buxoro	9 822	90,3	5,5
Jizzax	13 993	102,2	7,9
Qashqadaryo	5 151	96,8	2,9
Navoiy	13 995	109,6	7,9
Namangan	14 153	118,0	8,0
Samarqand	16 825	86,1	9,5
Surxondaryo	6 004	109,6	3,4
Sirdaryo	6 596	102,5	3,7
Toshkent	15 233	115,1	8,6
Farg‘ona	12 992	106,9	7,3
Xorazm	29 565	107,0	16,6

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Respublikada 24 300,2 tonna pilla yetishtirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan 106,7% ni tashkil qildi. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, pilla yetishtirish umumiy hajmining 59,5% i – fermer xo‘jaliklariga, 40,5% i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini ko‘rsatmoqda.

[119] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

14.9-jadval

Hududlar bo‘yicha yetishtirilgan pilla[120]

	Hajmi, t.	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	24 300,2	106,7	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	802,1	106,6	3,3
Andijon	3 115,2	107,0	12,8
Buxoro	2 574,4	107,9	10,6
Jizzax	802,7	106,5	3,3
Qashqadaryo	2 295,8	107,2	9,5
Navoiy	1 022,2	106,8	4,2
Namangan	2 031,5	102,1	8,4
Samarqand	3 159,5	107,0	13,0
Surxondaryo	1 832,1	106,8	7,5
Sirdaryo	665,6	106,7	2,7
Toshkent	1 742,7	110,2	7,2
Farg‘ona	2 241,0	105,8	9,2
Xorazm	2 015,3	106,8	8,3

2023-yilning 1-yanvar holatiga barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 13 857,6 ming boshga yetdi, (2022-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 2,3% ga ko‘p), sigirlar 4 965,7 ming boshga (2,1% ga ko‘p), qo‘y va echkilar 23 623,7 ming boshga (2,8% ga ko‘p), otlar 269,1 ming boshga (3,4% ga ko‘p), parrandalar 97 310,2 ming boshga (5,8% ga ko‘p) yetdi.

[120] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

14.10-jadval

2023-yilning 1-yanvar holatiga xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni[121]


	Barcha toifa-dagi xo‘ja-liklar		shu jumladan:					
		fermer xo‘jaliklari		dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		qishloq xo‘jaligi fa-oliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar		
	ming bosh	o‘sish sur’ati % da	ming bosh	o‘sish sur’ati % da	ming bosh	o‘sish sur’ati % da	ming bosh	o‘sish sur’ati % da
Yirik shoxli qora-mollar	13 857,6	102,3	951,3	107,0	12 664,9	101,9	241,4	107,6
shundan, sigirlar	4 965,7	102,1	366,9	105,6	4 517,1	101,7	81,7	112,5
Qo‘y va echkilar	23 623,7	102,8	3 506,1	107,2	18 531,7	101,61	1 585,9	109,3
Otlar	269,1	103,4	62,5	106,3	190,7	102,1	15,9	108,2
Parran-dalar	97 310,2	105,8	16 043,9	106,5	51 518,9	100,4	29 747,4	116,4

Tomorqa xo‘jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog‘liq mehnat faoliyatidir. **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ish-lab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tah-lil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,9% i fermer xo‘ja-

[121] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

liklari hissasiga, 91,4% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,7% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 7,4% i fermer xo‘jaliklariga, 91,0% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,6% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi,



14.16-rasm. 2023-yilning 1-yanvar holatiga mavjud chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha ulushi[122]

Shuningdek, qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 14,8% i fermer xo‘jaliklariga, 78,5% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 6,7% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, otlarning umumiy sonidan 23,2% i fermer xo‘jaliklariga, 70,9% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 5,9% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 16,5% i fermer xo‘jaliklariga, 52,9% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 30,6% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikada yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 13 857,6 ming boshga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi

[122] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar umumiy bosh soni – 313,2 ming boshga (2,3%) ko‘paydi. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz yirik shoxli qoramollar umumiy bosh soni 2022-yilning mos davriga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 7,0%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,9% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 7,6% o‘sish qayd etildi.

14.11-jadval

Hududlar bo‘yicha yirik shoxli qoramollar bosh soni[123]

	Soni, ming bosh	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	13 857,6	102,3	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 208,7	102,8	8,7
Andijon	1 130,6	102,5	8,2
Buxoro	1 328,9	103,4	9,6
Jizzax	943,1	102,7	6,8
Qashqadaryo	1 688,8	101,6	12,2
Navoiy	541,7	102,5	3,9
Namangan	760,0	102,7	5,5
Samarqand	1 694,0	102,2	12,2
Surxondaryo	1 044,9	102,1	7,5
Sirdaryo	492,3	102,4	3,6
Toshkent	987,7	102,4	7,1
Farg‘ona	1 075,2	101,9	7,8
Xorazm	961,7	101,4	6,9

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, Respublikada sigirlarning umumiy bosh soni 4 965,7 ming boshga yetdi.

[123] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

14.12-jadval

Hududlar bo‘yicha sigirlar bosh soni[124]

	Soni, ming bosh	O‘sish sur’ati, % da	Hududlar ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	4 965,7	102,1	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	350,2	102,8	7,1
Andijon	389,5	102,3	7,8
Buxoro	434,7	102,9	8,8
Jizzax	265,5	102,5	5,3
Qashqadaryo	558,4	102,0	11,2
Navoiy	218,4	101,5	4,4
Namangan	260,5	102,4	5,2
Samarqand	736,7	101,8	14,8
Surxondaryo	400,6	101,1	8,1
Sirdaryo	177,0	103,2	3,6
Toshkent	421,5	102,4	8,5
Farg‘ona	387,6	102,2	7,8
Xorazm	365,1	101,1	7,4

2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar umumiy bosh soni – 102,5 ming boshga (2,1%) ko‘paydi.

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, sigirlar umumiy bosh soni 2022-yilning mos davriga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 5,6%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,7% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 12,5% o‘sish kuzatildi.

2023-yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, Respublikada qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 23 623,7 ming boshga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar umumiy bosh soni – 653,4 ming boshga (2,8%) ko‘paydi.

[124] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

14.13-jadval

Hududlar bo‘yicha qo‘y va echkilar bosh soni[125]

	Soni, ming bosh	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	23 623,7	102,8	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 213,8	103,0	5,1
Andijon	1 526,5	102,4	6,5
Buxoro	2 416,0	104,9	10,2
Jizzax	2 320,5	102,9	9,8
Qashqadaryo	4 919,5	102,8	20,8
Navoiy	2 378,6	102,5	10,1
Namangan	825,0	102,7	3,5
Samarqand	2 607,3	102,4	11,0
Surxondaryo	2 535,4	102,3	10,7
Sirdaryo	378,8	104,4	1,6
Toshkent	1 098,8	101,7	4,7
Farg‘ona	918,4	102,8	3,9
Xorazm	485,1	102,9	2,1

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, qo‘y va echkilar umumiy bosh soni 2022-yilning mos davriga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 7,2%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,6% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 9,3% o‘sish qayd etildi.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, Respublikada otlarning umumiy bosh soni 269,1 ming boshga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar umumiy bosh soni – 8,8 ming boshga (3,4%) ko‘paydi. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, otlar umumiy bosh soni 2022-yilning mos davriga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 6,3%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 2,1% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 8,2% o‘sish kuzatildi.

[125] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

14.14-jadval

Hududlar bo‘yicha parrandalar bosh soni[126]

	Soni, ming bosh	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	97 310,2	105,8	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5 196,9	102,8	5,3
Andijon	10 536,7	111,7	10,8
Buxoro	6 721,2	107,8	6,9
Jizzax	3 944,6	108,3	4,1
Qashqadaryo	6 402,6	104,9	6,6
Navoiy	3 403,1	104,8	3,5
Namangan	6 066,4	107,1	6,2
Samarqand	14 278,5	105,4	14,7
Surxondaryo	5 128,2	100,4	5,3
Sirdaryo	4 315,3	105,6	4,4
Toshkent	16 299,6	104,7	16,8
Farg‘ona	8 499,1	104,4	8,7
Xorazm	6 518,0	106,8	6,7

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, Respublikada parrandalarning umumiy bosh soni 97 310,2 ming boshga yetdi. 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar umumiy bosh soni – 5 375,2 ming boshga (5,8%) ko‘paydi. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz parrandalar umumiy bosh soni 2022-yilning mos davriga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 6,5%, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,4% va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 16,4% o‘sish qayd etildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda uni chuqur qayta ishlash va qishloq aholisiga xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari sonini yanada ko‘paytirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu yuz minglab yangi ish

[126] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

o‘rinlarini, shu jumladan, chekka qishloqlarda ham yaratishga imkon beradi.

Qishloq xo‘jaligida klasterlashtirish. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlashni va tayyor mahsulotni bozorga yetkazib berishni ta’minlaydigan klasterli ishlab chiqarish usuli allaqachon joriy qilingan. Ekinlarning ayrim turlari uchun klasterlarga ajratilgan qishloq xo‘jaligi yerlarining maydoni paxta va to‘qimachilik sanoatida – 67%, chorvachilikda – 8%, bog‘dorchilikda – 7,5%. Paxtachilikda erishilgan klaster tizimining muvaffaqiyati ushbu usulni bog‘dorchilik sohasida ham kengaytirishga imkon beradi, bu yerda klaster tizimi ham joriy etilmoqda, bu hosilni oshirishi va sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmini oshirishi kerak. Ushbu sohada tegishli ichki tarmoq kooperatsiyasining yo‘qligi, bu muammoni hal qilish uchun mamlakatda 31 ta agrologik markaz tashkil etilganiga qaramay, O‘zbekistonda yiliga ishlab chiqarilayotgan 21 million tonna meva-sabzavotning atigi 1,5 million tonnasi eksport qilinishiga olib keladi. Mahsulotlarni saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksport qilish. Biroq, aylanma mablag‘larning yetishmasligi va ta’minotdagi uzilishlar ularning aksariyatini faqat mavsum davomida ishlashga majbur qiladi, shuning uchun ularning quvvati atigi 10-15 foizga ko‘tariladi.

Meva-sabzavot sanoatini rivojlantirishdagi muammolarni hal qilish uchun 2019-yil 14-martdagi farmon bilan Jizzax, Samarqand, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarining 8 ta tumanida meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan 41 ta qishloq xo‘jaligi birlashmalari tashkil etildi.

Qishloq xo‘jaligida eksport potensiyalini oshirish. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha tub choralar ko‘rilmoqda.

O‘zagroeksportbank aksiyadorlik tijorat banki tashkil etildi, uning muassislari tarkibiga quyidagilar kirdi:

- O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi – 75%;
- “O‘zbekinvest” NKEIS – 10%;
- “O‘zbekozikovkatholding” XK – 5%;
- “O‘zagrosug‘urta” AJ – 5%;
- “Kafolat SK” OAJ – 5%.

Ushbu bankning asosiy vazifalari qatoriga agrosanoat, birinchi navbatda, meva-sabzavot, mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishni rivojlantirish boʻyicha investitsiya loyihalarini, shuningdek, agrosanoat sohasidagi tashkilotlar va uning infratuzilmasi uchun kompleks kredit va hisob-kitob xizmatlarini moliyalashtirish kiradi.

- Oʻzagroeksportning meva-sabzavot mahsulotlarini chet elga yetkazib berish boʻyicha monopoliyasi bekor qilindi va tadbirkorlik subyektlariga yangi meva-sabzavot, uzum va poliz mahsulotlarini 100 foiz avans toʻlovi asosida toʻgʻridan-toʻgʻri shartnomalar asosida eksport qilishga ruxsat berildi.

- 2017-yil 1-avgustdan boshlab eksport qiluvchi xoʻjalik yurituvchi subyektlar uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) eksport qilishdan tushadigan valyuta tushumining 25 foizini majburiy sotish boʻyicha talab bekor qilindi.

- Hindiston, Tojikiston, AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Latviya va boshqalarda Oʻzbekistonning davlat savdo uylari tarmogʻi kengaytirildi.

- Paxta va gʻalla sotib olishga oʻxshash meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotib olishni moliyalashtirish tizimi joriy etilmoqda.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar tufayli, COVID-19 pandemiyasiga qaramay, oʻzbek meva-sabzavotlari eksportida oʻsish kuzatilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, "toʻgʻridan-toʻgʻri yetkazib berish" koʻpaygan, odatda Oʻzbekistondan kelgan sabzavot va mevalarning bir qismi Rossiyaga uchinchi mamlakatlar mahsulotlari niqobi ostida boshqa mamlakatlar orqali tranzit bilan kirib kelgan va hatto Rossiya import statistikasida ham har doim ham oʻz aksini topmagan (masalan, gilosning importi Oʻzbekiston).

Bugungi kunda respublikada ishlab chiqarilgan 80 dan ortiq turdagi qishloq xoʻjaligi mahsulotlari dunyoning 66 mamlakatiga eksport qilinmoqda. Shu bilan birga, soʻnggi yillarda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini eksport qilish tarkibida tub oʻzgarishlar yuz berdi.

Oʻzbekiston oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Buning asosiy sabablaridan biri hosildorlik va qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini sezilarli darajada oshirishdir. Bu yaxshilanishlar qishloq xoʻjaligi sohasidagi islohotlar natijasida

paxtani monokulturadan koʻp tarmoqli ishlab chiqarishga va qishloq infratuzilmasini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan.

Soʻnggi yillarda bu yoʻnalishda ekilgan maydonlar sezilarli darajada kengaytirildi va ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan taʼminlash va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali mamlakat eksport salohiyatini oshirish boʻyicha zarur choralar koʻrildi. Shuningdek, hududlarni bogʻdorchilikka ixtisoslashtirish, bogʻdorchilik klasterlari va kooperativlarida mahsulot ishlab chiqaruvchilarni birlashtirish boʻyicha amaliy choralar koʻrildi.

Natijada, pandemiya inqirozining hozirgi ogʻir sharoitida ham, butun dunyo davlatlari karantin cheklovlari sababli oziq-ovqat tanqisligidan qochish xavotirida boʻlgan paytda ham, Oʻzbekiston oʻz agro oziq-ovqat sektorini muvaffaqiyatli safarbar qila oldi, aholini oziq-ovqat bilan uzluksiz taʼminlashga erishdi va bundan tashqari, oziq-ovqat bozorlarida eksport salohiyatini mustahkamladi.

Davlatning rolini pasaytirish va xususiy investorlar uchun sektorning investitsiya jozibadorligini oshirish Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning boshqa strategik ustuvor yoʻnalishlariga aylandi. Shu nuqtai nazardan, ichki bozorda narxlar barqarorligini taʼminlashga moʻljallangan donli ekinlarga aralashuvlarni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan hajmlardan tashqari, davlat xaridlaridan butunlay voz kechish muhim edi. Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid tugʻilganda oziq-ovqat zaxiralarini yaratish va makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashning muhim yoʻnalishlaridan biri oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda katta zaxiraga ega boʻlgan uy xoʻjaliklarining uy-joy uchastkalarining imkoniyatlarini amalga oshirish edi. Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi va uning hududiy organlari tashkil etildi, mahalla fuqarolari yigʻilganda, uy-joy uchastkalarini rivojlantirish boʻyicha yangi maxsus oʻrinbosar lavozimi joriy etildi. Oʻzbekiston fermerlari, dehqon xoʻjaliklari va uy-joy mulkdorlari kengashi va uning hududiy boʻlinmalari tashkil etildi.

Ispaniya, Polsha, Niderlandiya, Gretsiya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Vyetnam va Indoneziya davlatlarining ilgʻor tajri-

basidan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda birinchi marta shafran kabi noanʻanaviy ekin ekish yoʻlga qoʻyildi, soya ekish kengaydi. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining 132 ming tonnasi qayta ishlanib, 100 million dollarlik tayyor mahsulot, 856 million dollarlik 724 ming tonna hoʻl meva eksport qilindi.


Chorvachilik tarmogʻini rivojlantirish dasturlari doirasida baliq, asal yetishtiriladigan, parranda, echki, qoramol boqiladigan koʻplab xoʻjaliklar faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Zotdor qora bayir otlarini koʻpaytirish va ot sportini rivojlantirish maqsadida Qashqadaryoda yangi yilqichilik kompleksi tashkil etildi. Toshkent viloyatida va boshqa hududlarda ham bunday majmualar barpo qilinmoqda.

Pillachilikda yuqori hosil olishda muhim ahamiyatga ega boʻlgan, ammo deyarli yoʻqolib borayotgan anʻanalar qayta tiklanmoqda. Qimmatbaho xomashyo boʻlgan ipak yetishtirishning mutlaqo yangi tizimi yoʻlga qoʻyildi. Oʻtgan yil mamlakatimizda birinchi marta pilladan yiliga ikki marta hosil olish tajribasi sinovdan oʻtkazildi va ijobiy natija berdi. Har bir viloyatda pilla xomashyosini qayta ishlab, tayyor mahsulot olish maqsadida toʻgʻridan-toʻgʻri chet el investitsiyalari jalb qilindi va ipakni qayta ishlashga ixtisoslashgan 10 ta korxona ishga tushirildi.

Baliqchilik sohasini tiklash uchun "Oʻzbekbaliqsanoat" uyushmasi tashkil etildi. Uning tizimiga 3 ming 600 ta baliqchilik xoʻjaligi kiritildi. 580 ming gektar tabiiy va 28 ming gektar sun'iy koʻllarda 100 ming tonnadan ortiq baliq yetishtirildi. Asalarichilik sohasini rivojlantirish maqsadida Oʻzbekiston asalarichilar uyushmasi tashkil etilib, unga asal yetishtiradigan 14 mingdan ortiq tadbirkor a'zo boʻldi. Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tadbirlar qoʻllab-quvvatlanib, ularning tashabbuskori boʻlgan xoʻjalik va tashkilotlarga qoʻshimcha imtiyoz va preferensiyalar berildi. Natijada, bugungi kunda qariyb 240 ming gektar maydonda ana shunday texnologiyalar, jumladan, 28 ming gektar yerda tomchilatib sugʻorish texnologiyasi joriy qilindi.

14.2. Agrar islohotlarning maqsadi, tamoyillari va huquqiy asoslari

Agrar siyosat o‘zida qishloq aholisining moddiy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini shakllantiradigan davlat faoliyatini qamrab oladi. Agrar bozor, investitsiya, kredit, moliya, ilmiy-texnikaviy va texnologik faoliyat, soliqlar va soliqqa tortish, ijtimoiy muhit, maqsadli va tarkibiy qayta shakllanish agrar siyosatning asosiy sohalaridir. Agrar siyosatning umumiy maqsadi muayyan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy, tarmoq, ekologik maqsadlar bilan tavsiflanadi. Davlat rivojlanishi bosqichlari va tabiiy-tarixiy sharoitlarga bog‘liq ravishda aniq maqsadlar o‘zaro nisbati o‘zgaradi (14.17-rasm).



14.17-rasm. Agrar siyosatning maqsadi

Davlat agrar siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilar:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va tovar ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta’minlash;
- qishloq hududlari barqaror rivojlanishini, qishloq aholisi bandligini ta’minlash, ularning turmush darajasini, shuningdek, qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlarning ish haqini oshirish;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi ehtiyojlari uchun qo‘llaniluvchi tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish va asrab-avaylash;

- qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilari daromadliligi oshishini va shu bozorlar infratuzilmasi rivojlanishini taʼminlovchi xomashyo, qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat mahsulotlari samarali faoliyat yurituvchi bozorlarini shakllantirish;


- qishloq xoʻjaligi sohasida investitsiyalar hajmini oshirish va qulay investitsion muhitni yaratish;

Agrar siyosat negizida agrar qonunchilik va agrar tarkib shakllanadi. Agrar qonunchilik – qishloq xoʻjaligida va qishloq aholisi hayoti bilan bogʻliq holda amalga oshayotgan jarayonlarga taʼsir oʻtkazuvchi huquqiy meʻyorlardir. Yerga egalik munosabatlari, kredit va soliqqa tortish, mehnat munosabatlari, mulkiy munosabatlar, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va isteʼmoli yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy taʼminot va boshqalar agrar qonunchilikning muhim sohalariga kiradi: Agrar tarkib – agrar qonunchilikka asoslangan, qishloq xoʻjaligi rivojlanishi, aholining yashash va ishlash sharoiti xususiyatlari hisobga olingan, ishlab chiqarish omillariga bogʻliq agrar sohaning iqtisodiy, texnik va ijtimoiy unsurlari yigʻindisidir. U mutlaq va nisbiy koʻrsatkichlarda ifodalanadi. Agrar siyosatning negizida agrar bozor yotadi. Agrar bozor agrar siyosatni ham ishlab chiqaruvchi, ham isteʼmolchi manfaatlariga mos amalga oshirilishiga yordam qiladi.

Agrar siyosatning asosiy vazifasi – agrar sohadagi jarayon va qarashlarni aks ettiribgina qolmasdan, balki kishilarning shu sohadagi qarashlari, jarayonlari va qonunlari tizimidagi faoliyatini ochib berishdir. Uning vazifalariga quyidagilar kiradi.

- mamlakat aholisini iqtisodiy asoslangan baholardagi sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlash;

- qishloq xoʻjaligining umumiy daromad yaratish sohasidagi ishtirokini taʼminlash, agrar sektorni rivojlantirish;



14.18-rasm. Agrar siyosatning vazifalari

- agrar tashqi savdo siyosatini olib borish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasini yaratish
- atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini hal qilish (14.18-rasm).

Agrar siyosatning tamoyillarini ko'rib chiqib uning muhim oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, agrosanoat va tashqi savdo jihatlariga, shuningdek, uni tavsiflovchi ko'rsatkichlariga e'tiborni qaratish lozim: Oziq-ovqat jihati tamoyillar tahlilining muqaddimasi bo'lib, agrar siyosat maqsadi – oziq-ovqat xavfsizligining miqdoriy ifodasi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda ichki bozorda oziq-ovqat mahsulotlariga talabning fiziologik va to'lovga qodir chegaralarini aniqlaydi, shuning uchun iste'molning fiziologik me'yorlari, iste'molning mavjud tarkibi, mamlakatni, shu jumladan, ichki ishlab chiqarish hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Qishloq xo'jaligi jihati oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning haqiqiy holatini tavsiflaydi, oziq-ovqat mahsulotlarini olishda agrar salohiyatni aniqlaydi. U qishloq xo'jaligi samaradorligi ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi: (yer hosildorligi, mehnat unumdorligi, chorva mollari mahsuldorligi, ozuqa qoplanganligi, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnatga haq, qishloq xo'jaligiga dotatsiyalar, fond qaytimi va boshqa omillar). Agrosanoat jihati, bir tomondan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi tahlilini amalga oshirish, ikkinchi tomondan marketing

sohasi samaradorligini baholashga imkon beradi. Baholash uchun muhim koʻrsatkichlar – sarf-xarajatlarning yiriklashtirilgan tarkibi, turli maqsadlarda mahsulotni ishlatish. Tashqi savdo jihati jahon va ichki qishoq xoʻjaligi bozorlari oʻzaro bogʻliqligini aks ettiradi. U turli mahsulotlar boʻyicha importga qaramlik, qishloq xoʻjaligi va tayyor mahsulotni chetga chiqarish va olib kirish balansi, qishloq xoʻjaligini erkinlashtirishdan kutilayotgan zararni baholash va boshqalar. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyingi dastlabki masala iqtisodiyotni tezroq barqarorlashtirish va shu jihatdan qishloq xoʻjaligini rivojlantirish va samaradorligini oshirish, mamlakat aholisini qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga boʻlgan talabini toʻlaroq qondirish, mamlakatni oziq-ovqat bilan toʻla ta'minlash, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini yetarli xomashyoga boʻlgan ehtiyojini toʻlaqonli qondirish, agrar resurslar salohiyatidan maqsadli foydalanishga erishish orqali davlatimizning iqtisodiy qudratini yanada oʻstirish, mamlakat aholisining yashash farovonligini yaxshilash eng muhim masalalardan hisoblangan edi.

Zamonaviy agrar iqtisodiyot mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim oʻrin tutadi. Uning rivojlanish holati doimiy e'tiborga molikdir. Mustaqillikning dastlabki yillarida Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligining iqtisodiy inqirozga yuz tutganligining bir qator sabablari mavjud edi:

- birinchidan, koʻp yillar davomida yerga nisbatan davlat mulki munosabatlari hukmronlik qilgani va kishilarda sotsializmga xos fikrlashning hukmronlik qilishi iqtisodiy islohotlarni amalga oshishiga salbiy ta'sir koʻrsatdi;
- ikkinchidan, qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishiga fan-texnika yutuqlarini qoʻllash va uni amalga oshirishning qiyinlashib qolganligi;
- uchinchidan, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishida keragidan ortiqcha mehnat resurslarining yigʻilib qolganligi, ularni boʻshatish va boshqa ish bilan ta'minlash hukumat oldiga yana bir ulkan muammoni qoʻyganligi;
- toʻrtinchidan, qishloq xoʻjaligi texnikalarining eskiligi va tarmoqda mexanizatsiyalashtirish darajasining pasayib ketganligi,

yangi texnika sotib olish va ishlab chiqarishga jalb qilish qimmatligi va ishlab chiqaruvchilarda buning uchun kerakli mablag‘ning yo‘qligi;

- beshinchidan, qishloq xo‘jaligi korxonalarini rivojlantirish uchun kerakli miqdordagi ssuda va kreditlarning yetishmasligi yoki ularni olishning haddan tashqari qiyinligi.

Agrar siyosatning asosiy vazifasi bu kabi muammolarga imkon qadar tezroq barham berish va iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilishiga erishishdir. Shu maqsadda keyingi yillarda mamlakat agrar tarmog‘ini rivojlantirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Ular ichida eng muhimlaridan biri – mamlakat agrar siyosatining huquqiy asoslari yaratildi.

O‘zbekiston agrar siyosatining huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- Yer Kodeksi;
- Mehnat Kodeksi;
- Fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonun;
- Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonun;
- Qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risidagi qonun;
- Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, undagi ishlab chiqarish, moliya, soliq, kredit va boshqa munosabatlarni takomillashtirish borasidagi qonunlar, farmonlar, qarorlar, me‘yoriy hujjatlar va boshqa qonunosti hujjatlari.

Respublikamiz agrar sohasida olib borilayotgan institutsional o‘zgarishlar natijasida bozor institutlarini shakllantirishga erishildi. Biroq, rivojlangan mamlakatlar tajribasining ko‘rsatishicha agrar sohada muhim institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish murakkab va davomli jarayondir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirishda, avvalambor, amaliy tajribaning yetishmasligi natijasida qator muammolar, kamchiliklar hamda nomutanosibliklar mavjud bo‘lib, ular bevosita chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni va nazariy jihatdan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo qiladi. Shu bois institutsional muhitni faollashtirish, faoliyat ko‘rsatayotgan

iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlarini bilish, uni modernizatsiya qilish mexanizmlarini tanlash va xavf-xatarning oldini olishning samarali vositasi zarur. Rasmiy qoidalar bir kechadayoq siyosiy qarorlar yordamida o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgani holda, norasmiy me‘yorlar juda sekin o‘zgaradi. Norasmiy qoidalar asrlar davomida qaror topgan urf-odatlar, hatti-harakatlar me‘yorlari, milliy mentalitetdan tashkil topgan. Ular vaqti kelib ushbu jamiyat uchun majburiy bo‘lgan rasmiy qoidalar darajasiga ko‘tarilishi yoki ularning qaror topishiga ta’sir ko‘rsatgan shart-sharoitlarning o‘zgarishi natijasida yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida tarixan mayda oilaviy ishlab chiqarish keng tarqalgan va bu ko‘nikma hosil etgan shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarining dehqon xo‘jaliklariga aylantirilishi.

Qonun rasmiy qoidalar sifatida asta-sekin urf-odat va an’analardan vujudga keladi. Bunga teskari jarayon qonunlar urf-odat va an’analarga ta’sir ko‘rsatgan chog‘da yuz berishi mumkinki, buni ko‘proq iqtisodiyot sohasida kuzatish mumkin.

14.15-jadval

Qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning huquqiy asoslari

<table>
<tr><td colspan="3">Qishloqda agrar munosabatlarni isloh qilishning huquqiy asoslari</td></tr>
<tr><td>Bevosita taalluqli qonunlar</td><td>Asosiy qonunlar</td><td>Bilvosita taalluqli qonunlar</td></tr>
<tr><td>Yer kodeksi</td><td rowspan="3">O ‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida</td><td>Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida</td></tr>
<tr><td>Yer to‘g‘risida</td><td>ljara to‘g‘risida</td></tr>
<tr><td>Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida</td><td>Tadbirkorlik erkinliklari va kafolatlari to‘g‘risida</td></tr>
<tr><td>Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida</td><td rowspan="6">O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi</td><td>Yer solig‘i to‘g‘risida</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida</td><td>Soliq kodeksi</td></tr>
<tr><td>Fuqarolik kodeksi</td></tr>
<tr><td>Aholini ish bilan ta’minlash va bandlik to‘g‘risida</td></tr>
<tr><td>Naslchilik to‘g‘risida</td><td>Banklar va bank faoliyati to’g’risida</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida</td><td>Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Sanatsiya to‘g’risida</td><td rowspan="2">Mulkchilik to‘g‘risida</td><td>Bankrotlik to‘g‘risida</td></tr>
<tr><td>Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida</td></tr>
</table>

Ammo yangi qonunlarning bunday ta’siri jamiyatda ularga ehtiyoj bo‘lishini yoki ularni ijtimoiy ongga singdirish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan mafkuraviy ishlarning olib borilishini taqozo etadi (14.15-jadval).

Agrosanoat integratsiyasi butun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruv-

chilari va qiymat tizimidagi ishtirokchilarning iqtisodiy manfaatlarini birlashtirish imkonini beradi.

Eng umumiy tavsifda qiymat zanjiri xarajat manbalarini va differensiatsiya manbalarini tushunish uchun mo'ljallangan strategik ahamiyatga ega faoliyatlar orqali xomashyolardan final iste'molchilarga tasniflash usuli hisoblanadi. Zanjirning har bir bosqichi o'zining maqbul miqyosiga ega, shuning uchun turli tashkilotlarda, kompaniyalarda, firmalarda yoki yirik sanoat korporatsiyasining bo'linmalarida qo'shimcha qiymat mavjud. Mamlakatning raqobatbardosh afzalliklaridan biri qishloq joylarining tabiiy, demografik, iqtisodiy, tarixiy va madaniy salohiyati bo'lib, ulardan oqilona va samarali foydalanish ko'p tarmoqli barqaror rivojlanishni, to'liq ish bilan ta'minlanishni, qishloq aholisining turmush darajasini va sifatini ta'minlaydi. Qishloq joylarining strategik ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishdagi rolini kuchaytirish qishloq rivojlanishining kompleks yondashuvidan jamiyatning ijtimoiy-hududiy kichik tizimi sifatida foydalanishni talab qiladi, u ishlab chiqarish, demografik, ijtimoiy-madaniy, ekologik, rekreatsion kabi bir qator muhim milliy iqtisodiy funksiyalarni amalga oshiradi. Qishloq joylarini barqaror rivojlantirishning muhim shartlaridan biri qishloq aholisi uchun mavjud bilim va ma'lumotlarning darajasini oshirishdan iborat.

Agrosanoat majmuasida muhim o'rinni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlar egallaydi. O'zbekistonda yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari iqlim sharoitining juda qulayligi tufayli jahon qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida yuqori darajada raqobatlasha oladi. Aynan agrar sektorda eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va uni qayta ishlaydigan sanoatni yetakchi o'ringa ko'tarish qishloq xo'jaligida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Mamlakat raqobatbardoshligini oshirishni global tizimga integratsiyalashgan hamda maqbul loyihalashtirilgan milliy logistik xizmatlar majmui taqdim etadi. Bunda ichki va tashqi logistika xizmatlarining qay darajada rivojlanganligi katta o'rin egallaydi. Aynan jahon bozoriga eksport qilinayotgan mahsulotlarni tashish

jarayonida uning sifati o‘zgarmasligi, tovar yetkazib berish umumiy zanjiridagi xarajatlarni monitoring qilib borish va bozordagi holatni nazorat qilish uchun agrosanoatda logistik funksiyalarga birinchi navbatda e’tiborni qaratish lozim.

Logistik tizimlarda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalanish logistik masalalarni hal etishning samarali axborot va instrumental-operatsion ta’minotini yaratish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga asos bo‘ladi. Birinchi navbatda, bunday ta’minot logistikada qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimlari uchun, ayniqsa, zarurdir. Meva-sabzavotlarni ishlab chiqarish va ularni saqlashga qaratilgan hajmining oshishi, mazkur mahsulotlarni saqlash uchun maxsus sovutgichlarni qurish va saqlash texnologiyasini takomillashtirishga mustahkam zamin yaratdi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rnini inobatga olgan holda mazkur tarmoqni modernizatsiyalash, bu jarayonda esa temir yo‘l logistikasini yanada rivojlantirish, bu sohalardagi islohotlarni yanada izchil davom ettirish lozim. Aynan logistika xizmatlarini ko‘rsatish miqdori va sifati jihatdan dunyo tajribasida temir yo‘l sohasi katta o‘rinni egallamoqda. Yurtimizda ham temir yo‘l logistika liniyasi bo‘ylab zamonaviy agrosanoat korxonalari qurilmoqda, yangi ish o‘rinlari tashkil etilmoqda.

Mintaqalar qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan islohotlar natijasida paxta maydonlari kamaytirilib, meva-sabzavotlar yetishtirish ko‘paymoqda. Bu esa o‘z navbatida ichki va tashqi bozorni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash imkoniyatini beradi. Bu jarayonni tizimli tashkillashtirish maqsadida mintaqalar va xalqaro magistrallarga chiqishni temir yo‘l liniyalarini qurish orqali amalga oshirish lozim. Mamlakat agrosanoat majmuasining xalqaro aloqalarini rivojlantirish, dunyo mamlakatlari va ilg‘or texnologiyalardan foydalanish katta ijobiy ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘zimizda shakllangan tajriba va texnologiyalarni targ‘ib qilish va dunyoga tarqatish zarurati ham mavjud.

14.3. Agrar islohotlarni amalga oshirish bosqichlari. Agrar sohani rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni amalga oshirish

Agrar islohotning turli mamlakatlarda rivojlanishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining darajasiga qarab har xil bo‘lishini hisobga olish lozim. Qishloq xo‘jaligining roli umumiy davlat iqtisodiyoti barqarorligiga kam ta’sir ko‘rsatadi, lekin qishloq xo‘jaligi mamlakat hayoti uchun, iqtisodiyoti uchun va aholisi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun qishloq xo‘jaligi juda kam ulushdagi qismni tashkil etsa-da, davlat bu tarmoqqa katta ahamiyat beradi, uni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi, samarali agrar siyosat olib borishga harakat qiladi. Shu jihatlarni e’tiborga olib, agrar siyosatning rivojlanish tarixini o‘rganish va uning asosiy tamoyillarini mukammallashtirish dolzarb hisoblanadi. *O‘zbekiston iqtisodiyotida agrar islohotning rivojlanish tarixini shartli ravishda bir necha davrlarga bo‘lish mumkin:*

1. 1920-yilgacha bo‘lgan davr. Bu davrda qishloq xo‘jaligi tarqoq holda rivojlangan. Qishloq xo‘jaligi asosan oziq-ovqat muammosini hal qilish va qisman xorijiy bozorlarga muhim tovarlarni ayirboshlash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Yerga, asosan, ma’lum guruh egalik qilgan va ularning shaxsiy manfaatlari agrar siyosatning mohiyatini tashkil qilgan. Agrar siyosat soliqlar va to‘lov vositalari orqali amalga oshirilgan.

2. 1920-1991-yillar. Mamlakat agrar siyosati, asosan, paxta yakkahokimligi siyosatiga qaratilgan, yerga egalik davlatning qo‘lida, ishlab chiqarish va mulk munosabatlari umumiylikka asoslangan. Agrar siyosat davlat tomonidan, asosan, sanoatning manfaatlariga asoslangan holda amalga oshirilgan.

3. 1991-1997-yillar. Barcha sohalarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga qishloq xo‘jaligida ham amalga oshirilishga harakat qilindi.

4. 1998-2016-yillar. Bu davr mamlakat hukumatining qishloq xo‘jaligiga keskin e’tibor qaratishi bilan boshlandi. Mamlakat qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni keskin chuqurlashtirish borasida qator qonun va me‘yoriy hujjatlarning qabul qilinishi bu tarmoqqa e’tiborning kuchayishidan dalolat berdi. Mamlakat qishloq

xoʻjaligidagi mavjud iqtisodiy tushkunlikni yoʻqotish va uni samarali rivojlantirishning qator dasturlari ishlab chiqildi va ular davriy ravishda takomillashtirilib amalga oshirilmoqda. Bu davrdagi agrar siyosatning asosiy xususiyatlariga yerga munosabatning keskin oʻzgartirilishi, rivojlangan mamlakatlar tajribalari va mamlakat ichki xususiyatlari e'tiborga olinib amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, ishlab chiqarishni fan yutuqlari asosiga qurish, yangi texnologiyalardan foydalanish kabi bir qator xususiyatlar xosdir.

5. 2017-yil va undan keyingi davr. Ushbu davrni yangilanayotgan Oʻzbekistonga qiyoslash toʻgʻri boʻladi. Mamlakatimiz qishloq xoʻjaligidagi ulkan imkoniyatlardan foydalangan holda keyingi yillarda sohani isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish boʻyicha keskin burilish yasaldi. Xususan, yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish maqsadida paxta toʻqimachilik klasterlari tashkil etilmoqda, bular – islohotlarning birinchi bosqichi boʻldi. Eng muhimi faqat bugunni emas, balki ertangi kunni ham oʻylab, uzoqni koʻzlab, islohotlarni yangi bosqichga koʻtarish vazifasi qoʻyildi.

14.16-jadval

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish natijasida erishiladigan ko‘rsatkichlar[127]

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Asos (2018-y.)	2021-yilga maqsad	2025-yilga maqsad	2030-yilga maqsad
1.	Qishloq xo‘jaligida qo'shilgan qiymatning yillik o‘sishi	117,3 trln so‘m (14 mlrd AQSh doll.)	3%	5%	5%
2.	Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ida ish o‘rinlari sonining o‘sishi: Qishloq xo‘jaligi Oziq-ovqat sanoati To‘qimachilik sanoati	3 671 300 91 420 140 200	2% 3% 3%	1% 4% 4%	1% 5% 5%
3.	Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti hajmining o‘sishi	2,3 mlrd AQSh doll.	3,5 mlrd AQSh doll.	10 mlrd AQSh doll.	20 mlrd AQSh doll.
4.	Aholi o‘rtasida to‘yib ovqatlanmaydiganlar ulushi	6,3%	5%	3%	0
5.	Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish (bir nafar ishchiga bir yilda dollarda)	3 960 AQSh doll.	4 300 AQSh doll.	5 200 AQSh doll.	6 500 AQSh doll.
6.	Qishloq xo‘jaligidagi issiqxona gaz chiqindilarini kamaytirish	15 740 gigagramm (2016 yil)	10%	30%	50%

[127] O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020– 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi, https://lex.uz/docs/-4567334

Shu maqsadda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ishlab chiqildi. Bunda yerning meliorativ holatini yaxshilash, kuchini oshirish, hosildorlikni ko‘tarish, yer ajratishning shaffof tizimini yaratish, yerga bo‘lgan huquqning kafolatlanishi, yerning daxlsizligini ta’minlash kabi o‘ta muhim vazifalar ilgari surildi.

Qishloq xo‘jaligida yillar davomida to‘planib qolgan, sohaning rivojiga to‘siq bo‘lib kelayotgan muammolar oz emasdi. Ayniqsa, yerni talon-taroj qilish, yer ajratishda ta’magirlik, korrupsiya avj olib, ko‘p adolatsizliklarga ham yo‘l qo‘yilgandi. Buning oqibatida yerdan samarasiz foydalanish, qishloq xo‘jaligi sohasida katta yo‘qotishlar davom etayotgandi.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini istiqbolda barqaror rivojlantirish sohada davlat siyosatini yangicha yondashuvlar asosida yuritishni talab qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi (14.16-jadval).

Shuningdek, mamlakatda yillar davomida irrigatsiya va melioratsiya holati yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yerosti suv zaxiralaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo‘qotilishini kamaytirish, bu ishlarda salohiyatli investorlar ishtirokini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-sonli Farmoniga muvofiq “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi” qabul qilindi.

Unga ko‘ra, 2020-2030-yillarda Respublika bo‘yicha 1 111 723 gektar qishloq xo‘jaligi yerlari qaytadan foydalanishga kiritiladi. Shu jumladan, qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan sug‘oriladigan yerlarni foydalanishga kiritish hisobidan 298 563 gektar, yerosti suvidan foydalanish hisobidan 155 057 gektar, boshqa suv manbalari hisobidan 50000 gektar, lalmi, yaylov va boshqa yerlarga suv talab qilmaydigan ekin turlarini joylashtirish hisobidan 535

632 gektar, o‘rmon yerlarini foydalanishga kiritish hisobidan 72 472 gektar qishloq xo‘jaligi yerlari foydalanishga kiritiladi.

So‘nggi yillarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport geografiyasini kengaytirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jahon bozorida mahsulotlarga qo‘yilgan sifat va xavfsizlik talablarining tobora kuchayib borishi, respublikamizda yetishtirilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi o‘rnini mustahkamlash uchun qo‘shimcha choralar ko‘rishni talab qilmoqda.

Shu maqsadda Respublikada Organic va Global G.A.P. xalqaro standartlari talablariga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish, tartibga solish va muvofiqlashtirish tizimlarini rivojlantirish, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, eksport geografiyasini kengaytirish, shuningdek, mamlakatimizning organik mahsulot ishlab chiqarish salohiyatidan to‘liq foydalanish imkoniyatini oshirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasida organik qishloq xo‘jaligi va organik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.

Shu o‘rinda organik qishloq xo‘jaligi tushunchasiga aniqroq ta’rif berib o‘taylik, ya’ni – bu dehqonchilik, chorvachilik va baliq yetishtirish tizimi bo‘lib, unda atrof-muhitni muhofaza qilish va xo‘jalik yuritishning tabiiy usullaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratiladigan yo‘nalish hisoblanadi. Bu faqat yakuniy mahsulotgina emas, balki qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning butun jarayoni va yetkazib berishga ham tegishlidir. Shu maqsadda, qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish va qayta ishlashdan tortib, transportirovka qilish va yetkazib berishdan iborat butun siklida genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizmlar (GMOlar), pestitsidlar, veterinariya preparatlari, kimyoviy qo‘shimchalar va o‘g‘itlar kabi bir qator sun’iy mahsulotlardan foydalanish jiddiy ravishda cheklanadi. Buning o‘rniga organik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar ekologiya sohasidagi tabiiy qishloq xo‘jaligi usullari va zamonaviy ilmiy yondashuvlardan foydalanib, ekotizimning sog‘lig‘ini uzoq muddat davomida maksimal darajada oshirish, uning samaradorligi, mahsulot sifatini yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish

uchun harakat qilishadi. Organik usullarni qo‘llab-quvvatlovchilar ushbu yo‘nalishni qishloq xo‘jaligi yuritishning eng barqaror va kam zarar keltiruvchi usuli, deya ta’kidlashadi.

Mazkur konsepsiya ijrosi natijasida mamlakatimizda 2025-yilga kelib paxta xomashyosi va don, dukkakli va moyli ekinlarni ishlab chiqarishda 5 foiz, bog‘dorchilikda 10 foiz, uzumchilikda 15 foiz, sabzavot va polizchilikda 3 foiz, go‘sht yetishtirishda 5 foiz va sut yetishtirishda 8 foiz organik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich o‘tish rejalashtirilgan.

Shuningdek, yangilanayotgan O‘zbekiston davrida qishloq xo‘jaligida bozor tamoyillarini keng joriy etish yoki keskin ijobiy burulish yili bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida qishloq xo‘jaligidagi mavjud ahvolni tahlil etib, tarmoq oldida turgan vazifalar mohiyatini shunday belgilab berdi: – Paxta va g‘alla yetishtirishga davlat buyurtmasini bekor qilib, ushbu mahsulotlarni bozor tamoyillari asosida xarid qilish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tamiz. Agar bu yo‘ldan bormasak, fermer va dehqonlarimiz mahsulot yetishtirishda erkin bo‘lmaydi, ular o‘zlari kutganlaridek manfaat ko‘rmaydi, hokimlarning esa ish uslubi o‘zgarmaydi.

Mazkur fikrlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda “G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari bilan huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

14.4. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalalari

O‘zbekistonda oziq-ovqat iste’moli holati quyidagilar bilan belgilanadi:

- jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, aholi iste’mol xarajatlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli ulushi 50% dan kam bo‘lishi lozim.

- mustaqillikka qadar 1990-yilda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirilish darajasi quyidagicha bo‘lgan

edi: go‘sht mahsulotlari 46,0%, sut mahsulotlari 57,0%, qand 56,0%, konditer mahsulotlari 49,0%, mevalar 51,0%, kartoshka 18,0%.

- respublikaga iste’mol qilinadigan mahsulotlar hajmining quyidagi ulushi chetdan olib kelinardi: donning 80% i, go‘sht mahsulotlarning 50% i, sut mahsulotlarining 60% i, kartoshkaning 50% i, qandning 100% i va boshqalar

- O‘zbekistonda maqsadli va istiqbolni o‘ylab oziq-ovqat va don xavfsizligini ta’minlashga, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarni ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish aholini muntazam o‘sib borayotgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq ta’minlash va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojining 80 foizini mahalliy tovar resurslari hisobidan qondirish imkoniyatini yaratdi.

O‘zbekistonda oziq-ovqat iste’molining holati va rivojlanish tendensiyalari:

- respublikada aholi tomonidan sabzavot mahsulotlarini iste’mol qilishning ko‘payishiga jiddiy e’tibor berilmoqda va u aholini oziq-ovqat mahsuloti iste’moli ratsioni tarkibini yaxshilashga va uni Umumjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etiladigan yog‘, uglevodlar, oqsillar, vitaminlar va quvvat qadriyatlari o‘rtasidagi nisbatga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

- O‘zbekistonda sabzavot va mevalarni aholi iste’mol mahsulotlari ratsionidagi ulushi 40-50% tashkil etib, xalqaro standartlarga muvofiq kelmoqda va uning jon boshiga kundalik iste’moli 400 grammni tashkil etmoqda.

- O‘zbekistonda aholining bir kunda iste’mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarini kaloriyalik darajasi 2500 kkal. tashkil etib, xalqaro normalarga mos kelmoqda.

- mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari turlari bo‘yicha amalda erishilgan iste’mol darajasi (iste’mol savati) O‘zbekiston uchun tavsiya etilgan normativlarga, mezonlariga nisbatan yuqoridir. Lekin bu O‘zbekiston aholisini don mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish (6,5 mln tonna) ta’minlangan holda non mustaqilligiga erishish imkoniyatini bermadi. Gap shundaki, sug‘oriladigan yerga ekiladigan kuzgi bug‘doy sifati yaxshi, sifatli tandir nonini yopish

imkonini bermaydi. Shuning uchun mamlakat har yili taxminan 2 mln. tonna bug‘doyni Qozog‘istondan sotib oladi.

Mustaqillik yillarida sholi, makkajo‘xori va arpa bilan band bo‘lgan yerlar miqdori kamaygan holda, kartoshka ekiladigan maydon 43 mingdan 68 ming gektargacha ko‘paydi. Hozirgi zamon agrartexnologiyalarini qo‘llash tufayli kartoshka hosildorligi uch marta va yalpi hosil besh marta ko‘paydi.


O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi har doim iqtisodiyotning boshqa sohalarida donor bo‘lib kelgan, mamlakatning haqiqiy vazifalarini hal qilish uchun milliy daromadni to‘ldirish manbai bo‘lgan. Asosiy milliy iqtisodiy nisbatlar va butun mamlakat iqtisodiyotining o‘sishi ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligining holati va rivojlanish sur’atlariga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligiga milliy daromad qiymatining qariyb 8% va balans foydasining 4,5% i to‘g‘ri keladi.

Mustaqillik yillarida sanoatda ham iste’mol mollari, shu jumladan, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jadal sur’atlarda o‘sdi.

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 197,9 trln so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 119,4% ga, uning jami sanoatdagi ulushi esa 35,9% ga to‘g‘ri keldi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada 67,6 trillion so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 17,5% ga oshdi. 2021-yilning shu davriga nisbatan respublika bo‘yicha o‘rtacha iste’mol tovarlari ishlab chiqarishda Andijon viloyati (143,1%), Sirdayo viloyati (125,8%) hamda Xorazm (125,5%) viloyati korxonalari tomonidan yuqori o‘sish sur’ati kuzatildi.

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 34,2%, nooziq-ovqat mahsulotlar 65,8% ni tashkil etdi. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida iste’mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 35,1%, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 64,9% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2021-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o‘sish

sur'ati 117,5%, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 120,4% ga yetdi.



14.19-rasm. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi[128]

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog' liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib 23,5%, shuningdek, Andijon viloyati 20,6%, Toshkent viloyati 11,6%, Samarqand viloyati 9,3% ekanligi kuzatildi. Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 5 551,3 ming so'm bo'lgani holda, Toshkent shahrida – 15 964,9 ming so'm, Andijon viloyatida – 12 418,7 ming so'm, Toshkent viloyatida – 7 723,6 ming so'm va Xorazm viloyatida – 5 906,8 ming so'm ekanligi kuzatildi.

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 29,3%, shuningdek, Toshkent shahri 19,7%

[128] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr, Toshkent-2023-y.

ni, Toshkent viloyati 9,1% ni, Samarqand viloyati 8,9% ni tashkil etdi. Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelib, 30,7% ni, Toshkent viloyatiga 16,3% va Samarqand viloyatiga 10,0% ekanligi kuzatildi.

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 142,6 trln so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 25,9% ni tashkil etgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 27,4% ga to‘g‘ri keldi.

Go‘shtni qayta ishlash ulushi Toshkent va Andijon viloyatlarida kuzatiladi. Sutni qayta ishlash ulushi esa Namangan va Toshkent viloyatlarida birmuncha yuqoridir. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash darajasi mamlakatimizda ancha past bo‘lib, bu borada muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Bu muammolar qayta ishlash tarmoqlari korxonalari sonining kamligi, ularning asosiy ishlab chiqarish fondlarining ancha eskirganligi, qayta ishlash korxonalarining respublika hududlari bo‘ylab notekis joylashtirilganligi bilan bog‘liqdir.

Endilikda bu muammolarni hal etish uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari sonini barcha hududlarda ko‘paytirish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, yangi texnika va texnologiyalar bilan qayta jihozlash asosida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash omborlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Agrar siyosat yoki qishloq xo‘jaligi siyosati – bu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va agrobiznesning boshqa tarmoqlarini dinamik va samarali rivojlantirishga qaratilgan siyosatni ifoda etadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi holati turli xil ichki va tashqi omillar ta’siridan qat’i nazar, aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojlarini iste’mol va oziq-ovqat sifati me’yorlariga muvofiq to‘liq qondirish imkonini beruvchi mamlakat iqtisodiyoti va agrosanoat kompleksining holatini nazarda tutadi. Qonunchilik darajasida oziq-ovqat

xavfsizligini ta'minlash muammosi davlatning Milliy xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlari to'plami tarkibida aks etadi.

Agrosanoat majmuasiga e'tiborning ustuvorligi oziq-ovqat xavfsizligi va mamlakat mustaqilligini ta'minlash zarurati, qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiy kompleksdagi muhim o'rni, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining texnologik o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Qishloq xo'jaligining iqtisodiyot tarkibidagi ahamiyati inson faoliyati va mehnatni takror ishlab chiqarishning asosi sifatida oziq-ovqat ishlab chiqarish, boshqa tomondan, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun xomashyo ishlab chiqarish bilan belgilanadi. Mohiyatan qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligining oziq-ovqat xavfsizligi va mamlakat mustaqilligini ta'minlashdagi roli na siyosiy tizimga va na ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimiga bog'liq emas. XX asrning boshlarida, sanoat inqiloblari va keng ko'lamli sanoatlashtirish davrida, qishloq xo'jaligi sohasi sanoat bilan taqqoslaganda ishlab chiqarish jihatidan yutqazsa-da, uning siyosiy ahamiyati nihoyatda yuqori ekanligi sezildi. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining hozirgi bosqichida oziq-ovqatdan foydalanish masalalari hali ham davlat geosiyosatining ustuvor tarkibiy qismlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Milliy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning yo'nalishlaridan biri sifatida davlat agrar siyosatining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- qishloq hududlarini rivojlantirish,
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish,
- qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish,
- qishloq aholisining bandlik darajasini oshirish va ularning turmush darajasini yaxshilash,
- yer resurslaridan oqilona foydalanish.

Shu tariqa, qishloq xo'jaligi siyosatining ustuvor maqsadi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va qishloq xo'jaligi bozori ishtirokchilari, birinchi navbatda iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishdan iborat ekanligini ta'kidlash mumkin.

Iste'molchilarning hayotiy manfaatlari zarur miqdordagi yuqori sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini maqbul narxlarda sotib

olish imkoniyatiga borib taqaladi. Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqaruvchilari, oʻz navbatida, oʻz mahsulotlarini xarajatlarni qoplash va foyda olish imkonini beradigan narxlarda kafolatlangan sotishdan manfaatdor boʻladilar.

Biroq, jahon oziq-ovqat tizimlarining oʻziga xosligi shundaki, qoʻshilgan qiymatning taqsimlanishi qishloq xoʻjaligi zarariga amalga oshadi. Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish manbai boʻlishiga qaramay, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqaruvchilarining faoliyat natijalari zarar bilan yakunlanuvchi teskari vaziyat vujudga keladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi holatini tahlil qilishda odatda quyidagi mezonlardan foydalanish maqbul:

- mamlakatning oziq-ovqat bilan oʻzini oʻzi taʼminlashi va isteʼmolchilar uchun oziq-ovqatning amalda mavjudligi;
- aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiy jihatdan arzonligi;
- oziq-ovqat xavfsizligi.

Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashda muhim oʻrin tutuvchi agrar siyosatning ustuvor chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

- oziq-ovqat bozori infratuzilmasini modernizatsiya qilish va qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat sektorining barcha ishlab chiqaruvchilari uchun uning imkoniyatlarini oshirish;
- mintaqaviy darajada mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi holatini har tomonlama tahlil qilish tizimini shakllantirish;
- turli mintaqalarda qishloq xoʻjaligi mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishda mintaqalararo savdo toʻsiqlarini oʻrnatishga toʻsqinlik qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini nazorat qilish boʻyicha yagona davlat organini shakllantirish.

Oziq-ovqat sohasidagi agrar siyosatning oʻrni nafaqat oziq-ovqat bilan taʼminlash va uning zaxiralarini yaratish jarayonlarini tartibga solish, balki qishloq xoʻjaligi mahsulotlari milliy ishlab chiqaruvchilarini qoʻllab-quvvatlashga ham qaratilganligi bilan ajralib turadi. Mamlakat agrar siyosatida qishloq joylarda barqaror bandlik darajasini shakllantirish va qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishida band boʻlganlarning daromadlarini koʻpaytirishga alohida eʼtibor

qaratiladi. Shu munosabat bilan agrar siyosat mamlakatni barqaror oziq-ovqat bilan ta'minlash, agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va agrosanoat majmuasining resurs salohiyatini saqlab qolishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Takrorlash uchun savollar:

1. Agrar sohada amalga oshiriluvchi iqtisodiy siyosatning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Qishloq xo'jaligida klasterlashtirish siyosati va uni amalga oshirish xususiyatlari haqida fikringiz?
3. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yer islohotlarining o'ziga xos jihatlari?
4. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash vazifalari nimalardan iborat?
5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash masalalari?

Logistika ishlab chiqarishning homiysi hisoblanadi. Logistlar va ishlab chiqarish texnologlari birgalikda mo'jizalar yaratishga qodirlar. Zero, ishlab chiqarishni samarali tashkil etish shartlaridan biri — bu aniq yo'lga qo'yilgan ichki va tashqi ta'minot, shuningdek, eng ilg'or texnologiya hisoblanadi.

XV BOB. DAVLATNING TRANSPORT-LOGISTIKA SIYOSATI

15.1.Xalqaro transport-logistika sohasining asosiy tushunchalarini tizimlashtirish

15.2. Xalqaro transport-logistika sohasini rivojlantirish trendlari

15.3. O'zbekistonda transport-logistika sohasini rivojlantirish istiqbollari

15.1.Xalqaro transport-logistika sohasining asosiy tushunchalarini tizimlashtirish

Globallashuv va mamlakatlar o'rtasidagi tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi sharoitida transchegaraviy yuk tashish hajmi o'sib, ombor va transport tizimining texnologik darajasi oshib bormoqda. Mamlakatlar chegarasini kesib o'tgan holda moddiy tovar va ne'matlarni bir manzildan ikkinchi manzilga eng maqbul yo'l va vositalar orqali yetkazib berilishini tashkillashtirishga xizmat qiluvchi xalqaro transport logistikasi bugungi kunda xalqaro savdoni rivojlantirishning eng muhim omili hisoblanadi va ko'p qirrali iqtisodiyot fanining asosiy tashkil etuvchilaridan biri sanaladi.

Transport logistikasi — bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning transport-logistika faoliyatining transport-logistik xizmatlar ko'rinishidagi tizimli integratsiyasi borasidagi fan hisoblanadi. Oddiyroq qilib aytganda, transport logistikasi transport vositalari, yuk va yo'lovchilar oqimini boshqarishga oid fandir. Yuk — transport logistikasining asosiy vazifasi — mahsulotlarni muayyan ta'minot zanjiri bo'yicha transport vositalari ko'magida tashishdan iborat bo'lgani holda, o'z navbatida, logistika operatsiyalari va funksi-

yalari, shu jumladan, ekspeditorlik, yuklarga qayta ishlov berish, qadoqlash, yuklarga egalik huquqini berish, xatarlarni sug‘urtalash, bojxona amaliyoti va boshqalardan tashkil topadi.

Yuk tashish logistikasining vazifalari quyidagilardan iborat:

– transport vositasi tipi yoki turini tanlash;

– transport vositalari tipi va turi, shuningdek, ombor va ishlab chiqarish operatsiyalarini hisobga olgan holda, transport jarayonlarini rejalashtirish, ya’ni ishlab chiqarish – transport – ombor xo‘jaligi jarayonlarining texnologik jihatdan yaxlitligini ta’minlash;

– tovarlarni yetkazib berishning oqilona yo‘nalishlarini tanlash va tashkil etish.

15.1-jadval


“Transport majmui” tushunchasining ta’riflari

Ta’rifi	Manba
Transport majmui – bu yuk va yo‘lovchilarni tashish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi bir nechta iqtisodiyot tarmoqlarining yaxlitligi	Логистика/Д. Умарова [ва бошқ.] ўқув қўлланма/ Т.: Чўлпон номидаги НМИУ, 2016, — 252 бет,
Transport majmui — bu tovarlar va yo‘lovchilarni manzillariga yetkazish borasida ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishga ixtisoslashgan xalq xo‘jaligining tarmoqlari majmui.	Ермакова, Ж.А. Экономика транспортного обслуживания в туризме [Электроннўй ресурс] : конспект лекций : учеб. пособие / Ж.А.Ермакова, О.П.Тетерятник, Н.В.Лучко. – Оренбург : Оренб. гос. ун-т, 2013.
Transport majmui — bu o‘zaro ta’sir qiluvchi va o‘zaro bog‘liq, bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro chambarchas bog‘liq holda rivojlanuvchi, har bir turdan samarali foydalanishni ta’min etuvchi turli xil transport vositalari turlari to‘plami.	Ходоскина, О. А. Управление затратами в системе железнодорожных пассажирских перевозок на основе логистического подхода: автореф. дис. ... канд. экон. наук : 08.00.05 / О. А. Ходоскина ; Белорус. гос. экон. ун-т. – Минск, 2018. – 26 с
Transport majmui — bu o‘zaro aloqada bo‘lgan, jamiyat va aholining yuk va yo‘lovchilarni tashish borasidagi ehtiyojlarini to‘liq qondirishga xizmat qiluvchi o‘zaro bog‘liq transport turlarining hududiy uyg‘unligi.	Дутина, А. А. Перспективы развития международной логистики в рамках концепции «Один пояс – один пут» / А.А.Дутина // Новая экономика. – 2017. – №2 (70). – С. 5–14.
Transport majmui — transport tashkilotlari, tashuvchilar, transport infratuzilmasi obyektlari, transport vositalari, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, transport sohasi xodimlariga ijtimoiy-maishiy hamda madaniy xizmat ko‘rsatish sohasidagi tashkilotlar majmui	O‘zbekiston Respublikasining 09.08.2021 yildagi O‘RQ-706-son “Transport to‘g‘risida” Qonuni

Yuqorida tilga olib o‘tilgan vazifalarning barchasi o‘zaro bog‘liqlikda hal etiladi. Transport majmui obyektlariga odatda quyidagilar kiradi: transport, transport sanoati (transport muhandisligi, transport qurilishi, tashish jarayonlarining moddiy-texnik ta’minoti),

transport sohasi uchun mutaxassis tayyorlovchi muassasa va tashkilotlar, loyihalash va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi muassasalar, ta'mirlash korxonalari. Logistika faoliyati nuqtai nazaridan mamlakatning transport salohiyati iqtisodiyot transport sektorining imkoniyatlarini belgilab beruvchi transport resurslari (vositalar, tizimlar va infratuzilma), shuningdek, ulardan foydalanishning tashkiliy mexanizmlari va jarayonlari to'plamini ifoda etadi. Logistika esa, o'z navbatida, moddiy, moliyaviy va axborot resurslarining turli tizimlar, shu jumladan, transport tizimlarida harakatlanishini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish borasidagi ta'limotni ifoda etadi.

Xalqaro transport-logistika salohiyati – bu xalqaro transport-logistika faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha mavjud imkoniyatlar, vositalar va shart-shartlar to'plamini ifoda etadi (ba'zi tadqiqotchilar xalqaro transport-logistika salohiyati tushunchasini izohlashda tranzit transport-logistika salohiyati, transchegaraviy transport-logistika salohiyati tushunchalaridan bir o'rinda foydalanadilar).




15.1. Tushunchalarning o'zaro nisbati

JST va BMT xizmatlarni tasniflashning asosiy belgisi sifatida ularning faoliyat yo'nalishidan foydalanadilar va transport xizmatlarini ham milliy, ham xalqaro xizmatlar tasnifida alohida guruhga ajratadilar.

JST transport xizmatlari eksportini muayyan bir mamlakatning

transport kompaniyasi tomonidan norezident uchun mamlakat ichida, mamlakat tashqarisida yoki tranzit tartibda koʻrsatiluvchi yuk tashish va tegishli logistik xizmatlari sifatida aniqlashtiradi. Eksport tarkibi quyidagilardan tashkil topadi: tranzit yuklarni tashish, eksport yuklarini tashish va mamlakat hududi boʻylab norezidentlar uchun tegishli yuk tashish va logistik xizmatlarni koʻrsatish. 15.1-jadvalda “mamlakat transport majmui” tushunchasining turli xil ta’riflari keltirilgan.

Ba’zan “transport tizimi” tushunchasi “transport infratuzilmasi” tushunchasi bilan bir oʻrinda qoʻllanilsa-da, biroq u “transport infratuzilmasi”ni ham oʻz ichiga olgan kengroq tushuncha sifatida talqin qilinadi (15.1-rasm).



15.2-rasm. Transport tizimi tuzilmasi

Transport tizimi — bu nafaqat yo‘llar tarmog‘i (ya’ni transport infratuzilmasi), balki texnik va boshqaruv tashkil etuvchilarini ham o‘z ichiga oladi. Mamlakat transport tizimining tuzilmasi 15.2-rasmda keltirib o‘tilgan, shu bilan bir qatorda, 15.2-jadvalda transport tizimi tushunchasining turli xil ta’riflari ham keltirib o‘tilgan.

Transport-logistika tizimi — bu mamlakat iqtisodiyotining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash va transport xizmatlari eksportini oshirish maqsadida barcha transport tarmoqlari, logistika omborlari, mehnat resurslari va transport va yuklarni saqlashning

barcha turlarini turli darajadagi boshqarish tizimlarining yaxlitligi hisoblanadi.

Boshqacha qilib aytganda, transport — logistika tizimi-bu yuklarni tashish va saqlash borasida koʻrsatiluvchi xizmatlarni boshqarish tizimi, transport vositalari, yoʻllar, inshootlar va boshqa shu kabi mulklar majmui; transport-logistika infratuzilmasi obyektlari va subyektlari, ular oʻrtasida tovarlarni tashish, saqlash, taqsimlash, shuningdek, tovar oqimlarini axborot va huquqiy ta'minlash funksiyalarini bajaruvchi moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari toʻplamidir.

Transport tizimining tashkil etuvchilari turli mulkchilik, jumladan, davlat va xususiy mulk shakllarida ham boʻlishi mumkin.

Transport-logistika tizimiga quyidagilar kiradi: yoʻllar, texnik inshootlar, yuk stansiyalari, yoʻlovchi vokzallari, chiptaxonalar, yuklarni tashish bilan shugʻullanuvchi transport kompaniyalari, logistika markazlari, omborlar, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari va boshqalar. Iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va siyosiy omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan mamlakatning transport-logistika tizimi quyidagilarni ta'min etishi lozim:

tashishlarni rejalashtirishga kompleks yondashuv;

turli transport turlari oʻrtasida umumiy tashish hajmini oqilona taqsimlash;

mamlakatning transport sohasidagi qonunchilik hujjatlari asosida yuk tashish tartib-qoidalarini bir xillashtirish;

turli xil transport vositalarining imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish borasida ularning iqtisodiy xususiyatlari va joziba-dorligini hisobga olgan holda tarif tizimini ishlab chiqish;

15.2-jadval

“Transport tizimi” tushunchasining talqini

Ta’rifi	Manba
Transport tizimi — bu barcha turdagi transport vositalarining transport tarmog‘i, harakatlanuvchi transport vositalari, transport sohasi mehnat resurslari, davlat va mahalliy darajada barcha turdagi transport vositalarini boshqarish tizimini o‘z ichiga oladi.	Ковалев, М. М. Белорусская транспортная логистика: современное состояние и перспектив развития / М.М.Ковалев, А.А.Королева, А.А.Дутина // Вестник ассоциации белорусских банков. – 2016. – № 9–10 (784–785). – С. 2–20.
Transport tizimi — bu tashishlarni amalga oshirishda o‘zaro ta’sir va aloqada bo‘luvchi turli transport vositalarining majmui	Fayzullayev J.S. Transport tizimi iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil
Transport tizimi — bu transportning barcha turlarini va transport jarayonining barcha tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘liqlikda birlashtiruvchi, mamlakat iqtisodiyotining muvaffaqiyatli amalda bo‘lishida transport-iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishni ta’min etuvchi yo‘llar, texnik vositalar va tashish xizmatlari tarmog‘ining hududiy birlashmasi.	Jalolova Madina Shopo‘lat qizi. Transport tizimi iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2023-yil

– turli transport vositalarining iqtisodiy muvozanatini ta’minlash;

– mamlakatda mavjud barcha transport turlari faoliyatini muvofiqlashtirgan holda tashkil qilish;

– mamlakatning transport xizmatlariga bo‘lgan barcha ehtiyojlarini qondirish;

– keng qamrovli transport-ekspeditorlik xizmatlarini taqdim qilish;

– yuk tashish sohasida ilg‘or texnologiyalarni keng joriy qilish;

– transport sohasini boshqarishni yo‘lga qo‘yish, iqtisodiy-matematik usullar va logistika modellaridan foydalangan holda oqilona sxemalar va yuk oqimlarini tanlash;

– logistika texnologiyalaridan foydalangan holda tovarlarni ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga o'tkazish yo'lida turli xil transportlarning o'zaro ta'sirini qo'llab-quvvatlash;

– transport, texnik vositalar va yuklarni qayta ishlashning zamonaviy usullarini birlashtirish va joriy etish;

– turli xil transportlarning o'zaro aloqasini samarali yo'lga qo'yish.

– Iqtisodiyotning o'sishi, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi va mudofaa qobiliyati, mamlakat yaxlitligini ta'minlash uchun har qanday mamlakat barqaror va samarali transport tizimiga ega bo'lishi lozim, bunday tizimning asosini transport infratuzilmasi tashkil qilishi hech kimga sir emas.

15.3-jadval

“Transport infratuzilmasi” tushunchasining talqini

Ta’rifi	Manba
Transport infratuzilmasi – bu tashish jarayonining tez va to‘siqsiz bajarilishini ta’min etuvchi moddiy-texnik va tashkiliy shart-sharoitlarning to‘plami	Logistika / D.Umarova [va boshq.] o‘quv qo‘llanma/ T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2016, – 252 bet,
Transport infratuzilmasi – bu tashish va xizmat ko‘rsatishni amalga oshiruvchi transport korxonalari va tarmoqlarining umumiyligi sifatida talqin etiluvchi infratuzilmaning bir ko‘rinishidir.	Hamidov O.X.Transport servisini tashkil etish:O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot,2012.-148 bet.
Transport infratuzilmasi – bu yo‘llar tarmog‘i, shahar va shahardan tashqari yo‘lovchi va yuk tashish transporti liniyalari va inshootlari, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish obyektlari, yuklarga ishlov berish inshootlari, transport vositalarini doimiy va vaqtincha saqlash va texnik xizmat ko‘rsatish obyektlarini o‘z ichiga oluvchi shahar va shahardan tashqari yo‘lovchi va yuk tashishga xizmat qiluvchi obyekt va kommunikatsiyalar tizimidir	Ходоскина, О. А. Управление затратами в системе железнодорожных пассжирских перевозок на основе логистического подхода : автореф. дис. … канд. экон. наук : 08.00.05 / О. А. Ходоскина; Белорус. гос. экон. ун-т. – Минск, 2018. – 26 с
Transport infratuzilmasi – bu transportda tashish jarayonining tez va to‘siqsiz bajarilishini ta’minlaydigan moddiy-texnik va tashkiliy shart-sharoitlar majmui	Logistika / Q.A.Dadaboyev. Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. T.: Iqtisod-moliya, 2007. — 236 b.
Transport infratuzilmasi obyektlari – yo‘lovchilarga, yuk jo‘natuvchilarga, yuk oluvchilarga, tashuvchilarga va tashish jarayonining boshqa ishtirokchilariga xizmat ko‘rsatish, shuningdek, transport vositalarining ishlashini ta’minlash uchun mo‘ljallangan inshootlar, ishlab chiqarish-texnologik majmualar	O‘zbekiston Respublikasining 09.08.2021 yildagi O‘RQ-706-son “Transport to‘g‘risida” Qonuni

15.3-jadvalda transport infratuzilmasining turli ta’riflari keltirib o‘tilgan bo‘lib, ularni umumlashtirish asosida quyidagicha umumiy ta’rifni keltirish mumkin: transport-logistika infratuzilmasi – bu yuklarni saqlash va texnik xizmat ko‘rsatish (logistika markazlari)

va yo‘lovchilarni tashish funksiyalarini ta’min etuvchi turli xil transport (yo‘lovchi, yuk va boshqalar), transport tuzilmalari (avtomobil va temir yo‘l tarmog‘i) obyektlarining o‘zaro bog‘liqligini ifoda etuvchi turli transport vositalarining o‘zaro bog‘liq tizimidir.

Logistika markazlari (LM) va transport-logistika markazlari (TLM) transport-logistika infratuzilmasida alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Transport to‘g‘risida”gi Qonunida “Transport-logistika markazi – transport infratuzilmasi obyekti, u tashish bilan turdosh bo‘lgan tayyorgarlik va taqsimlash xizmatlarini, shu jumladan, yuklarni to‘plash, saqlash, ularga ishlov berish va tarqatish xizmatlarini hamda yuk va transport vositalari bilan boshqa operatsiyalarni bajarish uchun mo‘ljallangan inshootlar joylashgan maxsus ajratilgan maydonni o‘z ichiga oladi”[129] deb ta’rif berib o‘tilgan. Logistika markazi – bu asosiy funksiyalari yuklarni tashish va saqlash, bojxona rasmiylashtiruvi va axborot xizmatlari ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan ixtisoslashgan korxonadir. Logistika markazi, shuningdek, ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga materiallar oqimi jarayonida bir qator logistika xizmatlarini ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan binolar, inshootlar va uskunalar joylashgan maxsus ajratilgan maydonni o‘z ichiga olgan mulkiy kompleks hamdir.

Transport-logistika markazi yuklarni tashish bo‘yicha bir qator transport-ekspeditorlik xizmatlarini, shuningdek, transport-logistika faoliyat ishtirokchilariga qo‘shimcha xizmatlarni ko‘rsatishni ko‘zda tutadi. Transport-logistika markazlari ekspeditorlik va transport kompaniyalari uchun bo‘sh joylar, yuk avtomobillari uchun to‘xtash joylarini taqdim qiladi. Zamonaviy transport-logistika markazlarida transport vositalariga texnik xizmatlar ko‘rsatiladi, faoliyat ishtirokchilariga bojxona, brokerlik va shu kabi xizmatlar taqdim qilinadi. Transport-logistika markazlarining asosiy funksiyalari sirasiga yuklarni saqlash va tashish, bojxona rasmiylashtiruvi va yuklarni saralash, yuklarni boshqa transport vositalariga yuklash kabilarni kiritishimiz mumkin. Bundan tashqari, transport-logistika markazlari axborot jihatdan qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalarni ham amalga oshiradilar.

[129] O‘zbekiston Respublikasining 09.08.2021 yildagi O‘RQ-706-son “Transport to‘g‘risida” Qonuni, https://lex.uz/docs/5563039

Tovarlar oqimining transport-logistika tizimlarini shakllantirish jarayonida provayderlar yuk egalarini sotish va taqsimlash funksiyalari (qadoqlash, omborga joylash va boshqalar) dan ozod qilgan holda yuk egalariga keng qamrovli transport xizmatlarini koʻrsatishni oʻz zimmalariga oladilar.

Tovarlar oqimining transport-omborxona ta'minoti samaradorligini oshirish taklif etilayotgan tranzit xizmatlari roʻyxatini kengaytirishda yangi imkoniyatlarni izlab topishga undaydi va tranzit logistikasi maqsadlarining sifatli bajarilishini kafolatlaydi. Quyida provayderlar uchun transport-logistika xizmatlarining beshta darajasini aniqlashtirib oʻtamiz: First Party Logistics (1PL) – barcha operatsiyalarni yuk egasi boʻlgan kompaniyaning oʻzi bajaruvchi tizim. Second Party Logistics (2PL) – tovarlarni tashish va omborga joylash boʻyicha bir qator an'anaviy xizmatlarni taqdim etish imkonini beruvchi tizim. Third Party Logistics (3PL) – qoʻshimcha xizmatlar tizimi, shu jumladan, yuklarni an'anaviy saqlash va oraliq saqlash (cross docking), shuningdek, axborot tizimlarini loyihalash va rivojlantirish, subpudratchilar xizmatlaridan foydalanish. Fourth Party Logistics (4PL) – mahsulotni yetkazib berish jarayonida ishtirok etadigan barcha tashkilotlarning funksiyalarini birlashtirishni oʻz ichiga olgan tizim. 4PL-provayderining vazifasi uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishish va biznes maqsadlarini kengaytirish uchun mijoz kompaniyasining barcha logistika jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilishdan iboratdir. Fifth Party Logistics (5PL) – Interent-logistika deb ataluvchi tizim — elektron axborot tashuvchilaridan foydalangan holda yagona yuk tashish zanjirining barcha tarkibiy qismlarini rejalashtirish, tayyorlash, boshqarish va nazorat qilishdir.

Transport-logistika faoliyati – bu transport logistikasi xizmatlarini koʻrsatish jarayonidir. Transport- logistika xizmatlari – bu yuklarni, yoʻlovchilarni va yuklarni tashishni (harakatlanishni) tashkil etish bilan bogʻliq xizmatlarni ifoda etadi. Quyida transport logistikasining bir qator xususiyatlarini tilga olib oʻtamiz.

1. Transport-logistika tizimida moddiy jihatdan yangi mahsulot ishlab chiqarilmaydi, uning yordami bilan zarur xomashyo va ishlab chiqarilgan mahsulotlar belgilangan manzilga yetkaziladi. Trans-

port-logistika xizmatlar yakuniy mahsulot qo‘shilgan qiymatining bir qismini tashkil qiladi.

2. Transport-logistika tizimi faoliyatining natijasi korxonalar va aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarda namoyon bo‘ladi. Transport-logistika xizmatlari, boshqa barcha xizmat turlari singari ilg‘ab bo‘lmaslik, ko‘rsatilayotgan xizmatlar natijasini obyektiv baholay olmaslik, xizmatlarning ularni taqdim etuvchidan ajralmasligi, transport xizmatlari zaxiralarini yarata olmaslik kabi xususiyatlarga ega.

3. Mazkur xizmatlar faqatgina yoqilg‘i, elektr energiyasi va boshqa materiallardan foydalanish orqali ko‘rsatilishi mumkin.

4. Transport logistikasida kapitalning o‘sishi faqatgina pul qiymatida ko‘zga tashlanadi.

5. Ko‘pincha transport-logistika xizmatlarida tashish har xil transport turlari va har xil turdagi omborlar (bojxona va boshqalar) ishtirokida amalga oshirilishi mumkin.

15.2. Xalqaro transport-logistika sohasini rivojlantirish trendlari

Xalqaro transport-logistika xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi transport aloqalarini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni yaratish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish borasida yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Shu sababli bugungi kunda transport-logistika xizmatlari autsorsingi jadal sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Milliy transport-logistika salohiyatini rivojlantirish yo‘nalishlari va istiqbollariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi zamonaviy xalqaro transport logistikasining eng muhim global tendensiyalarini tahlil qilamiz.

Logistika sohasidagi eng zamonaviy trendlardan biri — bu logistika sohasini raqamlashtirish hisoblanadi. Logistikaning tadrijiy taraqqiyoti raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog‘liq. Aloqa vositalari va server tizimlarining rivojlanishi transport jarayonida ishtirokchilar o‘rtasida barcha asosiy turdagi hujjatlarni elektron shaklda muntazam ravishda almashish imkoniyatini yaratdi. Elektron hujjat aylanishining (EDI) joriy etilishi yuk

va transport hujjatlarini avtomatik ravishda saqlash va almashish imkonini beradi. EDIdan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat: soddalashtirilgan hujjatlar aylanmasi, hujjatlarni oldindan rasmiylashtirish, hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlarini kamaytirish, hujjatlarni tezkor uzatish, yuklarni manzilga yetkazishni bevosita axborot bilan ta'minlash imkoniyati. Raqamlashtirishning muhim sohasi elektron deklaratsiya bo'lib, bulutli texnologiyalardan foydalanishga o'tish davom etmoqda – bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishda bulutli texnologiyalardan keng foydalanish hisobiga transport logistikasi tezligining keskin oshishi kutilmoqda.

Raqamli logistika sohasidagi muvaffaqiyatli konsepsiyalardan biri — bu xalqaro transport yo'laklariga xizmat ko'rsatishda asosiy unsur sanaluvchi raqamli logistika markazlari hisoblanadi. Raqamli logistika markazlari logistika kompaniyalariga quyidagi sohalarda samaradorlikka erishish imkonini beradi:

ma'lumotlar (hujjatlar) va tashish to'g'risidagi boshqa turli xil ma'lumotlarning elektron almashinuvi va shu kabilar, tovarlarni yetkazib berishni tezlashtiradi;

– ta'minot zanjirini rejalashtirish pirovardida logistika xarajatlarini kamaytiradi. Moslashuvchanlik ishlab chiqaruvchilar uchun muvaffaqiyatga erishishda muhim mezonga aylanadi-ishlab chiqaruvchilar zaxiralarni kamaytirishga, omborlarda kamroq saqlashga va maxsus buyurtma asosida ishlab chiqarishga harakat qilishadi;


– zaxiralarni boshqarish ularning hajmini kamaytirish imkonini beradi;

– multimodal tashishni rejalashtirish (maxsus kompyuter dasturlari eng yaxshi yo'nalish va transport turlarini tanlashga, yetkazib berish qiymatini hisoblashga yordam beradi). Smartfonlarning keng qo'llanilishi tufayli o'z raqobatbardoshligini oshirish borasida logistika kompaniyasi ular yordamida yuklarni yetkazib berish yoki saqlash vaqti va narxini hisoblash mumkin bo'lgan mobil ilovalarni yaratishi;

– chegaralardagi yo'llar holati va navbatlarga kompyuter tizimlari yordamida tezkor javob berish o'tkazish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Internet orqali savdo logistikasini tashkil qilish – global trans-

port-logistika sohasidagi ikkinchi muhim trend hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda internet orqali savdo aloqalari, ya'ni elektron tijorat asta-sekin kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ko'pchilik iste'molchilar maxsus yetkazib berish xizmati yordamida uyda hamma narsani qabul qilib, kerakli tovarlarni masofadan sotib oladilar.



15.3-rasm. Dunyoda elektron tijorat bozori dinamikasining o'zgarishi, foizda[130]

Elektron tijorat tezligi va narxi jihatidan an'anaviy usulga qaraganda samaraliroq savdo vositasiga aylandi, chunki endi barcha operatsiyalar onlayn tarzda amalga oshirilishi mumkin. Onlayn xaridlar va tovarlarni tez va bepul yetkazib berish kutilmalari logistikaga yangicha bosim o'tkazmoqda: internet orqali savdo yoki elektron tijorat yiliga 20 foizga o'sib bormoqda. Internet orqali savdo zamonaviy transport va logistika xizmatlari, shuningdek, yangi avlod omborlariga talabning omili hisoblanadi. AQSh va Buyuk Britaniyada chakana savdo aylanmasida onlayn savdoning ulushi taxminan 10 foiz, Xitoy, Fransiya va Germaniyada – taxminan 5 foizni tashkil qiladi.

[130] www.statista.com

Germaniyaning bozor va iste'molchilar ma'lumotlarini tahlil qilish asosida tahliliy hisobotlar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi Statista kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, elektron tijoratda chakana savdoning bugungi kundagi ulushi 15 foizga yaqin. Kompaniya ma'lumotlariga ko'ra, bu raqam 2023-yilda 22 foizga yetishi taxmin qilinmoqda (15.3-rasm).

Zamonaviy transport logistikasining rivojlanishiga xos bo'lgan uchinchi trend – bu konteynerizatsiya, ya'ni konteynerlarda yuk tashish hajmining doimiy o'sishi hisoblanadi. O'tgan asrning 70–yillaridan boshlab konteynerlardan foydalanish boshlandi – xalqaro transportda yuklarni yetkazib berishning eng ilg'or usullaridan biri, bu yuk tashishda yuqori xavfsizlikka erishishga imkon beradi, transport va saqlash xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi va yetkazib berish tezligini oshiradi. Asosiy konteyner trafigi 60 milliondan ortiq TEUni tashkil etadigan Osiyo–Yevropa Ittifoqi–Shimoliy Amerika uchburchagida jamlangan, shundan Osiyo va Shimoliy Amerika o'rtasida taxminan 25 million TEU va Yevropa Ittifoqi va Shimoliy Amerika o'rtasida taxminan 8 million TEU aylanadi. Konteyner yuklarining aksariyati dengiz orqali amalga oshiriladi (taxminan, 1,8 milliard tonna).

Konteynerda yuk tashishning global hajmi 2023-yilda 0,5-1,5 foiz va 2024-yilda 5,5-6,5 foizga o'sishi bashorat qilinmoqda.

To'rtinchi trend -mulkning mujassamlashuvi, shu jumladan, sotib olish va qo'shilishi hisobiga transport-logistika kompaniyalari monopollashuv darajasining ortishi hisoblanadi. So'nggi yillarda transport-logistika xizmatlari bozorida sotib olish va qo'shilish jarayonlari hukmronlik qilmoqda. Buning natijasida mijozlarga logistika xizmatlarining keng geografik difiversifikatsiyasini taqdim qiluvchi transport-logistika gigantlari vujudga kelmoqda.

Misol uchun, dengiz transportida tashiladigan yuk hajmining 80 dan ortiq qismi sotib olish va qo'shib olishlar natijasida yirik kompaniyalarga aylangan "Maersk Sealand", "P&O Nedlloyd", "Evergreen", "SMA CGM" kabi kompaniyalar hissasiga to'g'ri keladi. Xuddi shunday holatni havo transportida ham kuzatish mumkin, bu yerda yuk va yo'lovchi tashishning katta qismi bir nechta o'n yirik aviakompaniyalarga to'g'ri keladi. Ular orasida: "FedEx", "Lufthan-

sa", "Korean Air-Lines", "UPS", "Singapore Airlines", "Air France", "JAL", "Cathay Pacific", "British Airways" kabilarni tilga olib oʻtish mumkin.

Transport-logistika kompaniyalari integratsiyalashuvining asosiy shakllaridan biri — bu ularning alyans va ittifoqlarga birlashishi hisoblanadi. Aviakompaniya alyanslari aviatsiya bozorining deyarli 80 foizini nazorat qiladi. Germaniyaning "Lufthansa" kompaniyasi boshchiligidagi "Star Alliance" alyansi 14 ta kompaniyadan iborat boʻlsa, mavjud "Oneworld" alyansida 9 ta kompaniya oʻzaro hamkorlik qiladi. Dengiz transportida yuklarni jalb qilish va port terminallari va quruqlik operatorlari bilan ishlashni tashkil etish maqsadida dengiz tashuvchilarining alyanslari ("Grand Alliance", "YCC", "New World", "UASC") tashkil qilingan.

Integratsiyani ragʻbatlantiradigan muhim zamonaviy jarayon – bu vositachilar va oraliq saqlashni chetlab oʻtib, ishlab chiqaruvchidan isteʼmolchiga toʻgʻridan-toʻgʻri ekspress yetkazib berish ulushining koʻpayishi hisoblanadi. Toʻgʻridan-toʻgʻri yetkazib berish taʼminot zanjirida zaxiralarni saqlash bilan bogʻliq zaxiralar hajmi va xarajatlarini kamaytirish, buyurtma berish vaqtini qisqartirish, isteʼmolchilarga toʻgʻridan-toʻgʻri ishlab chiqaruvchi bilan muloqotga kirishish orqali pulni tejash imkonini beradi. FedEx, UPS, DHL kabi tezkor yetkazib berish bilan shugʻullanuvchi trans milliy kompaniyalar qisqa vaqt ichida dunyoning istalgan joyiga kichik yuk partiyalarini yetkazib beradi. Kompaniyalarning butun xalqaro logistik taʼminot zanjirini tashkil etish va boshqarish bilan bogʻliq operatsiyalarining aksariyati uchun javobgarlikni oʻz zimmasiga oluvchi transport — logistik vositachilar oʻrnining kuchayishi ham saʼy-harakatlarni birlashtirishni talab qiladi. Yuqori darajadagi logistika operatorlari 3PL (Third Party Logistics) va 4PL (Fourth Party Logistics)ning logistika xizmatlariga talab ortib bormoqda.

Beshinchi trend — xalqaro transport logistikasi va ishlab chiqarishni alohidalashtirishning sifat koʻrsatkichlariga talablarning oʻsishi hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi raqobatning sezilarli oʻsishiga olib keldi. Ilgari kompaniyalar bir shaharda faoliyat yuritadigan kompaniyalar bilan raqobatlashgan boʻlsa, endi ular nafaqat bitta mamlakatda, balki butun dunyo boʻylab tarqal-

gan kompaniyalar bilan raqobatlashmoqda. Bugungi kunda xalqaro bozorga chiqayotgan kompaniya har jihatdan jahon andozalariga javob berishi kerak.

Xalqaro logistika xizmatlari bozorida raqobatning yuqori darajasi xalqaro logistika kompaniyalarini doimiy ravishda raqobatbardoshligini oshirish yo‘llarini izlashga majbur qiladi. Bugungi kunda sifat birgina tovarlarni “o‘z vaqtida” manzilga yetkazib berishni anglatib qolmasdan, sifat va samaradorlikka erishishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan kompaniyalarni iste’molchilarga arzonlashtirilgan yetkazib berish xarajatlarini ta’min etuvchi keng qamrovli (qo‘shimcha) xizmatlarni taqdim etishga majburlaydi.

Tovarlarni “eshikdan eshikkacha” va “o‘z vaqtida” yetkazib berish borasida ilgari suriluvchi zamonaviy talablar logistika xizmati uchun maqbul narxni nazarda tutadi, bu tashish narxidan tashqari (odatda intermodal) logistika ma’lumotlarini uzatish uchun haq to‘lash, konteyner ijarasi uchun to‘lov, yuklarni konsolidatsiya qilish, dekonsolidatsiya va saqlash to‘lovlaridan tashkil topadi. Logistika xizmatlarining faqat narx va iste’mol xususiyatlariga asoslangan raqobatbardosh afzalliklari globallashuv sharoitida yetakchi ahamiyatini yo‘qotdi va moslashuvchanlik, cheklangan yetkazib berish muddati, ishonchli va sifatli yetkazib berish va tanlash imkoniyati birinchi o‘ringa chiqdi. Sektor xizmat ko‘rsatuvchilar bozoridan xaridor bozoriga o‘tdi, bunda ishlab chiqaruvchilarning alohida mijozlarning afzalliklarini moslashuvchan ishlab chiqarish va tezkor yetkazib berish tizimi bilan birlashtirish qobiliyati raqobatning hal qiluvchi omiliga aylanadi. Globallashuv sharoitida logistika va tovar oqimlarini samarali boshqarish xalqaro miqyosda ishlashni rejalashtirgan deyarli har qanday kompaniya raqobatbardoshligining asosiy tashkil etuvchisiga aylanadi.

Logistika jarayoni logistikaning tashkil etishning “7R” qoidasiga mos kelishi lozim:

– to‘g‘ri mahsulot (Right product);
– to‘g‘ri sifat (High quality);
– to‘g‘ri miqdor (Right quantity);
– o‘z vaqtida yetkazib berish (Right time);
– to‘g‘ri joy (Right place);

– to‘g‘ri mijoz (Right customer);
– to‘g‘ri xarajat darajasi (Right cost).

Yettita R shartlaridan bittasiga rioya qilmaslik mijozlarning yo‘qotilishiga, bu esa o‘z navbatida bozor ulushining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, transport xizmatlarining raqobatbardoshligini belgilovchi omillar, uning sifati va narxidan tashqari, tezkor yetkazib berishni tashkil qilishni ham o‘z ichiga oladi va bu ko‘pincha narxdan ko‘ra muhimroq ahamiyat kasb etadi. Faqatgina 7R qoidasiga rioya qilingan taqdirda, zaxiralar va u bilan bog‘liq kapitalning qisqarishi, shu bilan birga buyurtmani bajarish vaqtining qisqarishi, ishlab chiqarish moslashuvchanligining oshishi, ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi va kapital aylanishining tezlashishi ta’minlanadi. Buning natijasi o‘laroq, bozor sharoitida hal qiluvchi raqobatdosh ustunlikni ta’min etuvchi yetkazib berish sifatining yaxshilanishi mahsulot tannarxining pasayishiga olib keladi. Ko‘pgina mamlakatlarda vakolatxonalari bo‘lgan, vositachilarning keng tarmog‘iga ega, ilg‘or texnologik vositalar bilan ta’minlangan yirik xalqaro logistika kompaniyalari, shuningdek, logistika kompaniyalarining turli birlashmalari 7R qoidasiga rioya qilishni ta’minlay oladilar va zamonaviy sharoitda samarali faoliyat yuritadilar. Yuqori sifatli logistikaning muhim tendensiyasi yetkazib berish vaqtini qisqartirish bilan birga aylanmaning ko‘payishi hisoblanadi. Iste’molchilar talabning darhol qondirilishi uchun yetkazib berishni eng qisqa vaqt ichida amalga oshirilishini xohlashadi. Mijozlar nafaqat aniq yetkazib berish sanasini bilishni, balki yetkazib berish vaqtini ham muvofiqlashtirishni istashadi. Iste’molchilar talabning darhol qondirilishi uchun yetkazib berishni eng qisqa vaqt ichida amalga oshirilishini xohlashadi. Bugungi kunda muvaffaqiyatga erishish uchun mijozning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga tezkor javob berish lozim. Logistika sohasida foydalaniluvchi transport turlari va yetkazib berish yo‘nalishlari mijozlar so‘rovlarining o‘zgarishi bilan o‘zgaradi. Amalda temir yo‘l va avtomobil transportidan ko‘proq foydalaniladi. Dengiz transport harakatlanish tezligi past, havo transporti qimmat bo‘lganligi uchun kamroq foydalaniladi. Transportni tanlashda birinchi navbatda geografik omillar hisobga olinadi.

Multimodal transport-logistika markazlari (MTLM) – oltinchi global trend hisoblanadi. MTLMda tovar, axborot, moliyaviy oqimlar va turli xil transport turlari (temir yo‘l, avtomobil) integratsiyasi amalga oshadi. MTLMda tovarlar oqimini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda samarali boshqarish transportning turli turlarini muvofiqlashtirish asosida maksimal sinergik ta’sirni ta’minlaydi. MTLMlar umumiy logistika xarajatlarini minimallashtirish maqsadida ichki va tashqi moddiy oqimlar, har xil transport turlari, shuningdek, tegishli ma’lumot, moliyaviy va xizmat oqimlarini maqbullashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy MTLM – bu raqamli va logistika platformalarining sintezi bo‘lib, unda tovarlar va yuklarni oxirgi iste’molchilarga yetkazib berish jarayonining barcha ishtirokchilari o‘z faoliyatini amalga oshiradilar. MTLMlar xalqaro transport-logistika tizimlarining asosiy funksional unsurlari bo‘lib, ular iqtisodiy o‘sishning strategik nuqtalari sifatida ko‘rib chiqiladigan tovar oqimlarini ilgari surish va qo‘llab-quvvatlash ishtirokchilari o‘rtasida muvofiqlashtirilgan o‘zaro ta’sirni ta’minlaydi. Asosiy yo‘llar chorrahasida transport tarmog‘ining tugunlarida ko‘p funksiyali terminal majmualari barpo qilinadi, ular mijozlarga keng qamrovli transport-logistika xizmatlarini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. MTLM raqamli va logistika texnologiyalari asosida faoliyat ko‘rsatadi, transport-logistika jarayoni ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini moddiy-texnik muvofiqlashtirish, tovar, axborot, xizmat ko‘rsatish va moliyaviy oqimlarning integratsiyasi asosida maksimal sinergetik ta’sirni ta’minlaydi. Ko‘p funksional logistika majmualari savdo va biznes, ma’muriy va biznes, ko‘rgazma markazlarini ham o‘z ichiga oladi. Tovarlarni omborga maqbul joylashtirish samarali logistikaning muhim qismi hisoblanadi.

Yettinchi trend – agrologistika bozorining o‘sishi. Jahon savdosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi taxminan 5,7 foizni tashkil qiladi. Albatta, agrologistika qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini shunchaki tashishdan iborat bo‘lib qolmasdan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va saqlash borasida ko‘rsatiluvchi transport xizmatlari majmuini ifoda etadi. Agrologistika zamonaviy agrobiznesning muhim unsuri hisoblanadi.

Sakkizinchi trend – venchur kapital mablag‘lari hisobiga logistika startaplariga investitsiyalarning ko‘payishi. So‘nggi yillar istiqbolli logistika startaplarida, aniqrog‘i, ombor operatsiyalari, elektromobillar, dronlar va raqamli yechimlarni saqlash va robotlashtirishning yangi texnologiyalarida venchur kapitalining keskin o‘sishi bilan ajralib turadi.

To‘qqizinchi global trend – ekologik logistika. Logistika tarmog‘i atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishda muhim o‘rin tutadi. Logistika tizimlariga ekologik talablar yil sayin ortib bormoqda. Atrof-muhitni ifloslantiradigan, shovqin darajasini oshiradigan, harakat paytida xavfni kamaytiradigan maxsus tizimlar bilan jihozlanmagan transport vositalaridan foydalanishga taqiqlar joriy etilmoqda. Logistika tarmog‘i atmosferaga chiqariluvchi uglerodlar ko‘lami borasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. So‘nggi yillarda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mahsulotni qadoqlash borasida ham ekologik talablar keskin oshmoqda. Ularning maqsadi ishlatilgan idishlar va ularni yo‘q qilish paytida chiqarilgan moddalar, ayniqsa, yoqish orqali atrof-muhitning ifloslanishini oldini olishdir. Germaniyaning yetakchi logistika kompaniyasi «Deutsche Post» DHL (DPDHL) ekologik logistika sohasida quyidagi tendensiyalarni shakllantirdi:

– logistika nafaqat global savdoning katalizatori va qiymat yaratishda hal qiluvchi komponent, balki kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tishda strategik muhim komponent hisoblanadi;

– ekologik o‘zgarishlarga kompaniyalar, moliya institutlari va hukumatning muayyan harakatlari natijasida erishiladi. Yangi texnologiyalarning yuqori narxini hisobga olgan holda, barcha asosiy o‘yinchilar tomonidan o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va uzoq muddatli rejalashtirish katta ahamiyatga ega;

– hamkorlik ko‘proq darajada ekologik soflikka erishishga yordam beradigan omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Logistika kompaniyalari uchun uglerodni kamaytirish ustuvor vazifaga aylanganligi sababli, ekologik toza biznes modellari ta’minot zanjiri bo‘ylab vertikal va gorizontal ravishda kengayadi;

– logistika kompaniyalarining biznes modellari o‘zgaradi, chunki ekologik innovatsiyalar yangi imkoniyatlar ochadi;

– CO2 yorliqlari mijozlarga “yashil” mahsulotlarni aniqlash imkonini beradi. Shaffoflik logistika mijozlari va oxirgi foydalanuvchilar o‘rtasida iqlimga mos qarorlar qabul qilishda ishonchni oshirishga yordam beradi.;

– karbonat angidrid chiqindilari muayyan narxga ega bo‘ladi. Uglerod chiqindilarini kamaytirish kompaniyalar, davlat va iste’molchilar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etar ekan, bu nuqta biznes qarorlarini qabul qilish jarayonida alohida o‘rin tutadi;

– uglerod gazlarining atmosferaga chiqarilishining hisobini yuritish tartibga solish qoidalarini qat’iylashtirishni talab qiladi. Kompaniyalar bunday qo‘shimcha xarajatlarni hukumatlar barcha biznes ishtirokchilari uchun teng shart-sharoitlarni yaratib bergan taqdirdagina qabul qiladilar. Bugungi kunda muqobil yoqilg‘i, shuningdek, yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish va treyler uzunligini oshirish yoki aerodinamikani yaxshilash kabi yoqilg‘i sarfini kamaytirishga yordam beruvchi muhandislik ishlanmalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Yoqilg‘i tejash va karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishning muqobili sifatida avtomobil transportini temiryo‘l orqali qisman almashtirishni ko‘rib chiqish mumkin. Agar yo‘lning uzunligi 300 kilometrdan oshsa, uni temiryo‘l bilan almashtirish variantlarini ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

O‘ninchi global trend – Ipak yo‘lini logistik jihatdan o‘zlashtirish. “Bir makon – bir yo‘l” butunjahon transport va investitsiya infratuzilmasini tuzish tashabbusi ikkita loyihani birlashtiradi: “Ipak yo‘lining iqtisodiy kamari” va “XXI asr – Dengiz ipak yo‘li”.

“Ipak yo‘lining iqtisodiy kamari” loyihasini yaratish g‘oyasi ilk marotaba 2013 yil sentyabrida Xitoy rahbarining Qozog‘istonga safari vaqtida taklif etilgan edi. Loyihaga ko‘ra, uchta iqtisodiy va transport yo‘lagini shakllantirish ko‘zda tutilgan:

1) Xitoy – Markaziy Osiyo – Rossiya – Yevropa;

2) Xitoy – Markaziy va G‘arbiy Osiyo – Fors ko‘rfazi va O‘rta yer dengizi;

3) Xitoy – Janubi-Sharqiy Osiyo – Janubiy Osiyo – Hind okeani.

Hozirgi kunda Xitoydan Yevropaga konteyner yuklari dengiz yo‘llari orqali 45-60 kunda yetkazilmoqda. Bu yo‘laklar mazkur muddatni 10 kungacha qisqartirish imkonini beradi.

O‘sha yilning oktyabrida “XXI asr – Dengiz ipak yo‘li” konsepsiyasi ilgari surildi. U quyidagi ikki yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

1) Xitoy dengiz portlaridan Janubi-Xitoy dengizi orqali Hind okeani va undan keyin Yevropagacha;

2) Xitoy portlaridan Janubi-Xitoy dengizi orqali Tinch okeaning janubiy akvatoriyasiga.

2015 yilda har ikki tashabbus “Bir makon – bir yo‘l” nomi bilan bitta umumiy konsepsiyaga birlashtirildi. “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusi doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish maqsadida ikkita moliyaviy “gigant”: 100 mlrd AQSh dollarilik kapitalga ega Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va ustav kapitali 40 mlrd AQSh dollari bo‘lgan Ipak yo‘li jamg‘armasi tuzildi.

Xitoy moliyaviy institutlarining kreditlar ajratishi Iqtisodiy kamar va Dengiz ipak yo‘li loyihalarini amalga oshirishning asosiy moliyaviy mexanizmidir. Bunda Xitoy uskunalari, tovarlari, xizmatlari va ish kuchidan foydalanish asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

2017-yil may oyida Pekinda bo‘lib o‘tgan dastlabki “Bir makon – bir yo‘l” xalqaro forumida Xitoyning ushbu loyihaga kiritadigan sarmoyasi hajmi yaqin yillar ichida 150 mlrd. AQSh dollarigacha oshishi ma’lum qilingan edi.

Loyiha mualliflarining fikricha, “Ipak yo‘lining iqtisodiy kamari” loyihasiga Yer shari aholisining 63 foizini tashkil etadigan 67 ta mamlakat qo‘shilishi mumkin. Boshqacha aytganda, bu yerda gap aholisi yer sharining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan mamlakatlar iqtisodiyotlarini bir-biri bilan bog‘laydigan iqtisodiy kamar yaratish g‘oyasi haqida bormoqda. Xitoy tashabbusi muvaffaqiyatli amalga oshadigan bo‘lsa, XXI asrda barcha yo‘llar endi Rimga emas, Pekinga eltadigan bo‘ladi.

Albatta, Xitoy, avvalambor, ichki iqtisodiy siyosatidan kelib chiqqan holda “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusini ilgari surdi. Xitoyda so‘nggi 10 yilda kuzatilgan iqtisodiy o‘sish sur’atlarining barqaror sekinlashishi mamlakat hukumatini ayni tashabbusga undagan ko‘rinadi. Mazkur global loyihaning amalga oshirilishi bir tomondan, Xitoyning yaxshi rivojlanmagan g‘arbiy provinsiyalari rivojlanishiga olib keladi. Bu esa mamlakat hududlari iqtisodiyotini


tenglashtirishga yordam beradi. Jadal modernizatsiyalash yillarida g‘arbiy provinsiyalar boshqa hududlarga qaraganda kam rivojlandi. Boshqa tomondan esa bu ichki iste’mol o‘sishini kuchaytiradi va Xitoy iqtisodiyotidagi ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari muammosini hal etadi. “Bir makon – bir yo‘l” doirasidagi loyihalarni amalga oshirishda Xitoyning uskunalar, tovarlar, xizmatlar va ish kuchi yetkazib beruvchi asosiy ta’minotchi bo‘lish sharti yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda, ushbu tashabbusni Xitoyning “iqtisodiy mo‘jizasi”ni qo‘shni hududlarga eksport qilish modeli sifatida baholash mumkin. Bunda asosiy e’tibor Xitoyning rivojlanmagan hududlarini qo‘shni davlatlar bilan bog‘lash orqali rivojlantirishga qaratilmoqda. Biroq kelajakda mazkur iqtisodiy loyiha Xitoyning mukammal geosiyosiy strategiyasiga aylanishi ham mumkin.

“Bir makon – bir yo‘l” global loyihasi infratuzilma logistikasi va savdo imkoniyatlari tufayli nafaqat Xitoy iqtisodiyoti, balki shuningdek, yangi Ipak yo‘li bo‘yidagi mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishga ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Uning aynan shu jihati eskirgan sovet infratuzilmalari sabab muqobil savdo yo‘llarini izlash jarayonida bo‘lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ancha jozibador ko‘rinadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlariga infratuzilma loyihalari, jumladan, yangi ko‘prik va yo‘llar, yirik logistika markazlari qurilishi uchun ulkan investitsiyalar zarur. Ana shu maqsadlarda “Ipak yo‘li iqtisodiy kamari” doirasida Xitoy sarmoyasidan foydalanish mazkur loyihalar uchun xorijiy investitsiyalar yetishmovchiligi muammosini hal qiladi. Shuningdek, Pekin taklif etayotgan integratsiya modeli iqtisodiy kamar loyihasiga a’zo mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy manfaatlarigagina asoslanganligi ham mazkur tashabbusning ustun jihatidir. Bu loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, Xitoy ushbu mintaqada boshqa davlatlarning geosiyosiy ta’siri bilan musobaqalashadimi yoki yo‘qmi, degan savol ochiqligicha qolmoqda. Ehtimol, shu sabablarga ko‘ra, Markaziy Osiyo uchun iqtisodiy integratsiyaga oid barcha modellar ichida aynan Xitoyning mazkur

tashabbusi istiqbolli koʻrinadi. Mazkur mintaqa mamlakatlari uchun "Ipak yoʻlining iqtisodiy kamar" loyihasi – infratuzilma taraqqiyoti va yangi savdo imkoniyatlari jarayonlarini siyosiylashtirmasdan turib, ularga ega boʻlish imkoniyatidir.



15.4-rasm. Turli mamlakatlarda aholi jon boshiga toʻgʻri keluvchi yoʻl qurilishi xarajatlari (AQSh dollari)

Transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi koʻp jihatdan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bogʻliq, chunonchi sanoati rivojlangan tarmoqlarda transport va logistika xizmatlariga boʻlgan ehtiyoj boshqa hududlarga nisbatan yuqori boʻlishi tabiiydir. Transport infratuzilmasi rivojlanishidagi notekisliklarni bartaraf qilish maqsadida yangi transport infratuzilmasini barpo qilishda tegishli hududlar va yerlardan, iloji boʻlsa, tabiiy resurslar va zaxiralarga ta'sir qilmasdan, tabiiy landshaftga jiddiy zarar yetkazmasdan oqilona foydalanish lozim. Yangi obyektlarni rejalashtirishda avvaldan mavjud infratuzilma tarmoqlari va obyektlarini ham hisobga olish lozim, shu bilan bir qatorda, resurslarni (moddiy va mehnat) tejash maqsadida koʻp funksiyali majmualarni yaratish lozim.

Davlat mamlakatning transport siyosatini shakllantirishda faol ishtirok etadi, shuningdek, mamlakat transport infratuzilmasining rivojlanishini doimiy ravishda kuzatib boradi va qo‘llab-quvvatlaydi:

– bozor monitoringi, tahlili, logistika va transport aloqalari va jarayonlari statistikasining zamonaviy tizimlari asosida avtomobil yuklarini tashishni tashkil etishning yagona axborot texnologiyalari makoni shakllantirilmoqda. Ma’lumotlarni uzatish tarmoqlari transportni axborot bilan ta’minlash va yuklarning harakatini kuzatish uchun elektron texnologiyalardan foydalanish uchun modernizatsiya qilinmoqda;

– transport xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish uchun sharoitlar yaratilmoqda;

– temir yo‘llar va avtomobil yo‘llari infratuzilmasini rivojlantirish borasida muayyan ishlar olib borilmoqda Transport tizimini rivojlantirishga investitsiyalar borasida O‘zbekiston jahon va MDH mamlakatlariga nisbatan ancha orqada (15.4-rasm).

15.3. O‘zbekistonda transport-logistika sohasini rivojlantirish istiqbollari

2022-yil yanvar-noyabr oylarida O‘zbekistonda temir yo‘l, havo, avtomobil transportlarida jami yuk tashuvlari hajmi 1,18 mlrd tonna (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 foiz ko‘p), yuk aylanmasi 42 mlrd tonna/kmni (+5 foiz) tashkil etdi. Barcha transportda yo‘lovchi tashish hajmi 5,52 mlrd yo‘lovchi (+4 foiz), yo‘lovchi aylanmasi 129,4 mlrd yo‘lovchi/ kmni (+7,8 foiz) tashkil qildi. Jami xalqaro yuk tashuvlari hajmi (eksport, import va tranzit) – 47,6 mln tonnani yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6 foizga oshdi.

Bunda, eksport yuklari – 14,1 mln tonna (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 98,8 foiz), import – 23,1 mln tonna (+6,6 foiz) va tranzit – 10,4 mln tonnani (+16,2 foiz) tashkil etdi. Xalqaro tashuvlarda temir yo‘l orqali yuk tashuvlari 36 mln tonna (+1,7 foiz), avtomobil transportida tashuvlar hajmi 11,5 mln tonna (+22 foiz), aviatransport orqali tashilgan yuklar hajmi 71,2 ming tonnani (+19,8 foiz) tashkil qildi. Yilning 3-choragi yakuniga qadar respublikamizning transport koridorlarida yuk tashish ulushining eng ko‘p qis-

mi O‘zbekiston–Qozog‘iston/Qirg‘iziston– Xitoy Xalq Respublikasi koridorlari bilan 41,3 foizni (13,5 mln) tashkil etgan bo‘lsa, O‘zbekiston – Qozog‘iston – RF–Yevropa mamlakatlari bilan 23 foizni (7,5 mln), O‘zbekiston–Qozog‘iston–RF bilan 19 foizni (5,9 mln) tashkil etdi. Shunga ko‘ra, eng kam ulushni O‘zbekiston–Afg‘oniston–Pokiston–Hindiston (0,6 mln tonna, 2 foiz) koridorlarida ko‘rish mumkin. O‘zbekiston–Turkmaniston/Qozog‘iston–Ozarbayjon–Gruziya–Turkiya yo‘nalishida tashuvlar hajmi 2,6 mln tonnani (8 foiz), O‘zbekiston–Turkmaniston–Eron yo‘nalishida esa 2,5 mln tonnani (7,7 foiz) tashkil etgan.

O‘tgan yillarda xalqaro temir yo‘l koridorlarini yanada rivojlantirish sohasida bir qator ishlar qilindi. “Mozori-Sharif–Qobul–Peshovar” temir yo‘li qurilishi loyihasi bo‘yicha dastlabki texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish uchun yo‘nalish bo‘ylab ortofotoplan (joyning dastlabki fotografik rejasi) ishlab chiqilib, 2022-yilning uchinchi choragida dala ekspeditsiyasi o‘tkazilishiga erishildi. Shuningdek, joriy yil 14-sentyabr kuni ShHT Samarqand sammiti doirasida “Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston” temir yo‘l qurilishi loyihasi bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida uch tomonlama bitim imzolanib, loyihaning dastlabki texnik-iqtisodiy asosnomasi Xitoy temir yo‘l qurilish korporatsiyasining birinchi loyiha-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqildi.

“Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston–Turkmaniston–Ozarbayjon -Gruziya” multimodal yo‘nalishini rivojlantirish bo‘yicha imzolangan 5 tomonlama Bayonnomaga Turkiya tomonining qo‘shilishi, bu orqali temir yo‘l tariflariga 70 foizgacha chegirmalar qo‘llanilishiga erishish soha orqali boshqa davlatlar bilan o‘zaro aloqalar mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Turkiy davlatlar tashkiloti transport vazirlarining 6-yig‘ilishi davomida 2022-yilning 28-oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi hamda Turkiyaning transport va infratuzilma vazirligi o‘rtasida ruxsatnoma blankalarini elektron ayirboshlash tizimi (E-permit) loyihasining to‘laqonli faoliyatiga start berilishi ham shular jumlasidandir.

O‘tgan yilda jamoat transporti sohasida 85 dona o‘rta sig‘imli “SAZ LE-60” rusumli va 190 dona katta sig‘imli “MAN” rusumli avtobuslar xarid qilindi, jamoat transportida 17 ta yangi yo‘nalishlar

joriy etildi, 50 ta tirband chorrahalarning oʻtkazuvchanlik qobiliyati yaxshilandi.

Xalqaro avtobus yoʻnalishlarida joriy yilning 12-aprel kunidan Oʻzbekiston va Qozogʻiston oʻrtasidagi muntazam xalqaro avtobus qatnovlari qayta tiklandi. Shuningdek, 2022-yil 15-apreldan Qirgʻiziston Respublikasiga "Toshkent–Bishkek" xalqaro avtobus yoʻnalishi qayta yoʻlga qoʻyilib, hozirgi kunda har kuni 2 ta qatnov amalga oshirilmoqda.

Tojikiston Respublikasi boʻyicha "Toshkent–Xoʻjand" xalqaro avtobus yoʻnalishi qayta tiklanib, hozirda har kuni 1 ta qatnov amalga oshirilmoqda va oʻrtacha 45 nafar yoʻlovchiga xizmat koʻrsatib kelinmoqda. 2022-yilning 20-fevral kuni "Qoʻqon–Xoʻjand" va 3-iyun kuni "Yangiyer–Istaravshan" hamda 3-iyun kuni "Toshkent–Istaravshan" muntazam xalqaro yoʻnalishi ochilib, yoʻlovchilarga xizmat qila boshladi. Rossiya Federatsiyasiga ham yangi avtobus yoʻnalishlari ochildi. Xususan, 2022-yil 18-iyuldan "Toshkent– Moskva", "Toshkent–Qozon", "Toshkent–Sankt Peterburg", "Toshkent–Novosibirsk" va "Toshkent–Nijniy Novgorod", "Toshkent–Omsk" va "Toshkent–Perm" muntazam xalqaro avtobus yoʻnalishlari qayta tiklandi.

Shuningdek, muntazam xalqaro avtobus yoʻnalishlari (9 ta lot) boʻyicha 2022-yil 8-sentyabr kuni "e-tender.uztrans.uz" elektron axborot tizimi orqali birinchi marta ochiq tender tanlovi oʻtkazildi, yangi yoʻnalishlar tender gʻoliblari aniqlandi hamda shartnomalar rasmiylashtirildi.

2022-yilning yanvar-noyabr oylarida havo transporti sohasida Oʻzbekiston va Turkiya aviatsiya hukumat idoralari hozirgi kunda mavjud yoʻnalishlar (Toshkent-Istanbul 14+3, Samarqand-Istanbul 3+1, Fargʻona-Istanbul 2+1, Urganch-Istanbul 1+1) boʻyicha qoʻshimcha qatnovlarni amalga oshirish yuzasidan kelishuvga erishdi. Shuningdek, Oʻzbekistondan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Misr, Hindiston, Gruziya, Tojikiston, Afgʻoniston, Eron, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Latviya, Ozarbayjon, Janubiy Koreya, Rossiya, Turkiya, BAA, Qozogʻiston, Qirgʻiziston va Belarus davlatlari bilan muntazam havo qatnovlari yoʻlga qoʻyildi. Shunga koʻra, 2022-yilda Oʻzbekistonga muntazam parvozlar amalga oshirayot-

gan xorijiy aviakompaniyalar soni 31 taga va yo‘nalishlar soni 59 taga yetkazilishiga erishildi.

2022-yil yanvar oyidan boshlab ziyorat turizmi dasturi doirasida pandemiya sababli uzoq davom etgan tanaffusdan so‘ng “Uzbekistan Airways” AJ Musulmonlar idorasi bilan birgalikda “Umra–2022” dasturi doirasida Jidda va Madina shaharlarida o‘zbekistonlik ziyoratchilar uchun kunlik reyslarni qayta tikladi. Mazkur havo transporti sohasidagi yana bir e’tiborga loyiq hodisa deb o‘tgan yilning 18-mart kuni Samarqand xalqaro aeroporti yangi aerodrom majmuasining ochilishini aytish mumkin. Shu bilan birga, 2022-yilning 1-oktyabridan Samarqand xalqaro aeroportida “Ochiq osmon” rejimi joriy etilgan bo‘lib, bu haqda 51 ta xorijiy davlat aviatsiya ma’muriyatlariga xabarnoma yuborildi.

Yuqorida amalga oshirilgan ishlar qatorida Jahon Banki ekspertlari bilan birga “Uzbekistan Airways” aviakompaniyasining yangi gibrid biznes-modeli ishlab chiqildi, aholi mobilligini oshirish va aviachipta narxini pasaytirish maqsadida “Uzbekistan Express” yangi arzon transport xizmatlari ishga tushirildi, natijada tariflar boshqa yo‘nalishlarga nisbatan o‘rtacha 20 foizga arzonlashtirildi.

“Sharqiy Xab” dasturi doirasida Farg‘ona vodiysi aholisi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2022-yil fevralidan Namangan va Farg‘ona shaharlaridan Rossiya Federatsiyasining bir qator shaharlariga muntazam aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yildi.

Amaldagi “Ziyorat turizmi” dasturi doirasida yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xorijiy aviakompaniyalar havo kemalariga yerda ko‘rsatiladigan xizmatlarning asosiy turlari uchun e’lon qilingan tariflarga 50 foizgacha chegirmalar joriy etilgan bo‘lib, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi mahalliy yo‘nalishlarida “Uzbekistan Airways”, “Qanot Sharq” hamda “Humo Air” aviakompaniyalari tomonidan muntazam aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda.

Logistika va tranzitni rivojlantirish sohasida esa 2022-yil yanvar oyida tomonlar o‘rtasida xalqaro avtomobil tashuvlari sohasida hamkorlikni muhokama qilish va rivojlantirish maqsadida o‘zbek-tojik qo‘shma Komissiyasi tashkil etildi. 2022-yil boshida O‘zbekiston va Eron Respublikalari transport vazirliklari tomonidan

Chobahar portidan foydalangan holda xalqaro transport va tranzit koridorini yaratish boʻyicha memorandum loyihasi ishlab chiqildi.


Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Hukumati bilan Ozarbayjon Respublikasi Hukumati oʻrtasida xalqaro avtomobil qatnovi toʻgʻrisidagi bitim imzolanishiga erishildi.

Yuqoridagi erishilgan natijalarning mantiqiy davomiyligini ta'minlash maqsadida 2023-yilda sohada yana bir qator ishlar amalga oshirilishi maqsad qilib qoʻyilgan.

Jumladan, xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish yoʻnalishida "Xitoy–Qirgʻiziston–Oʻzbekiston" temir yoʻli qurilishi loyihasi doirasida Qirgʻiziston Respublikasi hududida temir yoʻl qurilishi loyihasining texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish boʻyicha barcha ishlarni 2023-yilning birinchi yarim yilligida yakunlash va amalga oshirishni moliyalashtirish manbalarini aniqlash boʻyicha tomonlar bilan kelishuvga erishish, "Mozori-Sharif–Qobul–Peshovar" temiryoʻlini qurish loyihasi boʻyicha esa texnik-iqtisodiy asosnomasini ishlab chiqishning moliyalashtirish manbalarini aniqlash uchun xalqaro moliya tashkilotlari bilan muzokaralar olib borish ham temiryoʻl transportidagi ilgʻor rejalar qatoridan joy olgan. Shuningdek, milliy eksportchilarimiz uchun yuklarni temiryoʻlda tashish boʻyicha qulayliklar yaratish maqsadida asosiy xalqaro yoʻnalishlar boʻyicha temiryoʻl tashuvlari tariflariga chegirmalarni saqlab qolish, "Oʻzbekiston temir yoʻllari" AJ operatsion samaradorligini oshirish va raqamlashtirish orqali mijozlarga xizmat koʻrsatish vaqtini kamida 30 foizga qisqartirish, yoʻlovchi poyezdlar harakatlanishining onlayn monitoringi axborot tizimini yaratish hamda elektron chiptalar sotish tizimining "yoʻlovchilar sodiqlik dasturi"ni joriy etish ham shular jumlasidandir.

Temiryoʻl sohasiga xususiy sektorni keng jalb qilish maqsadida sohaning tabiiy monopoliya va raqobatbardosh segmentlari bir-biridan ajratilib, monopol qismini alohida, xususiy sektorni jalb qilish mumkin boʻlgan yoʻnalishlar alohida rivojlantirilishi ham rejalar qatoridan oʻrin olgan. Joriy yilda Oʻzbekiston va Afgʻoniston transport idoralari oʻrtasida yigʻimlarni kamaytirish, xavfsizlikni ta'minlash, "Salang" dovoni infratuzilmasini soz holatda saqlash boʻyicha muzokaralar olib boriladi va "Oʻzbekiston–Afgʻoniston–Pokiston"

tranzit koridorini rivojlantirish bo‘yicha Kelishuv ishlab chiqiladi. Yevropa Ittifoqi davlatlarining (Latviya, Litva, Polsha, Germaniya va boshqalar) vakolatli muassasalari bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, xalqaro avtomobil tashuvlarini amalga oshirish uchun qo‘shimcha ruxsatnoma blankalari olinadi hamda 2023-yil uchun belgilangan kvotalar soni oshiriladi.



15.5-rasm. O‘zbekiston transport yo‘laklari

Havo transporti sohasida esa Toshkent shahridan Xitoy va Chexiyaga yangi aviaqatnovlar ochiladi hamda Nyu York, Deli, London, Frankfurt, Parij va Milanga aviaqatnovlar soni haftasiga 17 tadan 23 taga yetkaziladi.

2023-yilda Mahalliy va xalqaro aviaqatnovlardagi talabni qondirish maqsadida O‘zbekiston 5 ta rezident aviakompaniyalari tomonidan jami 20 ta havo kemalari olib kelinishi rejalashtirilgan. Respublikamizda faoliyat ko‘rsatuvchi rezident aviakompaniyalar soni 5 taga (shundan 4 tasi xususiy sektor ishtirokida) yetkazila-

di. Samarqand shahridan Indoneziya, Malayziya, Bangladesh, BAA, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Xitoy, Isroil va Turkiya kabi davlatlarga haftasiga 31 ta aviaqatnovlar yoʻlga qoʻyiladi. Respublikamizda faoliyat koʻrsatuvchi rezident aviakompaniyalar soni 5 taga (shundan 4 tasi xususiy sektor ishtirokida) yetkaziladi. Natijada, rezident aviakompaniyalar tomonidan 45 ta mahalliy va 120 ta xalqaro yoʻnalishlarda muntazam parvozlar amalga oshiriladi.

"Humo air" aviakompaniyasi tomonidan mahalliy yoʻnalishlarda Toshkent shahridan Buxoro, Urganch, Fargʻona, Qarshi, Nukus, Namangan, Samarqand va Termizga haftasiga 32 ta muntazam aviaqatnovlar yoʻlga qoʻyiladi. Bundan tashqari, "Buxoro" va "Urganch" xalqaro aeroportlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va ishonchli boshqaruvga berish choralari koʻriladi.

Hozirda mamlakatimizning ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish borasida ichki yoʻnalishlarda aviaqatnovlar sonini oshirish hamda yoʻlovchilarga xizmat koʻrsatish ehtiyojlarini qondirish maqsadida "Uzbekistan airports" AJ tomonidan yangi "Silk Avia" shoʻba korxonasini (loukost aviakompaniya) tashkil etish boʻyicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu aviaqatnovlar 70-78 nafar yoʻlovchi tashishga moʻljallangan ATR72-600 havo kemalarida (1 300 km masofagacha tashishga moʻljallangan turbovintli samolyot) amalga oshirilishi hamda yangi aviakompaniyaning ishga tushishi natijasida mahalliy yoʻnalishlarda respublikamizning barcha yirik shaharlarini tutashuvchi qatnovlar orqali bogʻlashi rejalashtirilgan.

Aholining jamoat transporti bilan qamrovini oshirish uchun hududlardagi mavjud 4945 ta yoʻnalishlar sxemasi aholi talabidan kelib chiqqan holda qayta koʻrib chiqiladi va 48 ta yangi yoʻlovchi tashish yoʻnalishlari ochiladi. Xususan, jamoat transport infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida hududlarda 25 ta avtostansiya va avtovokzallar qurilib, rekonstruksiya qilinishi ham rejalashtirilgan.

2023-yilda jamoat transporti harakat tarkibini yangilash maqsadida tashuvchilar tomonidan 1120 ta avtobus va 580 ta mikroavtobus xarid qilindi. Yangi avtobus va mikroavtobuslarni import qilishda qoʻshilgan qiymat soligʻini ikki yil muddatga foizsiz boʻlib-boʻlib toʻlash imkoniyati yaratildi. Shahar yoʻlovchi tashish yoʻnalishlarida ekologik toza boʻlgan elektrobuslar harakati bosqichma-bosqich

joriy etildi. Bunda tadbirkorlik subyektlari tomonidan elektrobuslar xarid qilinishini qo‘llab-quvvatlash maqsad qilinib, ular narxining bir qismini davlat budjetidan qoplab berish tizimi joriy etildi.



15.6-rasm. O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy temiryo‘l yo‘lagi

Tashuvchilar faoliyati samaradorligini oshirish, avtomobilda tashuvlar sifatini yaxshilash maqsadida tashuvchilar reytingi joriy qilinadi. Toshkent shahrida jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirish maqsadida yerusti halqa metro liniyasining uzunligi 12,3 km bo‘lgan 7 ta bekatdan iborat II bosqichi – “Qo‘yliq-Quruvchilar” uchastkasini qurish ishlari yakunlanib, foydalanishga topshiriladi. Natijada, 21 ta mahallada 82 ming aholi hamda 9 ta yirik obyektlar (Tashkent INDEX savdo majmuasi, Toshkent metallurgiya zavodi, Toshkent imtihon markazi, IMZO zavodi, Yuqumli kasalliklar shifoxonasi va boshqalar) metro tarmog‘i bilan qamrab olinadi. Bundan tashqari, 52 ta yerusti jamoat transportining yangi yo‘nalishlari (4 ta magistral, 5 ta halqa, 30 ta bog‘lovchi va 13 ta yetkazib beruvchi) tashkil etiladi. 453 dona zamonaviy elektrobuslar va ular uchun quvvatlash uskunalarini xarid qilish uchun xorijiy moliya institutlarining imtiyozli uzoq muddatli kreditlarini davlat kafolati ostida olish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2023-yilda Toshkent

shahrida jamoat transporti parkini 1 000 ta yangi avtobuslar bilan to‘ldirish ko‘zda tutilgan.

Jamoat transporti korxonalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining samaradorligini oshirish va ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari sifatini oshirish maqsadida tashuvchilarni “bosib o‘tgan yo‘l” va “sifat” mezonlari bo‘yicha bajarilgan ish hajmidan kelib chiqqan holda moliyalashtirishning yangi tizimi ishlab chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda, transport sohasidagi 2023-yilga belgilangan ishlar mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyotiga xizmat qilib, xalqimiz hayot farovonligining yanada oshishiga ko‘maklashadi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Transport — bu milliy iqtisodiyotning eng yirik va eng muhim tarmog‘i, inson mehnatini qo‘llashning ulkan sohasi, fan va texnikaning so‘nggi natijalaridan foydalanishning keng sohasi hisoblanadi. Xalq xo‘jaligining ushbu murakkab tarmog‘ida magistral transportning har xil turlari, shuningdek, shahar va sanoat transporti o‘zaro ta’sir qiladi. Ma’muriy va iqtisodiy mustaqillikka qaramay, barcha transport turlari bir-biriga ma’lum darajada bog‘liq bo‘lib, ularning ish jarayoni va natijalariga sezilarli o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Barcha transport turlarining maqsad birligi, shuningdek, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ularni davlatning yagona transport tizimi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Turli xil transport turlarining o‘zaro ta’siri tovarlar va yo‘lovchilarni umumiy tashish jarayonida ishtirok etuvchi turli xil transport turlari bo‘yicha operatsiyalarni muvofiqlashtirish va ularning izchilligini ta’minlashdan iborat. Amaliyot tahlili va tashish jarayonini tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, turli xil transport turlarining o‘zaro ta’siri iqtisodiy, texnik, texnologik, tashkiliy va boshqaruv tavsifidagi ko‘plab shart-sharoitlarga bog‘liq.

Jahonda transport sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar tahlili dunyoning hech bir mamlakati kuchli transport pozitsiyalariga ega bo‘lmasdan turib milliy iqtisodiyotga tegishli bo‘lgan xatarlarni nazorat qila olmaydi. Hozirgi bosqichda global transport tizimi

axborot texnologiyalariga katta bog‘liqlik bilan ajralib turadi va u quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanayotganligini ta’kidlash lozim: transport yo‘laklarining o‘tkazish imkoniyatlarini oshirish, yo‘l harakati xavfsizligini yaxshilash, tubdan yangi transport vositalarining paydo bo‘lishi, transport vositalarining sig‘imi va yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish, harakat tezligini oshirish, buyurtmalarni o‘z vaqtida bajarish, transport tizimining maromiyligini ta’minlash va ekologik tozalikka rioya qilish. Mijozlarning transport xizmatlari sifatiga yangi talablari xarajatlarning ikkinchi darajaga tushib qolishiga olib keldi.

Raqamli logistika turli tashkilotlar o‘rtasidagi gorizontal ishlab chiqarish, iqtisodiy va savdo-iqtisodiy munosabatlarni samarali modellashtirish asosida maqbul logistika sxemalarini shakllantirish uchun ma’lumotlarni qidirish bilan bog‘liq vaqt, mehnat va moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytiradi. Tashishni tashkil etishda raqamli logistikaning rivojlanishi tashish jarayonini optimallashtirish, uni rejalashtirish va ta’minlash xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Umuman olganda, raqamlashtirish logistika sohasida quyidagi samaralarni beradi:

1. Texnologik samara. Logistikaning raqamli transformatsiyasi ishlatilgan texnologiyalarning progressivlik darajasini oshiradi. Logistika biznesidagi texnologik jarayonlarning sifatini yaxshilash orqali xizmat muddati (axborotni qayta ishlash va uzatish jarayonlarining tezlashishi tufayli) va yuklarni yetkazib berish tezligi kamayadi.

2. Raqobatbardoshlikni oshiradigan samaralar. Raqamli transformatsiya raqobatbardosh imkoniyatlarni yaxshilaydi va logistika kompaniyasining bozordagi ulushini oshiradi. Natijada, hujjatlar, yuklarni yetkazib berish tezligi va sifatini kutish vaqtining qisqarishi tufayli yuzaga keladigan xizmat ko‘rsatish sifatidan qoniqish ortishi tufayli mijozlar bazasi o‘sadi.

3. Tijorat samarasi. Logistikani raqamlashtirish tufayli tashish hajmi oshadi, yangi IT xizmatlari paydo bo‘ladi, unumdorlik oshadi, xarajatlar tejaladi, natijada qo‘shimcha tashishdan olinadigan

daromad oshadi, IT xizmatlarini koʻrsatishda qoʻshimcha daromad paydo boʻladi, logistika xarajatlari tejaladi.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy samara. Kompaniyaning tashkiliy tuzilmasi takomillashadi, sifat, unumdorlik oshadi va mehnat sharoitlari yaxshilanadi, axborotni qayta ishlash, uzatish va saqlash sifati oʻsadi, qogʻoz hujjatlar va ma'lumotlar soni kamayadi. Mehnat unumdorligining oshishi hisobiga xodimlar, ayniqsa, boshqaruv xodimlari soni kamayadi, tashishni boshqarishda qarorlar qabul qilish samaradorligi oshadi va ma'lumotlarni olish va qayta ishlash vaqti qisqaradi.

Oʻzbekiston raqobatbardoshligini oshirish uchun transport bilan bogʻliq quyidagi masalalarga e'tibor qaratishi lozim. Birinchidan, mamlakat savdo xarajatlarini kamaytirish maqsadida temir yoʻl va avtomobil infratuzilmasiga investitsiyalarni koʻpaytirishi kerak. Ushbu investitsiyalar mamlakat ishlab chiqaruvchilariga katta foyda keltirishi mumkin. Masalan, infratuzilmaning rivojlanishi hududlarning iqtisodiy koʻrsatkichlariga sezilarli ta'sir koʻrsatishi taxmin qilinmoqda. Xususan, Oʻzbekistondagi Toshguzar-Boysun-Qumqoʻrgʻon temir yoʻl liniyasining ishga tushirilishi hududlarda hududiy yalpi ichki mahsulotning oʻsish sur'atlarini qariyb 2 foizga oshirishga xizmat qildi. Sanoatda qoʻshilgan qiymat va xizmatlarning qoʻshimcha qiymati mos ravishda taxminan 5 foiz va 7 foiz ga oshdi va qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining oʻsishi 1 foiz ni tashkil etdi. Ikkinchidan, Oʻzbekiston xalqaro transport hamkorligini kuchaytirishi va transport strategiyasini muvofiqlashtirishi lozim. Uchinchidan, xususiy sektorni jalb qilgan holda sanoatlashtirish va qishloq xoʻjaligi tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni davom ettirish muhimdir. Ushbu islohotlar transport kompaniyalarini cheklangan va eskirgan park muammosini hal qilishda qoʻllab-quvvatlashni ham oʻz ichiga olishi lozim.

Takrorlash uchun savollar:

1. Transport tizimining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashdagi oʻrnini qanday baholaysiz?

2. Transport-logistika xizmatlar koʻrsatishning samaradorligini baholash mezonlari haqida tushuncha bering.

3. Transport majmui va uning salohiyatini oshirish yoʻllari toʻgʻrisida nimalar deya olasiz?

4. Transport-logistika xizmatlari koʻrsatishning beshta darajasini misollar yordamida tushuntirib bering.

5. Transport-logistik xizmatlarning rivojlanishida global trendlarni yoritib bering.

6. Transport-logistika sohasini raqamlashtirish imkoniyatlari va samaradorligi nimalarda koʻrinadi?

7. Oʻzbekistonda transport-logistika sohasini rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollarini qanday baholaysiz?

Axborot va axborot uzatish u har qanday koʻrinishda boʻlmasin, hozirgi dunyoda oʻzgarishlar qilishning eng samarali vositasi va usuli hisoblanadi. Shuning uchun barcha oʻzgarishlarning markazida axborot turadi.

XVI BOB. AXBOROT SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI

16.1. Axborot sohasida davlat siyosati va uning mazmuni
16.2. Axborot sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish yoʻnalishlari

16.1. Axborot sohasida davlat siyosati va uning mazmuni

Axborot inson va kishilik jamiyati hayotida favqulodda muhim oʻrin tutadi. “Kim axborotga egalik qilar ekan, u dunyoga hukmronlik qiladi”, degan mashhur ibora bor. Ba’zida muhim xabar inson hayotidan koʻra qimmatroq turadi. Afsonaga koʻra, miloddan avvalgi 490-yilning 13-sentyabrda Marafondan Afinagacha boʻlgan masofani yugurib bosib oʻtgan yunon jangchisi halok boʻlsa-da, forslar ustidan qozonilgan gʻalaba toʻgʻrisidagi muhim xabarni keltiradi.

Qadim zamonlardan beri tevarak-atrof toʻgʻrisidagi ma’lumotlarni toʻplash va ularni tizimlashtirish insonga ogʻir yashab qolishga imkon berdi, ov va mehnat qurollarini yasash, kiyim-kechak tikish va dori-darmonlarni yaratish tajribasi va koʻnikmalari avloddan avlodga oʻtib keldi. Ma’lumotlar doimiy ravishda yangilanib va toʻldirilib borildi – har bir oʻrganilgan hodisa yangi, murakkabroq narsaga oʻtishga imkon berdi. Vaqt oʻtishi bilan atrofdagi dunyo haqidagi katta hajmdagi ma’lumotlar ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishiga hissa qoʻshdi va natijada butun jamiyat – inson moddiy dunyo va energiyani boshqarish koʻnikmalariga ega boʻldi.

Vaqt oʻtishi bilan axborotning inson hayotidagi oʻrni yanada muhimroq ahamiyat kasb eta bordi. Nafaqat tabiat qonunlarini, balki kishilik jamiyatining tushunchalari va qadriyatlari – adabiyot, san’at, me’morchilik va boshqalarni oʻrganish va tushunib etish

zarurati paydo boʻldi. bugungi kunda axborotning inson hayotidagi oʻrni juda muhim – u qanchalik koʻp koʻnikma va bilimlarga ega boʻlsa, mutaxassis va xodim sifatida shunchalik qadrlanadi, jamiyatda shunchalik yuqori hurmatga ega boʻladi.

Atrofdagi dunyoni anglashga intilar ekan, inson doimo muayyan axborotlar bilan toʻqnash keladi, ularni qayta ishlaydi. Bu odamga sodir boʻlayotgan voqealarni toʻgʻri baholashga, puxta oʻylangan qaror qabul qilishga va oʻz xatti-harakatlarining eng muvaffaqiyatli variantini topishga yordam beradi. Axborot bilim manbai boʻlishi bilan bir qatorda, u shaxs va jamiyatga ta’sir koʻrsatishning eng kuchli ta’sir vositasi hamdir.

Soʻnggi oʻn yilliklarda “industrial jamiyat” dan “axborotlashgan jamiyat” ga oʻtish borasida koʻp gapirilmoqda. Ishlab chiqarish usullari, insonlarning dunyoqarashi va turmush tarzida jiddiy oʻzgarishlar yuz bermoqda. Axborot texnologiyalari millionlab odamlarning kundalik hayotini tubdan oʻzgartirmoqda. Birgina 2022-yilda mobil texnologiyalar va xizmatlar butun dunyoda 28 mln ishchi oʻrni yaratilishini ta’minlagani holda, jahon iqtisodiyotiga 5,2 trln dollarlik iqtisodiy qiymat qoʻshgan, bu dunyo YIMning 5 foizini tashkil qiladi.

Axborot inson, moliyaviy va moddiy resurslar bilan bir qatorda eng muhim strategik va boshqaruv resurslaridan biriga aylandi. Uni ishlab chiqarish va iste’mol qilish jamiyat hayotining turli sohalari va avvalambor, iqtisodiyotning samarali ishlashi va rivojlanishi uchun zarur asos boʻlib xizmat qiladi. Bu shuni anglatadiki, nafaqat sayyoramizning istalgan burchagidagi axborot manbalari har bir inson uchun ochiq boʻladi, balki ular tomonidan yaratilgan yangi ma’lumotlar ham butun insoniyat mulkiga aylanadi. Bugungi kunda axborot olish va undan foydalanish huquqi jamiyatning barcha a’zolari uchun muhim hayotiy ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda axborotning tobora ortib borayotgan oʻrnini ilmiy jihatdan asoslashga boʻlgan intilishlar kuchayib bormoqda. Axborotning jamiyatdagi ahamiyatini asoslash borasida postindustrial va axborotlashgan jamiyat nazariyalari ilgari suriladi.

Dunyo yangi axborot asri, elektron iqtisodiy faoliyat asri, tarmoqli jamoalar va chegarasiz tashkilotlar davriga qadam qoʻymoqda.

Yangi davrga qadam qo‘yish jamiyat hayotining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini tubdan o‘zgartiradi. Bunday o‘zgarishlar insonning axborot olamidagi o‘rni bilan bevosita bog‘liq. Inson xulq-atvori jamiyatning axborot va texnik xususiyatlari vektoriga muvofiq o‘zgarib boradi. Kundalik hayotni axborotlashtirish va inson hayotida yangi axborot maydonining paydo bo‘lishi inson hayotida o‘z izini qoldiradi, elektron makonda insonning xulq-atvor standartlari va qadriyatlari ham o‘zgarib boradi.

Jahon miqyosida axborotlashtirishning keng quloch yozishi O‘zbekiston uchun ham yangi imkoniyatlar taqdim qiladi. Lekin, dunyoning ayrim mintaqa va hududlarida ommaviy axborot vositalari muayyan siyosiy kuchlar qo‘lida informatsion urushni avj oldirishga, jamoatchilik fikrini chalg‘itishga, oqni – qora, qorani – oq deb ko‘rsatishga xizmat qilayotganini afsus bilan qayd etishga to‘g‘ri keladi.

Yangi O‘zbekistonni axborotlashgan jamiyatga aylantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda yurtimizda 2140 ta yoki 2016-yilga nisbatan 626 ta ko‘p ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritmoqda. Ularning 65 foizi nodavlat media vositalari ekani sohada tarkibiy o‘zgarishlar izchil amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. An’anaviy nashrlar bilan birga internet nashrlar ham jadal rivojlanib, ularning soni 745 taga etgani va o‘quvchilar ommasini tobora ko‘proq o‘ziga jalb etayotganini qayd etish lozim.

Davlat idoralari va mahalliy hokimliklar tarkibida axborot xizmatlari yo‘lga qo‘yilgani xalq bilan muloqotni kuchaytirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta’minlash, ularning ochiqlik borasidagi samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash hamda ilg‘or xalqaro standartlar asosida baholash tizimi joriy etildi. Jumladan, yaqinda birinchi marta o‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, davlat organlari va tashkilotlarida amalga oshirilgan ishlarni baholash bo‘yicha Ochiqlik indeksi natijalari e’lon qilingani bu yo‘ldagi muhim qadam bo‘ldi.

Mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xalqaro axborot makoniga ham dadil kirib bormoqda. O‘zbekiston Milliy teleradiokom-

paniyasi hamda bir qator xususiy telestudiyalarning koʻrsatuvlari jahonning 100 dan ortiq davlatlariga uzatilmoqda. Oʻzbekiston Milliy axborot agentligi, "Dunyo" axborot agentligi oʻz xabarlarini 10 ta xorijiy tilda tarqatmoqda.

Keyingi vaqtda yurtimizda kitobxonlikni ommalashtirishdek ezgu ishga nashriyot-matbaa sohasi xodimlari ham munosib hissa qoʻshayotganini alohida e'tirof etish lozim. Soʻnggi yillarda respublika nashriyotlari tomonidan 132 million nusxa badiiy kitob va boshqa adabiyotlar chop etilgani kitobsevar xalqimiz, avvalambor, yoshlarimizning ong-u tafakkurini yuksaltirishda muhim rol oʻynashi shubhasiz.

Axborot jamiyati koʻpincha ommaviy jamiyat va iste'molchilar jamiyati ham deb ataladi. Bu ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish kabi axborotlashtirish jarayonlari bilan bogʻliq. Jamiyatning axborot tuzilmasining tarkibiy qismi boʻlgan global va lokal kompyuter tarmoqlari, uyali aloqa, televideniye va radioeshittirish tizimlari bir vaqtning oʻzida jamiyat a'zolari oʻrtasida samarali muloqotni yoʻlga qoʻyishga xizmat qiladi. Ommaviy kommunikatsiya zamonaviy jamiyatning muhim hodisalaridan biri boʻlib, u har bir mamlakat ichida ham, mamlakatlar oʻrtasida ham barcha turdagi texnologiyalar, xususan, axborot texnologiyalarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir koʻrsatadi.

Koʻpincha axborotlashtirish jarayonlariga iste'molchilar jamiyatiga xos boʻlgan salbiy tus ham beriladi. Koʻpgina jamoatchilik va ilmiy hamjamiyat vakillari axborotlashtirish jarayonlari jamiyatning ma'naviy sohasiga zarar yetkazadi, deb fikr bildirishadi va axborot sivilizatsiyasini madaniyat va ma'naviyat tanazzuli bilan bogʻlashadi.

Ijtimoiy munosabatlarning murakkablashishi muqarrar ravishda oʻzgaruvchan muhit bilan samarali muloqot qilish uchun doimiy ravishda yangi bilimlarga, shakllangan koʻnikma va tajribalarga muhtoj boʻlgan insonlarning axborot kompetensiyasiga boʻlgan talablarning oshishiga olib keladi. Jamiyat taraqqiyotida axborotning oʻrni shundaki, aynan u jamiyatdagi oʻzgarishlarga olib keladi, yangi bilimlarning paydo boʻlishi ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiyot va kundalik hayotdagi oʻzgarishlarni keltirib chiqara-

di. Zamonaviy dunyoda kundalik ma'lumotlar oqimini boshqarish tobora qiyinlashib bormoqda, inson uni izlab topish, saralash va o'zlashtirishni maqbullashtirishga harakat qiladi. Insonning yuqori madaniy va ma'rifiy saviyaga ega bo'lishi bilangina, barcha ma'lumotlarni samarali o'zlashtirish mumkin bo'ladi. Buning natijasida yopiq sikl paydo bo'ladi: yangi bilimlar madaniy-ma'rifiy darajaning oshishiga olib keladi, bu barcha yangi bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradi, jamiyatda o'zgarishlar yuz beradi, yangi bilimlar paydo bo'ladi, bu o'z navbatida, inson va jamiyatning madaniy va ma'rifiy darajasini yana bir karra oshishiga olib keladi. Kishilik jamiyati mavjud ekan, bu sikl cheksizlik tavsifiga ega bo'ladi, uning takrorlanishi uchun faqatgina yangi bilim va axborotlar kerak bo'ladi. Axborotdan foydalanish madaniyatining yuqori darajasi zamonaviy insonning eng muhim kompetensiyasidir. Ya'ni, yetarlicha madaniy-ma'rifiy darajaga ega bo'lmasdan turib, inson yangi bilimlarga ega bo'lolmaydi yoki uni o'zlashtira olmaydi. Jamiyat taraqqiyotida axborotning o'rniga Internet fenomeni ham ta'sir ko'rsatdi: axborot texnologiyalari axborotni taqdim etishning yangi formatlari va usullarini, shu jumladan, elektron kitoblar, video ma'ruzalar hamma uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlar bazalarini yaratish va ulardan amalda foydalanish imkonini berdi. Ushbu holatda zamonaviy jamiyatning axborotdan "zaharlanish" muammosi vujudga keladi, bu muammo ko'plab ommaviy axborot manbalari tomonidan yaratiluvchi "axlat axborot", ya'ni sifati past ma'lumotlarni iste'mol qilish bilan bog'liq. Zamonaviy dunyoda 1 oy ichida katta hajmdagi axborotlar yaratiladi, bunday hajmdagi axborotlarni o'zlashtirish insonning imkoniyatlaridan tashqarida.

Axborot sohasida davlat va nodavlat axborot siyosati farqlanadi. Nodavlat axborot siyosati ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshiriladi, ular kundalik hayot, bo'sh vaqt, madaniyat, xulq-atvor va insonlar hayotining barcha jabhalariga ta'sir qiluvchi mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa qarashlar, fikrlar, bilim va baholarni shakllantiradi.

Davlat axborot siyosatini jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalariga axborot ko'magida bevosita ta'sir ko'rsatish jarayonlari sifatida davlat hokimiyati tomonidan ishlab chiqiluvchi va amal-

ga oshiriluvchi milliy manfaatlar, davlat boshqaruvi strategiyalari, taktikalari, vazifalari, boshqaruv qarorlari va ularni amalga oshirish usullarini aks ettiruvchi maqsadlar to‘plami sifatida ifodalashimiz mumkin. Shunga bog‘liq ravishda, O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunida axborotlashtirish, axborot resursi, axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdori, axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi, axborot texnologiyasi, axborot tizimi, bloger kabi tushunchalardan foydalaniladi[131].

Axborot sohasi — bu axborot, axborot infratuzilmasi, axborotni (axborot jarayonlarini) to‘plash, shakllantirish, tarqatish va ulardan foydalanish bilan shug‘ullanadigan subyektlar, shuningdek, bu holda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tizimi. Axborot sohasi axborotning huquqiy tizimdagi o‘rnini aniqlash, har xil turdagi va maqsadlardagi ma’lumotlarni ishlab chiqarish, o‘zgartirish va qo‘llash sabablari va asoslarini o‘rganish, axborotning xususiyatlarini o‘rganish, axborot munosabatlarini huquqiy tartibga solish sohasi sifatida qaraladi. Axborot sohasida axborot jarayonlarini amalga oshirishda huquqiy tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar paydo bo‘ladi.

Axborot jarayonlarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan va huquqiy tartibga solinadigan ushbu ijtimoiy (ijtimoiy) munosabatlar axborot munosabatlari deb ataladi. Ular axborot huquqining asosiy predmetini, uni huquqiy tartibga solish predmetini tashkil etadi.

Axborot sohasi jamiyat hayotida tizim tashkil etuvchi omil hisoblangani holda O‘zbekiston xavfsizligining siyosiy, iqtisodiy, mudofaa va boshqa tarkibiy qismlarining holatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonning milliy xavfsizligi sezilarli darajada axborot xavfsizligini ta’minlashga bog‘liq va texnologik taraqqiyot jarayonida bu bog‘liqlik yanada kuchayadi.

Axborot sohasini to‘rtta sohaga ajratish mumkin:

1) axborotni izlash, qabul qilish, uzatish va undan foydalanish huquqini amalga oshirish;

2) birlamchi va hosilaviy ma’lumotlarni yaratish, uzatish va

[131] O‘zbekiston Respublikasining 11.12.2003 yildagi 560-II son “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, https://lex.uz/docs/83472

tarqatish; axborot resurslarini shakllantirish, axborot mahsulotlarini tayyorlash, axborot xizmatlarini koʻrsatish;

3) axborot tizimlarini (avtomatlashgan axborot tizimlari, ma'lumot bazalari, bilimlar bazasi) va shu kabi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini yaratish va qoʻllash;

4) axborot xavfsizligi vositalari va mexanizmlarini yaratish va qoʻllash.

Har bir soha oʻziga xos boʻlgan unsurlarni oʻz ichiga oladi:

– turli tavsifdagi axborotlar, axborotni taqdim qilish shakllari;

– axborotni yaratish va uzatish jarayonlari;

– subyektlar – axborot jarayonlari ishtirokchilari va ijrochilari;

– axborot jarayonlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy, ya'ni axborot munosabatlari.

Davlat axborot siyosatining maqsadi axborot jamiyatiga oʻtishni ta'minlashdan iborat boʻlgani holda quyidagilarni oʻzida ifodalaydi:

– milliy axborot makonini shakllantirish,

– ommaviy axborot vositalari tizimini rivojlantirish,

– xalqaro axborot almashinuvini tashkil etish va Oʻzbekiston axborot makonini global axborot makoniga birlashtirish.

Axborot jamiyati-postindustrial jamiyatning nazariy konsepsiyasi; axborot va bilim ishlab chiqarishning asosiy mahsulotiga aylanadigan jamiyat taraqqiyotining tarixiy bosqichi.

Axborotlashgan jamiyatning oʻziga xos xususiyatlari:

– axborot, bilim va axborot texnologiyalarining jamiyat hayotidagi oʻrnini oshirish;

– yalpi ichki mahsulotda axborot texnologiyalari, kommunikatsiyalar va axborot mahsulotlar va xizmatlari ulushining oʻsishi va ularni ishlab chiqarish bilan shugʻullanuvchilar sonining koʻpayishi;

– telefon aloqasi, radio, televideniye, Internet, shuningdek, an'anaviy va elektron ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda jamiyatni axborotlashtirish darajasini oshirish;

– global axborot makonini yaratish: (a) insonlar oʻrtasida samarali axborot almashinuvchini ta'minlash, (b) ularning global axborot resurslaridan foydalana olishlariga imkoniyat yaratish va (c) axborot mahsulotlari va xizmatlariga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish.

Axborot jamiyatining asosiy xususiyatlari quyidagi mezonlar bilan belgilanadi:

Texnologik: asosiy omil ishlab chiqarishda, muassasalarda, ta'lim tizimida va kundalik hayotda keng qo'llaniluvchi axborot texnologiyalari.

Ijtimoiy: axborot hayot sifatini o'zgartirishning muhim rag'batlantiruvchisi bo'lib xizmat qiladi, ma'lumotlardan keng foydalanish asnosida "axborot ongi" shakllanadi va qaror topadi.

Iqtisodiy: axborot resurs, xizmat, tovar, qo'shimcha qiymat va bandlik manbai sifatida iqtisodiyotning asosiy omili sanaladi.

Siyosiy: aholining turli tabaqalari va ijtimoiy qatlamlari o'rtasida tobora ortib borayotgan muloqot va murosa bilan tavsiflanuvchi siyosiy jarayonlarni ta'min etuvchi axborot erkinligi.

Madaniy: shaxs va umuman, jamiyat taraqqiyoti manfaatlari uchun axborot qadriyatlarini qaror toptirishni targ'ib qilish orqali axborotning madaniy qiymatini e'tirof etish.

Har bir mamlakat axborot jamiyatining qaysi turini yaratish kerakligini o'zi hal qiladi. Axborot jamiyatining "raqamli diktatura" yoki "raqamli demokratiya" turlari farqlanadi.

"Raqamli diktatura" raqamli davlatni boshqarishni soddalashtirish maqsadida raqamli byurokratiya tomonidan yaratilgan. Bunda raqamli fuqarolarning raqamli huquqlari himoyalanmaydi, asosiy e'tibor huquq-tartibot idoralarining umumiy raqamli nazorat choralariga qaratiladi. Aholiga aholining o'zi emas, balki davlat (byurokratiya) tomonidan zarur bo'lgan raqamli xizmatlar yuklatiladi.

"Raqamli demokratiya" – bu mutlaqo boshqa turdagi axborot jamiyati hisoblanadi. "Raqamli demokratiya" fuqarolar uchun, ularning raqamli fuqarolik huquqlarini himoya qilish uchun yaratiladi. "Raqamli demokratiya" ni yaratish "raqamli diktatura" ni yaratishga qaraganda ancha qiyin. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli demokratiya fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlashi lozim. Fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligini faqat kriptografiya yordamida ta'minlash mumkin, shu bilan birga, shaxsning o'zi (shaxsning biometrik qiyofasi) shaxsiy kriptografiyasini boshqarish uchun shaxsiy kalitga aylanishi lozim.

Shundan kelib chiqqan holda O'zbekiston Konstitutsiyasining

31-moddasida “Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi. Har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek, noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega”[132]ligi mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida” Qonunida axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilishi, hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo‘nalishlarini, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlarining, fuqarolarning o‘rni va ahamiyatini belgilashi[133] o‘z aksini topgan.

Axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish maqsadlari quyidagilardan iborat:

– shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash;

– axborot resurslarining tarqalib ketishi, o‘g‘irlanishi, yo‘qotilishi, buzib talqin etilishi, to‘sib qo‘yilishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanilishining oldini olish;

– axborotni yo‘q qilish, to‘sib qo‘yish, undan nusxa olish, uni buzib talqin etishga doir ruxsatsiz harakatlarning hamda axborot resurslari va axborot tizimlariga boshqa shakldagi aralashishlarning oldini olish;

– axborot resurslaridagi mavjud davlat sirlari va maxfiy axborotni saqlash.

[132] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, https://constitution.uz/uz/clause/index#section7

[133] O‘zbekiston Respublikasining 12.12.2002 yildagi 439-II-son “Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida” Qonuni, https://lex.uz/ru/docs/52268

16.2. Axborot sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish yoʻnalishlari

Davlat axborot siyosati — bu siyosat subyektlarining davlat va fuqarolik jamiyati manfaatlaridan kelib chiqqan holda, axborot yordamida odamlarning ongi, ruhiyati, ularning xulq-atvori va faoliyatiga ta'sir oʻtkazish qobiliyati va imkoniyatlaridir. Keng ma'noda, bu inson faoliyatining davlat va fuqarolik jamiyati manfaatlarini qondiruvchi, ularning vakillari oʻrtasida ijodiy, konstruktiv muloqotni ta'minlashga qaratilgan ma'lumotlarni koʻpaytirish va tarqatish bilan bogʻliq alohida sohasi hisoblanadi.

Oʻzbekiston uchun savodli davlat axborot siyosatini amalga oshirish quyidagilarni anglatadi:

- fuqarolik jamiyatini rivojlantirish;
- davlat va ommaviy axborot vositalari, hukumat va jamiyat oʻrtasida konstruktiv muloqotni ta'minlash;
- fuqarolar uchun axborotning ochiqligi prezumpsiyasini tan olish va ularning axborot huquqlarini himoya qilish;
- axborot makonining asosiy tarkibiy qismlarini shaxsning daxlsizligi, shaxsning axborotdan foydalanish borasidagi konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirishga yoʻnaltirish;
- aholining hukumatga boʻlgan ishonchini oshirish;
- Oʻzbekiston va boshqa davlatlar oʻrtasida samarali munosabatlarni oʻrnatish va boshqalar.

Shuningdek, davlat axborot siyosati Oʻzbekistonning axborot sohasidagi milliy manfaatlarini roʻyobga chiqarishga qaratilgan boʻlishi lozim:

– axborot olish va undan foydalanish, jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, mamlakatning madaniy va ilmiy salohiyatini saqlash va mustahkamlash sohasida konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga rioya qilish;

– mamlakat va xalqaro jamoatchilikka Oʻzbekistonning davlat siyosati, uning mamlakat va xalqaro hayotdagi siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega voqealar boʻyicha rasmiy pozitsiyasi toʻgʻrisida ishonchli ma'lumot berish, fuqarolarning ochiq davlat axborot resurslaridan foydalanishini ta'minlash bilan bogʻliq Oʻzbekiston davlat siyosatini axborot bilan ta'minlash;

– zamonaviy axborot texnologiyalarini, mahalliy axborot sanoatini, shu jumladan axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya va aloqa tarmog‘ini rivojlantirish, o‘z mahsulotlari bilan ichki bozor ehtiyojlarini va ushbu mahsulotlarning jahon bozoriga chiqishini ta’minlash, shuningdek, mahalliy axborot resurslarini to‘plash, saqlash va ulardan samarali foydalanishni ta’minlash;

axborot resurslaridan ruxsatsiz foydalanishni taqiqlash, mamlakat hududida mavjud axborot va telekommunikatsiya tizimlarining xavfsizligini ta’minlash.

Bugungi kunda axborot sohasida davlat siyosati konsepsiyasi ishlab chiqilishi va mazkur konsepsiyada axborot sohasida O‘zbekistonning milliy manfaatlari va uni amalga oshirishning strategik maqsad va vazifalari aks etishi lozim.

Davlat axborot siyosatining uzoq muddatli strategik maqsadi demokratik axborot jamiyatini barpo qilish va mamlakatning global axborotlashgan jamiyatga kirishini ta’minlashdan iborat.

Davlat axborot siyosati Konsepsiyasida quyidagi vazifalar aks ettirilishi lozim:

– axborot va telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish;

– axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish;

– milliy axborot resurslarini samarali shakllantirish va ulardan foydalanish, ulardan keng va erkin foydalanishni ta’minlash;

– fuqarolarni ijtimoiy ahamiyatga molik axborot bilan ta’minlash va mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish;

– jadal rivojlanayotgan axborot jamiyati talablariga insonni moslashtirish;

– axborot jamiyatini barpo qilishning me’yoriy-huquqiy bazasini rivojlantirish.

Davlat axborot siyosatining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish lozim:

Siyosatning ochiqlik tamoyili — axborot siyosatining barcha asosiy chora-tadbirlari jamiyat tomonidan ochiq muhokama qilinadi va davlat jamoatchilik fikrini hisobga oladi.

Manfaatlarning tengligi tamoyili — siyosat jamiyatdagi mavqeyi, mulkchilik shakli va davlatga mansubligidan qat’i nazar axborot

faoliyati barcha ishtirokchilarining manfaatlarini teng ravishda hisobga oladi (hamma uchun yagona “o‘yin qoidalari”).

Tizimlilik tamoyili — tartibga solinuvchi obyektlardan birining holatini o‘zgartirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni amalga oshirishda uning boshqa obyektlarga ta’siri va oqibatlari hisobga olinishi lozim.

Mahalliy ishlab chiqaruvchining ustuvorligi tamoyili — teng sharoitlarda raqobatbardosh mahalliy axborot-kommunikatsiya vositalari, mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchiga ustunlik beriladi.

Ijtimoiy yo‘naltirilganlik tamoyili — davlat axborot siyosatining asosiy chora-tadbirlari O‘zbekiston fuqarolarining ijtimoiy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi shart.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tamoyili shundan iboratki, ijtimoiy sohani axborotlashtirishga qaratilgan axborot siyosati choralari birinchi navbatda davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

Qonun ustuvorligi tamoyili — huquqiy va iqtisodiy usullarni ishlab chiqish va qo‘llash axborot sohasidagi muammolarning ma’muriy yechimlarining har qanday shaklidan ustun turadi.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanilishini ta’minlash;

– davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O‘zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;

– xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog‘idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;

– davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o‘zaro aloqada ishlashini ta’minlash;

– axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;

– axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga koʻmaklashish;

– dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilishini ragʻbatlantirish;

– tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;

– kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni ragʻbatlantirish.

Elektron hukumat davlat organlarining jismoniy hamda yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida davlat xizmatlari koʻrsatishga oid faoliyatini, shuningdek, idoralar oʻrtasida elektron hamkorlik qilishni taʼminlashga yoʻnaltirilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi hisoblanadi.

Elektron hukumatni turlicha taʼriflash mumkin. Keng maʼnoda, elektron hukumatning vazifalari va xizmatlar koʻrsatishi hamda faoliyatini rivojlantirish uchun AKTni qoʻllash koʻrinishida belgilanishi mumkin.

Shuningdek, elektron hukumatni – davlat organlari koʻrsatayotgan xizmatlarning, ochiqligi, shaffofligi, shuningdek, samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish usuli deb tushunish ham oʻrinlidir. Bundan tashqari, elektron hukumatni AKTni qoʻllagan holda davlat organlarining yanada samarali faoliyat koʻrsatishi hamda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga sifatli xizmatlar koʻrsatish tizimi deb taʼriflash mumkin.

Elektron xizmatlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini taʼminlash barobarida nafaqat shu tashkilotning, balki butun mamlakatning umumiy imijini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bir soʻz bilan aytganda, elektron hukumat atamalarini quyidagi toʻrtta asosiy qismlar orqali umumlashtirsa boʻladi.

Elektron hukumat quyidagicha tavsiflanadi:

– AKT dan foydalanish (kompyuter tarmoqlari, internet, faks va telefon);

– hukumat faoliyatini qoʻllab-quvvatlash (axborot bilan taʼminlash, xizmatlar, mahsulotlar, maʼmuriy boshqaruv);

– fuqarolar bilan hukumat munosabatlarini rivojlantirish (yangi aloqa kanallarini yaratish, siyosiy yoki ma'muriy jarayonlarga fuqarolarni targ'ibot va tashviqotlar orqali jalb qilish);

– belgilangan strategiyalarga mos ravishda ishtirokchilarning tegishli jarayonlarda qatnashish faolligini belgilash.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining elektron hukumat reytingi jahon mamlakatlarida axborot jamiyati qanchalik taraqqiy etayotganini belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri sanaladi.

BMTning elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (E-Government Development Index)da mamlakatlarning mavqeyi ularning umumiy indeksi asosida belgilanadi. Bu indeks uch omildan shakllantiriladi:

– davlat hokimiyati organlarining veb-hozirligi (onlayn xizmatlar);

– telekommunikatsiyalar infratuzilmasi;

– inson kapitali.

O'zbekiston keyingi ikki yil ichida EGDI indeksida 0,06 balga o'z pozitsiyasini mustahkamladi va mamlakatning mazkur sohada indeksi 0,7265 ga teng. Bu jahonning o'rtacha ko'rsatkichi (0,61) va Osiyo bo'yicha o'rtacha daraja (0,65)dan bir muncha yuqori.

Mazkur sohadagi vaziyatni yanada yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi "Elektron hukumat tadqiqoti" hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-308-son qarori qabul qilingan. Qarorga ko'ra, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Elektron hukumat tadqiqoti" hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilash yo'nalishidagi ishlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi. Bunda, mamlakatimizning "Elektron hukumat tadqiqoti" hisobotida 2030-yilga qadar Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi bo'yicha davlatlar ro'yxatida birinchi 30 talikka kiritish Komissiyasining asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan.

Hujjat bilan "Elektron hukumat tadqiqoti" hisobotining tegishli ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun mas'ul beshta Ishchi guruhlarining tarkibi tasdiqlangan.

Ularning vazifalari quyidagilardan iborat:

– eng muhim tarkibiy indikatorlarni, ularni shakllantirish metodologiyasini, shuningdek, oxirgi hisobotlardagi ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, tizimli muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlash;

– davlat organlari va tashkilotlari funksiyalarini xatlovdan o'tkazish, raqamlashtiriladigan jarayon va xizmatlarning muddatlari va toifalarini ko'rsatgan holda aniq ro'yxatni shakllantirish, shuningdek, raqamli xizmatlarni sodda, shu jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun qulay shaklda joriy etish yuzasidan talablarni ishlab chiqish;

– internet tarmog'i va mobil aloqa foydalanuvchilari sonini oshirish maqsadida telekommunikatsiya xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish, operator va provayderlar uchun teng sharoitlarni ta'minlash, telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar uchun internet tarmog'iga ulanish jarayonlarini soddalashtirish;

– sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar, buyumlar interneti hamda blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalarni joriy etish;

– ta'lim bilan yalpi qamrov va uning davomiyligi muddati bo'yicha xalqaro baholash mezonlarini joriy etish va boshqalar.

Elektron hukumatning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

– davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;

– ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;

– o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reestrini shakllantirish;

– aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o'zaro hamkorligi va ularning ma'lumotlar bazalari o'rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida "Yagona oyna" tamoyilini joriy etish;

– tadbirkorlik subyektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan, statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruvi, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berishda, shuningdek, davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga oʻtkazish;

– Tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmogʻi orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek, kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq toʻlashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

– naqd boʻlmagan elektron toʻlovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish,masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

Elektron hukumatning asosiy tamoyillari:

– davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi;

– elektron davlat xizmatlaridan murojaat etuvchilarning teng ravishda foydalanishi;

– “Yagona oyna” tamoyili boʻyicha elektron davlat xizmatlari koʻrsatish;

– davlat organlarining hujjatlarini birxillashtirish;

– elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish;

– elektron davlat xizmatlari koʻrsatish tartibini izchil tarzda takomillashtirib borish;

– axborot xavfsizligini ta’minlash.

Elektron hukumat imkoniyatlarini amalga oshirish maqsadida koʻpgina davlatlar elektron hukumatni rivojlantirishni oʻzlarining siyosiy rejalariga kiritmoqdalar. Jahon tajribasidan ma’lumki, dastlabki e’tibor AKTdan foydalanish orqali davlat ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan edi. Shu bilan birga, elektron hukumat xizmatlariga davlat tomonidan cheklangan investitsiyalar ta’siri natijasida, 2000-yilning oʻrtalarida fuqarolarga yoʻnaltirilgan yondashuvlar oʻzgara boshladi.

Ushbu harakatlar natijasida hukumat xizmatlarini yetkazib berish jarayonida fuqarolarning davlat xizmatlariga turli ehtiyojlarining mosligini ta’minlash birinchi oʻringa qoʻyilganligi orqali sezilarli oʻzgarishlarga erishildi.

Bugungi kunda elektron hukumat nafaqat davlat sektori vazifalarini va jarayonlarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun bir muhim vosita, balki hukumatni o‘zgartirishga va xizmat ishlab chiqish va yetkazib berish uchun yangi yondashuvlarni yaratishda asosiy omil hisoblanmoqda.

Umuman olganda, onlayn xizmatlarning ko‘payishi, ushbu xizmatlardan yanada kengroq foydalanish, o‘z navbatida elektron hukumat tizimining ta’siri katta ekanligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, elektron hukumat, hukumat shaffofligi va ichki samaradorlikka bevosita ta’sir etib, barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun elektron fuqarolar va elektron biznes ishtirokchilarining muhim ommasi shakllanishini talab qiladi.

Elektron hukumat xizmatlari foydalanuvchilarining muhim ommasining ko‘payishi, an’anaviy xizmat ko‘rsatish usulidan voz kechib, elektron hukumat xizmati ko‘rsatish usuliga o‘tib ketishlari talab etiladi. Bu jarayon osonlik bilan amalga oshmaydi, albatta.

Jahon banki elektron fuqarolar va elektron biznes ishtirokchilari uchun onlayn xizmatlarni ko‘paytirish hamda ulardan foydalanish muhimligi haqidagi izlanishlarni olib bordi va quyidagini aniqladi: 5-10 yil oldin birinchi marotaba elektron hukumatni joriy etgan ko‘pgina davlatlar shunday xulosaga keldilarki, jamoaga, elektron hukumat tizimi ushbu sohaga davlat tomonidan taklif etilayotgan sarmoyalar yordamida davlat xizmatlarini Internet tizimida onlayn ko‘rinishda taqdim etishiga qaramasdan mavjud e-xizmatlardan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda.

Elektron hukumat tizimini joriy etish, uni ishlatishda aholining aksariyat talab-ehtiyojlarini qondira olsa, ular tomonidan qo‘llab-quvvatlanish imkoniyatlari bo‘lsagina ushbu yangi tizim muvaffaqiyatga erisha oladi.

Aholining ushbu tizim haqidagi bilimi yetarli bo‘lgandagina ularning ma’lum bir ehtiyojlari qondirilishi mumkin. Bu jarayonda davlat xizmatlari tezda va sifatli ko‘rsatila boshlanadi. Fuqaro va tadbirkorlarning e-hukumat xizmatlaridan foydalanishga bo‘lgan qiziqishlari yoki motivatsiyalarini oshirish uchun aktual, oson olish mumkin bo‘lgan raqamli kontent xizmatlarini taqdim etish lozim.

Bulardan tashqari aholining elektron davlat xizmatlariga bo‘lgan

ishonchini oshirish muhimdir. Ana shu maqsadda tegishli ma'lumotlarni himoyalash va ularning konfidensialligini ta'minlashni nazarda tutish kerak.

Xususan, elektron hukumat xizmatlaridan foydalanish talablari va qo'llab-quvvatlash darajasini oshirishda quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

– ko'p kanalli yagona oyna umumiy xizmatlarini yetkazib berish infratuzilmasini, avtonom ravishda jamoaga xizmat ko'rsatish markazi va joylari, jumladan, telemarkazlar, murojaatlarni qayta ishlash markazlari, veb va mobil portallarni ishlab chiqish;

– AKT ishtirok etgan operatsiyalarni va raqamli muhitdagi barcha o'zaro munosabatlarga aholi tomonidan ishonch bildirishga yo'naltirilgan choralarni amalga oshirish;

– belgilangan talablarni qoniqtiradigan, qulay kontent va xizmatlar, shu jumladan, tegishli dasturlarni ishlab chiqaruvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

– elektron xizmatlarning mavjud imkoniyatlarini yanada kengaytirish va takomillashtirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish.

Bob bo'yicha xulosalar

Axborotlashtirish – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Axborotlashtirish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u maxsus vakolat bergan organ — O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi amalga oshiradi. Axborot resurslari ulardan erkin foydalanish toifalari bo'yicha hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslariga va erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslariga bo'linadi.

Cheklanmagan doiradagi foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan axborot resurslari hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot resurslaridir.

Davlat sirlari to‘g‘risidagi axborotni va maxfiy axborotni yoki erkin foydalanilishi axborot resurslarining mulkdorlari tomonidan cheklab qo‘yilgan axborotni o‘z ichiga olgan axborot resurslari erkin foydalanilishi cheklab qo‘yilgan axborot resurslariga kiradi.

Jismoniy shaxslarning shaxsiga taalluqli ma’lumotlar to‘g‘risidagi axborot maxfiy axborot toifasiga kiradi.

Axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Keng ma’noda davlat axborot siyosatining obyektini jamiyatning axborot sohasi tashkil qiladi. U axborot, axborot infratuzilmasi, axborotni to‘plash, shakllantirish, tarqatish va ulardan foydalanish bilan shug‘ullanadigan subyektlar, shuningdek, bu holda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tizimlarini o‘z ichiga oladi.

Davlatning axborot sohasidagi xatti-harakatlarini to‘rtta turga ajratish mumkin:

1) hukumat siyosati;

2) axborot kompaniyalari;

3) yakka tartibda o‘tkaziluvchi axborot kompaniyalari;

4) hukumatning sodir bo‘lgan voqealarga munosabati).

Ushbu turdagi xatti-harakatlar o‘ziga xos xususiyatlar, amalga oshirish shakli, maqsadlarni axborot bilan ta’minlashga ega bo‘lib, ular bir-biridan siyosiy muloqotni tashkil etish mexanizmlari va muloqotni qo‘llab-quvvatlash texnologiyalari bilan farq qiladi.

Davlat axborot siyosati quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- jamiyat hayotining turli sohalarida keng ko‘lamli vazifalarni axborot bilan ta’minlash;

- axborot makonida maqsadli faoliyat olib borish.

Birinchi holda, bu davlatning axborot sohasidagi uzoq muddatli xatti-harakatlarida, yangi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy muammolarga yechim topish, asosiy ichki va tashqi nizolarni hal qilish va hokazolarda namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi holatda — davlatning axborot industriyasini moddiy-texnik jihozlash, hukumat va ommaviy axborot vositalari oʻrtasida yangicha munosabatlar oʻrnatish, tashqi axborot bozorlariga kirib borish va pozitsiyalarni mustahkamlash boʻyicha harakatlarida koʻrinadi.

Hozirgi kunda axborot siyosati Yangi Oʻzbekistonning davlat siyosatini amalga oshirishning eng ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat hayotida bilim va intellektual texnologiyalarning tobora ortib borayotgan roli nafaqat hukumat va jamiyat oʻrtasidagi aloqa usullarini tubdan oʻzgartiradi, balki davlatning axborot siyosatini amalga oshirish usullarini sifat jihatidan yangilaydi.

Davlat axborot siyosatining mohiyatini tushunish uchun davlatning axborot makonidagi oʻrnini va axborot texnologiyalarining globallashuvi munosabati bilan qanday oʻzgarib borayotganini aniq tasavvur qilish lozim. Zamonaviy davlat axborot siyosatini uchta blokka boʻlishimiz mumkin:

1. Davlatning oʻzini institut sifatida faoliyati koʻrsatishini zaruriy axborot bilan ta’minlash.

2. Axborot iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlari, xususan, ommaviy axborot vositalarining samarali ishlashini ta’minlash.

3. Davlat va jamiyat (inson)ning oʻzaro ta’sirini ta’minlash, xususan, zarur ma’lumotlarni tarqatish, jamiyatda davlat obroʻsini shakllantirish, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan jarayonlarni axborot bilan ta’minlash.

Axborot siyosati tashqi va ichki siyosatda davlatning kommunikatsion faoliyatining eng muhim tarkibiy qismi boʻlganligi sababli axborot siyosatini amalga oshirish sifati va vositalari davlat uchun ustuvor vazifalardan biri boʻlishi lozim.

Takrorlash uchun savollar:

1. Axborotning inson hayoti va kishilik jamiyatidagi oʻrni toʻgʻrisida oʻz fikrlaringizni bayon qiling.

2. “Industrial jamiyat” va “axborotlashgan jamiyat”ning bir-biridan farqlovchi jihatlari nimalarda koʻrinadi?

3. Jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayishi sharoitida

axborot oʻrnining kuchayib borishi bilan bogʻliq jihatlarni yoritib bering.

4. Davlat axborot siyosatining ustuvor yoʻnalishlarini misollar yordamida tushuntirib bering.

5. Elektron hukumatni rivojlantirishning samaradorlik koʻrsatkichlari nimalardan iborat, elektron hukumatning afzalliklarini sanab oʻting.

6. Davlat axborot siyosatining asosiy tamoyillarini amaliy jihatdan tushuntirib bering.

7. Oʻzbekistonda davlat axborot siyosatining huquqiy asoslarini yoriting.

Eng muhim masala – energiya resurslaridan samarali foydalanish... Umuman, "yashil energiya"ga tezroq o'tmasak, bu borada qonunlarimizda ham aniq mexanizmlarni belgilamasak, aholimiz va tadbirkorlarimizni rozi qila olmaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston xalqi va Oliy Majlisga Murojaatnomasidan

XVII BOB. ENERGETIKA SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI

17.1. Davlat energetika siyosatining asoslari va uni amalga oshirish bosqichlari

17.2. 2030-yilgacha bo'lgan muddatda O'zbekistonda energetika sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

17.1. Davlat energetika siyosatining asoslari va uni amalga oshirish bosqichlari

Energetika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Energiya manbalari va energiya resurslarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyati qashshoqlikni kamaytirish, aholi turmush darajasini yaxshilashda yaqqol namoyon bo'ladi. Ayni chog'da, energiya iste'molining doimiy o'sishi tufayli mavjud ishlab chiqarish va iste'mol modellarining barqarorligi va ishonchliligi, shuningdek, qazilma yoqilg'idan foydalanishning atrof-muhitga ta'siri borasida xavotirlar kun sayin o'sib bormoqda.

Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlash, davlat mulkini samarali boshqarish, energetika sohasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish borasida uzoq muddatli davlat energetika siyosatini amalga oshirish quyidagi o'zgarmas tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

– energetikani rivojlantirish borasida eng muhim strategik mo'ljallarni amalga oshirish borasida hukumat tomonidan amalga oshiriluvchi chora-tadbirlarning izchilligi;

– mamlakatni tashqi bozorlarda munosib namoyish eta oluvchi va raqobatbardosh ichki bozorlarning samarali amalda boʻlishiga hissa qoʻsha oladigan kuchli va barqaror rivojlanayotgan energetika kompaniyalarini yaratish;

– sohani innovatsion rivojlantirish borasida tadbirkorlik tashabbuslarini ragʻbatlantirishga qaratilgan davlat tomonidan tartibga solishning asosliligi va ishonchliligi.

Uzoq muddatli davlat energetika siyosatining asosiy strategik moʻljallari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– energetika xavfsizligi;

– iqtisodiyotning energiya samaradorligi;

– energetikaning budjet samaradorligi;

– energetikaning ekologik xavfsizligi.

Energetika sohasida davlat siyosatining muhim tashkil qiluvchilari quyidagilardan tashkil topadi:

– yer qa'ridan foydalanishni tartibga solish;

– ichki energiya bozorlarini rivojlantirish;

– oqilona yoqilgʻi-energetika balansini shakllantirish;

– hududiy energetika siyosati;

– energetika sohasida innovatsion va ilmiy-texnik siyosat;

– energetika sohasida ijtimoiy siyosat;

– tashqi energetika siyosati.

Quyidagilar energetika sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy mexanizmlari sifatida xizmat qiladi:

– yoqilgʻi-energetika majmuining samarali faoliyat koʻrsatishini ta'minlash borasida qulay iqtisodiy muhit yaratish (shu jumladan oʻzaro muvofiqlashtirilgan tarif, soliq, bojxona, monopoliyaga qarshi tartibga solish amaliyoti va yoqilgʻi-energetika majmuidagi institutsional oʻzgarishlar);

– energetikani rivojlantirish moʻljal va ustuvorliklarini roʻyobga chiqarish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirishni ragʻbatlantirish va boshqariluvchanlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi istiqbolli texnik reglamentlar tizimini joriy etish;

– tadbirkorlik subyektlarining investitsiya, innovatsiya, energiya tejamkorlik, ekologik va boshqa ustuvor yoʻnalishlarda strategik tashabbuslarini ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlash;

– energetika sohasida davlat mulkini boshqarish samaradorligini oshirish.

Energetika xavfsizligi mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlashning muhim tashil etuvchisi hisoblanadi.

Energetika xavfsizligi — bu mamlakat, fuqarolar, jamiyat, davlat va iqtisodiyotni uzluksiz va ishonchli tarzda yoqilg'i-energetika resurslari bilan ta'minlash layoqatini ko'zda tutadi. Ushbu tahdidlar tashqi (geosiyosiy, makroiqtisodiy, kon'yunktura) omillar, shuningdek, mamlakat energetika sektorining holati va faoliyati bilan belgilanadi.

Energetika xavfsizligini ta'minlash resurslarning yetarliligi, iqtisodiy mavjudlik, ekologik va texnologik jihatdan maqbullik darajasi bilan belgilanadi. Resurslarning yetarliligi milliy iqtisodiyot va aholini energiya resurslari bilan to'la ta'minlashning jismoniy imkoniyatlarini, iqtisodiy imkoniyatlar-tegishli narx sharoitida bunday ta'minotning rentabelligini, ekologik va texnologik imkoniyatlar — energetika obyektlari faoliyat ko'rsatishi xavfsizligini belgilab beruvchi mavjud texnologiyalar va ekologik cheklovlar doirasida energiya manbalarini qazib olish, ishlab chiqarish va iste'mol qilish imkoniyatlarini belgilaydi.

Energetika sohasida quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

– 25 yil avval ishga tushirilgan IES energobloklarining past FIK (25-35 foiz) va zamonaviy BGU moslamalariga qaraganda yuqori yoqilg'i sarfi (2 baravar);

– elektr ta'minotidagi ko'p sonli uzilishlarga va elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlari yomonlashishiga olib keluvchi taqsimlovchi tarmoqlar va transformatorlarning yuqori darajada eskirganligi;

– mavjud EUL va transformatorlarning asosiy qismining quvvat o'tkazish qobiliyatining pastligi iste'molchilarga elektr energiyasini yetarli hajmda yetkazib berish imkoniyatini bermaydi;

– elektr energetika obyektlarining past darajada avtomatlashtirilganligi va raqamlashtirilganligi texnologik buzilishlarning oldini olish va tezda bartaraf etishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Energetika xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat energetika siyosatining strategik maqsadi uning quyidagi asosiy jihatlarini muayyan izchillikda takomillashtirishni ko'zda tutadi:

– yoqilgʻi-energetika majmuining tegishli sifat va maqbul narxdagi energiya resurslari bilan ichki talabni ishonchli ta'minlash qobiliyati;

– iqtisodiyot iste'mol sektorining energiya resurslaridan samarali foydalanish qobiliyati, jamiyatning oʻz energiya ta'minoti borasida samarasiz xarajatlarni bartaraf etish;

– energetika sohasining ishonchli yoqilgʻi-energetika ta'minoti borasida tashqi va ichki iqtisodiy, texnogen va tabiiy tahdidlarga chidamliligi, shuningdek, turli beqarorlashtiruvchi omillarning namoyon boʻlishi natijasida yetkazilgan zararni minimallashtirish qobiliyati.

Energetika xavfsizligiga erishish quyidagi muhim tamoyillardan kelib chiqqan holda davlat energetika siyosatining barcha asosiy tashkil qiluvchilarini roʻyobga chiqarish asosida amalga oshiriladi:

– yoqilgʻi-energetika resurslarining strategik zaxiralari tizimini yaratish, ishlab chiqarishning ruxsat etilgan minimal zaxiralarini tartibga solish orqali har xil turdagi favqulodda vaziyatlar xavfi tugʻilganda iqtisodiyot va mamlakat aholisini normal sharoitda va minimal zarur hajmda energiya bilan kafolatli va ishonchli ta'minlash;

– iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, aholi, ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlar va korxonalarning energiya xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan davlat organlari, markaziy va hududiy darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari, energiya ta'minoti kompaniyalari va xoʻjalik yurituvchi subyektlar-iste'molchilarning vakolatlari va majburiyatlarini ajratish;

– energetika infratuzilmasining ishonchli faoliyat koʻrsatishi va istiqbolli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish, mamlakatning turli mintaqalari oʻrtasida, shuningdek, mintaqalar ichida alohida hududiy ishlab chiqarish majmualari (energetika tugunlari) oʻrtasida energiya resurslarini tashishdagi cheklovlarni bosqichma-bosqich olib tashlash;

– an'anaviy yoqilgʻi turlarining yangi konlarini (hudud, maydon, mintaqa) oʻz vaqtida qidirish, tayyorlash va oʻzlashtirish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik va oqilona soliq siyosati orqali, an'anaviy qazib olinuvchi energiya manbalarining kamayib borishi

sharoitida innovatsion energiya manbalari va energetikadan foydalanishga o‘tishga o‘z vaqtida tayyorgarlik ko‘rish;

– loyihani qaytarish muddati uchun soliq ta’tillari berish, tezlashtirilgan amortizatsiya, investitsiya xatarlarini sug‘urtalash, investitsion soliq kredit mexanizmlarini joriy etish orqali ularni modernizatsiya qilish borasida investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish va asosiy ishlab chiqarish fondlari eskirishining yo‘l qo‘yilgan chegaradan oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– barcha texnologik jarayonlar va loyihalarda raqobatbardosh mahalliy uskunalardan yuqori darajada foydalanish, mahalliy yuqori qo‘shilgan qiymatga ega energiya tashuvchilarni ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va motor yoqilg‘isi sifati standartlarini kuchaytirish, mamlakatda neft va gazni qayta ishlash majmualarini modernizatsiya qilish, turli sifatdagi motor yoqilg‘isiga aktsiz stavkalarini tabaqalashtirish;

– energiya resurslarini yetkazib berish bo‘yicha xalqaro eksport shartnomalari bo‘yicha majburiyatlarning kafolatlangan bajarilishini ta’minlash asnosida energetika sohasidagi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali energetika sohasida milliy xavfsizlik darajasini oshirish.

Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish sohasidagi davlat energetika siyosatining strategik maqsadi iste’molchilarning energiya tejashga bo‘lgan qiziqishini oshirish orqali energetika resurslaridan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir.

Iqtisodiyotning energiya samaradorligiga erishishda uni amalga oshirishda foydalaniluvchi mexanizmlarga muvofiq guruhlangan davlat energetika siyosatining quyidagi choralari qo‘llaniladi.

Qulay iqtisodiy muhitni yaratish, shu jumladan:

– energiyani tejash borasida qonunchilikni takomillashtirish;

– energiya samaradorligini oshirish jarayonini boshqarishning yaxlit tizimini shakllantirish;

– energiya xizmatlari bozorini shakllantirish;

– iqtisodiyotda va aholi tomonidan energiya resurslaridan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish uchun ularni bosqichma-bosqich boshqariladigan liberallashtirish orqali ichki energiya narxlarining oqilona tizimini shakllantirish;

– energiya tejamkorlik sohasiga xususiy investitsiyalarni qaytarish mexanizmlarini o‘z ichiga olgan shart-sharoitlarni yaratish orqali energiya tejash sohasida tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish.

Quyidagilarni ko‘zda tutuvchi istiqbolli reglament, standartlar va normalar tizimini shakllantirish:

– energiya samaradorligi talablarini kiritish orqali energiya resurslaridan samarasiz foydalanish borasida javobgarlikni oshirish (mashina va uskunalarning o‘ziga xos energiya sarfi, binolarda issiqlik yo‘qotilishi, amaldagi texnik tartibga solish tizimida suvni ko‘p talab qiladigan texnologik jarayonlarni amalga oshiradigan qurilmalarda suv iste’moliga talablar);

– energiya samaradorligining maxsus standartlarini va ularni buzganlik uchun jarimalar tizimini, shuningdek, eskirgan uskunalarni almashtirishni rag‘batlantirish borasida standartlardan yuqori ko‘rsatkichlarga erishish uchun soliq imtiyozlari tizimini joriy etish;

– energiya samaradorligi va energiya tejamkorligi bo‘yicha davlat statistik monitoringini tashkil etish, energiya samaradorligi darajasi (sinflar) bo‘yicha tovarlarni markalashni joriy etish;

– energetika sohasida o‘rganishlarni yo‘lga qo‘yish, ularning natijalari bo‘yicha tashkilotlarning energiya pasportlarini tuzish, so‘ngra ushbu ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va tizimli foydalanish.

Strategik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan:

– mamlakat va hududlar bo‘yicha energiya tejamkorlik dasturlarini ishlab chiqish va ularning bajarilishi monitoringini yo‘lga qo‘yish;

yangi avlod energiya tejaydigan texnologiyalarni yaratish va energiya tejaydigan loyihalarni amalga oshirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

– kichik biznesni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash dasturi (biznes-inkubatorlar, o‘quv dasturlari va boshqalar) doirasida amalga oshiriladigan maxsus loyihalarni yaratish orqali energetika sohasi auditini rivojlantirishni rag‘batlantirish), muayyan bir davriylik asosida barcha turdagi va toifadagi tashkilotlarning (korxonalarning) majburiy energetik auditini tashkil etish;

– chakana bozor iste’molchilari, birinchi navbatda maishiy iste’molchilarni energiya sarfini o‘lchash moslamalari bilan to‘liq

jihozlash orqali energiya resurslaridan hisobga olinmagan foydalanishni bartaraf etish, chakana bozorning elektr va issiqlik energiyasini hisobga olishning avtomatlashtirilgan tijorat tizimlarini ishlab chiqish, yoqilg‘i-energetika resurslarini o‘lchash asboblari uchun metrologik nazorat tizimini yaratish;

– budjet sektorining energiya samaradorligini oshirish, shu jumladan, budjet tashkilotlariga energiya tejash loyihalari natijasida tejalgan mablag‘larni O‘zbekiston budjet qonunchiligiga muvofiq tasarruf etish huquqini berish;

– uy-joy kommunal xo‘jaligi majmuining energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha maxsus chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– sifat jihatidan yangi iste’mol xususiyatlariga ega mahsulotlarni yaratish imkonini beruvchi yangi energiya texnologiyalarini yaratish va ulardan foydalanishni rag‘batlantirish;

– axborot va ta’lim dasturlari (tadbirlar) majmuini amalga oshirish, energiya tejashni rag‘batlantirish;

– energiya tejash va energiya samaradorligi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, yangi energiya manbalarini izlash bo‘yicha tadqiqotlarni rag‘batlantirish.

Energetika sohasining budjet samaradorligi, bir tomondan, energetika sohasidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromadlari hisobiga budjetning daromad qismini shakllantirish jarayonlarining muvozanati, barqarorligi va bashorat qilinishi bilan belgilansa, boshqa tomondan esa energiya manbalariga bo‘lgan talabni qondirish va iqtisodiy jihatdan samarali ishlashini ta’minlash maqsadida energetika sohasini rivojlantirishda ushbu subyektlar tomonidan zarur bo‘lgan investitsiyalarni shakllantirish jarayonlari bilan belgilanadi.

Energetikaning budjet samaradorligini oshirish sohasida davlat energetika siyosatining strategik maqsadi mamlakat budjeti tizimi daromadlarini shakllantirishda davlat va energetika biznesi o‘rtasidagi munosabatlar majmuini samaradorligini ta’minlash, strategik ahamiyatga yoki yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan energiya loyihalarini amalga oshirishda energetikaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish borasida iqtisodiy qulay muhit yaratish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Energetika sohasining budjet samaradorligini ta'minlashda davlat energetika siyosatining quyidagi chora-tadbirlaridan foydalaniladi.

Qulay iqtisodiy muhitni yaratish, shu jumladan:

– mamlakat energetika sohasida samarali iqtisodiy tartibga solishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish doirasida energetika sohasidagi korxonalarga soliq yukini maqbullashtirish;

– bashorat qilinuvchi va barqaror soliq rejimi va investorlarning huquqlarini himoya qiluvchi me'yoriy-huquqiy bazani joriy etish, raqobatni rivojlantirish orqali investorlarning huquqlariga rioya etilishini kafolatlovchi va kompaniyalarning iqtisodiy faoliyati borasida aniq va barqaror qoidalarni yaratish orqali ishbilarmonlik muhitini yaxshilash;

– asosiy vositalarni almashtirish va yangilash borasida investitsiyalarni rag'batlantirish uchun tezlashtirilgan amortizatsiya uchun soliq rejimini ta'minlash orqali amortizatsiya siyosatini takomillashtirish;

– ichki bozorda energiya resurslarini qazib olish, ishlab chiqarish va tashish xarajatlarining obyektiv o'sishi, infratuzilma obyektlarini rivojlantirish uchun investitsiya resurslariga bo'lgan ehtiyoj, shuningdek, ushbu sohadagi xarajatlar samaradorligi ustidan nazoratni kuchaytirishni hisobga olgan holda tabiiy monopoliyalar sohasida davlat tomonidan narx (tarif)larni tartibga solishni takomillashtirish;

– elektr energetikasida sohani rivojlantirish va iste'molchilar tomonidan elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish borasida investitsiyalarni yetarli darajada rag'batlantiruvchi bozor tizimini shakllantirishni yakunlash.

Quyidagilarni ko'zda tutuvchi istiqbolli reglament, standart va normalar tizimini shakllantirish:

– litsenziyalash siyosatini takomillashtirish, asossiz ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish;

– energetikani texnik jihatdan tartibga solish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazaga o'zgartirishlar kiritish, shu jumladan, yuqori texnologik va ekologik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan energetika obyektlarining namunaviy loyihalari uchun loyiha hujjatlarini tasdiqlash tartibini soddalashtirish, energiya uskunalarini loyihalash, ishlab

chiqarish va foydalanishda ilgʻor xalqaro standartlardan foydalanish;

– yoqilgʻi-energetika majmuida kompaniyalar tomonidan taqdim etilayotgan tovar va xizmatlarning ishonchliligi, sifatini hisobga olish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish.

Strategik tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash, shu jumladan:

– energetika loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

– energetika sohasiga uzoq muddatli investitsiyalar borasida risklarni sugʻurtalash tizimini ishlab chiqish;

– energetika tashkilotlarini ilgʻor texnologiyalar va uskunalar bilan taʼminlash borasida qoʻshma lizing kompaniyalarini tashkil etish;

– energetika sektorining oʻziga xos xususiyatlari va venchurli innovatsion ishlab chiqarishni hisobga olgan holda energetika sohasida kichik va oʻrta biznesni iqtisodiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash;

– texnik qayta qurollantirishni ragʻbatlantirish, yoqilgʻi-energetika majmui tarmoqlari va korxonalarini innovatsion rivojlantirish;

– barcha darajadagi yoqilgʻi-energetika majmui xodimlarining malakasini oshirishni tashkil etish va ragʻbatlantirish.

Mamlakat energetika sektori faoliyatining ekologik xavfsizligini taʼminlash energiya manbalarini qazib olish, ishlab chiqarish, tashish va isteʼmol qilishning atrof-muhit va iqlimga salbiy taʼsirini minimallashtirishni oʻz ichiga oladi.

Energetika sohasida ekologik xavfsizlikni taʼminlash borasida davlat energetika siyosatining asosiy maqsadi atrof-muhitga ifloslantiruvchi modda (chiqindi)lar chiqarilishini kamaytirish orqali yoqilgʻi-energetika majmuining atrof-muhit va iqlimga yukini bosqichma-bosqich pasaytirib borishdan iborat.

Energetika sektorining ekologik xavfsizligini amalga oshirishda davlat energetika siyosatining quyidagi asosiy chora-tadbirlari qoʻllaniladi.

Qulay iqtisodiy muhitni yaratish, shu jumladan:

– yoqilgʻi-energetika resurslarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va ulardan foydalanishda ekologik toza energiya va resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish borasida shart-sharoitlarni yaratish va ragʻbatlantirish;

– yo‘ldosh neft gazidan oqilona foydalanishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy infratuzilma, texnologik va boshqa to‘siqlarni olib tashlash va uni yoqish hajmini minimallashtirish;

– qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishni kengaytirish borasida shart-sharoitlar yaratish.

Istiqbolli reglament, standart va normalar tizimini shakllantirish:

– energetika sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ekologik talablarga rioya etilishi va energetika obyektlaridan joriy foydalanish ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

– mamlakat va xalqaro ekologik qonunchilik normalarini uyg‘unlashtirish.


Strategik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan:

– yoqilg‘i-energetika majmuida iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan barcha mulkchilik shaklidagi tashkilotlarga nisbatan ekologik audit tizimini rivojlantirish;

– xalqaro norma va standartlarga muvofiq ekologik xususiyatlari yaxshilangan yuqori sifatli motor yoqilg‘isi ishlab chiqarishni ko‘paytirishni rag‘batlantirish.


17.2. 2030-yilgacha bo‘lgan muddatda O‘zbekistonda energetika sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Hozirgi vaqtda respublikaning mavjud ishlab chiqarish quvvati 12,9 GVtni tashkil etadi, shundan: IES – 11 ming MVt yoki 84,7 foiz; GES – 1,85 ming MVt yoki 14,3 foiz; blok stansiyalari va izolyatsiyalangan stansiyalar –133 MVt dan ortiq yoki 1 foiz.



17.1-rasm. Elektr energiyasi generatsiyasi tuzilishi

Asosiy generatsiya manbalari 11 ta IES, shu jumladan, 3 ta IEM hisoblanadi. Zamonaviy tejamkor elektr energiya bloklarining quvvati 2825 MVt yoki IES umumiy quvvatining 25,6 foizini tashkil etadi.



17.2 – rasm. GESlarning tuzilishi

Gidroenergetika 42 GES, shu jumladan, umumiy quvvati 1,68 GVt (umumiy GES quvvatining 90,8 foizi) bo‘lgan 12 ta katta, 0,25 GVt (13,5 foiz) umumiy quvvati 28 KGES va 0,5 MVt bo‘lgan 2 ta mikro GESlarni o‘z ichiga oladi.

Suv oqimi bo‘ylab quvvati 532 MVt (4 ta katta – 317 MVt va 26 KGES– 215 MVt) bo‘lgan 30 ta gidro elektr stansiyalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Suv omborlarida umumiy quvvati 1,4 GVt bo‘lgan 10 ta GES mavjud. Respublikaning gidro potensialidan foydalanish darajasi 27 foizni tashkil etadi.

Gidroenergetika 42 GES, shu jumladan, umumiy quvvati 1,68 GVt (umumiy GES quvvatining 90,8 foizi) bo‘lgan 12 ta katta, 0,25 GVt (13,5 foiz) umumiy quvvati 28 KGES va 0,5 MVt bo‘lgan 2 ta mikro GESlarni o‘z ichiga oladi. Suv oqimi bo‘ylab quvvati 532 MVt (4 ta katta – 317 MVt va 26 KGES – 215 MVt) bo‘lgan 30 ta gidro elektr stansiyalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Suv omborlarida umumiy quvvati 1,4 GVt bo‘lgan 10 ta GES mavjud. Respublikaning gidro potensialidan foydalanish darajasi 27 foizni tashkil etadi.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish manbalaridan yetkazib berish quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi 35-500 kV magistral tarmoqlar orqali amalga oshiriladi:

Umumiy quvvati 22,830 MVA bo‘lgan 77 ta PS; EUL – 9 768 km.

Respublika bo‘yicha elektr energiyasini taqsimlash va iste’molchilarga yetkazib berish quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi 0,4-110 kVt taqsimlash tarmoqlari orqali amalga oshiriladi: PS 35-110 kV – 1 626 dona, umumiy quvvati — 20 421 MVA; EUL 35-110 kV – 28 642 km; TP – 75 534 dona, umumiy quvvati – 13 933 MVA; EUL 0,4-10 kV – 223 987 km.

Shu bilan birga, elektr tarmoqlari obyektlarining asosiy qismi 30 yildan ortiq vaqt mobaynida ekspluatatsiya qilinmoqda. Jumladan, asosiy va taqsimlovchi tarmoqlarning 66 foizi, podstansiyalarning 74 foizi va transformator punktlarining 50 foizdan ortig‘i 30 yildan ortiq vaqt mobaynida ekspluatatsiya qilinmoqda. Bu esa elektr energiyasini taqsimlash va yetkazib berishda texnologik yo‘qotish darajasining oshishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Magistral tarmoqlarda elektr energiyasini texnologik yo‘qotish-

lar oʻrtacha 2,72 foizni, taqsimlovchi tarmoqlarda 12,47 foizni tashkil etadi.

Respublika elektr energiya tizimi shartli ravishda 5 ta hududiy energiya uzeliga boʻlingan:

– Shimoli-gʻarbiy (Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Xorazm viloyati);

– Janubi-gʻarbiy (Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyati);

– Janubiy (Surxondaryo viloyati);

– Sharqiy (Andijon, Namangan va Fargʻona viloyatlari);

Markaziy (Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri).

2019-yil qish mavsumida yagona elektr energetika tizimining maksimal yuklamalar soatlarida yuklama 10,4 ming MVtni, minimal va maksimal yuklama oʻrtasidagi farq 2,3 ming MVtni tashkil etdi. Oʻz navbatida, 2019-yilning yoz mavsumida yagona elektr energetika tizimining maksimal yuklamalar soatlarida yuklama 9,4 ming MVtga etib, maksimal va minimal yuklama oʻrtasidagi farq 2,6 ming MVtni tashkil etdi.

Shu bilan birga, mavjud tartibga solish quvvatlarini yetarli emasligi IES energobloklarining kunlik qoʻshimcha qayta ishga tushirilishiga, mos ravishda, ortiqcha yoqilgʻi sarflashga va texnologik uskunalarning qoʻshimcha eskirishiga olib keladi.

Bundan tashqari quyidagi asosiy muammolar mavjud:

– 25 yil avval ishga tushirilgan IES energobloklarining past FIK (25-35 foiz) va zamonaviy BGU moslamalariga qaraganda yuqori yoqilgʻi sarfi (2 baravar);

– elektr ta'minotidagi koʻp sonli uzilishlarga va elektr energiyasining sifat koʻrsatkichlari yomonlashishiga olib keluvchi taqsimlovchi tarmoqlar va transformatorlarning yuqori darajada eskirganligi;

– mavjud EUL va transformatorlari asosiy qismining quvvat oʻtkazish qobiliyatining pastligi iste'molchilarga elektr energiyasini yetarli hajmda yetkazib berish imkoniyatini bermaydi;

– elektr energetika obyektlarining past darajada avtomatlashtirilganligi va raqamlashtirilganligi texnologik buzilishlarning oldini olish va tezda bartaraf etishga salbiy ta'sir koʻrsatadi.


O‘z navbatida, respublikada energetikaning ushbu segmentini rivojlantirishning huquqiy asoslarini shakllantirish choralari ko‘rilmoqda. Xususan, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida” va “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari qabul qilindi, shuningdek, “Elektr energiyasi, shu jumladan, energiyaning qayta tiklanadigan manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqaradigan tadbirkorlik subyektlarini yagona elektroenergetika tizimiga ulash reglamenti” tasdiqlandi.

Ayni paytda DXSh tamoyili asosida Samarqand va Navoiy viloyatlarida pilot loyihasi doirasida ikkita har birining quvvati 100 MVt bo‘lgan quyosh FESlarini qurish ishlari boshlandi. Energiya resurslariga bo‘lgan ichki talab iqtisodiy rivojlanishning kutilayotgan dinamikasi, iqtisodiyot tuzilishining o‘zgarishi va uning o‘ziga xos energiya intensivligi darajasi bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotning energiya sarfi hajmini kamaytirish elektr energetika siyosatining asosiy vazifasi bo‘lib, mazkur vazifaning bajarilmasligi energetika sohasining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muqarrar ravishda to‘sqinlik qilishiga olib keladi.

Prognoz natijalari bo‘yicha, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Respublikada elektr energiyasiga bo‘lgan talabning yillik o‘sishi 6-7 foizga teng bo‘ladi.

2030-yilga kelib respublika iste’moli 120.8 mlrd.kVt.s (2018-yilga nisbatan 1,9 baravar ko‘p) bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, aholining elektr energiyasiga bo‘lgan talabi – 21,9 mlrd.kVt.s (2018 yilga nisbatan 1,8 baravar ko‘p), iqtisodiy sektorning elektr energiyasiga bo‘lgan talabi – 85,0 mlrd.kVt.s (2018 yilga nisbatan 2,2 baravar ko‘p) bo‘lishi kutilmoqda.



17.3-rasm. 2030-yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarish va iste'mol qilishning prognoz dinamikasi, mlrd.kVt.s.

2030-yilga kelib aholi jon boshiga elektr energiyasi iste'moli yiliga 2,665 kVt soatgacha oshishi va 2018-yildagi 1,903 kVt.soatga nisbatan 71,4 foizga oshishi kutilmoqda. O'z navbatida, ushbu ko'rsatkich 2018-yil yakunlari bo'yicha Koreyada — 9711, Xitoyda — 4292, Rossiyada — 6257, Qozog'istonda — 5133, Turkiya — 2637 kVt. soat miqdorida qayd etilgan ko'rsatkichdan ancha past.


Elektr energiyasi iste'molining ortishiga olib keluvchi asosiy omillar:

– iqtisodiy o'sish (2030-yilga borib YIM 1,9 barobar oshishi kutilmoqda);

– aholi turmush darajasini oshishi, bu o'z navbatida maishiy texnikadan foydalanishning ko'payishiga olib keladi;

– Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bir vaqtning o'zida urbanizatsiya darajasi o'sishi bilan mamlakat aholisining 37,4 mln kishiga ko'payishi;

– taxminan 10 foizga baholangan qondirilmagan talabning bartaraf etilishi.



17.4-rasm. Aholi jon boshiga elektr energiyasi iste’moli, kVt.s. yiliga

Mamlakatning tranzit uchun qulay bo‘lgan geografik joylashuvini hisobga olgan holda 2030-yilga borib, elektr energiyasini import va eksport hajmi yiliga 6 mlrd.kVt.soatga teng bo‘lishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, 2030-yilga kelib yagona elektr energetika tizimining tig‘iz soatlaridagi yuklama 2019-yilning qish davridagi 10,4 MVtdan 20,9 MVtgacha ko‘tariladi, buning natijasida ishlab chiqarish quvvatini deyarli 2 barobarga oshirish talab etiladi (+ 10,5 ming MVt).

Respublikani elektr energiyasi bilan ta’minlashni takomillashtirish doirasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

– birinchi – respublikaning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini, energoresurslar importiga bog‘liq bo‘lmagan holatda, ichki elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlari hisobiga ta’minlash va bu orqali – energetik xavfsizlikni ta’minlash;

– ikkinchi – iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish bilan parallel ravishda uning energiya sarfini kamaytirish, shu jumladan, iste’molchilar tomonidan elektr energiyasidan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish bo‘yicha iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish orqali;

– uchinchi – ortib borayotgan talabni qondirish maqsadida elektr energiyasini ishlab chiqarishda, yetkazib berish va taqsimlashda energiya samaradorligini oshirish;

– to‘rtinchi – elektr uskunalarni bosqichma-bosqich yangilash va ishlab chiqarish hamda elektr tarmoqlarining quvvat zaxirasini ko‘paytirish hisobiga elektr uskunalar eskirishini oldini olish;

– beshinchi – QTEMlardan foydalanishni rivojlantirish, kengaytirish va ularni yagona elektr tizimiga integratsiyalash.

– oltinchi – elektr energetika bozorining samarali modelini ishlab chiqish.

Yuqoridagi vazifalarni samarali bajarish va Konsepsiya maqsadlariga erishish uchun quyidagi asosiy ustuvor yo‘nalishlarning amalga oshirilishini ta’minlash zarur:

– birinchidan, ichki bozorning samarali ishlashi uchun yangi energetika obyektlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali elektr energiyasini hisobga olish tizimi va dispetcherlik boshqaruvini takomillashtirish;

– ikkinchidan, energiya tejamkor texnologiyalar asosida texnologik jarayonning barcha bosqichlarida elektr energiya samaradorligini oshirish va undan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish quvvatini optimallashtirish;

– uchinchidan, DXSh tamoyillari asosida QTEM investitsiya loyihalari mexanizmlarini yaratish, QTEMni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish va QTEMlarni o‘zlashtirish bo‘yicha investitsiya loyihalarini namoyish etish hisobiga elektr energetikasi va issiqlik energetikasida QTEMlar ulushini oshirish orqali diversifikatsiyalash;

– to‘rtinchidan, uzoq muddatli, birinchi navbatda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay huquqiy va ma’muriy investitsiya muhitini va elektr energiyaning ulgurji bozorini yaratish;

– beshinchidan, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va elektr energetika sohasidagi davlat korxonalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining shaffofligini oshirish;


– oltinchidan, transchegaraviy savdoni oshirish va qo‘shni mamlakatlar energiya tizimlari bilan bog‘lovchi EUL qurish va moder-

nizatsiya qilish orqali mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash;

– yettinchidan, bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich erkinlashtirish va davlat rolini pasaytirish orqali rivojlantirish, mazkur sohada faoliyat yurituvchi subyektlar o‘rtasida huquq va majburiyatlarning aniq taqsimlanishiga asoslangan yangi bozor modelini yaratish, bozor munosabatlarining har bir bosqichida bitta mijozdan to to‘liq raqobatbardosh ulgurji va chakana bozorlarga qadar rivojlantirish.

Issiqlik energiyasi respublikada elektr energiyasi ishlab chiqarishning asosiy manbai bo‘lib qolmoqda va uning energiya tejamkor texnologiyalardan foydalangan holda rivojlanishi butun mamlakat energetika tizimining barqarorligini ta’minlaydi.

IES energiya samaradorligini oshirish uchun asosiy rejimda ishlaydigan yangi elektr stansiyalarini qurishda, foydali ish koeffitsiyenti kamida 60 foiz bo‘lgan bug‘-gaz qurilmalar qo‘llaniladi.



17.5-rasm. 2019-2030-yillarda o‘rnatilgan quvvat va ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmining o‘sishi

2020-2030-yillarda 13 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, shundan 6 tasi umumiy quvvati 3,8 ming MVt bo‘lgan

yangi IES loyihalari, 6 tasi bug‘-gaz qurilmali, gaz turbinasi va ko‘mir energiya bloklari qurilishi hisobiga 4,1 ming MVt quvvatga ega mavjud IESni kengaytirish bo‘yicha loyihalar, shuningdek, Yangi Angren IESda 330 MVtga oshirish orqali 1-5-sonli energiya bloklarini modernizatsiya qilish bo‘yicha 1 loyihadan iborat. Natijada 2030-yilga kelib IESlarning umumiy quvvati 14,7 ming MVtni tashkil qilib, ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi — 70,7 mlrd. kVt. soatga etadi (2018-yilga nisbatan 1,3 baravar ko‘p).

Sirdaryo viloyatida loyihalar doirasida quvvati 650-750 MVt bo‘lgan zamonaviy bug‘-gaz qurilmalari ishlatiladi, obyektlarni 2023-2024-yillarda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Navoiy IESni kengaytirish bo‘yicha 2023-2024-yillarda 650 MVt quvvatga ega uchinchi bug‘-gaz qurilmasi ishga tushirilishi va 2024-2025-yillarda shunday quvvatli to‘rtinchi bug‘-gaz qurilmasi ishga tushirilishi kabi loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

2023-2024-yillarda Talimarjon IESni kengaytirish doirasida umumiy quvvati kamida 900 MVt bo‘lgan uchinchi va to‘rtinchi bug‘-gaz qurilmasi qurilishi rejalashtirilgan.

2025-2026-yillarga Qashqadaryo yoki Surxondaryo viloyatlarida bug‘-gaz qurilmasi asosida umumiy quvvati 1300 MVt bo‘lgan IES qurilishi mo‘ljallangan.

Umumiy quvvati taxminan 1200 MVt bo‘lgan energotizimda iste’molning tig‘iz soatlaridagi maksimal yuklamani qoplash uchun tartibga soluvchi elektr stansiyalarini qurish kam quvvatli gaz turbinali agregatlar (50-100 MVt) va gaz porshenli dvigatellar asosida amalga oshiriladi. 2020 yilda 200-300 MVt quvvatga ega ikkita tartibga soluvchi elektr stansiyasini qurish uchun investorlar aniqlanishi kutilmoqda. Ushbu stansiyalar 2021-2023-yillarda foydalanishga topshiriladi.

Ko‘mir qazib olishni rivojlantirish Angren IESda yangi, quvvati 150 MVt bo‘lgan (ikkinchi bosqich) ko‘mir energoblok qurilishi, shuningdek, ko‘mirning yil davomida yoqilishini ta’minlovchi, yangi Angren IES energiya bloklarini boqichma-bosqich modernizatsiya qilish, shuningdek, atmosferadagi zararli chiqindilarni kamaytirishni o‘z ichiga oladi.

Shaharlarda isitish va issiq suv ta'minoti uchun kogeneratsion qurilmalarning rivojlanishi asosan o'rta quvvatli GTUni joriy etish orqali amalga oshiriladi. Jumladan, 2020-yilda Farg'ona IEM da 17 MVt GTU, 2022-yilda esa Toshkent IEM da umumiy quvvati 54 MVt bo'lgan ikkita GTU joriy etiladi.

Yangi ishlab chiqarish quvvatlari foydalanishga topshirilishi bilan ma'nan va jismonan eskirgan IES bloklari bosqichma-bosqich foydalanishdan chiqariladi. 2030-yilga kelib foydalanishdan chiqariladigan energobloklarning umumiy quvvati 5,9 ming MVtga etadi.

Shu bilan birga, energetik xavfsizlik nuqtai nazaridan, keyinchalik yordamchi xizmatlarni ko'rsatishda foydalanish mumkin bo'lgan quvvat zaxirasi yaratiladi (tizim zaxirasi). 2020-2030-yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalari orqali elektr energiya ishlab chiqarishga, ayniqsa, quyosh energiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Ushbu loyihalar faqat sarmoyadorlar – mustaqil elektr energiyasini ishlab chiqaruvchilar hisobidan amalga oshiriladi.

Qayta tiklanadigan energetikaning rivojlanish ko'rsatkichlariga erishish maqsadida 2020-2030-yillarda 3 GVt shamol va 5 GVt quyosh elektr stansiyalarini qurish ko'zda tutilgan QTEMlarning har yili foydalanishga topshiriladigan quvvatlarining maqsadli parametrlari belgilangan.


Shamol energetikasida asosiy e'tibor har birining quvvati 100-500 MVt bo'lgan yirik shamol elektr stansiyalarini tashkil etishga qaratiladi, ularning asosiy qismi Shimoli-g'arbiy mintaqada (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyati) joylashtiriladi.

Quvvati 100-500 MVt bo'lgan quyosh elektr stansiyalari asosan markaziy va janubiy viloyatlarda (Jizzax, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari) joylashtirish ko'zda tutilgan. Biroq, respublikaning boshqa mintaqalarida 50-200 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyalari quriladi. Shu bilan birga, yirik quyosh fotoelektrik stansiyalari (300 MVt dan ortiq) o'zgaruvchan ishlab chiqarishni barqarorligini va energotizimda iste'molning tig'iz soatlaridagi maksimal yuklamani tartibga solishni ta'minlash uchun sanoat miqyosida energiya saqlash tizimlari bilan bosqichma-bosqich jihozlanadi.

Respublikaning qayta tiklanadigan energetika sohasiga to'g'ri-

dan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish maqsadida, 2020-2022-yillarda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda “Build-own-operate” modelidan foydalangan holda investorlarni aniqlash bo‘yicha tenderlar (tenderlar va kim oshdi savdolari) o‘tkaziladi, ular bilan elektr energiyasini sotib olish bo‘yicha uzoq muddatli (25 yilgacha) shartnomalar tuziladi.

Shu bois, 2020-yilda xalqaro moliya institutlarning (Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki guruhi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki) texnik ko‘magi bilan Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida umumiy quvvati 600 MVt bo‘lgan quyosh elektr stansiyalari qurilishi uchun tenderlar o‘tkaziladi va quyosh energiyasiga boy respublikaning boshqa mintaqalarida umumiy quvvati 800 MVt bo‘lgan FES, shuningdek, QTEM qurish uchun tenderlar e’lon qilinadi.




17.6-rasm. 2030-yilga qadar QTEM asosida energiya ishlab chiqarish tuzilmasi, MVt

Shuningdek, respublikaning olis aholi punktlarida, ekoturizmni rivojlantirish rejalashtirilayotgan mintaqalarda hamda izolyatsiyalangan (yagona elektr energiyasi tizimiga ulanmagan) kichik

quyosh elektr stansiyalarini yaratishga ham e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish korxonalari va sanoat texnoparklarning shaxsiy ehtiyojlari uchun elektr energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha o'rta quvvatli (1-2 MVt) quyosh elektr stansiyalari quriladi.

Iste'molchilarning o'z ehtiyojlari uchun elektr energiyasini ishlab chiqarish va ortiqcha elektr energiyasini tizimiga yetkazib berish qobiliyatining jadal o'sishini hisobga olgan holda, shuningdek, respublikada investitsiya salohiyati faollashishini rag'batlantirish maqsadida 2021-2025 yillarda 150 mingga yaqin quyosh fotoelektr stansiyalarini (quvvati 2-3 kVt) va uy xo'jaliklarining 2-2,5 foizida suv isitgichlari (o'rtacha 200 litr) o'rnatishni ko'zda tutuvchi maqsadli dastur tasdiqlandi.



17.7-rasm. 2018-2030-yillarda GESlarning o'rnatilgan quvvatining o'sishi, MVt

2026-yilga kelib aholi tomonidan QTEM obyektlari o'rnatilishini hisobga olgan holda respublikadagi uy xo'jaliklarining 4,3 foizini yiliga qariyb 800 mln. kVt.s. hajmida elektr energiyasi bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda.

2020-2030-yillarda 62 ta loyiha bo‘yicha ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan, shu jumladan, umumiy quvvati 1537 MVt bo‘lgan 35 ta gidro elektr stansiyalari qurilishi va quvvati 186 MVt ga oshirilgan 27 ta gidro elektr stansiyalarni modernizatsiya qilish mo‘ljallangan. Natijada, 2030-yilga kelib GESlarning umumiy quvvati 3785 MVtni tashkil qilib, ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi — 13,1 milliard kVt soatni tashkil qiladi. (2019-yilga nisbatan 2,2 barobar ko‘p).

2030-yilgacha yangi gidro elektr stansiyalar qurilishi rejalashtirilgan, shu jumladan:

– Markaziy energiya uzelida: umumiy quvvati 1176 MVt bo‘lgan 6 ta yirik GES, 33 MVt quvvatga ega 3 KGES va 2 MVt quvvatga ega 2 ta mikro GES;

– Janubi-g‘arbiy energiya uzelida: umumiy quvvati 114 MVt bo‘lgan 17 ta KGES va 5 MVt quvvatga ega 5 ta mikro GES;

– Janubiy energiya uzelida: umumiy quvvati 271 MVt bo‘lgan 4 ta GES va 25 MVt quvvatga ega 1 ta KGES;

– Sharqiy energiya uzelida: umumiy quvvati 68 MVt bo‘lgan 8 ta KGES va 5 MVt quvvatga ega 9 ta mikro GES.

Magistral elektr tarmoqlari elektr energiyasini respublika hududlari bo‘ylab tashishni, shuningdek, davlatlararo tranzit, eksport-importni va boshqa davlatlarning elektr energetika tizimlari bilan o‘zaro aloqani amalga oshiradi.

Magistral elektr tarmoqlari “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ — tizim operatori tarkibida bo‘lib, davlat mulki hisoblanadi va xususiylashtirilmaydi va yoki operatsion boshqaruvga berilmaydi.

Elektr stansiyalarining barcha turlarini, shuningdek, magistral va taqsimlovchi elektr tarmoqlarini yagona tezkor-dispetcherlik boshqaruvi “Milliy elektr tarmoqlari” AJ tarkibidagi milliy dispetcherlik markazi tomonidan amalga oshiriladi.

2020-yilda Jahon bankining ko‘magi bilan yangi ishlab chiqarish quvvatlari, shu jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalari integratsiyasini hisobga olgan holda magistral elektr tarmoqlarini 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun rivojlantirish rejasi ishlab chiqiladi va tasdiqlandi.

Elektr ta’minoti ishonchliligini oshirish uchun 2025-yilga kelib

yagona elektr energetika tizimining barcha uzellari 500 kV elektr tarmoqlari orqali bog‘lanadi.

Ushbu vazifaning samaradorligiga quyidagi asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali erishiladi:

– yangi ishlab chiqarish quvvatlarini birlashtirish va shimoli-g‘arbiy energiya uzelida elektr energiyasi bilan ta’minlashning ishonchliligini oshirish, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyatida yangi ishga tushirilgan ishlab chiqarish quvvatlarini elektr energiyasi bilan ta’minlash quyidagi obyektlarni qurish orqali amalga oshiriladi.

a) Navoiy IESdan Besopan podstansiyasigacha uzunligi 177 km bo‘lgan 500 kV kuchlanish gabaritida 220 kV kuchlanishli keyinchalik 500 kVga o‘tkazish orqali EUL qurish;

b) har birining quvvati 501 MVA bo‘lgan ikki avtotransformatorli 500G‘220 kV Muruntau podstansiyasini qurish;

v) har birining quvvati 501 MVA bo‘lgan ikki avtotransformatorli 500 kV Sarimoy podstansiyasini qurish;

g) Sarimoy podstansiyasidan Muruntau podstansiyasigacha uzunligi 226 km bo‘lgan 500 kV kuchlanishli EUL qurish;

d) Sarimoy podstansiyasidan Qorako‘l podstansiyasigacha uzunligi 255 km bo‘lgan 500 kV kuchlanishli EUL qurish;

Toshkent va Toshkent viloyatida iste’molchilarning elektr energiyasiga bo‘lgan tez o‘sib boruvchi talabini, har birining quvvati 501 MVA bo‘lgan ikki avtotransformatorli 500G‘220G‘110 kV podstansiya va uzunligi 46 km bo‘lgan 500 kV kuchlanishli EUL (L-550 va L-502 dan kirish-chiqish) qurish orqali qoplash;

Janubiy energiya uzelini ishonchliligini oshirish, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish va boshqa davlatlarning energiya tizimlari bilan o‘zaro integratsiyasini yaxshilash quyidagi elektr ta’minoti obyektlarini qurish orqali bajariladi:

a) Surxondaryo viloyatida, har birining quvvati 501 MVA bo‘lgan ikki avtotransformatorli 500G‘220G‘110 kV podstansiya;

b) Surxon-500 PSdan (O‘zbekiston Respublikasi) Puli-Xumri PSgacha (Afg‘oniston Islom Respublikasi) uzunligi 200 km bo‘lgan 500 kV kuchlanishli EUL;

v) Guzar PSdan (O‘zbekiston Respublikasi) Regar PSgacha (To-

jikiston Respublikasi) uzunligi 63 km bo‘lgan 500 kV kuchlanishli EUL;

220 kV EUL va PS ning vazifalari 2030-yilga borib, asta-sekinlik bilan tizimni tashkil etuvchi funksiyasidan taqsimot funksiyalariga o‘tkaziladi.

Ushbu vazifaning samaradorligi quyidagi asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta’minlanadi:

– Magistral PS va EUL larni ikki bosqichda modernizatsiya va rekonstruksiya qilish:

a) birinchi bosqichda 2022-yilgacha — 22 ta PS 220G‘110 kV;

b) ikkinchi bosqichda 2028-yilgacha — 44 ta podstansiya va 110-220 kV kuchlanishli magistral EUL;

– umumiy quvvati 1250 MVA bo‘lgan beshta yangi 220 kV kuchlanishli ikki transformatorli PS va umumiy uzunligi 246 km bo‘lgan 220 kV kuchlanishli EUL qurish.

Bundan tashqari, yirik sanoat korxonalari va elektr stansiyalari tashkil etilishi natijasida yangi qo‘shimcha 220 kV kuchlanishli PS va EUL quriladi.

Yuqoridagi loyihalarni amalga oshirishda texnik xizmat ko‘rsatish tezkorligini ta’minlash, shu jumladan, ekspluatatsion xarajatlarini kamaytirish va texnologik buzilishlar va og‘ishlarni tezda bartaraf etish uchun elektr energetika obyektlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlari hisobga olinadi:

– real vaqt rejimida elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlash, qayta ishlash, namoyish qilish va arxivlash, shuningdek, elektr energiyasi oqimlarini va ishlab chiqarish quvvatini optimallashtirish uchun dispetcherlik boshqaruv hamda ma’lumotlarni jamlash tizimi SCADA bosqichma-bosqich amalga oshirish ko‘zda tutilgan;

– yangi podstansiyalarni qurishni, shuningdek, mavjud podstansiyalarni rekonstruksiya qilishni loyihalashda, “Raqamli podstansiya” kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ko‘zda tutiladi.

Xarajatlar va yer uchastkalarini qisqartirish uchun yangi asosiy EUL qurilishini loyihalashda IEC standartlari asosida ko‘p zanjirli havo EUL larini yaratishni ta’minlaydigan yangi standartlar joriy etiladi.

Elektr energiyasini mustaqil ishlab chiqaruvchilarni yagona elektr energiyasi tizimiga ulanish holatlaridan tashqari magistral elektr tarmoqlarini qurish, modernizatsiya qilish va rekonstruksiya qilish "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJning o'z mablag'lari va qarz mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Taqsimlash elektr tarmoqlari elektr energiyasini yakuniy iste'molchiga yetkazib berish funksiyasini bajarib, nisbatan jadal rivojlanishi va yuqori texnologik yo'qotish darajasi bilan ajralib turadi.

Quyidagilar elektr taqsimlash tarmoqlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi:

– elektr energiyasini taqsimlash jarayonida uning texnologik va tijorat yo'qotishlarini kamaytirish;

– elektr ta'minoti ishonchliligini oshirish va sifatini yaxshilash.

Elektr energiyasini ulgurji raqobatlashgan bozoriga o'tish jarayonida taqsimlash tarmog'ini ekspluatatsiya qilish va iste'molchilarga elektr energiyasini sotish funksiyalari ajratiladi, taqsimlash tarmoqlari esa davlat mulki bo'lib qoladi. Elektr energiyasini sotish funksiyasi shaffof tanlovlar asosida DXSh shartlari bo'yicha bosqichma-bosqich xususiy kompaniyalar-riteylerlariga o'tkaziladi.

Elektr energetikasi sohasining tarif siyosati quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

– ishlab chiqarish xarajatlari, amortizatsiya, kapital xarajatlar, shuningdek, qarzlarni to'lash va dividendlar olish uchun foyda olishga imkon beradigan miqdorlarni yaratish, uzatish va taqsimlash uchun alohida kamsitilmaydigan tariflarni belgilash;


– energetika kompaniyalari uchun ularning faoliyati samaradorligini oshirish va yo'qotishlarni kamaytirish maqsadida rag'batlantirish asosida metodologiyaga muvofiq hisoblanadigan uzoq muddatli tariflarni belgilash;

– elektr energiyasini sotib olish va yetkazib berish haqiqiy xarajatlarini qoplaydigan miqdorda respublikaning barcha hududlarida oxirgi iste'molchilar uchun yagona tariflarni (milliy tariflar) saqlab qolish;

– 2022-yildan boshlab sutkaning vaqt bo'yicha zonalari, kunlar (ish kunlari, dam olish kunlari)ni hisobga olgan holda, aholi uchun elektr energiyasi uchun differensial tariflarni joriy etish;

– 2023-yildan boshlab qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarish natijasida olingan ortiqcha elektr energiyasini aholidan belgilangan narxlarda sotib olish tartibini joriy etish;

– tariflarni Tarif komissiyasi tomonidan, keyinchalik maxsus vakolatli organ – energetika bozorining Regulyatori tomonidan tasdiqlash, shuningdek, tariflarni belgilash metodologiyasini va tariflarni tartibga solish bilan bog‘liq boshqa huquqiy hujjatlarni tasdiqlash vakolatiga ham ega bo‘ladi.



17.8-rasm. 2019-2030-yillarda o‘rnatilgan quvvatning o‘zgarishi, MVt

2030-yilga kelib belgilangan maqsadlarga erishish natijasida:

a) jismonan eskirgan uskunalarni (5,9 ming MVt) ishdan chiqarilishini hisobga olgan holda o‘rnatilgan va mavjud bo‘lgan quvvat 29,2 ming MVtni tashkil etadi, shu jumladan:

– IES, tabiiy gazda ishlaydigan – 13,4 ming MVt (45 foiz);

– IES, ko‘mirda ishlaydigan – 1,7 ming MVt (5,9 foiz);

– GES – 3,8 ming MVt (13,1 foiz);

– ShES – 3 ming MVt (10,4 foiz);

– FES – 5 ming MVt (17,3 foiz), shu jumladan, quyoshli soatlarda elektr energiyasini yig‘ib, to‘plangan elektr energiyasidan quyosh

bo‘lmagan va energotizimdagi iste’molning kechki tig‘iz soatlaridagi maksimal yuklama paytlarida 1 ming MVtli elektr energiyasini saqlash moslamalari bilan;

AES– 2,4 ming MVt (8,3 foiz).

Bob bo‘yicha xulosalar

Davlat energetika siyosatining innovatsion tashkil etuvchisining strategik maqsadi O‘zbekiston yoqilg‘i-energetika majmuini mamlakatning energiya xavfsizligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan miqdorda yuqori samarali mahalliy texnologiyalar va uskunalar, ilmiy, texnik va innovatsion yechimlar bilan ta’minlash uchun energetika sohasida barqaror milliy innovatsion tizimni yaratishdir.

Energetika sohasidagi ilmiy, texnik va innovatsion siyosat zamonaviy yutuqlarga va ushbu sohadagi fundamental va amaliy mahalliy va jahon ilm-fanining ustuvor yo‘nalishlari prognoziga asoslanishi, O‘zbekiston iqtisodiyotining energetika sohasida yangi yuqori samarali texnologiyalarni yaratish va joriy etishni ta’minlashi lozim.

Ushbu sohadagi hozirgi tendensiyalar yoqilg‘i-energetika majmuidagi ilmiy-texnik ishlanmalarning kapital sig‘imining o‘sishi, shuningdek, energetika sohasida integratsiyalashgan ilmiy-ishlab chiqarish tizimlarining (texnoparklarning) rivojlanishi bilan bog‘liq.

Bu sohadagi asosiy muammolarga quyidagilar kiradi:

– yoqilg‘i-energetika majmui korxonalarining import qilinuvchi energiya texnologiyalari va uskunalariga yuqori darajada bog‘liqligi;

– yoqilg‘i-energetika majmui korxonalari texnik darajasining zamon talablariga mos kelmasligi;

– ilm-fan va biznes o‘rtasida o‘zaro ta’sir aloqalari borasida yaxlit tizimning yo‘qligi;

– yoqilg‘i-energetika majmuasida rivojlangan innovatsion infratuzilmaning yo‘qligi (texnologiya uzatish, innovatsiya va texnologiya markazlari, texnoparklar, biznes-inkubatorlar, innovatsiyalar bo‘yicha o‘quv markazlari, venchur fondlari va boshqalar).

Energetika sohasida innovatsion va ilmiy-texnik siyosatning

strategik maqsadiga erishish maqsadida quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

– ilmiy-texnik salohiyat, shu jumladan, fundamental fan, amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarni isloh qilish va rivojlantirish, eksperimental bazani va ilmiy-texnik axborot tizimini modernizatsiya qilish;

yoqilg'i-energetika majmuining ishlab chiqarish va texnologik bazasini tubdan yangilash, resurslarni tejash, elektr stansiyalari va tizimlarining samaradorligi, ishonchliligi, ekologik xavfsizligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni jadal rivojlantirish va yoqilg'i-energetika kompleksi mahsulotlari iste'mol xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan innovatsion faoliyatni rivojlantirish borasida qulay shart-sharoitlarni yaratish;

– O'zbekiston yoqilg'i-energetika majmui tarmoqlarining innovatsion rivojlanishini ta'min etuvchi investitsiya loyihalarini, shuningdek, chet elda amalga oshirilayotgan shunga o'xshash loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda energetika kompaniyalari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimini yaratish;

– energetika bilan bog'liq innovatsion jarayonning barcha bosqichlarini takomillashtirish, ilmiy, loyihalash, ixtirochilik va ratsionalizatsiya faoliyati natijalaridan foydalanish samaradorligini oshirish;

– ilmiy-texnik faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish;

– eng yaxshi jahon yutuqlarini qo'llash va ichki ishlanmalarni yuqori darajaga olib chiqish uchun xalqaro hamkorlik salohiyatidan foydalanish;

– inson resurslari va ilmiy bazani saqlash va rivojlantirish, fan, ta'lim va innovatsiyalarni birlashtirish.

Yoqilg'i-energetika majmuini rivojlantirishning innovatsion yo'nalishi, shuningdek, davlat tomonidan tartibga solish doirasida yangi ilmiy, texnik, texnologik, tashkiliy va iqtisodiy yechimlarni izlash va amalda qo'llashning uzluksiz jarayonini ishlab chiqish uchun shart-sharoitlarni shakllantirishni va innovatsion jarayonning barcha ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning aniq tizimini shakllantirishni nazarda tutadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Jahonda energetika sohasida sodir bo‘layotgan so‘nggi tendensiyalar to‘g‘risida so‘zlab bering.
2. Energetika sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy strategik maqsadi nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Energetik xavfsizlik va milliy xavfsizlikning o‘zaro bog‘liqligini misollar yordamida tushuntirib bering.
4. Markaziy Osiyo davlatlarining energetik siyosatining umumiy va farqli jihatlari nimalarda ko‘rinadi?
5. Energetika sohasida innovatsion siyosatni amalga oshirish ustuvorliklarini sanab o‘ting.
6. O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish borasida davlatning rag‘batlantiruvchi siyosati va uning samaradorligi borasida



Akrom Abdiyevich HOSHIMOV

Hoshimov Akrom Abdiyevich 1967-yil 10-aprelda Samarqand viloyati Payariq tumanida ishchi oilasida tug‘ilgan. 1974–1984-yillarda tumandagi I.S.Turgenev nomidagi 45-o‘rta umumta’lim maktabini tamomlagan. 1985–1987-yillarda harbiy xizmatni o‘tab, 1988–1989-yillarda Payariq tumanidagi jamoa xo‘jaligida ishlagan.

1989-yilda Toshkent xalq xo‘jaligi institutiga o‘qishga qabul qilingan. 1995-yilda Toshkent moliya institutini Buxgalteriya hisobi, taftish va nazorat mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan.

1995–1999-yillarda “O‘zdehqonchilikqurilish” birlashmasida ish yurituvchi buxgalter, Bosh buxgalter yordamchisi, Bosh buxgalter, Buxgalteriya hisobi, hisoboti va soliqlar Bosh boshqarmasi boshlig‘i lavozimlarida faoliyat yuritgan.

1999–2009-yillarda “Qishloq hayoti” gazetasi tahririyatida Bosh hisobchi, tahririyat bosh muharririning iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari vazifasida faoliyat yuritgan.

2001–2009-yillarda o‘rindoshlik asosida Toshkent moliya institutining “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi assistenti, katta o‘qituvchi va dotsent lavozimlarida faoliyat yuritgan.

2009–2018-yillarda Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori lavozimida ishlagan. U 2002-yilda iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan bo‘lsa, 2007-yilda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

A.Hoshimov 2009-yil fevraldan boshlab “Xalq so‘zi” va “Narodnoe slovo” gazetalari tahririyati Bosh hisobchisi, Bosh muharrirning Iqtisod va marketing masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimlarida faoliyat yuritib kelmoqda.

A.Hoshimov Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Rossiya Federatsiyasi Qozon universiteti Boshqaruv iqtisodiyot va moliya institutining faxriy professori, Xalqaro axborotlashtirish akademiyasi hamda Nyu-York (AQSH) fanlar akademiyasi akademigi hisoblanadi.

O‘tgan yillar davomida uning muallifligida 5 ta monografiya, 10 ta o‘quv-qo‘llanma hamda 5 ta (hammualliflikda) darslik chop etilgan. Shuningdek, A. Hoshimov AQSH, Rossiya, Yaponiya, Malayziya, Chexiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Finlyandiya, Shvetsiya, Latviya, Litva, Estoniya kabi dunyoning qator davlatlarida bo‘lib, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha tajriba va malakasini oshirgan.

Uning ilmiy rahbarligida 1 nafar iqtisodiyot fanlari nomzodi, 5 nafar iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), 1 nafar iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) muvaffaqiyatli himoya qilgan.

A.Hoshimov 2007-yilda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi”, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligi”, “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlangan.

2010–2015-yillar davomida xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputati sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

A.Hoshimov bugungi kunda Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/30.12.2019.i.03.05. raqamli Ilmiy kengash va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 Ilmiy kengash va uning huzuridagi Ilmiy seminar a’zosi.

Shuningdek, A.Hoshimov “Xalq so‘zi” va “Narodnoe slovo” gazetalari tahririyati, “Kasbiy fanlar metodikasi”, “Agroilm” hamda “Logistika va Iqtisodiyot” jurnallari tahrir hay’ati va ekspertlar kengashi a’zosi hisoblanadi.

Hoshimov Akram Abdiyevich 2023-yilda Prezidentimiz Farmoniga ko‘ra, “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.



Dilnavoz Akramovna ABDIYEVA

Abdiyeva Dilnavoz Akramovna 1993-yil 7-dekabrda Samarqand viloyati Payariq tumanida tug‘ilgan.

D.Abdiyeva 2000-yilda Toshkent shahridagi 300-umumta’lim maktabining boshlang‘ich sinfiga o‘qishga qabul qilingan. 2004-yildan boshlab Alisher Navoiy nomidagi respublika Nafis san’at litseyida o‘qishni davom ettirgan. 2009–2012-yillarda Respublika rassomlik kasb-hunar kollejida tahsil olgan va imtiyozli diplom bilan tamomlagan.

D. Abdiyeva 2012-yilda “Chizma tasvir kompozitsiyasi” bo‘yicha Respublika yosh rassomlar ko‘rik-tanlovida 1-o‘rinni qo‘lga kiritib, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining Yengil sanoat texnologiyalari fakultetiga davlat granti asosida o‘qishga qabul qilingan va ushbu oliy ta’lim muassasasini imtiyozli diplom bilan tamomlagan.

U 2012-yilda Buyuk Britaniyaning Birmingem kolleji tomonidan o‘tkazilgan mahorat maktabida ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlangan. 2013-yil “British Council” va “UAL University of the Arts London” hamkorligida o‘tkazilgan “LCF International Continuing Professional Development Short Course Enterpreurship and Fashion Marketing Workshop” nufuzli xalqaro loyiha diplomanti bo‘lgan.

2013–2014-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademigi, texnika fanlari doktori, professor M. Xodjinova nomidagi stipendiya, 2015–2016-yillarda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendianti bo‘lgan.

2015-yilda talabalar almashinuvi dasturi doirasida Janubiy Koreyaning Jungbu universitetining Kompyuter grafikasi va animatsiyasi yoʻnalishida malaka oshirgan.

D.Abdiyeva 2016–2018-yillarda Toshkent toʻqimachilik va yengil sanoat institutining Yengil sanoat texnologiyalari fakulteti "Dizayn" ta'lim yoʻnalishida magistratura bosqichida tahsil olgan.

U mehnat faoliyatini 2018-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi Badiiy koʻrgazmalar direksiyasida ilmiy xodim sifatida boshlagan. 2019-yildan Toshkent toʻqimachilik va yengil sanoat institutining tayanch doktoranturasiga qabul qilingan.

2021-yil 5-avgustda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy Kengashda "Marketing yondashuvlari asosida tikuv-trikotaj korxonalari eksport salohiyatini oshirish" mavzusidagi 08.00.11 — "Marketing" ixtisosligi boʻyicha Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Uning ilmiy rahbarligida 1 nafar iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. D. Abdiyevaning 20 ziyod ilmiy maqolalari mahalliy va xorijiy nashrlarda chop etilgan.

2021-yilning sentabr oyidan e'tiboran, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Marketing" kafedrasi (PhD) katta oʻqituvchisi lavozimida faoliyat olib borgan.

D.Abdiyeva 2023-yil 4-yanvardan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Marketing" kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi hamda shu bilan birgalikda, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi doktoranti sifatida iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishi boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Uning 2 ta monografiyasi, 2 ta oʻquv-qoʻllanmasi, shundan 1 ta monografiya va 2 ta oʻquv-qoʻllanmasi Germaniyaning "GlobeEdit" nashriyoti tomonidan 7 tilda chop etilgan.

D.Abdiyeva ingliz hamda rus tillari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur oʻzlashtirgan.

Ushbu darslikning III bobi D. Abdiyeva tomonidan tayyorlandi.



Muxlisa Akram qizi NORBAYEVA

Norbayeva Muxlisa Akram qizi 1996-yil 11-mayda Toshkent shahrida tug‘ilgan.

M. Norbayeva 2012-yilda Toshkent shahridagi P.F.Borovskiy nomidagi meditsina kollejining “Davolash ishi” yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilinib, 2015-yilda mazkur kollejini bitirgan.

2016-yilda Toshkent xalqaro Vestminster universiteti “Iqtisod va moliya” bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga talabalikka qabul qilinib, 2020-yilda uni muvaffaqiyatli tamomlagan.

M. Norbayeva 2021–2022-yillarda Toshkent xalqaro Vestminster universitetining “Xalqaro biznes boshqaruvi” ta’lim yo‘nalishida magistratura bosqichida tahsil olgan.

2017–2019-yillarda “Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalari tahririyatida musahhih lavozimida ishlagan.

2021–2022 yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabalar bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi lavozimida samarali faoliyat olib borgan.

O‘tgan davr mobaynida u mamlakatmizda o‘tkazib kelinayotgan turli festival hamda ko‘rik-tanlovlarda qatnashib, diplom hamda sertifikatlar bilan taqdirlangan.

Nufuzli anjumanlarda o‘z sohasiga oid ilmiy-amaliy ishlari bilan faol ishtirok etib kelmoqda.

M.Norbayeva o‘zining tirishqoqligi, izlanuvchanligi, bilimga chanqoqligi va kasbiga bo‘lgan sadoqati tufayli “O‘zbekiston mustaqilligiga 25 yil” esdalik nishoni bilan taqdirlangan.

Shu bilan birga, M.Norbayevaning hozirgi kunga qadar mamlakatimiz ilmiy-ommabop nashrlarda iqtisodiyotning dolzarb yoʻnalishlariga oid oʻnga yaqin ilmiy maqolalari chop etilgan.

Uning 2 ta darslik va 1 ta oʻquv-qoʻllanmasi (“Macro Economics” hammualliflikda) Germaniyaning “GlobeEdit” nashriyoti tomonidan ingliz tilida chop etilgan nashr qilingan. Shuningdek, M. Norbayevaning 1 ta monografiyasi (“Ways to Ensure Economic Stability through Exchange Rate Policy”) Germaniyaning “GlobeEdit” nashriyoti tomonidan 7 tilda chop etilgan.

M.Norbayeva 2023-yil 4-yanvardan Bank-moliya akademiyasi doktoranti sifatida iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun “Valyuta siyosati orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash yoʻllari” mavzuida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

M. Norbayeva ingliz, rus tillarini hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur oʻzlashtirgan.

Ushbu darslikning IV bobi M. Norbayeva tomonidan tayyorlangan.



Muhammadali Akrom o‘g‘li ABDIYEV

Abdiyev Muhammadali Akrom o‘g‘li 2004-yil 23-noyabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan.

M.Abdiyev 2021-yilda Toshkent shahri, Sergeli tumanidagi 68-sonli o‘rta maktabni namunali tamomlagan.

Hozirda London shahridagi “Brunel University London” universiteti talabasi.

M.Abdiyev ingliz, rus tillarini hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirgan.

M. Abdiyev IELTS sertifikatiga ega.

Ushbu darslikning V bobi M. Abdiyev tomonidan tayyorlangan.

GLOSSARIY

Aktivlar (assets) – iqtisodiy faoliyat subyektlarining pul va moliyaviy mablag‘lari, asosiy va aylanma fondlarining qiymati.

Amortizatsiya (depreciation) – foydalanish jarayonida asbob-uskunlar qiymatining eskirgan sayin mahsulot hisobiga o‘tkazish jarayoni. Asosiy jamg‘armalar iste’mol narxini to‘la yoki qisman tiklash uchun amortizatsiya orqali amalga oshiriladigan narxini to‘latishi zarur.

Alternativ variantlardan tanlov (trade off) – tanlab olingan variantni alternativ variantdan voz kechish evaziga amalga oshirilishini taqozo etuvchi qarorni qabul qilish zarurati. Makroiqtisodiy terminlar doirasida iqtisodiy terminlar siyosatni chora tadbirlarini ishlab chiqish jarayonida u yoki bu g‘oyalarni tanlov muammolarini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, ishsizlikning o‘sishi va inflatsiya jadalligi, foydaning o‘sishi yoki ish haqining oshishi orasidagi tanlov muammosi.

Amortizatsiya ajratmalari (depreciation allowances) – asosiy vositalarning bir qismini ularni tiklash uchun ajratmalar.

Antimonopol siyosat (antitrust policy) – tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida ishlab chiqarishni monopollashuviga qarshi va raqobatni rivojlantirish bo‘yicha davlatning chora-tadbirlar tizimi. Asosiy jamg‘armalar sarfini qoplash uchun ularga ketgan sarflarini tayyorlanayotgan mahsulotga ketgan sarfni tayyorlanayotgan mahsulotga singdirib borish asosiy jamg‘armalarning amortizatsiyasini tashkil etadi. Asosiy jamg‘armalarning amortizatsiyasi mahsulot tannarxini o‘z ichiga oladi, bu korxona, tashkilotlarga asosiy jamg‘armalarning moddiy va ma’naviy sarfini qoplash uchun mahsulotlarni sotish orqali mablag‘ to‘lashlarga imkon beradi.

Asosiy narx (base price) – xalq xo‘jaligini rivojlantirish va statistik hisob olib borishda, indekslarni hisoblash va to‘lashgacha hisoblangan narx.

Aholining bandligi (employees) – ijtimoiy ishlab chiqarishni fuqarolik sektorida band bo‘lgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan aniqlangan normalarga mos ravishda hisobga olinadigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi.

Aylanma kassa mablag‘i – moliya yilida O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori.

Agentlik – asosiy vazifasi sifatida tegishli sohada davlat xizmatlarini ko‘rsatish va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqni qo‘llash funksiyalarini amalga oshiruvchi, shuningdek, vazirlik tashkiliy bo‘ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Aksiya – o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz.

Axborotlashtirish – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni;

Axborot resursi – axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar banki, ma’lumotlar bazasi, shu jumladan, axborot tizimlarida ochiq shaklda joylashtiriladigan yoxud e’lon qilinadigan audio-, video-, grafik va matnli axborot;

Axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdori – axborot resurslariga yoki axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

Axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi – qonun bilan yoki axborot resurslarining, axborot tizimlarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslariga yoxud axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

Axborot texnologiyasi – axborotni to‘plash, saqlash, izlash,

unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar;

Axborot tizimi — axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

Axborotni oshkor qilish – qimmatli qog‘ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni qaysi maqsadda olishidan qat’i nazar, mazkur axborotdan uning topilishi va olinishini kafolatlaydigan shakllarda foydalanishini ta’minlash.

“Amerikacha” yopiq auksion savdosini o‘tkazish tizimi – kesib tashlanadigan narxdan yuqori darajadagi narxlar qayd etilgan buyurtmalar buyurtma narxlari bo‘yicha, raqobatsiz buyurtmalar esa o‘rtacha narxlar bo‘yicha qondiriladi.

Auditorlik tekshiruvi – moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to‘g‘riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog‘liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir.

Auditor – auditorning malaka sertifikatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs.

Auditorlar reestri – auditorning malaka sertifikatiga ega bo‘lgan auditorlarning auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan ro‘yxati, bundan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan shakllantiriladigan reestr mustasno.

Auditorlik tashkiloti – auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazish va turdosh xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti.

Auditorlik tashkilotlarining reestri – auditorlik tashkilotlarining auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan ro‘yxati.

Auditorlik faoliyati – auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati.

Audit qo‘mitasi – xo‘jalik yurituvchi subyektning kuzatuv kengashi a’zolaridan iborat bo‘lgan, qoida tariqasida kamida bir nafar

mustaqil a'zoni o'z ichiga oladigan, moliyaviy hisobotni tuzishning to'g'riligi ustidan nazorat o'rnatilishi, mustaqil auditorlik tashkilotining tanlanishi, auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi jarayonlarini kuzatish, shuningdek, ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlari natijalarini olish hamda o'rganish uchun mas'ul bo'lgan qo'mita.

Balanslangan budjet – xarajatlar va tushumlar summasi tengdir.

Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi – O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan qonun bilan belgilangan miqdorda ajratiladigan budjet mablag'larini taqsimlovchi yuridik shaxs.

Birja obligatsiyasi – chiqarilishi fond birjasi tomonidan ro'yxatga olinadigan va fond birjasining kotirovkalash varag'iga kiritilgan, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan qarz emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Benefitsiar mulkdor – pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchini amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs.

Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion – davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo'lib, uni tashkil etish chog'ida narx g'olibni aniqlashning yagona mezoni bo'ladi.

Budjetdan ajratiladigan mablag'lar – O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlaridan budjet tashkilotlari hamda budjet mablag'lari oluvchilar uchun nazarda tutiladigan pul mablag'lari.

Budjet jarayoni – budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning shakllantirilishini, tuzilishini hamda ijrosini nazorat qilish, budjet tizimi budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni.

Budjet jarayoni ishtirokchilari – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, budjet tashkilotlari va budjet mablag'larini oluvchilar.

Budjet mablag‘larini taqsimlovchi – birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchi va ikkinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchi.

Budjet sohasidagi vakolatlar – budjet jarayoni ishtirokchilarining budjet munosabatlari sohasidagi vakolatlari.

Budjet ssudasi – qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga, shuningdek, davlat maqsadli jamg‘armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag‘lari.

Budjet so‘rovi – o‘rta muddatli davr uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘larni olishga bo‘lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari – qonunchilikda nazarda tutilgan manbalar hisobidan budjet tashkiloti tasarrufiga kelib tushadigan mablag‘lar.

Budjet tizimi budjetlari – O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari.

Budjetlararo transfertlar – O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga, davlat maqsadli jamg‘armalariga hamda buning aksicha o‘tkaziladigan, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan tumanlar va shaharlar budjetlariga hamda buning aksicha o‘tkaziladigan mablag‘lar;

Boshqa majburiy to‘lovlar deganda davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy pul to‘lovlari, bojxona to‘lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to‘lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan yig‘imlar, davlat boji tushuniladi (O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi).

Boshqaruv personali – idora qilish funksiyalarini amalga oshiradigan, personalni boshqaradigan, zaruriy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish, korxona, tashkilot va muassasalar faoliyati ja-

rayonlarini rejalashtirish, nazorat qilish va tartibga solish, tegishli qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi xodimlar.

Budjetni tartibga solish – bu turli darajadagi budjetlar o‘rtasida daromadlar manbasining qonun bilan biriktirilgan taqsimlanishi, ya’ni davlat budjeti daromadlarini taqsimlash tartibi (turli darajadagi budjetlar o‘rtasida moliyaviy resurslar qisman qayta taqsimlanishi).

Budjet daromadlari – qonunchilikda belgilangan tartibga binoan davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlari (davlatning budjet tizimi budjetlariga) ixtiyoriga beg‘araz va qaytarib bermaslik shartlari bo‘yicha kelib tushayotgan pul mablag‘lari.

Budjet dotatsiyalari – o‘z daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar yetishmagan taqdirda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.

Budjet jarayoni – hokimiyat ijro va vakillik organlarining fiskal siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda budjet tizimini boshqarish faoliyatining majmuyi.

Budjet yili – tasdiqlangan budjetning ijrosi amalga oshiriladigan davr.

Budjetdan mablag‘ ajratish – turli darajadagi budjetlardan tasdiqlangan xarajatlar parametrlariga binoan va davlat oldida turgan vazifalarni moliyalashtirishga mo‘ljallangan pul mablag‘lari.

Budjet mablag‘larining bosh tasarrufchisi – ijro etuvchi hokimiyat organi (vazirlik yoki idora) hisoblanib, u birinchi bo‘lib to‘g‘ridan-to‘g‘ri budjet mablag‘larini oladi, davlat budjeti mablag‘larini qaramog‘idagi idoralar – budjet mablag‘larining tasarrufchilari va oluvchilari o‘rtasida taqsimlash huquqiga ega.

Budjet mablag‘larining tasarrufchisi – ijro etuvchi hokimiyat organi bo‘lib, budjet mablag‘larini uni oluvchilar o‘rtasida taqsimlash huquqiga ega; ularga budjet ajratmalari to‘g‘risidagi bildirishnomani yetkazadi, budjet mablag‘larini oluvchilarning smetalarini tasdiqlaydi, ularning budjet mablag‘larini maqsadli ishlatishi ustidan nazorat o‘rnatadi.

Budjet mablag‘larini oluvchilar – budjet ro‘yxatiga binoan joriy yilda budjet mablag‘larini olish huquqiga ega bo‘lgan budjet tashkiloti yoki boshqa muassasadir.

Budjetdan moliyalashtirish – korxona, muassasa, tashkilotlarga ularning xarajatlarini to‘liq yoki qisman qoplash uchun davlat budjetidan qaytarilmaydigan mablag‘larni ajratish.

Budjet nazorati – 1) davlat moliyaviy nazoratining muhim qismi bo‘lib, budjet jarayonida amalga oshiriladi; 2) budjet tizimining budjet mablag‘lari tashkil etilishi, taqsimlanishi va foydalanilishining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va samarali ekanligini davlat organlari tomonidan tekshirish tadbirlari tizimi sifatida qaraladi; 3) aniqlangan qonunbuzarliklarning oldini olish, fosh etish va bartaraf qilish bo‘yicha choralarni ko‘rishga, davlat budjetini shakllantirish va xarajatlarni amalga oshirishda yangi imkoniyatlarni topishga, soliq-budjet intizomini yaxshilashga yo‘naltirilgan.

Budjetni prognozlashtirish – asosiy budjet ko‘rsatkichlarining prognoz hisob-kitoblarini amalga oshirish, budjetning daromadlar va xarajatlar qismlarining rivojlanishi mumkin bo‘lgan yo‘llarini ehtimolli baholash majmuasi.

Budjet profitsiti – budjet daromadlarining xarajatlaridan oshib ketishi (budjetning ijobiy saldosi).

Budjetni rejalashtirish – moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, davlatning moliyaviy siyosati talablariga bo‘ysunadi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy funksiyasi markazlashgan rejalashtirish orqali yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni moliyaviy tizimning bo‘g‘inlari orasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umummilliy dasturini, budjetlarni va turli darajadagi budjetdan tashqari fondlarni tuzish va ijro etish jarayonida ishlab chiqishdir.

Budjet ssudalari – yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarish sharti bilan yoki respublika budjetidan yuridik shaxs-rezidentga yoki xorijiy davlatga ajratiladigan mablag‘.

Budjet subvensiyalari – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga ajratiladigan pul mablag‘lari.

Budjet tasnifi – budjet tizimining barcha darajalaridagi budjet-

lari daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, ushbu budjetlarning taqchilliklarini moliyalashtirish manbalari va davlat qarzi turlarini bir xil belgi boʻyicha qonunga muvofiq guruhlash boʻlib, undan budjetlarni tuzish va ijro etishda tasnif obyektlariga guruh kodlarini berish orqali foydalaniladi. Tasnif barcha darajadagi budjetlar koʻrsatkichlarining qiyosiyligini, ularni iqtisodiy va statistik tahlil qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Budjet tashkiloti – ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan boshqaruvchilik, ijtimoiy-madaniy, ilmiy-texnik yoki boshqa notijorat tusdagi funksiyalarni bajarish uchun tuzilgan tashkilot boʻlib, uning faoliyati daromadlar va xarajatlar smetasi asosida budjetdan yoki budjetdan tashqari jamgʻarmalardan moliyalashtiriladi.

Budjetdan tashqari jamgʻarmalar – budjetdan alohida tashkil etiladigan, maqsadli xususiyatga ega boʻlgan, umumdavlat yoki mahalliy ahamiyatga molik tadbirlarni moliyalashtirish uchun moʻljallangan mustaqil moliya muassasalari tizimi; davlat tomonidan ba'zi ijtimoiy ehtiyojlar uchun mustaqil ravishda kompleks sarflanadigan jalb etilayotgan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va ishlatish shakli.

Budjet taqchilligi – budjet xarajatlarining daromadlardan oshib ketishi (budjetning salbiy saldosi).

Budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablagʻlari oluvchilar yigʻindisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish tamoyillarini, budjet jarayonida ular oʻrtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablagʻlari oluvchilar oʻrtasida vujudga keladigan oʻzaro munosabatlarni oʻzida ifodalaydi.

Budjet tuzilishi – budjet tizimini tashkil etish, uni tuzish tamoyillari. Budjet tuzilishi davlat budjeti va mamlakat budjet tizimining tashkil etilishini, uning alohida boʻgʻinlari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni, budjet tizimiga kiruvchi budjetlarning faoliyat yuritishi huquqiy asoslarini, budjetlarning tarkibiy tuzilishini, budjet mablagʻlarini shakllantirish va foydalanish tartib-taomillarini va boshqalarni belgilaydi.

Budjet transfertlari – budjetdan bevosita yoki vakolatli organ orqali yuridik yoki jismoniy shaxsga begʻaraz ajratiladigan pul mablagʻlari.

Budjet xarajatlari – davlat va mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organlarining vazifa va funksiyalarini bajarish uchun yoʻnaltirilayotgan pul mablagʻlari; davlat pul mablagʻlari fondini taqsimlash va uni tarmoq, maqsadli va hududiy yoʻnalishlarda foydalanish yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

Budjetning kassa ijrosi – mamlakat hududida budjet mablagʻlari toʻplanishini tashkil etish, ularni saqlash va sarflash, shuningdek, hisob va hisobotini yuritish.

Budjetlarning joriy xarajatlari – davlat hokimiyati organlari, mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organlari, budjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlash uchun, boshqa budjetlar va iqtisodiyotning alohida tarmoqlari joriy faoliyatiga ajratmalar, dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar koʻrinishida davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashni amalga oshirish uchun moʻljallangan budjet xarajatlari qismi. Joriy xarajatlar budjet xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi.

Budjetlarning kapital xarajatlari – innovatsion va investitsion faoliyatni ta'minlovchi budjet xarajatlarining qismi boʻlib, tasdiqlangan investitsiya dasturiga binoan faoliyat yuritayotgan yoki yangi tashkil etilayotgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga investitsiyalash uchun moʻljallangan xarajatlarni oʻzida mujassamlashtiradi.

Bloger – Internet jahon axborot tarmogʻidagi oʻz veb-saytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin boʻlgan, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatga ega axborotni joylashtiruvchi, shu jumladan, axborotdan foydalanuvchilar tomonidan ushbu axborotni muhokama qilish uchun joylashtiruvchi jismoniy shaxs.

Vazirlik – tegishli sohalarda yagona davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, muayyan yoʻnalishda ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hamda tizimdagi rahbariy faoliyatni yakkaboshchilik asosida tashkil etadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Vaqtinchalik kassa uzilishi – joriy moliya yilining muayyan davrida budjet tizimi budjetlarining xarajatlari daromadlaridan vaqtinchalik oshib ketishi.

Veksel – veksel beruvchining yoxud vekselda koʻrsatilgan boshqa toʻlovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani toʻlashga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qogʻoz.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi – budjet tashkilotining yoki budjet mablagʻlari oluvchining xarajatlar smetasi tasdiqlanganiga va roʻyxatdan oʻtkazilguniga qadar amal qiladigan hujjat boʻlib, unda qonunchilikdagi oʻzgartirishlar hisobga olingan holda uning uchun nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablagʻlar har oy uchun aks ettiriladi.

"Gollandcha" yopiq auksion savdosini oʻtkazish tizimi – barcha buyurtmalar yagona minimal ruxsat etilgan narx – kesib tashlanadigan narxda qondiriladi.

Gorizontal tenglashtirish – hududlarning soliq imkoniyatlari tengsizliklarini hududiy tuzilmalar oʻrtasida proporsional taqsimlash orqali amalga oshirishni nazarda tutadi.

Davlat budjeti – davlat pul mablagʻlarining (shu jumladan, davlat maqsadli jamgʻarmalari mablagʻlarining) markazlashtirilgan jamgʻarmasi boʻlib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablagʻlar sarfi yoʻnalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat budjetining xarajatlari – davlat tomonidan budjetdan oʻz funksiyalari va vazifalarini bajarish uchun pul mablagʻlari oqimini yoʻnaltirish.

Davlat buyurtmachisi – davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Davlat xaridlari – davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) boʻlgan ehtiyojlarini pulli asosda ta'minlash jarayoni.

Davlat xaridlari toʻgʻrisidagi shartnoma – davlat buyurtmachisi va davlat xaridlarining ijrochisi oʻrtasidagi davlat xaridlari boʻyicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, oʻzgartirish yoki bekor qilish toʻgʻrisidagi kelishuv.

Davlat xaridlarining subyektlari – davlat buyurtmachisi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi,

xarid komissiyasi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilot va ekspert, ekspert tashkiloti.

Dastlabki malaka tanlovi – xarid qilish hujjatlarida belgilangan texnik, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa o‘ziga xos xususiyatlarga muvofiq bo‘lgan xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishga qo‘yiladigan malakali xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tanlab olishning xarid komissiyasi tomonidan o‘tkaziladigan tartib-taomili.

Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi – to‘lovlarning iqtisodiy vazifasi va turlariga ko‘ra xarajatlarni guruhlash.

Davlat budjeti xarajatlarining tashkiliy tasnifi – budjet tashkilotlarining turlari, xo‘jalik subyektlari va budjet ajratmalarini ularning bevosita oluvchilari o‘rtasida taqsimotini aks ettiruvchi tadbirlari bo‘yicha guruhlash.

Davlat budjeti xarajatlarining funksional tasnifi – davlat boshqaruvi organlari, joylardagi mahalliy hokimiyat organlari, boshqa budjet tashkilotlari tomonidan ijro qilinadigan asosiy funksiyalari bo‘yicha guruhlash.

Davlat zayomlari – kredit munosabatlarining turi bo‘lib, unda davlat (yoki uning mahalliy organlari) zayom beruvchi yoki kreditor rolida namoyon bo‘ladi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari – Davlat budjeti tarkibida jamlanadigan jamg‘armalar bo‘lib, ularning har biri uchun mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushishi normalari va shartlari, shuningdek, shu mablag‘lardan foydalanilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari – davlatning alohida xarajatlarini moliyalashtirish uchun va mamlakatning budjet tizimi tarkibida jamlanadigan, mablag‘lar tushumi va maqsadli ishlatilishi ustidan davlat nazoratini ta’minlash maqsadida amaldagi qonunchilik asosida shakllantiriladigan jamg‘armalar.

Davlat moliyalashtirishi – xo‘jalik subyektlariga budjet va budjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari hisobiga qaytarilmaydigan moliyaviy resurslarni taqdim etish usuli.

Davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish – aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb

etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishi bo‘lib, uning natijasida davlat ichki qarzlari paydo bo‘ladi.

Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish – aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi bo‘lib, uning natijasida davlat tashqi qarzlari paydo bo‘ladi.

Davlat qarzi – davlatning tashqi va ichki kredit operatsiyalari bo‘yicha qarzdorlik summasi.

Davlat qarzini bekor qilish – davlat tomonidan chiqarilgan zayomlar bo‘yicha (ichki, tashqi yoki umuman tashqi qarz bo‘yicha) majburiyatlardan butunlay voz kechish.

Dastlabki budjet nazorati turli darajadagi budjetlarni, budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarini, dotatsiyalar, subvensiyalar va budjetdan boshqa mablag‘lar olingunga qadar hisob-kitoblarni tuzish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash bosqichida, budjet va soliq masalalari bo‘yicha qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish bosqichida amalga oshiriladi. U ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, moliyaviy resurslar noto‘g‘ri, samarasiz sarflanishining oldini olishga, daromadlarni oshirish imkoniyatlarini aniqlashga va loyihalashtirilayotgan budjet ko‘rsatkichlarining hududlar va butun mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlari bilan muvofiqligini ko‘rsatishga yordam beradi.

Diller – yuridik shaxs, amaldagi qonunchilikka binoan investitsion institut (qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi) yoki bank, u O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan obligatsiyalar bo‘yicha operatsiyalarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma imzolaydi.

Davlat budjetining birlamchi profitsiti – muayyan davr uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti xarajatlaridan davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha foiz to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda hisoblanadigan Davlat budjeti profitsiti.

Davlat budjetining birlamchi taqchilligi – muayyan davr uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti xarajatlaridan davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha foiz to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda hisoblanadigan Davlat budjeti taqchilligi.

Davlat budjeti profitsiti – muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketishi.

Davlat budjeti taqchilligi – muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi.

Davlat moliyaviy nazorati – budjet to‘g‘risidagi qonunchilikning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida davlat moliyaviy nazorati obyektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlarini va boshqa hujjatlarni o‘rganish, tahlil qilish hamda taqqoslash.

Davlat moliyaviy nazorati obyektlari – O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, budjet mablag‘larini taqsimlovchilar, budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilar, davlat maqsadli jamg‘armalari, belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg‘armalar va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari.

Davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish – aktivlarni jalb etish, bu bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlarini (qarzlarini) to‘lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi.

Davlat xaridlari – budjet tizimi budjetlarining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari.

Davlat qarzi – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi mablag‘larni jalb qilish natijasida vujudga kelgan majburiyatlari.

Daromadlar va xarajatlar smetasi – budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg‘armalarining tegishli yil choragi yoki moliya yili uchun kutilayotgan tushumlari va xarajatlari aks ettiriladigan hujjat.

Donorlar – O‘zbekiston Respublikasiga, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga,

faoliyati O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo‘lmagan yuridik va jismoniy shaxslarga beg‘araz asosda mablag‘lar ajratadigan davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumat tashkilotlari, chet el fuqarolari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari.

Davlat-xususiy sheriklik – davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o‘z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan, xususiy investitsiyalarni jalb etish va (yoki) ilg‘or boshqaruv tajribasini joriy etish asosida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasi – davlat sherigi va (yoki) xususiy tashabbuskor tomonidan tayyorlangan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun tanlovni asoslab beradigan, loyihaning qiymatini, loyihani moliyalashtirish manbaini hamda rentabelligini belgilaydigan, uni amalga oshirishning samaradorligi va dolzarbligi asoslarini o‘z ichiga olgan hujjat.

Davlat-xususiy sheriklik obyekti – loyihalashtirilishi, qurilishi, barpo etilishi, yetkazib berilishi, moliyalashtirilishi, rekonstruksiya qilinishi, modernizatsiyalashtirilishi, ekspluatatsiya qilinishi va xizmat ko‘rsatilishi davlat-xususiy sheriklik loyihasini ro‘yobga chiqarish doirasida amalga oshiriladigan mol-mulk, mulkiy komplekslar, ijtimoiy infratuzilma, yer uchastkalari, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish jarayonida joriy etilishi lozim bo‘lgan ishlar (xizmatlar) va innovatsiyalar.

Davlat-xususiy sheriklik obyektidan erkin foydalanilishi uchun to‘lov – davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimga muvofiq davlat-xususiy sheriklik obyektidan foydalanish (uni ekspluatatsiya qilish) va (yoki) ushbu obyektga xizmat ko‘rsatish davrida undan erkin foydalanilishini ta’minlaganlik uchun xususiy sherikka davlat sherigi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar.

Davlat sherigi – O‘zbekiston Respublikasi va (yoki) davlat bosh-

qaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan boshqa yuridik shaxslar yoki ularning birlashmalari.

Dotatsiya – budjet tizimi budjetlariga ularning o‘z daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o‘rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.

Davlat qimmatli qog‘ozlari – O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.

Depo hisobvarag‘i – deponentning qimmatli qog‘ozlarini saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan, investitsiya vositachisining va Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining hisobga olish registrlaridagi yozuvlar yig‘indisi.

Depo hisobvarag‘idan ko‘chirma – deponentning qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, investitsiya vositachisi va (yoki) Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan beriladigan hujjat.

Depozitar operatsiyalar – hisobga olish registrlarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar.

Depozitar tilxatlar – nominal qiymatga ega bo‘lmagan qimmatli qog‘oz bo‘lib, u taqdim etiladigan qimmatli qog‘ozlarning muayyan soniga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlaydi va uning egasining ushbu qimmatli qog‘oz emitentidan depozitar tilxat o‘rniga taqdim etiladigan qimmatli qog‘ozlarning tegishli sonini olishini hamda taqdim etiladigan qimmatli qog‘ozlar bilan mustahkamlangan huquqlarning depozitar tilxat egasi tomonidan amalga oshirilishi bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatilishini talab qilish huquqini mustahkamlaydi.

Depozit sertifikati – bankka qo‘yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tuga-

ganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz.

Deponent – depo hisobvarag‘iga ega bo‘lgan shaxs.

Joriy davlat qarzi – to‘lov muddati kelgan majburiyatlar bo‘yicha davlatning qarzi.

Jamlanma xarajatlar smetasi – budjet mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlarining va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi.

Joriy nazorat – budjet ijrosi, budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari ijrosi sharoitida budjet yili davomida budjet-soliq intizomining buzilishini aniqlash, moliyaviy me’yorlarga, budjet va budjetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘larini shakllantirish va ishlatish bo‘yicha belgilangan ko‘rsatkichlarga rioya qilinishini qayd etish maqsadida amalga oshiriladi.

Zayomlarni unifikatsiyalash – bir nechta zayomlarni bittasiga birlashtirish, oldin chiqarilgan zayom obligatsiyalari yangi zayom obligatsiyalariga almashtiriladi.

Zahiradagi g‘olib – xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha xarid komissiyasining qaroriga muvofiq g‘olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi.

Idora ichidagi nazorat – vazirlik va idoralarning nazorat-taftish bo‘linmalari tomonidan bir vazirlik yoki idora doirasida olib boriladigan nazorat. Bunda budjetning tashkiliy tasnifi bo‘yicha ajratilgan budjet mablag‘larining sarflanishi, shuningdek, budjet ssudalari, subsidiyalar, subventsiyalari va budjetdan boshqa moliyaviy yordamni ishlatishi tekshiriladi.

Ikkinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchi – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga biriktiriladigan va o‘ziga ajratiladigan budjet mablag‘larini taqsimlovchi yuridik shaxs.

Ijtimoiy ta’minot – mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarni o‘z qaramog‘iga to‘liq yoki qisman olish davlat dasturi.

Ijtimoiy himoya – 1) keng ma’noda – ijtimoiy siyosatning maqsadlari va ustuvor vazifalarini hayotga kiritish bo‘yicha, jamiyatning

har bir a'zosiga muhim ijtimoiy huquqlarni ta'minlovchi, qonuniy biriktirilgan iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirish bo'yicha davlatning faoliyati; 2) tor ma'noda – aholining eng zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash uchun iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy tavsifga ega maqsadga yo'naltirilgan aniq chora-tadbirlar kompleksi.

Investor – diler bo'lmagan yuridik shaxs, amaldagi qonunchilikka binoan obligatsiyalarni mulk sifatida sotib oladi va ularning ishlab chiqarish shartlari va parametrlarini boshqara oladi.

Iqtisodiy tahlil – budjet nazoratini amalga oshirishning muhim metodi bo'lib, barcha darajadagi budjetlarning daromadlar va xarajatlar qismlari ijrosini, budjet tashkilotlari xarajatlar smetasi ijrosini nazarda tutadi.

Investitsiya aktivlari – qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari va qonunchilikka muvofiq investitsiya aktivlari deb e'tirof etiladigan boshqa mol-mulk.

Investor – qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Inspeksiya – asosiy vazifasi sifatida tegishli soha va tarmoqlarda davlat nazorati va tekshiruvni amalga oshiruvchi, shuningdek, vazirlik tashkiliy bo'ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Infratuzilma obligatsiyalari – ishlab chiqarish infratuzilmasini va boshqa infratuzilmani barpo etish va (yoki) rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish uchun pul mablag'larini jalb etish maqsadida xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar.

Kliring – qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar bo'yicha o'zaro majburiyatlarni aniqlash, aniqlashtirish va hisobga olish.

Korporativ obligatsiyalar – aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar.

Konsessiya – davlat-xususiy sheriklikning shakllaridan biri bo'lib, bunda davlat xususiy sherikka konsessiya shartnomasida

nazarda tutilgan xo‘jalik faoliyatining muayyan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma bergan holda mol-mulkni va yer uchastkalarini taqdim etadi.

Kameral tekshiruv – nazorat organi joylashgan joyda, korxona, tashkilot va muassasa tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va nazorat subyektida tekshiruvchilar to‘g‘risida mavjud bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Kapital qo‘yilma – asosiy fondlar, binolar, uskunalarni sotib olish yoki takomillashtirish uchun pul mablag‘lari xarajatlari.

Konversiya – zayomlarning daromadliligiga tegishli bo‘lgan birlamchi sharoitlarning o‘zgarishi.

Jamlangan budjet – tegishli ma’muriy-hududiy birliklardagi barcha darajalardagi budjetlarning, davlat budjet tizimining jamlanmasi. Budjet ko‘rsatkichlarining statistik jamlanmasi bo‘lib, daromadlar va xarajatlar bo‘yicha, mablag‘lar kelib tushishi bo‘yicha va ulardan mamlakat hududlari va budjet tizimi bo‘yicha foydalanilishiga doir agregatlangan ma’lumotlarni tavsiflaydi.

Mahalliy budjet – Davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mehnatga haq to‘lash fondi – tannarxga kiritiladigan mehnatga haq to‘lash, mukofotlar to‘lash, pullik taqdirlash moliyaviy xarajatlarining maqsadli manbasi.

Moliya yili – 12 oydan tashkil topgan hisobot davri bo‘lib, uning yakunida buxgalteriya kitoblari yopiladi va daromadlar va xarajatlar hisobga olinadi. Moliya yili kalendar yili bilan mos bo‘lmasligi mumkin.

Mustaqil nazorat – ixtisoslashtirilgan auditorlik firmalari va xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Pensiya – belgilangan (pensiya) yoshga yetganida, nogironlik yuz berganda, boquvchisi yo‘qotilganda, shuningdek, belgili muddat xizmat qilgani uchun va davlat oldida alohida xizmatlari uchun fuqarolarning davlat yoki sobiq xodimlarning sobiq ish beruvchilari tomonidan muntazam pul daromadlari bilan ta’minlanishi.

Personal – korxona, tashkilot, muassasalarning yollanib ishlaydigan va xodimlarning umumiy hajmiga kiritilgan barcha xodimlar majmui.

Personalning umumiy chegaraviy soni – korxona, tashkilot va muassasaning mehnatni tashkil etish va texnologik rivojlanishning mavjud darajasida qo‘yilgan maqsadlariga erishish va vazifalarni bajarish imkonini beruvchi personalning maksimal soni.

Portfel investitsiyalar – xorijiy firmalar kapitalini korxonalar aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarga daromad olish maqsadida joylashtirish.

Renking – auditorlik tashkilotlarining faoliyatini tavsiflovchi muayyan ko‘rsatkichlar bo‘yicha guruhlarga ajratilgan auditorlik tashkilotlarining tartibga solingan ro‘yxatlarini shakllantirish.

Smeta – maqsadga yo‘naltirilganligi nuqtai nazaridan pul mablag‘larining tashkil topishi va sarflanishi haqidagi axborotni o‘zida mujassamlashtiruvchi moliyaviy hujjat.

Smeta-budjet moliyalashtirishi – budjet muassasalariga pul mablag‘larini qaytarilmaslik va beg‘araz shartlarda ajratish.

Smetali moliyalashtirish – muassasa va tashkilotlar xarajatlarini tasdiqlangan smetaga muvofiq qoplash metodi.

Soliq – 1) budjetga majburiy badal bo‘lib, qonunchilikda belgilangan tartibda soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi; 2) soliqlar, o‘z moddiy mazmuniga ko‘ra, milliy daromadning xo‘jalik subyektlari va aholidan umumdavlat ehtiyojlari uchun undirilgan qismidir. Soliq – muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, budjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari.

Soliq davri – u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi hisoblab chiqariladigan davr.

Soliq solinadigan baza – soliq solish obyektining soliq yoki boshqa majburiy to‘lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko‘rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar – qonunchilikda nazarda tutilgan, boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga beriladigan afzalliklar,

shu jumladan, soliq va (yoki) boshqa majburiy to‘lov to‘lamaslik yohud ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati.

Soliq va boshqa majburiy to‘lovni hisoblab chiqarish tartibi – soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek, imtiyozlar mavjud bo‘lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to‘lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

Soliqli daromadlar – soliq salohiyatining amalga oshirilgan qismi.

Stavka – soliq solinadigan bazaning o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdor.

Subsidiyalar – boshqa darajadagi budjetga, jismoniy yoki yuridik shaxsga maqsadli xarajatlarni hissali moliyalashtirish shartlarida beriladigan budjet mablag‘lari.

Sug‘urta – muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, tovonlar va boshqa to‘lovlar to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar.

Sug‘urta badali – sug‘urta mukofotining sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda, miqdorlarda va shartlarda milliy valyutada yoki chet el valyutasida to‘lanadigan bir qismi.

Sug‘urta mukofoti – sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urtalovchiga sug‘urta shartnomasida shart qilib ko‘rsatilgan tartibda va muddatlarda milliy valyutada yoki chet el valyutasida to‘lanadigan sug‘urta uchun to‘lov.

Sug‘urta summasi – muayyan summa bo‘lib, sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini (sug‘urta to‘lovini) sug‘urta shartnomasi bo‘yicha ushbu summa doirasida to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Sug‘urta tavakkalchiligi – taxmin qilinayotgan voqea bo‘lib, ushbu voqea yuz bergan taqdirda sug‘urta amalga oshiriladi.

Sug‘urta tarifi – sug‘urta obyektini va sug‘urta tavakkalchiligining xususiyatini hisobga olgan holda belgilanadigan, shuningdek, sug‘urta shartlariga muvofiq sug‘urta summasi birligidan olinadigan sug‘urta mukofoti stavkasi.

Sug‘urta tovoni (sug‘urta to‘lovi) – sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta qildiruvchiga, sug‘urtalangan shaxsga (naf oluvchiga) har bir sug‘urtalangan shaxs uchun sug‘urta summasi doirasida to‘lanadigan pul mablag‘lari summasi.

Sug‘urta turi – sug‘urta tashkiloti tomonidan bir yoki bir nechta sug‘urta sinflari doirasida ishlab chiqilgan va taqdim etiladigan aniq sug‘urta xizmati.

Sug‘urta faoliyati – sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining sug‘urtani va qayta sug‘urtani amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyati.

Sug‘urta qiymati – agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta shartnomasini tuzish chog‘ida taraflarning kelishuvi bilan aniqlanadigan, sug‘urtaga topshiriladigan mol-mulkning qiymati.

Tarkibiy taqchillik – hukumatning iqtisodiy rivojlanishni amalga oshirish maqsadida davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni pasaytirish choralarini qo‘llash natijasida yuzaga keladigan taqchillik bo‘lib, u ijtimoiy jarayonlar inqirozining ifodasi emas, balki davlatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish tarkibida progressiv siljishlar amalga oshirilishi natijasidir.

Tartibga soluvchi daromadlar – budjet tizimi budjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, soliq bo‘lmagan to‘lovlar. Soliq bo‘lmagan to‘lovlarga budjet tizimi budjetlariga kelib tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘lmagan to‘lovlar kiradi.

Taftish – yakuniy budjet nazoratining yetakchi shakli bo‘lib, budjet nazoratining chuqur va keng qamrovli metodini namoyon etadi. Taftish – korxona, tashkilot va muassasalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining, shuningdek, moliya organlarining budjetni tuzish va ijro etish bo‘yicha ishlarining o‘zaro bog‘langan tekshiruvlari majmuidir. Taftish hujjatli va faktik nazorat yordamida amalga oshi-

rilib, xo‘jalik operatsiyalarini, budjet mablag‘lari ajratilishining asoslanganligi, maqsadga muvofiq va iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini aniqlaydi, moliyaviy intizomga rioya qilinishini, davlat mulkining saqlanishini, hisob va hisobot yuritishning ishonchliligini tekshiradi.

Tender – davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida davlat xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo‘lib, uning natijalariga ko‘ra, davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g‘olib deb topiladi.

Umumiy fiskal balans – O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjetini hamda davlat dasturlarini amalga oshirish uchun chetdan jalb qilingan va O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti hisobidan qoplanadigan qarz mablag‘lari evaziga amalga oshiriladigan xarajatlarni o‘z ichiga olgan jamlanma balans.

Umumdavlat nazorati davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. U davlat va jamiyat manfaatlarini ta’minlaydi, soliq to‘lovchilarning budjet oldidagi majburiyatlari bajarilishini va budjet ajratmalari maqsadli ishlatilishini tekshiradi.

Fiskal siyosat – 1) hukumat tomonidan qo‘yilgan makroiqtisodiy maqsadlarga erishish uchun hukumatning xarajat va soliq funksiyalarini ongli ravishda qo‘llash; 2) budjet, soliq va boshqa moliyaviy imkoniyatlarni boshqarish sohasidagi chora-tadbirlar yordamida hukumat tomonidan tadbirkorlik faolligini tartibga solish.

Franshiza – sug‘urta qildiruvchi zararlarining bir qismi bo‘lib, sug‘urta shartnomasiga muvofiq uning o‘rni sug‘urtalovchi tomonidan qoplanmaydi.

Fond birjasi – ommaviy va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan joyda va belgilangan vaqtda o‘rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o‘tkazish orqali faqat qimmatli qog‘ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratib beruvchi yuridik shaxs.

Foydalanganlik uchun to‘lov – tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste’mol qiluvchilardan davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimga muvofiq davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish doirasida xususiy sherik tomonidan yig‘ib olinadigan to‘lovlar.

Fiskal tavakkalchiliklar – budjet jarayoni ishtirokchilari uchun budjet tizimi budjetlari mablag‘larini shakllantirish va sarflashda moliyaviy resurslardagi yo‘qotishlarni baholash.

Xarajatlar moddasi – budjet tizimi budjetlari xarajatlarining iqtisodiy yo‘nalishi va to‘lovlarning aniq turlari bo‘yicha belgilovchi budjet tasnifining bir qismi.

Xarajatlar smetasi – budjet tashkiloti yoki budjet mablag‘lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag‘lar xarajatlar moddalari bo‘yicha aks ettiriladigan hujjat.

Xarid qilish tartib-taomili – davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlar majmui.

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining affillangan shaxsi – qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan va (yoki) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan qarorlar qabul qilishga ta’sir ko‘rsatadigan, shu jumladan, yozma kelishuv asosida ta’sir ko‘rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan shunday huquqqa ega bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Xususiy sherik – O‘zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning qonunchiligiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazilgan, davlat sherigi bilan davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida bitim tuzgan yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs yoki yuridik shaxslarning birlashmasi.

Siklli taqchillik – ishlab chiqarishning siklli pasayishi natijasida kelib chiqadigan va iqtisodiyotdagi inqiroz holatlarini, hukumatning moliyaviy holatni nazorat qila olmasligini ifoda etuvchi taqchillik.

O‘zaro hisob-kitoblar – mahalliy budjetlarga kelib tushadigan yoki mahalliy budjetlardan davlat hokimiyati organlari qarorlari bilan va budjet tuzilishida hisobga olinmagan o‘tkazib beriladigan summalar.

O‘rta muddatli davr uchun fiskal strategiya – o‘rta muddatli davr uchun soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi hujjat.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti (Davlat budjeti) – davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ji-

hatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi.

Yakuniy nazorat moliya yili yoki hisobot davri tugagandan so'ng amalga oshiriladi, unda soliqlar, bojlar va boshqa to'lovlarni to'plash bo'yicha rejalashtirilgan son va sifat ko'rsatkichlarini (daromadlar va xarajatlarning har bir turi bo'yicha) bajarilishi, davlat pul mablag'larini sarflash, budjet tashkilotlari smetalarining ijrosi tekshiriladi.

Yagona g'azna hisobvarag'i – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladigan milliy yoki chet el valyutasidagi maxsus bank hisobvarag'i.

Qarzga xizmat ko'rsatish me'yori (koeffitsienti) – tashqi qarz holatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri. Bu ko'rsatkich mamlakatning qarziga xizmat ko'rsatish to'lovlarining foiz ko'rinishini tovar va xizmatlarning eksportidan tushumlarga nisbati ko'rinishida bo'ladi. Bu ko'rsatkich davlat qarzini va davlat tomonidan kafolatlangan tashqi qarzni tavsiflaydi.

Qayta sug'urta – sug'urta shartnomasi bo'yicha qabul qilingan sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lash tavakkalchiligini boshqa sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) bilan tuzilgan qayta sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan to'liq yoki qisman sug'urta qilish.

Qayta sug'urtalovchi – boshqa sug'urta tashkilotidan qayta sug'urta qilish uchun sug'urta tavakkalchiliklarini qabul qiladigan sug'urta yoki qayta sug'urta tashkiloti.

Qayta sug'urta shartnomasi – sug'urtalovchi o'zining sug'urta shartnomasiga doir barcha majburiyatlarini yoki ularning bir qismini qayta sug'urtalovchiga qaysi shartnomaga muvofiq o'tkazsa, o'sha shartnoma.

Qimmatli qog'ozlar – hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori – yuridik va jismoniy shaxslarning

qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog‘liq munosabatlari tizimi.

Qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari – qimmatli qog‘ozlarning emitentlari, qimmatli qog‘ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek birjalar va Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi – qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining mijozi (mijoz) – deponent yoki qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining xizmatlaridan foydalanuvchi boshqa shaxs.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyat – qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha litsenziyalanadigan yoki vakolatli organni xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi.

Qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar – qimmatli qog‘ozlarning oldi-sotdisi, hadyasi, merosi, ustav fondiga kiritilishi va qimmatli qog‘ozlar egasining almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar garovi.

Qimmatli qog‘ozlarga doir fyuchers – qimmatli qog‘oz bo‘lib, u o‘zida nazarda tutilgan muddatda qimmatli qog‘ozlarning muayyan sonini qat’iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlaydi.

Qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish – qimmatli qog‘ozlarni ularning dastlabki egalariga berish.

Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi – depo hisobvaraqlari bo‘yicha emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni saqlashning, bunday qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olishning va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar harakatining yagona tizimini ta’minlovchi davlat depozitariysi.

Qimmatli qog‘ozlarning muomalasi – qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan, qimmatli qog‘ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar.

Qimmatli qog‘ozlarni nominal saqlovchi – qimmatli qog‘ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning topshirig‘iga ko‘ra qimmatli qog‘ozlarni hisobga olishni va ularga bo‘lgan huquqlarni tasdiqlashni qimmatli qog‘ozlarning egasi bo‘lmagan holda amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi.

Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish – yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarining obyekti sifatida qimmatli qog‘ozlar paydo bo‘lishiga qaratilgan harakatlari.

Qimmatli qog‘ozlar egasi – qimmatli qog‘ozlar o‘ziga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Qimmatli qog‘ozlar egalarining reestri – ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko‘ra shakllantirilgan, ularga qarashli egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlar emitentining nomi, ushbu qimmatli qog‘ozlarning soni, nominal qiymati, turi va xili, shuningdek, reestrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxslarga axborot yuborish imkoniyatini beradigan ma’lumotlar ko‘rsatilgan ro‘yxati.

Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi – emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirish.

Qimmatli qog‘ozlarning emissiya risolasi – emitent va u chiqaradigan qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shuningdek, investorning qimmatli qog‘ozlar olish to‘g‘risidagi qaroriga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjat.

Qimmatli qog‘ozlarning hosilalari – o‘z egalarining boshqa qimmatli qog‘ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan opsionlar, qimmatli qog‘ozlarga doir fyucherslar, depozitar tilxatlar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog‘ozlar.

Qo‘mita – tegishli soha ichidagi tarmoq faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi hamda tizimdagi rahbariy faoliyatni kollegial asosda tashkil etadigan, shuningdek, vazirlikning tashkiliy bo‘ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

G‘aznachilik – Davlat budjetining ijrosini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli moliyaviy organ.

G‘aznachilik bo‘linmalari – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmalari, tumanlar va shaharlar bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmalari.

G‘aznachilik memorial orderi – mablag‘larni bir shaxsiy g‘azna hisobvarag‘idan boshqa shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazish uchun foydalaniladigan to‘lov hujjati.

Hujjatli nazorat birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari, budjet tashkilotlari xarajatlar smetalari va unga qo‘shimcha hisob-kitoblar va boshqalar asosida amalga oshiriladi.

Hujjatli tekshirish – korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliya-xo‘jalik faoliyatining budjet tekshiruvini amalga oshirish.

Huquqiy nazorat huquq-tartibot organlari tomonidan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi asosida taftish, sud-buxgalteriya ekspertizasi va boshqa ko‘rinishlarda amalga oshiriladi.

Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi – o‘z tasarrufida Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetidan, viloyatlar viloyat budjetlaridan, Toshkent shahri shahar budjetidan, tumanlar va shaharlar budjetlaridan mablag‘ oluvchi tashkilotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxs, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetidan, viloyatlar viloyat budjetlaridan va Toshkent shahri shahar budjetidan, tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkiloti yoki budjet mablag‘lari oluvchi.

Hududiy moliya organlari – Qoraqalpog‘iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo‘limlari.

Elektron davlat xaridlari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli.

Elektron do‘kon – davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarni elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo‘yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli.

G‘olib - xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko‘ra taklifi eng maqbul deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi.

Eng yaxshi takliflarni tanlash – xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli.

E'lon - davlat xaridlarini amalga oshirish usuli, talablari va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi koʻrsatilgan, maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladigan boʻlajak davlat xaridlari toʻgʻrisidagi axborot.

Egasining nomi yozilgan qimmatli qogʻozlar – mulkiy huquqlarning realizatsiya qilinishi oʻz egasining roʻyxatdan oʻtkazilgan boʻlishini talab etadigan qimmatli qogʻozlar.

Emissiyaviy qimmatli qogʻozlar – bitta chiqarilish doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega boʻlgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada boʻladigan qimmatli qogʻozlar.

Emissiyaviy qimmatli qogʻozlar chiqarilishlarining yagona davlat reestri – roʻyxatdan oʻtkazilgan emissiyaviy qimmatli qogʻozlar chiqarilishlarining roʻyxati.

Emitent – emissiyaviy qimmatli qogʻozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qogʻozlarning egalari oldida majburiyatlari boʻlgan yuridik shaxs.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, https://constitution.uz/uz

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742 son Qonuni, https://lex.uz/docs/5801127

3. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813 son Qonuni, https://lex.uz/docs/-6333240#-6334690

4. O‘zbekiston Respublikasining 11.11.2019-yildagi O‘RQ-582-son “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”-gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi Qonuni, https://lex.uz/docs/4590452

5. O‘zbekiston Respublikasining 10.12.2019-yildagi O‘RQ-591-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”-gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” gi Qonuni, https://lex.uz/docs/4636594

6. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni (O‘RQ-598-son 25.12.2019-yil), https://lex.uz/docs/-4664142

7. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-604-son 17.02.2020-yil), https://lex.uz/docs/-4737511

8. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-537-son 10.05.2019-yil), https://lex.uz/docs/-4329270

9. O‘zbekiston Respublikasining 12.12.2002-yildagi 439-II-son “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, https://lex.uz/ru/docs/52268

10. O‘zbekiston Respublikasining 11.12.2003-yildagi 560-II-son “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, https://lex.uz/docs/83472

11. O‘zbekiston Respublikasining 29.04.2004-yildagi 611-II-son “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonuni, https://lex.uz/ru/docs/165079

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. - Toshkent, 2017. - № 6 (766). - 32-b

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, https://lex.uz/uz/docs/5841063

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” Strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, https://lex.uz/ru/docs/-6600413O‘

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020-yildagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, https://lex.uz/ru/docs/4811025

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-aholisini-izhtimoiy-himoya-qilish-strategiyasini-tasdiqlash-togrisida_393010

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi PF-175-son “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, https://lex.uz/pdfs/6130265

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2022-yildagi PF-198-son “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, https://lex.uz/uz/docs/6171343

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2022-yildagi PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, https://lex.uz/docs/6324756

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2022-yildagi PF-287-son “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbir-

korlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, https://lex.uz/uz/docs/-6333225

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.08.2022-yildagi PQ-353-son “Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, https://uza.uz/uz/posts/mahalla-institutining-zhamiyat-hayotidagi-rolini-mustahkamlash-va-moliyaviy-imkoniyatini-yanada-kengaytirish-chora-tadbirlari-togrisida_399486

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son “Tadbirkorlik faoliyati va o‘z-o‘zini band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, https://lex.uz/uz/docs/-4849607

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2020-yildagi 506-son “2020-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, https://lex.uz/uz/docs/4966572

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yilga mo‘ljallangan Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi

25. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent-“O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.

26. Abduvoxidov A.A. va boshqalar. Innovatsiyalar iqtisodiyoti. Darslik.- Guliston: “Ziyo”, 2023.

27. Агапова, Т.А. Макроэкономика: Учебник. -М.: МФПУ Синергия, 2013. 560 с.

28. Айвазян С.А. Эконометрика. -М.: Маркет ДС, 2017. - 104 с.

29. Анисимов А.А. Макроэкономика. -М.: Юнити-Дана, 2016.-600 с.

30. Анчишкин А.И. Прогнозирование темпов и факторов экономического роста. -М.: МАКС Пресс, 2017. - 300 с.

31. Фишер С. Р.Дорнбуш, Р.С. Шмалензи., «Экономика». «Дело». - М.: 1993. С.654.

32. Xajiyev B.D., Axmedov D.Q., Zaxidov G.E., Mambetjanov Q.Q.

Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari. Darslik. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2018. - 428 bet.

33. Moliya va soliqlar. Darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G‘.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D. B. Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: “Iqtisodiyot dunyosi”, 2023.”, – 564 b.

34. Xajiyev B.D., Abdullayev S.O., Mambetjanov Q.Q. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Darslik. - T.: “Zebo yulduzlari MChJ”, 2018. - 417 bet.

35. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . - T.: Iqtisodiyot, 2013. - 542 b.

36. Дарон Асемоглу. Введение в теорию экономического роста: в 2 кн. Книга 2/ Дарон Асемоглу; пер. с англ. под науч. ред. Кирилла Сосунова- М.: Издателский дом “Дело” РАНХиГС, 2018.-736 с.- (Академический учебник).

37. Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. X юбилейные Санкт-Петербургские социологические чтения: сборник материалов Международной научной конференции, 13-14 апреля 2018 г., Санкт-Петербург, Россия. - СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. - 896 с.

38. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.

39. Istvan Konya. **Economic** growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.

40. JHINGAN M.L. The Economics of Development and Planning/ VRINDA PUBLICATIONS (P) LTD. 2018

41. Economic Growth and Development: A Dynamic Dual Economy Approach.·2018

42. Todaro, Michael P. Economic development / Michael P. Todaro, New York University, Stephen C. Smith, The George Washington University. -- Twelfth Edition.

43. Salvatore, Dominick. International economics [electronic resource] / Dominick Salvatore. - 11th ed.

44. www.cer.uz - Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi rasmiy sayti.

45. www.stat.uz- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.

46. https://imv.uz/- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.

47. https://cbu.uz/- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.

48. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi.

49. https://uza.uz/uz - O‘zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy sayti.

50. https://www.worldbank.org/en/home- Jahon banki rasmiy sayti.

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB.	**IQTISODIYOT, BOZOR VA IQTISODIY SIYOSAT**	7
1.1.	Iqtisodiy siyosatga kirish kursining predmeti, maqsadi va vazifalari	7
1.2.	Davlatning iqtisodiy funksiyalari to‘g‘risidagi nazariyalar	11
1.3.	Iqtisodiy siyosatning zarurligi va shakllari	19
II BOB.	**IQTISODIY O‘SISH**	34
2.1.	Iqtisodiy o‘sishning mazmuni va turlari	34
2.2.	Iqtisodiy o‘sishning ko‘rsatkichlari va omillari	50
2.3.	Iqtisodiy o‘sishni o‘lchash	55
2.4.	Davlat iqtisodiy siyosatining tamoyillari va yo‘nalishlari	59
III BOB.	**IQTISODIY SIYOSATNI ISHLAB CHIQISH VOSITALARI VA CHEKLOVLAR**	71
3.1.	Iqtisodiy siyosat usullarining tasnifi	71
3.2.	Iqtisodiy o‘sishning institutsional asoslarini takomillashtirish	73
3.3.	Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda klasterlashtirish siyosati	84
3.4.	Tuzilmaviy siyosat va iqtisodiyotni modernizatsiyalash	95
3.5.	Urbanizatsiya jarayonlarining iqtisodiy siyosatga ta’siri	100
IV BOB.	**O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISH VA BOSHQARISH – IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH VOSITASI**	113
4.1.	Davlat mulki va tadbirkorligi - iqtisodiy siyosatning muhim vositalari	113
4.2.	O‘zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni va bosqichlari	117

V BOB.	**IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI DASTURLASH, PROGNOZLASHTIRISH VA REJALASHTIRISH**	140
5.1.	Iqtisodiyotni prognozlashtirish, dasturlashning maqsadi va shakllari, usullari	140
5.2.	Iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish shakl va usullari	142
VI BOB.	**MOLIYAVIY SIYOSAT**	152
6.1.	Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari	152
6.2.	Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo‘nalishlari)	161
6.3.	Hozirgi bosqichdagi moliya siyosati va uning o‘ziga xos xususiyatlari	168
VII BOB.	**IQTISODIYOTDA MONOPOLIZMGA QARSHI SIYOSAT VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH**	185
7.1.	Raqobatning mohiyati, vazifalari, shakl va usullari	185
7.2.	O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotda monopolistik faoliyatni tartibga solish maqsadlari va yo‘nalishlari	190
7.3.	Monopoliyaga qarshi kompleans nazoratini tashkil qilish	200
VIII BOB.	**DAVLATNING MINTAQAVIY SIYOSATI VA HUDUDLAR RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI**	207
8.1.	Mintaqaviy iqtisodiyot va davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, tamoyillari, maqsadlari	207
8.2.	O‘zbekistonda mintaqaviy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlari	214
IX BOB.	**JAMIYATNING IJTIMOIY SOHASI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI**	245
9.1.	Jamiyatning ijtimoiy sohasi, uning mazmuni va ijtimoiy rivojlanishdagi roli	245
9.2.	Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati, maqsadi va vazifalari	250
9.3.	O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning maqsadi, yo‘nalishlari va ijtimoiy sohada davlat boshqaruvi	254
X BOB.	**DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH VAZIFALARI**	274

10.1.	Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlari va uning strategik maqsadlari	274
10.2.	Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo‘lish shakllari. Shaxs, korxona va davlatning iqtisodiy xavfsizligi	278
10.3.	Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari	282
10.4.	Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarining tahlikali chegaralari	289
XI BOB.	**O‘ZBEKISTONDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI**	299
11.1.	Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zaruriyati	299
11.2.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita va bevosita usullari	308
XII BOB.	**DAVLATNING BUDJET-SOLIQ (FISKAL) SIYOSATI**	323
12.1.	Davlat budjeti va uning iqtisodiy mazmuni	323
12.2.	O‘zbekistonda budjet tuzilishi va budjet tizimi	334
12.3.	Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tushunchalari va ularning tarkibi	343
XIII BOB.	**DAVLATNING INNOVATSION SIYOSATI**	358
13.1.	Davlatning innovatsion siyosati korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida	358
13.2.	Mamlakatda fan sohasida siyosat va uning asosiy yo‘nalishlari	363
XIV BOB.	**O‘ZBEKISTONDA AGRAR IQTISODIY SIYOSAT MOHIYATI, BOSQICHLARI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI**	386
14.1.	Mamlakatda agrar islohotlarning zaruriyati va mohiyati	386
14.2.	Agrar islohotlarning maqsadi, tamoyillari va huquqiy asoslari	419
14.3.	Agrar islohotlarni amalga oshirish bosqichlari. Agrar sohani rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni amalga oshirish	427
14.4.	O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalalari	432

XV BOB.	**DAVLATNING TRANSPORT-LOGISTIKA SIYOSATI**	442
15.1.	Xalqaro transport-logistika sohasining asosiy tushunchalarini tizimlashtirish	442
15.2.	Xalqaro transport-logistika sohasini rivojlantirish trendlari	451
15.3.	O‘zbekistonda transport-logistika sohasini rivojlantirish istiqbollari	464
XVI BOB.	**AXBOROT SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI**	476
16.1.	Axborot sohasida davlat siyosati va uning mazmuni	476
16.2.	Axborot sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish yo‘nalishlari	485
XVII BOB.	**ENERGETIKA SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI**	498
17.1.	Davlat energetika siyosatining asoslari va uni amalga oshirish bosqichlari	498
17.2.	2030-yilgacha bo‘lgan muddatda O‘zbekistonda energetika sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari	508
	GLOSSARIY	528
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	558

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

IQTISODIY SIYOSATGA KIRISH

DARSLIK

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2024

Muharrir
Badiiy muharrir
Rassom-dizayner
Sahifalovchi
Musahhihlar

Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011

Bosishga ruxsat etildi 24.12.2020. Bichimi 70x100 1/16.
«PT Serif» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i ____. Nashriyot-hisob tabog‘i ____.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma № __.

**«SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent sh., Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.**